

KIRISH

Tabiat boyliklari orasida yer, yer resurslari alohida xususiyatga ega bo'lib, qanday davlat bo'lmasin uning iqtisodiy qudrati yer resurslari bilan bog'liqdir. Jumladan, mustaqil O'zbekistonimiz xalqi hayoti, turmush tarzi, faoliyati va farovonligining tub asosi yer resurslaridan oqilona foydalanishga tayanadi. Shu sababli uni muhofaza qilish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir, deb ko'rsatilishi tabiiy resurslarga nisbatan davlat va xalqning egaligini belgilaydi. Masalan, yerga nisbatan davlat mulki deganda shuni tushunish kerakki, yer ustidan va barcha yer fondi toifalaridan hukmronlikni, ya'ni uni tasarruf qilish huquqini faqat davlat amalga oshiradi.

Davlat yerning egasi sifatida yerga oid hamma masalalarni hal eta oladi, ya'ni foydalanish uchun beradi, qaytarib oladi, yerdan foydalanish maqsadlarini belgilaydi, yer tuzish ishlarini amalga oshiradi va hokazo.

Zero, yer - umummilliy boylik deganda undan shu hududda yashaydigan xalqlarning manfaatini ko'zlab foydalanish tushuniladi yoki xalq bevosita yerning egasi hisoblanmaydi, ya'ni yer xalqning mulki hisoblanmaydi. U bu huquqni ma'lum davlat organlari orqali amalga oshiradi. Yerga nisbatan mulk huquqini xalq o'zicha, bevosita amalga oshira olmaydi.

Shuning uchun ham tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining sub'ekti - asosan davlat. Demak, davlat qonun asosida tabiat resurslaridan foydalanish va uni bekor qilish huquqiga ega bo'ladi, hamda qonun asosida uni boshqa foydalanuvchilarga beradi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida 20 mln gektardan ortiq, shu jumladan 4,3 mln gektar sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalanib, aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xom-ashyo yetishtirilmoqda.

Sugʻoriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv taʼminotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng koʻlamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Natijada 2008 - 2017 yillar mobaynida 1,7 mln gektardan ortiq sugʻoriladigan maydonlarning suv taʼminoti hamda 2,5 mln gektar maydonlarning meliorativ holatining yaxshilanishiga erishildi.

Biroq, global iqlim oʻzgarishi natijasida soʻnggi yillarda davriy ravishda kuzatilayotgan suv tanqisligi va ichki irrigatsiya tarmoqlarining asosiy qismi yaroqsiz holatga kelganligi sugʻoriladigan ekin yerlarining meliorativ holati yomonlashishiga va yillar davomida foydalanishdan chiqib ketishiga olib kelgan.

Foydalanishdan chiqib ketgan sugʻoriladigan va foydalanishga kiritiladigan hamda oʻrmon fondi yerlarining meliorativ holati, unumdorligi va suv taʼminotini yaxshilash texnologiyasini joriy qilganlik uchun qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga imtiyozlar berish tizimini yaratildi.

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan lalmi, yaylov va boshqa yerlarni foydalanishga kiritish maqsadida investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida foydalanishga kiritgan, yaroqsiz suv quduqlari, sugʻorish nasoslari, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini taʼmirlagan yoki ularni yangidan barpo etgan tadbirkorlik subʼektlariga davlat tomonidan kafolatlar berish.

Qishloq xoʻjaligi yer uchastkalarini ajratishning shaffof va tezkor tizimini yaratgan holda yanada takomillashtirish.

Qishloq xoʻjaligi yerlarining aniq hisobi yuritilishini va yangilab borilishini taʼminlash, har bir dala konturi kesimida maʼlumotlar bazasini shakllantirish maqsadida barcha hududlarni aerofotosʼyomkadan oʻtkazish.

Davlat yer kadastri maʼlumotlarining haqqoniy va toʻliq shakllantirilishini taʼminlash.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holati, unumdorligi va suv taʼminotini yaxshilash

texnologiyalarini joriy qilish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplab berish tartibini ishlab chiqish.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning unumdorligi va hosildorligi oshirilishini ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini belgilash.

Yer uchastkalari egalarining tuproq unumdorligini saqlash va oshirishni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni nazarda tutgan holda tabaqalashtirilgan soliq imtiyozlarini joriy qilish.

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlardan samarasiz foydalanganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish.

Yer va suv resurslaridan samarasiz foydalanishning oldini olishni, yerlarning unumdorligini oshirish va suvni tejovchi agrotexnik tadbirlarning amalga oshirilishini (agrotexnik reglament) huquqiy jihatdan tartibga solish.

Iqtisodiy jihatdan samarasiz, kam hosilli bog‘ va uzumzorlarni yaroqsiz deb topish va ekin yerlar toifasiga o‘tkazish tartibini belgilash zarur.

“Yerdan foydalanish asoslari” darsligida talabalar yerdan foydalanish va yer munosabatlari to‘g‘risida, yer munosabatlari tarixiy shakllanishi va rivojlanishi, yagona yer fondi va undan foydalanish, yer tuzish, mazmuni, mohiyati va yerdan oqilona foydalanishni tashkil etishdagi ahamiyati, qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish, yerlarni muhofaza qilish haqida to‘liq ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar.

Ushbu darslik 5410700 - “Yer tuzish va yer kadastri”, 5111000 – Kasb ta‘limi (5410700 - “Yer tuzish va yer kadastri”) bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan.

1-BO‘LIM. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YER MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI.

1-BOB. YER-TABIY RESURS HAMDA XALQ XO‘JALIGI TARMOQLARINING ISHLAB CHIQUARISH VOSITASI SIFATIDA

1.1.YERNI ISHLAB CHIQUARISH VOSITASI, HOLATI TO‘G‘RISIDAGI TUSHUNCHA

«Yer» so'zi har xil ma'noda ishlatiladi. *Yer tuzish fanida va amaliyotida quyidagi ta'rif qabul qilingan:*

Yer bu quruqlikning yuzasi, kengligi, relyefi, tuproq qatlami, o'simliklari, qazilma boyliklari, suvlari bilan tavsiflanuvchi tabiiy resurs; qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi va xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirish uchun kenglik asos (baza) hisoblangan ijtimoiy - iqtisodiy manfaatlar ob'ektidir.

Yer tabiat mahsuli sifatida paydo bo'lgan va inson ongi hamda irodasiga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir. U murakkab moddiy tizim sifatida ifodalanadi va yer to'g'risidagi tushunchaning turli-tuman mohiyatini o'z ichiga oladi.

Yerni ishlab chiqarish vositasi, holati to'g'risidagi so'z yuritishdan oldin albatta birinchi navbatda, yer to'g'risidagi umumiy tushunchaga ega bo'lmog'i zarur. Geografik nuqtai nazardan Yerning yuzasi sayyora deb tushiniladi. Yer quyosh tizimining uchinchi sayyorasi hisoblanadi.

Tabiiy muhitning ahamiyatli tarkibiy qismi - yer resurslaridir. U hududi, iqlimi, relyefi, tuproqlarining sifati, gidrologik sharoiti, o'simliklari va boshqa belgilari bilan tavsiflanadi, xalq xo'jaligi ob'ektlarini va aholini joylashtirish uchun kenglik asos, qishloq va o'rmon xo'jaliklarida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yer resurslaridan foydalanish suv manbaalariga, qazilma boyliklar zaxirasiga, o'simlik va hayvonot dunyosiga to'g'ridan - to'g'ri ta'sir etadi.

Mamlakatimiz yer resurslaridan oqilona, ekologik jihatdan xavfsiz foydalanish har bir fuqaroning, korxonaning va butun jamiyatning konsti-

tutsiyaviy burchi hisoblanadi. Qonun yerdan va yer osti boyliklaridan, suv resurslaridan, o'simlik va hayvonot dunyosidan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, suvning va havoning tozaligi va ularni saqlash, tabiiy boyliklarning tiklanishini ta'minlash bo'yicha barcha zarur choralarni amalga oshirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yer va boshqa tabiiy resurslar o'sha hududda yashaydigan xalqlar hayoti va faoliyatining asosi sifatida foydalanilishi va muhofaza etilishi belgilab qo'yilgan. Tabiiy resurslar tarkibida yer ularning hududiy, xo'jalik va ekologik o'zaro bog'liqliklarini va o'zaro munosabatlarini ta'minlovchi, tabiatdan foydalanishning kenglik asosi sifatida ajralib turadi. Qonunchilik yerning unumdorligiga zarar yetkazishni taqiqlaydi.

Yer tabiiy muhitning birlamchi o'zgarmas omillari jumlasiga kiradi, suv kengliklari, yer osti boyliklari, o'simlik, hayvonot dunyolari esa o'zlarining joylashishlari bo'yicha harakatlanuvchanlik harakteriga ega.

O'simlik qoplamasining yo'qolib ketishi yoki keskin o'zgarishi, hayvonlarning hozirgi sahro hududlaridagi va abadiy muzliklar mintaqalaridagi migratsiyasi va halokati to'g'risidagi ko'plab dalillar ma'lum. Mineral xom-ashyo va yonilg'iga boy bo'lgan konlarning zaxiralari kamayadi, suv resurslarining qayta taqsimlanishi yuz beradi.

Yer foydalanish jarayonida har xil sferalarga mansub tabiiy resurslarni birlashtiradi. Uning xo'jalikdagi qimmatini, tabiiy va paydo qilingan xususiyatlarining oqilona mujassamlashtirilishi va foydalanilishidan paydo bo'ladi va to'xtovsiz o'sib boradi. Tabiiy resurslarning o'zaro aloqalarini o'rganish atrof muhit mahsuldorligiga va foydaliligiga, qayta tiklanish imkoniyatiga, ahvoliga ijobiy ta'sir etuvchi tadbirlar majmuasini ishlash va amalga oshirish uchun zarur.

Iqtisodiy nuqtai nazardan yerga, an'anaviy tarzda, inson yordamisiz tabiat tomonidan yetkazilgan mehnat predmetlari to'plami sifatida qaralgan. Shuning uchun amaliy jihatdan hamma vaqt tabiiy muhitning qandaydir elementidan

foydalanish yerning sifatiga va tuproq unumdorligiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Yer resurslarini tiklanishi cheklangan tabiiy resurslar qatoriga kiritish ikkita sababdan kelib chiqadi: bir tomondan kenglik, hudud, yerning usti, quruqlik bilan suv nisbatining xususiy tarzdagi lokal o'zgarishlarini hisobga olmaganda qayta tiklanmaydi; boshqa tomondan-yer turlarining ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, yaxshilash, tiklash uchun imkoniyatlar amaliy jihatdan cheksizdir.

«Yer, odam – ishlab chiqarish» tizimi elementlarining oqilona o'zaro ta'siri quyidagi prinsipial masalalarni yechishni taqozo etadi:

- ❖ ishlab chiqarishning yer resurslariga salbiy ta'sirini ekologik xavfsiz darajagacha kamaytirish;
- ❖ yer resurslarining sifat xususiyatlarini ulardan foydalanishda (ayniqsa Qishloq xo'jaligida) maksimal to'la hisobga olish;
- ❖ odamlarning moddiy va ijtimoiy talablarini to'laroq qondirish maqsadida yerlarni yaxshilash va muhofaza qilish.

Tabiiy resurslar va sharoitlar yig'indisi yerning insoniyat faoliyatining har xil turlariga mosligi darajasini aniqlaydi. Ular bilan aholining ijtimoiy talablarini qondirish imkoniyatlari ham bevosita bog'langan.

Tabiiy muhit omillari qishloq xo'jaligida asosiy rol o'ynaydi. O'zbekiston yer fondini tabiiy – qishloq xo'jalik rayonlariga bo'lish ma'lumotlariga asosan, uning 95% hududi issiq va quriq, og'ir va noqulay iqlimli mintaqalarda joylashgan. Qolgan 5% esa tog' mintaqalarida joylashgan. Hududning tabiiy unumdorligi juda past. Shuning uchun respublikamizda yerdan dehqonchilikda foydalanish sug'orishga asoslangan.

Jamiyatning to'xtovsiz o'sib boruvchi talablarini qondirish yer resurslaridan yuqori intensivlikda foydalanishga olib keladi. Shuning uchun tabiiy majmualarni takomillashtirish va rivojlantirish, ularning xo'jalik qiymatlarini oshirish

maqsadida atrof muhit omillarining o‘zaro ta’sirlarini ilmiy asosda amalga oshirish kerak.

Qayta tiklanmaydigan mineral resurslar uchun ularni tejash va atrof muhitga salbiy ta’sirini cheklab, to‘la qayta ishlash prinsipial ahamiyatga ega. Qayta tiklanadigan resurslardan foydalanishda ularning foydali xususiyatlarini kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishda va berilgan harajatlarda son va sifat ko‘rinishida eng ko‘p samara olish tamoyiliga rioya qilish kerak.

Yerdan oqilona foydalanishni, mintaqaviy tabiiy tizimlarni rivojlantirishga kompleks yondashishda uning ishonchli muhofazasini ta’minlashdan ajratib bo‘lmaydi. Yerni himoyalash tadbirlarining mazmuni yerga xo‘jalik ta’sirining kuchayishiga mos kelishi, tuproqlar unumdorligining to‘xtovsiz oshishiga yordam berishi kerak.

Bizning davlatimizda uzoq vaqtlargacha yerdan tekin foydalanish tamoyili amalda bo‘ldi, yetishtirilgan mahsulotning asosiy qismi esa davlat tomonidan tasarruf etildi. Bularning hammasi xo‘jalik yuritishning normal iqtisodiy mexanizmi yaratilishiga, ob’ektiv baho belgilashga to‘sqinlik qildi, korxonalarning yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishdan manfaatdorliklarini susaytirdi. Faqat o‘tgan asrning 70 yillaridan boshlab qishloq xo‘jaligining unumdor yerlari noqishloq xo‘jalik maqsadlari uchun olinganda qoplama to‘lana boshladi, biroq ular to‘la hajmida to‘lanmadi. Hozirgi O‘zbekiston qonunchiligida yerdan va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish uchun yer solig‘i va ijara haqi shakllarida to‘lovlar ko‘zda tutilgan. Yerning joylashgan o‘rni va tabiiy unumdorligidagi farqlar natijasida qishloq xo‘jaligida paydo bo‘ladigan differensial yer rentasini, shu jumladan, korxonalarning moliyaviy vositalarini yer resurslarini qayta tiklash va muhofaza qilish uchun jalb etish maqsadida, iloji boricha to‘laroq hisobga olish, vazifasi qo‘yiladi.

1.2. TABIAT, JAMIYAT VA INSON. ATROF-TABIIY MUHITNING HOZIRGI ZAMON HOLATI

Tabiat - keng ma'noda - borliq, olam va uning xilma-xil shakllari; tor ma'noda - kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish manbai bo'lgan atrof tabiiy muhit. Jamiyat va tabiat tizimini ko'rib chiqayotganda ikkinchi tor ma'nodagi tushuncha qo'llaniladi. Chunki inson o'zining hayoti davomida butun borliqdan emas, balki uni o'rab turuvchi va uning ta'siri doirasida turgan atrof tabiiy muhitdan foydalanishi mumkin.

Shu tariqa insoniyat tarixida jamiyat bilan tabiat o'rtasida to'xtovsiz va xilma-xil o'zaro ta'sirlar ro'y berib kelgan. Ammo tabiat insonlarsiz bu moddiy dunyoda hukm surib kelgan, lekin insonlar tabiatning bir bo'lagi bo'lib, ular tabiatsiz hayot kechira olmaydi. Insonlar o'z hayoti uchun zarur bo'lgan, barcha narsani tabiatdan oladi. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh uchun xom-ashyo, qurilish uchun binokorlik materiallari, nafas olish uchun atmosfera havosi, ichish uchun suv, dam olish uchun go'zal landshaftlar va h.k. Shunday qilib inson hayoti davomida foydalanilgan barcha narsalarni tabiiy modda va kishilar faoliyatining mahsulidir.

Jamiyat - keng ma'noda insonlarning tarixan qaror topgan birgalikdagi faoliyatlari majmui yoki tor ma'noda - ijtimoiy munosabatlarning konkret tipi. Shunday qilib, aqliy mehnat faoliyatiga ega bo'lgan insonlar yig'indisi bo'lgan jamiyat atrof tabiiy muhit bilan passiv (sust) emas, balki aktiv (faol) ta'sir doirasida bo'lishi muqarrardir.

Inson - tirik organizmlar turkumiga kiruvchi murakkab ijtimoiy va mehnat faoliyatini yurgazuvchi individ. Inson tarixiy - jamoat jarayoni subyekti bo'lib, u Yer kurrasidagi moddiy va ma'naviy-madaniy rivojlanishning asoschisidir. Inson boshqa turdagi tirik mavjudotlar bilan genetik bog'langan holatda, lekin ulardan ongining yuqoriligi, mehnat qurollarini ishlab chiqara olishi, nutqning rivojlanganligi, ijodiy faolligi hamda axloqiy, ma'naviy va ruhiy o'z-o'zini anglay olishi bilan ajralib turadi.

Ingliz olimi Ch.Darvinning ta'limotiga ko'ra, insonlar hayvon- larning ma'lum bir turlarini mehnat faoliyati aktivlashuvi, ya'ni kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi mobaynidagi evolyutsion rivoj- lanish mahsuli. Lekin fan va texnika yutuqlari bunday ta'limotning mutloq to'g'ri emasligi haqidagi ma'lumotlarga ega va boshqa gipotezalarni oldinga surmoqda. Nima bo'lganda ham kishilar jamiyati mana bir necha million yildirki Yer kurrasida tabiat bilan o'zaro uzviy bog'langan holda yashab kelmoqdalar va bu bog'liqlik kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, Yer yuzida sodir bo'layotgan tabiiy jarayonlarning 9/10 qismida inson faoliyatining mahsuli aks etmoqda. Bu jarayonlarni doimo ham ijobiy deb bo'lmaydi. Chunki ekologik xavfsiz muhit, ya'ni insonlarning muhim hayotiy manfaatlari va avvalambor toza, sog'lom, qulay tabiiy sharoitga ega bo'lish talabini to'la qondirishga qodir bo'la oladigan atrof tabiiy va ijtimoiy muhit holati inqiroz va talafot tomon intilib bormoqda.

Agarda jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga inson hayotining tarixi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, ularni quyidagi munosabat shakllariga ajratsak bo'ladi:

- ❖ oddiy;
- ❖ oddiy-iqtisodiy;
- ❖ iqtisodiy;
- ❖ iqtisodiy-ekologik;
- ❖ ekologik.

Jamiyat va tabiat o'rtasidagi oddiy munosabat shakli - kishilarning ekologik tizimni buzmaydigan soddalashtirilgan hayot tarzi. Ekologik tizim (ekotizm) - tirik organizmlar majmui va ularning yashash muhiti yig'indisi bo'lib, tirik organizmlar o'zaro va atrof tabiiy muhit bilan uzviy aloqadorlik qonuniyatlari asosida bo'lgan holati. Bu shakl kishilarning ibtidoiy jamoa tuzumidagi hayot tarziga, ya'ni insoniyat tarixining ilk ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasi davriga xosdir.

Kishilar faoliyatining tabiatga oddiy-iqtisodiy ta'siri davrida ma'lum bir hududlarda sezilarli darajada ekologik xavfsiz muhitga ta'sir etgani uchun ham qadimgi yozuv va qonun kuchiga ega bo'lgan kitoblarda tabiatga nisbatan insonlarning ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari ko'rsatilib o'tilgan. Masalan, zardo'shtlarning «Avesto» kitobiga binoan bolalar yoshligidanoq daraxt ko'chatini o'tkazishlari shart bo'lgan. Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir. Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi jazosiga mahkumdir. Lekin bu kitobda ekologik jazo sifatida bir turdagi tabiiy ob'ektni buzgani uchun ikkinchi bir turdagi tabiiy ob'ektdan qutulishni ham me'yor qilib qo'yganlar. Suvni iflos qilgan yoki ov itini o'ldirgan kishi 10000 ruhiyatni tetiklashtiradigan o'simlik bargi terishi, 1000 ta echkeemar, 1000 ta suv qo'ng'izi va kasallik tarqatuvchi pashshani o'ldirib, gunohini yuvishi lozim bo'lgan.

Qadimgi Vavilonda shoh Hammurapi tomonidan «O'rmonlar muhofazasi»ga oid qonun bor yo'g'i shohning tiriklik davrida (eramizdan avval 1792-1750-yillarda) hukm surgan xolos. Xuddi shunday holat er.avval III asrda Hindiston rojasi Ashoki qaroriga «Hayvonot dunyosini ovlash qoidalari» ham taalluqlidir.

Shunday qilib, ekologik xavfsiz muhit inqirozi kishilar faoliyatining atrof-muhitga antropogen ta'sirining uch oqibatlar majmui - tabiiy resurslar kamayishi, atrof-muhit ifloslanishi va ekologik tizimlarni buzilishi mahsulidir.

Tabiiy resurslar kamayishi - kishilarning xo'jalik va boshqa hayotiy faoliyati manbai bo'lgan tabiiy ob'ektlarning yo'qola borishidir. Mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, «insoniyat sivilizatsiyasi» davrida, to'g'rirog'i iqtisodiy madaniyatlashgan kishilarning izchil faoliyati davrida Yer kurrasidagi o'rmonlarning 2/3 qismi kesilib ketdi, 250 xil turdagi hayvon va o'simliklar yo'q bo'lib ketdi, 3-4 mlrd. gektar yer qishloq xo'jalik oborotidan chiqarib yuborildi, atmosfera havosidagi kislorodning zaxirasi 10 mlrd. tonnaga kamaydi. Keyingi 100 yil ichida, fransuz olimi A.Gerrenning ma'lumotlariga ko'ra, tuproq eroziyasi va texnogen buzilishi 2 mlrd. gektar yerni unumdorligini yo'qotib yuborgan. Shu

kunlarda Yer kurrasida 1 daqiqada 20 ta o'rmon kesilmoqda, kuniga bir turdagi hayvonot yoki o'simlik turi qizil kitobga kiritilmoqda.

Tabiiy resurslarning kamayib borishidan tashqari atrof tabiiy muhitning ifloslanishi ekologik tizimlarning buzilishiga, modda va energiya almashuvining tabiiy holatda kechishiga keskin ta'sir qilmoqda. Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi deb tabiiy moddalar (tuproq, suv, yer osti boyliklari, atmosfera havosi) tarkibining fizik va kimyoviy o'zgarishiga aytiladi. Agarda bunday o'zgarish inson hayotining faoliyati bilan kechsa - antropogen ifloslanish, uning ishtirokisiz kechsa - tabiiy ifloslanish deyiladi.

Ekologik inqiroz - jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabat muvozanatining barqaror ravishda buzilishi natijasida atrof tabiiy muhit holatining yomonlashib borishi, davlat boshqaruv va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuzaga kelgan holatdan chiqa olmasliklari, ekologik tizimlarni tiklash imkoniyatlarining yo'qolishi, tabiiy muhit inqirozi yoki ijtimoiy muhitning falokatidir. Ekologik inqirozga misol qilib, Orol dengizi va uning atrofidagi holatini olsak bo'ladi. Qirq yil mobaynida Orol dengizi akvatoriyasi 7 baravar qisqardi, suv hajmi 13 marta kamaydi, uning minerallashuvi esa o'nlab baravar oshib, dengizni tirik organizmlarning yashashi uchun yaroqsiz ahvolga keltirdi. Natijada qariyb barcha hayvonot va nabotot olami tanazzulga uchradi va yo'qoldi .

Aholi soning ko'payishi va suvga bo'lgan ehtiyojning ortishi, yangi yerlarni jadal o'zlashtirish, sug'orma dehqonchilikni yanada rivojlantirish, suv taqchil bo'lgan yillarning muntazam takrorlanib turishi eng yangi tarixdagi yirik global ekologik halokatlardan biri sodir bo'lishiga - sayyoramizdagi eng chiroyli suv havzalaridan birining qurib borishiga olib keldi. Qachonlardir dunyoda eng katta ko'llar toifasiga kirgan Orol dengizi insoniyat ko'z ongida halokatga yuz tutib bormoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlarining birgalikdagi sa'yi-harakatlari tufayli 1995-1997-yillarga kelib, Orolga suv quyilishi

15-17 kub km.gacha ko'paytirildi. Yopiq havzaning suv taqsimoti xalqaro shartnoma va deklaratsiyalar orqali tartibga solinmoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining ilk bor qabul qilgan ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi qonunlaridan biri «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi 1992-yil 9-dekabr qonuni. Bu qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan bir qatorda qabul qilingan bo'lib, undagi prinsip va me'yorlar tabiat bilan jamiyat munosabatlari o'zaro uyg'unlashgan holda bo'lishini taqozo qiladi. Mamlakatimiz yosh, tez sur'atlar bilan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti tomon olg'a borayotgan davlatlar toifasiga kiradi. Iqtisodiy rivojlanish, vaqtinchalik, juda boy (100 ga yaqin mineral xom-ashyo turidan foydalaniladi) tabiiy resurslardan foydalanishga suyangan holda amalga oshmasdan iloji yo'q. Shuning uchun ham milliy qonunchiligimiz orqali tabiat in'omlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish shakli iqtisodiy-ekologik ko'rinishdadir. Qabul qilingan ekologiyaga oid 100 dan ziyod qonunlar tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qila oladi, lekin bu qonun me'yorlarini hayotga tatbiq qilishning iqtisodiy, huquqiy, siyosiy chora-tadbirlarini ishlab chiqish shu kunning dolzarb masalalari turkumiga kiradi.

Ekologik konsepsiya - tabiat va jamiyatning o'zaro ta'siri to'g'risidagi qarashlar tizimi, ya'ni jamiyat qonunlari bilan tabiat qonunlarining o'zaro harakat yo'nalishlari o'rni, ahamiyati va mohiyati haqidagi dunyoqarash.

Jamiyat qonunlari - kishilarning xatti-harakatlarini yoki biron-bir ob'ektga nisbatan munosabatini belgilaydigan huquqiy-me'yorlar yig'indisi.

Tabiat qonunlari - kishilarni o'rab turuvchi tabiiy muhitda kechayotgan voqea, hodisa, jarayonlarning jamiyat qonunlariga bo'ysunmaydigan va kishilar faoliyatisiz namoyon bo'la oladigan kechinmasi. Tabiat qonunlariga quyidagilar kiradi: tabiiy omillarning birgalikda harakat qilishi, tabiiy modda (suv, energiya, kislorod, uglerod va shu kabi)larning katta va kichik aylanishi, modda va energiya saqlanish, tabiiy resurslarning kamaya borishi, evolyutsion tezlanish, tirik organizmlarning evolyutsion rivojlanishi va h.k.

Naturalistik konsepsiya - jamiyatdan ustun turuvchi tabiatni ilohiy kuch, dono yaratuvchi, ideal borliq deb qaraydigan falsafiy oqimlar va maktablar. Bunday qarashlar tizimi tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning oddiy va oddiy-iqtisodiy shakli davridagi kishilarga xos dunyoqarash. Shuning uchun ham ularning xudosi suv, olov, yer va boshqa tabiat ob'ektlari yoki hodisalari bo'lib kelgan. Ular shu muhitda tabiatning bir bo'lagi sifatida yashab kelganlar va o'zgacha yashashni tushuna olmaydilar ham.

Naturalistik konsepsiyasiga qarama-qarshi dunyoqarash iste'molchilik konsepsiyasi - jamiyat qonunlarini tabiat qonunlaridan ustun yoki kishilarni tabiat ustidan hukmronlik g'oyasini ilgari suradiganlar. Bunday g'oya namoyondalari jamiyatni iqtisodiy munosabat shakliga olib kelganlar. Bu oqimga kiruvchilar asosan bozor munosabatlari shakllana boshlagan kapitalizmning boshlang'ich davrida turgan «yangi biznes» sohiblaridir. Ular haqida buyuk amerikalik yozuvchi Djek London o'zining o'lmas asarlarida aks ettirgan va ularning «oltin orqasidan quvib, butun borliqdagi tabiatni faqatgina iqtisodiy talablarini qondirish manbai deb qaraydiganlar» deb atagan.

Alarmizm namoyondalari ma'lum bir yagona partiyaga birlashmaganlar va aniq bir dunyoqarashga ham ega emaslar, lekin ularning ekologik inqirozning oldini olishga bor kuch va bilimlarini sarf qilayotgan olimlar, ishchilar, maishiy-xizmat va sport sohasida ishlaydigan turli kasb sohiblari bo'lib, «Grinpis», «Yashillar partiyasi», «Kedr» kabi oqimlarga birlashganlar. Ularning soni 10 dan oshib ketgan va o'z saflariga 30 mln.dan oshiq kishilarni birlashtirganlar.

Tabiatga aralashmaslik konsepsiyasini harakatsizliklar strategiyasiga kiritish mumkin. Chunki, birinchidan - ekologik tizimlarni ayrim hudud va mintaqalarda buzilganligiga befarq, aralashmasdan qarab turib bo'lmaydi. Ikkinchidan, Yer kurrasida yashayotgan 7 mlrd.dan ziyodroq aholini moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga majburmiz. Tabiatga aralashmaslik prinsipini alohida bir muhofaza etiladigan tabiiy hududlar biosfera qo'riqxonasi va qo'riqxonalarda

amalgga oshirsa bo'ladi, lekin ommaviy tarzda tabiatdan ajralgan insonlarning hayotini tasavvur qilish qiyindir.

Atrof tabiiy muhitga kishilarni moslashtirish orqali ekologik inqirozdan chiqib ketishni tavsiya etayotganlar bir tomonlama ekologik tizimlarni tashqi kuchlarga nisbatan qarshi turish (buferlik) va o'z-o'zini tiklash qonuniyatlariga ishongan holda insonlarning harakat doirasini shunga monand ravishda olib borishni tavsiya etsalar, ikkinchi tomondan, kishilarni tarixan atrof-muhitga moslashib borishining evolyutsion jarayonlarini jadallashtirishni yoqlab chiqadiganlar. Bu konsepsiya namoyondalarini tabiat qonunlarini jamiyat qonunlariga ko'chirishga urinayotganlar desak mubolag'a bo'lmaydi. Afsuski, bu qonunlar hozirgi insoniyat tarixi bosqichida ko'pincha bir-biriga zid kelmoqda va biri ikkinchisini inkor etishi mumkin.

O'sish chegarasi va organik rivojlanish konsepsiyasi namoyondalari Yer kurrasi resurslari imkoniyatlariga monand ravishda, ilmiy-texnik va insonlarning o'sish chegarasini belgilash yoki bunday ilmiy asoslangan o'sishni chegaralashni ma'lum bir region (mintaqa), hudud yoki ma'muriy chegarada amalga oshirishni tavsiya etadi.

Afsuski, ilmiy-texnikaviy jihatdan rivojlanmasdan turib tez sur'atlarda o'sib borayotgan aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirib bo'lmaydi. Ilm-fanni «konservatsiya» qilish va insonlarning o'sishini «nol» variantga tushirish 5-10 yilda amalga oshiriladigan tadbirlar emas. Bu jarayon uzoq va katta kuchni talab qiladigan tadbirlardandir.

Global boshqaruv konsepsiyasi namoyondalari atrof tabiiy muhit komponentlari yagona bir tizimda harakat qiladi va ular ajralmasdir degan g'oyani olg'a suruvchilardir. Shuning uchun ham atrof tabiiy muhitni saqlab qolish ma'lum bir hudud yoki mamlakat doirasida emas, balki xalqaro miqyosda, butun dunyo hamjamiyatining birgalikdagi tadbiri orqali amalga oshirilishini, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun davlatlar ustidan turuvchi yagona bir tashkilotni tuzishni, ushbu tashkilot nafaqat boshqaruv, balki nazorat

vakolatiga ega bo'lishini yoqlab chiqadilar. Ularning fikricha, BMTning YUNEP, YUNESKO, VOZ, MOP degan tashkilotlari hozirgi kunda faqatgina davlatlarning ekologiya borasidagi faoliyatini kuzatadilar va faktlarni keltirish bilan cheklanadilar. Afsuski, bunday oqim namoyondalari Yer kurrasidagi hamma davlatlarning suveren huquqi bo'lmish tabiiy resurslardan o'z qonunlariga binoan foydalanish imkoniyatlarini osonlikcha berib qo'ymasliklarini inobatga olishmaydi. Lekin, bizning fikrimizcha, ekologik global boshqaruv tizimiga insoniyat oldinmi-kechmi albatta yetib boradi. Chunki, ma'lum bir joydagi ekologik inqiroz, mahalliy ekologik inqiroz emas, balki global ta'sir kuchiga ega bo'lgan inqiroz ekanligi hammamizga ayondir.

Muhofaza qilish va rivojlanish konsepsiyasi namoyondalari jamiyatning ekologik talablarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish talablariga moslashtirishni taklif qiladilar. Bu oqim qarashlari rivojlangan davlatlarda keng targ'ib qilinyapti.

Ekologik revolutsiyalar konsepsiyasi - siyosiy tuzum va kishilarning ekologik dunyoqarashlarini keskin ravishda - revolyutsion yo'l bilan iste'molchilik psixologiyasidan ekologik talablar doirasiga o'tkazish. Ammo bu taklif qanchalik yaxshi bo'lmasin, quyidagi qoidani esdan chiqarmaslikka undaydi: kishilik jamiyatida (tabiatdagi singari) revolyutsion yo'l bilan biron-bir tadbirni amalga oshirish ularda salbiy oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Sotsialistik konsepsiya asoschilari K.Marks va F.Engels tomonidan keng ta'riflangan dunyoqarash atrof tabiiy muhit holatini inobatga olib jamiyat kuchlarini bir me'yorda rejali rivojlantirishni yoqlab chiqadiganlar. Albatta, bu dunyo qarash amalda o'z ifodasini topa olmadi. Tabiatni biron-bir mamlakat darajasida muhofaza qilish yoki undan foydalanish ekologik holatga emas, balki iqtisodiy - ijtimoiy, siyosiy holatga qarab olib borilishini isbot qildi. Tabiiy resurslarning aniq hisobini olish va ulardan rejali foydalanish biron-bir hudud yoki mamlakatda emas, balki butun bir hudud yoki Yer kurrasi bo'yicha global holda amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan ekologik konsepsiyalardan tashqari dunyoning turli joylarida, turli dunyoqarashga ega bo'lgan qarashlar tizimidagi partiyalar, oqimlar, harakatlar, kengashlar, jamg'armalar mavjud. Lekin, bizningcha, ekologik konsepsiya - tabiat qonunlari bilan jamiyat qonunlarini o'zaro uyg'unlashgan va ilmiy asoslangan holda rivojlanshini yoqlab chiqadigan qarashlar tizimidir. Aks holda boshqacha qarashlar tizimi noekologik konsepsiyalar tizimiga kiradi.

Shunday qilib, biz tabiat va jamiyat o'rtasidagi turlicha munosabat shakllarini ko'rib chiqdik. Lekin insonlarning tabiatga nisbatan dunyo-qarashlari ularning xarakteriga o'xshab turlicha bo'lishi tabiiy holdir. Buyuk olim o'rta asrning ulug' faylasufi bobokalonimiz A.N.Forobiy aytganidek, «kishilarning dunyoqarashlari, ularning tashqi ko'rinishiga o'xshab turlicha bo'ladi va fazilat ularning ilmiga, hayot tarziga, yashash muhitiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir». Biz ham o'rta asrning ulug' faylasufi A.N.Forobiyning fikriga qo'shilgan tarzda ekologiya borasidagi dunyoqarashlarni ko'rib chiqamiz. N.F.Reymers: «Ekologiya keng ma'noda insonlarni yashab ketishi haqidagi ta'limot», deb bejiz aytmagan. Chunki insonlarning Yer kurrasida yashash muddati ularning ekologik dunyoqarashlarini amalda tatbiq qila olish imkoniyati bilan belgilanadi.

1.3. ASOSIY TABIIY RESURLAR TURLARI VA ULAR TO'G'RIDA TUSHUNCHA.

Tabiiy jismlar va energiya turlariga resurslar deyiladi. Resurs so'zi fransuzcha bo'lib “Yashash vositasi” degan ma'noni anglatadi. Tabiiy resurslar insonlarning yashashi uchun zarur bo'lgan asosiy manbadir.

Insoniyat tabiat qo'ynida paydo bo'ldi, ulg'aydi, hozirgi intellektual yetuklik (sivilizatsiya) darajasiga yetdi. U ana shu evolutsion rivojlanishi davomida tabiatdan asosiy yashash vositalarini oldi, uni chuqur o'zgartirishga erishdi va o'z navbatida unga o'z ta'sirini o'tkazib keldi. Boshqacha aytganda, o'tgan uzoq tarixiy davrlar davomida insoniyatning tabiatga, tabiatning esa inson hayotiga o'zaro ta'siri uzluksiz kuchayib bordi. Binobarin, taraqqiyot jarayonining barcha

davrlarida insoniyat tarixini uning tabiat bilan o'zaro aloqalari tarixi ham deb hisoblash mumkin. Ana shu uzluksiz, tobora kuchayib borgan o'zaro aloqalar jarayoni jamiyat va tabiatning hozirgi holatiga olib keldi.

Jamiyatning rivojlanishi jarayonida zamin bo'lgan "Ona Yer", "Ona Tabiat" insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki davrlaridan to hozirgacha o'z boshidan katta o'zgarishlarni o'tkazdi. Jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida inson, asosan, tabiat bergan ne'matlar hisobiga yashagan. U ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullangan, o'simlik ildizlarini yig'ib kun kechirgan. Tabiiyki, u davrlarda kishilar o'simlik va hayvonlarga boy bo'lgan, asosan, iliq va nam hududlarda jamoa bo'lib yashashga intilganlar. Inson hayotining ushbu bosqichlari fanda ibtidoiy jamoa davri deb ataladi.

Insoniyat hayotining 2-bosqichida dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari rivojlana bordi. Aynan shu davrlardan boshlab Nil, Dajla va Frot, Hind va Gang, Xuanxe va Yanszi, Amu va Sirdaryo vodiylari, Qadimiy Yunoniston va Rim davlatlari ana shunday katta ijtimoiy o'zgarishlarga erishgan hududga aylandi.

Yillar, asrlar o'tishi davomida jamiyat bilan tabiatning o'zaro ta'siri ham sekin-asta kengayib bordi. Avvalo insonning tabiatga ta'siri kuchaya bordi. Bular, o'z navbatida jamiyat hayotida tobora katta o'zgarishlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Asta-sekin aholi soni ortib bora boshladi. Shu sababli jamiyat taraqqiyotining 3-bosqichi hisoblanmish o'rta asrlar davrida yer, mineral va o'rmon resurslarini kengroq o'zlashtirishga kirishila boshlandi. Karvon yo'llari (Buyuk ipak yo'li) orqali hududlararo aloqalar kuchaya bordi. Aholining ko'paya borishi yerlarga ishlov berishni kuchaytirish va yangi hududlarni o'zlashtirishga undadi.

Bunday o'zgarishlar eng avvalo, «Eski dunyo» hududlariga, ya'ni G'arbiy Yevropa, Osiyoning janubiy mintaqa kengliklarida joylashgan mamlakatlariga xosdir. Tabiiyki, o'rta asrlar davrida aholining yashash hududlari yanada kengaydi.

Bular, eng avvalo. Kashf qilingan «Yangi dunyo» deb atalmish Amerika va Avstraliya qit'alarining o'zlashtirila borishi misolida o'z ifodasini topadi.

Jamiyat bilan tabiatning o'zaro ta'siri jarayonining 4-bosqichda inson tomonidan tabiatni o'zlashtirish ancha tezlashdi. Ayniqsa, Yevropada ishlab chiqarish kuchlarining yanada rivojlanishi xilma-xil tabiiy resurslarni o'zlashtirish sur'atlarini keskin tezlashtirdi. Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya, Afrika, shuningdek, insoniyatning eng qadimiy beshiklaridan Osiyo hududlarini to'laroq egallash, ulami mustamlakalarga aylantirish va iqtisodiy jihatdan o'zlashtirish harakatlari mazkur taraqqiyot bosqichining asosiy mazmuniga aylangan edi. Tabiiyki, bu holat Yevropada sanoat rivojlanishida tub burilishlarning boshlanishiga asos bo'ldi. Dunyo miqyosida tabiiy landshaftlarning tez suratlarda o'zlashtirilishi (bo'sh yotgan yerlarning haydalib ekin maydonlariga aylantirilishi, tabiiy va ijtimoiy boyliklarning ayoviz ishga solina borishi, temiryo'llar qurilishining avj olishi kabilar) natijasida inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'siri sekin-asta kuchayib boradi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan hozirgi fan-texnika inqilobi davrida jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar faolligi o'zining eng yuqori darajasiga yetdi. Bu bosqichda «Jamiyat - tabiat» ning o'zaro munosabatlarida jamiyatning faolligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu davrga kelib inson tomonidan yer yuzasi tabiatini keng miqyosda o'zlashtirishga erishildi. Ayniqsa, FTI davrida turli tabiiy resurslardan foydalanish sur'atlarining tinimsiz ortib borishi, tabiatga murakkab tarkibli, ko'p hollarda har taraflama zaharli sanoat va boshqa turdagi chiqindilarning tinimsiz chiqarib tashlanishi tobora «Jamiyat-tabiat» o'rtasidagi o'zaro munosabatlardagi muvozanatning buzila borishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat insoniyat o'z oykumena (grekcha oikeo - yashayman, joylashaman, ya'ni yer yuzasining aholi jashaydigan aholi istiqomat qiladigan qismi demakdir) chegaralarini tinimsiz kengaytirib bordi. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra hozirgi vaqtda inson tomonidan o'zlashtirilgan antropogen landshaftlar dunyo quruqligining 60 foizidan ortiqroq maydonini egallaydi.

Ayniqsa, quruqlikning 20 foiz qismida tabiiy landshaftlar tubdan o'zgartirilgan: ular shahar va qishloqlar, industrial ishlab chiqarish ob'yektlari, ekinzor va bog'lar, yo'llar va suv omborlari qo'lda ekilgan o'rmonlar va istirohat joylaridir.

Demak, inson o'z hayoti sharoitini takomillashtirish va ko'lamini kengaytirishi yo'lida sayyoramizning mintaqalarida tabiat imkoniyatlaridan tobora ko'proq foydalanishga harakat qildi hamda shunga erishdi, o'ziga xos yashash muhitini yaratdi. Fanda bu geografik muhit deb ataladi. Shunday qilib, jamiyat o'z ijtimoiy faoliyati davomida tabiatdan ko'proq resurslarni oladigan va ayni vaqtda, tabiatga tobora ko'proq turli xil chiqindilarni chiqarib tashlaydigan bo'lib qoldi.

O'z navbatida, bu jarayon insoniyat oldiga bir-biri bilan bog'liq bo'lgan:

1. Tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish;
2. Atrof-muhitni ifloslantirishda muhofaza qilishdek juda dolzarb muammolarni qo'yadi.

Insoniyat o'z hayoti va ijtimoiy faoliyati davomida turli xil tabiiy resurslar (boyliklar) dan foydalanadi.

Tabiiy resurs deb, inson hayoti va faoliyai davomida bevosita foydalaniladigan barcha tabiat ne'matlariga aytiladi.

Yer shari juda ko'p va xilma-xil tabiiy resurslarga ega. Tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik deganda, tabiiy resurslarning umumiy ko'lami ko'rsatkichlari bilan ulardann foydalanish miqdori o'rtasidagi nisbat tushuniladi. U tabiiy resursning necha yillargacha yetishi yoki resurs zaxirasining aholi jon boshiga qanchadan to'g'ri kelishi bilan ifodalanadi.

Ko'pchilik tabiiy resurslar, eng avvalo, turli moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari uchun qimmatli xom-ashyo hisoblanadi. Shu sababli sanoat xomashyolari bilan ta'minlanish muammosi ko'pchilik mamlakatlar oldida dolzarb bo'lib turadi.

Tabiat resurslari, tabiiy boyliklar - jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida xo'jalikda foydalaniladigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan, uni o'rab turgan tabiiy muhitning

barcha tabiat komponentlari, energiya manbalari. Tabiat resurslariga Quyosh energiyasi, Yerning ichki issiqligi, suv, yer, mineral boyliklar, o'simliklar, tuproklar, hayvonot dunyosi kiradi.

Tabiat resurslari tugaydigan (ko'pgina foydali qazilmalar), tugamaydigan (suv, havo, Quyosh nuri, Yerning ichki energiyasi) va tiklanadigan (biologik elementlar, ayrim foydali qazilmalar) boyliklarga bo'linadi. Tabiiy xom-ashyolarni ko'p darajada iste'mol qiluvchi kuchlarning jadal rivojlanishiga bog'liq ravishda tabiat resurslari bilan ta'minlash muammolari yanada dolzarblashib bormoqda. Tuproq, atmosfera va gidrosferaning ifloslanishiga qarshi kurashishda jahonning barcha mamlakatlari kelishib faoliyat yuritishlari zarur bo'lib, tabiat resurslari muhofazasi global xarakterga ega bo'lmoqda. Tabiat resurslarini o'zlashtirishning muhim bosqichlari - ularni aniqlash (razvedka qilish), o'rganish, alohida turlari bo'yicha kadastrlar tuzishdan iborat. O'zbekiston Respublikasida Tabiat resurslari kadastrlarini tuzish va yuritish O'zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to'g'risida" qonuniga muvofiq olib boriladi.

Tabiat resurslarini baholashning ilmiy asoslangan 3 tipi mavjud: texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy. Tabiat resurslarini to'g'ri baholash ulardan foydalanishda eng yuqori samaralarga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Inson tafakkuri o'sishi bilan bog'liq holda Tabiat resurslari turlari ham kengayib bormoqda, bunda eng zamonaviy texnik vositalardan foydalaniladi. Ilmiy-texnik taraqqiyotni rivojlanib borishi bilan tugaydigan tabiat resurslari o'rnini bosuvchi yangi sun'iy materiallar ishlab chiqarilmoqda, Dunyo okeani boyliklari o'zlashtirilmoqsa. Ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanishi yo'lida Tabiat resurslaridan samarali foydalanish va tabiatda ekologik muvozanatni ta'minlab turuvchi yangi sifatli texnologiyalarni yaratish talab etilmoqda. Xom-ashyo va energiya manbalaridan rejali tarzda foydalanish uni uzoq muddatga yetishini ta'minlaydi. Tabiatda amalda tugamaydigan tabiiy resurslar ham mavjuddir. Ular quyosh nuri, shamol, dengiz va okeanlar, yerning ichki (geotermal) energiyasidir. Tabiiy resurslar yer yuzasi bo'ylab notekis joylashgan. Fors qo'ltig'i mamlakatlari neft va tabiiy gazga, Arab

mamlakatlari mis va molubden rudalariga, Shimoliy yarimsharning o`rta kengliklari va ekvatorial mintaqa hududlari o`rmonlarga ancha boy. Rossiya, AQSH, Xitoy, Kanada, Braziliya, Avstraliya kabi bir qator ulkan davlatlar amalda tabiiy resurslarning deyarli barcha xillari bilan yaxshi ta`minlangan. Shuningdek, ko`pgina mamlakatlar muhim tabiiy boyliklarning bir yoki bir necha turlarigagina ega. Jahonda uchinchi xil mamlakatlar, masalan: Andorra, Okeaniya va Karib havzasidagi bir qator mamlakatlar tabiiy boyliklar, ayniqsa, mineral boyliklar bilan yetarli darajada ta`minlanmagan.

Tabiiy resurslardan ratsional foydalanish va uni muhofaza qilishni to`g`ri tushuntirish uchun ularni turlarga bo`lib o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy resurslar quyidagi turlarga bo`linadi:

- ❖ qazilma boyliklar;
- ❖ iqlim resurslari;
- ❖ suv va havo resurslari;
- ❖ tuproq resurslari;
- ❖ o`simlik resurslari;
- ❖ fauna (biror joy mamlakat yoki geologik davrga oid bo`lgan hamma hayvonlar) resurslari;
- ❖ atom resurslari;
- ❖ biosfera resurslari;
- ❖ kosmik resurslar;

Foydalanish darajasiga qarab tabiiy resurslar:

a) tugaydigan

b) tugamaydiganlarga bo`linadi.

Tugaydigan resurslar. Bular o`z navbatida qayta tiklanmaydigan va qayta tiklanadigan resurslarga bo`linadi.

Qazilma boyliklar qayta tiklanmaydigan resurslar hisoblanadi. Ulardan foydalanish natijasida miqdori va sifati kamaya boradi. Qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklardan unumli foydalanish va uni qo`riqlash quyidagicha bo`lmog`i

lozim: miqdori va sifatini hisobga olish, kompleks ravishda to'g'ri, tejab, o'rnida foydalanish, ularni qazib olish, tashish, qayta ishlash, ishlatishda nobudgarchilikka yo'l ko'ymaslik, chiqindi kam chiqarish choralari ko'rish, yangi konlar topish, ayniqsa yerning chuqurroq qatlamlarini o'rganish zarur va nihoyat ularning o'rnini bosuvchi yangi sun'iy manbalar topish va boshqalar. Qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan oqilona foydalanilsa, ular kishilik jamiyati ehtiyojlarini uzoq muddatlargacha to'la ta'minlay oladi. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida ba'zi foydali qazilmalar tugaguncha ularning o'rnini bosa oladigan yangi resurslar yaratish mumkin.

Qayta tiklanadigan resurslarga asosan, suv, tuproq, o'simliklar va hayvonot dunyosi kiradi. Masalan: tuproq, unda o'simlik o'stirib foydalanilishi natijasida tugab yo'q bo'lib ketmaydi. Tuproq shuning uchun ham tugamaydigan - qayta tiklanadigan resurslar jumlasiga kiritiladiki, madaniy o'simliklar undagi mineral ozuqa moddalar (azot, fosfor, kaliybirikmalarini va boshqalar) ni shimib oladi, ana shu ozuqa moddalar tiklab borilmasa, tuproqning unumdorligi yildan-yilga kamayib, dehqonchilik uchun butunlay yaroqsiz bo'lib qoladi. Tajribadan ma'lumki, tuproq unumdorligini doimo tiklab borish mumkin. Bu tiklanish tabiiy va sun'iy ravishda bo'lishi mumkin.

Masalan: tuproq yo'qotgan mineral ozuqalarini o'simlik qoldiqlarining chirishi natijasida, tog'lardan oqib keladigan suvlar tarkibidagi turli birikmalar hamda kishilar tomonidan beriladigan tabiiy mineral o'g'itlar hisobiga qayta tiklaydi. Agar tiklanadigan resurslardan plansiz ravishda, vaxshiylarcha foydalanilsa ular tiklanmaydigan holga tushib qoladi. Bunga yer sirtida atom bombasini portlashi, konlar tugagandan so'ng o'z holiga tashlab ketishlar va boshqalar kiradi. Tuprog'ini suv yuvib yoki shamol uchirib ketgan joyni qayta tiklash mumkin. Ammo buning uchun ko'p mablag', uzoq vaqt mehnat qilish kerak. Ekinlar ekiladigan joylarga ko'plab kimyoviy o'g'itlar solish ham, uni yaroqsiz holga olib keladi, oqibatda hech narsa o'smaydigan bo'lib qoladi.

Yer sharida o'rmonlar, o'simliklar dunyosi nihoyatda ko'p va rang-barang. O'simlik dunyosi tabiatda alohida ahamiyat kasb etadi. Daraxtlar, o'rmonlar qirgilsa, uni qayta tiklash mumkin. Shu sababli daraxtlarni shartli ravishda qayta tiklanadi deyiladi. O'rmonlarni qayta tiklash uchun 20-30 yil vaqt kerak bo'ladi.

Qayta tiklanishi mumkin bo'lgan tabiiy (boyliklar) resurslar sekinlik bilan, uzluksiz tiklanib boradi. Biroq ularning tiklanishi uchun ma'lum darajada tabiiy sharoit bo'lishi lozim. Agar ana shu tabiiy sharoit buzilsa, tabiiy resurslarning o'z-o'zidan tiklanishi sekinlashadi yoki batomom to'xtashi mumkin. Demak, inson qayta tiklanadigan (boyliklar) resurslaridan foydalanishda uning tabiiy holatiga alohida e'tibor berishi zarur.

Tugamaydigan resurslar. Bularga asosan quyidagilar kiradi:

1. suv resurslari;
2. iqlim resurslari;
3. kosmik resurslari.

Suv resurslari. Suv yer yuzida hayot mavjudligining asosiy shartlaridan biridir. Suv manbalari hajmi, hosil bo'lishi va joylashish o'rniga qarab mahalliy, regional va global suv resurslariga bo'linadi.

Suvsiz inson hayotining tasavvur qilib bo'lmaydi. Suv o'simliklar, hayvonlar va odamlar uchun hayot hamda asosiy ozuqa manbai hisoblanadi. Suvning eng yaxshi tomoni shundaki, undan qaysi maqsadda va qayerda foydalanilmasin, u yo'q bo'lib ketmaydi. Faqat bir holatdan boshqa holatga o'tishi, bir jism tarkibidan boshqa jism tarkibiga o'tishi mumkin. Shu sababdan ham suv tugamaydigan, qayta tiklanadigan tabiiy resurs hisoblanadi. Suv qayta tiklanish uchun:

1. daryolar, yer osti suvlari, muzliklar zaxirasi asrlar davomida o'zgarmasligi;
2. insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida tabiiy suvlarning ifloslanish darajasi ularning sifat jihatidan o'z-o'zini tiklash imkoniyatidan katta bo'lmasligi lozim.

Inson faoliyati ta'sirida Yer sharining ayrim joylarida suv miqdori ancha o'zgarishi va ifloslanib yaroqsiz holga kelib qolishi mumkin. Amaliy jihatdan olganda faqat okean suvlarigina tugamaydi. Ammo, okean suvlari ham neft hamda

turli chiqindilar ta'sirida o'zining suvlari ham neft hamda turli chiqindilar ta'sirida o'zining tabiiy xususiyatini yo'qotadi. Bu hol esa hayvonlar va o'simliklar hayotini xavf ostida qoldiradi. Chuchuk (toza) suv miqdori yer sharida nihoyatda ko'p. Ammo Yer sharining ko'pgina joylarida uning miqdori kamaygan. Bu joylarda ekin maydonlarini sug'orish, kommunal ehtiyojlar sanoat xom-ashyolari, ichish uchun toza suv yetishmaslik hollari sezilmoqda. Joylarda toza suvlarning kamayishiga sabab faqat unga bo'lgan talabning oshganligi bo'lmasdan, suv keladigan daryolarning, ko'llarning o'rmonlar kesilishi natijasida qurib qolishi va inson faoliyati natijasida suvning ifloslanishi kabi hollar ham sababchidir. Toza suv masalasi yildan-yilga eng muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ifloslangan suv ichish uchun yaroqsiz bo'lib, u hatto tirik organizmlar uchun xavfli bo'lib qoladi. Shu sababdan undan ratsional foydalanish, uning tozaligini saqlash va muhofaza qilish hozirgi vaqtda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz yillik yuza suv resurslari $99,5 \text{ km}^3$ ga teng bo'lib uning faqat $12,2 \text{ km}^3$ qismi shu o'lka hududida hosil bo'ladi.

Ma'lumki, suv resurslarini muhofaza qilish ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchidan, uni miqdoriy jihatdan kamayishidan saqlash bo'lsa, ikkinchisi uning ifloslanish va minerallash darajasi oshib ketishining oldini olishdir. Hozirgi vaqtda o'lkamizda har ikki yo'nalish ham juda muhimdir.

Iqlim resurslari. Atmosferadagi havo, shamol energiyasi iqlim resurslariga mansub. Atmosfera havosidan har qancha foydalanilgan taqdirda ham u tugamaydi boshqa narsaga aylanib qolmaydi. Hajmi ham deyarli o'zgarmaydi. Shu sababdan ham atmosfera havosi tugamaydigan tabiiy resurs hisoblanadi. Ammo havo insoniyatning turli faoliyati natijasida tez ifloslanib havfli manba bo'lib qolishi mumkin. Bu hol havoni muhofaza qilish lozimligini ko'rsatadi.

Kosmik resurslarga quyosh radiatsiyasi, Yer va Oyning o'zaro tortishi natijasida dengiz hamda okeanlardagi suvning ko'tarilishi yoki pasayishi jarayonida hosil bo'ladigan energiyalar, olam fazosidagi yer sirtiga keladigan turli xil nurlar, meteorit oqimlar kiradi.

Tabiat o'ziga ta'sir etmaydigan tabiiy omillarga bardosh berib, ularning ifloslanishidan o'z-o'zini himoya qilib turadi.

1.4. TABIIY RESURLARNI O'RGANISHDA VA ULARDAN FOYDALANISHDA FANNING ROLI

Inson foydalanadigan tabiiy resurslar tayyor holda bo'lmay balki uni inson tabiatdan oladi. Buning uchun inson ularning holatini, xossalarini, olish usullarini va ishlab chiqarishda foydalanish yo'llarini bilishi kerak. Buning uchun ma'lum malaka va o'quvga ega bo'lishi zarur. Faqat fan kishilarga, tabiat kuchlari ustidan hukmronlik o'rnatish vositalari va usullarini berish mumkin. Bu haqda ingliz olimi J.Bernal o'zining "Jamiyat tarixida fan" nomli asarida fanning tabiat kuchlarini yengishdagi muhim rolini xarakterlab "tabiatni tubdan o'zgartirmoq uchun fandan maksimal foydalanish kerak" degan edi.

Tabiat boyliklaridan foydalanishda, fan inson uchun asosiy "kompas" vazifasini o'taydi. Eng avvalo fan kishilarga:

1. tabiat haqida haqiqiy bilimni berish;
2. tabiat bilan muomala qilishning forma va metodlarini o'rgatish;
3. tabiatdagi predmet va hodisalardan ongli ravishda maqsadga muvofiq holda foydalanish imkonini beradi;
4. tabiat boyliklarining miqdori haqida aniq ma'lumot beradi;
5. insonga tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi aniq chegarani belgilab beradi;
6. tabiatni sof holda saqlash va uni yaxshilash yo'llarini ko'rsatadi.

Fan asosida kishilar tabiat boyliklarining o'rnini bosadigan sun'iy material yaratib, tabiat boyligini tejaydi, ularni kelajak avlodlar uchun saqlaydi.

Inson o'zi uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni fan asosida bevosita yoki bilvosita tabiatda mavjud bo'lgan predmet va narsalarni qayta ishlagan holda undan oladi. Fan va texnika yutuqlariga tayangan holda inson yangidan-yangi materiallarni yaratmoqda. Inson ob'ektiv xarakterga ega bo'lgan tabiat qonunlarni to'g'ri bilib olgandagina u yordamida tabiat kuchlariga aktiv ta'sir ko'rsata oladi.

Inson tabiat qonunlari haqida bilimni tabiiy fanlar – biologiya, zoologiya, kimyo, botanika, geologiyani va h.k. ni o'rganib, uni amalga tadbiq etish natijasida oladi. Fan asoslariga tayangan holda olimlarimiz tomonidan tabiiy resurslarni chuqur o'rganib, jamiyat manfaati yo'lida keng foydalanilayotganligi bunga yaqqol misol bo'ladi. Olimlar yer, suv, havo, o'simlik hamda iqlim resurslarini tadqiq qilishda va ulardan sistemali, ratsional foydalanishda muhim yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar. Masalan: tuproqni ishlashni yaxshilash, tuproq eroziyalariga qarshi kurash, sug'orish sistemasini takomillashtirish, madaniy o'simliklarni oziqlantirish va uni o'sishi hamda rivojlanishini jadallashtirish va boshqalar.

Hozirgi vaqtda planetamizdagi tabiiy resurslar har tomonlama o'rganilib, undan ratsional foydalanish va uni qo'riqlash metodlari ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etilmoqda. Demak, rivojlangan jamiyatda tabiatga ongli munosabatda bo'lib, uni qo'riqlab va undan jamiyat manfaati yo'lida fan va texnika taraqqiyotiga tayangan holda ratsional foydalanilib, uni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda saqlab qolinadi. Buning uchun tabiat haqida tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlar haqida chuqur bilimga ega bo'lishi kerak bo'ladi.

1.5. TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISHDA KUTILADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Inson tabiiy resurslardan foydalanishda ko'plab iqtisodiy foyda olishni ko'zda tutadi. Lekin, u ko'pincha, tabiiy sharoitning o'zgarishi kishilarning jismoniy, psixik holatiga ta'sir etishini hisobga olmaydi. Inson tabiatning har bir bo'lagi, har bir komponenti (suv, havo, tuproq, o'simlik, hayvon va minerallar) bir-biri bilan shu qadar chambarchas bog'langanki, uning biron qismiga noto'g'ri ta'sir etish oqibatida ma'lum vaqt o'tishi bilan tabiatning boshqa komponentlarining holatini o'zgartirib yuborishini bilmaydi. Masalan: inson faoliyati natijasida atmosferada karbonat angidrid miqdorining ortishi planeta haroratining ortishiga sabab bo'ladi. Bu hol esa muzliklarning erishiga, iqlimning o'zgarishiga, suv sathi va miqdorining ortishiga, quruqliklarnin kamayishiga olib kelishi mumkin.

Jamiyat taraqqiyoti darajasini belgilovchi asosiy omil moddiy boyliklardir. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish esa o'z navbatida tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq. Bunda ishlab chiqarish kuchlari va fanning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, inson qo'lida tabiat kuchlaridan moddiy ne'mat ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyati shunchalik katta bo'ladi.

Turli davlatlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida quyidagilar asosiy rol o'ynagan:

- 1) kishilarning onglilik darajasi;
- 2) fan;
- 3) texnika;
- 4) tabiiy resurslardan foydalanish va boshqalar.

Insonning iqtisodiy va madaniy talablarini qondirish borasida hozirgi zamon texnikasining taraqqiyoti endilikda jamiyatning tabiatga ta'sirini nihoyatda kuchaytirib yubordi. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida inson faqat yer sirtinigina o'zgartirib qolmasdan, uning chuqur qatlamlaridagi va okean tublari, baland tog' bag'irlarini o'rganib, ulardagi resurslardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanmoqda. Inson yerning chuqurroq qatlamlaridan foydali qazilma boyliklarni olish uchun bir qancha muhim muammolarni hal qilishi zarur.

Chunonchi:

- 1.takomillashgan mashinalarga ega bo'lishi;
- 2.bunday mashinalar yaratish uchun ko'p miqdorda yuqori sifatli va mustahkam toza metallga ega bo'lishi;
- 3.bu mashinalar yordamida tabiatga ta'sir etish chegarasini biladigan, uni boshqara oladigan yuqori malakali, madaniyatli mutaxassislar bo'lishi va boshqalar.

Dengiz, okean tubidagi resurslardan foydalanishda esa bundan ham murakkabroq muammolarni hal qilish zarur. Bunda insonga yuqori va past bosim ostida va kam kislorodli muhitga ishlashga to'g'ri keladi. Olingan xom ashyolarni joylarga tashish va qayta ishlash uchun ancha ishchi kuchi kerak bo'ladi.

Inson kosmosni o'zlashtirdi. Bu holda esa inson tabiat qonunlarini yanada chuqurroq o'rganib u bilan hisoblashishi zarur bo'ladi. Shu sababdan progressiv olimlar tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni sinchkovlik bilan o'rganib kelmoqdalar. Tabiat boyliklaridan unumli, planli ravishda tejab-tergab foydalanish lozimligini isbotlamoqdalar. Aks holda inson tabiatdan hech qanday ehson kutmasligi ibotlanilmoqda.

Tabiiy resurslardan foydalanish fan-texnika yutuqlarini hisobga olgan holda reja asosida olib borilmog'i zarur. Fan va texnika taraqqiyoti, tabiat boyliklaridan xalq manfaatlari yo'lida, samarali foydalanishga, energiyaning yangi turlarini ochishga va yangi materiallar yaratishga, iqlim sharoitlariga ta'sir ko'rsatish metodlarini ishlab chiqishga, kosmik fazoni zabt etishga imkon beradi.

Tabiiy resurslardan foydalanishda quyidagilarga qat'iy amal qilish lozim:

- 1) foydalanish lozim bo'lgan mavjud tabiiy resurslarning miqdori va sifatini aniqlash;
- 2) ishlab chiqarishning xom ashyo bazasini reja asosida kengaytirish;
- 3) tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va tiklashda fan va texnika yutuqlariga tayangan holda ish tutish;
- 4) tabiiy resurslardan foydalanishda texnikani takomillashtirishga va aholining dunyoqarashini shakllantirishga alohida e'tibor berish.

Mamlakatimizda moddiy-texnika bazasini vujudga keltirishda quyidagi omillarning ahamiyati katta:

- 1) mamlakatning energetika va yoqilg'i balansini o'rganish yo'llarini axtarib topish;
- 2) ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalashtirish, ularni tobora to'laroq avtomatlashtirish masalalarini ishlab chiqish;
- 3) himoyani xalq xo'jaligiga keng ko'lamda tatbiq etish yo'llarini ilmiy ravishda ishlab chiqish;

- 4) foydali qazilma boyliklarini qidirish va tabiat boyliklaridan kompleks foydalanishning mavjud metodlarini takomillashtirish va yangi, eng samarali metodlarini topish;
- 5) tabiat boyliklarini o'rnini bosuvchi yangi metallar yaratish;
- 6) tabiat boyliklaridan foydalanishni koordinatsiyalab, yopiq holda avtomatlashtirish.

1.6. O'ZBEKISTONNING TABIIY RESURS SALOHİYATI, ULARDAN OQILONA FOYDALANISH, MUHOFAZA QILISH VA TAKROR ISHLAB CHIQARISH

«Tabiiy sharoit» va «Tabiiy resurs» keng qo'llaniladigan tushunchalar qatoriga kiradi.

«**Tabiiy sharoit**» - biron bir ob'ektga aloqador bo'lgan tabiatning barcha jihatlarini o'ziga qamrab olgan bo'lib, juda keng ma'noga ega tushuncha. Mantiqiy yondashuv sharoit nimaga taalluqli ekanligini aniq ko'rsatilishini, ya'ni «sanoatni rivojlantirishning tabiiy sharoiti», «dehqonchilikni rivojlantirishning tabiiy sharoiti», «temir yo'l qurilishining tabiiy sharoiti», «inson hayotiy faoliyatining tabiiy sharoiti» va h.k. tarzda ifodalashni talab qiladi. Demak, «tabiiy sharoit» tushunchasini insonni qandaydir faoliyati bilan uzviy bog'liq holda tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

«Tabiiy resurslar» tushunchasi «tabiiy sharoit» tushunchasiga nisbatan tor ma'noga ega bo'lib, u tabiat bilan inson faoliyati o'rtasidagi aloqani bevosita ifodalaydi.

«Tabiiy sharoit» va «tabiiy resurslar» tushunchalari iqtisodiy kategoriyalardir. Shu bilan birga tabiatning moddiy elementlari bo'lgan «tabiiy sharoit» va «tabiiy resurslar»ning shakllanishi, o'zgarishi va joylashishi tabiat taraqqiyotining ob'ektiv qonuniyatlari asosida amalga oshadi.

Inson hayoti va faoliyatida juda muhim ahamiyat kasb etuvchi tabiat elementlari ikki asosiy guruhga: moddiy ishlab chiqarish jarayonida bevosita

ishtirok etuvchi (tabiiy resurslar) va qolgan barcha (tabiiy sharoit) elementlarga bo'linadi. Aniqroq qilib aytganda, «tabiiy sharoit»ga tabiatning barcha elementlari kiradi.

Tabiiy resurslar esa tabiiy sharoitning bir turi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, «tabiiy sharoit» inson hayoti va faoliyatini belgilab beruvchi, lekin ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan tabiat elementlaridir. Tabiiy sharoit va moddiy resurslar majmuasi jamiyat taraqqiyotining tabiiy-moddiy omillari hisoblanadi.

Suv resurslari. Respublika uchun hayotiy muhim bo'lgan narsa - bu suv resurslaridir. Yer yuzasi suvlari respublika hududi bo'ylab notekis taqsimlangan. O'zbekiston hududining uchdan ikki qismini egallagan keng tekisliklarda suv manbalari juda kam. O'zbekiston sharqidagi tog' rayonlari esa juda zich daryo tarmoqlari bilan qamrab olingan. Suv manbalarining bunday notekis taqsimlanganligi, O'zbekistonning iqlim va geografik xususiyatlari bilan belgilanadi.

Suv oqimi shakllanuvchi asosiy rayonlar bu tog'li zonalardir, chunki ularga ko'p yog'in tushadi, bug'lanish esa nisbatan kamroq. O'zbekiston daryolarining suv manbai - asosan qor va muzlik suvlaridir. O'zbekistonning, shuningdek O'rta Osiyoning eng yirik daryolari - Amudaryo va Sirdaryodir. Amudaryoning umumiy uzunligi 1437 km, Sirdaryoniki - 2137 km.

Har ikki daryo va ularning irmoqlari O'zbekiston tashqarisidan boshlanadi. Amudaryo Panj va Vaxsh daryolari, Sirdaryo - Norin va Qashqadaryoning qo'shilishidan tarkib topadi. Uzunligi bo'yicha Sirdaryo Amudaryodan oshsada, sersuvligi jihatidan unga yetmaydi.

O'rta Osiyodagi yirik daryolar ikki daryo havzasi: Sirdaryo va Amudaryoni tashkil etadi. Sirdaryo havzasiga - Norin, Qoradaryo, Chirchiq, Ohangaron, So'x, Isfara, Oqbura, Isfayramsoy, Shohimardon, Gavasoy va Kosonsoy, Amudaryo xavzasiga Zarafshon, Qashqadaryo, Surhondaryo, To'polandaryo, Sherobod

daryolari kiradi. Amudaryoning ham, Sirdaryoning ham irmoqlari asosan respublika hududini o'rta va quyi oqimlarid kesib o'tadilar.

O'zbekiston Respublikasi hududida Amudaryo suvi qishloq xo'jalik yerlarini sug'orishga asosan Xorazm vohasi va Qoraqalpog'istonda sarflanadi. Bu daryo suvining katta qismi kanal orqali Buxoro va Qashqadaryo vohalaridagi yerlarni sug'orishga sarflanadi. Dehqonchilik asosan sun'iy sug'orish orqali amalga oshiriladigan O'zbekiston Respublikasida daryolar va suv havzalarining ahamiyati mavjud vohalarni saqlashdagina emas, balki yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orishda ham nihoyatda kattadir. Bu xususiyatni hisobga olgan holda qadimdan oq odamlar turli miqyosdagi kanallar qurganlar. Bugungi kunda bunday kanallarni bunyod etish sur'ati va miqyosi qisqardi. Kanallar nafaqat sug'orish maqsadlari, balki gidroelektr stansiyalarini barpo qilish uchun ham muhimdir. Bunday kanallar qatoriga Narpay, Janubiy Farg'ona, Shimoliy Farg'ona, Katta Farg'ona, Eskiangor, Amu-Buxoro, katta Namangan va boshqalarni kiritish mumkin.

Respublika hududida ko'llar kam. Ulardan eng yirigi - Orol dengizidir. Uning maydoni katta bo'lganligi sababli, dengiz deyiladi. Yana boshqa yirik ko'llar Sudoche va Arnasoydir. So'nggi 30 yil ichida Orol dengizi sathi 12-14 metrga pasaydi, Qirg'oq o'nlab-yuzlab km ichkariga kirib ketdi. Uning suv yuzasi taxminan besh barobar kichraydi.

Orol dengizi ustida yuzaga keluvchi iliq va nam havo oqimlari ilgari Rossiya va Qozog'istondan keladigan havo oqimlarini to'sib turardi. Endilikda bu to'siq buzilgan, natijada ekin maydonlari bo'ylab O'rta Osiyo hududiga sovuq havo jala va sellarni olib kiradi. Ular hattoki yoz oylarida ham bo'lib, katta zarar keltiradi. Orol va Orol bo'yida ekologik vaziyatning yomonlashuvi bu rayonda yashovchi aholining sog'lig'ini yomonlashuviga olib kelmoqda.

Orol dengizi muammosi sayyora miqyosidagi muammoga aylandi. Biroq, uni bir-ikki davlat o'zi hal qila olmaydi.

So'nggi o'n yil ichida Respublika hududida sun'iy ko'l-suv omborlari, jumladan Chorvoq, Ohangaron, Tuyabo'g'uz, Janubiy Surxon, Chimqo'rg'on va boshqalar yuzaga keldi. Ular mavsumiy oqimni boshqarishni amalga oshiradilar va o'z xususiyatlariga ko'ra irrigatsiya vazifasidagi suv omborlari qatoriga kiritiladi.

Respublika hududidagi suv resurslari faqat yer yuzasidagi suvlardan emas, balki qisman yer osti suvlaridan ham tarkib topadi. O'zbekiston hududi suvga tanqis arid zonasida joylashganligi sababli, bu yerdagi yer osti suvlaridan suv ta'minoti, sug'orish, shuningdek chorvachilikdagi suv ehtiyojini qoplash uchun keng foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi mineral suv manbalariga ham boy. Bu suvlar o'z kimyoviy tarkiblariga ko'ra inson organizmiga shifo beruvchi ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi o'n yillar ichida O'zbekistonda topilgan mineral suvlar ichida vodorod sulfidli, yodli, radon va kam minerallashtirilgan ishqorli issiq mineral suvlar ayniqsa ahamiyatli hisoblanadi.

Farg'ona va Sirdaryo artezian havzalaridagi vodorod sulfidli suvlar o'z kimyoviy balneologik tarkibi bo'yicha Kavkaz mineral suvlaridan qolishmaydi. Respublika mineral suvlaridan foydalanish asosida qurilgan sanatoriya-kurort muassasalari, jumladan, Chimyon, Chortoq sanatoriyalari O'zbekistondan tashqarida ham ma'lum.

Mamlakatda mavjud mineral resurslar, ularning geografiyasi, ahamiyati, zaxiralari.

«O'zbekiston o'z yer osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi. Bu yerda mashhur Mendeleev davriy sistemasining barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral-xom-ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Shundan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zaxiralari 970 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy mineral - xom ashyo potentsial 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak.

G'oyat muhim strategik manbalar - neft va gaz kondensanti, tabiiy gaz bo'yicha 155 ta istiqbolli kon, qimmatbaho metallar bo'yicha - 40 dan ortiq, rangli, nodir radioaktiv metallar bo'yicha 40, konchilik - kimyo xom-ashyosi bo'yicha 15 ta kon qidirib topilgan».

O'zbekiston quvvati katta, tabiiy manbalari xilma-xil turlarga va ulkan zaxiralarga ega bo'lgan yoqilg'i energetika sanoatiga ega. Respublika yoqilg'i balansida neftning salmog'i sal kam 10 foizni, tabiiy gaz salmog'i - 85 foizdan ortiqni, ko'mirning salmog'i salkam 5 foizni tashkil etadi. Respublika sanoati yalpi mahsulotida yoqilg'i energetika kompleksining salmog'i 1999 yilda 28,9 foizni tashkil etdi va 1995 yilga nisbatan 9,7 foizga ko'paydi.

O'zbekistonda 1999 yilda 8,1 mln tonna neft (gaz kondensanti bilan), 51,0 mlrd kub tabiiy gaz va 2,8 mln tonna ko'mir (asosan, qo'ng'ir ko'mir) qazib chiqarildi. O'zbekiston hududida ulkan neft va tabiiy gaz zaxiralari mavjud bo'lib, ularning ayrimlari asosida yirik konlar ochilgan. "Neft va gaz mavjud bo'lgan 5 ta asosiy mintaqani ajratib ko'rsatish mumkin, bular: Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubi - g'arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg'ona mintaqalaridir. Neft va gaz resurslarining zaxiralari bir trillion AQSh dollaridan ziyod baholanmoqda".

Yuqoridagilardan Buxoro-Xiva va Farg'ona mintaqalari neft hamda gazga ham boy. Ustyurt va Janubiy Hisor mintaqalarida esa tabiiy gazning yirik zaxiralari topilgan.

O'zbekistondagi neft va gaz konlari yirik geostrukturali birliklar ichida joylashgan bo'lib, ularning ichida Amudaryo, Ustyurt, G'arbiy Farg'ona va Janubi-g'arbiy Hisor platformalari va orogen hududlari alohida o'rin egallaydi.

O'zbekistonda ko'mir zaxiralari katta, lekin ularning asosiy qismini energetik yoqilg'i hisoblangan - qo'ng'ir ko'mir tashkil etadi. Respublikada yirik qo'ng'ir ko'mir koni Angren shahri yonida joylashgan bo'lib, yoqilg'i yura qatlamlarida mavjud. Ko'mir ochiq karer usulida qazib olinadi. Zaxirasi 2 mlrd tonnaga yaqin.

Ko'mirning boshqa ikki koni Surxondaryo viloyatidagi Sharg'un va Boysunda joylashgan. Ushbu konlardagi toshko'mir qatlamlari qalin emas. 1990

yillardan keyingi davrda ko'mir qazib chiqarish hajmi keskin qisqardi, hamda 1999 yilda 2,8 mln tonnani tashkil qildi, xolos. Vaholanki, respublikaning ko'mirga bo'lgan ehtiyojlari yiliga 8-9 mln tonnani tashkil etadi. Bunday holat tarmoqni rivojlantirishga bo'lgan e'tiborning yetarli emasligidan dalolat bermoqda. Ana shunga o'xshash muammolarni ijobiy hal qilish maqsadida 1994 yillarda «Ko'mir» aksionerlik birlashmasi tuzildi.

Mamlakatimiz metall qazilmalarga ayniqsa, rangli metallar rudalariga boy. Bu o'rinda oltin, kumush, qo'rg'oshin, ruh, mis hamda yer bag'rida kam uchraydigan metallar zaxiralari juda katta ekanligini aytib o'tish zarur.

Hozirgi vaqtda 40 ta qimmatbaho metal konlari qidirib topilgan.

Qimmatbaho rangli va radioaktiv metallar tarkibida birga uchraydigan foydali komponentlar sifatida kamyob va nodir elementlarning kattagina miqdordagi zaxiralari jamlanganki, bu ularning qiymatini ancha oshiradi.

Mamlakatimiz oltin, uran, mis, volfram, qo'rg'oshin, ruh va shu guruhlariga kiruvchi boshqa eng muhim foydali qazilmalarning tasdiqlangan zaxiralari va ularning ko'paytirish istiqbollari bo'yicha nafaqat MDH mamlakatlari o'rtasida, balki butun dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Masalan, oltinning tasdiqlangan zaxiralari bo'yicha O'zbekiston dunyoda 4-o'rinda, uni qazib chiqarish bo'yicha 7-o'rinda turadi.

O'zbekiston dunyoda ulkan oltin resurslariga ega bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi, 41 ta oltin koni, shu jumladan 33 ta oltin-ma'dan koni qidirib topildi. Yevrosiyo qit'asida eng yirik hisoblangan Muruntov koni jahondagi ulkan konlar qatoriga kiradi.

Samarqand viloyatida oltin ma'danli Zarmiton va boshqa oltin konlari axtarib topildi. Shu konlarni o'zlashtirishni jadallashtirish bo'yicha o'tkazilayotgan tenderda dunyoda katta nufuzga ega bo'lgan Avstraliya kompaniyasi g'olib deb topildi. Toshkent viloyatining Angren shahri yaqinida infratizimi yuksak darajada rivojlangan Qizilolmasoy va Ko'chbuloq konlari topildi. Endilikda, ushbu konlarda cheklangan hajmda qazib chiqarish ishlari olib borilmoqda. Ana shu konlarni

o'zlashtirish bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tenderda mashhur Yaponiya kompaniyalari g'olib chiqishdi. Keyingi yillarda jahondagi eng yirik oltin rudali mintaqa Qizilqumda Ajibugut, Bulutkon, Balpantov, Aristantov, To'rboy singari yangi konlar qidirib topilmoqda va o'rganilmoqda.

O'zbekiston talaygina kumush zaxiralariga ega. Navoiy viloyatida Visokovoltnoe, O'qjetpes va Kosmonachi konlari ishlatishga tayyorlab qo'yilgan. Namangan viloyatida Oqtepa koni o'rganilmoqda.

O'zbekistonda uranning mineral xom-ashyo bazasi vujudga keltirilgan, uning negizida Navoiy kon metalurgiya kombinatining bir qator korxonalari ishlab turibdi. Uranning qidirib chamlangan zaxiralari qumtoshga taalluqli bo'lib, ularni yuqori samarali va ekologik jihatdan muxofazalangan yer ostida ishqorini yuvish usuli yordamida qazib olish mumkin.

Respublikamiz Uchquloch va Xondiza konlarida jamlangan qo'rg'oshinning ko'plab zaxiralariga ega. Xondizada qo'rg'oshin va ruh bilan birga mis, kumush, kadmiy, selen, oltin ham mavjud.

Markaziy Qizilqumda fosforit konlari qidirib topilgan bo'lib, ular kimyo va boshqa iqtisodiyot tarmoqlari uchun qimmatli xom ashyo, qishloq xo'jaligi uchun o'g'it ishlab chiqarish imkonini beradi.

1.7. DUNYO YER RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

Planetamizning umumiy yer fondi 14,9 mlrd gektar bo'lib, bu Yer yuzining 29% ni tashkil qiladi. Uning 4,03 mlrd.ga (27%) o'rmonlar, 2,85 mlrd.ga (19%) o'tloq va yaylovlar, 2,32 mlrd.ga (15,5%) turli tipdagi sahrolar, 1,63 mlrd.ga (11%) muzliklar, 0,72 mlrd.ga (4,8%) daryo, ko'l va botqoqliklar, 0,7 mlrd.ga (4,7%) tundra va lesotundra, 0,45 mlrd.ga (3%) eroziyaga uchragan, sho'rlangan va botqoqlashgan maydonlar, 0,3 mlrd. gektari (2%) shahar va qishloq aholi punktlari bilan band. Ekiladagan maydonlar 1,9 mlrd. gektar bo'lib, bu jami yer fondining 13% iga teng. Hozirgi kunda ekinzorlar maydoni dunyo aholisining jon boshiga 0,3 gektarga to'g'ri keladi, holbuki chorak asr oldin bu ko'rsatkich 0,5

gektarni tashkil qilar edi. Sobiq Ittifoqdan ajralib chiqqan MDH mamlakatlarida ekiladigan yerlar maydoni jon boshiga 0,9 gektarni, O'zbekistonda esa 1,1 gektarni tashkil qiladi. Bu dunyo ko'rsatkichidan qariyb 4 baravar ko'p demak.

Rivojlangan Yevropa mamlakatlari va AQSH da dehqonchilik uchun yaroqli yerlarning deyarli barchasi o'zlashtirib bo'lingan. Janubiy Amerika, Avstraliya, Afrika va Osiyo qit'alarining ba'zi mintaqalarida esa hali o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan yer resurslari zaxirasi mavjud.

Dunyo miqyosida aholining oziq-ovqatga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojini ta'minlash hozirgi zamonning eng murakkab masalalaridan biriga aylandi. Aholi sonining o'sib borishi bilan qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish miqdorini oshirish va shu bilan birgalikda shahar va qishloqlar maydonini kengaytirish, sanoat kommunikatsiyasini rivojlantirish va boshqa ehtiyojlar uchun qo'shimcha yer ajratish masalalari ko'ndalang bo'lib turmoqda. Turli mamlakatlarning mutaxassislari bu masala ustida jadal ishlamoqdalar.

Rus mutaxassislari N.N. Rozov va M.N. Stroganova (1979) fikriga ko'ra kelajakda Yer yuzidagi dehqonchilik yerlari maydonini ko'proq o'tloq va yaylovlar hisobidan, kamroq o'rmonlar hisobidan kengaytirib, 2,66 mlrd. gektargacha yetkazish mumkin. Bu maydondan olinadigan hosil 8-9 mlrd. kishini oziq-ovqat bilan ta'minlaydi. V.A. Vashanov va P.F. Loyko (1975) ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 750-820 mln. gektar o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan rezerv yer bo'lib, ular hisobidan dehqonchilik maydonlarini 2,2 mlrd. gektarga yetkazish mumkin. Bu rezerv yerlarning asosiy qismi (640-660 mln.ga) rivojlanayotgan mamlakatlarda joylashgan bo'lib, shuning yarmi Lotin Amerikasi hududidadir. Masalan, Argentinada mavjud 240 mln. gektar hosildor yerlarning faqat 30 mln. gektari (20%) ekilmoqda. Hozirgi vaqtda 10 mln. aholisi bo'lgan Amazonka havzasining dehqonchilikka yaroqli yerlari 1 mlrd. kishini oziq-ovqat bilan ta'minlay oladi. BMT ekspertlarining ma'lumotiga ko'ra 1970-2000 yillar orasida dunyo bo'yicha 80 mln. gektar yangi yer o'zlashtirildi, shundan 56 mln. gektari

rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Ekinzorlarning kengayishi ayniqsa Lotin Amerikasi va Tropik Afrikada ko'p bo'ldi.

Yerdan foydalanish masalasi tahlili davomida yana shunday holat ham ko'zga tashlanadiki, unga ko'ra dehqonchilik qilinadigan yer maydonlarini kengaytirishning imkoniyati yo'q. Masalan, YUNEP ma'lumotlariga ko'ra yangi yerlarning o'zlashtirilishi 2000 yilga borib jami o'zlashtirilgan yerlar maydoni 3,2 mlrd. gektarga yetkazilsada, dehqonchilik qilinadigan yerlar aholi jon boshiga 1975 yildagiga qaraganda amalda ikki baravarga kamayadi. Buning sababi aholi soni ko'payib borishi bilan birga ko'p yerlar eroziyaga uchrab ishdan chiqadi, bir qism yer esa shaharlar va sanoat kommunikatsiyasi ko'rilishiga sarf bo'ladi. Amerikalik mutaxassis Braun (1978) bashoratiga ko'ra 1975-2000 yillar orasida Yer yuzining shahar aholisi sonining taxminan ikki baravarga ko'payib, 3 mlrd. dan oshadi, shunga ko'ra shaharsozlikka qo'shimcha 63 mln. gektar yer ketadi.

Insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida tuproqning sifati buzilib, hosildorligi pasayishi kuzatilmoqda. Jamiyat o'zining rivojlanish tarixida 2 mlrd. gektarga yaqin yerni ishdan chiqargan. Faqatgina suv va shamol ta'sirida, qum bosish va sho'rlanish oqibatida har yili Yer yuzida 6-7 mln. gektar yer xo'jalik oborotidan chiqib ketmoqda. Bu hol hakli ravishda mutaxassislarni tashvishga solmoqda. Chunki tuproqning hosil bo'lishiga qaraganda uning maydoni kamayishi minglab marta tez boradi. Masalan, 10 sm. qalinlikdagi tuproq hosil bo'lishi uchun 1400-1700 yil kerak. Shunday qalinlikdagi tuproqni suv eroziyasi 20-30 yildayoq ishdan chiqarish mumkin. Ba'zan esa bu jarayon uchun faqat bitta suv toshqini kifoya qiladi.

Umuman olganda, tuproqning holati biz unga qanaqa ta'sir o'tkazishimizga bog'liq bo'ladi. Odam o'zining dehqonchilik faoliyatida tuproqda hosil yetishtiradi va uni yig'ishtirib oladi. Bu demak – u tuproqda yetishtirilgan organik moddalarni olib, uni kambag'allashtiradi. Ayni vaqtda u tuproqni o'gitlaydi, almashlab ekish va boshqa agrotexnik tadbirlarni qo'llaydi va shu asosda tuproqni boyitib, uning unumdorligini qayta tiklaydi. Bunday tadbirlarning o'z vaqtida bajarilmasligi,

faqatgina shu kunning foydasini ko`zlab ish tutish tuproqni eroziyaga uchratish, uning sho`rlanish va botqoqlanishi oqibatida ishdan chiqishini tezlatishi mumkin.

Bunday achchiq saboqlar O`zbekiston dehqonchiligida ham uchraydi. Hozirgi vaqtda respublikaning umumiy maydoni 44,9 mln. gektar bo`lib, shundan 28,1 mln. gektarida dehqonchilik qilinadi. Sug`oriladigan ekinzorlar maydoni esa 4,3 mln. gektarni tashkil qiladi. Oldingi yillarda respublikada cho`l zonalarini o`zlashtirish, yangi yerlar ochib dehqonchilik qilishni kengaytirish avj olgan edi. 1975-1985 yillar davomida 1 mln. gektar yangi yerlar o`zlashtirildi. Bu ish hatto shiorbozlikkacha ko`tarilib «ovchining zo`ri sher otar, yigitning zo`ri yer ochar» degan shior ham paydo bo`lgan edi. Lekin bu ish o`zining kutilgan samarasini bermadi. Sababi, dehqonchilik agrotexnikasiga e'tibor yetarli bo`lmadi, almashlab ekish texnologiyasi o`rnini paxta yakka hokimligi egalladi. Kartalar me'yoridagidan kattalashib ketdi, ixotazorlar kamaydi, melioratsiya ishlari susaydi. Oqibatda tuproqning turli eroziyalarga chalinishi, sho`rlanish va botqoqlanishi tezlashdi, daryolar suvining dehqonchilikdagi sarfi ko`paydi, Orol dengizi halokat yoqqasiga keldi, undan tarqalayotgan tuzli qum atrof hududlar tuprog`iga yog`ilaboshladi. Shunday qilib, yo`l qo`yilgan bu xatoliklar oqibatida Qoraqalpog`iston, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarining 90-95% maydoni sho`rlandi. Faqatgina Buxoro viloyatida 270 ming gektar sug`oriladigan yerlarning 53 ming gektari shamol eroziyasiga uchradi. Tog`oldi hududlariga joylashgan Farg`ona vodiysi va Toshkent viloyatining ko`p miqdoridagi maydonlari suv eroziyasiga uchradi. Hozirgi kunda yer resurslaridan noto`g`ri foydalanish oqibatida respublika chorvachiligi ham jiddiy zarar ko`rmoqda. Chorvachilik uchun yaylov sifatida foydalanilayotgan 22 mln. gektarning 6 mln. gektari shamol eroziyasiga va 3 mln. gektari suv eroziyasiga uchragan.

Shuni ham qayd - qilish kerakki, 1991 yildan boshlab respublikada yangi yerlarni o`zlashtirish ishi to`xtatildi. Keyingi yillarda paxta yakka hokimligidan voz kechildi, don, beda va paxta almashlab ekilishi, suvdan tejab foydalanish

tadbirlari ishlab chiqilmoqdaki, bu ishlar kelajakda o'zining ijobiy natijasini beradi.

1.8. YER -QISHLOQ XO'JALIGINING ASOSIY ISHLAB CHIQARISH VOSITASI SIFATIDA

Qishloq xo'jaligi aholi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish bilan birgalikda yengil sanoat uchun ma'lum miqdorda xom ashyo ham etkazib beradi. Biroq qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'sishiga nomutanosib ravishda jahon aholisining ma'lum qismi, hatto o'nlab, ayrim hollarda yuz millionlab aholi to'yib ovqat emaydi.

Bularga rivojlanayotgan mamlakatlar va iqtisodiy jihatdan kam ta'minlangan mamlakatlarning aholisi kiradi. Shunga bog'liq holda oziq-ovqat bilan ta'minlanishi o'sish darajasini aholi o'sish darajasiga nisbatan 2 foiz emas, balki 3,5-4 foizga yetkazish zarur.

Yer shari iqtisodiy faol aholisining 60 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligida band, agar qishloq xo'jaligiga yordam beruvchi yosh va keksalarni hisobga olsak unda jahon aholisining 2/3 qismi qishloq xo'jaligi sohalariga to'g'ri keladi.

Hozirgi vaqtda ham Afrika va Osiyoni ko'pgina davlatlarida aholining 70 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligida band. Ayrim davlatlarda, masalan: Verxnaya Voltada (G'arbiy Afrika) 95 foiz aholi qishloq xo'jaligida band.

Sanoatlashgan va iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida band aholi salmog'i kamayib bormoqda.

AQShda hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida 5 foiz aholi, Buyuk Britaniyada esa 2 foizdan kamroq aholi qishloq xo'jaligida ishlaydi.

Qishloq xo'jaligi ikki asosiy tarmoqqa bo'linadi:

1. Ziroatchilik
2. Chorvachilik

Hozirgi zamon qishloq xo'jalik geografiyasi ko'pgina omillarga bog'liq: iqtisodiy, tabiiy va siyosiy.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning geografik joylashishiga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri u yoki bu davlatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari hisoblanadi. AQSh, Kanada, Angliya, G'arbiy Yevropa davlatlarining qishloq xo'jaligi oxirgi o'n yillikda kapitalistik rivojlanishning umumiy oqimi va hozirgi zamon sanoat iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib qoldi.

Qishloq xo'jaligini joylashishiga tabiiy sharoit katta ta'sir ko'rsatadi, uning rivojlanishi uchun yorug'liq, issiqlik, namlik va tuproqqa ozuqa moddalari zarur. Qulay agroiklim, suv, tuproq resurslari quruqlikning hamma joyida ham uchramaydi. Tuproq masalan, bir turdagi qishloq xo'jalik ekini uchun qulay bo'lsa, boshqasi uchun esa noqulay bo'lishi mumkin.

Qutb mamlakatlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun unchalik qulay emas. Subtropik va tropiklarda esa issiqlik va yorug'likning ko'p bo'lishi bilan, namlik yetishmaydi. Dengiz iqlimiga xos mamlakatlar, ya'ni mo''tadil iqlimli mamlakatlarda namlik yetarli, ammo issiqlik yetishmaydi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga hali ham iqlim sharoiti yetarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Tabiat inijliklari dehqonchilikka katta zarar yetkazmoqda. Yer sharining ayrim qismlarida noqulay qish, qirovlar, ob-havoni keskin o'zgarishi, qurg'oqchilik, do'l, sel, kuchli shamollar va boshqalar, bularning hammasi dunyo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mahsulot hajmiga ta'sir ko'rsatadi.

Mikroiqlim xususiyatlari, hatto rayonlarning ham ob-havo xususiyatlari farqlanganligi uchun ham, ekinlarni tanlashda ularni inobatga olish va agrotexnika qoidalariga rioya qilish zarur. Qishloq xo'jaligi joylashishiga uning tarmoqlari ixtisoslashishi ham ta'sir ko'rsatadi.

Ba'zi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining turli rayonlarda ishlab chiqarish ham ularning transport-geografik holatiga, iste'molchiga yaqinligi va qishloq xo'jaligi mahsulotining sanoat qayta ishlashiga ham bog'liq.

Jumladan, kofe, kakao plantatsiyalari odatda dengiz sohillariga, daryo va temir yo'l yaqinlarida joylashtiriladi, chunki bu ekinlarni ishlab chiqarish eksport

yo'nalishiga mo'ljallangan. Texnika taraqqiyotiga qaramasdan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi rivojlangan mamlakatlarda hozir ham bir xilda emas, ayniqsa bu holat rivojlanayotgan davlatlarda, hosilsiz yillarda ochlikka va dunyo iqtisodiyotini boshqa yomon holatlarga olib keladi (narxlarni o'sishi, zaxiralarni kamayishi va boshqalar), ularni bartaraf qilish ko'p vaqtni talab qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda mahsulot ishlab chiqarish sur'ati, aholi o'sish sur'ati bilan barobar, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini yaxshilash, o'zining ishlab chiqarishi hisobiga bu mamlakatlarda yo'q. Shuning uchun ham ochlik va to'yib ovqat yemaslik darajasini pastligini hisobga olish kerak. Aholi zich joylashgan rayonlarda bo'sh yerlarni tanqisligi tufayli kam kapital mablag'lar sarf qilish hisobiga ekstensiv dunyo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish cheklangandir. Ayrim hollarda esa yirik yer egalari tomonidan yerlarni o'zlashtirish sun'iy ravishda yer resurslari tanqisligini yuzaga keltirish maqsadida to'xtatiladi, ijara haqini oshiradi va arzon ish kuchini ta'minlash maqsadida qiladi.

Lotin Amerikasi, tropik Afrika mamlakatlarida va boshqa rayonlarda mavjud bo'lgan yirik bo'sh yer resurslaridan oqilona foydalanish uchun ko'plab mablag'lar talab qilinadi (yuksak texnika bazasida), qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda va unga yaqin hisoblangan - transport, aholini joylashtirish, suv ta'minoti, melioratsiya va hokazolarni ham inobatga olish zarur. Bunday keng miqyosli ishlarni rivojlanayotgan mamlakatlar faqatgina birgalikda, uyushgan holdagina bajarishlari mumkin.

Yirik iqtisodiy jihatdan rivojlangan kapitalistik davlatlarda qishloq xo'jaligi bilan sanoat rivojlanishini vertikal holati va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishdan yirik foyda olish maqsadida monopolistik kapital hisobiga, mayda hamda o'rta fermer xo'jaliklarini xonavayron qilish hisobga amalga oshiriladi. 1980 yilda AQShda fermalar soni 2.7 mln. bo'lgan bo'lsa, 1998 yilda 1.0 mln ga qisqardi, shu jumladan (mahsulot) tovar fermalari - 1.6 mln. ga yaqin va bundan keyin ham tovar fermalari sonini qisqartirish va buning hisobiga ishlab chiqarishni o'rtacha ko'paytirish ko'zda tutilgan.

Yirik monopolistik kapital egalari qishloq xo'jaligiga chuqur kirib boribgina qolmasdan, mashinalar, mineral o'g'itlar sotish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish, banklardan kredit olib berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki qishloq xo'jalik yerlarini sotishni ham qo'llarida olib qolishiga xarakat qilmoqdalar.

Rivojlanayotgan davlatlar xukumati yirik xo'jaliklarga iqtisodiy ko'mak berish (imtiyozli bank kreditlari olib berish, texnikani takomillashtirish, davlat hisobiga yerlarni meliorativ holatini yaxshilash va hokazo), qishloq xo'jalik yerlarini yiriklashtirish va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni to'plash bilan birgalikda mayda xo'jaliklarni huquq va imkoniyatlarini cheklashtirmoqdalar. Bunday xo'jalik yuritish tadbirlari yirik xo'jaliklarni barpo qilish, texnikaviy jihozlangan xo'jaliklar va tovar mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishga yo'naltirilgan.

Rivojlanayotgan ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish darajasini va ularda mavjud agrar munosabatlarni qayta o'zgartirish va modernizatsiya qilish bo'yicha turlicha holatlarni qurish mumkin. Bu mamlakatlarda boshqarish qiyin bo'lgan holatlarni, agrar munosabatlarning murakkabligi, mablag'larning yetishmasligi va ularni kiritmaslik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi rivojlanishini sustlashtirmoqda. Shu guruhga kiruvchi ayrim mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan yuqori bo'lgan yirik yer egaligi hisobiga tovar mahsuloti ishlab chiqarish shakllandi. Bundan tashqari rivojlanayotgan mamlakatlar ham borki ularda qishloq xo'jaligi rivojlanishi chet el kapitali bilan bog'liq bo'lib, ular asosan yerlardan yaxshiylarcha foydalanib, eksport qiladigan ekinlarni ishlab chiqarishni tashkil qilishgan, keyinchalik esa texnikaviy takomillashgan plantatsiyalarda, har ikkala holda ham mahalliy aholini ezish hisobiga, asosan foydani asosiy qismini chetga olib ketishgan.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo'jaligi ilmiy texnika revolyutsiyasi bilan bog'liq bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishga, importni qisqartirib yoki to'xtatishga imkon beribgina qolmay,

o'zlari eksport qila boshladilar. Masalan: AQSh - soya; Fransiya – bug'doy va sholi; GFR, Fransiya - quruq sut; Yaponiya - sholi va hokazo.

Natijada oxirgi 15-20 yil ichida rivojlangan mamlakatlarni dunyo oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha salmog'i o'sdi, aksincha rivojlanayotgan mamlakatlarning salmog'i birmuncha qisqadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'piga xos bo'lgan xususiyatlardan biri bo'lgan to'yib ovqat emaslik va ocharchilikning keng tarqalishi faqatgina tabiiy sharoitning noqulayligi sababli yoki yangi maltuschilik tushunchasi, aholini «yuqori» tabiiy o'sishi bilan bog'liq emas. Balki, hozirgi zamon texnika tarraqqiyotining sustligi qishloq xo'jaligining joylashishiga bog'liqdir.

Bundan tashqari rivojlanayotgan mamlakatlarning umumiy iqtisodiy qoloqlik darajasi mahalliy noqulay tabiiy sharoitlarni yaxshilash imkoniyatlarini bermayapti natijada ishlab chiqarishni rivojlantirishga imkoniyat yaratilmayapti.

Qoloqlikning asosiy ildizi o'tmishda bu mamlakatlarning rivojlangan mamlakatlarga qaram qilish va hozirda ham ularni xom-ashyo yetkazib beruvchi bo'lib qolishiga intilishi bilan bog'langandir.

1.9.JAHON YER FONDI.

Dunyo yer fondining tahlili 1-jadvalda berilgan. Jadvalda asosan maydonlarning hajmi va tarkibiy ko'rsatkichlari o'rin olgan. Dunyo yer fondining umumiy maydoni - 134 mln km² (13,4 mlrd. ga). 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, dunyo yer fondining asosiy qismini Afrika, MDH, Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerika egallagan. Aholi jon boshiga oladigan bo'lsak, aholisi nisbatan kam bo'lgan Avstraliya birinchi, aholi eng ko'p bo'lgan Osiyo esa oxirgi o'rinni egallagan.

Birinchi jadvaldagi yer fondi tizimi ham batafsil sharxlashga muhtoj. Bu albatta dunyo yer fondini egallagan sifatli ishlov berilgan yerlarga taaluqlidir. Bu yerda MDH, Afrika, Shimoliy Amerika uchun ko'rsatkichlar taxminan dunyo bo'yicha o'rtacha darajasida Yevropa va Osiyoda esa ko'proq Janubiy Amerika,

Avstraliya va Okeaniyada esa eng yuqoridan kamroq. Ayrim mamlakatlar bo'yicha olsak ishlov berilgan yerlar miqdori bo'yicha AQSh (190 mln. ga), Hindiston (160), Rossiya (134), Xitoy (95), Kanada (46), Qozog'iston (36), Ukraina (34) mamlakatlari ajralib turadi. Jahonning barcha mintaqalarida, Yevropadan tashqari, tabiiy o'tloq va yaylovlar ishlov berilgan yerlarga nisbatan ko'proqdir, bu ustunlik Avstraliyada o'n marotabadan yuqoriroqdir. O'z navbatida MDH, Yevropa, Shimoliy Amerikada o'rmonli yerlar maydonining salmog'i o'tloq va yaylovlarga nisbatan ancha salmoqli, Janubiy Amerikada esa maydonining yarmidan ko'pini egallaydi. Dunyo bo'yicha ham, shuningdek aksariyat mintaqalar bo'yicha ham aholi punktlari, sanoati va transport tizimlari joylashgan yerlarni kengayishi 1-2%ni tashkil qiladi va faqatgina Yevropa va Shimoliy Amerikada bundan biroz yuqoriroq. Kam hosildor yerlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich asosan MDH, Osiyo, Afrika, Shimoliy Amerikaga to'g'ri keladi.

Qit'alar, materiklar	Umumiy maydon		Qishloq xo'jaligi yerlari		Yer fondining tarkibi		% larda
	Mln km ²	Jon boshiga (ga)	Ishlov beril- gani, %	Tabiiy o'tloq va yaylovlar, %	O'rmonli yerlar, %	Aholi punktlari sanoati va transport yerlari, %	Kamxosil- dor va xosil bermaydi- gan yerlar, %
MDH	22,4	8,1	10	17	36	1	36
Yevropa	5,1	1,0	29	18	32	5	16
Osiyo	27,7	1,1	17	20	20	2	39
Afrika	30,3	6,4	11	26	23	1	39
Shim.Amerika	22,5	6,1	12	16	31	3	38
Jan. Amerika	17,8	7,3	7	20	52	1	20
Avstraliya va Okeaniya	8,5	37,0	5	54	18	1	22
Butun dunyo	134,0	3,0	11	23	30	2	34

Dunyo yer fondining asosiy muammolari deb olimlar quyidagilarni tushunadilar: tuproq hosildorligini yo'qolishi, tuproq eroziyasi, uning ifloslanishi,

tabiiy o'tloqlarning biologik hosildorligini yo'qolishi, sug'oriladigan maydonlarning sho'rlanishi va botqoqlanishi. Turar joy va sanoat korxonalari va transport tizimlari qurishga yerlarni ketishi va hokazolar. Ba'zi hisob-kitoblarga qaraganda insoniyat hozirga kelib 2 mlrd. gektar hosildor yerlarni yo'qotib bo'ldi. Birgina erroziya natijasida dunyo bo'yicha har yili qishloq xo'jalikda foydalaniladigan yerlardan 6-7 mln gektari qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketadi. Sho'rlanish va botqoqlanish natijasida 1,5 mln gektar yer ishdan chiqadi. Bu noxush ko'rinishlarning yaqqol natijasi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ishlov, berilgan yerlarning keskin kamayib ketganligidir. Masalan sobiq Ittifoqda bu ko'rsatkich 1,03 ga.dan (1960 y), 0,81 ga (1998 y) ga kamaydi. Dunyo bo'yicha u yuqoriligicha qolgan (2-jadval), ammo ba'zi mamlakatlarning haydalgan yerlar bilan ta'minlanganlik darajasi juda kamayib ketgan (Xitoy - 0,09ga, Misr - 0,05ga).

***Dunyo mintaqalarining haydalgan yerlar bilan ta'minlanganligi
(aholi jon boshiga)***

Qit'alar, Materiklar	Ta'minlanganligi (ga)
MDH	0,81
Yevropa	0,28
Osiyo	0,15
Afrika	0,30
Shimoliy Amerika	0,65
Janubiy Amerika	0,49
Avstraliya va Okeaniya	1,87

Ko'pgina mamlakatlarda yer fondini saqlab qolishga va uning tizimini yaxshilashga xarakat qilinyapti. Bu narsa mintaqaviy va dunyo miqyosida BMT ning maxsus tashkilotlari. YUNYESKO (BMTning maorif, fan va madaniyat ishlari bo'yicha tashkiloti), FAO (BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha tashkiloti) tomonidan nazoratga olingan. Bu tadbirlarning natijasi sifatida dunyoning tuproq xaritasini yaratilishi ya'ni agrotabiiy quvvatini aniqlash misol bo'la oladi.

1.10. YERNING ISHLAB CHIQARISH VOSITASI SIFATIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA QO'LLANILISHI

Ijtimoiy ishlab chiqarish, tarixan, inson mehnatining yer va boshqa tabiiy resurslar bilan o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keldi.

«Mehnat boylikning otasi va faol tamoyili, yer esa uning onasidir», degan edi klassik iqtisodiy nazariya asoschisi, XVII asrdagi ingliz iqtisodchisi Vilyam Petti.

Insoniyat sivilizasiyasi - yerga ta'sir etadigan asosiy omildir. Bir avlod hayoti davridagi tabiiy - tarixiy jarayonlar yerning ahvoliga doimiy o'sib boruvchi texnogen (ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bog'liq) ta'sirlarga qaraganda kam ta'sir ko'rsatadi.

Sanoatning qazib oladigan va qayta ishlaydigan tarmoqlarida yerdan olinadigan mahsulot (ma'danli xom ashyo) ishlab chiqarish vositalariga moslashtiriladi va aylantiriladi, bu odamlarning yerga ta'sir etishdagi va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi imkoniyatlarim kengaytirish imkonini beradi. Yerning hamma uchun umumiy ishlab chiqarish vositasi deb atalishi bejiz emas, sababi, u ishchiga u turadigan o'rinni, mehnat jarayoniga esa - harakat doirasini beradi. Yer keng m a'noda bu jarayon sodir bo'lishi uchun zarur barcha moddiy sharoitlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Yer har qanday faoliyatning birlamchi asosi hisoblanadi. Yer uning paydo bo'lishining moddiy sharoiti, uni amalga oshirishning kenglik asosi (bazisi), odam ishlab chiqarish masalalarini yechishda ta'sir etadigan jism (predmet) hisoblanadi. Yana, yer mehnat quroli yoki vositasi, madaniy o'simliklarga ta'sir etib dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirishda - mehnat quroli hisoblanadi. Bu esa unga hamma uchun umumiy ishlab chiqarish vositasi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun mehnat predmeti, qishloq va o'rmon xo'jaliklarida mehnat quroli sifatida qarash uchun asos bo'ladi.

Agrar hamda industrial sohalar faoliyatida, shu jumladan, qayta ishlovchi va qazib oluvchi sanoatda yerning roli hamma vaqt faoldir. Sanoat korxonalarini joylashtirish va ularning m e'yorida ishlashi yer qatlamlari sifatiga, xom-ashyo

olish va iste'mol qilish hamda tayyor mahsulotlarni topshirish joylariga nisbatan o'miga, tuproq unumdorligi va yerning boshqa xususiyatlariga, bunda yerning biologik salohiyatidan qisman foydalanilsa yoki umuman foydalanilmasa ham, bog'liq bo'ladi.

Yerning jamiyat uchun foydaliligining eng to'la namoyon bo'lishi qishloq xo'jaligida ko'rinadi, bu yerda ishlab chiqarish jarayoni bevosita uning unumdorligi va mahsuldorligi bilan bog'liq. Odam biologik, kimyoviy, texnik vositalar bilan qurollanib o'simliklarni o'stiradi, hayvonlarni parvarishlaydi, bunda u yer va u bilan bog'liq boshqa tabiiy resurslardan ham mehnat predmeti, ham ishlab chiqarish quroli sifatida foydalanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida (hamda o'rm on xo'jaligida) yerning o'ziga xos o'rni uning bu tarm oqlarda asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatidagi vazifalarini belgilaydi.

Yerning amaliy ahamiyati xalq xo'jaligining hamma tarmoqlarida bir xil bo'lmaganligi sababli, u yoki bu ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun yerning bajaradigan asosiy vazifalari va zarur sifatlarini ko'rib chiqamiz.

Yerdan unumli foydalanish uchun yer massivlarining sifati va joylashgan o'rni katta ahamiyatga ega. Unumdor, lekin uzoqda, noqulay joylashgan yerlar, odatda, judayam zarur bo'lganda, xo'jalikda foydalanishga jalb etiladi.

Qazib oluvchi (kon) sanoatida yerdan qazilma boyliklarni ishlash va xomashyo olish uchun foydalaniladi. Yer qatlamlarida m a'danli xomashyo va yonilg'i zahiralari mavjudligi tog'-kon korxonalarini joylashtirishni belgilaydi. Izzlab topilgan foydali qazilmalarning joylashgan o'rni ham katta ahamiyatga ega. Birinchi navbatda sanoat va madaniy markazlarga nisbatan qulay joylashgan boy konlar o'zlashtiriladi. Keyingi o'n yilliklarda uzoq va kam aholilik mintaqalarda ma'danli xomashyo va yonilg'i qazib olish hajmi keskin oshdi.

Qayta ishlovchi sanoatda yerdan hududiy asos sifatida foydalaniladi. Bu yerda yerning binolar va inshootlarni qurish uchun geologik sharoitlari yaroqliligi, mehnat resurslari jamlangan aholi yashash joylariga, xomashyo manbalariga va mahsulotlarni sotish joylariga yaqinligi ahamiyatga ega.

Yerdan ishlab chiqarishda foydalanishning xohlagan turini aniqlashda tuproq qatlami sifatini hisobga olish kerak. Qishloq xo'jaligining yerdan foydalanishdagi ustivorligi qonuniy tan olingan, ammo amalda, sanoat tarmoqlari yer uchastkalarini tanlashda tez- tez ustunlikka ega bo'lib kelishdi. Ishlanadigan yerlarning yaxshi texnologik xususiyatlari kapital xarajatlar sarfining kamayishini ta'minlaydi, ammo bu qishloq xo'jaligiga va butun iqtisodiyotga sezilarli zarar keltiradi.

Hozirgi sharoitda sanoat korxonalariga qimmatbaho yerlarni ajratish qattiq cheklashlar va ularni ajratish uchun katta to'lovlar bilan bog'liq. Yer tuzish bo'yicha mutaxassislariga shuning uchun yerlarni tarmoqlar emas, balki xalq xo'jaligi samaradorligi nuqtayi nazaridan, bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan kelib chiqib tarmoqlar orasida taqsimlashni tashkil etish bo'yicha murakkab masalalami yechishga to'g'ri keladi.

Yer fondida asosiy o'rinni hosildor yuqori unumli yerlar egallaydi. Ular qishloq xo'jaligining yer resurslari asosini tashkil etadi va ulardan foydalanish darajasi ko'pchilik hollarda davlatdagi oziq-ovqat vaziyatini belgilaydi.

Ilmiy-texnik progressning rivojlanishi jarayonida oldin kam unumli hisoblangan yerlar qishloq xo'jaligida foydalanishga jalb etiladi. Yangi yerlarni o'zlashtirish Mirzacho'lda, Qarshi cho'lida va boshqa janubiy -sharqiy mintaqalarda dehqonchilik hajmini ancha kengaytirish imkonini berdi; bu jarayon Orol bo'yi mintaqasida murakkab ekologik muammolarni keltirib chiqardi.

Agrar ishlab chiqarishini yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga kengaytirish tarmoqning ekstensiv rivojlanishini tavsiflaydi; bunday amaliyot asosan ilmiy va texnologik salohiyati past, yangi yerlarni o'zlashtirish imkoniyati bor mamlakatlarda qo'llaniladi. Qishloq xo'jaligi yuqori intensivlashgan ekinlarga, yuqori mahsuldor chorvachilikka o'tishi natijasida rivojlanadi, bu iqtisodiy nuqtayi nazardan kapitalning yangi uchastkalarga tarqatilmasdan mavjud yer maydonlarida jamlanishini bildiradi.

Intensiv yerdan foydalanish qishloq aholisi kamayayotgan va shahar aholisi mutloq va nisbiy o'sayotgan, sanoat yetakchi rol o'ynaydigan iqtisodiy rivojlangan

davlatlarda agrosanoat ishlab chiqarishining umumiy qoidasi va ob'ektiv zaruratidir. G'arbiy

Yevropaning industrial rivojlangan davlatlarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tashkil topishini tarixiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi u yerda qadim dan ishlov beriladigan yerlar maydonini kengaytirish hisobiga emas, balki, ishlov berish sifatini yaxshilash, oldingi yer maydoniga to'g'ri keladigan moddiy-texnik vositalarni ko'paytirish yo'li bilan, ya'ni intensiv rivojlangan. Aynan shu, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishining eng samarali va tabiatdan oqilona foydalanishga qaratilgan yo'li hisoblanadi.

Yerlardan intensiv usullarda foydalanish, shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi yer resurslari bazasini kengaytirish uchun, yo'qotilgan qishloq xo'jalik yerlari o'rnini to'ldirish uchun yangi maydonlarni iqtisodiy asoslangan, aqlga mos miqdorlarda o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Asosan, kam unumli yerlarni o'zlashtirishga to'g'ri keladi. Tarixan quyidagi vaziyat tarkib topgan: tuproqning yuqori unumdorligi undan darrov va yuqori intensivlikda foydalanish mkoniyatiga mos keladi. Jamiyat uchun nafaqat yaxshi yerlarning unumdorlik darajasi, balki, qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan unumdor yer turlarining ishlab chiqarish imkoniyatlarining yig'ma (umumiy) ko'rsatkichi ahamiyatga ega. Bu qishloq xo'jalik yerlari unumdorligining «umumiy hajmi» - mamlakatimiz oziq-ovqat salohiyatining judayam ahamiyatli ko'rsatkichidir.

Yerlar unumdorligi ularning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanganligini ko'rsatuvchi asosiy belgidir. Unumdorlik yerlarning ishlab chiqarishda haydalma yerlar, bog'lar, yaylovlar, pichanzorlar sifatida foydalanishga yaroqliligi bilan bog'liq.

1. Yer boshqa ishlab chiqarish vositalariga o'xshab inson mehnati mahsuloti emas, u - tabiat mahsulotidir. Yer tabiiy jism bo'lib, ma'lum tarixiy bosqichda inson hayoti va uning mehnat faoliyati duiyasi Jamiyaning texnik arsenaliga kiradigan barcha ishlab chiqarish vositalari manbasiga aylanadi. Inson mehnati asta-sekin yerni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi vositasiga aylantiradi.

Yerdan ishlab chiqarish vositasi sifatida boshqa tabiiy resurslar suv, quyosh energiyasi, havo bilan o'zaro chambarchas bog'liq holda foydalanitadi. Tabiiy muhit elementlarining barchasidan qanchalik to'la foydalanilsa, yerning unumdorligi darajasi shunchalik yuqori, sarflangan mehnat va kapitalning foydasi ko'p bo'ladi.

Yer almashtirib bo'lmaydigan ishlab chiqarish vositasidir. Ilmiy-texnik rivojlanish boshqa ishlab chiqarish vositalarining soni jihatdan cheklanmagan o'sishini va sifati yaxshilanishini ta'minlaydi, yerning kengligi esa yer sharining quruqligi bilan cheklangandir. Lekin unumdorlik xususiyati esa cheklanmagan; dehqonchilik mintaqalarida qishloq xo'jaligining yer resurslari imkoniyatlari hali tugagan emas.

Quyosh energiyasi, issiqlik, namlik, tabiiy biogeotsenoz'lar zaxiralaridan o'zlashtirilgan maydonlarda to'laroq foydalanish kerak.

2. Yer joylashgan o'rnining doimiyligi (qo'zg'almasligi) bilan tavsiflanadi, shuning uchun uning kenglik shakllari va ko'plab xususiyatlari o'zgarmasdir. Boshqa ishlab chiqarish vositalarini (masalan, traktorlar, kombayinlar, qishloq xo'jalik mashinalari) odam yerning ustida ishlab chiqarishda foydalanish jarayonida qo'zg'atadi, o'rnini o'zgartiradi, binolar va inshootlar ham qismlarga ajratilishi mumkin. Bularning hammasi ishlab chiqarishning ko'p yoki kam harakatchan elementlari yer massivlarining hududiy xususiyatlariga moslangan bo'lishi kerak.

3. Yer boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqli o'laroq jismonan va ma'naviy eskirishga kamroq uchraydi. Yerning unumdorligi ko'proq o'ziga yarasha hayot qobig'i hisoblanadigan tuproqlarning organik qismi bilan aniqlanadi. Tuproqqa qanchalik ko'p organik modda qo'shilsa, yer shunchalik unumdor bo'ladi. Shu bilan bir qatorda nooqilona (shu jumladan haddan tashqari intensiv) foydalanilganida u «abadiy» ishlab chiqarish vositasi sifatini yo'qotadi va tezlik bilan o'zining unumdorlik qobiliyatini pasaytiradi.

4. Yer - planetamizda barcha tirik maviudodlarning saqlanishi asosidir, shu jumladan, odamlarning, uning ishlab chiqarish vosi talari sifatida faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan barcha tabiiy resurslar va iqtisodiy muhit elementlarining ham. Shunday qilib yerdan oqilona foydalanish masalasi tabiiy holda uni muhofaza qilish talablari bilan qo'shiladi.

Yerning undan qishloq xo'jaligida foydalanishda ko'rinadigan xususiyatlari, yer bilan ajralmas bog'liq, boshqacha aytganda «unga ildiz otgan» ishlab chiqarish vositalarining maxsus toifasini ajratishga olib keladi. Ular qo'zg'almas xarakterga ega va insonga mehnat quroli sifatida uning ta'sirini yerga o'tkazuvchi sifatida xizmat qiliadi. Ular joylashish xarakteri bo'yicha ikki turga bo'linishlari mumkin: cheklangan hududlar uchastkalarida joylashgan ob'ektlar va katta uzunlikka ega chiziqli ob'ektlar.

Yerning ishlab chiqarish vositasi ekanligi to'g'risidagi ta'limot fanning asosi hisoblanadi. Mavzuni o'rganishda iqtisod va boshqa fanlardan olingan bilimlardan foydalanish zarur.

Odamlarning ishlab chiqarish faoliyati va hayoti uchun zarur moddiy sharoitlar ichida yer asosiy o'ringa ega. U har qanday ishlab chiqarish jarayonining tabiiy asosi va zaruriy sharti hisoblanadi. Yer hamma boyliklarning manbaidir.

Qishloq xo'jaligida yer nafaqat umumiy-ishlab chiqarishi vositasi va hududiy asos, balki u yana ikkita ahamiyatli vazifani bajaradi: inson mehnati qaratilgan jism (mehnat predmeti) va mehnat quroli. Odam mehnat quroli yordamida qishloq xo'jalik-ekinlarini o'stiradi. Shuning uchun ham yer qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. U qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda qatnashadigan ishlab chiqarishning faol omilidir.

Yer ishlab chiqarish vositasi sifatida boshqa ishlab chiqarish vositalaridan quyidagi asosiy xususiyatlari bilan farq qiladi:

- 1.Yer inson mehnati natijasi emas, balki, tabiat maxsulidir;
- 2.Yer kengligi cheklangan va uni o'rnini boshqa hech nima bosa olmaydi;

3.Yerdan foydalanishda uni oʻrnidan qoʻzgʻatib boshqa joyga koʻchirib boʻlmaydi va undan faqat joylashgan oʻrnida foydalanish mumkin;

4. Yer abadiy ishlab chiqarishi vositasi boʻlib, undan toʻgʻri foydalanilganda doimiy ravishda sifati yaxshilanib boradi.

Ishlab chiqarish jarayonida yer bilan bir qatorda unga ajralmas bogʻlangan koʻplab ishlab chiqarish vositalari qatnashadi. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Ishlab chiqarish binolari, inshootlari;
2. Suv tarmoqlari va inshootlari;
3. Transport tarmoqlari va inshootlari;
4. Daraxtzorlar;
5. Boshqa xoʻjalik inshootlari.

Yer xalq xoʻjaligining barcha tarmoqlarida korxonalar, tashkilotlar va muassasalarni joylashtirish va rivojlantirish uchun zamin vazifasini bajaradi. U kon sanoati tarmogʻida inson mehnati qaratiladigan jism (mehnat predmeti). Qayta ishlash sanoatida esa zamin (asos) vazifasini bajaradi.

Yer ijtimoiy - iqtisodiy manfaatlar va aloqalar manbai hisoblanadi. Yerdan va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish oʻzaro bogʻliq boʻlib, ularning biridan foydalanish boshqasiga albatta taʼsir etadi. Yer tuzishda ishlatiladigan "**yer**" soʻzini quyidagidek talqin qilish mumkin.

Yer - bu quruqlikning ustki kengligi, tuproq qatlami, oʻsimliklar dunyosi, qazilma boyliklar va suv manbaalariga ega tabiiy resurs, ijtimoiy – iqtisodiy manfaatlar va aloqalar manbai, xalq xoʻjaligining barcha tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirish uchun hududiy zamin, hamda qishloq xoʻjaligida asosiy ishlab chiqarish vositasidir.

Yer tabiat mahsuli sifatida paydo boʻlgan va inson ongi hamda irodasiga bogʻliq boʻlmagan holda mavjuddir. U murakkab moddiy tizim sifatida ifodalanadi va yer toʻgʻrisidagi tushunchaning turli-tuman mohiyatini oʻz ichiga oladi .

Yerni ishlab chiqarish vositasi, holati toʻgʻrisidagi soʻz yuritishdan oldin albatta birinchi navbatda, yer toʻgʻrisidagi umumiy tushunchaga ega boʻlmoq

zarur. Geografik nukta nazardan yerning yuzasi sayyora deb tushiniladi. Yer quyosh tizimining uchinchi sayyorasi hisoblanadi. U bundan 4,5milliard boshqa bir ma'lumot bo'yicha 5,5 milliard yil oldin paydo bo'lgan. Yer sayyorasida quriqlik 149,1 mln.kv.km ni tashkil etgan bo'lib, u dengiz sathidan o'rtacha 875 m balandlikda joylashgan. Shu quriqlikning 1/3 qismi tog'lardan iborat, okeanlarning maydoni 361,1mln kv.km dan iborat.

Yer mehnatning umumiy vositasidir, mehnat jarayonini amalga oshirishning zaruriy shartidir.

U ishlab chiqarish vositasi sifatida qishloq xo'jaligida, sanoatda, transportda hamda insoniyat moddiy faoliyatining boshqa barcha tarmoqlarida gavdalanadi. Ammo yer boshqa ishlab chiqarish vositalaridan anchagina farq qiladi. Asosiylari quyidagilardir:

1. Yerdan tashqari barcha ishlab chiqarish vositalari inson mehnatining mahsulidir, yer esa tabiatning mahsuli. U tabiat in'omi sifatida mehnatdan oldin paydo bo'lgan hamda ushbu mehnatning tabiiy sharoitidir.
2. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan ishlab chiqarish vositalari miqdor jihatdan ko'payadi va sifat jihatdan o'zgarib boradi. Yerga kelganda, uning yuzasi (maydoni) yer sharining quruqlik qismi bilan chegaralangandir. Yerni biron-bir ishlab chiqarish vositasi bilan almashtirish imkoniyati mavjud emas.
3. Yerdan foydalanish doimiy joy bilan bog'liq. Uni ishlab chiqarish vositasi sifatida bir joydan boshqasiga ko'chirish mumkin emas. Boshqa ko'pgina ishlab chiqarish vositalari doimiy o'rni bilan bog'lanmagan.
4. Barcha ishlab chiqarish vositalari foydalanish jarayonida eskiradi, o'zlarining foydalanish xususiyatlarini yo'qotadi va nihoyat, ishlab chiqarish jarayonidan umuman chiqib ketadi. Yer esa vaqtning yemiruvchi ta'siri izmida bo'lmagan doimiy ishlab chiqarish vositasidir. Buning ustiga yerdan to'g'ri foydalanish natijasida uning unumdorligi ortib boradi.

Yuqoridagilardan yana bir karra xulosa qilish mumkinki, yer o'ziga xos bo'lgan ishlab chiqarish vositasidir.

Qishloq xo'jaligida ko'pincha yerning ustki gumuz qatlami, ya'ni unumdorlik xususiyatlariga ega bo'lgan qismi tuproqdan foydalaniladi. Yerning unumdor qatlami unchalik qalin emas, 20-50 sm ancha yaxshi sharoitlarda u 1,5 metrdan oshmaydi.

Qishloq xo'jaligida yerning asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida bir xil emasligi; boshqa tarmoqlarda foydalaniladigan uchastkalarining sifati har xilligi, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarining ko'pligi yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning dinamik xarakteriga olib keladi. Rivojlanish omilini, yer munosabatlari dinamikasini hamma vaqt yerlarni nafaqat ishlab chiqarish uchun, balki har qanday boshqa faoliyat uchun ham tuzishda hisobga olish kerak. Yer tuzish yerga egalik qilish va yerdan foydalanish tizimini yaratib, yerning ham tabiiy resurs, ham ishlab chiqarish vositasi, ham iqtisodiy-ijlimoiy aloqalar ob'ekti sifatida xizmat ko'rsatishini ta'minlaydi. Shundan yer tuzishda ishlatiladigan «Yer» tushunchasining murakkabligi ko'rinadi.

O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi islohotlar yerdan foydalanish tizimini ham qamrab oldi. O'nlab yillar davomida yuzaga kelgan yer munosabatlaridagi formalizm tugatilmoqda, yerga bo'lgan davlat mulkchiligining yakka hokimligiga barham berilmoqda, xususiy yerga egalik qilish doirasi to'xtovsiz kengaymoqda, dehqonlarning yerni saqlash, uning sifatini yaxshilashdan m anfaatdorliklari oshmoqda. Bularning hammasi yer tuzish xizmati oldiga yaqin yillarda yechilishi kerak bo'lgan ko'plab yangi masalalarni qo'yadi.

Mustaqil o'rganish uchun savollar

1. Yer to'g'risidagi dastlabki tushunchalar qanday bo'lgan?
2. Tabiiy resurslarga ta'rif bering?
3. Tabiiy resurslarning xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Yer nima uchun iqtisodiyot tarmoqlarining ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi?

5. Nima sababdan yerni qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chikarish vositasi deb hisoblaymiz?
6. Yer bilan chambarchas bog'liq bo'lgan qanday ishlab chiqarish vositalarini bilasiz?
7. Sugorish suvi nima sababdan qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi?
8. Ijtimoiy ishlab chiqarishda yer qanday iqtisodiy ahamiyatga ega?
9. Qanday hollarda yer umumiy ishlab chiqarish vositasi, mehnat predmeti va mehnat quroli hisoblanadi?
10. Agar yer mehnat quroli bo'lsa, nima mehnat predmeti bo'ladi?
11. Nima uchun yer qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi?
12. Yerning boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqi nimada?
13. Yer bilan ajralmas bog'liq ishlab chiqarish vositalariga nimalar kiradi va ular qanday iqtisodiy ahamiyatga ega?
14. Xalq xo'jaligi tarmoqlarida yer qanday vazifalarni bajaradi?
15. Yer tuzishda ishlatiladigan yer tuizish tushunchasiga tavsif bering?
16. Yerning tabiiy resurs sifatida jam'iyat hayotidagi ahamiyati qanday?
17. Qanday hollarda yer mehnat predmeti, mehnat quroli va barcha uchun umumiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi?
18. Nima uchun yer qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi?
19. Xalq xo'jaligining har xil tarmoqlarida yerning ahamiyati qanday?
20. Yer boshqa ishlab chiqarish vositalaridan nimasi bilan farq qiladi?
21. Yer bilan ajralmas bog'liq ishlab chiqarish vositalariga nimalar kiradi?
22. Yer tuzishda qoilaniladigan «yer» tushunchasiga ta'rif bering.

2-BOB. YERDAN FOYDALANISH VA YER MUNOSABATLARI TO'G'RISIDA TUSHUNCHA

2.1. YERDAN FOYDALANISH TO'G'RISIDA TUSHUNCHA.

Yerdan foydalanish - yerdan foydalanish tartibi, shartlari va shakllari. Turli mamlakatlarda turlicha bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi hududida yashaydigan xalqlarning yerga mulkchilik huquqi davlat tomonidan amalga oshiriladi. Yer qishloq xo'jalik va o'rmon xo'jaligini yuritish uchun shirkat (jamoat) xo'jaliklariga, davlat, kooperativ, jamoat korxonalariga, muassasalar va tashkilotlarga, diniy tashkilotlarga, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, qo'shma korxonalarga, xalqaro birlashmalarga doimiy yoki vaqtincha foydalanish uchun beriladi. Yerdan foydalanish tartib va shartlari "Yer kodeksi" bilan belgilanadi. Yerni foydalanishga berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyat va tuman (shahar) hokimliklari qarorlari asosida amalga oshiriladi. Odatda, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan korxona, muassasa, tashkilot va fuqarolar yerdan doimiy foydalanuvchilar deb hisoblanadi.

Yerdan vaqtincha foydalanish qisqa (3 yilgacha) va uzoq (3 yildan 10 yilgacha) bo'lishi mumkin. Fermer xo'jaliklari uchun 49 yilgacha, yaylov chorvachiligi uchun yer maydonlari 29 yilgacha muddatga berilishi mumkin. Qishloq va o'rmon xo'jaligi korxona, tashkilot va muassasalariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga yerdan doimiy foydalanish huquqi davlat dalolatnomasi bilan guvohlanadi hamda yerga egalik qilish huquqining himoya qilinishi davlat tomonidan ta'minlanadi. Yer egaliklariga qarashli yerlarni vaqtincha foydalanishga berilganda belgilangan muddatdan so'ng tuproqning unumdorligini dastlabki holatiga keltirib qo'yilishi shart.

Qishloq xo'jaligida yerdan oqilona foydalanish maqsadida boshqa yordamchi tarmoqlarni ham mutanosib rivojlantirish uchun ekinzor yerlar ajratiladi. Bunda almashlab ekishni joriy etish chorvachilik, sabzavotchilik, pillachilik, bog'dorchilik kabi qo'shimcha tarmoqlar talabi ham hisobga olinadi.

Yer uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli (vaqtincha) egalik qilishga hamda ulardan doimiy va muddatli (vaqtincha) foydalanishga berilishi mumkin.

Yer uchastkalari korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qishloq va o'rmon xo'jaligi yuritish uchun, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, boshqa maqsadlar uchun ham doimiy egalik qilishga beriladi.

Doimiy yoki muddatli (vaqtincha) foydalanish uchun yer uchastkalari:

- ❖ O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga;
- ❖ sanoat, transport hamda boshqa noqishloq xo'jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga;
- ❖ chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga;
- ❖ chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga beriladi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yer uchastkalari foydalanish uchun boshqa tashkilotlar va shaxslarga ham beriladi. Yer uchastkasiga doimiy egalik qilish huquqi yer uchastkasiga doimiy egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati bilan tasdiqlanadi.

Yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqi Yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini beruvchi davlat hujjati bilan tasdiqlanadi.

Davlat hujjatlarining shakllari, ularni ro'yxatga olish va bunday hujjatlarni berish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yer uchastkalari foydalanish maqsadiga qarab qishloq xo'jalik ishlab chiqarish, uy-joy qurish, o'rmon xo'jaligini yuritish, suv inshootlarini joylashtirish, sanoat, transport, mudofaa ehtiyojlari uchun, sog'lomlashtirish, rekreatsiya va boshqa maqsadlar uchun egalik qilishga beriladi.

Yer uchastkalari doimiy yoki muddatli egalik qilish va foydalanishga barcha yuridik va jismoniy shaxslarga, chet el yuridik va jismoniy shaxslariga, xalqaro birlashma va tashkilotlarga beriladi. Yer qonunchiligida yerga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqi hech kimga nisbatan cheklanmaydi.

Yer uchastkasi doimiy egalik qilishga berilganda bu huquq yerga egalik qiluvchi sub'ektga yer uchastkasiga doimiy egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati beriladi. Yer uchastkasi doimiy foydalanishga berilganda bunday huquqni tasdiqlovchi hujjat bo'lib, yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini beruvchi davlat hujjati hisoblanadi.

Yer qonunchiligida ko'rsatilishicha, yer uchastkasi bo'linadigan va bo'linmaydigan bo'lishi mumkin. Agar o'zining asosiy foydalanish maqsadini o'zgartirmagan va yong'inga qarshi, sanitariya, ekologiyaga oid, shaharsozlik hamda boshqa majburiy normalar va qoidalarni buzmaganda holda qismlarga bo'lish mumkin bo'lgan va bu ish amalga oshirilgandan keyin hosil bo'lgan qismlarning har biri mustaqil yer uchastkasini tashkil etishi mumkin bo'lgan yer uchastkasi bo'linadigan yer uchastkasi hisoblanadi.

Bo'linmaydigan yer uchastkasi deganda, foydalanish maqsadiga ko'ra bo'linishi mumkin bo'lmagan yer uchastkasi tushuniladi. Bunday yer uchastkasiga misol qilib fermer xo'jaliklariga ijaraga berilgan yer uchastkalarini, fuqarolarga uy-joy qurish uchun berilgan yer uchastkalarini, dehqon xo'jaliklariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik huquqi asosida berilgan yerlarni ko'rsatish mumkin. Bu toifa yer uchastkalari undan foydalanuvchi sub'ektlar tomonidan o'zaro bo'lib olinishi mumkin emas. Shuning uchun bu yer uchastkalari birgalikda egalik qilinadigan va foydalaniladigan yer uchastkalari deb yuritiladi. Shuningdek, aholi punktlarining umumfoydalanishda bo'lgan yerlari, servitut huquqi asosida foydalaniladigan yerlarni ham birgalikda foydalanadigan yer uchastkalari toifasiga kiritish mumkin.

Birgalikda egalik qilinadigan va foydalaniladigan yer uchastkalari, undan foydalanuvchi sub'ektlar haqidagi ma'lumotlar doimiy egalik qilish huquqini va doimiy foydalanish huquqini tasdiqlovchi davlat hujjatida ifoda etib qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2006 yil 3 fevraldagi «Yer kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida»gi qarorida birgalikda egalik qiluvchilar o'rtasida yerdan foydalanish

tartibi o'rnatilganidan so'ng vujudga kelgan yer uchastkasiga egalik qilish yoki foydalanish tartibi yuzasidan kelib chiqqan nizolarni hal qilishda sudlar quyidagilarni e'tiborga olishlari lozimligi belgilangan:

- ❖ umumiy mulk ishtirokchilaridan birining umumiy foydalanishda bo'lgan turar joyda yordamchi imoratlar va qurilmalarni barpo etishi o'z-o'zidan birgalikda egalik qilinadigan yoki foydalaniladigan yer uchastkasining o'lchamini o'zgartirishga asos bo'lmaydi;
- ❖ uy-joy mulkdorlaridan biri uy-joyning o'ziga tegishli qismini o'zga mulkdorga o'tkazganda, shuningdek uy-joyning bir qismi vorislik, hadya va boshqa tarzda o'zgaga o'tkazilganda yer uchastkasidan foydalanish tartibini yangidan belgilashga, faqat bu tartib boshqa mulkdorlarning huquq va manfaatlariga zid bo'lmagan taqdirdagina, yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi yer qonunchiligida yerga nibatan yetti xil shakldagi huquq belgilangan bo'lib, ular ichida doimiy egalik qilish huquqi, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi, doimiy foydalanish huquqi o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida davlatning "yer"ga doir siyosati o'ziga xos tarzda rivojlanib kelmoqda. Bunda respublikamizning bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlaganligi sababli yerdan foydalanishning yangi shakllari vujudga kelganligi va rivojlanlanganligi, qolaversa mavjud shakllarning o'ziga xos xususiyatlar kasb etganligi diqqatimizni jalb etadi. Xususan, sharhlanayotgan moddada keltirilgan yer uchastkasiga egalik qilish va undan doimiy foydalanish huquqining boshqa shaxsga o'tishi masalasini o'ziga xos tarzda talqin qilish mumkin. Sobiq Ittifoq davrida yerga nisbatan davlatning mutlaq mulk huquqi o'rnatilganligi, fuqarolik muomalasidagi boshqa ob'ektlarga nisbatan ham xususiy mulkchilikning cheklanganligi sababli ushbu masala nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etar edi. Bunda asosan yer uchastkasi yuzasida joylashgan bino-inshoot yoki boshqa biron bir tarzda ko'chmas mulkning boshqa shaxsga o'tishi, ya'ni yerda joylashgan ob'ektning mulkdori o'zgarishi munosabati bilan ushbu yer uchastkasi egasi,

foydalanuvchisi ham o'zgarishi nazarda tutiladi. Ko'rinib turibdiki, sharhlanayotgan moddada shaxsning yer uchastkasi va unda joylashgan mulkka nisbatan bo'lgan huquqlari bir-biridan alohida tarzda ko'riladi. Shunga qaramay biri ikkinchisiga uzviy bog'liq bo'lib, bir-birining vujudga kelishini taqozo etadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yerda joylashgan ko'chmas mulk asosan yer uchastkasining taqdirini hal qiladi, ya'ni unga bo'lgan huquqni va ushbu huquq sub'ektini belgilaydi.

Yer huquqi nazariyasida ushbu modda mazmunini talqin qiluvchi ko'plab fikrlar uchraydi. Ularning asosiy qismida shaxsning yerdan foydalanish huquqi, unda joylashgan uyga, bino-inshootga, chorbog'ga bo'lgan mulk huquqi hamda ushbu huquqlarning uzviy bog'liqligi masalalariga amaldagi modda mazmunidan kelib chiqqan holda nazariy jihatdan yondashiladi. Tan olish kerakki, yer uchastkalariga nisbatan xususiy mulkchilik o'rnatilishi munosabati bilan sharhlanayotgan modda biroz eskirgandek, uning ahamiyati kamaygandek tuyuladi. Qolaversa, yer uchastkasini xususiylashtirishning imkoni bo'lsa, ya'ni davlatda bunday tartib yo'lga qo'yilganda yer uchastkasi va undagi bino-inshootga bo'lgan huquqni, aniqrog'i mulk huquqini kompleks tarzda ko'rish mumkin bo'ladi. Ammo, mamlakatimizda hali turli yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi korxona, tashkilotlarning (asosan foyda olishni ko'zda tutuvchi nodavlat yuridik shaxslari) bino-inshootlari hamda fuqarolarning uy-joylari joylashgan yer uchastkalari to'liq xususiylashtirilmaganligi, yer uchastkalarini xususiylashtirish jarayonini amalga tatbiq etuvchi mexanizmning to'liq ishga tushmaganligi ushbu moddaga nisbatan amaliyotda ehtiyoj borligini anglatadi.

Mamlakatimizning amaldagi qonunchiligida yer uchastkalarini sotib olish, hadya qilish, ayirboshlash yoki meros qoldirish man qilinishiga qaramay, yerga bo'lgan huquqlar sotilishi, hadya qilinishi, meros qilib qoldirilishi mumkinligi belgilangan.

Korxona, bino, inshoot yoki boshqa ko'chmas mol-mulk joylashgan yer uchastkasiga egalik qilish va undan doimiy foydalanish huquqining boshqa

shaxsga o'tishini rasmiylashtirish tartibi sharhlanayotgan moddaning uchinchi qismida yoritilgan bo'lib, unda shaxsning yer uchastkasiga bo'lgan huquqini rasmiylashtirish tartibiga doir yer qonunchiligidagi umumiy asoslarga rioya qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda eng avvalo korxona, bino, inshoot yoki boshqa ko'chmas mol-mulk mulkdorlari yoki ular vakolat bergan organlar hamda shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar, tegishli qarorlar asosida yer uchastkasi joylashgan hududdagi tuman, shahar yer-kadastr daftariga yerning yangi egasi yoki yerdan yangi foydalanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi. Shundan so'ng yer uchastkasiga doimiy egalik qilish, undan doimiy foydalanish yoki yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjatlari topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish ishlari 2004 yilgacha Vazirlar Mahkamasi huzurida faoliyat yuritgan Geodeziya, kartografiya va davlat kadastr bosh boshqarmasi (shu yili ushbu boshqarma hamda Yer resurslari davlat qo'mitasi negizida yangi – O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi tashkil qilingan) tomonidan tasdiqlangan, Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 27 mayda 736-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma bilan tartibga solinadi.

Ta'kidlash joizki, yer uchastkalari bo'linadigan va bo'linmaydigan, ya'ni "Yer kodeksi"ning 10-moddasida nazarda tutilgan talablarga javob bermaydigan bo'lishi mumkin. Yer uchastkalarini bo'lishning imkoni mavjud bo'lganda, ularning har biriga nisbatan huquqlar alohida belgilanadi va rasmiylashtiriladi. Yer uchastkasini uning yangi egalari tomonidan bo'lishning imkoni bo'lmagan taqdirda esa, ushbu yer uchastkasining bo'linishi tegishli tuman (shahar) davlat kadastr va yer tuzish xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi hamda tuman, shahar hokimining qarori bilan tasdiqlanadi. Shaxsning yer uchastkasiga egalik qilish va

undan doimiy foydalanish huquqi davlat ro'yxatiga olingach, unga "Yer kodeksi"ning 33–moddasida ko'rsatilgan davlat hujjatlari beriladi.

O'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish

O'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut) - qo'shni bo'lgan bir yoki bir necha yer uchastkalaridan cheklangan tarzda foydalanish huquqidir.

Servitut kelishuviga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar o'zganing yer uchastkasidan qonunda (kelishuvda) belgilangan maqsadlarda muayyan muddat davomida foydalanish huquqiga ega bo'ladilar. Servitut yerdan foydalanuvchi sub'ektlar o'rtasida ma'lum ehtiyoj yoki zaruriyat tug'ilgandagina qo'llaniladi.

Servitutni yer mulkdori, foydalanuvchisi yoki ijarachi egaligida bo'lgan yer uchastkalaridan piyoda o'tish, elektr, aloqa liniyalari o'tkazish, suv olib o'tish yoki boshqa maqsadlar uchun foydalanish ham deb tushunish mumkin.

Servitut quyidagi maqsadlarda belgilanadi:

a) yer uchastkasidan piyoda va transportda o'tish. Ma'lumki, yer uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida taqsimlangan, ular tomonidan foydalanayotgan yoki davlat hokimiyati mahalliy organlari ixtiyorida bo'ladi. Bu yerlardan piyoda yoki transportda kesib o'tish yer egalariga ma'lum zarar yetkazishi mumkin, ikkinchi tomon esa shaxs o'zganing yer uchastkasidan kesib o'tmasdan o'z faoliyatini amalga oshira olmasligi mumkin. Bunday hollarda servitutning qo'llanilishi tabiiydir.

b) o'zganing yer uchastkasida drenaj ishlari o'tkazish. Yerlarning meliorativ holatini sog'lomlashtirish uchun drenaj ishlarini amalga oshirish, kollektorlar, zovurlar qazish lozim bo'ladi. Bu tadbirlarni amalga oshirishni yerdan foydalanuvchi o'zganing ham yeridan foydalanmasdan turib hal eta olmaydi. Shu sababdan drenaj ishlarini o'tkazish uchun servitut huquqidan foydalanishga to'g'ri keladi;

v) o'zganing yer uchastkasidan elektr uzatish, aloqa liniyalari va truboprovodlar, irrigatsiya, muxandislik va boshqa liniyalar hamda tarmoqlar o'tkazish va ulardan

foydalanish. Sanab ko'rsatilgan ushbu ishlarni amalga oshirish va ulardan foydalanish albatta yer egalariidan qo'shni yer egalari ixtiyorida bo'lgan yer uchastkalaridan qisman foydalanish huquqidan, ya'ni servitutdan foydalanishni talab etadi;

g) o'zganing yer uchastkasidan ekinzor va mollarni sug'orish uchun suv olish. Yer egalari o'z foydalanishdagi yer uchastkalarini sug'orish uchun qo'shni bo'lgan yerdan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalaridan ariq yoki kanallar qazib suv olib o'tishga majbur bo'ladilar. Bunday hollarda ham servitut kelishuvi tuzilishi lozim bo'ladi;

d) mollarni o'zganing yer uchastkasi orqali haydab o'tish. Fermer, dehqon xo'jaliklari o'z qaramog'ida bo'lgan chorva mollarini yaylovlarda o'tlatib boqish, qaytarib molxonalarga haydab kelish uchun qo'shni yer egalariining yer maydonlaridan haydab olib o'tishga majbur bo'ladilar. Bu o'zga yer uchastkasi egasiga ma'lum miqdorda mulkiy, moddiy, ekologik zarar yetkazish mumkin, shuning uchun yer egasi chorva mollarini haydab o'tishga ruxsat bermasligi mumkin. Bunday hollarda muammoni hal qilish uchun servitut kelishuviga erishishga to'g'ri keladi; y) o'zganing yer uchastkasidan qidiruv, tadqiqot va boshqa ishlarni bajarish uchun vaqtincha foydalanish. O'zganing yer uchastkasidan ushbu maqsadda foydalanish ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan ilmiy tajriba sinovlarini o'tkazish, olib borish uchun amalga oshirilishi mumkin. Masalan, ilmiy tadqiqot instituti shirkat xo'jaligi yer maydonida g'o'zaning yangi navini sinab ko'rish maqsadida tajriba olib borishi mumkin. Buning uchun esa ilmiy muassasa bilan shirkat xo'jaligi o'rtasida servitut kelishuvi tuziladi;

j) o'zganing yer uchastkasida ixota daraxtlari ekish va tabiatni muhofaza qilishga taalluqli boshqa ob'ektlar barpo etish. Har bir yuridik va jismoniy shaxslar o'z egaligida bo'lgan yer uchastkalarini shamol eroziyasidan, tuproq nurashidan, shuningdek tuproq unumdorligiga ta'sir etuvchi boshqa salbiy holatlardan muhofaza etishlari ularning majburiyatlari hisoblanadi. Yerning ekologik holatini saqlashga esa ixota daraxtlari ekish orqali erishish mumkin. Muhofaza

xarakteridagi ixotazorlarni har bir yerdan foydalanuvchi barpo etmasdan, balki shamol, garmsel boshlanishida joylashgan yer maydonlarida barpo etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qo'shni yer egalari esa ixotazor barpo etiladigan yer maydonining egasi bilan servitut kelishuvi tuzishlari lozim bo'ladi.

Servitut boshqa maqsadlarda ham belgilanishi, ya'ni masalan hovuz qazish va undan suv yig'ib foydalanish, xirmonlar to'plash, mevalarni quritish uchun maydonlar tashkil etish va boshqa maqsadlar uchun belgilanishi mumkin.

Odatda servitut uni belgilashni talab qilgan shaxslar bilan o'zga yer uchastkasining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi, ijarachisi va mulkdori o'rtasidagi kelishuvga muvofiq belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 173-moddasida o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqi belgilangan bo'lib, ushbu modda mazmunan Yer kodeksining sharhlanayotgan moddasiga mos keladi. Unga ko'ra, yer uchastkasida servitut belgilanishi yer uchastkasi egasining ushbu uchastkaga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlaridan mahrum etmaydi.

Servitut belgilashni talab qilayotgan shaxs bilan o'zga yer uchastkasining egasi o'rtasidagi bitimga muvofiq servitut belgilanadi va u ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Servitutni belgilash xususida kelisha olinmasa yoki uning shartlarida murosaga kelinmasa, bahs servitut belgilashni talab qilayotgan shaxsning da'vosi bo'yicha sud tomonidan hal etiladi.

Servitut belgilangan uchastkaning egasi, agar qonunda boshqa tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, servitut kimning foydasini ko'zlab belgilangan bo'lsa, o'sha shaxsdan uchastkadan foydalanganlik uchun mutanosib haq talab qilishga haqlidir.

Servitut bilan bog'liq normalar mazmunidan anglashiladiki, servitutning ob'ekti bo'lib barcha yer fondi toifalaridagi yer uchastkalari hisoblanishi mumkin. Chunonchi, zaxira yerlardan ham suv olib o'tish, mol haydab o'tish uchun zaruriyat tug'ilishi mumkin.

Servitutning sub'ekti bo'lib o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadilar. Servitut kelishuv bo'lganligi uchun uning tomonlari bo'lib bir tomondan yer egasi, foydalanuvchisi, ijarachisi va mulkdori bo'lsa, ikkinchi tomondan servitutni belgilashni talab qilgan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Servitutning mazmunini kelishuv sub'ektlarining huquq va majburiyatlari yig'indisi tashkil etadi. Ushbu huquq va majburiyatlar servitut kelishuvida belgilab olinadi.

Servitut, uni belgilashni talab qilgan shaxslar bilan o'zga yer uchastkasining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi, ijarachisi va mulkdori o'rtasida kelishuvga erishilmaganda sudning hal qiluv qaroriga binoan belgilanishi mumkin.

Servitut kelishuvi uni vujudga kelishiga sabab bo'lgan asoslar barham topsa, bekor qilinadi.

Servitutning asosiy xususiyatlarini quyidagilarda ko'rish mumkin. Birinchidan, servitut o'zganing yeridan foydalanish asosida vujudga keladi; ikkinchidan, kelishuv asosida kelib chiqadi; uchinchidan, o'zganing yer uchastkasidan to'liq emas, cheklangan tarzda foydalaniladi; to'rtinchidan, servitut kelishuvi ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama xususiyatga ega; beshinchidan, servitut sud tartibida ham belgilanishi mumkin; oltinchidan, servitut to'g'risidagi kelishuv davlat ro'yxatiga olinadi.

2.2. YER MUNOSABATLARI TO'G'RISIDA TUSHUNCHA.

Yer munosabatlari - bu yerdan foydalanish, unga egalik qilish va uni tasarruf etish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlardir. Ular fuqarolar, korxonalar, davlat organlari va boshqa xo'jalik va o'zga faoliyatlar sub'ektlari orasida kelib chiqadi. Qonun bilan tartibga solinib, ular yer huquqi munosabatlariga, ya'ni, yerdan foydalanish sohasidagi iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashning huquqiy shakliga aylanadi. Ularning bevosita ob'ekti - har xil maydonga, joylashgan o'rniga, sifati va mo'ljallangan maqsadiga ega yer uchastkalaridir.

Yer munosabatlari – bu davlat hokimiyat organlari hamda yuridik va jismoniy shaxslar oʻrtasida yerdan foydalanish, taqsimlash va muhofaza qilish boʻyicha vujudga keluvchi hamda yer qonunchiligi meʼyorlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

Bu maʼlum bir yer toifasi, misol uchun qishloq xoʻjaligi yerlarida ekin yetishtirish emas, balki respublikamizdagi barcha 8 ta toifa yerlari - qishloq xoʻjaligi yerlari, shahar va qishloqlar aholi punktlari, sanoat, transport, aloqa, mudofaa yerlari, tabiatni muhofaza qilish, sogʻlomlashtirish va rekreatsiya maqsadlari yerlari, tarixiy-madaniy yerlar, suv va oʻrmon fondi yerlari, zaxira yerlaridagi munosabatlar tushiniladi.

Masalan: Bugungi kunda respublikamiz boʻyicha jami yer maydoni 44 mln 892 ming gektarni tashkil etib, jami 7 mlnga yaqin turli maqsadlarda yerdan foydalanuvchilar mavjud, shundan 6,2 mln tasi turar va noturar obʼektlarni, qishloq xoʻjaligi yoʻnalishida 166,7 mingta, 246 ta oʻrmondan foydalanuvchilar va boshqalarni tashkil etadi.

2.3.YER MUNOSABATLARINI HUQUQIY JIHATDAN TARTIBGA SOLISH TOʻGʻRISIDA TUSHUNCHA

Yer munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va yer toʻgʻrisidagi normativ huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi.

Yer, yer osti boyliklari, suv, oʻsimlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55-modda.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari.

1. Yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Konstitutsiyaning 98-moddasiga binoan ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi, iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

2003 yil 29 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonunining (yangi tahriri) 1-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi - Hukumati O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o‘zi tashkil etadigan xo‘jalik boshqaruvi organlari tizimiga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

Mazkur qonunning 5-moddasida Vazirlar Mahkamasining boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to‘g‘risida takliflar ishlab chiqishi uning asosiy vakolatlariga sirasiga kiritilgan. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o‘tkazish hamda respublika va xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni amalga

oshirish borasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi, yirik avariya va falokatlarning, shuningdek, tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini ko'radi.

1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan so'nggi qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilgan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunga (7-moddasi) binoan tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatiga kiradi. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 9-moddasida ko'rsatilishicha esa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlariga tabiatni muhofaza qilishga doir yagona siyosat yuritish ham taalluqli.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish borasidagi yagona davlat siyosatini yuritishga oid vakolati masalasida aniq javobni "Davlat yer kadastrini to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida uchratishimiz mumkin. Xususan, unda yozilishicha, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat yer kadastrini yuritish bo'yicha vakolatiga yer resurlarini muhofaza qilishga qaratilgan yagona davlat siyosatini ishlab chiqish kiradi.

2. Yer kodeksiga, boshqa qonun hujjatlariga muvofiq yer munosabatlarini tartibga solish to'g'risida normativ hujjatlar qabul qilish.

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasiga binoan Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar hamda farmoyishlar qabul qiladi. Ushbu talab shu jumladan yer munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga ham taalluqli.

Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi yoki o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlari Vazirlar Mahkamasining qarorlari shaklida qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha qarorlari Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari shaklida qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari Bosh vazir tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini hamda Bosh vazir farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ularda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Vazirlar Mahkamasi o'zi qabul qilgan qarorlarning bajarilishi ustidan bevosita yoki vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari orqali nazoratni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi qarorlari O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plamida e'lon qilinadi, keng ommaga darhol yetkazish zarur bo'lgan taqdirda esa ommaviy axborot vositalari orqali ma'lum qilinadi.

3. Tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan davlat dasturlarini tasdiqlash.

So'nggi yillarda yer munosabatlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan quyidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasining dasturiy qarorlarini ko'rsatishimiz mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari:

- ❖ 24.11.1994 yilda qabul qilingan PF-1009 sonli "Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi.
- ❖ 18.03.1998 yilda qabul qilingan PF-1978 sonli "1998-2000 yillardagi davrda qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi to'g'risida"gi.

- ❖ 10.10.1998 yilda qabul qilingan PF-2086 sonli “Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risida”gi.
- ❖ 24.03.2003 yilda qabul qilingan PF-3226 sonli “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi.
- ❖ 11.03.2004 yilda qabul qilingan PF-3406 sonli “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi.
- ❖ 08.11.2005 yilda qabul qilingan PF-215 sonli “2006 yilda qishloq xo‘jaligi kooperativlari(shirkatlari)ni fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi.
- ❖ 25.07.2006 yilda qabul qilingan “Yuridik shaxs va fuqarolar bino va inshootlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi prezident farmoni.

Vazirlar Mahkamasi qarorlari:

- ❖ 29.11.1994. yilda qabul qilingan №575 sonli “Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori.
- ❖ 10.09.2001. yilda qabul qilingan №366 sonli “Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo‘jaliklarini mablag‘ bilan ta‘minlash, ularga bojxona imtiyozlari berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori.
- ❖ 30.10.2003. yilda qabul qilingan №476 sonli “2004-2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori.
- ❖ 05.11.2003. yilda qabul qilingan №486 sonli “Qishloq xo‘jaligida ijara munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori.

- ❖ 19.10.2004. yilda qabul qilingan №483 sonli “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori.
- ❖ 24.12.2004. yilda qabul qilingan №607 sonli “2005-2007 yillarda fermer xo‘jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori.

4. Qishloq xo‘jaligining tabiiy moslashuvi jihatidan yerlarni rayonlashtirish, yer tuzishni, yer monitoringi o‘tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tabiiy-qishloq xo‘jalik hududiyashtirish, yer monitoringini amalga oshirish va davlat yer kadastrini olib borishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi hamda Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi (“Yergeodezkadastr”) Nizomini tasdiqlashga haqli. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 15 oktabrdagi farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 19 oktabrdagi №483 sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri boshqarmasi asosida tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri (“Davyergeodezkadastr”) davlat qo‘mitasining Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomida ta’kidlanishicha, "Davyergeodezkadastr " davlat qo‘mitasi tizimiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastri boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastri bo‘limlari, Davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi, Markaziy va Samarqand aerogeodeziya korxonalari, Geodeziya va kartografiya milliy markazi, "Kartografiya" davlat ilmiy-loyihalash korxonasi, O‘zbek davlat yer tuzish ilmiy-loyihalash instituti - "O‘zdaverloyiha",

Tuproqshunoslik va agrokimyo davlat ilmiy-tadqiqot instituti, "Geoinformkadastr" davlat unitar korxonasi kiradi.

"Davyergeodezkadastr" davlat qo'mitasi o'z faoliyatini davlat boshqaruvi boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

"Davyergeodezkadastr" Nizomida uning quyidagi asosiy vazifalari belgilangan:

- ❖ yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer munosabatlarini tartibga solish, yer tuzishni va yerlar monitoringini tashkil qilish, tuproq unumdorligini saqlash, oshirish va qayta tiklash bo'yicha yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash;
- ❖ tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ❖ yerlardan oqilona foydalanilishi va ular muhofaza qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- ❖ geodeziya va kartografiya faoliyatini boshqarish;
- ❖ davlat geodeziya nazoratini tashkil etish;
- ❖ davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- ❖ davlat yer kadastrini, davlat kartografiya-geodeziya kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastrini, shuningdek Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi o'z faoliyatini Vazirlar Mahkamasi 2003 yil 28 iyundagi №290 sonli qarori bilan tasdiqlangan hamda 04.06.2004 yildagi №257 sonli qarori bilan o'zgartirilgan Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

Vazirlik qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ishlarni muvofiqlashtiradi, o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bevosita,

shuningdek o'z tasarrufidagi respublika organlari va hududiy organlar orqali hal etadi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Vazirlikning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- ❖ qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirish va barqaror rivojlantirishga qaratilgan yagona agrotexnika siyosatini amalga oshirish;
- ❖ zamonaviy agrotexnologiyalarni takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlariga joriy etish;
- ❖ qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga bozor prinsiplari va mexanizmlari asosida xizmat ko'rsatayotgan tarmoqlar, bo'g'inlar va tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- ❖ agrar sektorda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, ijara munosabatlarini, oila pudratini, fermer xo'jaliklarini keng rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtirish;
- ❖ qishloq xo'jaligini yuritishni va qishloq xo'jaligi ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishni takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish;
- ❖ seleksiya, urug'chilik, naslchilik ishlari, veterinariya, o'simliklar karantini sohasida davlat siyosatini olib borish hamda chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash;
- ❖ irrigatsiya tizimlarini havzalar bo'yicha boshqarish prinsiplari asosida yer usti suv resurslarining davlat boshqaruvini amalga oshirish va barcha darajalarda suvdan foydalanishning bozor prinsiplarini joriy etish;
- ❖ davlat suv xo'jaligi tizimidan foydalanilishini va uning zamonaviylashtirilishini ta'minlash;
- ❖ ilgaridan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va yangi yerlarni o'zlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- ❖ qishloq, suv va o'rmon xo'jaligida investitsiya siyosatini ishlab chiqishda qatnashish;

- ❖ yer va suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash;
- ❖ o'rmon xo'jaligidan foydalanish, uni qo'riqlash, himoya qilish va rivojlantirish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;
- ❖ o'ziga qarashli tashkilotlar va korxonalarni ilmiy-texnik va axborot bilan ta'minlash;
- ❖ qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi rahbarlari va mutaxassislarini o'qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- ❖ qishloq xo'jaligida o'simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish, o'simliklar kasalliklarining oldini olish va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga, begona o'tlarga va chigirtkaga qarshi kurashish bo'yicha yagona texnika va texnologiya siyosatini o'tkazish;

Yer kodeksining 14-moddasida yer monitoringini o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi e'tirof etilgan. Davlat yer kadastrini tuzilishi, mazmuni va yuritilish tartibi Davlat yer kadastrini to'g'risidagi qonunning 20- va 23-moddalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlarini korxonalar, binolar va inshootlar qurilishi uchun berishga Yer kodeksining 45-moddasiga binoan alohida hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan yo'l qo'yiladi.

5. Davlat mulkidagi yerlarni tasarruf etish. Yer kodeksining 9-moddasiga muvofiq, yerlar asosiy foydalanish maqsadiga qarab yer fondi toifalariga bo'linadi.

Yerlardan asosiy foydalanish maqsadi-yerlardan yer-kadastr hujjatlarida aks ettiriladigan aniq maqsadlarni ko'zlab foydalanishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibi va shartlaridir.

Yerlarni yer fondining bir toifasidan boshqasiga o'tkazish yerlardan asosiy foydalanish maqsadi o'zgargan taqdirda amalga oshiriladi.

Yerlarni yer fondi toifalariga bo'lish va bir toifadan boshqasiga o'tkazish yer uchastkalarini berish huquqiga ega bo'lgan organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Yer fondining toifasi yer uchastkalarini berish huquqiga ega bo'lgan organlar tomonidan qabul qilinadigan yer uchastkalarini berish to'g'risidagi qarorlarda, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi guvohnomalarda, shartnomalarda, boshqa hujjatlarda, davlat yer kadastru hujjatlarida ko'rsatiladi.

Yerlarni bir toifadan boshqasiga o'tkazishning belgilangan tartibini buzish bunday o'tkazish faktlarini g'ayriqonuniy deb va ular asosida tuzilgan yer uchastkalariga doir bitimlarni haqiqiy emas deb topishga, shuningdek yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olishni rad etishga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat yer kadastrini yuritish borasidagi vakolatlari O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastru to'g'risida"gi qonunining 6-moddasiga muvofiq quyidagilardan iborat: yer uchastkasiga bo'lgan huquqni va u bilan bog'liq bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini belgilash.

Yer kodeksining 24-moddasiga binoan, yer uchastkasi shartnoma asosida quyidagilarga ijaraga beriladi:

- ❖ O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga va yuridik shaxslariga-tuman va shahar hokimlari;
- ❖ chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

6. Yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishda vazirliklar hamda idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi 2003 yil 29 avgustdagi (yangi tahrirdagi) qonunning 5-moddasida Vazirlar Mahkamasining asosiy vakolati sifatida boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda O'zbekiston Respublikasi davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlarini

tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida takliflar ishlab chiqishi ko'rsatib o'tilgan. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o'tkazish hamda respublika va xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi, yirik avariylar va falokatlarning, shuningdek, tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini ko'radi.

“Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi 1992 yil 9 dekabrda so'nggi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan qonunda (8-modda) ko'rsatilishicha, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslaridan foydalanishning davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, davlat boshqaruvi mahalliy idoralari amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- ❖ tabiatni muhofaza qilishga doir yagona siyosat yuritish;
- ❖ tabiat resurslaridan foydalanishni tartibga solish;
- ❖ tabiiy resurslarga nisbatan tabiat kadastri yuritilishi tartibini belgilash va bunday kadastr yuritilishini ta'minlash, respublika ahamiyatiga molik tabiiy resurslarning zaxiralarini tasdiqlash;

Davlat yer kadastrini yuritish borasida davlat boshqaruvi “Davlat yer kadastri to'g'risida”gi qonunning 5-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, joylardagi davlat hokimiyat organlari va maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat yer kadastrini yuritish borasida maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi hisoblanadi.

7. Yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini belgilangan tartibda ushbu Kodeksning 36-moddasiga muvofiq bekor qilish.

Yer kodeksining 36-moddasida yer uchastkasiga doimiy yohud muddatli to'liq yoki qisman egalik qilishga, shuningdek, ijara va yerga nisbatan mulk huquqining bekor bo'lishi holatlari ko'zda tutilgan.

Yer uchastkasiga egalik qilish yohud undan doimiy yoki vaqtinchalik foydalanish huquqining shuningdek, ijara va yerga nisbatan mulk huquqining 36-moddasi 1-11-bandlarida ko'rsatilgan hollarda bekor bo'lishi yerdan foydalanish hamda uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarning taqdimnomasiga muvofiq huquqlar tugatilishining asosli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarga asosan tegishincha tumanlar, shaharlar, viloyatlar hokimlarining qarorlari yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi. Yer uchastkalariga egalik qilish huquqini, yer uchastkalaridan doimiy yoki vaqtincha foydalanish huquqini tugatish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hamda mazkur mansabdor shaxslarning qarorlaridan norozi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar ushbu qarorlar ustidan sudga shikoyat qilishlari mumkin. Yer uchastkasiga egalik qilish huquqini yoki yer uchastkasidan doimiy yoxud vaqtincha foydalanish huquqini tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu modda birinchi qismining 3-bandida nazarda tutilgan hollarda yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini tugatish ijara shartnomasini bekor qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ushbu modda birinchi qismining 1, 2, 6-10, 12-bandlarida nazarda tutilgan hollarda yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini tugatish ushbu Kodeksning 24-moddasida nazarda tutilgan tartibda yer uchastkasining ijara shartnomasini bekor qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Yer uchastkasining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi, ijarachisi hamda mulkdori yer uchastkasiga bo'lgan huquqlardan voz kechishidan yaqqol dalolat beruvchi xatti-harakatlar (chet elga jo'nab ketganlik, yer uchastkasidan belgilanganidan ko'proq muddat davomida foydalanmaslik) sodir etgan taqdirda, bu yer uchastkasi qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda egasiz mol-mulk tariqasida hisobga olinadi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlardan voz kechish mazkur yer uchastkasining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi, ijarachisi hamda mulkdori majburiyatlarining, yer uchastkasi boshqa shaxsga berilgunga qadar, biroq voz kechilgan paytdan yoki egasiz mol-mulk tariqasida davlat ro'yxatiga olingan kundan e'tiboran uzog'i bilan bir yil mobaynida, bekor qilinishiga sabab bo'lmaydi.

8. Yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini tashkil etish. Ushbu norma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mamlakatning butun hududida yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish davlat nazoratini amalga oshirish huquqiga ega ekanligini anglatadi.

Yer kodeksining 85-moddasida yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlari o'z vakolatlari doirasida yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun yer uchastkalarini olib qo'yish, shu jumladan yerlarni ijaraga berish shartnomalarini muddatidan oldin bekor qilish haqidagi, shuningdek yerlardan foydalanishni cheklash va to'xtatib qo'yishga doir materiallarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish huquqiga ega ekanliklari mustahkamlangan.

Yuridik va jismoniy shaxslarning yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish borasidagi faoliyati bir yilda ko'pi bilan bir marta tekshirilishi mumkin. Agar organ yerlardan oqilona foydalanmaslik va ularni muhofaza qilmaslik sabablarini bartaraf etish yuzasidan ko'rsatmalar bergan bo'lsa, u belgilangan muddatda mazkur tadbirlarni tekshirishga haqlidir.

Yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organlar va mansabdor shaxslar o'z faoliyatlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradi:

- ❖ tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish bo'yicha hududiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ❖ yer resurslaridan belgilangan maqsadda, oqilona va samarali foydalanish, yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- ❖ yer tuzishni, yer monitoringi o'tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish;
- ❖ yuridik shaxslarga qishloq xo'jalik ehtiyojlari hamda boshqa davlat va jamoat ehtiyojlari uchun egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish;
- ❖ o'lchamidan qat'iy nazar barcha yerlarni olib qo'yish, alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor suhoriladigan yerlar, alohida muhofaza etiladigan hududlar egallagan yerlar, shahar atrofi yerlari va shaharlarning yashil zonalari yerlari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlarining tajriba maydonlari, o'rmon o'simliklari bilan qoplangan yerlar bundan mustasno;
- ❖ diplomatiya vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xalqaro tashkilotlarga mazkur vakolatxonalarning binolarini, shu jumladan vakolatxona boshlihi qarorgohini qurish uchun yer uchastkalarini mulk etib realizatsiya qilish;
- ❖ yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini belgilangan tartibda ushbu Kodeksning 36-moddasiga muvofiq bekor qilish;
- ❖ yer munosabatlarini tartibga solish sohasida viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvini tashkil etishda mahalliy davlat hokimiyat organlari faoliyati o'ziga xos o'rin tutadi. Joylardagi vakillik organi hisoblanadigan Xalq deputatlari kengashlari va ijro hokimiyati boshlihi bo'lgan hokimlar yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha ma'lum vakolatlarga ega bo'lib, ushbu vakolatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari" deb nomlanuvchi XXI bobidagi 99-104 moddalarida hamda

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi (02.09.1993 y.da qabul qilingan va 30.08.1997y., 25.12.1998y., 03.12.2004y.larda o‘zgartirishlar kiritilgan) qonunda belgilangan. Ushbu qonunning 1-moddasiga ko‘ra Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi bo‘lib, ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir.

Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasida ko‘rsatilishicha, Viloyat, tuman, shahar hokimi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo‘jaliklari va fuqarolarga egalik qilish, foydalanish uchun va ijaraga yer berishga, bu sub’ektlarning yerga egalik qilish va yerdan foydalanish huquqini to‘xtatib qo‘yishga, shuningdek yerlarni olib qo‘yishga haqli bo‘lib, qabul qilingan bu xususdagi qarorlar xalq deputatlari tegishli Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Bundan tashqari Yer kodeksining 5-moddasida viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari olti yo‘nalishda amalga oshirilishi belgilangan.

1. Tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish bo‘yicha hududiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi (02.09.1993 y.) qonunining 24-moddasida xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy vakolati sifatida hokimning taqdimiga binoan, hududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlashi, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir o'z vakolatlariga berilgan masalalarni hal etishi ko'rsatilgan.

25-moddada esa, hokim qishloq xo'jaligi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish va boshqa bir qancha sohalarda o'z vakolatiga berilgan masalalarni hal etishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining 10-moddasida davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari belgilangan.

Unga ko'ra mahalliy davlat hokimiyati organlari:

- ❖ o'z hududida tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilash, mintaqaning (hududning) ekologiya dasturini tasdiqlash;
- ❖ tabiiy resurslarni hisobga olish va ularning ahvoliga baho berish, ekologiya jihatidan zararli bo'lgan ob'ektlarni ro'yxatga olish;
- ❖ tabiatni muhofaza qilishga doir tadbirlarni moddiy-texnika jihatidan ta'minlash;
- ❖ tabiiy resurslardan foydalanish huquqini beruvchi, sanoat chiqindilarini yoki ro'zhor chiqindilarini to'plash yoki ko'mib tashlashga ruxsatnomalarni belgilangan tartibda berish yoki ularni bekor qilish;
- ❖ tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar undirish;
- ❖ tabiatning muhofaza qilinishi ustidan nazorat o'rnatish, atrof muhitga zarar yetkazayotgan mahalliy ahamiyatga molik ob'ektlar faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to'xtatish va qayta ixtisoslashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilish kabi vakolatlarga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining (04.04.2002 y.) 19-moddasida ko'rsatilishicha, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi vakolatlarni amalga oshiradilar:

- ❖ aholini oqilona joylashtirish, muhandislik, transportga oid va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish masalalarini hal qiladi;
- ❖ o'z hududida shaharsozlik faoliyatini, bosharti bu faoliyat Shaharsozlik kodeksi va boshqa qonun hujjatlari talablariga mos kelmasa, cheklaydi, to'xtatib qo'yadi yoki taqiqlaydi;
- ❖ shaharlarning, shahar posyolkalarining bosh rejalari ishlab chiqilishini tashkil etadi;
- ❖ qishloq aholi punktlarining bosh rejalari, aholi punktlari hududlarining qismlarini batafsil rejalashtirish loyihalarini va dahalarni, mavzelarni hamda aholi punktlari rejalashtirilgan tuzilmalarining boshqa qismlarini qurish loyihalarini tasdiqlaydi;
- ❖ viloyatlar hududini rejalashtirishning tarhlari, muhandislik, transportga oid va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirishning, shuningdek obodonlashtirishning tarxlari va loyihalari ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etadi;
- ❖ tumanni (tumanlar guruhlarini) rejalashtirish loyihalarini tasdiqlaydi;
- ❖ mahalliy ahamiyatga molik alohida tartibga solinadigan shaharsozlik faoliyati ob'ektlari chegaralarini belgilaydi hamda tegishli ob'ektlar hududlarida shaharsozlik faoliyatini tartibga solish tartibotini o'rnatadi;
- ❖ qurish qoidalarini tasdiqlaydi;
- ❖ aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlari, shaharsozlik faoliyati sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ishlab chiqilishi va moliyalashtirilishini, davlat shaharsozlik kadastri yuritilishini, shaharsozlik faoliyati ob'ektlari monitoringi olib borilishini, kompleks muhandislik qidiruvlari o'tkazilishini, aholi punktlarini mikroseysmik hududlarga bo'lish xaritalari tuzishni, shaharsozlik hujjatlari shalga oshirilishi ustidan monitoring olib borilishini va bunday hujjatlar ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlaydi;

- ❖ shaharsozlik faoliyati sohasida qabul qilinayotgan qarorlardan aholini muntazam ravishda xabardor qilib boradi;
- ❖ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Quyidagi qonun hujjatlari asosida Qoraqalpohiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish va uni muhofaza qilish choralarini ko‘rish, shuningdek, tuproq unumdorligini oshirish yuzasidan dasturlar ishlab chiqilgan:

- ❖ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 24.11.1994 yilgi № PF-1009-sonli Farmoni;
- ❖ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 24.11.1994 yilgi № 575-sonli Qarori;
- ❖ Qoraqalpohiston Respublikasida foydalanilmayotgan yerlarni hamda past rentabelli va zarar ko‘rib ishlovchi qishloq xo‘jaligi korxonalarining yerlarini fuqarolarga meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilishlari uchun tajriba tariqasida berish to‘g‘risida”gi Nizom (Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 noyabrdagi 575 -son qaroriga 2-ilova).

2. Yer resurslaridan belgilangan maqsadda, oqilona va samarali foydalanish, yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

Viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy davlat hokimiyati organlarining yer resurslaridan maqsadli, oqilona va unumli foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida amalga oshiradigan davlat nazorati O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuni, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi 24.12.1998 yilgi №717-I-sonli (26.05.2000 y.; 15.12.2000 y.; 30.04.2004 y.; 03.12.2004 yillarda o‘zgartirishlar kiritilgan) qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 26.04.2001 kuni № 1029-son bilan ro‘yxatga olingan Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining

23.04.2001 kungi №1-sonli Qaroriga ilova sifatida qabul qilingan “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o‘tkaziladigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati bevosita Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagi 66-son qaroriga 2-ilova sifatida qabul qilingan “Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati to‘g‘risida”gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan yerga oid qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini ta’minlash yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan nazorat bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organlari hududiy bo‘linmalarining yerga oid qonun hujjatlariga rioya qilinishi to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitadilar, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni tekshirish bo‘yicha komissiyalar tashkil etadilar, ushbu masala bo‘yicha qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradigan davlat organlari huquqni muhofaza qilish organlari, davlat boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda boshqa jamoat birlashmalari va tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladilar, ularga metodik va boshqa yordam ko‘rsatadilar.

Yerga oid qonun hujjatlari buzilganligi aniqlangan taqdirda yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradigan davlat organlarining vakolatli mansabdor shaxslari qonun buzilishining turlarini, yerga oid qonun hujjatlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni, aniq aybdor shaxslarni aniqlaydilar va qonun buzilishi to‘g‘risidagi materiallarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtiradilar.

3. Yer tuzishni, yer monitoringi o'tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish.

Yer tuzishning ma'nosi Yer kodeksining 12-moddasida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra yer tuzish yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil etishga, yer resurslarini hisobga olish va baholashga, qulay ekologik muhitni vujudga keltirishga va tabiiy landshaftlarni yaxshilashga, yer tuzishning hududiy va ichki xo'jalik rejalarini tuzishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi.

Yer tuzish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organi qaroriga yoki yuridik va jismoniy shaxslarning talabnomalariga muvofiq yer tuzish xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yer tuzish quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- ❖ istiqbolga mo'ljallangan (loyihalash oldidan) yer tuzish, ya'ni yerlarning holatini o'rganish, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni tashkil etishni rejalashtirish;
- ❖ xo'jaliklararo yer tuzish, bunday turdagi yer tuzish ishlari natijasida yangi ob'ektlar hosil bo'ladi yoki mavjudlari tartibga solinadi, ularning chegaralari joyida belgilanadi;
- ❖ ichki xo'jalik yer tuzish, bunda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining amalga oshirilishi uchun yer uchastkalaridan oqilona foydalanish ishlari tashkillashtiriladi.

Xo'jaliklararo yer tuzish loyihalari viloyat hokimi tomonidan tasdiqlanadi. Yuridik va jismoniy shaxslarga yer ajratib berish loyihalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyat, tuman va shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining ichki xo'jalik yer tuzish loyihalari tuman hokimi tomonidan tasdiqlanadi. Yer tuzish loyihalariga o'zgartishlar ushbu loyihalarni tasdiqlagan organlarning ruxsati bilan kiritiladi.

Yer tuzishni yer tuzish xizmati organlari davlat budjeti mablahlari hisobidan amalga oshiradi. Qishloq xo‘jalik ekinzorlarini joylashtirish, yerlarni yaxshilash va muhofaza qilish, eroziyaga qarshi va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish borasidagi yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish yuridik va jismoniy shaxslarning talabnomalariga muvofiq ular hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Yer monitoringi yer tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini kuzatib turish tizimidan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida davlat yer kadastrini yuritishni, yerdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, yerlarni muhofaza qilishni axborot bilan ta’minlash yer monitoringi asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 23 dekabrda 496-son qaroriga asosan (28.02.2003 y.; 14.04.2004 y.; 19.10.2004 yillarda o‘zgartirishlar kiritilgan) “O‘zbekiston Respublikasida yer monitoringi to‘g‘risida”gi Nizom qabul qilingan. Ushbu Nizomda ko‘rsatilishicha, muddatlari va davriyligiga ko‘ra yerlarning holatini uchta guruhda kuzatishlar amalga oshiriladi:

- ❖ bazaviy (yer monitoringini yuritishning dastlabki bosqichida kuzatish ob’ektlarining haqiqiy holatini qayd etuvchi boshlanhich) kuzatishlar;
- ❖ davriy (yillik va tabiiy tusdagi davrlar bo‘yicha) kuzatishlar;
- ❖ tezkor (joriy o‘zgarishlarni qayd qiluvchi), bir yildan kam oraliq davrda muntazam yoki biryo‘la bajariladigan kuzatishlar.

Qoraqalpohiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida yerlarning bazaviy va davriy monitoringi - Qoraqalpohiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastr boshqarmalari tomonidan yuritiladi.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va jismoniy shaxslar yer monitoringi ma’lumotlaridan belgilangan tartibda haq to‘lagan holda foydalanadilar. Yer

monitoringini yuritish bo'yicha ishlar davlat budjeti mablahlari hisobiga amalga oshiriladi.

Davlat yer kadastrı yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy rejimi, ularning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va bahosi, yer uchastkalarining joylashgan manzili va o'lchamlari, ularni yer egalari, yerdan foydalanuvchilarga, ijarachilarga hamda mulkdorlarga taqsimlash to'g'risidagi zarur, ishonchli ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iboratdir.

Davlat yer kadastrining asosiy funksiyasi – ma'lumot bilan ta'minlashdir. Bunday ma'lumot davlat hokimiyati organlari uchun mo'ljallangan bo'lib, ulardan yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va yer uchastkalari mulkdorlarining huquqlari kafolatlarini ta'minlash maqsadida foydalaniladi.

Davlat yer kadastrı ma'lumotlaridan yer resurslari davlat boshqaruvini, davlat nazoratini amalga oshirishda foydalaniladi:

- ❖ -yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish;
- ❖ -tuproq unumdorligini saqlash va uni oshirishga qaratilgan choralarni ishlab chiqish;
- ❖ -ko'chmas mulk va u bilan bohliq bitimlarni davlat ro'yxatiga olish;
- ❖ -yer uchastkasini bir toifadan boshqasiga o'tkazish;
- ❖ -yer tuzish;
- ❖ -yerlarni iqtisodiy baholash va tabiiy resurslar ichida yerlarning bahosini hisobga olish;
- ❖ -yer uchun haq to'lashni joriy qilish.

Viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat yer kadastrini yuritish sohasidagi vakolatlari O'zbekiston Respublikasining 28.08.1998 yilgi "Davlat yer kadastrı to'g'risida"gi qonuni (13.12.2002 y., 30.08.2003 y., 30.04.2004 y., 03.12.2004 yillarda o'zgartirishlar kiritilgan), Vazirlar Mahkamasining 23.12.2000 yilgi №496-sonli "O'zbekiston Respublikasida yer monitoringi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori (28.02.2003 y., 14.04.2004y., 19.10.2004 yillarda o'zgartirishlar kiritilgan) hamda

Vazirlar Mahkamasining 31.12.2001 y. №492-sonli “O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish hamda yer uchastkalari, binolar va inshootlarning kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarorida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat yer kadastr to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasida ko‘rsatilishicha, davlat yer kadastrini yuritish sohasidagi davlat boshqaruvini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, davlat hokimiyati mahalliy organlari va maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi davlat yer kadastrini yuritish sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Ushbu qonunning 7-moddasiga ko‘ra davlat hokimiyati mahalliy organlarining davlat yer kadastrini yuritish sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- ❖ yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlar hamda ularga oid bitimlarning davlat ro‘yxatiga olinishini tashkil etish;
- ❖ davlat yer kadastrini yuritish ishlarini mahalliy budjet hisobidan moliyalash;
- ❖ davlat yer kadastr yuritilishini tashkil etish va nazorat qilish;
- ❖ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

4. Yuridik shaxslarga qishloq xo‘jalik ehtiyojlari hamda boshqa davlat va jamoat ehtiyojlari uchun egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasiga ko‘ra, viloyat, tuman, shahar hokimi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo‘jaliklari va fuqarolarga egalik qilish, foydalanish uchun va ijaraga yer berishga, bu sub’ektlarning yerga egalik qilish va yerdan foydalanish huquqini to‘xtatib qo‘yishga, shuningdek yerlarni olib qo‘yishga haqli bo‘lib, qabul qilingan bu xususdagi qarorlar xalq deputatlari tegishli Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari Kengashi, hokim O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qiladilar.

Yer uchastkalari egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer ajratish tarzida beriladi.

Yer ajratish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyat, Toshkent shahar, tuman, shahar mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxsning egaligida, foydalanishida bo'lgan yoki ijara huquqi asosida unga tegishli bo'lgan yer uchastkasi qaytarib olingandan (sotib olingandan) so'ngina ajratib berilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar deb, qishloq xo'jaligida foydalanish uchun berilgan yoki ana shu maqsadlar uchun ajratilgan yerlarga aytiladi.

Respublikamizda sug'oriladigan yerlar alohida muhofaza talab qiladi. Ushbu toifadagi yerlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi roziligi bilan hokim qarori asosida ularning tuproq-meliorativ holati, iqtisodiy ko'rsatkichlari, suv bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab noqishloq xo'jalik maqsadlariga mo'ljallangan yerlar toifasiga istisno tariqasida o'tkazishga yo'l qo'yiladi.

Alohida qimmatga ega bo'lgan sug'oriladigan yerlarda turli bino-inshootlar qurishga faqat Vazirlar Mahkamasi qarori asosida alohida hollardagina yo'l qo'yilishi mumkin.

Yer kodeksining 46-moddasiga ko'ra qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar quyidagilarga beriladi:

- 1) qishloq xo'jaligi kooperativlariga (shirkat xo'jaliklariga), boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga-tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yuritish uchun;
- 2) tajriba-ishlab chiqarish, o'quv, o'quv-tajriba va o'quv-ishlab chiqarish xo'jaliklari, ilmiy-tadqiqot va boshqa qishloq xo'jalik muassasalari va tashkilotlariga-ilmiy-tadqiqot va ta'lim maqsadlari, tovar qishloq xo'jaligini

- yuritish va ilg'or tajribani targ'ib qilish uchun;3) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga-fermer xo'jaliklarini yuritish uchun;
- 4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga-dehqon xo'jaliklarini, yakka tartibda bog'dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish uchun;
- 5) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga-jamoa bog'dorchiligi, polizchiligi va uzumchiligi uchun;
- 6) qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga-yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yuridik va jismoniy shaxslarga qishloq xo'jaligini yuritish, shuningdek o'zga maqsadlar uchun berilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi yerlari o'zga maqsadlarda, qoida tariqasida, keyinchalik qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun yaroqli holga keltirish sharti bilan vaqtincha foydalanishga beriladi.

Toshkent viloyati va Toshkent shahar hududida yer uchastkalarini egalik qilish, foydalanish, ijaraga berish quyidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi:

- ❖ Toshkent viloyati hokimining 29.11.2004 yilgi №207-sonli "Viloyat hududida qo'llaniladigan ijara haqining yagona stavkalari to'g'risida"gi Qarori;
- ❖ Toshkent shahar hokimining 03.01.2003 yilgi №4-sonli "Toshkent shahrida yer maydonlarini uzoq muddatli ijaraga va doimiy foydalanishga berish bo'yicha o'tkaziladigan tanlov savdolarining tartibi va shartlari to'g'risida"gi Qarori;
- ❖ Toshkent shahar hokimining 2002 yil 3 yanvardagi 4-sonli qaroriga 3-ilova sifatida qabul qilingan "Tanlov savdolari asosida yer maydonlarini uzoq muddatli ijaraga va doimiy foydalanishga berish tartibi to'g'risida"gi Nizom;
- ❖ Toshkent shahar hokimining 2002 yil 3 yanvardagi 4-sonli qaroriga 1-ilova sifatida qabul qilingan "Toshkent shahrida yer maydonlarini egalik qilishga, doimiy foydalanishga va uzoq muddatli ijaraga berish (realizatsiya qilish) masalalari bo'yicha Xay'at to'g'risida"gi Nizom.

Mamlakatimizda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bosh boshqarmasining 30.03.1999 yilgi "O'zbekiston Respublikasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartib to'g'risida"gi Yo'riqnomasi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 27.05.1999y. №736-son bilan ro'yxatga olingan) asosida amalga oshiriladi.

Yerga egalik qilish, undan foydalanish va ijara huquqi asosida foydalanish uchun yer uchastkalari O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 34-moddasiga asosan tashkil etilgan komissiya tomonidan ajratib beriladi.

5. O'lchamidan qat'iy nazar barcha yerlarni olib qo'yish, alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor suhoriladigan yerlar, alohida muhofaza etiladigan hududlar egallagan yerlar, shahar atrofi yerlari va shaharlarning yashil zonalari yerlari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlarining tajriba maydonlari, o'rmon o'simliklari bilan qoplangan yerlar bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 37-moddasida ko'rsatilishicha, yer uchastkasi yoki uning bir qismi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer egasining roziligi bilan yoki yerdan foydalanuvchi va ijarachi bilan kelishilgan holda tegishincha tuman, shahar, viloyat hokimining qaroriga yoxud O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan olib qo'yiladi.

Yer egasi, yerdan foydalanuvchi va ijarachi yer uchastkasini olib qo'yish haqidagi tegishincha tuman, shahar, viloyat hokimining qaroriga yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga rozi bo'lmagan taqdirda, bu qarorlar ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Korxonalar, binolar va inshootlar qurish uchun yer uchastkalarini olib qo'yishdan manfaatdor bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar loyihalash boshlangunga qadar hududni kompleks rivojlantirishni ta'minlashni inobatga olgan holda ob'ekt quriladigan joyni, uchastkaning taxminiy o'lchami va uni ajratish shartlarini yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar, shuningdek

tegishincha tuman, shahar, viloyat hokimi yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan oldindan kelishib olishlari shart. Bunday tarzda oldindan kelishib olinmagunga qadar loyiha ishlarini moliyalashga yo'l qo'yilmaydi.

Yer uchastkasini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish hamda ob'ekt quriladigan joyni oldindan kelishib olish, shuningdek yer ajratib berishni rasmiylashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan yer uchastkasini savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ekti yoki uy-joy binosi va boshqa bino yoki binoning bir qismi bilan birga davlat va jamoat ehtiyojlari uchun qayta sotib olish ushbu Kodeksning 41-moddasida nazarda tutilgan kafolatlar ta'minlangan holda tegishincha tuman, shahar, viloyat hokimining qaroriga yoxud O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlarini korxonalar, binolar va inshootlar qurilishi uchun berishga alohida hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan yo'l qo'yiladi.

6. Diplomatiya vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xalqaro tashkilotlarga mazkur vakolatxonalarning binolarini, shu jumladan vakolatxona boshlihi qarorgohini qurish uchun yer uchastkalarini mulk etib realizatsiya qilish;

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 17-moddasida yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlari belgilangan.

Yuridik shaxslar doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin. Jismoniy shaxslar esa meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin.

18-moddada esa yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqining vujudga kelish asoslari belgilangan.

Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga xususiylashtirilganda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vujudga keladi. Diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xalqaro tashkilotlarning yer uchastkalariga mulk huquqi ularga o'zlari vakolatxona binosi sifatida foydalanayotgan imorat yoki imoratning qismlari, shu jumladan vakolatxona boshlig'ining qarorgohi ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga, shuningdek mazkur vakolatxonalarning imoratlarini qurish uchun yer uchastkalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda realizatsiya qilinganda vujudga keladi.

Chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning-diplomatiya korpusi xodimlarining, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan matbuot vakillarining, firmalar, kompaniyalar va xalqaro tashkilotlar doimiy vakolatxonalari xodimlarining, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarda doimiy asosda ishlovchi shaxslarning, shuningdek respublikada doimiy istiqomat qiluvchi va yashash uchun guvohnomasi bo'lgan shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi ularga uy-joy binolari shu binolar joylashgan yer uchastkalari bilan birga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda realizatsiya qilinganda vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasida yer uchastkalariga bo'lgan ashyoviy huquqlarni auksionlarda sotish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.04.1995 yilgi №126-sonli "Savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlarini ular joylashgan yer maydonlari bilan birgalikda hamda yer maydonlarini meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish uchun xususiy mulk sifatida sotish tartibi to'g'risida"gi Qarori (Mazkur Qarorga O'zR VM 30.04.1999 y. 202-son Qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan)

7. Yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini belgilangan tartibda ushbu Kodeksning 36-moddasiga muvofiq bekor qilish.

Yer kodeksining 36-moddasida ko'rsatilishicha, yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqlari hamda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi Vazirlar Mahkamasi bilan bir qatorda viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan bekor qilinadi.

6-modda. Tumanlar davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari.

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar tumanlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlari kiradi:

- ❖ tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona va samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- ❖ yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- ❖ fuqarolarga, yuridik shaxslarga egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish, shuningdek tubdan yaxshilash ishlari amalga oshirilgan sug'oriladigan yerlar, pichanzorlar va yaylovlardan tashqari yerlarni, o'rmon o'simliklari bilan qoplangan yerlardan tashqari o'rmon fondi yerlarini, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan yerlarni, suv fondi yerlarini olib qo'yish - har bir yer egasiga va yerdan foydalanuvchiga o'n gektargacha o'lchamda;
- ❖ fuqarolarga fermer xo'jaligi yuritish uchun yerlarni ijaraga berish;
- ❖ fuqarolarga, yuridik shaxslarga zaxira yerlardan yer uchastkasining o'lchamidan qat'i nazar, egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish;
- ❖ yer uchastkalarini savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari bilan birgalikda yuridik va jismoniy shaxslarga mulk etib realizatsiya qilish;
- ❖ yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini kimoshdi savdosi asosida fuqarolarga realizatsiya qilish;
- ❖ yer tuzishni, yer monitoringi o'tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish;

- ❖ yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlar hamda ularga oid bitimlarning davlat ro‘yxatiga olinishini tashkil etish;
- ❖ yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqini belgilangan tartibda ushbu Kodeksning 36-moddasiga muvofiq bekor qilish;
- ❖ qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari tashkil etilgan, qayta tashkil etilgan va tugatilgan hollarda, ularning yerga egalik qilishi va yerdan foydalanishi masalalarini hal etish;
- ❖ yer munosabatlarini tartibga solish sohasida tumanlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

Mazkur moddada yer munosabatlarini tartibga solish sohasida tumanlar davlat hokimiyati organlariga o‘n bitta asosiy yo‘nalishda vakolatlar berilgan.

1. Tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona va samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish.

Tumanlar davlat hokimiyati organlarining tuproqning unumdorligini oshirish, yerlardan samarali va oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda, xususan, “Mahalliy davlat hokimiyati organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra tuman hokimi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo‘jaliklari va fuqarolarga egalik qilish, foydalanish uchun va ijaraga yer berishga, bu sub’ektlarning yerga egalik qilish va yerdan foydalanish huquqini to‘xtatib qo‘yishga, shuningdek yerlarni olib qo‘yishga haqli bo‘lib, qabul qilingan bu xususdagi qarorlar xalq deputatlari tegishli Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu qonunning 24-moddasida xalq deputatlari tuman Kengashining asosiy vakolatlari sifatida hokimning taqdimiga binoan hududni rivojlantirishning istiqbolga mo‘ljallangan dasturlarini, tumanning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash belgilangan.

Bulardan tashqari, halq deputatlari mahalliy Kengashlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, tashkiliy masalalarni hamda nazoratni hal qiladilar.

Hokim qonun hujjatlarida o'z vakolatiga berilgan rejalashtirish, budjet, moliya, hisob-kitob, viloyat, tuman, shahar mulkini boshqarish, mulkchilikning turli shakliga mansub korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan hamjihatlik qilish, qishloq xo'jaligi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish sohasida va boshqa masalalarni ham hal etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining 10-moddasida ko'ra davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlariga o'z hududida tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilash, mintaqaning (hududning) ekologiya dasturini tasdiqlash; tabiiy resurslarni hisobga olish va ularning ahvoliga baho berish, ekologiya jihatidan zararli bo'lgan ob'ektlarni ro'yxatga olish; tabiatni muhofaza qilishga doir tadbirlarni moddiy-texnika jihatidan ta'minlash; tabiiy resurslardan foydalanish huquqini beruvchi, sanoat chiqindilarini yoki ro'zg'or chiqindilarini to'plash yoki ko'mib tashlashga ruxsatnomalarni belgilangan tartibda berish yoki ularni bekor qilish; tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar undirish; tabiatning muhofaza qilinishi ustidan nazorat o'rnatish, atrof muhitga zarar yetkazayotgan mahalliy ahamiyatga molik ob'ektlar faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to'xtatish va qayta ixtisoslashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan boshqa masalalarni tartibga solish davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining vakolatiga kiradi.

Yerlardan foydalanishni hududiy rejalashtirish davlatning ushbu sohadagi asosiy vakolatlaridan hisoblanadi. U yerning tabiiy sifatlarini, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa maqsadlarini tahlil etish asosida amalga oshiriladi. Yerlardan foydalanishni rejalashtirish, boshqa davlat rejalashtirishlari kabi mamlakatning

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini dasturlashtirishga mo'ljallangan. Rejalashtirish jarayonida yerlardan foydalanishning asosiy maqsadi belgilanadi.

Yerlardan foydalanishni rejalashtirish tuman va boshqa ma'muriy-hududiy birliklar yer-xo'jalik tuzilishi kompleks hududiy sxemasini tuzishga yo'naltirilgan. Mazkur sxemalar mavjud yer tuzilishi hujjatlari, davlat yer monitoringi ma'lumotlari, davlat yer kadastri ma'lumotlari asosida shakllanadi.

Tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish quyidagi qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinadi:

“Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida”gi 24.11.1994 yildagi №PF-1009 sonli Prezident Farmoni;

“Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 29.11.1994 yildagi №575 sonli Vazirlar Mahkamasi qarori.

“Qoraqalpog'iston Respublikasida foydalanilmayotgan yerlarni hamda past rentabelli va zarar ko'rib ishlovchi qishloq xo'jaligi korxonalarining yerlarini fuqarolarga meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilishlari uchun tajriba tariqasida berish to'g'risida”gi Nizom (29.11.1994 yildagi №575 sonli Vazirlar Mahkamasi qaroriga 2- ilova);

Ushbu va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida mahalliy davlat hokimiyati organlari tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar.

2. Yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 83-moddasiga muvofiq yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning asosiy vazifalari yuridik va jismoniy shaxslar, davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qonun hujjatlari talablariga rioya etishlarini ta'minlashdan iboratdir.

Ushbu norma “Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati to‘g‘risida”gi Nizomda (“O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi huzuridagi davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi to‘g‘risidagi, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati to‘g‘risidagi, davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagi № 66 sonli qaroriga № 2 sonli ilova) yanada aniqlashtirilgan/

Xususan, yuqorida keltirilgan Nizomning 5-bandiga muvofiq, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan oshiriladi.

6-bandda esa mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari sanab o‘tilgan. Ular yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan nazorat bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organlari hududiy bo‘linmalarining yerga oid qonun hujjatlariga rioya qilinishi to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitadilar, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni tekshirish bo‘yicha komissiyalar tashkil etadilar, ushbu masala bo‘yicha qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlari o‘zlariga yuklangan vazifalarga muvofiq belgilangan tartibda quyidagi funksiyalarni amalga oshiradilar:

a) yerlarni muhofaza qilish bo‘yicha kompleks tadbirlar bajarilishini ustidan nazorat qilish, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ❖ tuproq unumdorligini, shuningdek yerlarning boshqa xossalarini qayta tiklash va oshirish;
- ❖ yerlarni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, suv bosishidan, botqoqlanishdan, qayta sho‘rlanishdan, qurib qolishdan, zichlashishdan, ishlab

chiqarish chiqindilari, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishdan, yemirilishning boshqa jarayonlaridan muhofaza qilish;

- ❖ qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini butalar va mayda dov-daraxtlar, begona o'tlar o'sishidan hamda yerlarning texnik holati yomonlashishining boshqa jarayonlaridan muhofaza qilish;
- ❖ agar boshqa usullar bilan tuproq unumdorligini tiklash mumkin bo'lmasa, unumsizlangan qishloq xo'jaligi yerlarini konservatsiya qilish;
- ❖ buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, ularning unumdorligini va yerlarning boshqa foydali xossalarini oshirish;
- ❖ yer buzilishi bilan bog'liq ishlarni bajarishda tuproqning unumdor qatlamlarini olish, ulardan foydalanish va ularni saqlash;

b) suvni muhofaza qilish zonalari va qirg'oqbo'yi polosalari uchun yer ajratilishi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish;

v) foydali konlarni qazish, qurilish ishlari va boshqa ishlar uchun berilgan qishloq xo'jaligi yerlari, o'rmon yerlari va boshqa yerlarning ushbu ishlar tugallangandan keyin belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatga keltirilishi ustidan nazorat qilish;

g) qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan:

- ❖ tabiiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga muvofiq ilmiy asoslangan almashlab ekishlarni, dehqonchilikning eng samarali va oqilona tizimini joriy etish;
- ❖ haydaladigan yer maydonlari saqlab qolinishini ta'minlash;
- ❖ meliorativ jihatdan nobop bo'lgan sug'oriladigan yerlarni kompleks rekonstruksiya qilish, pichanzorlar va yaylovlarga suv chiqarish va ularni yaxshilash tadbirlari bajarilishini nazorat qilish;

d) davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga mo'ljallangan qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini o'lchash.

Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradigan davlat organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- ❖ yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni belgilangan tartibda tekshirish;
- ❖ yerga oid qonun hujjatlari buzilishini bartaraf etishga va yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;
- ❖ aybdor mansabdor shaxslarni va fuqarolarni belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish, yerga oid qonun hujjatlari buzilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplash haqida da'volar kiritish, yerga oid qonun hujjatlari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish uchun tegishli korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga taqdimnomalar yo'llash va materiallarni huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etish;
- ❖ yerga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yer uchastkalarini to'liq yoki qisman olib qo'yish to'g'risida taqdimnomalar hamda yer uchastkalarining unumsizlanib qolganligini belgilash haqida mahalliy davlat hokimiyati organlariga takliflar kiritish.

3. Fuqarolarga, yuridik shaxslarga egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish, shuningdek tubdan yaxshilash ishlari amalga oshirilgan sug'oriladigan yerlar, pichanzorlar va yaylovlardan tashqari yerlarni, o'rmon o'simliklari bilan qoplangan yerlardan tashqari o'rmon fondi yerlarini, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan yerlarni, suv fondi yerlarini olib qo'yish - har bir yer egasiga va yerdan foydalanuvchiga o'n gektargacha o'lchamda.

Yer kodeksining 17-moddasiga binoan yuridik shaxslar Yer Kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin.

Jismoniy shaxslar ushbu Kodeks va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha)

foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin.

Yer uchastkalarini egalik qilish, foydalanish uchun, ijaraga va mulk qilib berish (realizatsiya qilish) yer ajratish tariqasida amalga oshiriladi.

Yer uchastkalarini ajratib berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlar hokimlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Egalikdagi, foydalanishdagi, ijaradagi va mulk qilib berilgan yer uchastkasini boshqa shaxslarga berish (realizatsiya qilish) faqat shu uchastka belgilangan tartibda olib qo'yilganidan (sotib olinganidan) keyin amalga oshiriladi.

Sanoat korxonalari, temir yo'llar va avtomobil yo'llari, aloqa va elektr o'tkazish liniyalari, magistral truboprovodlar qurish uchun, shuningdek qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ehtiyojlar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar yoki qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz bo'lgan yerlar yoxud qishloq xo'jaligining sifati yomon yerlari beriladi (realizatsiya qilinadi). O'rmon fondiga qarashli yerlardan mazkur maqsadlar uchun yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) asosan o'rmon bilan qoplanmagan maydonlar yoki buta va arzonbaho dov-daraxtlar bilan qoplangan maydonlar hisobidan amalga oshiriladi.

Berilgan (realizatsiya qilingan) yer uchastkasining chegaralarini tegishli yer tuzish xizmati naturada (joyning o'zida) belgilaguniga va yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlaydigan hujjatlar berilguniga qadar mazkur yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanishga kirishish taqiqlanadi.

Yer uchastkalarini egalik qilish, foydalanish uchun, ijaraga va mulk qilib berish (realizatsiya qilish) tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

4. Fuqarolarga fermer xo'jaligi yuritish uchun yerlarni ijaraga berish.

Fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir.

O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunining 10-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 53-moddasi fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkalarini berish tartibini belgilaydi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Yer uchastkalarini fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi to'g'risida"gi Nizom (2003 yil 30 oktabrdagi №7 sonli qaroriga ilova) tasdiqlangan.

Fermer xo'jaliklari yuritish uchun yer uchastkasi tanlov asosida ellik yilgacha bo'lgan, biroq o'ttiz yildan kam bo'lmagan muddatga ijaraga beriladi.

Fermer xo'jaliklari tomonidan yer uchastkalari ijaraga olinishida mazkur fermer xo'jaligi tashkil etilayotgan hududda yashovchi shaxslar ustuvor huquqdan foydalanadilar.

Yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlar va (yoki) zaxiradagi yerlar, shunday yer uchastkalarini ajratish to'g'risidagi, shuningdek ushbu yerlarni fermer xo'jaliklariga berish bo'yicha tanlov o'tkazish to'g'risidagi tuman hokimi qarori asosida beriladi.

Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari)ning hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarining yer uchastkalari maxsus tuzilgan komissiya tomonidan o'tkazilgan tanlov yakunlari asosida tuman hokimining qarori bilan beriladi.

Qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalari mazkur kooperativning (shirkat xo'jaligining) yoki korxona, muassasa, tashkilotning a'zolariga (xodimlariga) fermer xo'jaligi yuritish uchun qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) umumiy yig'ilishi tomonidan, boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi, muassasasi va tashkilotining vakolatli organi tomonidan o'tkazilgan tanlov yakunlariga ko'ra tuman hokimining qaroriga asosan berilishi mumkin.

Tuman hokimining fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risidagi qarori viloyat hokimi boshchilik qiladigan yer uchastkalari berish

(realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiquvchi viloyat komissiyasi tomonidan tasdiqlanganidan keyin kuchga kiradi.

Hokimning tanlov o'tkazish to'g'risidagi qarori mahalliy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari boshqaruvi (ma'muriyati) binolarida osib qo'yilishi kerak. E'londa quyidagilar ko'rsatilishi lozim: yer uchastkasining o'lchami, joylashgan joyi, sifati va boshqa tavsiflari, tashkil etilayotgan fermer xo'jaligining mo'ljallanayotgan ixtisoslashuvi, tanlovning o'tkazilish vaqti va joyi. Tanlov uni o'tkazish to'g'risidagi qarorlar qabul qilingan vaqtdan boshlab bir oy mobaynida o'tkazilishi kerak.

Yer uchastkalari berish to'g'risidagi ariza tashkil etilayotgan xo'jalikning biznes-rejasi yoki faoliyat dasturi ilova qilingan holda tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy mobaynida tuman hokimiga beriladi. Arizada ariza beruvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, uning turar joyi, so'ralayotgan yer uchastkasi joylashgan joy, uning maydoni, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi)ning nomi, mo'ljallanayotgan ixtisoslashuv, chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaligi tashkil etishda - boqilishi mo'ljallanayotgan mollarning turlari bo'yicha bosh soni, yer uchastkasini ijaraga olish muddati ko'rsatiladi. Fuqarolarning arizasi maxsus daftarda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Tuman hokimi arizani yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga beradi, komissiya fermer xo'jaligiga yer uchastkalari berish bo'yicha tanlov o'tkazadi.

Komissiya qarori protokol bilan rasmiylashtiriladi va tuman hokimiga beriladi. Tuman hokimi komissiya qarori asosida uch kun mobaynida fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risida qaror chiqaradi va uch kun muddatda ushbu qarorni hamda tanlov komissiyasi ishi natijalarini viloyat hokimi boshchilik qiladigan yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko'rib chiquvchi viloyat komissiyasiga tasdiqlash uchun yuboradi.

Viloyat hokimi boshchilik qiladigan viloyat komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi va tuman hokimining fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risidagi qarorini tasdiqlash (yoki tasdiqlashni rad etish) haqida qaror qabul qiladi. Rad etish to'g'risidagi qaror tanlovni o'tkazish shartlari buzilgan taqdirda va yer uchastkasini ijaraga berish tartibining qo'pol ravishda buzilishlari aniqlangan hollarda qabul qilinadi.

Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari)ning hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarining yer uchastkalari maxsus tuzilgan komissiya tomonidan o'tkazilgan tanlov yakunlari asosida tuman hokimining qarori bilan beriladi.

Hokimning fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risidagi qarorini tasdiqlash yuqorida bayon etilgan Nizomning 16-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Fuqarolarga, yuridik shaxslarga zaxira yerlardan yer uchastkasining o'lchamidan qat'i nazar, egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish.

Yer kodeksi 8-moddasining 1-7-bandlarida ko'rsatilgan yer fondi toifalariga kiritilmagan hamda yuridik va jismoniy shaxslarga egalik qilish, foydalanish uchun, ijaraga va mulk qilib berilmagan (realizatsiya qilinmagan) barcha yerlar zaxira yerlardir.

Zaxira yerlar tuman, shahar davlat hokimiyati organlarining tasarrufida bo'ladi va ushbu Kodeksga muvofiq asosan qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga berishga mo'ljallanadi .

Zaxira yerlar O'zbekiston yer fondi tarkibining mustaqil kategoriyasini tashkil etib, ularning umumiy maydoni 10846,8 ming gektarni yoki yer fondining 24,16%idan iborat.

Ma'lumki, yer uchastkalarining davlat hokimiyati organlari tomonidan korxona, muassasa, tashkilotlar o'rtasida taqsimlanishi natijasida yerlarning bir qismi taqsimlanmay qoladi, bu asosan, o'zlashtirilmagan yerlar bo'lib, ular zaxira yerlarini tashkil etadi. Bundan tashqari ko'p hollarda ushbu yerlar ularni xo'jalik

muomilasiga kiritish uchun zaxira vazifasini o'tab, bir vaqtning o'zida ekologik muvozanatni saqlaydi.

Zaxira yerlaridan foydalanishni ikki turga ajratish mumkin. Birinchi toifasini zaxira vazifasini bajaruvchi yerlar, ya'ni kelgusida, muayyan sharoitlarda qishloq xo'jaligi va boshqa ehtiyojlar uchun foydalanishga mo'ljallangan yerlar; ikkinchi toifasini - xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanishga yaroqsiz bo'lgan yerlar tashkil etadi.

Amaliyot guvohlik berishicha, zaxira yerlari yer fondining har qanday boshqa toifasiga o'tkazilishi mumkin. Biroq bu faqatgina yer qonunchiligi talablariga rioya etgan holda amalga oshirilishi mumkin. Yer uchastkasini foydalanish maqsadiga ko'ra bir toifasidan boshqasiga o'tkazishda ularga yangi kategoriya maqomi tadbiriq etiladi.

Yer uchastkalaridan muddatli foydalanish qisqa muddatli-uch yilgacha va uzoq muddatli-uch yildan o'n yilgacha bo'lishi mumkin. Qisqa muddatga foydalanishga berilgan yer uchastkalari muddati tugagach zaxira yerlari toifasiga kiritilishi yoki yerdan foydalanuvchiga topshirilishi mumkin. Yerlar uzoq muddatli foydalanishga topshirilganda ushbu yerlar zaxira yerlari kategoriyasidan chiqadi.

Zaxira yerlari asosan umumiy bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish uchun, shuningdek, boshqa qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan, transport, sanoat, ishlab chiqarish yoki qishloq xo'jaligi uchun foydalanilishi mumkin.

Alohida ta'kidlash lozimki, zaxira yerlar kelgusida qishloq xo'jaligi maqsadlarida egalik qilish, foydalanish va ijaraga berish uchun imtiyozli hisoblanadi.

Zaxira yerlari tuman va shahar davlat hokimiyati organlari ixtiyorida bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari zaxira yerlar qishloq xo'jaligi o'zini-o'zi boshqarish organlari ixtiyoriga ham berilishi mumkin.

Mazkur muassasalar sanab o'tilgan maqsadlardan tashqari yerlarni fuqarolarga turar-joy qurish ham berishlari mumkin. Albatta, bunda shuni inobatga

olish lozimki, yerdan qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lmazligi lozim.

6. Yer uchastkalarini savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari bilan birgalikda yuridik va jismoniy shaxslarga mulk etib realizatsiya qilish.

Yer kodeksining 18-moddasiga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga xususiylashtirilganda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vujudga keladi.

Ushbu munosabatlarning huquqiy asoslarini "Savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlarini ular joylashgan yer maydonlari bilan birgalikda hamda yer maydonlarini meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish uchun xususiy mulk sifatida sotish tartibi to'g'risida"gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 11 apreldagi №126 sonli qaroriga 3-ilova) tashkil etadi.

Savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlarini ular joylashgan yer maydonlari bilan birgalikda jismoniy va yuridik shaxslarga, shu jumladan, xorijiy jismoniy va yuridik shaxslarga, xususiylashtiriladigan ob'ektlarni sotib olishda ular foydalanadigan mablag'larning manbalari haqida deklaratsiya talab qilmagan holda, xususiy mulk sifatida sotish tanlov asosida yoki kimoshdi savdolarida O'zbekiston Respublikasi davlat mulki ob'ektlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning belgilangan tartibiga va "Savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlarini ular joylashgan yer maydonlari bilan birgalikda hamda yer maydonlarini meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish uchun xususiy mulk sifatida sotish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Sotish tegishli hokimliklar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlari joylashgan yer maydonlarini xususiy mulk sifatida sotish haqidagi qarorlarni taqdim etishgandan keyin Davlat mulki qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat mulki qo‘mitasi yoki uning hududiy boshqarmasi bilan yangi mulkdor o‘rtasida ob‘ektning faoliyat turi to‘g‘risida shartnoma tuzish tanlov yoki kimoshdi savdosining sharti hisoblanadi.

Viloyat, tuman va shahar yer tuzish xizmatlari tegishli hudud bo‘yicha qurilgan va chala qurilgan yer maydonlarining chegaralarini (konturlarini) natura tarzida belgilaydilar hamda sotuvchiga (Davlat mulki qo‘mitasiga yoki uning hududiy boshqarmasiga) ana shu maydonlarning hajmini tasdiqlovchi hujjatlarni beradilar. Bunda yer maydoni savdo va xizmat ko‘rsatish sohasining sotib olinayotgan ob‘ektining sanitariya va texnologiya jihatidan faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan eng kam hajmdan oshmasligi kerak.

Tanlov yoki kimoshdi savdosi g‘olibiga Davlat mulki qo‘mitasi yoki uning hududiy boshqarmasi tomonidan uni keyinchalik tegishli hokimliklar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun ob‘ektga u joylashgan yer maydoni bilan birgalikda egalik qilish huquqini beruvchi davlat dalolatnomasi belgilangan tartibda beriladi.

Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi ob‘ektlari ular joylashgan yer maydonlari bilan birgalikda tanlov bo‘yicha va kimoshdi savdosida xususiy mulk sifatida sotilayotganda ob‘ektning va yer maydonining narxini o‘z ichiga oluvchi yagona boshlang‘ich narx belgilanadi.

7. Yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini kimoshdi savdosi asosida fuqarolarga realizatsiya qilish.

Yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini fuqarolarga realizatsiya qilish tartibi “Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi ob‘ektlarini ular joylashgan yer maydonlari bilan birgalikda hamda yer maydonlarini meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish uchun xususiy mulk sifatida sotish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 11 apreldagi №126 sonli qaroriga 3-ilova) bilan tartibga solinadi.

Yer maydonlari meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish uchun fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish uchun 0,04 gektar va dehqon xo‘jalik yuritish uchun 0,06 gektar doirasida kimoshdi savdolarida sotiladi.

Kimoshdi savdosida va tanlov asosida tajriba sifatida sotiladigan Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi foydalanilmayotgan yer maydonlarining, shuningdek, zarar ko‘rib ishlaydigan va past rentabelli qishloq xo‘jaligi korxonalarining meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish uchun sotiladigan yerlarining boshlang‘ich narxi, qaror topgan talab va taklifni hisobga olgan holda, yerlarni sifat jihatdan baholash natijalari asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi belgilaydigan tartibda belgilanadi.

Kimoshdi savdolarini o‘tkazish tartibi Davlat mulki qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishgan holda belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1995 yil 26 yanvarda “Yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini kimoshdi savdosi asosida fuqarolarga realizatsiya qilish tartibi” to‘g‘risidagi vaqtinchalik Nizom ro‘yxatga olingan. Kimoshdi savdosi asosida realizatsiya qilish deganda yer uchastkalarini narxni erkin shakllantirish tamoyillari asosida ochiq savdo yo‘li bilan realizatsiya qilish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mulki tarkibida bo‘lgan yer uchastkalarini realizatsiya qilish to‘g‘risidagi qaror yer uchastkasi ajratish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi maxsus komissiya taklifi asosida shahar va tuman hokimiyatlari tomonidan qabul qilinadi.

Kimoshdi savdosi asosida yakka turar joy qurish, shaxsiy qo‘shimcha xo‘jalik yuritish uchun yerlar hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida xalq xo‘jaligida foydalanilmayotgan yer uchastkalari, shuningdek, zarar ko‘rib ishlaydigan va past rentabelli qishloq xo‘jaligi korxonalari realizatsiya qilinishi mumkin.

Hokimiyat kimoshdi savdosiga qo‘yilayotgan yer uchastkalarini ajratish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi maxsus komissiya taklifi asosida yer

uchastkalari reestrini tayyorlaydi va O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi yoki uning hududiy boshqarmalariga hujjatlarni taqdim etadi.

Mazkur hujjatlar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ❖ yer uchastkasining yer uchastkalarini ajratish bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi maxsus komissiya taklifi asosida kimoshdi savdosida realizatsiya etilganligi to'g'risidagi hokimiyat qarori;
- ❖ yer uchastkasining uchastka rejasiga qo'yilgan texnik talablarga muvofiq tayyorlangan rejasi,
- ❖ yer uchastkasi eksplikatsiyasi;
- ❖ kimoshdi savdosiga qo'yilayotgan foydalanishning alohida rejimi belgilangan yer uchastkalari ro'yxati.

Hokimiyat tayyorlangan hujjatlar ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi yoki uning hududiy boshqarmalariga taqdim etadi. Ushbu qo'mitaga quyidagilarni tayyorlaydi:

- ❖ yer uchastkalarini kimoshdi savdosi orqali realizatsiya qilish va auksion komissiyalarini tuzish;
- ❖ yer uchastkalarining boshlang'ich narxini ko'rsatgan holda kimoshdi savdosi o'tkazish to'g'risidagi axborot ma'lumoti loyihasi.

Birja faoliyati, Davlat mulk qo'mitasi kimoshdi savdosi va tanlovlarini tashkil etish boshqarmasi (hududiy boshqarmalarda tegishli bo'limlar) qoshida tuzilgan kimoshdi savdosi komissiyasi o'z funksiyasini O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan va Adliya vazirligida ro'yxatga olingan kimoshdi savdosi komissiyasi to'g'risidagi Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

Kimoshdi savdosi tashkilotchisi sifatida chiqishi mumkin bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi, uning hududiy boshqarmalari, Respublika ko'chmas mulk birjasi Davlat mulk qo'mitasi topshirig'iga binoan:

- ❖ belgilangan tartibga muvofiq, kimoshdi savdosida realizatsiya qilinadigan yer uchastkasi to'g'risidagi axborot ma'lumoti chop etilishini tashkillashtiradi va reklama bo'yicha faoliyatni amalga oshirish;

- ❖ kimoshdi savdosi tashkil etilishi va amalga oshirilishini tashkillashtiradi;
- ❖ jamoatchilikni kimoshdi savdosi natijalaridan xabardor etadi.

Tuman va shahar hokimiyatlaridan va kimoshdi savdosi komissiyalaridan olingan ma'lumotlar asosida kimoshdi savdosi tashkilotchisi kimoshdi savdosida realizatsiya qilinishga taklif etilayotgan ob'ekt to'g'risidagi axborot ma'lumotini tuzadi va uning kimoshdi savdosi e'lon qilingan kundan uch haftadan kechiktirmay nashrda va maxsus axborot byulletenlarida chop etilishini tashkillashtiradi.

Kimoshdi savdosida ishtirok etishga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sotib oluvchi deb tan olinadigan va kimoshdi savdosida qatnashish uchun o'z vaqtida ariza bergan hamda ushbu Nizom talablarini bajarish majburiyatini olgan, boshqa zarur hujjatlarni taqdim etgan hamda belgilangan tartibda yer uchastkasi dastlabki narxining 10 foizi miqdoridagi garov pulini kiritgan fuqarolar qabul qilinadi.

Arizalarni qabul qilish kimoshdi savdosi o'tkazishga uch kun qolganda to'xtatiladi.

Kimoshdi savdosida ishtirok etish uchun ariza bergan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor etilmaydi, muayyan kimoshdi savdosi a'zolari yoki tashkilotchilari to'g'risidagi ma'lumotlar bundan mustasno.

Arizachining kimoshdi savdosida ishtirok etishi rad etilishi mumkin, agar:

- ❖ ariza bergan shaxs, amaldagi qonunchilikka muvofiq, sotib oluvchi sifatida tan olinishi mumkin bo'lmasa;
- ❖ ariza bergan shaxs, belgilangan muddatda topshirilishi lozim bo'lgan yuqoridagi nizomda ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etmasa.

8. Yer tuzishni, yer monitoringi o'tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish.

Yer tuzish yerdan foydalanish va muhofaza qilish, yer resurslarini hisobga olish va baholashga, qulay ekologik muhit tuzish va tabiiy landshaftlarni yaxshilash, yer tuzishning ichki xo'jalik va hududiy rejalarini tuzishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimini qamrab oladi.

Yer tuzish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organi qaroriga yoki yuridik va jismoniy shaxslarning talabnomalariga muvofiq yer tuzish xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi (O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 12-moddasi).

Yer monitoringi yer tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini kuzatib turish tizimidan iborat.

Davlat yer kadastrini yuritishni, yerdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, yerlarni muhofaza qilishni axborot bilan ta’minlash yer monitoringi asosida amalga oshiriladi.

Yer monitoringini o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

2000 yil 23 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №496 sonli “O‘zbekiston Respublikasida yer monitoringi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi yer monitoringining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- ❖ -yer fondi holati o‘zgarishlarini o‘z vaqtida aniqlash ustidan kuzatishlar tizimini tashkil etish va amalga oshirish, ularni baholash, salbiy jarayonlarni prognozlash hamda ularning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- ❖ -davlat yer kadastri yuritilishini, yerdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan maqsadli va oqilona foydalanish, yerlarni muhofaza qilish va yer resurslarini davlat tomonidan boshqarishga doir boshqa funksiyalar ustidan davlat nazoratini axborot bilan ta’minlash.

Yer kodeksining 15-moddasiga muvofiq, davlat yer kadastri yerlarning tabiiy, xo‘jalik va huquqiy rejimi, ularning toifalari, sifat ko‘rsatkichlari va bahosi, yer uchastkalarining joylashgan manzili va o‘lchamlari, ularni yer egalariga, yerdan

foydalanuvchilarga, ijarachilarga hamda mulkdorlarga taqsimlash to'g'risidagi zarur, ishonchli ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat.

“Davlat yer kadastrini to'g'risida”gi qonunning 7-moddasiga muvofiq, davlat hokimiyati mahalliy organlarining davlat yer kadastrini yuritish sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- ❖ yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar hamda ularga oid bitimlarning davlat ro'yxatiga olinishini tashkil etish;
- ❖ davlat yer kadastrini yuritish ishlarini mahalliy budjet hisobidan moliyalash;
- ❖ davlat yer kadastrini yuritilishini tashkil etish va nazorat qilish;
- ❖ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

9. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar hamda ularga oid bitimlarning davlat ro'yxatiga olinishini tashkil etish. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar hamda ularga oid bitimlarning davlat ro'yxatiga olinishi tartibi 1999 yil 27 mayda №736 son bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan “O'zbekiston Respublikasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida” Yo'riqnoma bilan belgilanadi.

Yer uchastkalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- ❖ yer uchastkalariga mulkchilik huquqi paydo bo'lganda - mulkchilik huquqiga davlat orderi, oldi-sotdi shartnomalari va qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar asosida;
- ❖ yer uchastkalariga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi paydo bo'lganda yerni berish to'g'risida tegishli organning (mansabdor shaxsning) qarori asosida;
- ❖ ijara huquqi paydo bo'lganda - yer uchastkasini ijaraga berish to'g'risidagi qaror va ijara shartnomasi asosida;
- ❖ yer uchastkalariga egalik qilish va undan foydalanish huquqi o'tkazilganda - binolar va inshootlarning oldi-sotdi shartnomasi, ularni almashtirish, hadya

qilish, renta shartnomasi, meros huquqi to'g'risidagi guvohnoma yoki mulk egasining yoxud uning vakolatli organining (shaxsning) qarori asosida;

- ❖ servitutlarda - shartnoma yoki sud qarori asosida;
- ❖ mushkallashtirishda - tegishli organlarning qarorlari asosida.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazish quyidagi izchillikda amalga oshiriladi:

- ❖ ariza qabul qilinadi;
- ❖ ariza va unga ilova qilingan hujjatlar va materiallar tekshirib ko'riladi;
- ❖ arizalarni qabul qilish reestrda ariza qayd etiladi;
- ❖ yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar ro'yxatga olinadi;
- ❖ yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi guvohnoma sub'ektga beriladi.

Yer uchastkasiga ro'yxatga olinayotgan huquqning turiga qarab yuridik yoki jimoniy shaxsning arizasiga quyidagilar ilova qilinadi:

- ❖ huquqning paydo bo'lishi, o'tishi, cheklanishi yoki to'xtatilishini tasdiqlovchi hujjatlar (1-ilova);
- ❖ yer uchastkasini baholash materiallari (tuproqlar boniteti, qiymatini baholash va h.k.);
- ❖ belgilangan tartibda tasdiqlangan yer uchastkasining kadastr rejasi.

10. Yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini belgilangan tartibda ushbu Kodeksning 36-moddasiga muvofiq bekor qilish.

Butun yer uchastkasiga yoki uning bir qismiga egalik qilish huquqi yoxud undan doimiy yoki muddatli foydalanish huquqi, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- 1) yer uchastkasidan ixtiyoriy voz kechilganda;
- 2) yer uchastkasi berilgan muddat tugaganda;
- 3) yuridik shaxs tugatilganda;
- 4) yerlarni ijaraga olish shartnomasi bekor qilinganda yoki bekor bo'lganda;

- 5) xizmatda foydalanish uchun chek yer berib qo'yishga asos bo'lgan mehnatga oid munosabatlar bekor bo'lganda, agar qonun hujjatlarida boshqacha hol nazarda tutilgan bo'lmasa;
- 6) yer uchastkasidan belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanilganida;
- 7) yer uchastkasidan oqilona foydalanilmaganda, bu qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun hosildorlik darajasi uch yil mobaynida normativdan (kadastr bahosiga ko'ra) past bo'lishida ifodalanganda;
- 8) yer uchastkasidan tuproq unumdorligi pasayishiga, uning kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishiga, ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keladigan usullar bilan foydalanilgan taqdirda;
- 9) qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yer solig'i, shuningdek ijaraga olish shartnomasida belgilangan muddatlarda ijara haqi muntazam to'lanmay kelinganda;
- 10) qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yer uchastkasidan bir yil mobaynida va qishloq xo'jaligi sohasiga taalluqli bo'lmagan ehtiyojlar uchun berib qo'yilgan yer uchastkasidan ikki yil mobaynida foydalanilmaganida;
- 11) meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi order kimoshdi savdosi asosida sotib olinganidan keyin yer uchastkasidan ikki yil mobaynida foydalanilmaganida, yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi garovda bo'lgan taqdirda esa, - garov shartnomasi muddati mobaynida foydalanilmaganida. Foydalanilmayotgan yer uchastkalari avvalgi egalaridan ular to'lagan haq qiymati qoplangan holda olib qo'yiladi;
- 12) yer uchastkasi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda olib qo'yilganida.

Qonun hujjatlarida yer uchastkalariga egalik qilish huquqi, yer uchastkalaridan doimiy foydalanish huquqi va yer uchastkalarini ijaraga olish huquqini bekor qilishning boshqa hollari ham nazarda tutilishi mumkin.

Yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi belgilangan tartibda quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- 1) savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari, shuningdek uy-joy binolari va boshqa binolar yoki binolarning bir qismi shu binolar joylashgan yer uchastkalari bilan birga sotilganda;
- 2) davlat va jamoat ehtiyojlari uchun savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari, shuningdek uy-joy binolari va boshqa binolar yoki binolarning bir qismi ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda qayta sotib olinganda;
- 3) qonunda belgilangan hollarda savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari, shuningdek uy-joy binolari va boshqa imoratlar yoki imoratlarning bir qismi ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga musodara etilganda.

Ushbu modda birinchi qismining 1-11-bandlarida ko'rsatilgan hollarda yer uchastkasiga egalik qilish huquqini yoki yer uchastkasidan doimiy yoxud vaqtincha foydalanish huquqini tugatish yerdan foydalanish hamda uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarning taqdimnomasiga muvofiq huquqlar tugatilishining asosli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarga asosan tegishincha tumanlar, shaharlar, viloyatlar hokimlarining qarorlari yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi. Yer uchastkalariga egalik qilish huquqini, yer uchastkalaridan doimiy yoki vaqtincha foydalanish huquqini tugatish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hamda mazkur mansabdor shaxslarning qarorlaridan norozi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar ushbu qarorlar ustidan sudga shikoyat qilishlari mumkin. Yer uchastkasiga egalik qilish huquqini yoki yer uchastkasidan doimiy yoxud vaqtincha foydalanish huquqini tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu modda birinchi qismining 3-bandida nazarda tutilgan hollarda yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini tugatish ijara shartnomasini bekor qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ushbu modda birinchi qismining 1, 2, 6-10, 12-bandlarida nazarda tutilgan hollarda yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini tugatish Yer kodeksining 24-moddasida nazarda tutilgan tartibda yer uchastkasining ijara shartnomasini bekor qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Yer uchastkasining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi, ijarachisi hamda mulkdori yer uchastkasiga bo'lgan huquqlardan voz kechishidan yaqqol dalolat beruvchi xatti-harakatlar (chet elga jo'nab ketganlik, yer uchastkasidan belgilanganidan ko'proq muddat davomida foydalanmaslik) sodir etgan taqdirda, bu yer uchastkasi qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda egasiz mol-mulk tariqasida hisobga olinadi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlardan voz kechish mazkur yer uchastkasining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi, ijarachisi hamda mulkdori majburiyatlarining, yer uchastkasi boshqa shaxsga berilgunga qadar, biroq voz kechilgan paytdan yoki egasiz mol-mulk tariqasida davlat ro'yxatiga olingan kundan e'tiboran uzog'i bilan bir yil mobaynida, bekor qilinishiga sabab bo'lmaydi.

11. Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari tashkil etilgan, qayta tashkil etilgan va tugatilgan hollarda, ularning yerga egalik qilishi va yerdan foydalanishi masalalarini hal etish.

Yer kodeksining 43-moddasida ta'kidlanishicha, qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning huquqiy holati deganda Respublikaning nisbatan qimmatli yer fondi toifasidan foydalanishning maxsus tartibi tushuniladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun yaroqli bo'lgan barcha yerlar foydalanishning imtiyozli maqomiga ega hisoblanadi. Bu quyidagilarni anglatadi:

- ❖ Birinchidan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar avvalambor qishloq xo'jaligini yuritish uchun berilishi lozim (Yer kodeksining 46-moddasi). Yerlarning qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun yaroqliligi davlat yer kadastri ma'lumotlari asosida aniqlanadi;
- ❖ Ikkinchidan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan xo'jalik maqsadlarida foydalanishda ishlab chiqarish yerlarning holatini yomonlashtirmasligi, balki

tuproq unumdorligini, ularning foydali xususiyatlarini yaxshilash va tiklashga imkon berishi lozim.

- ❖ Uchinchidan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan maqsadlarda foydalanish uchun olib qo‘yish qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishning cheklanishi yoki mazkur yerlar sifatining yomonlashiga va h.k. yerdan foydalanuvchilarning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi zarar va yo‘qotishlari qoplanadi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi maqsadlarida qishloq xo‘jaligi yer uchastkalari quyidagi qishloq xo‘jaligi tashkilotlariga (yuridik shaxslarga) taqdim etiladi: fermer xo‘jaliklari, xususiy (shaxsiy-ijaraviy) tashkilotlar, qishloq xo‘jaligi kooperativlari, xo‘jalik shirkatlari, davlat qishloq xo‘jaligi tashkilotlari. Ya’ni ko‘rsatilgan sub’ektlar foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshiradi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar quyidagilarga beriladi:

- 1) qishloq xo‘jaligi kooperativlariga (shirkat xo‘jaliklariga), boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga - tovar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yuritish uchun;
- 2) tajriba-ishlab chiqarish, o‘quv, o‘quv-tajriba va o‘quv-ishlab chiqarish xo‘jaliklari, ilmiy-tadqiqot va boshqa qishloq xo‘jalik muassasalari va tashkilotlariga - ilmiy-tadqiqot va ta’lim maqsadlari, tovar qishloq xo‘jaligini yuritish va ilg‘or tajribani targ‘ib qilish uchun;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga - fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun;
- 4) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga - dehqon xo‘jaliklarini, yakka tartibda bog‘dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish uchun;
- 5) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga - jamoa bog‘dorchiligi, polizchiligi va uzumchiligi uchun;
- 6) qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga - yordamchi qishloq xo‘jaligini yuritish uchun (Yer kodeksining 46-moddasi).

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yuridik va jismoniy shaxslarga qishloq xo'jaligini yuritish, shuningdek o'zga maqsadlar uchun berilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi yerlari o'zga maqsadlarda, qoida tariqasida, keyinchalik qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun yaroqli holga keltirish sharti bilan vaqtincha foydalanishga beriladi.

Shaharlar davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar shaharlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradi:

- ❖ yerlardan oqilona va samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- ❖ yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- ❖ yer uchastkasining o'lchamidan qat'i nazar, shahar chegarasi doirasida egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish, shuningdek yerni olib qo'yish, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yerlari bundan mustasno;
- ❖ yer uchastkalarini savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari bilan birgalikda yuridik va jismoniy shaxslarga mulk etib realizatsiya qilish;
- ❖ yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini kimoshdi savdosi asosida fuqarolarga realizatsiya qilish;
- ❖ yer tuzishni, yer monitoringi o'tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish;
- ❖ yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar hamda ularga oid bitimlarning davlat ro'yxatiga olinishini tashkil etish;
- ❖ yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini belgilangan tartibda ushbu Kodeksning 36-moddasiga muvofiq bekor qilish;

- ❖ yer munosabatlarini tartibga solish sohasida shaharlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

Mazkur moddada yer munosabatlarini tartibga solish sohasida davlat hokimiyati organlari tasarrufiga sakkiz asosiy yo‘nalish kiritilgan. Mazkur ro‘yxat to‘qqizinchi badda davlat hokimiyati organlariga boshqa masalalar ham topshirilgani uchun uzil-kesil hisoblanmaydi.

1. Yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish.

Shahar hokimiyatlari tomonidan yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan munosabatlarni tartibga solish Yer Kodeksi, tabiatni muhofaza qilish va Shaharsozlik kodekslari tomonidan ta‘minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-moddasida aytib o‘tilganidek, shaharsozlik faoliyati shahar va qishloq aholi punktlarini yashash sharoitlari bilan ta‘minlash, xo‘jalik va boshqa faoliyat turlarining atrof-muhitga ta‘sirining oldini olish, ekologik vaziyatning yaxshilanishi, aholi punktlarining muhandislik, transport va ijtimoiy infrastrukturasini rivojlantirish, shaharsozlik vositalari bilan madaniy meros ob‘ektlarini saqlash.

Aholi punktlarining, muhandislik, transport va ijtimoiy infrastruktura davlat tizimlari barqaror taraqqiyoti, tabiiy zaxiralarni saqlash, madaniy meros ob‘ektlarining muhofazasi uchun sharoitning ta‘minlanishi shaharsozlik sohasida davlat manfaatlari hisoblanadi.

Aholining soniga qarab shahar aholi punktlari Shaharsozlik kodeksining 9-moddasiga muvofiq quyidagi turlarga bo‘linadi:

- ❖ Eng yirik – aholining soni bir milliondan ortiq;
- ❖ yirik – aholining soni ikki yuz ellik mingdan bir milliongacha;
- ❖ katta – aholining soni yuz mingdan ikki yuz ellik mingacha;
- ❖ o‘rta – aholining soni ellik mingdan yuz mingacha;
- ❖ kichik – aholining soni ellik mingacha.

Aholining soniga ko‘ra qishloq aholi punktlari quyidagilarga ajratiladi:

- ❖ yirik – aholining soni besh mingdan ortiq;
- ❖ katta – aholining soni uch mingdan besh mingacha;
- ❖ o‘rta – aholining soni bir mingdan uch mingacha;
- ❖ kichik – aholining soni ming kishigacha.

Aholi punktining turiga qarab qonunchilik tomonidan shaharsozlik hujjatlarining tarkibi o‘rnatiladi.

Yangi va mavjud aholi punktlarining joylashtirilishi aholi punktining turiga, ijtimoiy-iqtisodiy va shaharsozlik bashorat, O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashtirishning bosh sxemasiga, hududlarni rejalashtirish va tumanlarni loyihalashtirish (rayonlar gruppasi), shuningdek rejalar loyihalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Aholi punktlari hududidagi yerlar joylarda davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo‘lib, ular o‘z faoliyatini tasdiqlangan rejalariga ko‘ra amalga oshiradilar.

Shahar va tuman davlat hokimiyati organlari Shaharsozlik kodeksining 20-moddasida aytilganidek quyidagilarni amalga oshiradilar:

- ❖ Shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya qilishni amalga oshiradilar, shuningdek yer jamg‘armasining, ijtimoiy va ishlab chiqarish ob‘ektlarining butunligini ta‘minlaydi;
- ❖ Oqilona joylashtirish, muhandislik, transport va ijtimoiy infrastruktura masalalarini hal qiladilar;
- ❖ Mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan ob‘ektlarni qurish bo‘yicha shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha vazifani amalga oshiradilar va ularni mablag‘ bilan ta‘minlaydilar.
- ❖ Agar u mazkur Kodeks va qonunchilikning boshqa aktlariga muvofiq bo‘lmasa, o‘z hududlarida shaharsozlik faoliyatini cheklaydilar, to‘xtatadilar yoki man qiladilar;

- ❖ Qonunchilikda oʻrnatilgan tartibda oʻzboshimchalik bilan qurilgan obʼektlarni buzishni tashkil qiladilar;
- ❖ Tuman (tumanlar guruhi) planini tuzishda, batafsil loyihalashtirishda, qurish loyihalari va ularni amalga oshirishda ishtirok etadilar;
- ❖ Obʼektlarni qurish toʻgʻrisida qabul qilishda ishtirok etadilar;
- ❖ Binolar, inshootlar, va aholi punktlarining boshqa obʼektlarining texnik holatini inventarizatsiya qilishni tashkil qiladilar;
- ❖ Aholini shaharsozlik faoliyati sohasida qabul qilinayotgan qarorlar toʻgʻrisida xabardor qilib turadilar;
- ❖ Qonunchilikka muvofiq boshqa faoliyatlarni amalga oshiradi;
- ❖ Mazkur moddaning sakkizinchi abzasi qoidalari shaharlar tarkibiga kiruvchi rayonlar davlat hokimiyati organlariga tatbiq qilinmaydi.

Yerlarni muhofaza qilish Yer Kodeksining 79-82-moddalariga muvofiq amalga oshiriladi. Yerlarni muhofaza qilish deganda yerlarning xosildorligini oshirish, ulardan oqilona foydalanish, qayta ishlashga, oʻrmon fondining yerlari samaradorligini oshirishga, yerlarni qishloq xoʻjaligi oboroti va alohida muhofaza qilinadigan yerlar tarkibidan asossiz olib qoʻyish, zararli antropogen taʼsirdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa tadbirlar tizimi tushuniladi.

2. Yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni davlat tomonidan nazorat qilinishini amalga oshirish.

Yerlardan foydalanish va muhofaza qilishning asosiy vazifalari Yer Kodeksining 83-moddasida aytilgan boʻlib, unda yuridik va jismoniy shaxslar, davlat boshqaruvi organlari, davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan qonunchilik talablarining rioya qilinishini anglatadi.

Yer resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishdan maqsadli, oqilona va samarali foydalanishning davlat nazorati Yer Kodeksida belgilangan tartibda, joylarda davlat hokimiyati toʻgʻrisidagi Qonun bilan, Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi Qonuni, 1988 yil 24

dekabrda qabul qilingan va 2000 yil 26 mayda, 2000 yil 15 dekabr, 2004 yil 30 aprel, 2006 yil 23 martda o'zgartirish kiritilgan O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining davlat nazorati to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Shaharlar yerlaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishda davlat nazoratini amalga oshirishda vazirliklar davlat inspeksiyalari, ushbu sohada davlat nazoratini amalga oshirish huquqi mavjud davlat qo'mitalari muhim ahamiyat kasb etadilar.

Adliya Vazirligida 2001 yil 26 aprel №1029 sonli raqam ostida qayd qilingan Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatini koordinatsiya qilish tartibi to'g'risidagi Qonuni tomonidan nazorat qiluvchi organlarning tartibi va ketma ketligi tartibga solingan.

2005 yil 16 fevral №66 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori tomonidan mustahkamlangan Qonunda yerlardan foydalanish va muhofaza qilishni nazorat qilish shartlari va tartibi belgilab berilgan.

Yerlardan foydalanish va muhofaza qilishni nazorat qilish bo'yicha shaharlar davlat hokimiyati organlari vakolatlari Yer Kodeksining 84-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Undan tashqari Shaharsozlik kodeksining 20-moddasida shaharlar davlat hokimiyati organlarining tasarrufiga shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilikka rioya qilishni, shuningdek yer fondining, jamoatchilik va ishlab chiqarish organlari ob'ektlarining butunligini saqlashni ta'minlash nazorat qilish kiritilgan.

3. Yerlarni egalikka topshirish, foydalanish va ijara, shuningdek yerlarni shahar hududi chegaralarida olib qo'yish, qishloq xo'jaligi yerlari va o'rmon-xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari yer maydonidan qat'iy nazar bundan istisno.

Yer Kodeksining 8-moddasida yerlarning sakkiz toifasi ichida ikkinchi o'rinda aholi punktlari yerlari (shaharlar, qishloqlar) – shahar va poselkalar hududlari tashqarisidagi yerlar turibdi.

Yer kodeksining 59-moddasida aytilganidek, shaharlar va posyolkalarning ma'muriy chegaralaridagi barcha yerlar shaharlar va posyolkalarning yerlari jumlasiga kiradi. Bu yerlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) shahar va posyolka qurilishi yerlari;
- 2) umumiy foydalanishdagi yerlar;
- 3) qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar va boshqa yerlar;
- 4) daraxtzorlar egallagan yerlar;
- 5) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar;
- 6) alohida muhofaza etiladigan hududlarning yerlari;
- 7) suv fondi yerlari;
- 8) zaxira yerlar.

Shaharlar davlat hokimiyati organlari (hokimiyatlar), amaldagi qonunchilikka muvofiq yerlarni egalikka berishi, foydalanishga va ijaraga, shuningdek ularni shahar chegaralari doirasida olib qo'yishlari mumkin. Qishloq xo'jaligi bilan band bo'lgan yerlar bundan mustasno.

Shahar davlat hokimiyati organlariga ularning ma'muriy-hududiy chegaralari sarhadida yerlarni berish va olib qo'yish huquqi quyidagi asosiy normativ-huquqiy aktlar bilan tartibga solinadi:

Joylarda davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonun, Yer Kodeksi, Davlat Yer Kadastri to'g'risidagi Qonun, Shaharsozlik kodeksi, Fuqarolik Kodeksi va boshqalar

4. Yer maydonlarining savdo va xizmat ob'ektlari bilan birga yuridik va jismoniy shaxslar mulkiga topshirish

Yuridik va jismoniy shaxslarning yer maydonlariga egalik qilish huquqi savdo va xizmat sohaslarini xususiylashtirishda ular joylashgan yer maydonlari bilan birgalikda yer Kodeksining 18-moddasida belgilangan tartibda paydo bo'ladi.

Ushbu maqsadda yer maydonlarini sotish tartibi O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 1995 yil 11 aprel №126 "Savdo va xizmat doiralarini ular

joylashtirilgan yer uchastkalari bilan birgalikda xususiy mulkka berish tartibi to'g'risida"gi Qonuni, 1999 y. 30 aprel №202 o'zgarishlar kiritilib, chiqarildi.

“Savdo va xizmat doiralarini ular joylashtirilgan yer uchastkalari bilan birgalikda xususiy mulkka berish” Qonunining 6 bandida ta’kidlab o‘tilganidek, berish Davlat mulk qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan yer uchastkalarini xususiy mulkka berish to‘g‘risidagi qaror ko‘rsatilgandan keyin amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining mazkur qarorida yer kvadrat metrining summasi uning joylashgan joyiga, suv bilan ta'minlanishiga va xosildorligiga bog'liq holda keltiriladi. Shu yerning o'zida xususiy mulkka berilmaydigan va kimoshdi savdosida yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yerlari ro'yxati keltirilgan. Bunday yerlarga umumiy foydalanishdagi yerlar kiradi (maydonlar, ko'chalar, proezdlar, yo'llar, qirg'oqlar, sayilgohlar, suv muhofazasi zonalari, cho'milish zonalari va boshqalar)

Shuningdek:

- ❖ tabiat yodgorligi yerlari, botanika bog'lari;
- ❖ sog'lomlashtirish va tarixiy-madaniy yo'nalishdagi yerlar;
- ❖ foydalanish uchun taqdim etilgan yerlar;
- ❖ xavfli moddalar bilan zararlangan va biogen zaharlangan yerlar;
- ❖ shaharlarning rivojlanishi general planlari, loyihalar va ob'ektlarni joylashtirish chizmalari bilan ko'zda tutilgan, savdo va xizmat ko'rsatish doirasidan tashqari yerlar;
- ❖ magistral yo'llarga birikkan yerlar.
- ❖ elektr tarmog', kabel chizig'i va issiqlik podstantsiyalari, suv o'tkazish va kanalizatsiya trassalari va gazoprovodlar, umumdavlat chiziqlari va ulardagi qurilmalar, suv xo'jaligi inshootlari;

5. Yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini kim oshdi savdosi asosida fuqarolarga sotish. Yer uchastkalariga

meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi Yer kodeksining 19-moddasida belgilab berilgan.

Jumladan, mazkur moddada aytilganidek, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari:

- ❖ dehqon xo‘jaligi yuritish uchun;
- ❖ yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish uchun;
- ❖ jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga yer uchastkasi olish huquqiga egadirlar.

Yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ham berilishi mumkin.

Fuqarolarning yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi Yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati bilan tasdiqlanadi.

Ushbu maqsadlar uchun yer uchastkalarini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 11 aprel №126 «Savdo va xizmat doiralarini ular joylashtirilgan yer uchastkalari bilan birgalikda xususiy mulkka berish va meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish tartibi to‘g‘rsida’gi Qonuni bilan belgilab qo‘yilgan.

Yer uchastkalarining boshlang‘ich narxi mazkur Qonunda aytib o‘tilganidek, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan mazkur Qarorning №1 va 2 ilovalariga muvofiq yerlarni kompleks ravishda iqtisodiy baholash asosida belgilanadi.

Boshlang‘ich narxni belgilash uchun yer uchastkasining narxi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi hamda Davlat arxitektura qurilish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat yer qo‘mitasi tomonidan har kvartalda aniqlanadigan narxlarning o‘zgarishi koeffitsientiga (indeksiga) ko‘paytiriladi.

Boshlang‘ich narx o‘rnatilganda talab va taklifdan kelib chiqadigan ko‘paytiruvchi koeffitsientlar qo‘llanishi mumkin.

Yerlarni kompleks iqtisodiy baholash hokimiyatlar tomonidan muhandislik infrastrukturaning rivojlanishini hisobga olgan holda aholi punktini farovonlashtirishga jalb qilinadigan mablag'larga ko'ra yer uchastkalariga differensiyalashgan boshlang'ich narxlarni o'rnatishda, joylashgan joyiga, muhandislik kommunikatsiyalari, arxitektura va boshqa xususiyatlar, hududlar chegaralariga bog'liq holda zonalarga bo'linadi va zarur hollarda ularning qiymati loyiha institutlari bilan birgalikda yer kadastrlarini va bir uchastkaga bo'lgan xarajatlarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Shartnomalarni yoki savdo va xizmat doiralarini ular joylashtirilgan yer uchastkalari bilan xususiy mulkka berish shartlarini haqiqiy emas deb topish, meros qilib qoldiriladigan egalik qilish huquqi to'g'risidagi nizolar tegishli sudlar tomonidan ko'riladi.

6. Yer tuzishning vazifalari va mazmuni, monitoring olib borilishi va davlat yer kadastrini yuritishni tashkil qilish.

Yer tuzishning vazifalari va mazmuni yer kodeksining 12 moddasi tomonidan belgilab berilgan. Unga ko'ra, yer tuzish yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil etishga, yer resurslarini hisobga olish va baholashga, eulay ekologik muhitni vujudga keltirishga va tabiiy landshaftlarni yaxshilashga, yer tuzishning hududiy va ichki xo'jalik rejalarini tuzishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi.

Ta'kidlab o'tilganidek, yer tuzilishi quyidagi turlarga ajratiladi: istiqbolga mo'ljallangan, loyihalash oldidan, xo'jaliklararo hamda ichki xo'jalik yer tuzish.

Ichki xo'jalik yer tuzish loyihalari viloyat xokimlari tomonidan tasdiqlanadi. Yerlarni yuridik va jismoniy shaxslarga berish loyihalari O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar xokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi ichki xo'jalik yer tuzishi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari tumanlar xokimlari tomonidan tasdiqlanadi. Yer

tuzish loyihasiga o'zgartirishlar ushbu loyihalarni tasdiqlagan organlar ruxsati bilan kiritiladi.

Yer tuzish yer tuzish organlari tomonidan davlat budjeti hisobiga amalga oshiriladi.

Yer monitoringi yer tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini kuzatib turish tizimidan iborat. Yerlarni davlat monitoringini o'tkazish davomida olingan ma'lumotlar tizimlashtiriladi va yerlarni joylashtirish natijasida olingan ma'lumotlar davlat jamg'armasiga topshiriladi.

Mahalliy, shu jumladan shaharlar davlat organlari vakolatlariga (hokimiyatlar) Yer kodeksining 14-moddasi, Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi Qonunning 28, 30 moddalariga, O'zbekiston Respublikasida yerlar monitoringi to'g'risidagi Qonun tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 23 dekabr №496 Qarori, keyinchalik 2003 yil 28.02 o'zgartirishlar kiritilgan №112, 14.04.2004, №183 2004 yil 19.10. №483 qarorlar talabiga muvofiq amalga oshiriladi.

Muddati va davriyligiga ko'ra yerlarning holati yuzasidan kuzatuvning uch turi amalga oshiriladi:

- ❖ bazaviy (chiqish, qayd qiluvchi, yerlarni monitoringini boshlashdagi kuzatuv ob'ektlarining faktik holati);
- ❖ davriy (yillik va tabiiy xarakterdagi davrlarga ko'ra);
- ❖ operativ (qayd qiluvchi joriy o'zgarishlar), ular bir yildan kam yoki bir vaqtning o'zida bajariladi.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va jismoniy shaxslar yer monitoringi ma'lumotlaridan o'rnatilgan tartibda to'lov asosida foydalanadilar.

Yerlarni monitoringini olib borish bo'yicha ishlar davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat yer kadastrini yuritish bo'yicha shahar davlat hokimiyati organlarining vakolatlari 1998 yil 28 avgustda qabul qilingan Davlat yer kadastrini to'g'risidagi

Qonunda mustahkamlangan. Ushbu qonunga 13.12.2002 yilda, 30.08.2003 y.; 30.04.2004 y.; 03.12.2004 y. o'zgartirishlar kiritilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.12.2000 №496 "O'zbekiston Respublikasi yerlarini monitoring qilish to'g'risidagi Qonunni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2001 № 492 "O'zbekiston Respublikasi hududini kadastr bo'linishi tartibi to'g'risidagi Qonunni tasdiqlash va yer uchastkalarining, binolar va inshootlarning kadastr raqamlarini shakllantirish to'g'risida"gi Qarorida mustahkamlangan.

Davlat yer kadastrini to'g'risidagi Qonunning 7-moddasi talablaridan kelib chiqqan holda davlat yer kadastrini yuritish sohasida quyidagilar davlat hokimiyati mahalliy organlarining vakolatlariga kiradi:

- ❖ yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar hamda ularga oid bitimlarning davlat ro'yxatiga olinishini tashkil etish;
- ❖ davlat yer kadastrini yuritish ishlarini mahalliy budjet hisobidan moliyalash;
- ❖ davlat yer kadastrini yuritilishini tashkil etish va nazorat eilish;
- ❖ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

7. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish va ular bilan shartnoma tuzishni tashkil qilish.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish va ular bilan shartnoma tuzishni tashkil qilish borasida davlat hokimiyati organlarining vakolatlari Yer kodeksining 35, 31 moddalari, shuningdek Fuqarolik kodeksi bilan belgilab berilgan. Masalan, Yer kodeksining Yer uchastkasiga bo'lgan huquqining vujudga kelishi nomli 31-moddasida aytib o'tilganidek, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkasiga bo'lgan huquqi joyning o'zida chegaralar belgilanganidan, yer uchastkalarining planlari (chizmalari) va tavsiflari tuzilib, yer uchastkalariga bo'lgan huquq davlat ro'yxatiga olinganidan keyin vujudga keladi.

Yer kodeksining 35-moddasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olishning asosiy shartlari ko'rsatib o'tilgan.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish yer uchastkalari joylashgan yerda amalga oshiriladi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar to'g'risidagi zarur hujjatlar kelib tushgan paytdan e'tiboran o'n kunlik muddat ichida mahalliy davlat hokimiyati organi tomonidan amalga oshiriladi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatiga olingani to'g'risida ro'yxatga olingan sana va tartib raqami ko'rsatilgan holda guvohnoma beriladi.

8. Mazkur Kodeksning 36-moddasida o'rnatilgan tartibda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqi bekor qilinishi

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqi bekor qilinishi shartlari va tartibi birinchi navbatda Yer Kodeksining 36-moddasi bilan belgilab berilgan. Undan tashqari, mazkur moddada, Yer uchastkasining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi, ijarachisi hamda mulkdori yer uchastkasiga bo'lgan huquqlardan voz kechishidan yaqqol dalolat beruvchi xatti-harakatlar (chet elga jo'nab ketganlik, yer uchastkasidan belgilanganidan ko'proq muddat davomida foydalanmaslik) sodir etgan taqdirda, bu yer uchastkasi qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda egasiz mol-mulk tariqasida hisobga olinadi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlardan voz kechish mazkur yer uchastkasining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi, ijarachisi hamda mulkdori majburiyatlarining, yer uchastkasi boshqa shaxsga berilgunga qadar, biroq voz kechilgan paytdan yoki egasiz mol-mulk tariqasida davlat ro'yxatiga olingan kundan e'tiboran uzog'i bilan bir yil mobaynida, bekor qilinishiga sabab bo'lmaydi.

2.4. YER MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI VA YO‘LLARI

2.4.1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI “FERMER XO‘JALIGI TO‘G‘RISIDA”GI QONUNNING MAQSAD VA MOHIYATI

O‘zbekiston Respublikasi “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning maqsadi fermer xo‘jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Fermer xo‘jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektidir.

Fermer xo‘jaligi O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy sub’ektidir.

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish bilan birga qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishi, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaligidir.

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari reestri O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan yuritiladi.

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari reestrini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Fermer xo‘jaligining boshlig‘i shu xo‘jalikning muassisi - fermerdir. O‘n sakkiz yoshga to‘lgan, qishloq xo‘jaligida tegishli malaka yoki ish tajribasiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi fermer bo‘lishi mumkin.

Boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fermer xo‘jaligi nomidan ana shu xo‘jalik boshlig‘i ish ko‘radi. Fermer xo‘jaligi boshlig‘ining huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga o‘tkazish taqiqlanadi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

FERMER XO‘JALIGINI TASHKIL ETISH

Fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda va zaxira yerlarda tashkil etiladi.

Chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo‘lgan taqdirda tashkil etiladi. Chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaligiga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlaridagi sug‘oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektarni (nasldor chorvachilik fermer xo‘jaliklari uchun 0,5 gektarni), boshqa viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi sug‘oriladigan yerlarda tegishincha, kamida 0,45 gektarni (nasldor chorvachilik fermer xo‘jaliklari uchun 0,6 gektarni), sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami paxtachilik va g‘allachilik uchun kamida 30 gektarni, g‘allachilik va sabzavotchilik uchun kamida 10 gektarni tashkil etadi. Ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida 1 gektarni hamda ko‘pi bilan 5 gektarni tashkil etadi.

Yer uchastkalari berilganda fermer xo‘jaligi o‘z zimmasiga qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi (uch yil uchun o‘rtacha yillik hosil hisobida) qonun hujjatlarida belgilangan normativ hosildorlikdan kam bo‘lmasligini ta‘minlash majburiyatini oladi. Bu majburiyat yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida mustahkamlab qo‘yiladi.

Fermer xo‘jaligi shu xo‘jalik boshlig‘i tomonidan tashkil etiladi, u fermer xo‘jaligiga tegishlicha alohida mol-mulk ajratib beradi va ustavini tasdiqlaydi.

Fermer xo‘jaligi tashkil etish uchun uning boshlig‘i belgilangan tartibda yer uchastkasi olishi kerak.

Fermer xo‘jaligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan keyin tashkil etilgan deb hisoblanadi hamda uning muassisi yer

uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish to'g'risida shartnoma tuzadi. Fermer xo'jaligi bank muassasasida hisob-kitob varag'i va boshqa xil hisobvaraqlar ochishga, o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'lishga haqli.

Fermer xo'jaligi tashkil etishning ushbu Qonunda belgilangan tartibi buzilgan yoki xo'jalikning ustavi qonunga muvofiq bo'lmagan taqdirda fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish rad etilishi mumkin.

Davlat ro'yxatiga olish rad etilganligi, shuningdek ro'yxatga olish muddatlarining buzilganligi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Fermer xo'jaligi ustav asosida faoliyat ko'rsatadi.

Fermer xo'jaligining namunaviy ustavi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Fermer xo'jaligining ustavida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- ❖ fermer xo'jaligining nomi;
- ❖ fermer xo'jaligi boshlig'ining familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi;
- ❖ fermer xo'jaligining joylashgan yeri to'g'risidagi ma'lumotlar va pochta manzili;
- ❖ fermer xo'jaligining ixtisoslashuvi va faoliyatining asosiy turlari;
- ❖ ustav fondining miqdori.

Fermer xo'jaligining ustavida qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa qoidalar ham bo'lishi mumkin.

FERMER XO'JALIKLARI YURITISH UCHUN YER UCHASTKALARI BERISH.

YERDAN FOYDALANISH VA SUV ISTE'MOLI

Fermer xo'jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari:

- ❖ zaxira yerlardan;
- ❖ yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan;
- ❖ Ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablarining yerlari, shuningdek suv fondi yerlari fermer xo'jaliklariga berilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi, katta va kichik daryolar, suv havzalari bo'ylab joylashgan yer uchastkalari fermer xo'jaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi. O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi bo'ylab besh yuz metrli mintaqada faoliyati hayvonlarni (chorva mollar, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar, asalarilarni, hayvonot bog'lari hamda vivariylarning hayvonlarini va boshqa jonivorlarni) ko'paytirish, o'tlatish va boqish bilan bog'liq bo'lgan chorvachilik, parrandachilik hamda boshqa yo'nalishdagi fermer xo'jaliklariga yer uchastkalari berish taqiqlanadi.

Fermer xo'jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari ochiq tanlov asosida ijaraga ellik yilgacha bo'lgan, lekin o'ttiz yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi.

Fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasini olishda fermer xo'jaligi tashkil etilayotgan joyda yashovchi shaxslar boshqa teng shartlarda ustun huquqdan foydalanadi.

Zaxira yerlardan yoki yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan yer uchastkalari o'tkazilgan tanlov yakunlariga ko'ra yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiquvchi tuman komissiyasi hamda tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining xulosasiga binoan xalq deputatlari tuman Kengashining qarori asosida qabul qilingan tuman hokimining qarori bo'yicha beriladi.

Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi fermer xo'jaligining boshlig'i va tuman hokimi tomonidan imzolanadi.

Tuman hokimining fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga shikoyat qilinishi mumkin.

Fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkalari olgan va qishloq aholi punktida turarjoyi bo'lgan shaxslarning tomorqa yer uchastkasi saqlanib qoladi.

Fermer xo'jaligining yer uchastkasi chegaralarini naturada (joyning o'zida) belgilash hamda yer tuzish loyihalariga muvofiq fermer xo'jaligiga yer uchastkasini ijaraga berish bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish yer tuzish xizmati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligining yer uchastkasiga egalik qilish hamda undan foydalanish borasidagi huquq va majburiyatlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkalaridan qat'iy belgilangan maqsadda foydalaniladi. Ular xususiylashtirilishi, shuningdek oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash ob'ekti bo'lishi va ikkilamchi ijaraga berilishi mumkin emas.

Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi kreditlar olishda fermer xo'jaligi tomonidan garovga qo'yilishi mumkin.

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkasi fermer xo'jaligi qayta tashkil etilgan taqdirda, agar yer uchastkasining bo'linishi natijasida yangi tashkil topgan yer uchastkalarining o'lchami "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida nazarda tutilgan eng kam o'lchamlardan kam bo'lmasa, bo'linishi mumkin.

Yer uchastkasining o'lchami va chegaralari faqat fermer xo'jaligi boshlig'ining roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

Fermer xo'jaligi boshlig'i vafot etgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qonun hujjatlariga muvofiq ijaraga olish shartnomasining amal qilish muddatiga meros bo'yicha o'tadi.

Fermer xo'jaligi boshlig'i pensiya yoshiga to'lganda yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganda, shuningdek muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan, oliy ta'lim muassasalariga kunduzgi o'qishga qabul qilingan, saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylangan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini o'zining tuman hokimi nomiga berilgan arizasiga ko'ra "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi birinchi qismi talablariga javob beradigan o'z oila

a'zolaridan biriga qonun hujjatlariga muvofiq ijara shartnomasi amal qiladigan muddatga berishi mumkin.

Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasining amal qilish muddati tugaganidan keyin fermer xo'jaligi ijaraga olish shartnomasini yangi muddatga uzaytirish huquqiga ega. Fermer xo'jaligining boshlig'i vafot etgan taqdirda, ijaraga olish shartnomasini yangi muddatga uzaytirish huquqiga uning merosxo'ri ega bo'ladi.

Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi taraflarning kelishuviga binoan, taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda esa, sud tomonidan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Fermer xo'jaligi tugatilgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinishi lozim.

Fermer xo'jaliklarining suv iste'moli ularga xizmat ko'rsatuvchi suv iste'molchilari uyushmalari tomonidan belgilanadigan suv ob'ektlaridan suv olish limitlari asosida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

FERMER XO'JALIGINING HUQUQLARI, MAJBURIYATLARI HAMDA MOL-MULKI

Fermer xo'jaligi quyidagi huquqlarga ega:

- ❖ berilgan yer uchastkasida o'z ustavida nazarda tutilgan ixtisoslashuvga va ijaraga olish shartnomasiga muvofiq fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish;
- ❖ ixtisoslashuvni hisobga olgan holda va tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari asosida qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishni amalga oshirish;
- ❖ xarid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers kontraktlari tuzish;
- ❖ yetishtirgan mahsulotini, shu jumladan bu mahsulotni iste'molchilarga realizatsiya qilish huquqini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish;
- ❖ yetishtirayotgan mahsuloti, bajarayotgan ishlari va ko'rsatayotgan xizmatlariga narx belgilash;

- ❖ elektr energiyasi, yoqilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlarning, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy va biologik vositalari yetkazib berilishi, suv xo'jaligi xizmatlari, texnik va boshqa xizmatlar ko'rsatilishi uchun shartnomalar tuzish;
- ❖ tadbirkorlik faoliyatidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solinadigan, cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;
- ❖ olgan daromadlarini (foydasini), bank muassasasidagi o'zining hisobvaraqlarida bo'lgan pul mablag'larini tasarruf etish;
- ❖ aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar olish;
- ❖ kreditlar olish, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini hamda boshqa mol-mulkini shartnoma asosida jalb etish hamda ularni ishlab chiqarishga va takror ishlab chiqarishga yo'naltirish;
- ❖ kreditlar olish uchun o'z mol-mulkini, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yish;
- ❖ kichik hamda xususiy korxonalar uchun berilgan imtiyozlar va preferensiyalarning barcha turlaridan foydalanish;
- ❖ zarur asbob-uskunalar, ishlab chiqarish vositalari hamda boshqa mol-mulkni olish, ijaraga olish, binolar va inshootlar qurish hamda ularni ta'mirlash;
- ❖ ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni, fan va texnika yutuqlarini joriy etish;
- ❖ fan-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish;
- ❖ o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish.

Fermer xo'jaligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Fermer xo'jaligi:

- ❖ yer uchastkasidan qonun hujjatlarida va ijaraga olish shartnomasida ko'rsatilgan shartlar asosida, belgilangan maqsadda, samarali va oqilona foydalanilishini ta'minlashi;

- ❖ ekologik talablarga va atrof muhitni muhofaza qilishning boshqa qoidalariga rioya etishi;
- ❖ yer uchastkasining meliorativ holatini yaxshilash, uning unumdorligini saqlab qolish va oshirish tadbir-choralarini ko‘rishi, biznes-rejada shu maqsad uchun mablag‘lar ajratilishini nazarda tutishi;
- ❖ agar ijaraga olish shartnomasida boshqa muddat belgilangan bo‘lmasa, yer uchastkasi berilgan vaqtdan e‘tiboran bir yil ichida undan foydalanishga kirishishi;
- ❖ tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsuloti nazarda tutilgan hajmlarda yetkazib berilishini ta‘minlashi;
- ❖ g‘o‘za va don ekinlarini navlar bo‘yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rioya etishi;
- ❖ suv resurslaridan suv iste‘moli to‘g‘risidagi shartnomaga muvofiq foydalanishi, suvni tejash, suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ko‘rishi;
- ❖ mazkur fermer xo‘jaligi a‘zo bo‘lgan suv iste‘molchilari uyushmasi balansida turgan sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalash va ta‘mirlashda belgilangan tartibda ishtirok etishi, shuningdek ularni texnik jihatdan soz holatda saqlashi, ulardan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya etishi;
- ❖ suv ob‘ektlarining suvni muhofaza qilish zonolari, sohil bo‘yi mintaqalari, sanitariya muhofazasi zonalarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tartibi va shartlariga rioya etishi;
- ❖ yer uchastkasini saqlash shartlariga va servitutlarga rioya etishi;
- ❖ mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini, o‘z xodimlari, shu jumladan fermer xo‘jaligida mehnat qiladigan oila a‘zolari, vaqtincha (mavsumiy) yollanadigan fuqarolar uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta‘minlashi;

- ❖ ijaraga olish shartnomasi bekor qilingan taqdirda yer uchastkasining dastlab berilgan paytdagi o'lchamlarini kamaytirmagan va boshqa shaklda zarar yetkazmagan holda yer uchastkasini ijaraga beruvchiga qaytarishi;
- ❖ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni belgilangan tartibda o'z vaqtida to'lashi;
- ❖ qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirishda agrotexnika talablariga rioya etishi;
- ❖ qishloq xo'jaligi o'simliklarining zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan muhofaza qilinishini ta'minlashi shart.

Fermer xo'jaligi zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Fermer xo'jaligining ustav fondi fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan belgilanadi.

Pul, qimmatli qog'ozlar, binolar, inshootlar, boshqa mol-mulk yoki pul bilan baholanadigan mulkiy huquqlar fermer xo'jaligining ustav fondiga qo'shiladigan hissa bo'lishi mumkin. Bunda fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkasi berish bo'yicha ochiq tanlovda ko'rsatib o'tilgan mol-mulk, texnika va pul mablag'lari fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan fermer xo'jaligining ustav fondiga kiritiladi.

Agar fermer xo'jaligining ustav fondi shakllantirilayotganda fermer xo'jaligining boshlig'i o'z oila a'zolarining umumiy (ulushli yoki birgalikdagi) mulki hisoblangan mol-mulkni fermer xo'jaligiga topshirayotgan bo'lsa, ushbu mol-mulkning barcha mulkdorlaridan notarial tasdiqlangan rozilik olish talab etiladi.

Fermer xo'jaligining ustav fondini ko'paytirish va kamaytirish fermer xo'jaligi boshlig'ining qaroriga ko'ra fermer xo'jaligi ustaviga o'zgartishlar kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligining mulk huquqi davlat himoyasidadir.

Binolar, inshootlar, qishloq xo'jaligi ekinzorlari va ko'chatzorlari, dov-daraxtlar, chorva mollar, parrandalarga, yetishtirgan mahsulotiga, qishloq xo'jalik

texnikasi, inventar, asbob-uskunalar, transport vositalari, pul mablagʻlari, intellektual mulk obʻektlariga, shuningdek fermer xoʻjaligining balansidagi boshqa mol-mulkka boʻlgan mulk huquqi fermer xoʻjaligiga qarashlidir.

Fermer xoʻjaligi boshligʻining pul va moddiy mablagʻlari, tovarlarni realizatsiya qilishdan (ishlar bajarishdan, xizmatlar koʻrsatishdan) olingan daromadlar (foyda), qimmatli qogʻozlardan kelgan daromadlar, qonunlarda taqiqlanmagan boshqa manbalar fermer xoʻjaligining mol-mulkini shakllantirish manbalari boʻlishi mumkin.

Fermer xoʻjaligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mol-mulkni yaratish, koʻpaytirish, olish, sotish, ijaraga yoki vaqtincha foydalanishga olish huquqiga ega.

Fermer xoʻjaligi tugatilayotganda faoliyatni amalga oshirish davrida oʻz mablagʻlari hisobiga yaratilgan mol-mulkni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda erkin tasarruf etishi mumkin.

Fermer xoʻjaligi pul muomalasini yuritish hamda pul mablagʻlarini saqlab turish uchun bank muassasasida hisobvaraqlar ochish va bu mablagʻlarni erkin tasarruf etish huquqiga ega. Fermer xoʻjaligining hisob-kitob varagʻidan mablagʻlarni faqat fermer xoʻjaligi boshligʻining roziligi bilan yoki sudning qaroriga binoan hisobdan chiqarish mumkin.

Fermer xoʻjaligining mol-mulki qonun hujjatlariga muvofiq meros qilib qoldiriladi. Xoʻjalikda faoliyatni davom ettirayotgan merosxoʻrlar merosga boʻlgan huquq toʻgʻrisidagi guvohnoma berilganligi uchun davlat boji toʻlashdan ozod etiladilar.

FERMER XOʻJALIGI FAOLIYATINING TASHKIL ETILISHI

Fermer xoʻjaligi oʻz ustavida va yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida nazarda tutilgan ixtisoslashuvga muvofiq faoliyati yoʻnalishlarini, ishlab chiqarish tuzilmasi va hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Fermer xoʻjaligi qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining har qanday turi bilan, shuningdek qishloq xoʻjaligi mahsulotini qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishi,

ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishga haqli.

Fermer xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulot va ishlab chiqarayotgan tovarlar, bajarayotgan ishlar va ko'rsatayotgan xizmatlar sifatiga oid normativlar va standartlarga, ekologiyaga, sanitariyaga taalluqli hamda qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan boshqa talablar va qoidalarga rioya etishi shart.

Fermer xo'jaliklarining xo'jalik faoliyatiga davlat organlari hamda boshqa organlar va tashkilotlar, shuningdek ularning mansabdor shaxslari aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat organlari hamda boshqa organlar va tashkilotlarning g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining va fuqarolarning g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida fermer xo'jaligiga yetkazilgan zararlar, shu jumladan boy berilgan foyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

Fermer xo'jaligi (ish beruvchi) va uning xodimlari o'rtasidagi mehnatga oid munosabatlar qonun hujjatlariga muvofiq mehnat shartnomasi (kontrakti) bilan tartibga solinadi.

Fermer xo'jaligidagi ish tartibi xo'jalik boshlig'i tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Fermer xo'jaligi xodimlarining mehnat faoliyati hisobini olib borish xo'jalik boshlig'i tomonidan tashkil etiladi.

Fermer xo'jaligi xodimlarining mehnatiga haq to'lash taraflarining kelishuviga ko'ra pul hamda natura tarzida, qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Fermer xo'jaligining boshlig'i va xodimlari davlat ijtimoiy sug'urtasidan o'tkaziladi. Ularga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va pensiyalar tayinlash hamda to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulotni realizatsiya qilish, shu jumladan davlat ehtiyojlari uchun realizatsiya qilish maqsadida yuridik va jismoniy

shaxslar bilan xo‘jalik shartnomalari tuzish huquqiga ega. Shartnoma majburiyatlari buzilgan taqdirda taraflar qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Fermer xo‘jaligi yetishtirayotgan mahsulotning eksportga yetkazib berilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fermer xo‘jaliklari ixtiyoriylik asosida birlashishi, mahsulot yetishtirish, xarid qilish, uni qayta ishlash va sotish, moddiy-texnika ta‘minoti, qurilish, texnikaviy, suv xo‘jaligi, veterinariya, agrokimyo, maslahat berish yo‘sinidagi va boshqa xil xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha uyushmalar hamda boshqa birlashmalarga kirishi mumkin.

Fermer xo‘jaliklarining O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashiga a‘zoliigi majburiydir.

Fermer xo‘jaligini ishlab chiqarish ahamiyatiga molik ob‘ektlar qurilishi, asosiy ishlab chiqarish vositalarini olish uchun uzoq muddatli kreditlash hamda uning joriy ishlab chiqarish faoliyatini qisqa muddatli kreditlash kredit shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Fermer xo‘jaligini imtiyozli kreditlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fermer xo‘jaligi o‘ziga qarashli va ijaraga olingan ishlab chiqarish vositalarining, qishloq xo‘jaligi ekinzorlari va ko‘chatzorlarining, ko‘p yillik dovdaraxtlarning, yetishtirgan mahsulotining, xomashyoning, materiallarning yo‘qotilishi (nobud bo‘lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavfini, tadbirkorlik xavfini, shuningdek shartnomalarni buzganlik uchun o‘zining javobgarlik xavfini ixtiyoriylik asosida sug‘urta qildiradi hamda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida sug‘urta tovonini (sug‘urta summasi) oladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq fermer xo‘jaligi O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar to‘laydi.

Fermer xo'jaligining foydasi soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar to'langanidan keyin fermer xo'jaligi boshlig'ining tasarrufiga o'tadi.

Davlat fermer xo'jaliklarining huquqlariga rioya etilishini va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi.

Davlat organlari fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va mustahkamlashga ko'maklashishlari shart.

Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shaharcha, qishloq va ovul fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z vakolatlari doirasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda:

- ❖ ishlab chiqarish va ijtimoiy-maishiy ahamiyatga molik ob'ektlari bo'lmagan hududda fermer xo'jaliklari tashkil etilganida mazkur hududni birlamchi obodonlashtirishni (yo'llar, elektr uzatish va aloqa liniyalari qurishni, suv bilan ta'minlashni, gazlashtirishni, telefonlashtirishni, radiolashtirishni, yer tuzishni, yerlarni melioratsiyalashni) amalga oshiradilar;
- ❖ fermer xo'jaliklariga yer uchastkalari beradilar hamda ishlab chiqarish ob'ektlari va uy-joylar barpo etishda yordam ko'rsatadilar;
- ❖ fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish ob'ektlarini muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishiga ko'maklashadilar;
- ❖ foydalanilmayotgan yashash uchun mo'ljallanmagan joylarni ularda mahsulot yetishtirishni va tovarlar ishlab chiqarishni (ishlar bajarishni, xizmatlar ko'rsatishni) tashkil etish uchun ijaraga beradilar;
- ❖ fermer xo'jaliklari boshliqlari va xodimlarini tayyorlashga, qayta tayyorlashga va malakasini oshirishga ko'maklashadilar;
- ❖ qishloq xo'jalik ekinlarining navli urug'lik hamda ko'chatlari, organik va mineral o'g'itlar, qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalardan, kasalliklar hamda begona o'tlardan himoya qilish vositalari yetkazib berish yuzasidan davlat agrotexnika xizmati ko'rsatish tizimi orqali xizmatlar, shuningdek texnikaviy xizmat ko'rsatadilar;

- ❖ qishloq xo‘jaligi texnikasi, asbob-uskunalar va inventarlarni lizing asosida sotib olishga ko‘maklashadilar;
- ❖ zotdor chorva mollar va parrandalar, shuningdek omixta yem sotib olishda ko‘maklashadilar;
- ❖ fermer xo‘jaliklarining chorva mollariga veterinariya xizmati ko‘rsatilishi uchun zarur sharoitlar yaratib beradilar;
- ❖ fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotini tayyorlash va realizatsiya qilishda ko‘maklashadilar;
- ❖ noqishloq xo‘jalik yo‘nalishidagi ishlab chiqarishlarni tashkil etayotgan fermerlarni rag‘batlantiradilar
- ❖ konsalting, axborot yo‘sinidagi va boshqa xil xizmatlar ko‘rsatadilar.

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo‘llab-quvvatlashning boshqa shakllari fermer xo‘jaliklariga ham tatbiq etiladi.

Fermer xo‘jaligi faoliyatini tekshirish (moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirishlar bundan mustasno), davlat ehtiyojlari uchun mahsulot realizatsiya qilish shartnoma majburiyatlari bajarilmagan yoki yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligiga dalillar bo‘lgan, shuningdek yagona yer solig‘i o‘z vaqtida to‘lanmagan hollarda, ijaraga olish shartnomasiga muvofiq ijaraga berilgan yer uchastkasidan faqat belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish masalalari bo‘yicha, belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fermer xo‘jaliklarining xo‘jalik faoliyatini rejali tekshirishlar ko‘pi bilan to‘rt yilda bir marta amalga oshiriladi.

Yangi tashkil etilgan fermer xo‘jaliklarining moliya-xo‘jalik faoliyati ular davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e‘tiboran dastlabki uch yil mobaynida rejali tekshirishlardan o‘tkazilmaydi, ushbu moddaning to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Aksiz to‘lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yangi tashkil etilgan fermer xo‘jaliklarining moliya-xo‘jalik faoliyati, shuningdek fermer xo‘jaliklarining budjet hamda markazlashtirilgan mablag‘lar va resurslardan maqsadli foydalanish

bilan bog'liq moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran dastlabki ikki yil mobaynida rejali tekshirishlardan o'tkazilmaydi.

Ushbu moddada ko'rsatilgan fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar moliya yili mobaynida muntazam ravishda to'lanmagan taqdirda, rejali tekshirishlardan o'tkazilishi mumkin.

Fermer xo'jaligini qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligining yer uchastkalari zaxira yerlarga olib qo'yilganda ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi o'z rahbari tomonidan uning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish orqali qayta tashkil etilishi mumkin.

Fermer xo'jaligi quyidagi hollarda tugatiladi:

- ❖ fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkasi berish bo'yicha ochiq tanlovda fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan ko'rsatib o'tilgan mol-mulk, texnika va pul mablag'lari ustav fondiga kiritilmaganda;
- ❖ moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilmaganligi sababli belgilangan tartibda harakatsiz rejimga o'tkazilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida faoliyat tiklanmagan taqdirda;
- ❖ yer uchastkasini ijaraga olish huquqidan ixtiyoriy voz kechilganida;
- ❖ fermer xo'jaligi bankrot deb topilganda, shu jumladan moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchilar, ish bajaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar bilan hisob-kitob muntazam ravishda amalga oshirilmaganida;
- ❖ fermer xo'jaligining boshlig'i vafot etib, xo'jalik faoliyatini davom ettirishni xohlovchi merosxo'r bo'lmasa;
- ❖ davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yoki yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun, shu jumladan fermer xo'jaligi yer uchastkasidan belgilangan maqsadda foydalanmaganida, xususan kontraktatsiya shartnomasida nazarda tutilmagan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekanida yer uchastkasini olib qo'yish zarurati bo'lgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi

belgilangan tartibda bekor qilinsa, shuningdek O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashiga a'zoliqi tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari rayosatining qaroriga muvofiq tugatilishi munosabati bilan.

Fermer xo'jaligi:

- ❖ fermer xo'jaligi boshlig'ining qaroriga binoan;
- ❖ qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sudning qaroriga binoan;
- ❖ moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilmaganligi sababli belgilangan tartibda harakatsiz rejimga o'tkazilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida faoliyat tiklanmagan taqdirda ro'yxatdan o'tkazuvchi organning qaroriga binoan tugatiladi.

Fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

Fermer xo'jaligi o'z majburiyatlari bo'yicha, shu jumladan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsuloti nazarda tutilgan hajmlarda yetkazib berilishini ta'minlash bo'yicha, shuningdek moddiy-texnika resurslari yetkazib berilganligi va xizmatlar ko'rsatilganligi uchun o'z vaqtida haq to'lash bo'yicha qonunlarga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan o'z mol-mulki bilan javob beradi.

Fermer xo'jaligining boshlig'i fermer xo'jaligining mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda fermer xo'jaligining majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo'ladi.

Xodimning mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan uning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun javobgar qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotgan fermer xo'jaligida mablag' bo'lmagan yoxud yetarli bo'lmagan taqdirda, undirilishi lozim bo'lgan summalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan to'lanadi.

Fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

2.4.2. FERMER XO‘JALIGI YER MAYDONINI MAQBULLASHTIRISH VA UNI TUGATISH TARTIBI

Fermer xo‘jaligi yer maydonini kamaytirishni nazarda tutgan holda ixtiyoriylik asosida uni maqbullashtirish fermer xo‘jaligi rahbarining tuman (shahar) hokimiga berilgan ariza asosida amalga oshiriladi.

O‘zining yer maydonini kengaytirgan holda uni ixtiyoriylik asosida maqbullashtirishni xohlovchi fermer xo‘jaligi davlat mulki bo‘lgan yer maydonlarini uzoq muddatli ijaraga berish tanlovida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qatnashishi kerak.

Tuman (shahar) hokimi ariza tushgandan so‘ng uch kun muddatda hujjatlarni tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashiga taqdim etadi.

Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi besh kun mobaynida arizalarni ko‘rib chiqadi va ularni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha xulosa chiqaradi.

Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi xulosasi arizalar bilan birgalikda tegishli xulosani olish uchun Komissiyaga yuboriladi.

Komissiya taqdim etilgan hujjatlar asosida fermer xo‘jaligi yer maydonini ixtiyoriylik asosida maqbullashtirish masalasini bir hafta muddatda ko‘rib chiqadi. Bunda Komissiya fermer xo‘jaligiga birkirilgan yer maydonini yaxlit holda ko‘rib chiqadi.

Ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha Komissiya qaror qabul qiladi, ushbu qaror protokol bilan rasmiylashtiriladi va barcha hujjatlar, shu jumladan tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining qarori bilan birgalikda ko‘rib chiqish uchun xalq deputatlari tuman Kengashiga yuboriladi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi eng yaqindagi sessiyada Komissiya tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi. Ushbu qaror tuman (shahar) hokimiga yuboriladi.

Tuman (shahar) hokimi xalq deputatlari tuman Kengashining ijobiy qarori asosida bir hafta muddatda ixtiyoriylik asosida fermer xo‘jaligi yer maydonini maqbullashtirish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Bunda bo‘shab qolgan yer maydoni olib qo‘yiladi va kelgusida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda talabgorlarga tanlov asosida beriladi.

Ixtiyoriylik asosida amalga oshirilgan maqbullashtirishdan so‘ng fermer xo‘jaligida qolgan yer maydoni “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan minimal miqdordan kam bo‘lmasligi kerak, dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaligi uchun ijaraga beriladigan yer maydonining eng kam o‘lchami paxtachilik va g‘allachilik uchun - kamida 30 gektar, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlar yetishtirish uchun - kamida 5 gektar bo‘ladi. Fermer xo‘jaligi yer maydonini maqbullashtirishda yer maydoni konturlarining yaxlitligi buzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tuman (shahar) hokimining ixtiyoriylik asosida fermer xo‘jaligi yer maydonini maqbullashtirish to‘g‘risidagi qarori yer maydonlarini berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha viloyat (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) komissiyasiga ko‘rib chiqish uchun yuboriladi, Komissiya o‘n kun mobaynida tuman (shahar) hokimining qarorini tasdiqlaydi yoki uni rad etish to‘g‘risida asoslangan qaror chiqaradi.

Tuman (shahar) hokimining fermer xo‘jaligi yer maydonini maqbullashtirish to‘g‘risidagi qarori yer maydonlarini berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha viloyat (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) komissiyasi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng, tuman (shahar) hokimi va fermer xo‘jaligi rahbari o‘rtasida tuzilgan yer maydonini uzoq muddatli ijaraga berish shartnomasiga o‘zgartirishlar belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

Ixtiyoriylik asosida fermer xo‘jaligi yer maydonini maqbullashtirish “Fermer xo‘jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 1-ilovasiga muvofiq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligini ixtiyoriylik asosida tugatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2007-yil 27-apreldagi PQ-630-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligi tomonidan shartnoma intizomi buzilishining hamda xo'jalik faoliyati samarasiz yuritilishining aniqlangan holatlari asosida fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish

Fermer xo'jaligi tomonidan shartnoma intizomi buzilishining hamda xo'jalik faoliyati samarasiz yuritilishining aniqlangan holatlari asosida fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirish mahalliy davlat hokimiyati organlari tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Yer maydonini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasini bekor qilish va fermer xo'jaligini tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, mahalliy davlat hokimiyati organlari (tuman (shahar) hokimi) tomonidan taqdim etiladigan da'volar asosida, iqtisodiy sud qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Fermer tomonidan o'z zimmasiga olingan shartnoma majburiyatlari bajarilishining chuqur tahlili natijasida quyidagi holatlarning aniqlanishi:

- a) yer maydonini ijaraga olish shartnomasi shartlarining qo'pol ravishda buzilganligi, eng avvalo, fermer xo'jaligiga ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan boshqa maqsadlarda foydalanilganligi - yer resurslari va davlat kadastri, qishloq xo'jaligi organlari hamda tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan;
- b) fermer xo'jaligini shakllantirish chog'ida fermer xo'jaligi ixtisoslashuvining buzilganligi - yer resurslari va davlat kadastri, qishloq xo'jaligi organlari hamda tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan;
- v) ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan oqilona foydalanmaslik, muntazam (ketma-ket uch yil mobaynida) normativ kadastr bahosidan past hosil

olinganligi - qishloq xo'jaligi, yer resurslari va davlat kadastri organlari hamda tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan;

g) fermer xo'jaligi bilan tayyorlov tashkilotlari o'rtasida, eng avvalo, davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari shartlarining muntazam (ketma-ket uch yil mobaynida) bajarilmaganligi (fors-major holatlarining vujudga kelishi holatlari bundan mustasno) - qishloq xo'jaligi organlari, tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, shuningdek tayyorlov tashkilotlari tomonidan;

d) xo'jalik faoliyatining samarasiz va past rentabellik bilan yuritilishi - qishloq xo'jaligi organlari, davlat soliq xizmati organlari, shuningdek tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish bilan bog'liq masalalar bo'yicha da'vo arizalarini qo'zg'atish va iqtisodiy sudga berish uchun asos hisoblanadi.

Aniqlangan holatlar yuzasidan dalolatnoma tuziladi, unga yo'l qo'yilgan qonun buzilishlari holatini tasdiqlovchi zarur hujjatlar va materiallar ilova qilinadi, dalolatnoma "Fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 14-bandida ko'rsatilgan organlar (tashkilotlar) vakillari va fermer xo'jaligi rahbari tomonidan imzolanadi.

Fermer xo'jaligi rahbari dalolatnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, dalolatnomada bu to'g'rida yozuv qayd qilinadi, u tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi hamda ikki nafar jismoniy shaxs tomonidan tasdiqlanadi. Dalolatnoma ikki nusxada tuziladi, ulardan biri fermer xo'jaligi rahbariga topshiriladi.

Dalolatnoma asosida "Fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 14-bandida ko'rsatilgan organlar (tashkilotlar) bir kun mobaynida tegishli taqdimnomani dalolatnoma, shuningdek zarur hujjatlar va materiallar bilan birga tuman (shahar) hokimiga yuboradilar.

Tuman (shahar) hokimi uch kun muddatda barcha hujjatlar va materiallarni tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashiga yuboradi.

Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi ikki kun mobaynida hujjatlar va materiallarni ko‘rib chiqadi va ularni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha xulosa chiqaradi.

Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining xulosasi hujjatlar va materiallar bilan birgalikda tegishli xulosani olish uchun Komissiyaga yuboriladi.

Dalolatnomada ko‘rsatilgan holatlar tasdig‘ini topmagan va (yoki) asoslanmaganligi aniqlangan taqdirda, Komissiya “Fermer xo‘jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 14-bandida ko‘rsatilgan organlar (tashkilotlar)ning taqdimnomasini qaytarish to‘g‘risida qaror qabul qilib, tuman (shahar) hokimiga va ko‘rsatilgan organlar (tashkilotlar)ga bildirishnoma yuboradi va kiritilgan hujjatlarni qaytaradi.

Dalolatnomada ko‘rsatilgan holatlar tasdig‘ini topgan taqdirda, Komissiya bir hafta muddatda taqdim etilgan hujjatlar va materiallarni tahlil qilish asosida yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida yoxud uning maydonini maqbullashtirish to‘g‘risida xulosa tayyorlaydi, ushbu xulosa barcha hujjatlar bilan birgalikda ko‘rib chiqish uchun xalq deputatlari tuman Kengashiga yuboriladi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi eng yaqindagi sessiyada Komissiya tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi, ushbu qaror Komissiya tomonidan taqdim etilgan hujjatlar bilan birgalikda tuman (shahar) hokimiga yuboriladi.

Tuman (shahar) hokimi xalq deputatlari tuman Kengashining yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasini bekor qilish yoxud yer maydonini maqbullashtirish to‘g‘risidagi qarori asosida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, xalq deputatlari tuman Kengashining qarorini, Komissiyaning xulosasini, tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining xulosasini, dalolatnomani va boshqa zarur hujjatlar hamda materiallarni ilova qilgan holda fermer xo‘jaligi rahbari bilan yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasini bekor qilish yoxud

uning yer uchastkasi maydonini maqbullashtirish to'g'risida fermer xo'jaligi rahbariga taklif kiritadi.

Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi taklif fermer xo'jaligi rahbari tomonidan rad etilganda yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 384-moddasida belgilangan muddatda javob olinmaganda tuman (shahar) hokimi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, xalq deputatlari tuman Kengashining qarorini, Komissiyaning xulosasini, tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining xulosasini dalolatnomani va boshqa zarur hujjatlar va materiallarni ilova qilgan holda fermer xo'jaligi bilan yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasini bekor qilish yuzasidan iqtisodiy sudga da'vo arizasini yuboradi.

Ijara shartnomasini bekor qilish yuzasidan da'vo arizasi qondirilishi iqtisodiy sud tomonidan rad etilgan taqdirda tuman (shahar) hokimi "Fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 14-bandida ko'rsatilgan organlar (tashkilotlar)ning taqdimnomasini rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi hamda xalq deputatlari tuman Kengashiga, tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashiga, Komissiyaga va tegishli organlarga (tashkilotlarga) bildirishnoma yuboradi va kiritilgan materiallarni qaytaradi.

Da'vo arizasi sud tomonidan qoniqtirilgan taqdirda sud qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab tuman (shahar) hokimi bir hafta muddatda fermer xo'jaligi yer maydonini zaxiraga olib qo'yish va fermer xo'jaligini tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi, qarorga muvofiq fermer xo'jaligi ishlarini boshqarish yuzasidan barcha vakolatlar tugatish komissiyasiga o'tadi.

Tugatilgan fermer xo'jaligining yer maydoni olib qo'yiladi va keyinchalik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa talabgorlarga tanlov asosida beriladi.

Fermer xo'jaligini tugatishda mulk huquqi bilan unga qarashli bo'lgan imoratlar, inshootlar yoki ekinlar joylashgan yer maydonini olib qo'yishga faqat qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi.

Tuman (shahar) hokimining qarori asosida mulkdorga olib qo'yilgan mol-mulkka teng qiymatli mol-mulk berish va uning ko'rgan zararlarini qoplash yoki mulk huquqi bekor qilinishi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini to'liq hajmda qoplash tegishli yer maydonini uni uzoq muddatli ijaraga berish tanlovi natijalari asosida olgan fermer xo'jaligi tomonidan amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligi tomonidan shartnoma intizomining buzilishi va xo'jalik faoliyatining samarasiz yuritilishi aniqlangan holatlar asosida fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish "Fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 2-ilovasiga muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

TUGATILAYOTGAN FERMER XO'JALIGINING QARZLARINI TO'LASH MEXANIZMI

Tugatilayotgan fermer xo'jaligining qarzlarini to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligi ixtiyoriylik asosida tugatilganda uning qarzlarini to'lash tugatuvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2007-yil 27-apreldagi PQ-630-son qarori bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Kreditorlarning talablarini to'liq qondirishning imkoni yo'qligi aniqlangan taqdirda tugatuvchi fermer xo'jaligini iqtisodiy nochor (bankrot) deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan iqtisodiy sudga murojaat qilishi shart. Fermer xo'jaligi bankrot deb e'tirof etilgan vaqtdan boshlab ixtiyoriy tugatish to'xtatiladi va bundan keyingi tartibot bankrotlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tugatilayotgan fermer xo'jaligining mablag'lari va mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda, uning budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar bo'yicha to'lanmagan qarzlari davlat soliq xizmati organlari tomonidan umidsiz soliq qarzlarni hisobdan chiqarish uchun belgilangan tartibda hisobdan chiqariladi.

Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha to'lanmagan qarzlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ygan tugatilayotgan fermer xo'jaligining mansabdor shaxslariga nisbatan materiallar davlat soliq xizmati organlari va budjetdan tashqari jamg'armalar tomonidan aybdor shaxslarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish va davlatga yetkazilgan moddiy zararni qoplash uchun huquqni muhofaza qilish organlariga beriladi.

2.4.3.FERMER, DEHQON XO'JALIKLARI VA TOMORQA YER EGALARINING HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI HIMOYA QILISH, QISHLOQ XO'JALIGI EKin MAYDONLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI

Mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va aholining munosib hayot kechirishini ta'minlashda fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, ularning yer maydonlaridan samarali foydalanish masalasi alohida o'rin tutadi.

Shu sababli o'tgan davr mobaynida fermerlik harakati, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni kengaytirish kabi yo'nalishlarda bir qator islohotlar amalga oshirildi. Natijada fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy sub'yektlarga aylandi.

O'tkazilgan islohotlar tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 99 foizidan ortig'i fermer va dehqon xo'jaliklari hamda tomorqa yer maydonlarida yetishtirilishiga erishildi.

Ayni vaqtda amalga oshirilgan ishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu sohada erishilgan yutuqlar bilan birga o'z yechimini kutib turgan qator muammo va kamchiliklar ham to'planib qolgan.

Bundan besh yil oldin tashkil etilgan O'zbekiston fermerlari kengashi fermer xo'jaliklarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, fermerlik harakatini yanada rivojlantirish yuzasidan o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni yetarli darajada bajara olmadi.

Aholi ixtiyoridagi 480 ming gektardan ortiq tomorqa ekin maydonlaridan foydalanish samaradorligi past darajada qolmoqda. Ayrim yer egalari ushbu maydonlardan uzoq yillar foydalanmay, qarovsiz holda qoldirgan bo'lsa-da, ularning yerga nisbatan munosabatini o'zgartirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmayotir.

Fermer va dehqon xo'jaliklarining yer maydonlari hamda tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanish ustidan parlament, vakillik va jamoatchilik nazorati lozim darajada o'rnatilmagan.

Fermer xo'jaliklarining qayta ishlash, saqlash, tayyor mahsulotlarni sotish va xizmatlar ko'rsatish kabi ko'p tarmoqli faoliyatini yo'lga qo'yishda, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatishda, sohada bozor mexanizmlarini shakllantirishda ham muammolar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni ana shunday muammolarni hal qilish va 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish maqsadida qabul qilindi.

Farmonda fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning yer uchastkalaridan

foydalanish samaradorligini oshirishning quyidagi ustuvor yoʻnalishlari belgilab berildi:

birinchidan, fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali tizimini yaratish, ushbu sohada normativ-huquqiy bazani takomillashtirish.

Xususan, fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning yer maydonlaridan samarali foydalanish borasidagi mas'uliyatini oshirish yuzasidan amaldagi qonun hujjatlariga, shu jumladan Yer kodeksi, «Fermer xoʻjaligi toʻgʻrisida»gi, «Dehqon xoʻjaligi toʻgʻrisida»gi qonunlarga tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritiladi;

ikkinchidan, fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalarining ekin maydonlaridan samarali foydalanishdagi shaxsiy manfaatdorligi va mas'uliyatini oshirish, bu borada parlament, vakillik va jamoatchilik nazoratining ta'sirchan tizimini yaratish.

Ushbu yoʻnalishda mutasaddi tashkilotlar aniq maqsadga yoʻnaltirilgan amaliy chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, mahalliy xalq deputatlari Kengashlari hamda Oliy Majlis palatalari tomonidan yerlardan samarali foydalanish ustidan doimiy nazorat va monitoring olib boriladi;

uchinchidan, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarining ekin yer maydonlaridan samarali foydalanishni ta'minlash boʻyicha vazifalarini aniq belgilash hamda ularning javobgarligini kuchaytirish.

Farmonda belgilangan vazifalarning toʻliq va soʻzsiz ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasiga, tegishli vazirlik va idoralarga qishloq xoʻjaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish mexanizmini yaratish boʻyicha aniq topshiriqlar beriladi;

to'rtinchidan, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini kuchaytirish.

Mazkur yo'nalishda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining huquqiy maqomini belgilash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha tegishli qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi, fermer xo'jaliklarini bosqichma-bosqich ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga aylantirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

beshinchidan, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ularning tayyorlov, qayta ishlash, ta'minot va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarida zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish.

Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning yerlarini sug'orish uchun doimiy ravishda yetarli miqdordagi suv bilan ta'minlash, agrofirma, tayyorlov tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar qabul qilinadi;

oltinchidan, «Tomorqa – qo'shimcha daromad manbai!» shiorini qishloq aholisi orasida keng targ'ib qilish hamda yer egalarining kundalik faoliyatiga singdirish.

Xususan, ommaviy axborot vositalarida turkum teleko'rsatuvlar, radio eshittirishlar va bosma matbuotda chiqishlar, dehqonchilik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan konferensiyalar, davra suhbatlari va seminar-treninglar tashkil etiladi.

yettinchidan, yer egalarining bilim va tajribalarini oshirish, ularni zarur ma'lumot va axborotlar bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, fermer xo'jaliklarining mehnat munosabatlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish.

Fermer, dehqon xo'jaliklari rahbarlari va tomorqa yer egalarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash yuzasidan bir qator amaliy choralar ko'riladi, shu

jumladan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari qoshida qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etiladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida o'zini o'zi boshqarish va nazorat qilishning samarali tizimini yaratish maqsadida shu yilning 22 sentabr kuni konferensiya qarori bilan O'zbekiston fermerlari kengashi O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi sifatida, joylardagi fermerlar kengashlari fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari sifatida qayta tuzildi. Shu munosabat bilan Farmonda mazkur Kengashning qayta tuzilganligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish uchun vakillik va jamoatchilik nazoratining ta'sirchan mexanizmlarini o'rnatish talab etiladi.

Shuning uchun ham Farmonga binoan, fermer xo'jaliklarining yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligini har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashlarida, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining ekin maydonlaridan foydalanish samaradorligini har oyda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida muhokama qilib borish tartibi joriy etildi.

Ayni vaqtda, yer maydonlaridan samarasiz foydalangan, qishloq xo'jaligi ekinlarini to'liq ekmagan, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirmagan fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari nisbatan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning bekor qilinishigacha bo'lgan qat'iy javobgarlik choralari ko'rilishi belgilab qo'yildi.

Yangi tizimning samarali ishlashini ta'minlash maqsadida mazkur hujjatda parlament nazoratini o'rnatishning samarali mexanizmlari belgilandi, ya'ni Oliy Majlis palatalari vakillari sohada amalga oshirilayotgan ishlar ahvolini doimiy ravishda o'rgangan holda tegishli amaliy choralarni ko'radi.

Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasiga Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan birgalikda

2018 yil 1 oktabrga qadar barcha dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining ekin maydonlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazish hamda ularning yagona reyestrini shakllantirish topshirildi.

Mazkur vazifaning sifatli va to‘liq bajarilishini tashkil etish maqsadida Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari bilan birgalikda shakllantirilgan yagona reyestrning nazorat holatida yuritilishini, undagi ma'lumotlarning haqqoniyligi, to‘liqligi va doimiy ravishda yangilanib borilishini ta'minlash vazifasi yuklatildi.

Farmonda fermerlik harakatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasining 2018-2021 yillarda fermer xo‘jaliklarini bosqichma-bosqich ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklariga aylantirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi hamda 2022 yilning 1 yanvaridan boshlab ko‘p tarmoqli faoliyatni yo‘lga qo‘ymagan fermer xo‘jaliklari bilan yer ijarasi shartnomalari qonun hujjatlariga muvofiq bekor qilinishi belgilab qo‘yildi.

Ushbu islohotning bosqichma-bosqich, o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasiga har yili fermer xo‘jaliklarini bosqichma-bosqich ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklariga aylantirish bo‘yicha fermer xo‘jaliklari kesimida hududiy dasturlarning ishlab chiqilishini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat Kengashlarida tasdiqlanishini ta'minlash, shuningdek hududiy dasturlar asosida ishlab chiqilgan respublika miqyosidagi dasturlarni ko‘rib chiqish va ma'qullash uchun Oliy Majlis Senatiga kiritish topshirildi.

Farmon bilan Vazirlar Mahkamasiga chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, meva-sabzavotchilik, asalarichilik va qishloq xo‘jaligining boshqa muhim yo‘nalishlarini yanada rivojlantirish, fermer xo‘jaliklarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish va uning samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va kiritish topshirildi.

Qayd etish joizki, fermer xo‘jaliklarida mehnat munosabatlarini tashkil etish holati bugungi kun talablariga javob bermaydi, ularning faoliyatida yangi agrotexnologiyalardan foydalanishda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Shu munosabat bilan, hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi samaradorligi va rentabelligini oshirishda, ayniqsa paxta yig‘im-terimini mexanizatsiyalashtirishda bozor infratuzilmalarini, innovatsiyalarni, fan yutuqlari hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek sohada mehnat munosabatlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan birga oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda 2018–2020 yillarda respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasi yuklatildi.

Dehqonchilik madaniyatini oshirishda munosib hissa qo‘shgan va ishlab chiqarishda yuksak natijalarga erishgan fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari taqdirlanadigan «Ilg‘or fermer», «Mehnatkash dehqon» va «Namunali tomorqachi» ko‘krak nishonlari ta‘sis etildi. Ushbu ko‘krak nishonlarining ta‘sis etilishi qishloq aholisining mehnatini rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Farmonda nazarda tutilgan islohotlarni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yaratish, unda belgilangan vazifa va ustuvor yo‘nalishlarni hayotga tatbiq etish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga bir hafta muddatda fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini kiritish topshirildi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur Farmon fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan

takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va realizatsiya qilishni ko‘paytirishga xizmat qiladi va ushbu yo‘nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun keng yo‘l ochib beradi.

2.4.4. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI “DEHQON XO‘JALIGI TO‘G‘RISIDA”GI QONUNNING MAQSAD VA MOHIYATI

Yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan xo‘jalikni mustaqil tarzda yurituvchi, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi bilan, shu jumladan o‘zi egalik qiladigan yer uchastkasidan foydalangan holda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi sub’ekt dehqon xo‘jaligi hisoblanadi.

Dehqon xo‘jaligi tadbirkorlik shakllaridan biridir.

Xo‘jalik boshlig‘i, uning xotini (eri), farzandlari, asrandi bolalari, ota-onasi, boshqa qarindosh-urug‘lari, shuningdek mehnat qila olish yoshiga etgan, birgalikda dehqon xo‘jaligi yuritayotgan, shu xo‘jalikdagi ish asosiy mehnat faoliyati joyi bo‘lgan o‘zga shaxslar dehqon xo‘jaligining a‘zosi hisoblanadilar. Xo‘jalikda mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan shaxslar dehqon xo‘jaligi a‘zosi hisoblanmaydilar.

Xo‘jalik boshlig‘i davlat, kooperativ, jamoat korxonalari, muassasalari, tashkilotlari va ayrim shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarda dehqon xo‘jaligining manfaatlarini himoya qiladi.

Xo‘jalikning 18 yoshga to‘lgan, qishloq xo‘jaligida ish tajribasiga ega bo‘lgan yoki qishloq xo‘jalik mutaxassisligi bo‘lgan yoxud maxsus tayyorgarlik ko‘rgan, ishga layoqatli, sog‘lom a‘zolaridan biri dehqon xo‘jaligining boshlig‘i hisoblanadi.

Dehqon xo‘jaligining boshlig‘i ish qobiliyatini vaqtincha yo‘qotgan yoki xo‘jalikda uzoq muddat bo‘lolmagan taqdirda o‘z vazifasini vaqtincha bajarib turish vakolatini shu jamoa a‘zolaridan biriga, dehqon xo‘jaligini bir kishi yuritayotgan hollarda esa shartnoma asosida istalgan shaxsga berishga haqlidir.

Dehqon xo‘jaligi mulkning boshqa shaklidagi korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar bilan teng huquqli mustaqil ishlab chiqarish birligi hisoblanadi.

Yangi barpo etilayotgan dehqon xo‘jaliklari dastlab jamoa xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari tarkibida shartnoma asosida tashkil etilishi mumkin.

Dehqon xo‘jaliklari tuzish, ularning faoliyat ko‘rsatishi, ularni qayta tashkil etish va tugatish bilan bog‘liq munosabatlar ushbu Qonun bilan, “Yer to‘g‘risida”gi, “Mulchilik to‘g‘risida”gi, “Ijara to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solib turiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida dehqon xo‘jaliklarini tuzish, ularning faoliyat ko‘rsatishi, ularni qayta tashkil etish va tugatish bilan bog‘liq munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan tartibga solib turiladi.

Dehqon xo‘jaliklari zaxira yerlarda, respublikaning maxsus fondidagi yerlarda, mehnat resurslari etishmaydigan xo‘jaliklarda va yangi sug‘oriladigan yerlarda tuziladi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining foyda bermaydigan yoki kam rentabelli yerlarida ham dehqon xo‘jaliklari tuzilishi mumkin.

Dehqon xo‘jaliklari jamoa xo‘jaliklarining va o‘zga kooperativ xo‘jaliklarning yerlarida ushbu xo‘jaliklar a‘zolari umumiy yig‘ilishining qaroriga binoan tuziladi.

Ilmiy-tadqiqot muassasalari, o‘quv yurtlari va o‘zga qishloq xo‘jalik muassasalariga, qishloq hunar-texnika bilim yurtlari va umumta’lim maktablariga berilgan, shuningdek sanoat, transport va o‘zga korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlarning yordamchi qishloq xo‘jaliklari uchun berilgan yerlarda va suv fondiga tegishli yerlarda dehqon xo‘jaliklari tuzilishi mumkin emas.

Dehqon xo‘jaligi uning a‘zolarining tuman hokimiga yozma murojaatiga asosan ixtiyoriylik asosida tashkil etiladi va yerga muntazam egalik qilish va yerdan foydalanish huquqi berilganligi xususidagi davlat hujjati berilgan paytdan

e'tiboran tuzilgan deb hisoblanadi. Dehqon xo'jaligining ustavi tuman hokimi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin dehqon xo'jaligi yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi, bank muassasalarida hisob-kitob schyotlari va o'zga schyotlarni ochish, o'z nomida muhrga ega bo'lish, o'zga korxonalar, birlashmalar, muassasalar, tashkilotlar, ajnabiy firmalar va ayrim shaxslar bilan amaliy munosabatlarga kirishish huquqini qo'lga kiritadi.

Tegishli tuman hokimi vakolat bergan idora har bir dehqon xo'jaligining ro'yxat varaqasi yuritilishini tashkil etadi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari har bir dehqon xo'jaligini xo'jalik kitobida qayd etadi, bu kitobga dehqon xo'jaligi tarkibi to'g'risidagi, xo'jalikning boshlig'i hamda xo'jalik boshlig'i vaqtincha yo'q bo'lgan hollarda uning vazifalarini bajarib turuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek xo'jalikka ajratilgan yer uchastkasi xususidagi asosiy ma'lumotlar kiritiladi.

Ijroiya hokimiyati idoralari tizimida tarmoq bo'linmalari tuzilib, ular dehqon xo'jaliklarining ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatiga aralashmagan holda dehqon xo'jaliklarining faoliyatini uyg'unlashtiradilar, fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish, investitsiya, taraqqiyot istiqbolini oldindan belgilash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradilar.

YER AJRATISH, YERGA EGALIK QILISH, YERDAN VA SUVDAN

FOYDALANISH

Dehqon xo'jaligi yuritish uchun ayrim shaxslarga meros qoldirish huquqi bilan umrbod egalik qilish, kamida 10 yil muddat bilan foydalanish uchun yoki ijaraga yer uchastkalari ajratiladi.

Dehqon xo'jaligi ishlab chiqarish maqsadida qo'shimcha yer uchastkalarini ijaraga olishi mumkin.

Dehqon xo'jaligiga berilgan yer uchastkalari xususiylashtirilishi va oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash ob'ekti bo'lishi mumkin emas.

Dehqon xo‘jaligi yuritish uchun ajratiladigan yer uchastkasining sahni har bir alohida holda mahalliy sharoitni (yerning unumdorligi, suv bilan ta‘minlanganligi, suv berish usullari, jamoa xo‘jaligi yoki davlat xo‘jaligidagi mehnatga layoqatli har bir shaxs yer bilan o‘rtacha qay darajada ta‘minlanganligi, shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarini yuritish uchun, aholi punktlarini kengaytirish va boshqa maqsadlar uchun qishloq xo‘jaligi maydonlariga bo‘lgan talabni va boshqa holatlarni), shuningdek dehqon xo‘jaligi qancha kishidan iborat ekanligini hisobga olgan holda tuman hokimi tomonidan belgilanadi.

Yer uchastkalari dehqon xo‘jaliklariga odatda sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari bo‘lgan va dala yo‘llari o‘tkazilgan yaxlit maydondan ajratib beriladi.

Dehqon xo‘jaligi yuritish istagini bildirgan shaxslar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga yer ajratib berish to‘g‘risida ariza bilan murojaat etadilar. Arizada so‘ralayotgan yer maydoni qayerda joylashganligi, uning sahni, dehqon xo‘jaligining tarkibi ko‘rsatiladi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirishni tashkil etish dasturi taqdim etiladi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yer ajratish to‘g‘risidagi arizani 15 kunlik muddat ichida qarab chiqadi va arizachining iltimosini qo‘llab-quvvatlagan taqdirda tuman hokimidan yer ajratishni so‘raydi, hokim ariza berilgan kundan boshlab uzog‘i bilan ikki oy muddat ichida dehqon xo‘jaligi yuritish uchun yer ajratish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Hokimning yer uchastkasi berishni rad etish to‘g‘risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Dehqon xo‘jaliklariga yer ajratish to‘g‘risidagi masalani hal etish uchun xalq deputatlari tuman Kengashining deputatlaridan, Shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar va dehqon xo‘jaliklari uyushmasi, kasaba uyushmasi, qishloq va suv xo‘jaligi organlari vakillaridan iborat tarkibda tuman komissiyasi tuziladi.

Ushbu hududda yashaydigan shaxslar yer maydoni olishda ustun huquqqa ega bo‘ladilar.

Yerga doimiy egalik qilish va yerdan foydalanish huquqini beruvchi davlat hujjati dehqon xo'jaligining boshlig'iga yer to'g'risidagi qonunlarda belgilangan tartibda beriladi.

Dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkalari olgan hamda qishloq aholi punktida uy-joyi bo'lgan shaxslarning uyga tutash tomorqasi - chek yeri saqlanib qoladi.

Dehqon xo'jaligiga ajratilgan yerning chegaralari natura hoida yer tuzuvchi xizmatlar tomonidan mahalliy budjet mablag'lari hisobiga belgilab qo'yiladi.

Dehqon xo'jaligiga kirish yo'llarini loyihalash va qurish ishlari mahalliy budjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi, yerlarni melioratsiya ishlari esa yagona mavze tarkibida respublika budjeti mablag'lari hisobidan bajariladi. Dehqon xo'jaligi hududidagi gidromelioratsiya inshootlarini ta'mirlash, tuzatish ishlari va ularning ta'minoti shu xo'jalik hisobidan amalga oshiriladi.

Dehqon xo'jaligining yerga egalik qilish va yerdan foydalanish sohasidagi huquq va vazifalari "Yer to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilab qo'yiladi.

Dehqon xo'jaligiga berilgan yer uchastkasi taqsimlanishi mumkin emas.

Yer uchastkasining sahni va uning chegaralari dehqon xo'jaligi rahbarining roziligi bilangina o'zgartirilishi mumkin.

Yer uchastkasi tortib olingan yoki boshqa shaxsga, korxona yoxud tashkilotga berilgan taqdirda dehqon xo'jaligi qonunlarga muvofiq ko'rgan zararining va qilgan sarf-xarajatlarining o'rnini qoplatib olish huquqiga ega.

Yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanish huquqiga doir nizolar sud orqali hal etiladi.

Dehqon xo'jaligining boshlig'i vafot etgan taqdirda yoki mehnat qobiliyatini butunlay yo'qotgan hollarda yer uchastkasiga egalik qilish yoxud yer uchastkasidan foydalanish huquqi xo'jalik a'zolarining roziligi bilan ulardan biriga yoki qonunlarda belgilangan tartibda va shartlarda o'zga shaxslarga beriladi.

Dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyatini to‘xtatgan hollarda unga ajratilgan yerga egalik qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi masala tuman hokimi tomonidan hal etiladi.

“Yer to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq yerga egalik qilish va yerdan foydalanish pullidir.

Yer haqi yer solig‘i yoki ijara haqi tarzida, yer uchastkasining sifatiga, qayerda joylashganligiga va suv bilan ta‘minlanganligiga qarab, uning kadastr bahosini hisobga olgan holda belgilanadigan hajmda undiriladi.

Dehqon xo‘jaliklariga soliq solish tartibi, ularning yer haqi to‘lovining stavkasi va eng kam hamda eng ko‘p miqdorlari davlat, jamoa va o‘zga korxonalar hamda xo‘jaliklardan undiriladigan darajaga teng bo‘ladi.

Dehqon xo‘jaligi ro‘yxatga olingan paytdan boshlab dastlabki ikki yil davomida undan yer solig‘i olinmaydi.

Xalq deputatlari tegishli Kengashlari yer haqini undirishda boshqa imtiyozlar ham belgilashlari mumkin.

Dehqon xo‘jaliklari uchun suv ishlatishning limitlari davlat, jamoa korxonalari, birlashmalari va tashkilotlari hamda ayrim shaxslarga belgilangani kabi tuman hokimi vakolat bergan idoralar tomonidan belgilanadi.

Dehqon xo‘jaligiga berilayotgan suvning sarflanishini hisoblash tartibi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari bilan belgilanadi.

Qishloq va suv xo‘jaligi organlari bilan dehqon xo‘jaliklari o‘rtasidagi munosabatlarga doir nizolar sud tomonidan hal etiladi.

Jamoa xo‘jaliklari va o‘zga qishloq xo‘jaligi kooperativlarining, xo‘jalik yoki kooperativ tarkibidan chiqib, mustaqil dehqon xo‘jaligi yuritish istagini bildirgan a‘zolari kooperativ ustaviga muvofiq mol-mulk qiymatining va foydaning tegishli ulushini olishga haqlidirlar, bu ulush kooperativ a‘zosining mehnat ishtirokini hisobga olgan holda belgilanadi.

Jamoa xo‘jaliklari va o‘zga qishloq xo‘jaligi kooperativlari jamoa xo‘jaligi yoki kooperativning dehqon xo‘jaligi tuzish istagida bo‘lgan a‘zolariga mol-mulk

qiymatining va foydaning tegishli ulushi hisobidan o‘zaro kelishuvga muvofiq jamoa xo‘jaligidan chiqayotganlarga asosiy va oborot mablag‘larini beradilar yoki ularni ijaraga topshiradilar yoxud dehqon xo‘jaligi banklardan kredit olayotganda kafil bo‘ladilar yoki ijara haqi va ssudalardan foydalanganlik uchun foizlar to‘lash sarf-xarajatlarini ulush summasi doirasida qoplaydilar. Jamoa xo‘jaligidan va boshqa kooperativ tashkilotlardan chiqayotganlarga mol-mulk qiymatining yoki foydaning ulushini to‘lash muddati besh yildan oshmasligi kerak.

DEHQON XO‘JALIGINING MOL-MULKI

Dehqon xo‘jaligi turar joylar, xo‘jalik binolari, tomorqadagi dov-daraxt va ekinlar, mahsuldor chorva, parranda, qishloq xo‘jaligi texnikasi, anjomlar, uskunalar, transport vositalari, pul mablag‘lari, shuningdek boshqa narsalarga mulk egasi bo‘lishga haqlidir.

Dehqon xo‘jaligining pul jamg‘armalarini hosil qilish manbalari:

- ❖ dehqon xo‘jaligi a‘zolarining pul va moddiy mablag‘laridan;
- ❖ mahsulot realizatsiya qilishdan, ish bajarish, xizmat ko‘rsatishdan, shuningdek mehnat faoliyatining o‘zga turlaridan kelgan daromadlardan;
- ❖ qimmatli qog‘ozlardan kelgan daromadlardan;
- ❖ kreditlardan;
- ❖ budjetdan qilingan kapital ajratmalar va dotatsiyalardan;
- ❖ korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va fuqarolarning xayriya va o‘zga badallari, ehsonlaridan;
- ❖ qonunlarda taqiqlanmagan o‘zga manbalardan iborat bo‘ladi.

Dehqon xo‘jaligining o‘ziga qarashli mol-mulkka egalik qilish huquqi davlat himoyasida bo‘ladi.

Dehqon xo‘jaligining mol-mulki umumiy (paychilik yoki hamkorlikdagi) egalik asosida uning a‘zolariga tegishli bo‘ladi.

Dehqon xo'jaligining mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish xo'jalik a'zolari tomonidan o'zaro kelishuvga muvofiq amalga oshiriladi.

Dehqon xo'jaligining a'zolari, bosharti boshqa dehqon xo'jaligini tuzish maqsadida uning tarkibidan chiqayotgan bo'lsalar, u holda dehqon xo'jaligidan chiqayotganlarida ulushlarini natura holida olishga haqlidirlar. Bunday paytda mulkdagi ulush natura holida shunday ajratiladiki, faoliyat ko'rsatib kelayotgan dehqon xo'jaligi ishlash uchun o'ziga zarur bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlaridan mahrum bo'lmaydi.

Dehqon xo'jaligi korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va ayrim shaxslardan mol-mulkni sotib olish, ijaraga olish yoki vaqtincha foydalanib turish uchun olish huquqiga egadir.

Dehqon xo'jaligi pul operatsiyalarini yuritish va pul mablag'larini saqlash uchun bank bo'linmalarida schyotlar ochish hamda bu mablag'larni erkin tasarruf qilish huquqiga egadir. Dehqon xo'jaligining hisob-kitob schyotidan mablag'lar faqat xo'jalikning roziligiga binoan yoki sud qaroriga ko'ra chegirilishi mumkin.

Hisob-kitob schyotidagi mablag'lar naqd pulsiz tartibda ham, naqd pul berish yo'li bilan ham ishlatiladi.

DEHQON XO'JALIGI FAOLIYATINING ASOSLARI

Dehqon xo'jaligining faoliyati ko'proq xo'jalik a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Dehqon xo'jaligidagi ishlarni bajarishga o'zga shaxslar mehnat shartnomasi asosida vaqtincha jalb etilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligida mehnat qilish to'g'risidagi shartnomani tuzish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi tomonidan belgilanadigan tartibda tasdiqlanadi.

Dehqon xo'jaligidagi mehnat tartibini xo'jalik boshlig'i belgilaydi. Dehqon xo'jaligi a'zolarining va mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslarning mehnat faoliyatini dehqon xo'jaligi hisob qilib boradi.

Mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslar mehnatiga tomonlarning kelishuviga muvofiq pul bilan ham, natura bilan ham, ammo belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda haq to'lanadi.

Dehqon xo'jaligi boshlig'ining roziligiga binoan dehqon xo'jaligida shartnoma bo'yicha ishlayotgan shaxs xo'jalik mulkiga pul yoki o'zga ulush kiritib, ana shu ulushga mutanosib tarzda xo'jalik daromadini taqsimlashda ishtirok etishga haqlidir.

Dehqon xo'jaligining boshlig'i o'z xo'jaligining a'zolari uchun va mehnat shartnomasi tuzgan shaxslar uchun bexatar mehnat sharoitlarini yaratib berishi shart.

Dehqon xo'jaligining a'zolari, shuningdek xo'jalikda mehnat shartnomasiga binoan ishlayotgan shaxslar qonunlarga muvofiq ijtimoiy sug'urtalanishi va ijtimoiy jihatdan ta'minlanishi lozim.

Dehqon xo'jaligining boshlig'i tegishli kasaba uyushmasida va sug'urta idoralarida sug'urtalovchi sifatida ro'yxatdan o'tadi va dehqon xo'jaligining barcha a'zolari uchun hamda mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslar uchun davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga belgilangan tartibda badallar to'laydi.

Dehqon xo'jaligida ishlangan vaqt ijtimoiy sug'urta yuzasidan badallar to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida umumiy va uzluksiz mehnat stajiga qo'shib hisoblanadi.

Dehqon xo'jaligi a'zolarining hamda mehnatlaridan foydalanish to'g'risidagi shartnoma tuzgan shaxslarning ish stajiga oid yozuv mehnat daftarchalariga xo'jalik boshlig'i tomonidan kiritiladi va Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha davlat nafaqalari tayinlash, pensiyalar tayinlash hamda to'lash qonunlarda belgilangan tartibda va shartlar asosida amalga oshiriladi. Dehqon xo'jaligining a'zolariga va mehnat shartnomasiga binoan

ishlayotgan fuqarolarga tayinlangan pensiyalar, olayotgan maoshi (daromadi)ni hisobga olmagan holda, to'raligicha beriladi.

Dehqon xo'jaligining a'zolariga ijtimoiy va madaniy xizmat ko'rsatish xo'jalikning o'z mablag'lari hisobiga hamda ijtimoiy iste'mol jamg'armalari evaziga ta'minlanadi. Dehqon xo'jaliklari a'zolarining umumiy foydalanishdagi ijtimoiy muassasalar xizmatlaridan jamoa xo'jaligi va o'zga qishloq xo'jaligi korxonalarining ishchilari, xizmatchilari va a'zolari bilan teng ravishda foydalanishlari ta'minlanadi.

Dehqon xo'jaligi bilan mehnat shartnomasi tuzgan shaxslar o'rtasidagi mehnatga oid nizolar sud tomonidan hal etiladi.

Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatining yo'nalishini, ishlab chiqarish tarkibi va hajmlarini mustaqil tarzda belgilaydi. Dehqon xo'jaligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining amaldagi qonunlarda man etilmagan har qanday turi bilan shug'ullanishga, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va realizatsiya qilishga haqlidir.

Dehqon xo'jaliklarining xo'jalik faoliyatiga davlat, jamoat, kooperativ va o'zga idoralar hamda tashkilotlarning aralashuviga yo'l qo'yilmaydi, bu xo'jaliklar tomonidan qonunlar buzilgan hollar bundan mustasnodir.

Davlat, jamoat, kooperativ va o'zga idoralarning qonunga xilof xatti-harakatlari natijasida, shuningdek bunday idoralar, mansabdor shaxslar va fuqarolarning dehqon xo'jaligi oldida qonunlarda ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi oqibatida yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foydaning o'zni qoplanmog'i kerak.

Dehqon xo'jaligi boshqa mulk egalari bilan teng shartlarda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi.

O'zi etishtirgan mahsulotni tasarruf etishdan, shu jumladan uni o'z ixtiyoriga ko'ra iste'molchilarga sotishdan iborat mutlaq huquq dehqon xo'jaligiga tegishlidir.

Dehqon xo'jaligi mahsulot sifatiga doir amaldagi normativlar va standartlarga, qonunlarda belgilangan ekologik, sanitariya hamda o'zga me'yorlar va qoidalarga rioya etishi shart.

Dehqon xo'jaligi o'zi etishtirgan mahsulotga mustaqil tarzda narx qo'yadi.

Dehqon xo'jaligi o'zi etishtirgan mahsulotni realizatsiya qilish uchun davlat, kooperativ korxonalari, birlashmalari, tashkilotlari va muassasalari bilan ixtiyoriylik asosida xo'jalik shartnomalarini tuzishga haqlidir. Shartnomaga rioya qilmagan yoki uning talablari buzilgan taqdirda tomonlar amaldagi qonunlarda yoki shartnomada belgilangan tartibda mulkiy javobgar bo'ladilar.

Dehqon xo'jaligi etishtirgan mahsulotlarni eksportga jo'natish, shuningdek xorijiy mijozlar bilan hisob-kitob qilish qonunlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Dehqon xo'jaliklari mahsulot etishtiruvchi, ularni xarid etuvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi, moddiy-texnika ta'minoti bilan, qurilish, texnika, suv xo'jaligi, veterinariya, agroximiya xizmati ko'rsatish, maslahat berish va xizmat ko'rsatishning o'zga shakllari bilan shug'ullanuvchi kooperativlarga, jamiyatlarga, uyushmalarga, konsernlarga va boshqa birlashmalarga ixtiyoriylik asosida birlashishi yoki ular tarkibiga kirishi mumkin.

Dehqon xo'jaligi davlat hamda kooperativ korxonalari va tashkilotlaridan, birjalarda, yarmarkalarda, bozorlarda, aholidan o'zi uchun zarur mol-mulk va ishlab chiqarish vositalari sotib olishga haqlidir.

Dehqon xo'jaliklari o'zlari etishtirgan mahsulotlarining shartnomada aytilgan qismini davlatga (respublika fondiga) kelishuv asosidagi narxlarda sotsalar va davlat buyurtmalarini bajarsalar, qishloq xo'jaligi texnikasi, yonilg'i-moylash materiallari, yosh mollar va parranda bilan, zooveterinariya yordami, em-xashak va boshqa resurslar bilan davlat korxonalari uchun belgilangan tartibda va narxlarda ta'minlanadilar.

Dehqon xo'jaliklari ishlab chiqarish hamda ijtimoiy va maishiy yo'nalishdagi ob'ektlar yo'q hududda tuzilgan taqdirda mahalliy hokimiyat va boshqaruv

idoralari uning dastlabki qulayliklarini ta'minlab beradilar: yo'llarni, elektr uzatkich tarmoqlarini qurish, suv ta'minoti, gazlashtirish, telefonlar o'rnatish, radiolashtirish, yerlarni tekislash, yerlarni melioratsiyalash ishlarini markazlashtirilgan tartibda ajratiladigan davlat kapital mablag'lari va moliya resurslari hisobidan amalga oshiradilar. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, shuningdek ishlab chiqarish ob'ektlari va uy-joylarni tiklashda dehqon xo'jaliklariga yordam ko'rsatadilar.

Dehqon xo'jaligi O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq soliq to'laydi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari o'z vakolatlari doirasida dehqon xo'jaliklarini soliq to'lashdan ozod etish yoki soliq miqdorini kamaytirish huquqiga egadirlar.

Dehqon xo'jaligining daromadlari, xo'jalik a'zolarining hamda xo'jalikda shartnoma asosida ishlayotgan shaxslarning shaxsiy daromadlari daromadlar to'g'risidagi ma'lumotnoma (deklaratsiya)larda aks ettiriladi.

Dehqon xo'jaligiga qarashli ishlab chiqarishga mo'ljallangan ob'ektlar qurilishiga uzoq muddatli kreditlar berish, ishlab chiqarishning asosiy vositalarini sotib olish va xo'jalikning joriy ishlab chiqarish faoliyati uchun qisqa muddatli kreditlar berish kredit shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladi. Davlat, kooperativ va jamoat korxonalari, birlashmalari, tashkilotlari va muassasalari, ayrim shaxslar dehqon xo'jaliklariga tuzilgan shartnomalarga muvofiq kreditlar berishga haqlidirlar.

Dehqon xo'jaliklari ularga xizmat ko'rsatish uchun bank muassasalari tomonidan tuzilgan maxsus kredit fondidan imtiyozli shartlarda foydalanadi.

Yerlarni melioratsiyalashga, yo'llar, ko'priklar, gaz, elektr, issiqlik tarmoqlari, suv quvurlari, kommunal yo'nalishdagi o'zga ob'ektlar qurish ishlariga qaratiladigan budjet mablag'lari ham dehqon xo'jaliklarini pul bilan ta'minlashning manbai bo'lishi mumkin.

Dehqon xo‘jaligi tuzilayotgan paytda, unga ssudalar va kreditlar berilayotganida mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘zga yuridik hamda jismoniy shaxslar, shuningdek o‘z mol-mulkini garovga qo‘yib dehqon xo‘jaliklarining o‘zi ham kafil bo‘lishlari mumkin.

Dehqon xo‘jaligi ixtiyoriylik asosida o‘ziga qarashli va ijaraga olgan ishlab chiqarish vositalarini, shuningdek qishloq xo‘jaligi ekinlari (ko‘chatlari)ni, ko‘p yillik dov-daraxtlarni, tayyorlangan mahsulotni, xomashyoni, materiallarni nobud bo‘lishdan yoki shikastlanishdan sug‘urtalaydi va amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda va shartlarda sug‘urta to‘lovlarini oladi.

Dehqon xo‘jaligi o‘z ishining natijalarini hisob-kitob qilib boradi hamda mahalliy statistika va moliya idoralariga belgilangan tartibda hisobot taqdim etadi.

Dehqon xo‘jaligi o‘z majburiyatlariga mol-mulki bilan javob beradi, amaldagi qonunlarga binoan bu mol-mulki tortib olinishi mumkin. Davlat dehqon xo‘jaligining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi, dehqon xo‘jaligi esa davlatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi.

Dehqon xo‘jaligining ushbu Qonun va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari talablarini buzishda aybdor bo‘lgan a‘zolari belgilangan tartibda moddiy, ma‘muriy yoki jinoiy javobgar bo‘ladilar.

Amaldagi qonunlarga muvofiq dehqon xo‘jaligi mehnat vazifalarini ado etish chog‘ida xo‘jalik a‘zolari va mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan shaxslar shikastlanish yoki salomatligiga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi.

Dehqon xo‘jaligining mol-mulki O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunlari qoidalariga muvofiq meros qoldiriladi. Xo‘jalikda faoliyatini davom ettirayotgan merosxo‘rlar meros huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma berilganligi uchun davlat poshlinasi to‘lashdan ozod etiladilar.

Yer maydoni “Yer to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibga muvofiq meros qoldiriladi.

DEHQON XO‘JALIGI FAOLIYATINING TO‘XTATILISHI

Dehqon xo‘jaligining faoliyati quyidagi hollarda to‘xtatiladi:

- ❖ xo‘jalik faoliyatini davom ettirishni istaydigan xo‘jalikning birorta a‘zosi, merosxo‘r yoki o‘zga shaxs qolmagan bo‘lsa;
- ❖ yer maydoniga egalik qilish va undan foydalanish huquqidan ixtiyoriy ravishda voz kechilganda;
- ❖ yer maydoni berilgan muddat tugagan va yerga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tiklash imkoni bo‘lmagan taqdirda;
- ❖ yerdan o‘zga maqsadlarda foydalanilganda, yer maydonidan samarasiz foydalanilganda, kadastr bahosi me‘yoridan muttasil past darajada mahsulot olingan taqdirda;
- ❖ yerlarning ekologik holati buzilgan taqdirda;
- ❖ yer maydoni belgilangan tartibda davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilganda;
- ❖ dehqon xo‘jaligi to‘lov qobiliyatini yo‘qotgan deb e‘lon qilinganda;
- ❖ yer solig‘i yoki ijara haqi muntazam ravishda belgilangan muddatlarda to‘lanmayotgan bo‘lsa;
- ❖ basharti dehqon xo‘jaligi ro‘yxatdan o‘tgan paytdan boshlab bir yil davomida ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatini boshlamagan bo‘lsa;
- ❖ dehqon xo‘jaliklarining faoliyatini tartibga solib turuvchi qonunlar bir necha bor yoki bir marta, lekin qo‘pol ravishda buzilgan taqdirda;
- ❖ shartnoma talablarini buzganligi sababli ijara shartnomasi bekor qilinganda;
- ❖ dehqon xo‘jaligi qaytadan tuzilganda.

Dehqon xo‘jaligi faoliyatini to‘xtatish to‘g‘risidagi qaror nohiya hokimi tomonidan “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning 23-moddasida nazarda tutilgan asoslarda qabul qilinadi.

Dehqon xo‘jaligining faoliyatini to‘xtatish bilan bog‘liq nizolar sud orqali hal etiladi.

Dehqon xo‘jaligidan davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun yer maydonlarini olib qo‘yish - xo‘jalik ixtiyoriga ko‘ra, unga shu yerga teng yer uchastkasi ajratilib, uning yer maydoni kimga berilayotgan bo‘lsa, shu korxona, muassasa, tashkilot tomonidan olib qo‘yilayotganlarining o‘rniga yangi joyda uy-joy, ishlab chiqarish va o‘zga imoratlar qurib berilgach hamda yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda o‘rni to‘la hajmda to‘langach amalga oshiriladi.

Dehqon xo‘jaligining faoliyati to‘xtatilgan taqdirda uning mol-mulki xo‘jalikda mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan shaxslar mehnatiga haq to‘lash uchun, budjet to‘lovlari to‘lash, banklarning ssudalarini qaytarish hamda o‘zga qarz berganlar bilan hisob-kitob qilish uchun ishlatiladi.

Dehqon xo‘jaligining faoliyati to‘xtatilishi bilanoq xo‘jalik a‘zolarining egaligida bo‘lgan turar joy, tomorqa, shuningdek o‘zga mol-mulk ular ixtiyorida saqlanib qoladi.

2.4.5. DEHQON XO‘JALIKLARI VA TOMORQA YER UCHASTKALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH VA MONITORINGINI YURITISH TARTIBI

“Dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish va monitoringini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish, parranda va chorva mollarini parvarish qilish, mevali va manzarali daraxtlar ekish ishlarini tizimli tashkil etish hamda tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanish monitoringini yuritish tartibini belgilaydi.

Tomorqa yer uchastkalarida ekiladigan ekinlar hamda boqiladigan chorva mollari va parrandalar sonini o‘rganish va prognoz ko‘rsatkichlarni shakllantirish, tasdiqlash hamda ijroga qaratish tartibi.

Tuman hokimining qaroriga muvofiq tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanish holatini o‘rganish bo‘yicha tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining raisi boshchiligida ishchi guruh tashkil etiladi.

Ishchi guruh tarkibiga tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi, tuman suv xo‘jaligi bo‘limi, tuman yer resurslari va davlat kadastri bo‘limi, profilaktika inspektori, tuman kasaba uyushmalari, xotin - qizlar qo‘mitasi, tuman bandlikka ko‘maklashish markazi, Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman kengashi, tuman davlat soliq inspeksiyasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar vakillari kiritiladi.

Ishchi guruh o‘z ishlarini samarali tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son qarori bilan tashkil etilgan sektorlar kesimida bo‘linib, ish olib boradi. Sektor rahbarlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari raislari ishchi guruh faoliyatining samarali olib borilishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga mas’uldir.

Ishchi guruh tomonidan har yili dekabr-yanvar oylarida xonadonma-xonadon yurib tomorqa yer uchastkalari maydonlari, tuproq-iqlim sharoiti va suv ta’minotidan kelib chiqib ekin turlari, mevali daraxtlar turi va soni, chorva mollari va parrandalar soni, shuningdek, ularning yil davomida tomorqa yer uchastkasida yetishtiriladigan mahsulot turlari va sotish hajmlari hamda issiqxona barpo etish, chorva mollari va parranda boqishga bo‘lgan xohishi o‘rganib chiqiladi.

Ishchi guruh tomonidan har bir o‘rganilgan xonadon bo‘yicha “Dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish va monitoringini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 2-ilovasidagi shaklda ma’lumotnoma to‘ldiriladi va Kengashga taqdim etiladi.

Ishchi guruh tomonidan taqdim etilgan o‘rganish natijalari Kengash tomonidan umumlashtiriladi va fuqarolar yig‘ini kesimida tayyorlangan ma’lumotlarni tuman hokimiga 10-fevralgacha taqdim etadi.

Taqdim etilgan ma’lumotlar tuman hokimi tomonidan o‘rganib chiqiladi va 15-fevralgacha tomorqa yer uchastkalari kesimida yetishtiriladigan ekin va

mahsulot turlari, ularni sotish hajmlari, shuningdek, issiqxonalar barpo etish, mevali va manzarali daraxtlar ekish hamda chorva mollari, parrandalar sotib olish prognoz ko'rsatkichlarini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qiladi hamda xalq deputatlari tuman Kengashiga tasdiqlash uchun kiritiladi.

Xalq deputatlari tuman kengashi 20-fevralgacha tuman hokimining prognoz ko'rsatkichlar to'g'risidagi qarorini o'z sessiyasida ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

Xalq deputatlari tuman kengashining sessiyasida tasdiqlangan tuman hokimining prognoz ko'rsatkichlar to'g'risidagi qarori nusxasi sektor rahbarlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan 1-martgacha qarorda nazarda tutilgan dehqon xo'jaliklari boshliqlariga va tomorqa yer egalariga ularning olganligini tasdiqlovchi imzo qo'ydirgan holda yetkaziladi.

Tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida sektor rahbarlari quyidagilarni amalga oshiradilar:

- ❖ tomorqa yer uchastkasini shudgorlash, ekishga tayyorlashda pulli xizmatlar ko'rsatishni yo'lga quyish;
- ❖ tomorqa yer uchastkalari uchun urug'lik, ko'chat, zarur mineral o'g'it, kimyoviy vositalar hamda chorva mollari va parrandalarga ozuqalarning joyida (mahallada) doimiy savdosini, shuningdek, ko'chma do'konlar orqali sotilishini tashkil etish;
- ❖ oldindan to'lov amalga oshirilgan holda ekin turlarini parvarishlash uchun zarur moddiy texnik resurslarni yetkazib berish, mevali va manzarali daraxtlarga shakl va kimyoviy ishlov berishni tashkil qilish;
- ❖ chorva mollari va parrandalarga pulli zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish;
- ❖ issiqxonalar barpo etish, chorva mollari va parrandalar xarid qilish va boshqa zarur ehtiyojlar uchun moliyaviy ko'mak (shu jumladan, bank kreditlari) berilishida hamda zarur materiallar ta'minotida amaliy yordam berishni tashkil etish.

Kengash tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishda yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklarni muntazam o'rganib boradi va tegishli ma'lumotlarni tayyorlab tuman hokimiga taqdim etadi.

Tomorqa yer uchastkalarida yetishtirilgan mahsulotlar hisobini yuritish va ularning sotilishini tashkil etish.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomorqa yer uchastkalarida yetishtirilgan mahsulotlar, shuningdek, boqiladigan chorva mollari va parrandalarning aniq hisobini yuritish maqsadida ekinlar, mahsulotlar hajmi, sotilgan, eksport qilingan va ichki iste'mol uchun qolgan miqdorlari to'g'risida har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar Kengashga "Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish va monitoringini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 3-ilovasiga muvofiq ma'lumot taqdim etadi.

Kengash tomonidan tomorqa yer uchastkalarida yetishtirilgan mahsulotlar hajmi, shuningdek, ichki iste'moldan ortiqcha qismini sotish bo'yicha tuman hokimligiga mahallalar kesimida mahsulot hajmlari ko'rsatilgan taqdimnomalar kiritib boriladi.

Tomorqa yer uchastkalarida yetishtirilgan mahsulotlarning ichki iste'moldan ortiqcha qismi sotilishini tashkil etish maqsadida sektor rahbarlari tomonidan ulgurji iste'molchi tashkilotlarni, ularning xohishiga ko'ra, hududlarga biriktirish va ular tomonidan tomorqa yer uchastkalarida yetishtirilgan mahsulotlarni qabul qilish shohobchalarini tashkil qilishni yo'lga qo'yish, bozor ma'muriyati bilan esa yetishtirilgan mahsulotni bevosita bozorda sotish to'g'risida shartnomalar tuzilishini tizimli ravishda tashkil etiladi.

Shuningdek, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalarida xatlovga binoan ko'zlangan meva ko'chatlari va sabzovotlar ekish uchun zaruriy ko'chatlar

va urug'liklar yetkazib berish va parvarishlash davomida agrotexnologik xizmatlar ko'rsatish, yetishtirilgan mahsulotlarni to'lovini amalga oshirgan holda yig'ib olish hamda zaxiraga, qayta ishlovchiga, eksportyorlarga yetkazib beruvchi tomorqa-xizmat tuzilmalari tashkil etilishi mumkin.

Ulgurji iste'molchi tashkilotlar tomonidan dehqon xo'jaliklari boshliqlari va tomorqa yer egalaridan xarid qilingan qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlari yuzasidan har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar Kengashga va tuman qishloq xo'jaligi bo'limiga "Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish va monitoringini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 4-ilovasiga muvofiq ma'lumot taqdim etib boradi.

Tomorqa yer uchastkalarida boqiladigan chorva mollari va parrandalarga ko'rsatilgan veterinariya xizmatlari yuzasidan tuman veterinariya bo'limi, mineral o'g'itlar va kimyoviy vositalar bilan ta'minlash yuzasidan "Agrokimyohimoya" AJ tuman filiali va boshqa xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalariga ko'rsatilgan xizmatlar yuzasidan har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasigacha Kengashga hamda tuman qishloq xo'jaligi bo'limiga tegishli ma'lumot taqdim etib boradi.

Ulgurji iste'molchi tashkilotlar tomonidan dehqon xo'jaliklari boshliqlari va tomorqa yer egalaridan xarid qilingan qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlari yuzasidan har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar Kengashga va tuman qishloq xo'jaligi bo'limiga "Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish va monitoringini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 4-ilovasiga muvofiq ma'lumot taqdim etib boradi.

Tomorqa yer uchastkalarida boqiladigan chorva mollari va parrandalarga ko'rsatilgan veterinariya xizmatlari yuzasidan tuman veterinariya bo'limi, mineral o'g'itlar va kimyoviy vositalar bilan ta'minlash yuzasidan "Agrokimyohimoya" AJ tuman filiali va boshqa xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalariga ko'rsatilgan xizmatlar yuzasidan har oy yakuni bo'yicha

keyingi oyning 5-sanasigacha Kengashga hamda tuman qishloq xo'jaligi bo'limiga tegishli ma'lumot taqdim etib boradi.

Tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanish monitoringini yuritish va natijasi yuzasidan choralar ko'rish.

Ishchi guruh a'zolari sektor rahbarlari bilan birgalikda xonadonma-xonadon yurib tuman hokimining prognoz ko'rsatkichlar to'g'risidagi qarorining tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaligi boshlig'i tomonidan bajarilishi monitoringini amalga oshiradi.

Monitoring ishlarini o'tkazish, qoida tariqasida, ekish (mart-aprel, avgust-sentyabr, noyabr-dekabr oylari) va parvarishlash davri bo'yicha belgilanadi.

Tomorqa yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligi monitoringini yuritish jarayonida ishchi guruhning talabiga binoan boshqa tashkilotlardan mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

Monitoring natijasida ekin yerlaridan maqsadli va samarali foydalanib, tuman hokimining prognoz ko'rsatkichlar to'g'risidagi qarorida belgilangan ekin turlarini to'liq ekkan, agrotexnika tadbirlarini o'z vaqtida, sifatli bajargan, yilida kamida ikki yoki uch marta yuqori hosil olgan hamda tomorqani obodonlashtirgan, chorva mollari va parrandalarning bosh sonini saqlagan va ko'paytirishga erishgan tomorqa yer egasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida" PQ-3454-son qarorining 28-bandida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini qo'llash sifatida yer solig'i stavkasini pasaytiruvchi koeffitsiyentini qo'llash bo'yicha, ishchi guruhning ma'lumotnomasi asosida, Kengash tomonidan har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 15-sanasigacha tuman hokimiga "Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish va monitoringini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq taklif kiritiladi.

Tuman hokimi Kengash raisi bilan birgalikda mazkur tomorqa yer uchastkasi egasiga:

- ❖ joriy yil uchun yer solig'i bo'yicha imtiyoz berish yuzasidan tuman davlat soliq inspeksiyasiga taqdimnoma kiritadi;
- ❖ “Mehnatkash dehqon” va “Namunali tomorqachi” ko'krak nishonlari berish bo'yicha tegishli tavsiyanomalarni o'rnatilgan tartibda taqdim etadi.

Monitoring natijasida tomorqa yer uchastkalarida tuman hokimining prognoz ko'rsatkichlar to'g'risidagi qarorida tuproq-iqlim sharoiti va suv ta'minotidan kelib chiqqan xolda belgilangan ekin turlari hamda mevali va manzarali daraxtlar ekilmaganligi, chorva mollari sotib olinmaganligi, issiqxona barpo etilmaganligi, shu jumladan yer uchastkasi obodonlashtirilmaganligi aniqlansa, ishchi guruh tomonidan “Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil etish va monitoringini yuritish tartibi to'g'risida”gi Nizomning 6-ilovasiga muvofiq ogohlantirish xati joyida tayyorlanadi va uning bir nusxasi tegishli dehqon xo'jaligi boshlig'i yoki tomorqa yer egasiga beriladi.

Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida” 2017-yil 10-oktabrdagi PQ-3318-son qarorining talablari tushuntirilib, kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir haftalik muddat belgilanadi.

Ogohlantirish xatidagi muddat tugagandan so'ng ishchi guruh tomonidan dehqon xo'jaligi boshlig'i va tomorqa yer egasining manziliga borib, yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf etilganligi nazorat tariqasida qayta o'rganiladi. O'rganish natijasida ilgari yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf etilmagan bo'lsa, bir kun muddatda bu haqda Kengashga xabarnoma kiritiladi. Kengash tomonidan tuman hokimligiga xabarnoma va ogohlantirish xatlari ilova qilingan holda ma'lumot taqdim etiladi.

Tuman hokimi Kengash raisi bilan birgalikda har chorak bo'yicha keyingi oyning 15 sanasigacha tomorqa yer uchastkalaridan asossiz ravishda samarasiz foydalanganlik holati yuzasidan:

a) tomorqa yer egasiga joriy yil uchun hisoblangan yer solig'ining uch barobari miqdorini qo'llashni so'rab tuman davlat soliq inspeksiyasiga taqdimnoma kiritish, bunda tomorqa yer egasiga nisbatan yil davomida ko'pi bilan bir marta taqdimnoma kiritiladi;b) dehqon xo'jaligiga nisbatan yer uchastkasiga bo'lgan huquqini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilish bo'yicha choralar ko'riladi.

Tuman davlat soliq inspeksiyasi tomonidan tomorqa yer egasiga joriy yil uchun yer solig'i bo'yicha imtiyoz berish yoki hisoblangan yer solig'ining uch barobari miqdorini qo'llash to'g'risidagi taqdimnoma besh kun muddatda ko'rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilinadi.

2.4.6. YER UCHASTKALARIGA BO'LGAN HUQUQNI HAMDA QISHLOQ XO'JALIGI KOOPERATIVLARI (SHIRKAT XO'JALIKLARI) BILAN FERMER XO'JALIKLARI O'RTASIDA TUZILGAN IJARA SHARTNOMALARINI QAYTA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

Yer uchastkalari shirkat xo'jaliklariga ellik yilgacha, biroq kamida o'ttiz yil muddatga uzoq muddatli ijaraga beriladi. Ijara muddati qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Shirkat xo'jaliklarini yer uchastkalariga bo'lgan huquqini ijara shakliga o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil etish va amalga oshirish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari tegishli farmoyishlar chiqaradilar.

Shirkat xo'jaliklarining yer uchastkalarini ijaraga berishni qayta rasmiylashtirish bo'yicha materiallarini tayyorlash va rasmiylashtirish ishlari davlat budjeti mablag'lari hisobiga bajariladi.

Shirkat xo'jaliklari yer resurslari bo'yicha tuman xizmatiga yerlarni ijaraga berish muddati ko'rsatilgan arizani va yer uchastkalariga huquqni belgilovchi hujjatlarni taqdim etadi.

Yer resurslari bo'yicha tuman xizmati yer-kadastr hujjatlari ma'lumotlari bo'yicha shirkat xo'jaligi yerlarining miqdori va sifati holatini aniqlaydi.

Shirkat xo'jaligi yer-kadastr hujjatlari ma'lumotlariga rozi bo'lmagan taqdirda yer uchastkasi yer resurslari bo'yicha tuman xizmati hamda shirkat xo'jaligi vakillari tomonidan natura bo'yicha tekshirib chiqiladi, tekshirish natijalari bo'yicha yer uchastkasini tekshirish dalolatnomasi tuziladi.

Ma'lumotlar aniqlangandan va ularga tuzatishlar kiritilgandan keyin yer uchastkasining xaritasi va namunaviy shaklga muvofiq ijara shartnomasi tuziladi.

Yer uchastkasining tegishli masshtabdagi xaritasi xo'jaliklararo yer tuzish, yerlarni xatlash materiallaridan va keyingi yillardagi boshqa tekshirishlar materiallaridan foydalangan holda mavjud xarita - kartografiya materiali asosida tayyorlanadi. Yer uchastkasi xaritasida qabul qilingan belgilarga muvofiq: shirkat xo'jaligining chegaralari, barcha holatlar (sug'orish, kollektor-drenaj va yo'l tarmoqlari, ekin maydonlari, aholi yashash joylari, konturlarning tartib raqamlari), servitut va tuprog'i kuchsizlangan uchastkalar, shuningdek shirkat xo'jaligi hududiga kiritilgan yer uchastkalarining (chet yerlarning) chegaralari va nomlari to'liq ko'rsatiladi.

Ijara shartnomasida yer uchastkasining, shu jumladan yerlarning turlari bo'yicha umumiy maydoni, yerlarning sifati, tomonlarning huquq va majburiyatlari aks ettiriladi, yer uchastkasidan foydalanish masalalari bo'yicha nizolarni hal etish va shartnomani bekor qilish shartlari ko'rsatiladi. Alohida shartlar sifatida yer uchastkasining amaldagi kuchsizlantirilishi, unumdorlik holati va servitutlar, suvdan foydalanish shart-sharoitlari hamda tomonlarning xohishiga ko'ra boshqa shartlar qayd etiladi.

Yerlarning sifati tuproqni va geobotanik tekshirish materiallari, tuproq boniteti, yerlarni xatlovdan o'tkazish va yerlar sifatini tavsiflovchi boshqa materiallar bo'yicha belgilanadi.

Yer uchastkasi xaritasi va ijara shartnomasi, "Yer uchastkalariga bo'lgan huquqni hamda qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) bilan fermer

xo‘jaliklari o‘rtasida tuzilgan ijara shartnomalarini qayta rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 5-bandi ikkinchi xatboshida nazarda tutilgan holda esa – yer uchastkasini tekshirish dalolatnomasi yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasiga taqdim etiladi.

Yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasi materiallarni va shirkat xo‘jaligi arizasini ko‘rib chiqadi, tegishli xulosa tayyorlaydi.

Tuman hokimi yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasi xulosasi asosida shirkat xo‘jaligi bilan tuzilgan yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasini imzolaydi, ijaraga oluvchi nomidan esa shartnomani shirkat xo‘jaligi raisi imzolaydi.

Shartnomaga yer resurslari bo‘yicha tuman xizmati boshlig‘i va shirkat xo‘jaligi raisi tomonidan imzolangan yer uchastkasi xaritasi va yil boshidagi yer balansi ma’lumotlari bo‘yicha qabul qilinadigan yerlarning eksplikatsiyasi ilova qilinadi.

Yer uchastkasi xaritasi va shirkat xo‘jaligi yerlarining eksplikatsiyasi ijara shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasi ikki nusxada rasmiylashtiriladi, bittasi ijarachiga beriladi, ikkinchisi yer resurslari bo‘yicha tuman xizmatida saqlanadi.

Ijara shartnomasi shirkat xo‘jaligining yer uchastkasini ijaraga olishga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi va u yer resurslari bo‘yicha tuman xizmatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

Har bir shirkat xo‘jaligi bo‘yicha yer tuzish yig‘majildi shakllantiriladi, unda quyidagi hujjatlar bo‘ladi:

- ❖ tuman hokimligining shirkat xo‘jaligiga yer uchastkasini ijaraga berish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish to‘g‘risidagi qarorining nusxasi;
- ❖ shirkat xo‘jaligi yerlarining hajmi va sifatini solishtirish materiallari;

- ❖ yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining shirkat xo‘jaligiga yer uchastkalarini qayta rasmiylashtirish va ijaraga berish to‘g‘risidagi xulosasi;
- ❖ yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasi, unga yer uchastkasi xaritasi ilova qilinadi.

Yer tuzish yig‘majildi ikki nusxada shakllantiriladi, ulardan bittasi yer resurslari bo‘yicha tuman xizmatida, ikkinchisi shirkat xo‘jaligida saqlanadi.

Tuman hokimi bilan shirkat xo‘jaligi o‘rtasida tuziladigan ijara shartnomasini rasmiylashtirishda shirkat xo‘jaligining arizasi asosida shirkat xo‘jaligi qayta ro‘yxatdan o‘tkaziladi, bunda qo‘shimcha hujjatlar talab qilinmaydi hamda to‘lov va yig‘imlar undirilmaydi.

*FERMER XO‘JALIGI BILAN SHIRKAT XO‘JALIGI O‘RTASIDA TUZILGAN YER
UCHASTKALARINI IJARAGA BERISH SHARTNOMALARINI QAYTA
RASMIYLASHTIRISH*

Fermer xo‘jaliklari bilan shirkat xo‘jaliklari o‘rtasida tuzilgan yer uchastkalarini ijaraga berish shartnomalari qayta rasmiylashtiriladi.

Fermer xo‘jaligi yuritish uchun yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasini qayta rasmiylashtirish to‘g‘risidagi qaror tuman hokimi tomonidan qabul qilinadi. Ushbu qaror viloyat hokimi boshchilik qiladigan yer uchastkalarini berish (sotish) masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha viloyat komissiyasi tomonidan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

Yer resurslari bo‘yicha tuman xizmati hokimning qarori bo‘yicha fermer xo‘jaligi bilan tuman hokimi o‘rtasida tuziladigan yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasini tayyorlaydi, u tuman hokimi va fermer xo‘jaligi boshlig‘i tomonidan imzolanadi.

Hokim bilan fermer xo‘jaligi o‘rtasida yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasi ikki nusxada tuziladi, bittasi fermer xo‘jaligiga beriladi, ikkinchisi esa

yer resurslari bo'yicha tuman xizmatida saqlanadi va yer resurslari bo'yicha tuman xizmatida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Ilgari fermer xo'jaliklariga berilgan yer uchastkalari shirkat xo'jaligi balansidan chiqariladi.

Tuman hokimi bilan shirkat xo'jaligi o'rtasida tuziladigan ijara shartnomasini qayta rasmiylashtirishda fermer xo'jaligi boshlig'ining arizasi asosida fermer xo'jaligi qayta ro'yxatdan o'tkaziladi, bunda qo'shimcha hujjatlar yoxud boshqa talablar va shartlar talab qilinmaydi, shuningdek to'lov va yig'imlar undirilmaydi.

Mustaqil o'rganish uchun savollar

- 1.Yer munosabatlari nima?
- 2.Jamiyatning yer tuzumi nima?
- 3.Yer egaligi va yerdan foydalanish deganda nimalar tushuniladi?
- 4.Nima hudud deb ataladi?
- 5.Hududni tashkil etish deganda nima tushuniladi?
- 6.Uning yer tuzish bilan aloqasi qanday?
- 7.Yer islohotigacha mavjud bo'lgan yer tuzumning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
- 8.Yer islohoti nima?
- 9.O'zbekistonda yer islohotini o'tkazish zarurati nimadan kelib chiqdi va uning maqsadi qanday?
- 10.Yer islohoti qanday asosiy vazifalarni yechadi?

3-BOB. O'ZBEKISTONDA YER MUNOSABATLARI VA YERDAN FOYDALANISHNI TARIXIY SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

3.1. YER MUNOSOBATLARINI TARIXIY RIVOJLANISH

BOSQICHLARI VA XUSUSIYATLARI

Mamlakatimizning uzoq va murakkab tarixiga nazar solar ekanmiz, bunda kishilik jamiyati rivojlanishining asosiy omillaridan biri yer munosabatlarining tarixiy shakllanish jarayoni mavjudligi yaqqol namoyon bo'ladi. Jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlari yer bilan bog'liqdir, u insonlar hayot faoliyatining zaruriy sharti hamda jamiyat boyligining manbai bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Shu bilan birga yer doimo sinfiy kurashlar ob'ekti bo'lgan va hozirgi davrda ham shunday bo'lmoqda, negaki unga egalik qilish u yoki bu sinfning jamiyatga hukmronligi uchun asos yaratadi. Bu kurash jamiyatining rivojlanishi bilan dunyoning aksariyati mamlakatlarida pasaymasdan, aksincha kuchaymoqda, negaki yer resurslariga bo'lgan talab doimiy ravishda ortmoqda.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda hozirgi kunda dunyo bo'yicha 4,3 milliard gektar qishloq xo'jalik yeri mavjud bo'lib, turli iqtisodiy cheklanishlar hisobiga har yili qishloq xo'jaligida 4,0 milliard gektarga yaqin yer foydalanilmoqda. Yangi yerlar o'zlashtirish imkoniyati dunyoning ko'pgina mamlakatlarida mavjud emas yoki u juda katta mablag'lar sarfi bilan bog'liqdir. Shu bilan bir vaqtda qishloq xo'jalik yerlarining bir qismi har yili turli sabablarga ko'ra foydalanishdan chikib ketmoqda. Bu qishloq xo'jalik yerlarining sanoat, transport, energetika, tog'-kon sanoati va boshka ob'ektlar, shaharlar va qishloqlar qurish uchun ajratilishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, inson faoliyati va tabiiy jarayonlar ta'sirida yerlarning suv va shamol eroziyasiga uchrashi, cho'llanishi, sho'rlanishi kuzatilmoqda.

Yuqorida qayd qilinganlardan ko'rinadiki, yer resurslariga bo'lgan talabni qondirish o'z navbatida ulardan oqilona hamda samarali foydalanish bilan bog'liqdir.

O'tmishdagi har bir jamiyat o'zidan avvalgisiga nisbatan ilg'orroq bo'lib, unda yashagan barcha insonlar hamisha yaxshilikka, ezgu niyatlar sari intilganlar.

Tarixiy taraqqiyot insoniyatning asrlar osha to'plangan ilmlari, ongi, maqsadlarini va talablari ko'payib borishi bilan uzviy bog'liqdir.

Kishilik jamiyatining turli bosqichlarida turlicha yer munosabatlari, yerdan foydalanish shakllari rivojlangan. Ularni tarixiy nuqtai nazardan o'rganish keyingi bosqichlarning yanada rivojlanishlari uchun muhim omil bo'ladi. Shu sababli ham, talabalarga yer munosabatlari, yerdan foydalanish va ularni shakllantirish hamda tartibga solishda davlatning asosiy tadbirlaridan biri hisoblangan yer tuzish tarixi bo'yicha ma'lum darajada zaruriy bilimlar berish, ularni hozirgi zamon talablariga mos yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Talabalar har bir voqea va hodisaga baho berganda o'sha davr nuqtai nazaridan baho berilishi talab etiladi.

O'zbek xalqi boy tarixiy o'tmishga ega. Uning tarixiy sahifalari eng qadimiy madaniy taraqqiyot beshigi bo'lmish O'rta Osiyo yerlaridagi xalqlarning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Serhosil tuproqlar va qulay iqlimiy sharoitlari tufayli Amudaryo va Sirdaryo, Zarafshon vohalari qadim zamonlardan boshlab odamlar istiqomat qiladigan ko'rkam joylarga aylangan edi.

O'rta Osiyo qadimgi Sharqning Mesopatamiya va Eron, Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlari o'rtasidagi bog'lovchi halqa vazifasini o'tagan. O'tmish taqdirlari bir-biri bilan o'zaro mahkam chatishib ketgan hozirgi o'zbek, tojik, turkman, qirgiz va qoraqolpoqlarning ajdodlari Osiyo va Yevropa xalqlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatib kelganlar. Bu aloqalarning eng asosiy manbasi – yer hisoblangan.

Yer munosabatlari - bu odamlar o'rtasida, sinflar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida yerni taqsimlash, unga egalik qilish yoki foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlardir.

Yer munosabatlarining rivojlanish qonuniyatlari

- ❖ Ishlab chiqarish kuchlari rivojlanish darajasining ishlab chiqarish munosabatlariga mos tushishi.
- ❖ Yer munosabatlarining ijtimoiy ishlab chiqarish turiga mos tushishi.

- ❖ Har bir davlat o'zining yer munosabatlari tizimini tashkil etishi.
- ❖ Yer munosabatlarini tartibga solishning davlatda qaror topgan ijtimoiy ishlab chiqarish usuliga mos tushadigan mexanizmini ishlab chiqishi.

Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlari.

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi
2. Quldorlik
3. Feodalizm
4. Kapitalizm
5. Sotsializm
6. Bozor iqtisodiyoti

Yer tuzishning paydo bo'lishi

Ibtidoiy jamoa tuzumida bu ishlar tasodifiy harakterga ega bo'lgan bo'lsa, mulkchilik paydo bo'lib, chorvadorlar va dehqonlar orasida mehnat taqsimoti yuzaga kelgach, yerlarni bo'lish, chegaralash zarurati tug'ildi. Xususiy mulk va jamiyatda sinflar paydo bo'lgandan keyin, odamlar yer munosabatlarini ongli ravishda tartibga solganlar va undan ma'lum maqsad yo'lida foydalana boshlaganlar. Bu jarayonlarni amalga oshirish uchun qilingan harakatlar dehqonchilik, chegaralash va hozirigi davrda esa yer tuzish deb atala boshlandi.

Yer tuzish - bu ijtimoiy iqtisodiy jarayon bo'lib, yerdan samarali foydalanish, uni muhofaza qilishni tashkil etish, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni, maxsus yer fondlarini tashkil qilish va tartibga solish, qishloq xo'jalik korxonalari, dehqon, fermer xo'jaliklari hududlarini tashkil qilish, tabiiy landshaftlarni yaxshilash va maqbul ekologik muhit yaratishga qaratilgan tadbirlar tizimidir.

Sug'orish ishlari

O'rta Osiyo xalqlari cho'l va issiq iqlim sharoitida joylashganligi uchun sun'iy sug'orish bu yerda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining asosiy sharti hisoblanadi.

Yer unumdorligi asosan sun'iy sug'orish va sug'orish kanallari shahobchasini o'tkazish evaziga ortib borgan. Kanallarni tozalash, sug'orish inshootlarini

ta'mirlash yoki yangi kanallar qazish ishlarida har yili minglab kishilar qatnashgan.

Yer munosabatlarining turli shakllari

Feodal ishlab chiqarish usuli O'zbekistonning bir joyida biron tarzda to'la shakllanmadi. Rossiyada feodal yer egasi bo'lib, dehqonlar tekin ishlab berishga, ya'ni yerda ishlashga majbur qilingan. Bu dehqonlarni haddan tashqari majbur qilishga, qonun yo'li bilan krepostnoyga aylantirishga asoslangan feodalizmning eng tugallangan namunasi edi. Rossiyada feodal - krepostnoylik tizimi qonun yo'li bilan XVI asr o'rtalaridan e'tiboran shakllandi va 1861 yilgacha davom etdi. O'rta Osiyoda feodal ishlab chiqarish usuli boshqacha shaklda tarkib topdi.

Arablar bosib olgan yerlardagi yer munosabatlari

Arablar egallab turgan O'rta Osiyoda soliqlarning yagona tizimi joriy etilgan bo'lib, aholidan jonboshi o'lponi (juziya) va yer boshi solig'i (xiroj) olinardi. Arablar dehqonlarning yuqori tabaqalari tasarrufida yer va ko'chmas mulklarni saqlab qoldilar. Ulardan feodal - dehqonlar qatlamini tuzdilar, lekin ular endi yerning sherik egalari bo'lib qolgan edilar.

Iqta tizimi

Arablar feodal yer egaligining eng dastlabki shakli bo'lgan iqta tizimini keng joriy etdilar. Bu harbiy boshliqlar va amaldorlarni davlat yeri bilan ta'minlashda ifodalanadi. Bu yer meros etib qoldirilishi mumkin edi, lekin xalifa yerning oliy darajadagi egasi bo'lib qolgani holda, iqta egalariga o'z huquqlarining bir qisminigina berardi. Iqtadorlar unga hosilning o'ndan bir qismini tashkil etadigan ushur to'lashlari lozim edi. Iqta faqat yer uchastkasi bo'lishi shart emasdi, u xiroj olinadigan har qanday joy, masalan bozor, qishloq, choyxona va hakoza bo'lishi mumkin edi.

Chorikorlikning rivojlanishi

Chorikorlik keng tarqaldi, bunda dehqonlar olingan hosilning bir qismini yer haqi sifatida to'lashlari kerak bo'lardi. Suvdan foydalanish dehqonlarni eksplutatsiya qilishning muhim shakli edi. Dehqonlar suvdan foydalanganliklari

uchun feodallar yerlari va mol-mulklarini saqlashda qatnashishlari kerak edi. Arablar dehqonlarning feodallarga qarashligini kuchaytiradigan ko'pdan-ko'p tartiblar yaratish yo'li bilan qishloqqa feodal munosabatlarini zo'r berib joriy qilar hamda mustaqil dehqonlar sinfi yaratilishiga ko'maklashardilar.

Butun yer shariatga ko'ra davlatga, mazkur holda xonga, amirga qarashli bo'lib, aholiga foydalanish uchun turli shartlar bilan berilardi. Qaror topgan me'yorlarga muvofiq yer 3 -ta asosiy toifaga bo'linardi:

- ❖ Davlat yerlari (amlok)
- ❖ Egalik yerlari (mulk).
- ❖ Vaqf (ya'ni diniy va xayriya muassasalari yerlari).

Davlat yerlari

Davlat yerlariga suvsiz dashtlar, to'qayzor, ko'chmanchi jamoalar foydalanuvdagi ishlov berilmagan yerlar kirardi. Hokimlar ularga foydalaniladigan hududlarni belgilab berardilar. Bu yerlar sotilmasdi, shu bilan birga ayirboshlanmasdi. Ular uchun umumiy o'lpon (xiroj) to'lanardi.

Xususiy mulk yerlari

Mazkur mulk qanday hosil bo'lganligi va undan davlat solig'i olinishi olinmasligiga qarab bir necha guruhlariga (mulki hur, mulki xiroj va mulki ushriy) bo'lgan. Ularning hammasiga olgan daromadning yarmisiga yetib boradigan turli - soliqlar solingan.

Vaqf yerlari

Diniy va xayriya muassasalari yerlari bo'lib ya'ni machit, madrasa ular foydalanishiga berilgan yerlar tushuniladi.

Tarxon huquqi

Chingizxon zamonidan tarxon huquqi saqlanib qolgan bo'lib, bu huquq xon farmoyishlari bilan yerlarni o'lponlardan ozod qilardi, lekin bu yuridik huquqning emas, balki xon shaxsiy istagining oqibati bo'lganligidan yangi xon uni saqlab qolar yoki bekor qilar edi.

Yerga oid huquqiy munosabatlar

Yerdan foydalanuvchining aniq tuzilgan me'yorlari va puxta tashkil etilgan muassasalarining yo'qligi, ma'murlarning o'zboshimchaligi hamda yer egaligi shartnoma hujjatlarining bo'lmaganligi yer-suv munosabatlarida o'ta chalkashliklarga olib keldi va bu chalkashliklar barcha xonliklarda yil sayin tobora murakkablashib, ular yashagan davr oxirigacha saqlanib qoldi.

Sug'oriladigan yerlar

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida O'rta Osiyoda jami 2,0 mln.ga sug'oriladigan yer bo'lib, jon boshiga 0,5 ga to'g'ri kelardi. Ayni vaqtda yer-mulklarning ancha badavlat tabaqalar qo'lida to'planishi va yirik zamindorlar sinfining shakllanish jarayoni borardi. Suvdan foydalanish tizimidagi noaniqlik ham yirik feodallar yer mulklari kengayishiga yordam berardi. Ariq oqsoqollari, miroblar va boshqalarning o'z vazifalarini suiste'mol qilishlari boy zamindorlar suvning katta qismini olishiga, bu bilan shariatning suv savdosiga yo'l qo'yib bo'lmashligi to'g'risidagi asosiy qoidasi buzilishiga olib kelardi.

Suvdan foydalanish tizimi

Sug'orish inshootlarini qurishga amalda butun aholi jalb etilardi. Qishloqlar va ovullar har yili yangi kanallar qurish hamda ariq tozalash uchun muayyan miqdorda odam ajratishi kerak edi. Bosh kanallarni tozalash va sozlash ishida har bir dehqon xonadoni yiliga 60 kundan 100 kunigacha ishlab berishi talab qilinar edi. Bundan tashqari natural majburiyat ham bo'lib, bunga hech bir haq olmay qurilish materiallari yetkazilib berilardi.

Farg'ona vodiysida sug'orish ishlari ayniqsa keng ko'lam kasb etdi. Bu yerda XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida yirik Shaxrixonsoy (uzunligi 100 km), Andijonsoy (uzunligi 100 km) va Yangiariq (uzunligi 100 km) kanallari qurildi. Ular Norin va Qorasuv daryolari qo'shilib, hosil bo'lgan Sirdaryo suvini dalalarga oqizish imkonini berdi. 1868 - 1871 yillarda qazilgan Ulug'nor kanali katta ahamiyatga ega bo'ldi. Toshkent viloyatida 1822-1842 yillarda qazilgan Xonariq kanali katta yer maydonini barqaror sug'orishni ta'minladi. XVIII asr oxirida

Buxoro amirligida Zarafshon sug'orish tuzimi, Anqor, Narpay, Kaimil kanallari tiklandi. XIX asrda Xiva xonligida Porsi, Xo'jayli va Lavzon kanallari qurildi.

Sug'orish tizimi

O'rta Osiyo xalqlarining sug'orish inshootlarini qurish ko'nikmalari asrlar mobaynida vujudga keldi. Bu ko'nikmalarga Xorazm va Samarqand ilmiy maktablari asos solgan. Matematika, geometriya va astronomiyadagi ilmiy yutuqlar, har bir viloyat va qishloqda yashagan ko'pdan-ko'p o'zi ta'lim olgan mohir sug'orish mutaxassislari tajribasi, suvni ehtiyot qilib, ustalik bilan tarkatgan va barcha sug'orish inshootlarida qatnash-gan ko'p sonli miroblarning yuksak malakasi jam bo'lgan edi. Aytishlaricha, Xorazm miroblari to'g'onlar olishda nihoyatda ustaliklari bilan ajralib turganlar.

Sug'orish inshootlarini qurishga amalda butun aholi jalb etilardi. Qishloqlar va ovullar har yili yangi kanallar qurish hamda ariq tozalash uchun muayyan miqdorda odam ajratishi kerak edi. Bosh kanallarni tozalash va sozlash ishida har bir dehqon xonadoni yiliga 60 kundan 100 kunigacha ishlab berishi talab qilinardi. Bundan tashqari natural majburiyat ham bo'lib, bunga qech bir haq olmay qurilish materiallari yetkazilib berilardi.

Angliya va Rossiya

1855-1875 yillar Qrim urushidagi ruslarning mag'lubiyati O'rta Osiyoning Rossiya uchun siyosiy va strategik ahamiyati qanchalik katta ekanligini ko'rsatadi. Sharqiy masalada, ya'ni Dardanell bo'g'ozlari masalasini hal qilishda Angliya Rossiyaning asosiy raqibi edi. Bu bo'g'ozlar tez rivojlanib borayotgan janubiy rus viloyatlariga O'rta dengizga chiqish imkonini berardi. Angliya harbiy va iqtisodiy jihatdan Rossiyadan ustun turardi. Ingliz floti Rossiyaning barcha qirg'oqlarida hukumronlik va barcha yurtlarni qamal qila olardi, Rossiya sohillarining istalgan joyiga desant tushira olardi.

Ruslarning bosqinchilik harakati

Qrim urushi Rossiyaga Yevropadagi o'z mavqeini saqlab qolish uchun Angliyaga qarshi hujum quroliga ega bo'lish qanchalik muhim ekanligini

ko'rsatdi. Bu hol oxir oqibatda ruslarning O'rta Osiyoni bosib olishiga sharoit tug'dirdi. Natijada 1847 yilda ruslarning O'rta Osiyoga bosqinchilik harakatlari boshlandi.

XVII asrning oxiri XIX asrning boshlarida O'rta Osiyoda jami 2,0 mln.ga sugoriladigan yer bo'lib, jon boshiga 0,5 ga to'g'ri kelardi.

Ayni vaqtda yer-mulklarning ancha badavlat tabaqalar qo'lida to'planishi va yirik zamindorlar sinfining shakllanish jarayoni borardi. Suvdan foydalanish sistemalaridagi noaniqlik ham yirik feodallar yer mulklari kengayishiga yordam berardi. Ariq oqsoqollari, miroblar va boshqalarning o'z vazifalarini suiste'mol qilishlari boy zamindorlar suvning katta qismini olishiga, bu bilan shariatning suv savdosiga yo'l qo'yib bo'lmasligi to'g'risidagi asosiy qoidasi buzilishga olib kelardi.

Dehqonlar va mohir irrigatorlarning ulkan mehnati natijasida murakkab suv xo'jaligi barpo etildiki, unga yirik suv manbalaridan suv olish ishlarini tashkil etish, turli xil suv olgich inshootlarini qurish, kanallarni tozalash, suvni undan foydalanuvchilarga taqsimlash kirardi. Sug'orish tarmog'i katta tizimi bo'lib, uning shahobchalari suvni juda katta maydon uzra tarqatardi. Ko'pdan-ko'p ariqlar ayrim tumanlarni sug'orardi.

Fargona vodiysida sug'orish ishlari ayniqsa keng ko'lam kasb etdi. Bu yerda XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida yirik Shaxrixonsoy (uzunligi 100 km), Andijonsoy (uzunligi 100 km) va Yangiarik (uzunligi 100 km) kanallari kurildi. Ular Norin va Qarasuv daryolari qo'shilib, hosil bo'lgan Sirdaryo suvini dalalarga oqizish imkonini berdi.

1868-1871 yillarda qazilgan Ulug'nor kanali katta ahamiyatga ega bo'ldi. Toshkent viloyatida 1822-1842 yillarda qazilgan Xonariq kanali katta yer maydonini barqaror sug'orishni tizimi, Anxor, Narpay, Kaimil kanallari tiklandi. XIX asrda Xiva xonligida Porsi, Xujayli va Lavzon kanallari qurildi.

O'rta Osiyo xalqlarining sug'orish inshootlarini qurish ko'nikmalari asrlar mobaynida vujudga keldi. Bu ko'nikmalarga Xorazm va Samarqand ilmiy

maktablariga asos solgan. Matematika, geometriya va astronomiyadagi ilmiy yutuqlar, har bir viloyat va qishloqda yashagan ko'pdan-ko'p o'zi ta'lim olgan mohir sug'orish mutaxassislari tajribasi, suvni ehtiyot qilib, ustalik bilan tarqatgan va barcha sug'orish inshootlarida qatnashgan ko'p sonli miroblarning yuksak malakasi jam bo'lgan edi. Aytishlaricha, Xorazm miroblari to'g'onlar olishda nihoyatda ustalıkları bilan ajralib turganlar.

Sug'orish inshootlarini qurishga amalda butun aholi jalb etilardi. Qishloqlar va ovullar har yili yangi kanallar qurish hamda ariq tozalash uchun muayyan miqdorda odam ajratish kerak edi. Bosh kanallarni tozalash va sozlash ishida har bir dehqon xonadoni yiliga 60 kundan 100 kungacha ishlab berishi talab qilinar edi. Bundan tashqari natural majburiyat ham bo'lib, bunga hech bir haq olmay qurilish materiallari yetkazilib berilardi.

Dehqon jamoalari va yakka xo'jaliklari yerlarini tuzish davrida (1921-1929-y.) katta amqlikda, asosan analitik yo'l bilan, dehqon jamoalari va yakka xo'jaliklariga yer ajratish ishlari olib borildi. Yer tuzishni loyihalash ishlari asosan yer maydonlarini matematika va geodeziya usullari yordamida taqsimlashga va yerdan foydalanish huquqini beradigan hujjatlarni tayyorlashga qaratildi. Yerdan foydalanishning iqtisodiy tomonlariga esa uncha e'tibor berilmadi.

Ommaviy kollektivlashtirish (1929-1935-y.) davrida yer tuzish ishlari kolxoz va sovxozlarni tashkil qilish bilan bog'liq bo'lib, asosiy e'tibor ularning yer maydonlarini barpo qilishga qaratildi. Kichik dehqon yakka xo'jaliklari o'mida yirik sotsialistik tipdagi xo'jaliklar tashkil qilindi. Loyihalash ishlari yangi kolxoz va sovxozlarni tashkil qilish, ularni tashkiliy jihatdan mustahkamlash, yer maydonlarining barqarorligini ta'minlashga qaratildi. Bu ishlar majburiy tarzda o'tkazildi va yakka xo'jaliklar yerlari birlashtirilib, kolxoz va sovxozlar tashkil etildi.

Yerlarni qishloq xo'jalik korxonalariga abadiy foydalanishga berish, kolxoz va sovxozlarni tashkiliy jihatdan mustahkamlash davrida (1935-1949-y.), 1935-y. fevral oyida qishloq xo'jalik artelining (kolxozning) "Namunaviy nizomi" (ustavi)

qabul qilindi. Bu hujjatga asosan qishloq xo'jaligi artellariga yer abadiy va tekin foydalanishga berildi. Har bir qishloq xo'jalik arteliga yerdan abadiy foydalanishga ruxsat beruvchi Davlat akti (dalolatnomasi) berildi. Bu davrda yer tuzish ishlari asosan Davlat aktlarini tayyorlash va ularni xo'jaliklarga berishga qaratildi.

Xo'jaliklarni yiriklashtirish davrida (1950y-1954-y.) yer tuzish ishlari olib borildi. Yiriklashtirilgan xo'jaliklar maydonlarini tashkil qilish, ularning shaklidagi va joylashuvidagi kamchiliklarni tugatish, xo'jaliklarga yerdan foydalanish huquqini beradigan aktlar berish va xo'jaliklarda ichki yer tuzish loyihalarini ishlash bo'yicha ishlar ham bajarildi.

Cho'llarni o'zlashtirish davrida (1954-1984-y.) Mirzacho'l, Qarshi, Jizzax, Sherobod cho'llari va boshqa ko'plab cho'l va bo'z yerlar o'zlashtirildi. O'zlashtirilgan yerlarda yangi xo'jaliklar barpo qilindi. Yer tuzish ishlari asosan yangi xo'jaliklarga yer ajratish, ularga yerdan foydalanish huquqini beruvchi aktlarni berish va xo'jaliklarda ichki yer tuzish loyihalarini ishlash bilan bog'liq bo'ldi.

3.2. YER TUZUMI VA YER ISLOHOTI

Jamiyatning yer tuzumi - bu jamiyatda yerga mulkchilikning qonun bilan belgilangan shakllari, unda xo'jalik yuritish, yerga egalik qilish, yerdan foydalanish shakllari va yer tuzish, yerni taqsimlash tizimi va uni tartibga solish usullari asosida jamiyatda yuzaga kelgan barcha yer munosabatlari yig'indisidir.

Jamiyatning yer tuzumi o'zgarishsiz qolmaydi; u evolyusiya asosida (astasekin rivojlanish), radikal islohotlar asosida, ayrim hollarda esa revolyutsiya natijasida ham o'zgarishi mumkin.

Hudud deb, yer ustining chegaralangan o'ziga xos tabiiy va antropogen (inson tomonidan yaratilgan) xususiyatlarga va resurslarga ega qismiga aytiladi; u maydoni, uzunligi, joylashgan o'rin, shakli va boshqa sifatlari bilan tavsiflanadi.

Hududni tashkil etish - bu uni tartibga solish, aniq ishlab chiqarish yoki ijtimoiy maqsadlarga mos ma'lum tizimga keltirishdir. Yerni va hududni tashkil etishni aniq talablar uchun moslash bo'yicha odamlar faoliyati yer tuzish nomini

oldi. Shu maqsadda yer massivlari u yoki bu maqsadlar uchun mo'ljallangan va o'lchamlarga ega xo'jalik faoliyatining har xil sohalarida foydalanish uchun birlariga nisbatan belgili tartibda joylashgan, uchastkalarga bo'linadi. Bu uchastkalarda korxonalar, dalalar, yo'llar, aholi yashash joylari va shunga o'xshash joylashtiriladi.

Yer islohoti – bu qonuniy rasmiylashtirilgan yer tuzumni va yer munosabatlarini, yerga bo'lgan mulkchilik shakllarini o'zgartirish, yerni bir mulkdordan va foydalanuvchidan ikkinchisiga olib berish va mamlakatda hududiy tuzilishni mos ravishda o'zgartirish bilan bog'liq tubdan qayta qurishdir.

Shunday qilib yer islohoti – bu davlat tomonidan tartibga solinuvchi va nazorat qilinuvchi, uning yer siyosatining umumiy ko'rinishini o'zida mujassamlashtiruvchi yangi yer tuzumga o'tish jarayonidir. Islohot yer egaliklari va yerdan foydalanishlarning, yerga bo'lgan mulkchilikning yangi shakllariga nisbatan tez va qiyinchiliklarsiz o'tishni ta'minlovchi huquqiy, iqtisodiy, texnik va tashkiliy choralar majmuasini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Yer islohoti davrida quyidagi asosiy masalalar yechilishi kerak:

- ❖ yerga bo'lgan davlat mulkchiligi yakka hokimligini tugatish;
- ❖ fuqaroning yer olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish;
- ❖ bozor shaklidagi yer munosabatlariga o'tish;
- ❖ yer resurslarini boshqarishning og'irlik markazini mahalliy hokimiyat organlariga ko'chirish;
- ❖ qonuniy ruxsat etilgan yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning barcha shakllarining erkin rivojlanishini ta'minlash;
- ❖ atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi ahamiyatli ustivorliklarni ta'minlash.

Islohotlarni o'tkazishda yangi bozor iqtisodiyoti doirasida yer munosabatlarini tartibga solish uchun ishonchli huquqiy asos yaratuvchi yangi yer qonunlarini yaratish masalalari birinchi darajali ahamiyatga ega.

Xususan, yerni tovar aylanishiga qo'shishda yer sudlarini, yer banklarini, ro'yxatga oluvchi chegaralash xizmatlarini va boshqa yer bozori infratizimi elementlarini tashkil etish va qonuniy ta'minlash talab etiladi.

O'zbekistonda hozir yer islohotini o'tkazish maqsadida qabul qilingan va qilinayotgan yer qonunlari quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ❖ fuqarolarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlari ustivorligi;
- ❖ mahalliy ijrochi hokimiyat organlariga yerni tasarruf etish huquqini berish;
- ❖ yerda xo'jalik yuritish shakllarining ko'pligi va barchasining tengligi;
- ❖ yerdan foydalanishning to'lovliligi;
- ❖ yerni muhofaza etish.

Islohotlar davrida yer tuzish yordamida yer mahalliy ijrochi hokimiyat organlari tasarrufiga beriladi. Dehqon va shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga yer jratish, bog'dorchilik va sabzavotchilikni rivojlantirish uchun maxsus yer fondlari tashkil etiladi. Uchastkalar yerga bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlarni berish bilan ajratiladi.

Yer islohotining iqtisodiy mexanizmi quyidagi asosiy qoidalarga asoslanadi:

- ❖ jamiyatda sodir bo'layotgan ob'ektiv iqtisodiy qonunlar va jarayonlar ta'sirini albatta hisobga olish;
- ❖ davlatning, ayrim korxonalar va fuqarolarning iqtisodiy manfaatlarini uyg'unlashtirish;
- ❖ qishloq xo'jaligi yer egaligi va yerdan foydalanishlarini iqtisodiy himoyalash hamda yerlarni bo'zishdan saqlash ishlab chiqarish maqsadlariga nisbatan tabiatni muhofaza qilish maqsadlarining ustivorligi;
- ❖ yerdan oqilona foydalanishni iqtisodiy rag'batlantirish;
- ❖ barcha amalga oshiriladigan tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi.

Yer islohotlarini amalga oshirish uchun zarur pul mablag'lari quyidagi manbaalar hisobiga tashkil topadi:

- ❖ yer uchun to'lovlar (yer solig'i va ijara haqi);

- ❖ noqishloq xo‘jalik maqsadlari uchun olinadigan qishloq xo‘jalik yerlari uchun qoplama to‘lovlar;
- ❖ yerni va boshqa ko‘chmas mulklarni sotishdan ajratmalar;
- ❖ yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni ro‘yxatga olish bilan bog‘liq yig‘imlar;
- ❖ yer siyosatini, yerdan oqilona foydalanishni va uni muhofaza qilishni tashkil etishni amalga oshirishga yo‘naltiriladigan maqsadli davlat dotatsiyalari va korxonalar foydalaridan ajratmalar;
- ❖ boshqa manbaalar (jarimalar, xalqaro yordam va shunga o‘xshash)

Davlatning yer siyosatini amalga oshirish bo‘yicha ishlarning asosiy og‘irligi mos tarkibga, moddiy-texnik ta‘minotga va yer islohotining pishib yetilgan muammolarini huquqiy savodli, texnik to‘g‘ri va iqtisodiy asoslangan holda yechishga qodir malakali mutaxassislarga ega davlat yer tuzish organlari zimmasiga tushadi.

Shu bilan bir vaqtning o‘zida prinsipial yangi vazifalar paydo bo‘lishi sababli, ularning tarkibini va vakolatlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish zarurati tug‘iladi.

3.3. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AGRAR SIYOSATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI, BOSQICHLARI VA RIVOJLANISH TAMOYILLARI

Agrar siyosatning turli mamlakatlarda rivojlanishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining darajasiga qarab har xil bo‘lishini hisobga olish lozim. Qishloq xo‘jaligining roli umumiy davlat iqtisodiyoti barqarorligiga kam ta‘sir ko‘rsatadi, lekin qishloq xo‘jaligi mamlakat hayoti uchun, iqtisodiyoti uchun va aholisi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun qishloq xo‘jaligi juda kam ulushdagi qismni tashkil etsada, davlat bu tarmoqqa katta ahamiyat beradi, uni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratadi, samarali agrar siyosat olib borishga harakat

qiladi. Shu jihatlarni e'tiborga olib, agrar siyosatning rivojlanish tarixini o'rganish va uning asosiy tamoyillarini mukammallashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida agrar siyosatning rivojlanish tarixini shartli ravishda bir necha davrlarga bo'lish mumkin.

1. 1920 yillargacha bo'lgan davr. Bu davrda qishloq xo'jaligi tarqoq holda rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi asosan oziq-ovqat muammosini hal qilish va qisman xorijiy bozorlarga muhim tovarlarni ayirboshlash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Yerga asosan ma'lum guruh egalik qilgan va ularning shaxsiy manfaatlari agrar siyosatning mohiyatini tashkil qilgan. Agrar siyosat soliqlar va to'lov vositalari orqali amalga oshirilgan.

2. 1920-1991 yillar. Mamlakat agrar siyosati asosan paxta yakkahokimligi siyosatiga qaratilgan, yerga egalik davlatning qo'lida, ishlab chiqarish va mulk munosabatlari umumiylikka asoslangan. Agrar siyosat davlat tomonidan, asosan sanoatning manfaatlariga asoslangan holda amalga oshirilgan.

3. 1991-1997 yillar. Barcha sohalarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga qishloq xo'jaligida ham amalga oshirilishga harakat qilindi.

4. 1998 yildan keyingi davr. Bu davr mamlakat hukumatining qishloq xo'jaligiga keskin e'tibor qaratishi bilan boshlandi. Mamlakat qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni keskin chuqurlashtirish borasida qator qonun va me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi bu tarmoqqa e'tiborning kuchayishidan dalolat berdi. Mamlakat qishloq xo'jaligidagi mavjud iqtisodiy tushkunlikni yo'qotish va uni samarali rivojlantirishning qator dasturlari ishlab chiqildi va ular davriy ravishda takomillashtirilib amalga oshirilmoqda. Bu davrdagi agrar siyosatning asosiy xususiyatlariga yerga munosabatning keskin o'zgartirilishi, rivojlangan mamlakatlar tajribalari va mamlakat ichki xususiyatlari e'tiborga olinib amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, ishlab chiqarishni fan yutuqlari asosiga qurish, yangi texnologiyalardan foydalanish kabi bir qator xususiyatlar xosdir.

3.4. AGRAR ISLOHOTLARNING MOHIYATI VA HUQUQIY ASOSLARI

Iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy chora-tadbirlar majmui bo'lib, ulardan ko'zda tutilgan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat qilishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy-axloqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

Islohotlarni amalga oshirishdan oldin bozor iqtisodiyotiga o'tishning nazariy modeli yaratildi. Bu modelda yangi iqtisodiyotga o'tishning umumiy tomonlari va milliy xususiyatlari nazarda tutiladi, islohotlarning asosiy yo'nalishlari belgilanadi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- ❖ mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- ❖ agrar islohotlar;
- ❖ moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- ❖ boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- ❖ tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;
- ❖ ijtimoiy islohotlar.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida quyidagi ikkita vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib qo'yilgdi:

- ❖ totalitar tizimning og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;
- ❖ Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tishning birinchi bosqichida iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada yuz bergan tub o'zgarishlar uning o'z taraqqiyotida keyingi sifat jihatdan yangi bosqichga o'ta boshlash uchun mustahkam shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga isloh qilishning birinchi bosqichi natijalari ikkinchi bosqichning strategik maqsadlari va ustun yo'nalishlarini aniq belgilab olish imkonini berdi. Mazkur bosqichda investitsiya faoliyatini

kuchaytirish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab, bozor munosabatlarini to'liq joriy qilish maqsad qilib qo'yiladi.

Shu maqsaddan kelib chiqib ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi bir qator vazifalarni ko'rsatib o'tilgan:

- ❖ davlat mulklarini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish;
- ❖ ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;
- ❖ milliy valyuta – so'mni yanada mustahkamlash;
- ❖ iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichidayoq qishloq xo'jaligini isloh qilishga ustunlik berildi. Bunga quyidagilar sabab bo'ldi:

- ❖ mamlakatimiz iqtisodiyotida agrar soha ustunlikka egaligi, aholining ko'pchiligi qishloq xo'jaligida bandligi, iqtisodiy o'sishning ko'p jihatdan shu tarmoq ahvoliga bog'liqligi;
- ❖ respublika butun sanoat potensialining yarmiga yaqinini tashkil qiladigan sanoatning ko'pgina tarmoqlarini (paxta tozalash, to'qimachilik, yengil, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mashinasozligi va boshqalar) rivojlantirish istiqbollari bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liqligi;
- ❖ qishloq xo'jalik mahsulotlari (asosan paxta) hozirgi vaqtda valyuta resurslari, respublika uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, texnika va texnologiya uskunalari chetdan sotib olishni ta'minlayotgan asosiy manba ekanligi;
- ❖ mustaqillik sharoitida qishloq xo'jaligining oziq-ovqat muammosini hal etishdagi rolining ortib borishi.

Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan ko'pgina respublikalar boshqa davlatlar uzoq yillar davomida erishgan yutuq va marralarga bir zumda, ya'ni "shok terapiyasi" usulini qo'llagan holda erishmoqchi bo'lishdi.

Odatda bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga o'tilar ekan, yillar davomida hal etishga to'g'ri keladigan muammolar paydo bo'ladi. Bir siyosiy tuzumdan boshqasiga o'tish uchun eng muhimi odamlarning ongini, tafakkurini o'zgartirish lozim.

Masalaning ma'no-mohiyati shundaki, mustaqil taraqqiyot yo'lidagi model 5 ta tamoyilga asoslanadi. "Biz ishlab chiqqan va bugungi kunda hayotga tatbiq etayotgan ushbu modelning ma'no-mazmuni – davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumni tubdan o'zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya'ni islohotlar tashabbuskori bo'lishi va ularni muvofiqlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish tamoyillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir". "Bu haqda gapirganda, xalqimiz o'rtasida keng tarqalib, mashhur bo'lib ketgan ikkita shiorni eslash o'rinlidir.

Birinchi shior – "Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmag" degan muhim hayotiy prinsipni ifoda etadi. Ya'ni, yangi hayot, yangi jamiyat qurishda avvalgi hayot tajribasidan ham foydali jihatlarni albatta olish kerak bo'ladi.

Ikkinchi shior esa "Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun" degan so'zlarda mujassam topgan.

Chindan ham, islohot inson manfaatlariga xizmat qilsagina, odamlar bu islohotlarning barchasi nima uchun zarurligi, o'zini oqlamagan eski mafkuraviy tizimdan erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik tizimga o'tishning mazmun-mohiyati nimadan iborat ekanini tushunib yetadi".

Iqtisodiy islohotlarning bosh bo'g'ini mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirishdir, chunki shu orqali ko'p ukkladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhiti shakllantiriladi hamda bozor iqtisodiyotiga o'tishning shart-sharoitlari vujudga keltiriladi. Shu sababli Respublikada mulkiy munosabatlarni isloh qilishdan ko'zda tutilgan maqsad davlat mulki monopolizmini tugatish va bu mulkni xususiyashtirish hisobiga ko'p ukkladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat.

3.5. O'ZBEKISTONDA AGRAR ISLOHOTLARNING BOSQICHLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

Uzoq davr mobaynida qishloq xo'jaligiga nisbatan noekvivalent ayirboshlash mavjud bo'lib kelgan edi. Iqtisodiyotda rejali tizim amal qilgan yillarda qishloq xo'jaligidan boshqa umumdavlat ehtiyojlari uchun juda katta mablag'lar "sog'ib" olingan edi, xodimlarga esa eng kam ish haqi to'landi, uning darajasi tirikchilik minimumidan ancha past edi. Bu hol narxlar siyosati, investitsiyalar, moddiy-texnika ta'minoti, mehnatga haq to'lashda yanada yorqinroq namoyon bo'ldi.

Qishloq xo'jaligi bo'yicha hukumatning bir qancha qarorlari qabul qilinganligiga qaramay, ushbu muhim sohada ahvol tubdan yaxshilanmadi va u mamlakat oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishga to'sqinlik qildi. Turg'unlik yillarida qishloqda o'ta og'ir ijtimoiy vaziyat yuzaga keldi. Ko'pchilik qishloqlarda tibbiy muassasalar, shuningdek do'kon va maktablar yetishmas edi. Ko'p yerlar agrar sektor oborotidan chiqarib tashlangan va tubdan yaxshilashga muxtoj edi. Agrar sektor ishchilarining maoshlari shahardagi ishchilarning maoshlaridan 3-5 marta kam edi.

Mana shunday sharoitda O'zbekiston 1991 yilda o'z mustaqilligini e'lon qildi va tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga kirishdi.

Respublikada 1990-1991 yillarda o'tkazilgan agrar islohot davomida aholiga 1,5 milliondan gektardan ortiq haydaladigan yer bo'lib berilgandi va bu tadbir respublika aholisining o'z-o'zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlashdagi

ahvolini ma'lum darajada yaxshilashi lozim edi va bu tez orada o'z samarasini berdi.

Bu davrda respublikaning qishloq xo'jaligi tarmog'i quyidagi o'ziga xos xususiyatlari:

- ❖ xom ashyo yetishtirishga yo'naltirilganlik;
- ❖ yer-suv resurslarining cheklanganligi;
- ❖ ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi taraqqiyotining pastligi;
- ❖ qishloqda aholi va mehnat resurslarining o'sish sur'atlari yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlariga nisbatan yuqoriligi;
- ❖ yerni qashqatqich holda ekspluatatsiya qilish natijasida uning tabiiy unumdorligining pasayib ketganligi;
- ❖ agrotexnik qoidalarga rioya qilinmaslik va almashlab ekish jarayonining buzilganligi (oxirgi paytlarda almashlab ekishni barbod qilinganligi);
- ❖ yerlarning meliorativ holatining qoniqarsizligi, suv ta'minoti va drenaj quduqlarning achinarli xolatga keltirilganligi;
- ❖ suvdan oqilona foydalanmaslik maqsadida ilg'or sug'orish tizimlarini joriy etilmaganligi;
- ❖ mineral o'g'itlar va turli kimyo vositalari narxlarining o'sib borishi;
- ❖ madaniy o'g'itlar asosini tashkil qiluvchi chorvachilik sohasiga e'tiborning susayishi;
- ❖ yonilg'i-moylash materiallari narxining ortib borishi;
- ❖ qishloq xo'jaligida band mutaxassisilarni layoqati yetarli emasligi tizimning tugashiga sabab bo'ldi deyish mumkin.

Shunday qilib, sobiq sovetlar davridan meros bo'lib qolgan mavjud ahvolni bartaraf etish uchun jami iqtisodiy munosabatlar tizimini, ularning asosini tubdan o'zgartirish zarur edi.

XX asrning 80-yillarigacha iste'mol tovarlarining asosiy qismi mamlakat tashqarisidan keltirilgan. Bunday holatni yuzaga keltirgan asosiy sabablari qishloq

xo‘jaligi ishlab chiqarish vositalariga davlat mulkchiligi va iqtisodiyotni boshqarishning ma’muriy usullari tashkil etganligidir.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining qaror topgan tarkibi, davlat tomonidan qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish vositalari va mahsulotning monopol boshqarilishi, moddiy-texnik resurslar taqsimotining, mehnatga haq to‘lash va daromadlarning qattiq nazorat qilinishi, davlatning yuqori organlari tomonidan ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatga qo‘yilgan ko‘plab cheklovlar, qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirishdagi, ularni ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi qat’iy ixtisoslashuv pirovardida dehqonni ishlab chiqarish vositalari va mahsulotdan, eng muhimi esa – yerdan begonalashuviga olib keldi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish agrar tadbirkorlikning yangi tuzilmasini yaratishni taqozo etdi.

Islohotlarga qadar mavjud bo‘lgan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi xo‘jalik yuritishning rejali usuliga moslashtirilgan korxonalar tuzilmasiga ega edi. Aynan shu xususiyatlar qishloq xo‘jaligidagi institutsional va tarkibiy o‘zgarishlarning maqsadlari va bosqichlarini oldindan belgilab bergan.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligida islohotlarni o‘tkazishda quyidagi holatlar inobatga olindi:

- ❖ yer (agrar ishlab chiqarish uchun yaroqli bo‘lgan) va suv resurslarining cheklanganligi, ularning notekis taqsimlanishi va aholining o‘sinh sur’atlari nisbatan yuqori bo‘lgan sharoitda yerga xususiy mulkchilikning joriy etilishi jamiyatda ijtimoiy beqarorlikning manbai bo‘lib qolishi mumkin;
- ❖ qishloq xo‘jaligi korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini shunday mehnat vositalari bilan to‘ldirib tashlanganki, ularni texnik jihatdan mayda xo‘jaliklarga bo‘lib tashlashning umuman iloji yo‘q, (masalan paxta yetishtirish bo‘yicha texnologik majmua shunday mashinalarni ham o‘z ichiga oladiki, ularni mayda oilaviy fermalarda ishlatish samarasiz bo‘ladi, qishloq xo‘jaligi mashinasozligining mayda xo‘jaliklarga xizmat ko‘rsatuvchi texnikani ishlab chiqarishga tezkorlik bilan moslashtirilishiga umid qilish befoйда edi). Bunday sharoitda mayda oilaviy xo‘jaliklarni tez shakllantirish ko‘p hollarda

ularni almisoqdan qolgan texnologiyada foydalanishga mahkum etgan bo'lar edi;

- ❖ yer-suv resurslari raqobatli taklifning mavjud emasligi tufayli fermer xo'jaliklari yer va irrigatsion tizimlarni ijaraga berish orqali daromad oluvchi ijarachilarga qaram bo'lib qolishlari mumkin edi.

Shuning uchun agrar islohotlar konsepsiyasiga binoan quyidagi institutsional o'zgarishlar ko'maklashuvi kerak edi: yerni xususiylashtirish, sovxoz, kolxozlarni tugatish va yangi ishlab chiqarishni hayotga tatbiq etish, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasidagi korxonalarni, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi va moddiy-texnika ta'minoti bilan shug'ullanuvchi korxonalarni xususiylashtirish. Iqtisodiy islohotlar amalga oshirilgan yillarda qishloq xo'jaligi xususan g'alla mustaqilligini va umuman oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Bunga mamlakat iqtisodiyotining agrar sektorini isloh qilish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli erishildiki, ular makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishni yangidan yo'lga qo'yishda muhim omillarga aylandi.

Respublikamizning qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar iqtisodiy islohotlarning milliy O'zbek modelining eng muhim tamoyillari asosida amalga oshirildi. Bu eng avvalo, tashkiliy-huquqiy asoslarning yaratilishida, tarkibiy-investitsion siyosatni yuritishda davlatning faol aralashuvida hamda tarkibiy o'zgarishlarning ketma-ketligida o'z aksini topdi.

O'zbekistonda agrar islohotlarning asosiy maqsadlari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- ❖ aholiga kerakli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlash sanoati uchun xom ashyo yetkazib berishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlash;
- ❖ iste'mol bozorlarini barqarorlashtirish;
- ❖ qishloq aholisining ijtimoiy muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish imkoniyatlarini shakllantirish;

- ❖ agrar tarmoq samaradorligini ta'minlash va uning asta-sekinlik bilan mamlakat iqtisodiyotining barqaror bo'lishidagi hissasini oshirishga erishish.

Bu maqsadlarga erishish uchun quyidagi asosiy vositalardan foydalanish lozim edi:

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi mulk shakllari turlaridan samarali foydalanish.

Bunda raqobatga asoslangan mulkchilik tizimidan foydalanish, ya'ni, qayerda qaysi mulk shakli eng ko'p samara bersa, o'sha yerda shu mulk shaklidan foydalanish tamoyili asosida ish yuritish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Aholining daromadlarini oshirishga xizmat qiladigan agrar sektordagi mehnat unumdorligini oshirishga erishish.
3. Ish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, bu o'z navbatida mehnat sharoitlari va ularning natijalarini o'zgartiradi.
4. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, qayta ishlovchi korxonalar ishchilari va ularni tashkil qiluvchilariga tizimli ravishda yo'l-yo'riqlar berib borish, shu bilan birgalikda ishlab chiqarishga ko'proq takomillashgan va tejamli omillardan foydalana borish, marketingni joriy qilish.
5. Ichki agrar ishlab chiqarishni himoya qilish, moliyalashtirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash.
6. Qishloq hayoti va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi infratuzilmasini shakllantirish.
7. Agrosanoat ishlab chiqarishida bozor mexanizmini takomillashtirish va korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash.
8. Baho tizimini takomillashtirish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barcha turlarini samarali bo'lishiga erishish, maxsus fondlarni tashkil qilish orqali esa qishloq xo'jaligining kam samarali, ammo hayot uchun zarur tarmoqlari ishlab chiqarishini barqarorligini saqlab qolish.
9. Qishloq xo'jaligining ayrim tarmoqlari, ayrim hududlar ishlab chiqarishi yoki ayrim qishloq joylarini alohida yoki bir butun holda qishloq xo'jaligini

rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shu orqali yer fondini, yer unumdorligini, chorva mollari genetik salohiyatini, shuningdek, qishloq xo'jaligi mashinasozligi imkoniyatlarini oshirish.

Qishloq xo'jaligida islohotlarga bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sir ko'rsatdi.

Ob'ektiv omillarga asosan quyidagilar kiradi:

- ❖ qishloq xo'jaligini mavjudlik va tashkil etish xususiyatlari;
- ❖ agrar sektordagi bioklimat salohiyati darajasi;
- ❖ qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining katta mehnat sig'imiga ega ekanligi;
- ❖ agrar sektorda bozor munosabatlarining to'la rivojlanmaganligi va uni qishloq aholisining qabul qilishi qiyin bo'layotganligi;
- ❖ agrar soha faoliyatini tashkil qilish jarayoniga davlatning aralashuvining zarurligi.

Qishloq xo'jaligida islohotlarda sub'ektiv omillar ham muhim o'rin tutadi. Sub'ektiv omillarga kishilar, ya'ni ishlab chiqaruvchilar, rahbarlar, iste'molchilar va boshqalar kiradi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligida islohotlarga quyidagi umumiy omillar ham ta'sir ko'rsatadi:

- ❖ korxona hajmi yiriklashuvining texnologik samarasi;
- ❖ texnik rivojlanish (biologik, mexanik, tashkiliy-texnik);
- ❖ tadbirkorlikning maxsus omillari;
- ❖ qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish omillarini o'z vaqtida ta'sir ko'rsatishini ta'minlovchi jihatlar;
- ❖ umumiyqtisodiy rivojlanish (talabning o'sishi, tovar va xizmatlar bahosi);
- ❖ siyosiy o'zgarishlar.

O'zbekistonning qishloq xo'jaligida tarkibiy va institutsional o'zgarishlar bir qancha yo'nalishlarda yuz olib borildi.

Birinchi yo'nalish – ASM ni isloh qilish bo'lib, yer islohoti kolxoz va sovxozlarni qayta tashkil qilish, qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalarini

yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlardagi korxonalarni va qishloq xo'jalik mahsulotini qayta ishlovchi hamda iste'molchilarga yetkazib beruvchi korxonalarni xususiylashtirishni o'z ichiga olgan Respublikada yerga bo'lgan yangicha iqtisodiy munosabat, ya'ni asosini xususiy mulkchilik tashkil etuvchi qishloq xo'jaliklaridagi xo'jalik yuritishning yangi turlari shakllandi.

Ikkinchi yo'nalish – mahsulotni xarid qilish va sotish tizimini, ulgurji va chakana savdoni davlat tasarrufidan chiqarish. Natijada davlatning tayyorlov tashkilotlari tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilish keskin qisqardi. Sotuvning yangi kanallari, jumladan, ulgurji bozorlar, birjalar, yarmarkalar rivojlana boshladi.

Uchinchi yo'nalish - agrar sektorni davlat tomonidan tartibga solish tizimining o'zgartirilishi - ASMning tashkiliy tuzilmalarini va boshqaruv uslublarini qayta qurish, texnika va uskunalarni yetkazib berish bo'yicha lizing munosabatlarini hamda qishloq xo'jalik faoliyatini ixtiyoriy sug'urta qilish shakllandi.

To'rtinchi yo'nalish – qishloq xo'jalik tashkilotlarini kommunal xo'jalik va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini saqlash vazifalaridan ozod qilishga urinishlar bilan bog'liq.

Institutsional o'zgarishlarni o'tkazishda quyidagilar ko'zda tutildi:

- ❖ agrar sohada ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish;
- ❖ yerga mulkchilik masalalarini hal qilish;
- ❖ bozorga asoslangan xo'jalik yuritishning turli shakllarini joriy etish va rivojlantirish;
- ❖ qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tartibga solishning ilg'or shakllarini joriy etish;
- ❖ talab va taklifni inobatga olgan holda bozor infratuzilmasini shakllantirish hamda qishloq xo'jaligini tartibga solishning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish.

Mamlakatimizda agrar sohani isloh etishning asosiy xususiyati shundan iboratki, unda yerga bo'lgan munosabatning davlat mulkchiligi asosida amalga oshirilishidir. Mamlakatimizda yerga bo'lgan davlat mulkchiligining zarurligi tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar, murakkab irrigatsiya inshootlari va sug'orma dehqonchilikning o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi.

Fermerlarga 30 yildan 50 yilgacha bo'lgan muddatga foydalanish uchun ijaraga berilsa, dehqon xo'jaliklari uchun esa, tekinga, umrbod oila a'zolariga meros qilib qoldirish huquqi bilan foydalanishga beriladi.

Agar 1998 yilda qabul qilingan "Fermer xo'jaligi to'g'risida" gi qonunga muvofiq, "Fuqarolarga fermer xo'jaliklarini yuritish uchun yer uchastkalari 50 yilgacha bo'lgan, lekin 10 yildan kam bo'lmagan muddatga ijaraga berilishi" ko'zda tutilgan bo'lsa, 2004 yilda yangi tarirda qabul qilingan "Fermer xo'jaligi to'g'risida" gi qonunga muvofiq, "Fermer xo'jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari tanlov asosida ijaraga 50 yilgacha bo'lgan, lekin 30 yildan kam bo'lmagan muddatga birlashtirilishi" belgilab berildi.

O'tkazilgan yer islohotlari natijasida:

- ❖ 2004 yildan boshlab barcha qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yer uchastkalaridan foydalanishning ijara shakli joriy qilindi;
- ❖ Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga yer uchastkalari faqat faqat tuman xokimi tomonidan ijaraga berilishi belgilab qo'yildi;
- ❖ O'z mablag'i xisobidan yer maydonlarini o'zlashtirishni rag'batlantirish tizimi belgilab berildi;
- ❖ Yer ijarasi xuquqini meros qilib qoldirish tizimi joriy etildi.

Suvdan foydalanish islohoti natijasida:

- ❖ Irrigatsiya tizimlarini boshqarishning ma'muriy-hududiy prinsipidan havza prinsipiga o'tkazildi;
- ❖ Irrigatsiya tizimlarini boshqarishning ma'muriy-hududiy prinsipidan havza prinsipiga o'tkazildi;

- ❖ Suvdan samarali foydalanish va bu borada xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash maqsadida

Suv istemolchilar uyushmalari tashkil etildi;

- ❖ Moliya vazirligi tasarrufida Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ xolatlarini yaxshilash maqsadida maxsus jamg‘arma tashkil qilindi
- ❖ Moliya vazirligi qoshida “O‘zmeliomashlizing” davlat lizing kompaniyasi tashkil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29 oktabrdagi “Yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish, melioratsiya ishlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni barqaror sur‘atlar bilan rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilandi.

Mazkur farmonga muvofiq sug‘oriladigan yerlarning meliorativ xolatini yaxshilashga qaratilgan irrigatsiya, melioratsiya tadbirlarini moliyalashtirishga davlat budjetidan mablag‘lar ajratilmoqda. Yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash tadbirlarini moliyalashtirish tizimini shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi xuzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash jamg‘armasining tashkil etilishi muxim ahamiyatga ega bo‘ldi.

1999 yilning boshida Moliya Vazirligi qoshida qishloq xo‘jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilari tomonidan yetkazib berilgan mahsulotlarning o‘z vaqtida avanslanishi va hisob-kitob qilinishini ta‘minlash maqsadida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlar haqini to‘lash uchun Fondning tashkil etilishi natijasida respublikada quyidagi dolzarb masalalar hal etildi:

- ❖ davlat ehtiyojlari uchun ishlab chiqarilayotgan va yetkazib berilayotgan paxta, g‘alla, sholi uchun avans to‘lash va pirovard hisob-kitoblarning o‘z vaqtida amalga oshirilishi ta‘minlandi;

- ❖ davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinayotgan mazkur qishloq xo‘jalik mahsulotlarini avanslash va pirovard hisob-kitoblar uchun ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish ustidan nazorat o‘rnatildi;
- ❖ xarid qilinayotgan mahsulot uchun hisoblashuvlarni ta‘minlaydigan, servis xizmatlarini ko‘rsatadigan, texnika, ehtiyot qismlar va hokazolarni yetkazib beradigan barcha bo‘g‘inlar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Moliya-kredit va soliq islohoti natijasida:

- ❖ davlat ehtiyoji uchun xarid qilinadigan mahsulotlar yetishtirishni imtiyozli kreditlash tizimi belgilanib, hosil o‘rib-yig‘ib olinguncha 60 foiz qismini ajratish, paxta xom ashyosini xarid qilishda joriy yil oxirigacha 90 foiz qismini ajratish tizimi joriy qilindi;
- ❖ qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun barcha turdagi soliqlar umumlashtirilib, yagona yer solig‘i joriy qilindi;
- ❖ texnika vositalari va boshqa qishloq xo‘jaligi mashinalarini lizingga berish tizimi joriy etildi;
- ❖ yer ijarasi huquqini va bulg‘usi hosilni garovga qo‘ygan holda kredit olish tizimi joriy etildi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq tarmoqni rivojlantirishning shunday strategiyasi belgilab qo‘yildiki, uning asosida qishloq xo‘jaligini diversifikatsiyalash, paxta yakkahokimligiga barham berish, oziq - ovqat tovarlari bilan o‘z - o‘zini ta‘minlash, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlarni rivojlantirish yotardi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga davlat buyurtmasining ulushi izchillik bilan pasaytirib borilgan holda (paxta va g‘alladan boshqa) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining barcha turlari uchun bekor qilindi.

Narx-navo islohoti natijasida:

- ❖ davlat tomonidan sotib olinayotgan paxta xom ashyosining narxini jahon bozoridagi narxdan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi;
- ❖ davlat omonidan sotib olinayotgan g‘alla narxini mintaqaviy bozorlardagi narxlardan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi;

- ❖ boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxlari bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda shartnoma asosida belgilanmoqda.

Ishlab chiqarish tarkibi va samaradorligi sezilarli ravishda mulkiy huquqlarning taqsimlanishiga bog‘liqdir. Bu borada birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deb ta’kidlagan edi: “Haqiqiy mulkdor bo‘lish – haqiqiy xo‘jayinlik tuyg‘usini his etish demakdir. Bu o‘z navbatida insonning yashirin kuch-g‘ayratini, tashkilotchilik qobiliyatini namoyon etadi, uni tashabbuskor va omilkor qiladi, o‘z korxonasini rivojlanish istiqboli haqida qayg‘urib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirib boradi, oladigan foydasi ham xodimlarning ish haqi ham ko‘payadi”. Shuning uchun, qishloq xo‘jaligini isloh qilishga qaratilgan chora tadbirlar tizimida qishloqda birinchi bosqichda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllarini rivojlantirishga katta e’tibor berildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan mulk islohoti natijasida:

- ❖ tarmoqda mulk “davlat mulki” va “jamoa mulki” (shirkat va jamoa xo‘jaliklari) shaklidan “xususiy mulk” (dehqon va fermer xo‘jaliklari) shakliga o‘tkazildi;
- ❖ jamoa mulki bo‘lgan bog‘ va tokzorlar, chorva fermalari va mollari, texnikalar hamda boshqa mol-mulklar xususiylashtirildi;
- ❖ xususiy mulklarni himoya qilish va ularning rivojlanishini huquqiy jihatdan kafolatlash bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Respublikamizda 1991 yilda 1294 ta jamoa xo‘jaligi, 1868 ta fermer xo‘jaligi va 2,1 million nafar xususiy tomorqa uchastkalarining egalari mavjud edi. Qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanmish yerlarni haqiqiy egalari bo‘lmish fermer va dehqonlarga berilganligi tufayli qishloqda mulkchilik shakllari o‘zgardi.

Shunday qilib, shirkat, fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyatining asoslarini shakllantirishda qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning yangi, milliy an‘nalardan kelib chiqqan holda me‘yorlarni yaratildi. Qonunda belgilangan me‘yorlarda ko‘p ukladli agrar iqtisodiyotning

shakllanayotgan har bir sub'ekti yerga va mulkka egalik huquqi, mehnatni tashkil qilish shakllari bo'yicha bir biridan farq qiluvchi xususiyatga ega.

Demak, yerga va suvdan foydalanish ob'ektlariga davlat mulkchiligi saqlanganini e'tiborga olgan holda, qonunchilik me'yorlari asosida belgilab olingan qishloqda daromad keltiruvchi mulkka (kapitalga) egalik qiladigan haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- ❖ aksiyadorlik, ijara va boshqa turdagi xo'jaliklarni pay asosida qishloq xo'jaligi kooperativlariga (shirkat xo'jaliklari)ga aylantirish;
- ❖ uzoq muddatli ijara shartnomasi asosida berilgan yer uchastkalarida fermer xo'jaliklarini tuzish;
- ❖ meros qilib qoldirilgan umrbod egalikdagi yerlari bo'lgan dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish;
- ❖ xo'jalik a'zolariga yerni uzoq muddatli ijara huquqi bilan foydalanishga berish.

Qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirishning yuqorida ko'rsatilgan yo'llaridan boshqa yo'llari ham mavjud bo'lib, ular o'z sarmoyasi hisobiga chet el investorlari bilan qo'shma korxonalar tashkil etish hamda matlubot kooperativlari, maslahat va auditorlik firmalari, axborot-maslahat markazlari, reklama agentliklari va hokazo qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi bozor infratuzilmasini takomillashtirishdir. Lekin bu boradagi imkoniyatlar hali to'laligicha ishga solingani yo'q.

Qishloq xo'jaligidagi bozorga xos o'zgarishlar resurslardan samarali foydalanishdan, talabning to'lov qobiliyatini to'laroq qondirishdan iqtisodiy manfaatdor bo'lgan tuzilmalarni shakllantirishni taqozo etdi. Shuning uchun qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlarning asosiy yo'nalishi boshqaruvning yer-suv va moddiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlay oladigan yangi tashkiliy shakl va uslublarini izlab topishdir.

3.6. BOZOR MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISHDA AGRAR ISLOHOTLARNING TUTGAN O‘RNI

Mamlakatimizda olib borilgan iqtisodiy islohotlar agrar soha rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatib:

- ❖ xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning imkoniyatlarini oshiruvchi, xususan, raqobat muhitini shakllantiruvchi, kooperatsiyani rivojlantiruvchi mulkchilikning yangi shakllari va yerga bo‘lgan yangicha munosabatlar rivojlanishiga;
- ❖ qishloq xo‘jaligi tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchi xo‘jalik sub’ektlarini moliyalashtirish, kreditlash, narx belgilash, moddiy-texnika ta’minoti va boshqa yo‘nalishlarda bozor tamoyillariga mos mexanizmlar joriy qilinishiga;
- ❖ respublikamiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini ichki imkoniyatlar hisobiga qondirish, eng asosiysi, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga;
- ❖ qishloq xo‘jaligi tovar mahsulotlari yetishtiruvchi xo‘jalik sub’ektlarini davlat tomonidan iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashning bozor munosabatlariga mos mexanizmlari joriy qilinishiga;
- ❖ agrar sohada ko‘p ukladli iqtisodiyotning va unga mos qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari tarkibining shakllanishi, boshqarishning egiluvchan usullarini izlash imkoniyatlarining yaratilishiga;
- ❖ fermerlik harakatining rivojlanishi natijasida qishloqlarda fermer xo‘jaliklarining o‘rni va ahamiyatining o‘zgarib borishiga;
- ❖ ishlab chiqaruvchidan kasbiy mahorat, malaka darajasining oshishini talab qiluvchi bandlik tarkibining transformatsiyalashuviga;
- ❖ qishloq oilasining demografik ko‘rinishi o‘zgarishi va daromadlarining oshishi hamda yangi ijtimoiy tarkibning vujudga kelishiga olib keldi.

Tarixan qisqa davrda mamlakatimiz iqtisodiyoti 5,5 barobardan ko‘proq o‘sdi, aholimizning real daromadlari jon boshiga hisoblaganda qariyb 9 barobar oshdi, bunga erishish uchun o‘tgan davr mobaynida iqtisodiyotimizga 190 mlrd. dollar

hajmidagi investitsiyalar, jumladan, 65 mlrd. dollardan ortiq xorijiy sarmoyalar jalb etildi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bugungi kunda o'zining natijasini namoyon etib, qisqa vaqt ichida mamlakat aholisini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanishi, qishloqda aholi daromadining oshishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, paxta bozori faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq qishloq xo'jaligini tubdan yangilash va rivojlantirish, paxta yakka hokimligiga barham berish, o'z-o'zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasidagi ishlarni yaxshilash, qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish masalalariga respublika hukumati agrar siyosatida katta e'tibor qaratildi.

Agrar sektor O'zbekiston iqtisodiyotining muhim sohasi hisoblanib, qishloq xo'jaligi bozori uchun zarur bo'lgan barcha turdagi oziq-ovqat mahsulotlari hamda sanoatga xom-ashyo yetkazib berish bilan birga, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati va boshqa sanoat mahsulotlarining kafolatli bozori bo'lganligi sababli, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va chuqurlashtirishda tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlash va qishloq aholisining turmush darajasini oshirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar strategiyasi, xo'jalik yuritish shakllarining samaradorligi va mehnat unumdorligini oshirish iqtisodiyotning institutsional va tashkiliy tuzilmalarini qayta qurish, huquqiy-me'yoriy, tarkibiy, moliya-kredit, soliq va narx tizimida chuqur o'zgarishlar orqali amalga oshirilishini taqozo etdi. Eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechib, bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lidagi tadbirlarning ahamiyatli ekanligiga baho berib, Prezidentimiz quyidagilarni ta'kidlaydilar: «Iqtisodiy rivojlanish haqida gapirganda, markazdan rejalashtirish va taqsimlash tizimi samarali mehnat, sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, tashabbuskorlik va tadbirkorlik yo'lida asosiy g'ov-

to'siq bo'lib kelganini ta'kidlash lozim. Shu sababli o'zining mutlaqo yaroqsiz ekanini ko'rsatgan bu tizimning barcha-barcha illatlaridan butunlay voz kechganimiz ayniqsa prinsipial ahamiyatga ega bo'ldi».

Respublikamizda qishloq xo'jaligida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida mamlakat aholisini ekologik toza va sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanishi, qishloqda aholi daromadining oshishi, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi, paxta bozori faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi. Izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000 yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda 16,8 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning tasdig'idir. O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar qishloq xo'jaligini tubdan diversifikatsiya qilish va aholini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlash, ularni katta miqdorda eksport qilishni yo'lga qo'yish imkonini berdi.

O'tgan asrning 90-yillari boshida O'zbekistonda yetishtirilayotgan 6 million tonna paxtaning atigi 8-10 foizi mamlakatimizda qayta ishlangan, qolgan qismi esa boshqa davlatlarda qayta ishlanganligi sababli foydaning asosiy qismi paxta xomashyosini qayta ishlagan mamlakatlarga kelib tushgan. Paxta yakkahokimligi va qishloq xo'jaligini biryoqlama rivojlantirish natijasida O'zbekistonni oziq-ovqat bilan to'la ta'minlashning imkoni yo'q edi. Shu sababli asosiy oziq-ovqat tovarlari chetdan olib kelingan. O'zbekistonda aholi jon boshiga go'sht va sut mahsulotlari, g'alla va meva-sabzavot hamda kartoshka iste'mol qilish sobiq Ittifoqning boshqa respublikalariga qaraganda ikki barobar kamayib ketgan edi.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab agrar islohotlarni chuqurlashtirish, qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti va hukumati diqqat markazidagi ustuvor vazifalardan biri bo'ldi. Natijada, so'nggi yillarda respublikada yalpi ichki mahsulot va qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlari kuzatilmoqda.

Bu natijalarga iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va modernizatsiyalash, uning muhim tarmoqlarini texnik va texnologik yangilash jarayonlarini jadallashtirish, qishloq xo'jaligida chuqur islohotlar va yangi samarali xo'jalik yuritish shakllariga o'tish orqali erishildi. Bu borada ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli g'o'za ekiladigan maydonlar ikki barobarga qisqartirildi va paxta yetishtirishni 6 million tonnadan 3 million 400 ming tonnadan sal ko'proq bo'lgan darajagacha kamaytirildi. Paxtadan bo'shagan yerlar oziq-ovqat ekinlari uchun ajratib berildi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini isloh qilishning asosiy negizini keng ko'lamli institutsional o'zgarishlar tashkil etdi, ularning mazmun-mohiyati ma'muriy va rejali-taqsimot tizimidan voz kechish va bozor munosabatlariga o'tishdan iborat edi.

Qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanmish yerlarni haqiqiy egalari bo'lmish fermer va dehqonlarga berilganligi tufayli qishloqda mulkchilik shakllari o'zgardi, mahsulot ishlab chiqarish barobarida ularning sifati hamda raqobatbardoshlik darajasi oshdi, yangi ishchi o'rinlari yaratildi, pirovardida mazkur xo'jaliklarda mehnat qilayotganlarning moddiy manfaatdorligi yaxshilandi. Shu nuqtai nazardan ham, mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning natijasi fermer xo'jaliklarining samaradorligini yaqqol namoyon etdi.

“Bugungi fermer xo'jaliklari samarali faoliyat yuritish uchun o'z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan yirik xo'jaliklardir. Muxtasar aytganda, ular qishloqlarimizning tayanch ustunidir. Faqat yerga mehr, uning unumdorligini oshirish va birinchi navbatda dehqon va fermerga doimiy e'tibor, ularning manfaati haqida g'amxo'rlik qilish - bu

qishloqni va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bo‘yicha biz tanlagan yo‘ldir”.

“Ana shunday ishlar tufayli sizot suvlari eng og‘ir darajada, ya‘ni, 2 metrgacha yuzada joylashgan yerlar qariyb 500 ming gektarga yoki uchdan biriga kamaydi, kuchli va o‘rtacha sho‘rlangan yerlar esa 100 ming gektarga yoki 12 foizga qisqardi. Melioratsiya tadbirlari amalga oshirilgan ekin maydonlarida paxta hosildorligi gektariga o‘rtacha 2-3 sentner, boshqoli don ekinlari bo‘yicha esa 3-4 sentnerga oshgani bu borada erishgan eng muhim natijamizdir».

Fermer xo‘jaliklariga barcha turdagi zarur xizmatlar ko‘rsatadigan ishonchli bozor infratuzilmasining tashkil etilgani qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Ayni paytda qishloq joylarda 1,5 mingdan ziyod minibank, qariyb 2 mingta mashina-traktor parki, yonilg‘i va mineral o‘g‘it sotish bo‘yicha 2,5 mingga yaqin punkt xizmat ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari, 1,5 mingta Suv iste‘molchilari uyushmasi, 350 dan ortiq konsalting markazlari tashkil etildi.

O‘zbekistonning ko‘plab mintaqalari qisqa muddatda jahon bozorida xaridorgir bo‘lgan meva va sabzavot mahsulotlari yetishtiradigan va eksport qiladigan hududlarga aylandi. Yurtimizda yuqori hosil beradigan intensiv bog‘lar tashkil qilindi, tomchilatib sug‘orish tizimi joriy etildi.

O‘tgan yillar davomida qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan tub islohotlar natijasida g‘alla yetishtirish hajmi 1 million tonnadan 8 million tonnaga yetdi va ilgari mamlakatimiz aholisini boqish uchun 5 million tonna bug‘doy chetdan sotib olingan bo‘lsa, endilikda O‘zbekiston g‘alla eksport qiladigan mamlakatlar qatoridan joy egalladi.

2013 yilda 2000 yilga nisbatan don ishlab chiqarish hajmi 2 marta, kartoshka - 3,1 marta, poliz - 3,4 marta, sabzavot -3,2 marta, meva va rezavorlar- 2,9 marta, uzum- 2 marta, tuxum- 3,4 marta, sut- 2,1 marta ortdi.

Mamlakatimiz aholisining qariyb 10 million kishiga yoki 30 foizdan ortiq ko‘payishiga qaramasdan, jon boshiga to‘g‘ri keladigan go‘sht iste‘molini 1,3

barobar, sut va sut mahsulotlarini 1,6 marta, kartoshkani 1,7 barobar, sabzavotlarni 2 martadan ziyod, mevalarni qariyb 4 barobar oshirish imkonini berdi.

Mamlakatimizda har yili 16 million tonnaga yaqin meva va sabzavot yetishtirilmoqda. Aholi jon boshiga qariyb 300 kilogramm sabzavot, 76 kilogramm kartoshka va 43 kilogramm uzum to'g'ri kelmoqda. Bu optimal, ya'ni maqbul deb hisoblanadigan iste'mol me'yoridan uch barobar ko'pdir. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda jami 630 ming tonna mahsulotni saqlash quvvatiga ega bo'lgan 1300 dan ziyod ombor mavjud. Ularda har yili meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy turlari saqlanmoqda. Bu esa ichki bozorda narx-navoni barqaror ushlab turish va kuzgi-qishki mavsumda ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kafolatli ta'minlash imkonini bermoqda.

Ajratilgan moliyaviy mablag'lar bilan birga, birinchi navbatda, ilg'or agrosanoat texnologiyalarini jalb etish, qishloq xo'jaligi infratuzilmasi, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish, marketing va jahon bozorlariga chiqish bo'yicha yangi texnologiyalarni joriy qilish borasida amaliy yordam ko'rsatildi.

Iste'mol qilinadigan ovqatning tarkibi va ratsionini yaxshilash boshqa omillar bilan birga aholi, avvalo, bolalar salomatligini tubdan yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, so'nggi 10 yilda vazni tibbiyotda ko'zda tutilgan me'yordan kam bo'lgan bolalar soni ikki barobardan ziyod (4 foizdan 1,8 foizga) qisqardi, ularning bo'yi o'rtacha 3 santimetrga o'sdi, bizning mintaqamizga xos bo'lgan jiddiy kasallik, ya'ni xotin-qizlarda kamqonlik darajasi 2,5 marta pasaydi.

Bugungi kunda dunyoda kamdan-kam davlatlar bunday ko'rsatkichlarga erishgan. Keng ko'lamli islohotlar yo'lida hozirgi vaqtda umumiy qiymati qariyb 5 milliard dollar bo'lgan oziq-ovqat, birinchi navbatda, meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilinayapti.

Mamlakatimizda o'tgan 10 yil davomida meva va sabzavot, poliz mahsulotlari va uzum yetishtirish bo'yicha yuqori o'sish sur'atlariga erishildi. Jumladan, 2004-2013 yillarda sabzavot yetishtirish dollar hisobida 7,7 barobar,

meva yetishtirish 5,1 karra, poliz mahsulotlari 7,8 marta, uzum 8,7 barobar o'sdi. So'ngi uch yilda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3 barobardan ziyod oshdi.

Mamlakatimizning mahsulot yetkazib beradigan korxonalari xalqaro ko'rgazma va ixtisoslashtirilgan yarmarkalarda faol ishtirok etmoqda. Dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlar eksport qilinmoqda. O'zbekiston o'rik, olxo'ri, uzum, yong'oq, karam va boshqa ko'plab meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo'yicha dunyoda shunday mahsulotlarni yetkazib beradigan o'nta yetakchi davlat qatoriga kiradi.

3.7. YER ISLOHOTI VA JAHON TAJRIBASI

Har bir mamlakat o'zining tarixiy rivojlanish yo'liga ega. Dunyoda yer islohotining ishlashi uchun sharoitlar bir-biriga o'xshash bo'lgan mamlakatlar yo'q.

Afsonalarga ko'ra, Kanadada go'yo qishloq xo'jaligi yerlari sotilmayapti. Argentina va bolgariyaliklarning aytishicha, barcha yerlar chet elliklar, Fransiya tomonidan sotib olingan, ular yer islohotini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha tajribaga ega bo'lishi kerak.

Kanadaga kelsak, undagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar mamlakat hududining 6 foizidan kam - 58,05 million gektarni tashkil etadi. 19 asrning oxirida Kanadada qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar qayta taqsimlanib, keyinchalik ular mahalliy aholiga berildi. Milliy darajada to'g'ridan-to'g'ri yerga egalik qilishda cheklovlar yo'q, chet elliklar ham ularni sotib olishlari mumkin. Shu sababli, Kanadada qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar chet elliklar uchun yopiq ekanligi haqidagi gaplar manipulyatsion uydirmadir.

Agar yerlarini chet elliklar sotib olgan Argentina va Bolgariya haqida gapiradigan bo'lsak, endi vaziyat boshqacha. Argentina qishloq xo'jaligi yerlari uchun ochiq bozorga ega bo'lgan agrosanoat mamlakatdir. Xususiy mulk qishloq

xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning 98 foizini tashkil etadi. Turli viloyatlarda chet elliklar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning 10 foizidan ko‘prog‘iga ega emaslar, bu esa yer bozorida chet elliklarning monopoliyasi yo‘qligidan dalolat beradi.

Shunga qaramay, 2011 yildan beri chet elliklar sotib oladigan yer maydonida cheklovlar o‘rnatildi. Bunday cheklashlar natijasida yer bozorida talab pasayib, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar narxi tushdi. Shu sababli, 2016 yildan boshlab yer islohoti bosqichma-bosqich erkinlashtirilib, unga qo‘yilgan cheklovlar olib tashlandi.

Bolgariyaga kelsak, mamlakatdagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydoni 5 million gektardan bir oz ko‘proq. Bolgariyadagi yer islohoti xuddi Ukrainada 1991 yilda kolxoz yerlarining haydalishi bilan boshlandi, ammo Ukrainadan farqli o‘laroq, yer 1946 yilgacha egalik qilgan odamlarga berildi. 2004 yilda qishloq xo‘jaligi yerlarini sotishga 3 yillik moratoriy amal qila boshladi. 2007 yilda Yevropa Ittifoqiga kirish bilan Yer qonunchiligini Yevropa Ittifoqi standartlariga muvofiqlashtirish boshlandi. 2014 yilda qishloq xo‘jaligi yerlari chet elliklar uchun ochiq edi. Chet elliklar sotib olishi mumkin bo‘lgan to‘lovlar va yer maydonida hech qanday cheklovlar yo‘q. Bolgariyaning yer islohotiga kirishi qishloq xo‘jaligiga sarmoyalarni jalb qilishga yordam berdi. Ammo 2019 yilda katta sarmoyadorlar yo‘qligi sababli yer narxi 2018 yil darajasida qoldi. Chet elliklar uchun yanada jozibador investitsiya bu - Bolgariya poytaxtida ko‘chmas mulk sotib olishdir. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni asosiy xaridorlari - Bolgariya fuqarolari, chunki chet elliklar katta massivlarni olishga qiziqishmoqda va Bolgariyada o‘rtacha yer maydoni 8 gektarni tashkil etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, Argentina va Bolgariyada chet elliklar sotib olmagan erkin yer islohoti mavjud va mahalliy fermerlar yer resurslaridan bimalol foydalanishlari mumkin.

Fransiyada 1960 yilda yer islohoti boshlandi. Uning maqsadi qishloq joylarini rivojlantirish, iqtisodiy rivojlanish va bandlikni ta‘minlash, qishloq xo‘jaligining

mahsuldorligini oshirish va fermerlarning daromadlarini barqarorlashtirish edi. Endi mamlakatda Fransiya fuqarolari va yuridik shaxslari, xorijiy yuridik shaxslar tomonidan yerni olishda cheklovlar yo‘q. Shuningdek, mamlakatda SAFER davlat agentligi mavjud bo‘lib, u yer oldi-sotdi shartnomalarini tuzishning barcha holatlarini ko‘rib chiqadi, yer maydoni va bitimlar narxiga norasmiy cheklovlarni o‘rnatishi hamda monopoliyaga qarshi nazoratni amalga oshirishi mumkin. SAFERning yer oldi-sotdi bitimlarini tuzishga roziligini olish jarayoni juda murakkab, shu bilan birga uzoq va qimmatga tushadi, bu esa bozorning jozibadorligi va dinamikasiga salbiy ta‘sir qiladi. Fransiyada tartibga solingan yer islohoti mamlakatdagi qishloq xo‘jalik yerlarining 75 foizi uzoq muddatli ijarada bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli, ortiqcha byurokratiya yerlarning erkin aylanishini cheklaydi.

Estoniyada ham yer islohotining boshlanishi Ukrainada bo‘lgani kabi bir xil shartlarga ega - mustaqillikka erishgach, yer xususilashtirilib, sobiq mulkdorlar va kolxoz ishchilariga berildi. 1995 yildan beri chet elliklar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan majburiy foydalanish sharti bilan 5 yil davomida sotib olish imkoniga ega bo‘ldilar. 2011 yildan boshlab yer islohoti hech qanday cheklovlarsiz chet elliklar uchun mutlaqo ochiq bo‘ldi. Mutaxassislar buni ijobiy baholashdi. Chunki xorijiy investitsiyalarni jalb qilish qishloqlarni rivojlantirishga yordam beradi. Estoniyada erkin yer islohoti mavjud bo‘lsada, fuqarolar yoki chet elliklar tomonidan yerni ommaviy sotib olish yo‘q. Shuning uchun yerning 60 foizi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan ijaraga olingan va 5 foizi chet elliklarga tegishli.

Avstraliya dunyodagi eng yirik don mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchilardan biri hisoblanadi. 1975 yildan beri chet elliklar qishloq xo‘jaligi yerlarini bepul sotib olishdi. Avstraliyada yer islohoti liberal va ochiq, ammo unchalik faol emas. Endilikda mamlakatda haydaladigan yerlarning yetishmasligi va ularning asta-sekin sho‘rlanishi kuzatilmoqda. Biroq Avstraliya

yerlari organik mahsulotlarni yetishtirish uchun xitoylik sarmoyadorlarni qiziqtiradi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida yer islohoti yerlarni qayta taqsimlash va yer egalari va yerdan foydalanuvchilar o'rtasidagi tengsizlikni bartaraf etish maqsadida amalga oshirildi. Hozirda 93 foiz yer xususiy mulkka ega. Bugungi kunda bozor liberal va ochiq, deyarli barcha cheklovlar olib tashlandi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga egalik qilish qonunlari turli shtatlarda farq qiladi, ammo ular biznesni qo'llab-quvvatlashga va rivojlantirishga qaratilgan.

Mustaqil o'rganish uchun savollar

1. Yer munosabatlarini tarixiy shakllanishiga nima turtki bo'lgan?
2. O'zbekistonda qadimda yer munosabatlari qanday shakllangan?
3. Amir Temur davrida yerlardan foydalanganlik uchun soliqlar qay tarzda undirilgan?
4. Qadimgi xonliklar davrida yer munosabatlari qanday shakllangan va rivojlangan?
5. Respublikada amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning bosqichlari va yo'nalishlariga tavsif bering.
6. Agrar islohotlarning zarurligini nimalar taqozo qiladi?
7. Agrar islohotlar o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi?
8. Agrar islohotlar qanday bosqichlarda amalga oshirildi?
9. Qishloq xo'jaligida maxsulot ishlab chiqaruvchilar erkinligini ta'minlash xamda bozor munosabatlarini shakllantirishda agrar islohotlar qanday rol o'ynadi?

2-BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YAGONA YER FONDI VA UNDAN FOYDALANISH.

4-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YER FONDI VA UNDAN FOYDALANISH.

4.1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YER FONDI VA UNI TAQSIMLANISHI

O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining 2019 yil 1 yanvar holati to'g'risida Milliy hisobot O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi tomonidan hisobot yilida korxona, muassasa, fermer xo'jaliklari va tashkilotlarning yerlaridagi barcha o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hamda tuman, shahar va viloyat hokimlarining qarorlari bilan tasdiqlangan yillik yer hisobotlarini respublika bo'yicha umumlashtirish natijasida tuziladi.

2019 yil 1 yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 44896,9 ming gektarni tashkil qiladi. Respublika bo'yicha korxona, tashkilot, muassasa, fermer xo'jaligi va fuqarolar foydalanishidagi jami yerlar 44892,4 ming gektarni, shundan sugoriladigan yerlar esa 4306,6 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,6 foizini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi yer fondi yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 8-moddasiga binoan 8 ta toifaga bo'linadi. Yer fondining toifalar bo'yicha taqsimlanishi.

Yer fondining toifalari bo'yicha taqsimlanishi 4.1-jadvalda va 4.1-rasmda hamda yer fondining yer turlari bo'yicha taqsimlanishi 4.2-jadval va 4.2-rasmda ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari bo'yicha taqsimlanishi

(ming ga. hisobida)

T/r	Yer fondining toifalari	Umumiy yer maydon		Shu jumladan, sug'oriladigan yerlar	
		Jami	Foiz hisobida	Jami	Foiz hisobida
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	20261,6	45,13	4198,9	9,35
2	Aholi punktlarining yerlari	221,2	0,49	50,9	0,11
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar yerlar	857,1	1,91	12,4	0,03
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	704,4	1,57	0,6	0,001
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	14,3	0,03		
6	O'rmon fondi yerlari	11153,3	24,84	41,8	0,09
7	Suv fondi yerlari	833,7	1,86	4,7	0,01
8	Zaxira yerlar	10846,8	24,16	2,2	0,005
	Jami yerlar:	44892,4	100	4311,5	9,6



O'zbekiston Respublikasidagi jami foydalaniladigan yerlar maydoni (ming ga. hisobida)

T/r	Respublika, shahar va viloyatlarning nomi	Umumiy yer maydoni		Ekin yerlar		Ko'p yillik daraxtzorlar		Bo'z yerlar		Pichanzor va yaylovlar		Jami qishloq xo'jalik yerlari		Tomorqa yerlari		O'rmonzor- lar		Bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik uyushma- larining yerlari		Butazorlar	Boshqa yerlar
		jami	shu jumladan sug'oriladigani	jami	shu jumladan sug'oriladigani	jami	shu jumladan sug'oriladigani	jami	shu jumladan sug'oriladigani	jami	shu jumladan sug'oriladigani	jami	shu jumladan sug'oriladigani	jami	shu jumladan sug'oriladigani	jami	shu jumladan sug'oriladigani	jami	shu jumladan sug'oriladigani		
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	16656,1	510,5	418,5	418,5	8	8	11,2	11,2	5278,4	36,6	5716,1	474,3	47,6	35,2	1075	0,9	0,1	0,1	105,1	9712,2
2	Andijon	430,3	273,5	202,4	202,4	30,2	30,2	2,8	0,7	21,2	0,9	256,6	234,2	47,8	35,1	3,9	3,9	0,3	0,3		121,7
3	Buxoro	4193,7	274,7	199,7	199,7	20,6	20,6	6,9	6,9	2540,8		2768	227,2	58,7	45,5	334,6	1,8	0,3	0,2	45,4	986,7
4	Jizzax	2117,9	300,4	480,8	260,7	18,5	16,1	8,2	0,7	757,7		1265,2	277,5	31,8	18,1	164,1	4,8	0,1			656,7
5	Qashqadaryo	2856,8	515,1	678,4	419,8	37,1	34,9	21,9	4,6	1407,3	0,1	2144,7	459,4	80	49,1	164,3	6,2	0,3	0,4		467,5
6	Navoiy	10937,5	123,5	111,5	91,7	10,4	9,7	6,8	6,6	8737,7		8866,4	108	19,9	13,4	1270,5	1,8	0,7	0,3		780
7	Namangan	718,1	283,2	191,5	191,5	44	44	2,5	2,5	151,2		389,2	238	49,9	40,7	23,4	4,4	0,1	0,1		255,5
8	Samarqand	1677,3	380,2	428,8	246,5	69,5	64,8	5,2		797,3		1300,8	311,3	86,5	62,6	13	6	0,7	0,3		276,3
9	Surxondaryo	2009,9	325,6	279,8	239,9	33,3	31,9	0,3		830,3		1143,7	271,8	62,9	50,5	233,8	3,3			0,1	569,4
10	Sirdaryo	427,6	287,2	249,9	249,9	7	7	10,4	10,4	20,2		287,5	267,3	19,2	15,2	4,5	4,6	0,1	0,1		116,3
11	Toshkent	1525,4	399,2	331,8	297,8	50,5	42	0,8	0,4	440,2	1,5	823,3	341,7	62,3	51,5	83,5	2,5	3,6	3,5	2,1	550,6
12	Farg'ona	700,5	368,7	247,7	247,7	49,4	49,4			23,5	3,9	320,6	301	71,8	52,9	14,6	13,9	0,9	0,9		292,6
13	Xorazm	608,2	265,9	205,5	205,5	13,1	13,1	3,8	3,8	109,4		331,8	222,4	51,3	43,1	57,5	0,3	0,1	0,1		167,5
14	Toshkent sh.	33,1	3,8	0,1	0,1							0,1	0,1	6,9	3,7						26,1
	Jami:	44892,4	4311,5	4026,4	3271,7	391,6	371,7	80,8	47,8	21115,2	43	25614	3734,2	696,6	516,6	3442,7	54,4	7,3	6,3	152,7	14979,1

1. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar

Qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berib qo‘yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar hisoblanadi. Ushbu maqsadlar uchun mo‘ljallangan yerlar qishloq xo‘jaligini yuritish uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo‘jalik yo‘llari, kommunikatsiyalar, o‘rmonlar, yopiq suv havzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallagan yerlarga ajraladi.

Shuningdek, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, bo‘z yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar (bog‘lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt ko‘chatzorlari, mevazorlar va boshqalar) egallagan yerlar ham qishloq xo‘jaligi yerlari jumlasiga kiradi.

Respublikada qishloq xo‘jaligi korxonalari va tashkilotlarining soni fermer xo‘jaliklari bilan birgalikda olganda, 2018 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, **166708 ta** bo‘lib, ularga biriktirib berilgan yerlarning umumiy yer maydoni **20261,6 ming** gektarni, shu jumladan qishloq xo‘jalik yer turlari maydoni **15543,7 ming** gektarni, shundan **3702,4 ming** gektari sug‘oriladigan yerlarni tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududining **44,73 foizini** qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar egallagan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda asosiy vosita hisoblanadi. Respublika hududida qishloq xo‘jaligi maqsadlariga mo‘ljallangan yerlarning taqsimlanishi tabiiy iqlim omillariga binoan belgilanadi.




Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarining yer turlari bo'yicha taqsimlanishi

(ming ga. hisobida)

T/r	Respublika, shahar va viloyatlarning nomi	Umumiy yer maydoni		Ekin yerlar			Ko'p yillik daraxtzorlar		Bo'z yerlar		Pichanzor va yaylovlar		Jami qishloq xo'jalik yerlari		Tomorqa hamda bog'dorchilik- uzumchilik va sabzavotchilik uyushmalari yerlari		Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	O'rmonzorlar		Butazorlar	Boshqa yerlar
		jami	shu jumladan: sug'oriladigani	jami	shu jumladan: sug'oriladigani	lalmi	jami	shu jumladan: sug'oriladigani	jami	shu jumladan: sug'oriladigani	jami	shu jumladan: sug'oriladigani	jami	shu jumladan: sug'oriladigani	jami	shu jumladan: sug'oriladigani		jami	shu jumladan: sug'oriladigani		
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	3166,9	497,2	415,6	415,6	0	7,8	7,8	9,4	9,4	1709,4	34,3	2142,2	467,1	35,7	29,5	25,3	49,7	0,6	44,2	869,8
2	Andijon	365,1	265	201,4	201,4	0	29,6	29,6	2,5	0,7	17,9	0,8	251,4	232,5	40,8	30,6	1	1,9	1,9		70
3	Buxoro	3414,1	271,7	199,3	199,3	0	20,2	20,2	6,5	6,5	2317,8		2543,8	226	57,3	44,8	4	7,9	0,9	5,1	796
4	Jizzax	1423,7	295,3	477,7	259,5	218,2	17	15,6	8,1	0,7	657,2		1160	275,8	28,5	15,8	6,1	9,9	3,7		219,2
5	Qashqadaryo	2337,8	507,7	675,4	418,5	256,9	36,4	34,3	20,8	4,6	1224,2	0,1	1956,8	457,5	74,7	46	18,7	11	4,2		276,6
6	Navoiy	4095,3	120,8	109,3	91,2	18,1	9,9	9,2	6,7	6,5	3462,7		3588,6	106,9	18,7	12,8	2	1,1	1,1		484,9
7	Namangan	495,4	269,6	190	190	0	42	42	2,5	2,5	48,3		282,8	234,5	40	32,8	0,8	5,1	2,3		166,7
8	Samarqand	1478,1	369,7	425,4	245,6	179,8	65,1	63,8	5,2		707,3		1203	309,4	79,5	58	3,6	4,5	2,3		187,5
9	Surxondaryo	1366,3	319,3	278,1	238,8	39,3	32,2	31,1	0,3		698,1		1008,7	269,9	58,8	47,8	1,3	29,4	1,6		268,1
10	Sirdaryo	372,2	280,8	248	248	0	7	7	9,9	9,9	18,8		283,7	264,9	17,3	14	3,2	1,9	1,9		66,1
11	Toshkent	775,7	385,1	327,7	296,3	31,4	48,8	40,5	0,7	0,4	201,9	1,5	579,1	338,7	53,8	45	0,2	7,9	1,4	1	133,7
12	Farg'ona	562	354,4	246,9	246,9	0	48,1	48,1			19	3,5	314	298,5	64,9	49	1,8	6,9	6,9		174,4
13	Xorazm	408,9	262,2	204,1	204,1	0	12,7	12,7	3,8	3,8	8,9		229,5	220,6	48,8	41,4	1,1	19,4	0,2		110,1
14	Toshkent shahri	0,1	0,1	0,1	0,1	0							0,1	0,1							
	Jami:	20261,6	4198,9	3999	3255,3	743,7	376,8	361,9	76,4	45	11091,5	40,2	15543,7	3702,4	618,8	467,5	69,1	156,6	29	50,3	3823,1

1.1.2. Aholi punktlarining yerlari

Aholi punktlarining yerlari ma'muriy-hududiy birlik bo'lib, davlat yer fondining boshqa toifalaridan o'ziga xos xususiyatlari, huquqiy holati, foydalanishning asosiy maqsadiga ko'ra ajralib turadi, ularga shu maqsadlar uchun qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan shahar (posyolka) va qishloq aholi punktlari yerlari kiritilgan. Aholi punktlari yerlarining 2018 yil 1 yanvar holatiga umumiy yer maydoni **221,2 ming** gektarni yoki jami yerlarning **0,49 foizini** tashkil qiladi. Aholi punktlari yerlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha taqsimlanishi 4.1.2.1- jadvalda ko'rsatilgan.




Аҳоли пунктлари ерларининг Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри бўйича тақсимланиши

4.1.2.1-жадвал
(минг га. ҳисобида)

Т/р	Республика, шаҳар ва вилоятларнинг номи	Умумий ер майдони		Экин ерлар		Кўп йиллик дарахтзор- лар		Бўз ерлар		Пичанзор ва яйловлар		Жами қишлоқ хўжалик ерлари		Томорка ерлар	Ўрмонзорлар		Боғдорчилик- узумчилик ва сабзавотчилик уюшмаларини нг ерлари		Бутazorлар	Бошқа ерлар
		жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан: суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани		жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани		
1	Қорақалпоғистон Республикаси	36,4	5,7							5,1		5,1		11,8						19,5
2	Андижон	11,9	4,6											6,8	0,2	0,2				4,9
3	Бухоро	7,8	0,8			0,1	0,1					0,1	0,1	1,3						6,4
4	Жиззах	10,3	2,1	0,1						0,4		0,5		3			0,1	0,1		6,7
5	Қашқадарё	11,5	3,9	0,5	0,4	0,2	0,2			0,2		0,9	0,6	5	0,3	0,1	0,2	0,2		5,1
6	Навоий	15,6	0,7			0,1	0,1			4,2		4,3	0,1	1,2						10,1
7	Наманган	19,5	7,9	0,1	0,1	0,5	0,5			0,1		0,7	0,6	9,3						9,5
8	Самарқанд	19,7	4,7			0,1	0,1			0,9		1	0,1	6,4	0,2	0,1	0,1	0,1		12
9	Сурхондарё	10,7	2,5			0,1	0,1					0,1	0,1	3,5						7,1
10	Сирдарё	8,1	2,1											1,9	0,8	0,8	0,1	0,1		5,3
11	Тошкент	37,9	6,5	0,2	0,2					1,3		1,5	0,2	7,9	0,9	0,3				27,6
12	Фарғона	16,7	4,2	0,1	0,1							0,1	0,1	6,7	0,3	0,3	0,1	0,1		9,5
13	Хоразм	6,3	1,5											2,3	0,1					3,9
14	Тошкент ш.	8,8	3,7											6,9						1,9
	Жами:	221,2	50,9	1	0,8	1,1	1,1			12,2		14,3	1,9	74	2,8	1,8	0,6	0,6		129,5


1.1.3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar

Ushbu yer toifasi tarkibiga sanoat korxonalariga, shu jumladan, kon sanoati, energetika korxonalariga ishlab chiqarish va yordamchi binolar hamda inshootlar qurish uchun doimiy foydalanishga berilgan, temiryo'l, ichki suv transporti, avtomobil, havo va truboprovod transporti; aloqa liniyalarini hamda ularga tegishli inshootlarni joylashtirish uchun aloqa, radio eshittirish, televidenie va axborot, qurolli kuchlar, chegara, ichki ishlar va temiryo'l qo'shinlarining harbiy qismlari, harbiy o'quv yurtlari, korxonalari, muassasalari va tashkilotlari joylashgan, mudofaa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan yerlar va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar kiradi. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlarning 2018 yil 1 yanvar holatiga umumiy yer maydoni **857,1 ming** gektar yoki respublika yer fondining **1,91 foizini** tashkil qiladi. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlarning taqsimlanishi 4.1.3.1-jadvalda ko'rsatilgan.



(ming ga hisobida)

T/r	Respublika, shahar va viloyatlarning nomi	Umumiy yer maydoni	Ekin yerlar	Ko'p yillik daraxtzorlar					Boʻz yer, pichanzor va yaylovlar	Jami qishloq xoʻjalik yerlari	Tomorqa hamda bogʻdorchilik-uzumchilik va sabzovotchilik uyushmalarining yerlari	Oʻrmonzorlar	Boshqa yerlar
				Jami	shu jumladan								
					Bogʻlar	uzumzorlar	tutzorlar	koʻchatzorlar va boshqa					
1	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	177,5							0,1	0,1	0,1	0,1	177,2
2	Andijon	19,8									0,4		19,4
3	Buxoro	89,7	0,1	0,2	0,1		0,1		42	42,3	0,3	0,5	46,6
4	Jizzax	26,2	0,1						7,7	7,8		0,4	18,0
5	Qashqadaryo	66,6		0,2	0,2				9,1	9,3	0,1	2,9	54,3
6	Navoiy	56,5	0,1	0,1		0,1			1,3	1,5	0,7		54,3
7	Namangan	51,5	1	0,7	0,6	0,1			15,6	17,3	0,3	0,2	33,7
8	Samarqand	83,9	0,1	0,1	0,1				54	54,2	0,7	0,3	28,7
9	Surxondaryo	104,8	0,1	0,1	0,1				17,1	17,3	0,1	8,1	79,3
10	Sirdaryo	11,1	0,4							0,4			10,7
11	Toshkent	79	2	0,5	0,5				4,8	7,3	4	0,4	67,3
12	Fargʻona	50,2	0,1	0,1	0,1				0,8	1,0	0,9	0,1	48,2
13	Xorazm	18,2	0,5	0,2	0,1			0,1	0,1	0,8	0,2	1,8	15,4
14	Toshkent sh.	22,1											22,1
	JAMI:	857,1	4,5	2,2	1,8	0,2	0,1	0,1	152,6	159,3	7,8	14,8	675,2



1.1.4. Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar

Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlarga-davlat qo'riqxonalari, milliy tarixiy-tabiiy va yodgorlik bog'lari, zakazniklar, tabiat yodgorliklari, dendrologiya bog'lari, botanika bog'lari, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan yerlar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalanishga berilgan yer uchastkalari kiradi. Bu toifadagi yerlar maydonining asosiy qismini qo'riqxonalar va milliy hamda dendrologiya bog'lari egallaydi. Bularning barchasi alohida muhofaza etiladigan hududlar hisoblanadi va ularning foydalanish maqsadiga zid faoliyat ta'qiqlanadi. Foydalanish maqsadi - tabiiy jarayon va hodisalarni, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ularning nodir va noyob turlarini tabiiy holatda saqlab qolish, sonini ko'paytirish va o'rganish, tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yerlarda kasalliklarning oldini olish va davolashni tashkil etish, turizm va aholining ommaviy dam olishini tashkil etishdan iboratdir.

Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlarning 2018 yil 1 yanvar holatiga umumiy maydoni **704,4 ming** gektarni tashkil qiladi. Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlarning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi 4.1.4.1-jadvalda ko'rsatilgan.



**Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga
mo'ljallangan yerlarning Qoraqalpog'iston Respublikasi, shahar va viloyatlar
bo'yicha taqsimlanishi**

(ming.ga hisobida)

T/r	Respublika, shahar va viloyatlarning nomi	Umumiy yer maydoni	Ekin yerlar	Ko‘p yillik daraxtzorlar				Pichanzorlar	Yaylovlar	Jami qishloq xo‘jalik yerlari	O‘rmonzorlar	Boshqa yerlar
				Jami	shu jumladan							
					bog‘lar	uzumzorlar	tutzorlar					
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	628,7	0,1							0,1		628,6
2	Andijon	0,7									0,1	0,6
3	Buxoro	0,1										0,1
4	Jizzax	64,4		0,1		0,1			7,1	7,2	0,2	57,0
5	Qashqadaryo											
6	Navoiy	8,5							8,3	8,3		0,2
7	Namangan	0,3		0,1	0,1					0,1		0,2
8	Samarqand	0,1										0,1
9	Surxondaryo	0,2										0,2
10	Sirdaryo	0,1										0,1
11	Toshkent	0,4							0,1	0,1	0,1	0,2
12	Farg‘ona	0,4		0,1	0,1					0,1	0,1	0,2
13	Xorazm	0,2										0,2
14	Toshkent sh.	0,3										0,3
	JAMI:	704,4	0,1	0,3	0,2		0,1		15,5	15,9	0,5	688,0

1.1.5. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar

Tarixiy–madaniy ahamiyatga molik yerlar jumlasiga tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar, memorial bog‘lar, qabristonlar, arxeologiya, tarix va madaniyat yodgorliklariga tegishli muassasalar hamda tashkilotlar uchun doimiy foydalanishga berilgan yerlar kiradi va ular alohida muhofaza qilinadi. Respublikamizda tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yer maydonlari tarkibiga kiruvchi alohida muhofaza qilinadigan jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan tarixiy, arxeologik, me‘morlik va badiiy hamda madaniy yodgorliklar saqlanadi. Jumladan, Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo‘qon, Shaxrisabz va Termiz shaharlarida joylashgan tarixiy topilma va arxeologik manbalar Respublikamiz hududida takrorlanmas boyliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Bunday betakror tarixiy yodgorliklar xalqimiz va ona yerimizning oltin fondi sifatida asrab-avaylab kelinmoqda.

Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlarning 2018 yil 1 yanvar holatiga umumiy yer maydoni **14,3 ming** gektarni tashkil qiladi. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlarning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi 4.1.5.1-jadvalda ko‘rsatilgan.



Tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlar

(ming.ga hisobida)

T/r	Respublika, shahar va viloyatlarning nomi	Umumiy yer maydoni	Ekin yerlar	Ko‘p yillik daraxtzorlar					Bo‘z yerlar	Pichanzorlar va yaylovlar	Jami qishloq xo‘jalik yerlari	Boshqa yerlar
				jami	shu jumladan:							
					bog‘lar	uzumzorlar	tutzorlar	mevali ko‘chatzorlar va boshqa daraxtzorlar				
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2,8										2,8
2	Andijon	0,1										0,1
3	Buxoro	0,5										0,5
4	Jizzax	1,8										1,8
5	Qashqadaryo	2,5										2,5
6	Navoiy	0,8										0,8
7	Namangan	2,3										2,3
8	Samarqand	0,4										0,4
9	Surxondaryo	0,5										0,5
10	Sirdaryo											
11	Toshkent	2,0										2,0
12	Farg‘ona											
13	Xorazm	0,1										0,1
14	Toshkent sh.	0,5										0,5
	JAMI:	14,3										14,3

4.1.6. O‘rmon fondi yerlari

O‘rmon fondi yerlari alohida ekologik ahamiyatga ega bo‘lib, o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek, o‘rmon bilan qoplanmagan bo‘lsa ham, o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlardir. O‘rmon fondi yerlarining 2018 yil 1 yanvar holatiga umumiy yer maydoni **11153,3 ming** gektarni yoki jami yer maydonining **24,84 foizini** tashkil qiladi. O‘rmon fondi yerlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi 4.1.6.1-jadval va 4.1.6.1-rasmda ko‘rsatilgan.

O‘rmon fondi yerlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi

(ming ga hisobida)

T/r	Respublika va viloyatlarning nomi	Umumiy yer maydoni	Ekin yerlar	Ko‘p yillik daraxtzorlar					Bo‘z yerlar	Pichanzorlar va yaylovlar	Jami qishloq xo‘jalik yerlari	Tomorqa yerlar	O‘rmonzorlar	Boshqa yerlar
				jami	shu jumladan:									
					bog‘lar	uzumzorlar	tutzorlar	mevali ko‘chatzorlar va boshqa daraxtzorlar						
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5751,6	2,8	0,2	0,1			0,1	1,4	736,1	740,5	0,1	1009,2	4001,8
2	Andijon	7,7	0,6	0,2	0,2				0,3	2,2	3,3		1,6	2,8
3	Buxoro	614,4	0,3	0,1		0,1			0,4	181,0	181,8	0,1	326,1	106,4
4	Jizzax	275,8	2,5	1,3	1,2			0,1	0,1	82,1	86,0	0,3	153,5	36
5	Qashqadaryo	398,3	2,3	0,3	0,2			0,1	1,1	172,7	176,4	0,3	150,1	71,5
6	Navoiy	2902,0	1,8	0,3	0,1			0,2	0,1	1593,8	1596,0		1269,3	36,7
7	Namangan	125,2	0,1	0,4	0,2		0,1	0,1		86,5	87,0	0,3	17,7	20,2
8	Samarqand	56,3	2,9	4,0	3,9			0,1		31,8	38,7	0,4	7,7	9,5
9	Surxondaryo	321,0	1,5	0,6			0,1	0,5		68,0	70,1	0,4	171,3	79,2
10	Sirdaryo	9,1	1,3						0,4	1,4	3,1		1,8	4,2
11	Toshkent	589,9	1,8	1,2	1,1			0,1		228,0	231,0	0,2	74,0	284,7
12	Farg‘ona	14,7	0,3	1,0	0,9			0,1		0,5	1,8	0,1	7,1	5,7
13	Xorazm	87,3	0,2	0,1				0,1		50,9	51,2		32,6	3,5
14	Toshkent sh.													0
	Jami:	11153,3	18,4	9,7	7,9	0,1	0,2	1,5	3,8	3235,0	3266,9	2,2	3222,0	4662,2

1.1.7. Suv fondi yerlari

Suv havzalari, daryolar, ko'llar, suv omborlari, gidrotexnik va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallab turgan, shuningdek, suv havzalari va boshqa suv ob'ektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqadagi suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan yerlar suv fondi yerlari toifasiga kiradi.

Suv fondi yerlari 2018 yil 1 yanvar holatiga jami **833,7 ming** gektarni yoki umumiy yer maydonining **1,86 foizini** tashkil qiladi. Suv fondi yerlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi 4.1.7.1-jadvalda ko'rsatilgan.

Suv fondi yerlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi

(ming ga hisobida)

(ming ga hisobida)												
T/r	Respublika, shahar va viloyatlarning nomi	Umumiy yer maydoni	Ekin yerlar	Ko‘p yillik daraxtzorlar				Bo‘z yer, pichanzor va yaylov yerlar	Jami qishloq xo‘jalik yerlari	Tomorqa yerlar	O‘rmonzorlar	Boshqa yerlar
				jami	shu jumladan:							
					bog‘lar	uzumzorlar	tutzorlar					
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	57,4						0,1	0,1		0,9	56,4
2	Andijon	18,8	0,3	0,2	0,2				0,5	0,1	0,1	18,1
3	Buxoro	66,3										66,3
4	Jizzax	310,3						1,9	1,9		0,1	308,3
5	Qashqadaryo	36,2	0,2					0,7	0,9			35,3
6	Navoiy	183,4						6,6	6,6			176,8
7	Namangan	22	0,3	0,3	0,1		0,2		0,6	0,1	0,4	20,9
8	Samarqand	27	0,4	0,2		0,1	0,1	0,6	1,2	0,1	0,3	25,4
9	Surxondaryo	24	0,1						0,1	0,1	0,1	23,7
10	Sirdaryo	26,9	0,2						0,2		0,1	26,6
11	Toshkent	16,3										16,3
12	Farg‘ona	20,6	0,3	0,1	0,1				0,4		0,1	20,1
13	Xorazm	23,4	0,7	0,1	0,1				0,8	0,1	0,1	22,4
14	Toshkent sh.	1,1										1,1
	JAMI:	833,7	2,5	0,9	0,5	0,1	0,3	9,9	13,3	0,5	2,2	817,7

4.1.8. Zaxira yerlar

Zaxira yerlarga egalik qilish, foydalanish hamda ijara maqsadida, yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan hamda boshqa yer toifalarida hisobga olinmagan barcha yerlar kiradi. Zaxira yerlar asosan qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga berishga mo'ljallanadi. 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'ra zaxira yerlarning umumiy yer maydoni **10846,8 ming** gektar yoki umumiy yer maydonining **24,16 foizini** tashkil etadi. Zaxira yerlarning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi 4.1.8.1-jadvalda ko'rsatilgan.

Zaxira yerlarning Qoraqalpog'iston Respublikasi, shahar va viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi

(ming. ga hisobida)

T/r	Respublika, shahar va viloyatlarning nomi	Umumiy yer maydoni	Ekin yerlar	Ko'p yillik daraxtzorlar				Bo'z yerlar	Pichanzor va yaylovlar	Jami qishloq xo'jalik yerlari	O'rmonzorlar	Boshqa yerlar
				Jami	shu jumladan:							
					bog'lar	uzumzorlar	tutazorlar					
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	6834,8						0,4	2827,6	2828	15,0	3991,8
2	Andijon	6,2	0,1	0,2	0,2				1,1	1,4		4,8
3	Buxoro	0,8										0,8
4	Jizzax	5,4	0,4	0,1	0,1				1,3	1,8		3,6
5	Qashqadaryo	3,9							0,4	0,4		3,5
6	Navoiy	3675,4	0,3						3660,8	3661,1	0,1	14,2
7	Namangan	1,9							0,7	0,7		1,2
8	Samarqand	11,8							2,7	2,7		9,1
9	Surxondaryo	182,4		0,3	0,3				47,1	47,4	24,9	110,1
10	Sirdaryo	0,1						0,1		0,1		
11	Toshkent	24,2	0,1						4,2	4,3	0,2	19,7
12	Farg'ona	35,9							3,2	3,2		32,7
13	Xorazm	63,8							49,5	49,5	3,5	10,8
14	Toshkent sh.	0,2										0,2
JAMI:		10846,8	0,9	0,6	0,6			0,5	6598,6	6600,6	43,7	4202,5

4.2. YER FONDINING TOIFALARI VA YER TURLARI BO‘YICHA TAQSIMLANISHI

O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra, 8 ta toifaga bo‘linadi hamda uning tarkibida asosiy yer turlari quyidagilar:

1. Qishloq xo‘jaligi yerlari (ekin yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar, bo‘z yerlar, pichanzor va yaylovlar).
2. Tomorqa yerlar.
3. O‘rmonzorlar.
4. Bog‘dorchilik-uzumchilik va sabzavotchilik uyushmalari yerlari.
5. Meliorativ holatini yaxshilash bosqichidagi yerlar.
6. Boshqa yerlar.

Yer fondi tarkibining asosiy yer turlari bo‘yicha 2013 yilning 1 yanvaridan 2018 yil 1 yanvarigacha bo‘lgan taqsimlanishi 4.2.1-jadvalda ko‘rsatilgan.

4.2.1-jadval

Yer fondi tarkibining asosiy yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi

(ming ga hisobida)


T/r	Yer turlari	2013 yil 1 yanvar holatiga	2014yil 1 yanvar holatiga	2015 yil 1 yanvar holatiga	2016 yil 1 yanvar holatiga	2017 yil 1 yanvar holatiga	2018 yil 1 yanvar holatiga	2017 y 01.01 2018 y.01.01 farqi +/-
1	Qishloq xo‘jalik yer turlari	25251,5	25140,5	25621,4	25630	25625,2	25614	-11,2
	shu jumladan, sug‘oriladigani	3738,2	3740,1	3732,2	3736,8	3736,2	3734,2	-2,0
	-ekin yerlar	4062,5	4055,3	4043,6	4040,8	4035,3	4026,4	-8,9
	shu jumladan, sug‘oriladigani	3305,2	3298,5	3288,2	3284,5	3279,4	3271,7	-8,4
	-ko‘p yillik daraxtzorlar,	358,3	367,9	371,9	380,8	385,6	391,6	6,0
	shu jumladan, sug‘oriladigani	343,0	351,5	354,1	362,4	367	371,7	4,7
	-bo‘z yerlar	80,4	80,4	80,3	80,0	79,9	80,8	0,9

	shu jumladan, sugʻoriladigani	47,0	47,1	46,9	46,9	46,8	47,8	1,0
	-pichanzor va yaylovlar	20750,3	20636,9	21125,6	21128,4	21124,4	21115,2	-9,2
	shu jumladan, sugʻoriladigani	43,0	43,0	43,0	43,0	43	43	0
2	Tomorqa yerlar	691,7	692,2	693,0	694,0	695,3	696,6	1,3
	shu jumladan, sugʻoriladigani	514,8	514,9	515,5	515,7	516,4	516,6	0,2
3	Oʻrmonzor va butazorlar	3335,3	3453,4	3543,3	3549,4	3586,3	3595,3	9,0
	shu jumladan, sugʻoriladigani	52,6	52,8	53,9	53,4	53,9	54,4	0,5
4	Bogʻdorchilik-uzumchilik va sabzavotchilik uyushmalari yerlari	7,4	7,4	7,4	7,3	7,3	7,3	0
	shu jumladan, sugʻoriladigani	6,6	6,6	6,5	6,5	6,4	6,3	-0,1
5	Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	72,7	72,7	72,6	72,3	72,1	72	-0,1
6	Boshqa yerlar	15051,7	15044,1	14954,7	14939,4	14906,2	14907,2	1,0
	Jami yerlar:	44410,3	44410,3	44892,4	44892,4	44892,4	44892,4	0
	shu jumladan, sugʻoriladigani	4312,2	4314,4	4308,1	4312,4	4312,9	4311,5	-1,4

1. Qishloq xoʻjaligi yer turlari

Qishloq xoʻjalik yer turlari qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar ichida alohida oʻrinni egallaydi. Shundan, ekin yerlar, koʻp yillik daraxtzorlar (bogʻlar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt koʻchatzorlari va mevazorlar), boʻz yerlar, pichanzor va yaylovlarga boʻlinadi.

2018 yil 1 yanvar holatiga ularning yer maydoni 25614 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 57 foizini, shundan sugʻoriladigan qishloq xoʻjalik yer turlari jami 3734,2 ming gektarni tashkil etadi. Sugʻoriladigan qishloq xoʻjalik yer turlarining respublika boʻyicha oʻzgarishi 4.2.1.1-rasmda koʻrsatilgan.



4.2.1.1-rasm. Qishloq xo'jalik yer turlarining respublika bo'yicha 2013 yilning 1 yanvaridan 2018 yil 1 yanvargacha bo'lgan o'zgarishi.

4.2.1.1. Ekin yerlar

Sug'oriladigan yerlar:

Qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerlarni sug'orishni ta'minlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan doimiy yoki muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlar sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi.

Qishloq va suv xo'jaligi organlari sug'oriladigan yeri bo'lgan yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni sug'orish ishlari uchun manbalarning sersuvligini hisobga olgan holda, joriy etilgan limitlar bo'yicha suv to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan tartibda suv bilan ta'minlashlari shart.

Sug'oriladigan yerlar maxsus muhofaza qilinishi lozim.

Alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar:

Kadastr baholanishiga ko'ra o'rtacha tuman bonitet ballidan 20 foizdan ko'p bo'lgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi. Alohida qimmatga ega bo'lgan

unumdor sugʻoriladigan yerlar maxsus muhofaza qilinishi lozim va ularning sugʻorilmaydigan yerlar jumlasiga oʻtkazilishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Alohida qimmatga ega boʻlgan unumdor sugʻoriladigan qishloq xoʻjalik yerlarini korxonalar, binolar va inshootlar qurilishi uchun berishga alohida hollarda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan yoʻl qoʻyiladi.

Ekin yerlarga qishloq xoʻjalik ekinlari ekilib, uzluksiz foydalaniladigan barcha haydalma yerlar kiradi. Ekin yerlari ikki turga: sugʻoriladigan va lalmi yerlarga boʻlinadi.

Respublika boʻyicha 2018 yil 1 yanvar holatiga ekin yerlar jami 4026,4 ming gektarni shu jumladan, sugʻoriladigan ekin yerlarning umumiy yer maydoni 3271,7 ming gektar yoki qishloq xoʻjalik yer turlarining 12,8 foizini, lalmi ekin yerlarning umumiy maydoni 754,7 ming gektarni yoki qishloq xoʻjalik yer turlarining 2,9 foizini tashkil etadi. Sugʻoriladigan ekin yerlarining Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar boʻyicha

2013-2018 yillar davomida oʻzgarishi 4.2.1.1-jadvalda va 4.2.1.2-rasmda koʻrsatilgan.

4.2.1.1-jadval

Sugʻoriladigan ekin yerlarining Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar boʻyicha oʻzgarishi


(ming ga hisobida)

T/r	Respublika, shahar va viloyatlarning nomi	Tegishli yillarning 1 yanvar holatiga yer maydonlari						2017 yilga nisbatan farqi (+;-)
		2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	
1	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	423,6	423,4	417,0	418,1	418	418,5	0,5
2	Andijon	203,5	203,3	202,7	203	202,5	202,4	-0,1
3	Buxoro	200,6	200,7	200,8	200,8	201,2	199,7	-1,5
4	Jizzax	263,7	262,6	262,1	261,4	261,1	260,7	-0,4
5	Qashqadaryo	421,7	421,2	420,4	420,5	420,5	419,8	-0,7

6	Navoiy	91,0	91	90,7	91,1	91,4	91,7	0,3
7	Namangan	197,7	196,2	194,5	193,1	192,5	191,5	-1
8	Samarqand	253,7	252,7	252,8	251,9	248,9	246,5	-2,4
9	Surxondaryo	241,5	241,2	241,0	240,9	240,4	239,9	-0,5
10	Sirdaryo	250,4	250,4	250,3	249,8	249,7	249,9	0,2
11	Toshkent	303,4	302,1	301,7	299,5	298,9	297,8	-1,1
12	Fargʻona	248,8	248	247,8	247,7	247,7	247,7	
13	Xorazm	205,4	205,3	206,0	206,3	206,2	205,5	-0,7
14	Toshkent sh.	0,2	0,4	0,4	0,4	0,4	0,1	-0,3
	Jami:	3305,2	3298,5	3288,2	3284,5	3279,4	3271,7	-7,7

Yuqoridagi jadvaldan koʻrinib turibdiki, aksariyat viloyatlarda sugʻoriladigan ekin yer maydonlari kamaygan. Bu asosan joylarda davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer ajratish hamda hukumat qarorlari, dasturlari asosida yangi (intensiv) bogʻlar va uzumzorlar barpo qilish hisobidir.

Ming ga



4.2.1.2-rasm. Respublika boʻyicha sugʻoriladigan ekin yer maydonlarining oʻzgarishi

Lalmi yerlar:

Lalmikor yerlarda qishloq xo'jalik ekinlarini o'stirish faqat tuproq qatlamlaridagi yog'inlar hisobiga yig'ilgan namlik evaziga yetishtirilishini hisobga olib, yillik yog'in miqdori o'rtacha 200 mm. dan oshadigan yerlardagina lalmikor ekinlar joylashtiriladi. Lalmikor yerlar tuproq mintaqalarining joylashishiga mos ravishda namlik bilan ta'minlangan, kam ta'minlangan va ta'minlanmagan yerlarga bo'linadi.


Jigarrang va qoramtir bo'z tuproq baland mintaqada joylashgan bo'lib, namlik bilan ta'minlangan, tipik bo'z tuproq o'rta mintaqada tog' oldi zonalariga tarqalgan va namlik bilan kam ta'minlangan va och tusli bo'z tuproqlar quyi mintaqada namlik bilan ta'minlanmagan lalmikor yerlar hisoblanadi.

Lalmi ekin yer maydonlarning respublika viloyatlari bo'yicha taqsimlanishi 4.2.1.2-jadval, 4.2.1.3-rasmlarda ko'rsatilgan.

Respublika viloyatlari bo'yicha lalmi ekin yer maydonlarining taqsimlanishi
(ming ga hisobida)

T/r	Viloyatlarning nomi	Jami lalmi ekin yerlar maydoni
1	Jizzax	220,1
2	Qashqadaryo	258,6
3	Navoiy	19,8
4	Samarqand	182,3
5	Surxondaryo	39,9
6	Toshkent	34
Jami:		754,7

Umumiy yer maydoniga nisbatan lalmikor ekin yer maydonlarining (foiz hisobida) taqsimlanishi.




4.2.1.2. Ko'p yillik daraxtzorlar

Respublika bo'yicha bog'lar, uzumzorlar, tutzorlar hamda boshqa ko'p yillik mevali ko'chatzorlarning 2018 yil 1 yanvar holatiga jami yer maydoni **391,6 ming** gektarni, shu jumladan, sug'oriladigani **371,7 ming** gektarni yoki sug'oriladigan

qishloq xo'jalik yerlari tarkibida ko'p yillik daraxtzorlarning yer maydoni **9,9 foizni** tashkil qiladi.

Shuningdek, sug'oriladigan ko'p yillik daraxtzorlarning eng yuqori solishtirma hajmi Samarqand viloyatida (**17,7 foiz**), Toshkent (**12,9 foiz**), Farg'ona (**12,6 foiz**), Namangan (**11,2 foiz**), Qashqadaryo (**9,5 foiz**), Andijon (**7,7 foiz**) viloyatlariga, eng kami Qoraqalpog'iston Respublikasi (**2,0 foiz**) va Sirdaryo viloyati (**1,7 foiz**)ga to'g'ri keladi. Ko'p yillik daraxtzorlar yer maydonlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi 4.2.1.2.1-rasmda va 4.2.1.2.1-jadvalda ko'rsatilgan.

Ming.ga



4.2.1.2.1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha ko'p yillik daraxtzorlar yer maydonlarining salmog'i, ming. ga hisobida.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ko'p yillik daraxtzorlar tarkibida bog'lar eng katta salmoqni tashkil etib **58,3 foizni**, uzumzorlar **24,7 foizni**, tutzorlar **15,4 foizni** va mevali ko'chatzor va boshqa daraxtzorlar **1,6 foizni** tashkil qiladi. Ko'p yillik lalmikor daraxtzorlar Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida namlik bilan ta'minlangan lalmi yerlarda joylashgan.


Lalmi yerlarga va maxsus tayyorlangan terassalarga joylashgan ko'p yillik daraxtzorlarning yer maydoni **19,9 ming** gektar bo'lib, ulardan bog'lar **14,1 ming**, uzumzorlar **4,9 ming** va boshqa mevali daraxtzorlar **0,9 ming** gektarni tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlariga binoan, mamlakatimizda meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar belgilanib, natijada 2013-2018 yillarda ko'p yillik daraxtzorlar **33,3 ming** gektarga ko'paydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo'yicha ko'p yillik daraxtzorlar yer maydonlarining 2013 yil 1 yanvar holatiga nisbatan o'zgarishi 4.2.1.2.2-jadval va 4.2.1.2.2 - 4.2.1.2.3-rasmlarda ko'rsatilgan.

**Ko'p yillik daraxtzorlar yer maydonlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Toshkent shahri va viloyatlar bo'yicha o'zgarishi**

(ming ga. hisobida)

№	Respublika, shahar va viloyatlar nomi	2013 yil 1 yanvar holatiga		2014 yil 1 yanvar holatiga		2015 yil 1 yanvar holatiga		2016 yil 1 yanvar holatiga		2017 yil 1 yanvar holatiga		2018 yil 1 yanvar holatiga		2013 yilga nisbatan farqi (+/-)	
		jami	Shu jumladan, bog'zorlar	jami	Shu jumladan, bog'zorlar	jami	Shu jumladan, bog'zorlar	jami	Shu jumladan, bog'zorlar	jami	Shu jumladan, bog'zorlar	jami	Shu jumladan, bog'zorlar	jami	Shu jumladan, bog'zorlar
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	8,8	3,2	8,8	3,2	8,9	3,2	8,5	2,8	8,6	2,9	8	2,3	-0,8	-0,9
2	Andijon	29,3	17,3	29,5	17,5	29,8	17,8	29,8	18,8	30,2	19,1	30,2	19,3	0,9	2
3	Buxoro	20,3	7,2	20,2	7,1	19,9	7,1	19,8	7	19,5	7,5	20,6	8,4	0,3	0,8
4	Jizzax	14,4	9,7	15,9	10,8	16,7	11,2	17,5	11,5	17,8	11,6	18,5	12,1	4,1	2,4
5	Qashqadaryo	36,7	17,7	37,0	17,9	37,1	18,0	37,6	18,5	37,5	18,5	37,1	18,2	0,4	0,6
6	Navoiy	10,4	3,4	10,4	3,4	11,1	4,0	10,9	4,3	10,6	4,0	10,4	4,1		0,7
7	Namangan	37,7	23,6	39,1	24,6	41,0	26,2	42,1	27	43,4	28,6	44	29,2	6,3	5,6
8	Samarqand	60,1	21,8	61,4	22,6	61,4	24,8	63,5	26,8	66,4	28,5	69,5	30,7	9,4	8,7
9	Surxondaryo	32,6	12,8	32,6	13,0	32,6	13,1	32,6	13,2	32,9	13,5	33,3	14	0,7	1,2
10	Sirdaryo	7,1	4,8	7,1	4,8	7,1	4,8	7,3	5	7,2	4,9	7	4,8	-0,1	
11	Toshkent	40,9	24,8	44,1	27,5	45,2	28,0	49,1	31,6	49,5	32	50,5	33,2	9,6	8,5
12	Farg'ona	46,3	41,4	48,1	43,1	48,2	43,2	49,5	44,6	49,4	44,6	49,4	44,6	3,1	3,2
13	Xorazm	13,7	7,9	13,7	7,9	12,9	7,2	12,6	7,1	12,6	7	13,1	7,5	-0,6	-0,4
14	Toshkent sh.														
	Jami:	358,3	195,6	367,9	203,4	371,9	208,6	380,8	218,2	385,6	222,7	391,6	228,4	33,3	32,8



4.2.1.2.2-rasm. Respublika bo'yicha ko'p yillik daraxtzorlar yer maydonlarining o'zgarishi.



4.2.1.2.3-rasm. Respublika bo'yicha bog'zor yer maydonlarining o'zgarishi.

4.2.1.3. Bo'z yerlar

Bo'z yerlar tarkibiga samarasiz foydalanish natijasida, sug'orish qoidalarining buzilishi va tuproq-meliorativ holatining yomonlashishi, eroziya ta'siri, kuchli sho'rlanishi, gipslanishi hamda yangi o'zlashtirilgan yerlar holatining yomonlashishi oqibatida, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi (oborot)dan chiqib

qolgan sugʻoriladigan va lalmi ekin yerlar kiradi. 2018 yil 1 yanvar holatiga boʻz yerlarning umumiy yer maydoni **80,8 ming** gektar boʻlib, shundan sugʻoriladigan zonada **47,8 ming** va lalmikor zonada **33 ming** gektarni tashkil qiladi.

Boʻz yerlarning Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlar boʻyicha taqsimlanishi 4.2.1.3.1-jadvalda koʻrsatilgan.

4.2.1.3.1-jadval

Boʻz yerlarning Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlar boʻyicha taqsimlanishi

(ming ga. hisobida)

T/r	Respublika, viloyatlarning nomi	Jami boʻz yerlar	Shu jumladan:	
			sugʻoriladigan zonada	Lalmikor zonada
1	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	11,2	11,2	
2	Andijon	2,8	0,7	2,1
3	Buxoro	6,9	6,9	
4	Jizzax	8,2	0,7	7,5
5	Qashqadaryo	21,9	4,6	17,3
6	Navoiy	6,8	6,6	0,2
7	Namangan	2,5	2,5	
8	Samarqand	5,2		5,2
9	Surxondaryo	0,3		0,3
10	Sirdaryo	10,4	10,4	
11	Toshkent	0,8	0,4	0,4
12	Xorazm	3,8	3,8	
	Jami:	80,8	47,8	33

Sugʻoriladigan mintaqadagi boʻz yerlar sugʻoriladigan ekin yerlar chegaralarida kichik maydonlarda joylashgan, agar bunday yerlar sugʻorish va kollektor shahobchalari bilan taʼminlanib, tegishli meliorativ tadbirlar amalga oshirilsa, bu yerlarning holati qayta tiklanishi hamda qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishi (oboroti)ga qaytarib kiritilishi mumkin.

4.2.1.4. Pichanzor va yaylovlar

Respublika hududining katta qismini pichanzor va yaylovlar tashkil qiladi. Bu yerlar chorvachilikni rivojlantirish uchun asosiy ozuqa bazasi bo'lib hisoblanadi. 2018 yil 1 yanvar holatiga respublikada umumiy yer maydoni **21115,2 ming** gektar tabiiy pichanzor va yaylovlar mavjud bo'lib, shu jumladan, suv bilan ta'minlangan yaylovlarning umumiy yer maydoni **18666,3 ming** gektarni tashkil qiladi. Tabiiy sharoitlariga qarab, yaylov va pichanzorlar cho'l-tekislik (cho'l mintaqasi), tekislik-tepalik (adir mintaqasi) va tog' oldi hududlari (tog' mintaqasi) ga bo'linadi. Cho'l-tekislikdagi pichanzor va yaylov yerlar respublikaning shimoliy - g'arbiy qismida, dengiz sathidan 500 m. gacha balandlikda joylashgan. Ular yil davomida foydalaniladigan pichanzor va yaylovlardan iborat bo'lib, asosan, qorako'lchilikka ixtisoslashgan zonalarda joylashgan.

Sharqda cho'l-tekislik pichanzor va yaylovlar asta-sekin tekislik-tepalik pichanzor hamda yaylovlarga o'tib, dengiz sathiga nisbatan 1000-1200 m. balandlikda joylashgan. Adir mintaqasining pichanzor va yaylovlari, asosan, kuzgi-bahorgi pichanzor va yaylovlarni tashkil etadi.

Tog' mintaqasidagi tog' oldi-tog' pichanzor va yaylovlari g'arbiy Tyan-shan tizmalarida joylashgan bo'lib, dengiz sathidan 2500 m. balandlikda joylashgan. Tog' mintaqasi pichanzor va yaylovlari yozgi hisoblanib, barcha turdagi hayvonlarni boqishga yaroqli hisoblanadi.

Pichanzor hamda yaylovlarning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi 4.2.1.4.1-jadvalda ko'rsatilgan.

Pichanzor hamda yaylovlarning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi

(ming ga hisobida)

T/r	Respublika, viloyatlarning nomi	Jami pichanzor va yaylovlar	Shundan sug‘oriladigan i
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5278,4	36,6
2	Andijon	21,2	0,9
3	Buxoro	2540,8	
4	Jizzax	757,7	
5	Qashqadaryo	1407,3	0,1
6	Navoiy	8737,7	
7	Namangan	151,2	
8	Samarqand	797,3	
9	Surxondaryo	830,3	
10	Sirdaryo	20,2	
11	Toshkent	440,2	1,4
12	Farg‘ona	23,5	3,9
13	Xorazm	109,4	
	Jami:	21115,2	43,0

4.2.2. Fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish va dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan yerlar

Shaharlar va posyolkalarda, shuningdek, qishloq xo‘jaligi hamda o‘rmon xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining egaligidagi yerlar tarkibiga kirmagan qishloq aholi punktlarida doimiy yashab turgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda meros qilib

qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi bilan har bir oilaga yer uchastkalari beriladi.

Dehqon xo‘jaligi oilaviy mayda tovar ishlab chiqaruvchi xo‘jalik bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

2018 yil 1 yanvar holatiga yakka tartibda uy-joy qurish va dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan yerlar jami 696,6 ming gektarni va xo‘jaliklar (oilalar) soni 4580076 tani tashkil qiladi.

Fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish va dehqon xo‘jaliklarini yuritish uchun berilgan yerlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi 4.2.2.1-jadvalda ko‘rsatilgan.

Fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish va dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan yerlarning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi

(ming.ga hisobida)

T/r	Respublika, shahar va viloyatlarning nomi	2017 yil 1 yanvar holatiga		2018 yil 1 yanvar holatiga	
		Xo‘jaliklar (oilalar) soni, ta	Umumiy yer maydoni	Xo‘jaliklar (oilalar) soni, ta	Umumiy yer maydoni
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	241907	47,4	244250	47,6
2	Andijon	482994	47,8	484398	47,8
3	Buxoro	304310	58,6	305460	58,7
4	Jizzax	174043	31,8	176506	31,8
5	Qashqadaryo	424518	79,7	426480	80
6	Navoiy	105952	19,7	110655	19,9
7	Namangan	423578	49,6	424675	49,9
8	Samarqand	518153	86,3	521410	86,5
9	Surxondaryo	335635	62,6	341409	62,9
10	Sirdaryo	120227	19,2	120227	19,2
11	Toshkent	441355	62,3	447574	62,3
12	Farg‘ona	584024	71,8	584264	71,8
13	Xorazm	253216	51,3	254073	51,3
14	Toshkent sh.	135929	7,2	140026	6,9
	JAMI:	4545841	695,3	4581407	696,6

4.3. YER FONDINING HOLATINI KUZATISH, O‘ZGARISHLARNI O‘Z VAQTIDA ANIQLASH, SALBIY JARAYONLARNI OLDINI OLISH VA OQIBATLARINI TUGATISH, YER MONITORINGINI YURITISH

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 14-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 23 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasida Yer monitoringi to‘g‘risidagi Nizomini tasdiqlash haqida”gi 496-sonli qarorida yer monitoringining maqsadlari, vazifalari aniq qilib belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining barcha yerlari, ularning huquqiy rejimi, foydalanilish maqsadi va xarakteridan qat’iy nazar, monitoring ob’ekti hisoblanadi.

Yer monitoringi yer fondi toifalariga muvofiq, yerlardan foydalanish maqsadini hisobga olgan holda olib boriladi.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa yo‘nalishlarda keng qamrovli islohatlar o‘tkazishga kirishildi. Xususan, yer resurslaridan samarali foydalanish tamoyillariga alohida e’tibor qaratildi. Chunki yer, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari tizimida va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda asosiy vosita hamda manbaa hisoblanadi. Shu bois, u aholi hayoti, faoliyati va farovonligida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 23 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasida Yer monitoringi to‘g‘risidagi Nizomini tasdiqlash haqida” gi 496-sonli qarori yer zahiralaridan oqilona foydalanish, yer fondidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash, salbiy jarayonlarni oldini olish va oqibatlarini tugatish, yerlarga baho berish, yer tuzish, davlat yer kadastri yuritilishi va yerlarni muhofaza qilishda davlat nazoratini amalga oshirish tartibotlarining huquqiy poydevorini yaratdi.

Bundan kelib chiqib, 2016 yilning 26 fevralida Muvofiqlashtiruvchi Kengashning navbatdagi tahliliy yig‘ilishida 2016-2020 yillarda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar muhokama etildi.

Mazkur qaror asosida Davyergeodezkadastr qo‘mitasi tomonidan manfaatdor vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar ishtirokida yerlarning holatini tezkor va

muntazam ravishda kuzatish ishlarini amalga oshiruvchi, tadqiqotlar o'tkazuvchi, xaritalovchi barcha korxona va tashkilotlari tomonidan ish yuritishni takomillashtirish maqsadida, 2016 yil 9 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida Yer monitoringini yuritish uslubi" 82-sonli hamda 3-sonli qo'shma qaror asosida ishlab chiqildi.

Ushbu qaror va uslubda qo'yilgan talab va vazifalarni amalga oshirishda yer monitoringiga yagona umumdavlat nuqtai nazaridan yondoshishni ta'minlash, yer fondidagi o'zgarishlar dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yaratish, uni yuritish uslub va vositalarini takomillashtirish, o'rganish hamda o'zaro uzviy bog'liq holda olib borishni tashkil etish maqsadida, manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi idoralararo kengash tashkil qilindi.

Kengash qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida yer monitoringi yuritishning Yagona Dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash maqsadida, har bir manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan o'z tizimlari bo'yicha yer monitoringini yuritish Dasturini ishlab chiqildi.

Muvofiqlashtiruvchi vazirlik, idoralar Kengashining Nizomi hamda 2016-2010 yillarga belgilangan ish dasturlari ishlab chiqilib, dastur 2016 yilning 22 sentyabrda manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning rahbarlari tomonidan qo'shma qaror bilan tasdiqlandi.

Hukumat rahbariyatining yerga oid munosabatlari sohasidagi qaror va topshiriqlarini bajarishda:

yer tuzish, yer fondi holatini kuzatish, undagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, salbiy jarayonlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini tashkil etish va amalga oshirish, yer qonunchiligi hujjatlariga rioya qilinishini ta'minlash, yo'l qo'yilayotgan qonun buzilishlarini bartaraf etish va o'z vaqtida chora ko'rish vazifalariga yanada katta e'tibor berilmoqda.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar monitoringi

Qishloq xo‘jaligida islohotlarni o‘tkazish yer resurslari, ularning ekologik va meliorativ holati hamda tuproq unumdorligi darajasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Respublikamizning qishloq xo‘jaligida intensiv foydalaniladigan ya’ni sug‘oriladigan yerlar esa 4312,4 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,6 foizini tashkil qiladi. Sug‘orib haydaladigan ekin yerlari davlatimizning oltin fondi bo‘lib, barcha ilmiy, texnikaviy, iqtisodiy va tashkiliy imkoniyatlar shu yerlarning holatini yaxshilashga, unumdorligini oshirishga qaratilgan.

Shu bois hukumatimiz tomonidan belgilangan topshiriqlar asosida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Jumladan, 2017 yil hosili uchun Respublika bo‘yicha jami 1 221 ming gektar maydonga chigit ekilib, rejaga nisbatan 14 725 gektar ortiqcha ekilgan bo‘lsada, 494 ta fermer va boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari tomonidan 5 836 gektar rejaga nisbatan kam ekanligi, 113 ta fermer xo‘jaliklari tomonidan chigit ekilishi rejalashtirilgan 462 gektar maydonga boshqa ekinlar ekish holatlari o‘tkazilgan monitoring natijalarida aniqlandi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi “2018 yilda qishloq xo‘jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish chora-tadbirlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning prognoz hajmlari to‘g‘risida”gi PQ-3281-

sonli qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan Davyergeodezkadastr qo‘mitasi tomonidan doimiy ravishda monitoring tadbirlari o‘tkazib borildi.

Monitorng natijasida respublika bo‘yicha 1 mln 118 ming 282 gektar, yoki rejaga nisbatan 11153 gektar ko‘p g‘alla ekilganligi:

- ❖ 165 ta fermer xo‘jaliklarida 2397 gektar rejadagi g‘alla umuman ekilmaganligi;
- ❖ 820 fermer xo‘jaliklarida 4387 gektar rejaga nisbatan kam ekilganligi;
- ❖ 6674 ta fermer xo‘jaligida 17 ming 586 gektar maydonlarga rejadan ortiqcha va rejasiz ravishda g‘alla ekilgan, jumladan:
- ❖ 6312 ta fermer xo‘jaligida 14554 gektar rejadan ortiqcha g‘alla ekilgan;
- ❖ 362 ta fermer xo‘jaligida 3032 gektar rejasiz g‘alla ekilganligi aniqlandi.

Bundan tashqari 2018 yil hosili uchun lalmi yerlarga ekilgan g‘alla maydonlari monitoring o‘lchovi o‘tkazilganda 6 ming 124 ta fermer xo‘jaliklari tomonidan 177 ming 948 gektarga yoki rejaga nisbatan 18 ming 832 gektar lalmi maydonlarga g‘alla kam ekilganligi ma’lum bo‘ldi.

Aniqlangan holatlarni bartaraf etish va tegishli choralar ko‘rishni so‘rab, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi va viloyatlar hokimlariga taqdimnomalar, huquqni muhofaza qilish organlariga ma’lumotlar kiritildi.



5-BOB. DAVLAT YER KADASTRI VA YER MONITORINGI, ULARNING MAZMUNI HAMDA AHAMIYATI

5.1. DAVLAT YER KADASTRINING MAZMUNI, YURITISH TARTIBI

Davlat yer kadastrı yerlarning tabiiy, xo‘jalik va huquqiy rejimi, ularning toifalari, sifat ko‘rsatkichlari va bahosi, yer uchastkalarining joylashgan manzili va o‘lchamlari, ularni yer egalariga, yerdan foydalanuvchilarga, ijarachilarga hamda mulkdorlarga taqsimlash to‘g‘risidagi zarur, ishonchli ma‘lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat.

Davlat yer kadastrı yer munosabatlarini tartibga solish, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, yer tuzishni tashkil etish, yer uchun to‘lanadigan haq miqdorini asoslash, xo‘jalik faoliyatiga baho berish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni yer to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan ta‘minlashga mo‘ljallangandir.

Davlat yer kadastrı yerning qiymat bahosini aniqlash uchun asos bo‘ladi. Davlat yer kadastrining ma‘lumotlari yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishda, yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) va ularni olib qo‘yishda, yer uchun to‘lanadigan haq miqdorlarini belgilashda, yer tuzish ishlarini o‘tkazishda, xo‘jalik faoliyatiga baho berishda hamda yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirishda majburiy tartibda tatbiq etiladi.

Davlat yer kadastrı butun respublika uchun yagona tizim asosida davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan davlat kadastrı va yer tuzish xizmati organlari tomonidan yuritiladi.

Davlat yer kadastrini yuritish topografiya-geodeziya, kartografiya, tuproq, agrokimyo, geobotanika jihatidan va boshqa yo‘nalishda tekshirish va izlanishlar olib borish, yerlarni hisobga olish va ularga baho berish, yer egalarining, yerdan foydalanuvchilarning, ijarachilarning hamda mulkdorlarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini ro‘yxatga olish bilan ta‘minlanadi.

Davlat yer kadastrini yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar kafolatlanishini ta'minlash, yerlarni hisobga olish va baholash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga, «Davlat yer kadastrini to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq yuritiladi.

Davlat yer kadastrini yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qimmatini, yer uchastkalarining o'rnini va o'lchamlari, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar o'rtasidagi taqsimotini to'g'risidagi ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining yer fondi davlat yer kadastrini ob'ekti hisoblanadi.

Yerning tabiiy xossalarini, huquqiy holatini va undan foydalanishni har tomonlama o'rganish va baholash davlat yer kadastrining mavzusi hisoblanadi.

Yer kadastrini axborotini ishlab chiqish texnologiyasini doimiy ravishda takomillashtirish, tizimlashtirish, saqlash, yangilash va foydalanuvchilarga ishonchli va tejamli yer kadastrini axboroti berish davlat yer kadastrining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Davlat yer kadastrini yuritish aerokosmik suratga olish, topografik-geodezik, kartografik, tuproq, agrokimyoviy, geobotanik tadqiqotlar va boshqa tadqiqotlar va izlanishlar olib borish, yerlarning miqdor va sifat jihatidan hisobga olinishi va baholanishi, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan ta'minlanadi.

Davlat yer kadastrini yer munosabatlarini tartibga solish maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni yer to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash, yerdan oqilona foydalanishni, qayta tiklash va muhofaza qilishni, yer tuzilishini tashkil etish, yer uchun haq to'lash miqdorlarini asoslash, xo'jalik faoliyatini baholash uchun mo'ljallangan.

Quyidagilar davlat yer kadastrining tarkibiy qismlari hisoblanadi:

- ◆ yer uchastkalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni ijaraga yoki mulk etib olish huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlarni,

shuningdek servitutlarni va ushbu huquqlarga doir boshqa cheklashlarni hisobga olish;

- ◆ yer miqdorini hisobga olish;
- ◆ yer sifatini hisobga olish (tuproq bonitetini aniqlash);
- ◆ yerni qiymat jihatidan baholash.

Quyidagilar davlat yer kadastrini yuritishning asosiy tamoyillari hisoblanadi:

- ◆ respublikaning butun hududini qamrab olish;
- ◆ fazoviy koordinatlarning yagona tizimini qo'llash;
- ◆ yer kadastriga doir axborot ishlab chiqilishi uslubiyotining birligi va uzluksizligi;
- ◆ yer kadastr axborotining ishonchliligi va tejamliligi.

Davlat yer kadastr ma'lumotlari asosiy (dastlabki) va joriy ma'lumotlarga bo'linadi. Dastlabki ro'yxatdan o'tkazish vaqtida olingan ma'lumotlar va davlat yer kadastrining dastlabki ma'lumotlarini tuzish asosiy axborot hisoblanadi.

Davlat yer kadastr ma'lumotlarini qayta ro'yxatdan o'tkazish va (yoki) o'zgartirish jarayonida olingan ma'lumotlar joriy axborot hisoblanadi.

Davlat yer kadastr Davlat kadastrlarining yagona tizimini, boshqa kadastr tizimlari va monitoringlarini yaratish va yuritish uchun fazoviy-huquqiy asos hisoblanadi.

Davlat kadastrlarining yagona tizimiga kiritish uchun yer kadastr axborotining tarkibi va taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Yer kadastr axborotidan yer munosabatlarini tartibga solishda, yerdan foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik vazifalarni hal etishda foydalanilishi kerak.

Davlat yer kadastrini yuritish ishlari davlat byudjetidan va boshqa manbalar hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Quyidagilar davlat yer kadastrining mazmunini tashkil etadi: yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazish, yer miqdori va

sifatini hisobga olish (tuproq bonitetini aniqlash), yerni qiymat jihatidan baholash, shuningdek yer kadastri axborotini tizimlashtirish, saqlash, yangilash va manfaatdor shaxslarga tegishli shakllar va hajmlarda berish.

Mulk huquqi sub'ektini, yer uchastkalariga egalik qilish va foydalanishni belgilovchi, er uchastkasiga bo'lgan huquqlar kafolatlanishini ta'minlovchi, yerni hisobga olish va baholash uchun asos yaratuvchi yerni ro'yxatdan o'tkazishga doir axborot er kadastri axborotining asosiy, dastlabki tarkibiy qismi hisoblanadi.

Dastlabki ro'yxatdan o'tkazish axborotini shakllantirish paytida ishlarni o'tkazish paytigacha tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq holda paydo bo'luvchi yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar chegaralari belgilanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi (qayta ro'yxatdan o'tkaziladi).

Yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, ushbu huquqlarning paydo bo'lishi, boshqa shaxsga o'tishi, cheklanishi va to'xtatilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Yer uchastkalarining naturada chegaralarini belgilash geodeziya usullari bilan yoki joyning o'zida chegaralarning burilish nuqtalarini zarur aniqlikda belgilash va ularni chegara qoziqlari bilan mahkamlash yo'li bilan kartografiya materialidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Yer uchastkalarining umumiy maydoni talab qilinadigan aniqlikda tahliliy, grafik-tahliliy yoki mexanik usullar bilan aniqlanadi.

Yerni ro'yxatdan o'tkazish axboroti avtomatlashtirilgan yerga doir axborot tizimiga kiritiladi.

Joriy ro'yxatdan o'tkazish axborotini shakllantirishda ro'yxatga oluvchi hujjatlar mundarijasiga mulkdorlar, yer uchastkalari egalari va foydalanuvchilarining huquqiy holati, shuningdek yerning maydoni, chegaralari, undan foydalanish maqsadi va foydalanish rejimi bo'yicha yuz bergan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.

Naturada qayd etilgan o'zgartirishlar, ular hujjatlar bilan rasmiylashtirilgandan keyin, yer kadastri daftariga hamda avtomatlashtirilgan yerga doir axborot tizimiga kiritiladi.

Yer uchastkalarining umumiy maydonini hisobga olish asosan geodeziya usullari bilan, yuqori aniqlikni talab etmaydigan hollarda esa kartometrik usullar bilan bajariladi.

Ekin maydonlari bo'yicha yer miqdorini hisobga olish bir va undan ortiq konturlardan iborat bo'lgan asosiy yer kadastri birliklari yer uchastkalari doirasida yuritiladi. Barcha toifadagi ekin maydonlari hisobga olinishi kerak.

Ekin maydonlari bo'yicha yer miqdorini asosiy hisobga olish tegishli ko'lamdagi yangilangan reja-kartografiya asosida kartometrik usul bilan amalga oshiriladi.

Yer sifatini hisobga olish quyidagilarni o'z ichiga oladi: tabiiy-qishloq xo'jaligi va yer kadastri bo'yicha rayonlashtirish, yer tasnifi, ularni ekologiya, texnologiya va shaharsozlik belgilari va boshqa belgilar bo'yicha tavsiflash, tuproq va yerni guruhlarga ajratish.

Yerlarning o'lchami, joylashgan o'rni, ekin maydonlari turlari va sifat holatiga oid qayd etiladigan ma'lumotlar erni hisobga olish axborotini tashkil etadi.

Ma'muriy-hududiy darajaning oshishiga qarab erni hisobga olish axboroti uning ko'rsatkichlarining qiyosiylikiga rioya qilingan holda umumlashtiriladi.

Yerlar qiymatini baholash turli maqsadlarga mo'ljallangan yerlardan foydalanish samaradorligining hozirgi vaqtdagi darajasini aniqlash, kelajakda uni oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish, asoslash, yer solig'i va boshqa to'lovlarni, uning normativ bahosini hisoblab chiqarish, yerlardan oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantirish uchun amalga oshiriladi.

Barcha toifadagi yerlarni baholash qonunchilik bilan belgilangan tartibda natura (yerlarning har bir toifasi uchun o'ziga xos bo'lgan) va qiymat ko'rsatkichlari tizimi yordamida amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi maqsadlaridagi yerlar uchun ham tuproqning unumdorlik quvvati tuproq boniteti bo'yicha qiyosiy baholash amalga oshiriladi.

Yerlarning qiymat bahosiga va tuproq bonitetiga doir ma'lumotlar yer bahosiga oid axborotni tashkil etadi.

Yerni ro'yxatga olish, yerni hisobga olish va yerni baholashga doir asosiy va joriy axborotlar yer kadastr axboroti majmuini tashkil etadi, ular har xil: alfavit raqam (matn, jadval, koordinatlar va maydonlar ro'yxati), grafik (reja, xarita, sxemalar), elektron raqam (EHMning tezkor xotirasi, magnit manbalari) shakllarida qayd etiladi.

Tuman (shahar)ning navbatchi yer kadastr xaritasini yuritish davlat yer kadastrining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Navbatchi yer kadastr xaritasi barcha yer uchastkalari chegaralarini yetarli darajada aniq ko'rsatish imkonini beradigan masshtabda, elektron va qog'oz shaklida tayyorlanadi.

Navbatchi yer kadastr xaritalarida barcha yer uchastkalarining chegaralari ko'rsatiladi. Keyinchalik xaritaga yer uchastkalarining egalari, foydalanuvchilari, ijarachilari va mulkdorlari tarkibida, shuningdek chegaralarda bo'lgan o'zgarishlar muntazam ravishda kiritib boriladi.

Navbatchi yer kadastr xaritasini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Har bir ma'muriy-hududiy darajada taqdim etiladigan er kadastriga doir hujjatlarning tarkibi va shakli «Davyergeodezkadastr» davlat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi va Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishib olinadi.

Yer kadastriga doir ma'lumotlarning ishonchliligi uchun davlat yer kadastrini yuritish vazifasi yuklangan tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastr bo'limlarining vakolatli shaxslari, shuningdek, yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va yer uchastkalari mulkdorlari javob beradilar.

Tumanlar va shaharlarda binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastri bo'limlari, boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Dastlabki kadastr ma'lumotlari yangilanayotganda yer uchastkalarining huquqiy holatida, yerlarning sifat holati va ulardan foydalanishda, ularni baholashda yuz berayotgan o'zgarishlar aniqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi. Yer uchastkalari mulkdorlari, yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastri bo'limlariga, boshqa tashkilotlarga ko'rsatib o'tilgan o'zgarishlar to'g'risida o'n kun muddatda axborot berishga majburlar.

Tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastri bo'limlari, boshqa tashkilotlar:

- ◆ mulkdorlardan, yer egalaridan, yerdan foydalanuvchilardan va ijarachilardan huquqiy holatda, yer uchastkalarining tarkibida va yer uchastkalaridan foydalanishda yuz bergan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdilar va naturada tekshirilgandan keyin joriy o'zgarishlarni uch kun mobaynida yer kadastri axborotiga kiritadilar;
- ◆ yer kadastr daftarini va navbatchi yer kadastr xaritasini tashkil qiladilar va yuritadilar, tuman (shahar) yer resurslarining mavjudligi va sifat bo'yicha holati to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini doimiy ravishda yangilab boradilar;
- ◆ shahar yer resurslari va davlat kadastri boshqarmalariga yerlarning miqdori va ulardan foydalanish to'g'risida hisobot taqdim etadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastri boshqarmalari:

- ◆ tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastri bo'limlarining va O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi boshqa tashkilotlarining yer kadastrini yuritishga doir faoliyatini muvofiqlashtirib boradilar;

- ◆ tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastri bo'limlarining va O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi boshqa tashkilotlarining hisobotlarini umumlashtiradilar, yer uchastkasiga egalik huquqi sub'ektlari, mintaqadagi yer resurslari miqdori, sifati va ularni baholashga doir ma'lumotlar bankini yaratadilar, Respublika yer ma'lumotlari yagona bankini yaratishda qatnashadilar;
- ◆ tabiatni muhofaza qilish organlari bilan kelishib olingan mintaqa yerlarining miqdori va ulardan foydalanilishi to'g'risidagi hisobotlarni har yili 1 fevralgacha «Davyergeodezkadastr» davlat qo'mitasiga taqdim etadilar.

«Davyergeodezkadastr» davlat qo'mitasi:

- ◆ davlat yer kadastri yuritilishini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilishini ta'minlaydi;
- ◆ viloyatlar, shaharlar, tumanlarning ma'muriy chegaralarini, keyinchalik ularning maydonlarini muvofiqlashtirgan holda, geodezik usullar bilan belgilash va joylarga biriktirib qo'yish ishlarini amalga oshiradi;
- ◆ topografiya-geodeziya ishlarini va erlarni tegishli masshtablarda xaritaga olishni tashkil qiladi;
- ◆ yer resurslarini aerokosmik usullar bilan o'rganishni tashkil etadi;
- ◆ hududiy bo'linmalarining yerlarning miqdori va ulardan foydalanilishi to'g'risidagi hisobotlarini o'rganadi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;
- ◆ ishlab chiqilgan yer kadastri axborotlari sifatini nazorat qiladi;
- ◆ mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;
- ◆ yer kadastri axborotining sifati va har xilligiga talabni muntazam o'rganib boradi, yer kadastrini yuritish texnologiyasini takomillashtirishni ta'minlaydi;
- ◆ respublika mintaqalari bo'yicha yer kadastri hujjatlarini yangilash navbatini va muddatlarini asoslab beradi;
- ◆ avtomatlashtirilgan yer axboroti tizimini joriy etishni va uning faoliyatini amalga oshiradi;

- ◆ yer kadastri axborotlarini nashr etadi, manfaatdor vazirliklar va idoralarga ma'lumotlar taqdim etadi;
- ◆ Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etiladigan yer kadastri axborotlari tarkibini, hajmini va ularga texnik talablarni belgilaydi;
- ◆ har yili 1 martgacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Yer resurslarining holati to'g'risida Milliy hisobotni taqdim etadi»;
- ◆ Mazkur Qonunning maqsadi davlat yer kadastri yuritishning, iqtisodiyotni rivojlantirish, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning kafolatlarini ta'minlash, yerlardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash va muhofaza qilish uchun kadastr ma'lumotlaridan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilashdan iborat.

Davlat yer kadastri to'g'risidagi qonun hujjatlari mazkur Qonundan, boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining davlat yer kadastri to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Davlat yer kadastri Davlat kadastrlari yagona tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, u yerlarning tabiiy, xo'jalik, huquqiy rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qimmati, yer uchastkalarining o'rni va o'lchamlari, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar o'rtasidagi taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotlar hamda hujjatlar tizimidan iboratdir.

Davlat yer kadastri yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini, yerlarning miqdori va sifatining hisobga olinishini, tuproq bonitirovkasini, yerlarning qiymat bahosini, shuningdek yer kadastriga doir axborotlar bir tizimga solinishi, saqlanishi va yangilab turilishini o'z ichiga oladi.

Davlat yer kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ◆ mamlakatning butun hududini to'la qamrab olish;
- ◆ fazoviy koordinatalarning yagona tizimini qo'llash;

- ◆ yer kadastriga doir axborotlar ishlab chiqish uslubiyotining birligi;
- ◆ yer kadastriga doir axborotlarning to'g'ri bo'lishi.

Davlat yer kadastrini yuritish sohasidagi davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, davlat hokimiyati mahalliy organlari va maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini davlat qo'mitasi davlat yer kadastrini yuritish sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Davlat yer kadastrini yuritish sohasida quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlariga kiradi:

- ◆ yer resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan yagona davlat siyosatini ishlab chiqish;
- ◆ moliyalash va investitsiyalash sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash va masalalarni hal etish;
- ◆ yer resurslarining holati to'g'risidagi har yilgi milliy hisobotni tasdiqlash;
- ◆ yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni va yer uchastkalariga oid bitimlarni davlat ro'yxatiga olish tartibini belgilash;
- ◆ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Davlat yer kadastrini yuritish sohasida quyidagilar davlat hokimiyati mahalliy organlarining vakolatlariga kiradi:

- ◆ yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar hamda ularga oid bitimlarning davlat ro'yxatiga olinishini tashkil etish;
- ◆ davlat yer kadastrini yuritish ishlarini mahalliy byudjet hisobidan moliyalash;
- ◆ davlat yer kadastrini yuritilishini tashkil etish va nazorat qilish;
- ◆ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini davlat qo'mitasining davlat yer kadastrini yuritish sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- ◆ O‘zbekiston Respublikasining butun hududida davlat yer kadastrini yuritilishini tashkil etish;
- ◆ yer resurslarining holati to‘g‘risidagi har yilgi milliy hisobotni tuzish;
- ◆ viloyatlar, tumanlar hamda aholi punktlarining ma‘muriy chegaralarini belgilash (aniqlashtirish) ishlarini tashkil etish va o‘tkazish;
- ◆ normativ hujjatlarni belgilangan tartibda ishlab chiqish va tasdiqlash;
- ◆ mutaxassislarni tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish ishlarini tashkil etish;
- ◆ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Davlat yer kadastrini yuritish quyidagilar bilan ta‘minlanadi:

- ◆ aerokosmik suratga olishlarni, topografiya-geodeziya, kartografiya, tuproqshunoslik, agroximiya, geobotanikaga oid va boshqa izlanishlar va tadqiqotlarni o‘tkazish, yerlarni miqdor va sifat jihatdan hisobga olish va baholash, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini davlat ro‘yxatiga olish;
- ◆ yerlar mavjudligi va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarni tuzish;
- ◆ joriy tadqiqotlar suratga olishlar hamda yer monitoringi materiallaridan foydalangan holda yer-kadastr axborotlariga oid ma‘lumotlar majmuini yaratish va tartibga solib turish.

Davlat yer kadastrini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini davlat qo‘mitasining tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastrini bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yer kadastrini yuritish tumanda (shaharda) quyidagi yo‘l bilan amalga oshiriladi:

- ◆ yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni va yer uchastkalariga doir bitimlarni davlat ro‘yxatiga olish;
- ◆ kadastr suratga olishlarini o‘tkazish;

◆ yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va yer uchastkalari mulkdorlaridan ma'lumotlar olish, ularning to'g'riligini tekshirish, yer kadastriga doir hujjatlarga joriy o'zgartishlarni kiritish.

Yer resurslarining holati to'g'risidagi milliy hisobot har yili tayyorlanadi hamda butun mamlakat va ma'muriy-hududiy birliklar bo'yicha yerlarning miqdor va sifat holati hamda ularning bahosi, yerlarning toifalarga bo'linishi, tarmoqlar, yer uchastkalarining egalari, yer uchastkasidan foydalanuvchilar, yer uchastkasi ijarachilari, mulkdorlari bo'yicha taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni va yer kadastriga oid boshqa axborotni o'z ichiga oladi.

Yer resurslarining holati to'g'risidagi milliy hisobotga kiritiladigan ma'lumotlarni taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Yer kadastri hujjatlari yer uchastkalariga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar, tuman (shahar) yer kadastri daftari, yerlarning miqdor, sifat holati va ularning bahosi to'g'risidagi hisobotlar, kadastr xaritalari, planlari va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlardan iboratdir.

Yer uchastkalariga egalik qilish, ulardan foydalanish huquqini, yer uchastkalarini ijaraga olish huquqini, shuningdek yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini, shu jumladan servitutlar to'g'risidagi bitimlar va bu huquqlarga doir boshqa cheklashlarni davlat ro'yxatiga olish tuman (shahar) yer kadastri daftariga tegishli ma'lumotlarni kiritish orqali yer uchastkasi joylashgan yerda amalga oshiriladi.

Yer uchastkalarini egalik qilish, foydalanish va ijara huquqida, shuningdek mulk qilib olgan yuridik va jismoniy shaxslar yer uchastkalariga bo'lgan o'z huquqlarini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishlari shart.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning yuzaga kelishi, o'zgaga o'tishi, cheklanishi va bekor qilinishi davlat ro'yxatiga olinishi lozim. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatga olish yig'imi undiriladi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish belgilangan tartibda, yuridik yoki jismoniy shaxsning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish ishlarini amalga oshiruvchi organga bergan arizasiga asosan amalga oshiriladi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatiga olish yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar to'g'risidagi zarur hujjatlar ham ilova etilgan ariza kelib tushgan paytdan e'tiboran o'n kunlik muddatda tegishli vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatiga olinganligi to'g'risida ro'yxatga olingan sana va ro'yxatga olinganlikning tartib raqami ko'rsatilgan holda davlat ro'yxatiga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma beriladi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish vaqtida tuman (shahar) yer kadastrida daftariga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

- ◆ yer uchastkasiga bo'lgan huquqni olgan shaxs to'g'risidagi;
- ◆ yer uchastkasi to'g'risidagi (yerning toifasi, foydalanish maqsadi, yerning turi, uning sifati, chegaralari, maydoni, kadastr raqami va boshqa tavsiflari);
- ◆ yer uchastkasining berilish shartlari, uni saqlash vazifalari va servitutlar to'g'risidagi;
- ◆ tuman, shahar, viloyat hokimining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yer uchastkasini davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun ajratiladigan zonaga kiritish xususidagi qarorlari to'g'risidagi;
- ◆ davlat ro'yxatiga olinganlik haqidagi guvohnomaning tartib raqami va u berilgan sana to'g'risidagi.

Yer kadastrida daftariga qonun hujjatlarida belgilangan boshqa ma'lumotlar ham kiritilishi mumkin.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni belgilovchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi hujjatlar ana shu huquqlarni davlat ro'yxatiga olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yer uchastkalariga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlari tuman, shahar, viloyat hokimining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yer berish to'g'risidagi qarorlari asosida ro'yxatga olinadi.

Yerlarni ijaraga olish huquqi yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi asosida ro'yxatga olinadi.

Yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi bunday huquqqa oid davlat orderi, oldi-sotdi shartnomalari va yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi yuzaga kelishiga asos bo'ladigan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarga asosan ro'yxatga olinadi.

Binoga, imoratga va inshootga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tishi natijasida yuzaga kelgan yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanish huquqi ana shu mulklarning oldi-sotdisi, almashtirilganligi, hadya etilganligi, vasiyat qilinganligi to'g'risidagi tegishli shartnomalar va yer uchastkasiga oid tegishli hujjatlar asosida ro'yxatga olinadi.

Servitutlar to'g'risidagi bitimlar hamda er uchastkalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni ijaraga olish, mulk huquqlariga doir boshqa cheklashlar tegishli shartnomalar, sudning qarorlari asosida ro'yxatga olinadi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- ◆ davlat ro'yxatiga olish organida mazkur yer uchastkasining kimga tegishli ekanligi to'g'risida nizo borligidan dalolat beruvchi hujjatlarning mavjudligi;
- ◆ davlat ro'yxatiga olish organida mazkur yer uchastkasi qonunda belgilangan tartibda olib qo'yilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni va yer uchastkalariga oid bitimlarni davlat ro'yxatiga olish rad etilganligi yoki ro'yxatga olish muddatlarining buzilganligi ustidan belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Yerlarning miqdori va sifatini hisobga olish ularning haqiqiy holati va ulardan foydalanilishiga qarab, yer uchastkalari va maydonlari, aholi punktlari, tumanlar, viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va umuman O'zbekiston Respublikasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Yer uchastkalari bo'yicha yer miqdorini hisobga olish yer uchastkalarining o'lchami, ularning qimmati va talab qilinadigan o'lchash aniqligiga qarab, geodezik va (yoki) kartometrik usullarda amalga oshiriladi.

Yer maydonlari bo'yicha yer miqdorini hisobga olish yer uchastkalari doirasida asosan kartometrik usulda amalga oshiriladi.

Yer sifatini hisobga olish tabiiy-qishloq xo'jaligi bo'yicha rayonlashtirishni, tuproq va yerlarni tasniflashni, ularni agronomik, ekologik, texnologik va shaharsozlik belgilari bo'yicha tavsiflashni, tuproqni guruhlarga ajratishni o'z ichiga oladi.

Yerlarning miqdorini va sifatini hisobga olish asosiy va joriy turlarga bo'linadi.

Yerlarni hisobga olishning asosiy turi (inventarizatsiya) joyning o'zida yer uchastkalarining va maydonlarining chegaralari, joylashgan o'rni, holati va ulardan foydalanish xususiyatiga doir o'zgarishlar talaygina to'planganligiga qarab, davriy ravishda o'tkaziladi, bunda yerlarning plan-kartografik asosi tegishli masshtablarda yangilanishi, tuproq, geobotanik va boshqa xil tekshiruvlar o'tkazilishi shart.

Yerlarning joriy hisobi kadastr hujjatlari va ma'lumotlarining to'g'ri bo'lishini ta'minlash maqsadida yuritiladi, bunda yerlarning huquqiy holatida, miqdori va sifat holatida va ulardan foydalanish borasida yuz bergan o'zgarishlar aniqlanadi hamda ro'yxatga olinadi. Zimmasiga davlat yer kadastri yuritish vazifasi yuklatilgan tegishli organlarga yer uchastkalarining egalari, ulardan

foydalanuvchilar, yer uchastkalarining ijarachilari va mulkdorlari sodir bo'lgan o'zgarishlar to'g'risida bir oy muddatda axborot berishlari shart.

Yerlarning o'lchami, joylashgan o'rni, maydon turlari va sifat holatiga oid qayd etiladigan ma'lumotlar yerni hisobga olish axborotini tashkil etadi.

Tuproq bonitirovkasi qishloq xo'jaligi ekinlari agrotexnikasi o'rtacha darajada bo'lganidagi tuproq sifati hamda tabiiy unumdorlik quvvatiga beriladigan qiyosiy baho.

Tuproq bonitirovkasi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlarning keyingi qiymat bahosini chiqarish, mulkiy paylarning miqdorini aniqlash, yer tuzishni amalga oshirish va yerlardan oqilona, samarali foydalanishni rag'batlantirish uchun asosdir.

Tuproq bonitirovkasi tegishli qishloq xo'jaligi maydonlari uchun yuz balli shkala bo'yicha o'tkaziladi. Yaxshi xossalarga ega bo'lgan, g'oyat unumdor tuproq yuqori ball bilan baholanadi.

Tuproq bonitirovkasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'tkaziladi. Tuproq bonitirovkasiga doir ma'lumotlar yer bahosiga oid axborotni tashkil etadi.

Barcha toifadagi yerlarning qiymat bahosini chiqarish natura va qiymat ko'rsatkichlari tizimi yordamida amalga oshiriladi. Yerlarning qiymat bahosi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chiqariladi.

Turli maqsadlarga mo'ljallangan yerlardan foydalanish samaradorligi darajasini aniqlash, yer uchun to'lanadigan haq va uning normativ bahosini hisoblab chiqarish, yerlarni kimoshdi savdosi asosida realizatsiya qilish paytida boshlang'ich bahosini aniqlash, yerlarni davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yishda yo'l qo'yilgan nobudgarchilik va ko'rilgan zararlarni qoplash uchun yerlarning qiymat bahosi chiqariladi.

Yerlarning qiymat bahosiga doir ma'lumotlar yer bahosiga oid axborotni tashkil etadi.

Tuman (shahar) yer kadastri daftari yerlarni davlat ro'yxatiga olish, hisobga olish va ularni baholash bo'yicha asosiy hujjat bo'lib, yer uchastkasining

joylashgan o'рни, qaysi maqsadda foydalanish mo'ljallanganligini, unga egalik qilish, undan foydalanish, uni ijaraga olish huquqlarini va unga bo'lgan mulk huquqini aniqlash uchun zarur ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, yer uchastkasining miqdor va sifat holati hamda bahosi to'g'risidagi axborot manbai hisoblanadi.

Yer kadastrı daftarining tuzilishi, mazmuni va uni yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Kadastr uchun suratga olish yer uchastkalari va maydonlari chegaralarini belgilash hamda kartografiya qilish, ularni kadastr xaritalari va planlarida aks ettirish maqsadida amalga oshiriladi.

Kadastr uchun suratga olish aerofotogeodezik va yer ustida bajariladigan uslublarda, topografik-geodezik ishlarni bajarish, tuproq, geobotanik va boshqa xil maxsus tekshiruvlar uchun belgilangan texnikaviy talablarga muvofiq yer uchastkasining o'lchamidan kelib chiqadigan masshtablarda amalga oshiriladi.

Yer kadastrı xaritalari va planlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mavzusi, hududlarni (respublika, viloyat, tuman, aholi punktlari, yer uchastkalari) qamrab olishi, masshtablari va boshqa belgilari bo'yicha tasniflanadi.

Tuman yer kadastrı xaritasi, aholi punkti va yer uchastkasining planlari grafik hujjatlar bo'lib, ular yer uchastkasining joylashgan o'rnini, maydonlari, chegaralarini, yerlarni baholash zonalarini, suv manbalarini, yer uchastkasida joylashgan binolar va inshootlarni aks ettirish, shuningdek kadastrga doir tegishli tavsiflar olish maqsadida tuziladi hamda ularga tuzatishlar kiritiladi.

Yer kadastrı xaritalari va planlari axborotlarni ifoda qilishning an'anaviy vositalari (qog'oz, plastik) yordamida ham, elektron vositalar (raqamli xaritalar) yordamida ham tuziladi.

Yer kadastriga doir axborotlar yerni ro'yxatga olish, yerni hisobga olish va yer bahosiga oid axborotlar majmuini tashkil etadi hamda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar foydalanishi uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Yer kadastriga doir axborotni berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Yerlardan foydalanish, ularni tiklash va muhofaza qilish, yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) va ularni olib qo'yish, yer uchun to'lanadigan haq miqdorini belgilash, yer tuzish ishlarini bajarish, xo'jalik faoliyatiga baho berish hamda yerdan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog'liq boshqa tadbirlarni amalga oshirish chog'ida davlat yer kadastri ma'lumotlaridan foydalanilishi shart.

Yer kadastriga doir axborot davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga tekinga taqdim etiladi, yuridik va jismoniy shaxslarga esa haq evaziga beriladi.

Yer kadastriga doir axborotdan foydalanuvchilar bunday axborotni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan muddatlar va hajmlarda yoki shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

Yuridik va jismoniy shaxslar yer kadastriga doir axborot ma'lumotlari qayta ko'rib chiqilishini talab qilishga haqlidirlar.

Davlat sirini saqlash maqsadida qonun hujjatlarida yer kadastriga doir axborotlar olishni cheklaydigan yoki taqiqlaydigan hollar nazarda tutilishi mumkin.

Yer kadastriga doir axborot tizimi yer resurslari to'g'risidagi fazoviy-muvofiqlashtirilgan ma'lumotlarni to'plash, ular ustida ishlash, ularni aks ettirish va tarqatishni amalga oshiruvchi avtomatlashtirilgan jo'g'rofiy axborot tizimidir.

Yer kadastriga doir axborot tizimi yer resurslarini ro'yxatga olish, baholash, ularning istiqbolini belgilash va ulardan foydalanishni boshqarishning ilmiy hamda amaliy vazifalarini hal etish uchun mo'ljallangan.

Yer kadastriga doir axborot tizimi: mo'ljallanishi bo'yicha ko'p maqsadli va maxsus; hududni qamrab olishi bo'yicha lokal, mintaq va respublika tizimiga bo'linadi.

Davlat yer kadastrini yuritish borasidagi ishlar davlat byudjetidan, shuningdek yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olganlik uchun

undiriladigan mablag'lar va qonun hujjatlari bilan man etilmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalanadi.

Davlat yer kadastri to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

5.2. HISOB-KITOB VA YER KADASTRI TO'G'RISIDA UMUMIY TUSHUNCHA.

Hisob-kitob ijtimoiy hayotning asosini tashkil etadi. Bunga zaruriyat avvalom bor ishlab chiqarishning talabidan kelib chiqdi. Moddiy ishlab chiqarish jarayonini ishchi kuchlarini, ishlab chiqarish vositalarini, haydaladigan yerlarni, xom-ashyolarni, materiallarni va olinadigan maxsulotlarni hisob qilmasdan amalga oshirish mumkin emas. Shu sababli ham hisob-kitob kishilik jamiyati rivojining eng birlamchi bosqichlarida paydo bo'lgan. Turli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda hisob-kitob kishilik jamiyati rivojining eng birlamchi bosqichlarida paydo bo'lgan. Turli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda hisob-kitob ishlarining mazmuni, mohiyati, vazifalari va uslubi turlicha bo'lgan.

Ishlab chiqarishning ibtidoiy-jamoa tuzumida hisob-kitob ishlari juda oddiy bo'lib, fakatgina ushbu joydagi jamoaning manfaatini ko'zlagan. Ishlab chiqarish vositalari xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi bilan anchagina aniq hisob-kitob ishlarini olib borishga ehtiyoj tug'ilgandi. Alohida xususiy yer egalaridan tashqari quldorlik davlati ham hisob-kitob ishlarini olib borgan. U asosan olinayotgan soliqlardan kelayotgan foydani, armiyani saqlashga sarflanadigan sarf-xarajatlarni va boshqalarni hisob qilib borgan. Shu paytga kelib qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasiga aylangan yer ham asta-sekinlik bilan hisob-kitob ob'ektiga aylangan. Ushbu quldorlik tuzumida maxsus yerlarni hisob-kitobi tadbiri sifatidagi yer kadastri vujudga kelgan hamda u keyinchalik, ya'ni feodalizm va ayniqsa kapitalistik tuzumda ancha rivojlangan. Dunyodagi boshqa mamlakatlar kabi O'zbekiston feodalizm davrida feodal xo'jaligini boshqarish va nazorat qilish maqsadlarida, ayniqsa ichki xo'jalik hisob-kitobi tez rivojlangan. Feodalizm

davrida yer kadastr tizimida yerlarga xususiy mulkchilik huquqini qonunlashtiruvchi tadbir - yerlarni ro'yxat qilish vujudga keladi.

Shunday kilib, yer resurslarini urganish xamda yer kadastrini o'tkazish davlatning vujudga kelishi va soliq tizimini rivojlanishi bilan birlamchi zaruriyatga aylandi. Jamiyat rivojining ma'lum bosqichida yerlarning miqdori bilan bir qatorda sifat holati ham hisob-kitob qilina boshlandi, keyinchalik esa turlicha unumdorlikka ega bo'lgan yerlardan olinayotgan foyda miqdorini ham hisob qilish zaruriyati tug'ildi.

Kadastr fransuzcha so'z bo'lib, ma'lum bir ob'ekt bo'yicha davriy yoki uzluksiz kuzatish, nazorat qilish yo'li bilan olingan ma'lumotlarning mujassamlangan yigindisidir.

Ma'lumki, moddiy resurslardan oqilona foydalanishni tashkil etish, nazorat qilish, istiqbolda rivojlanish uchun ilmiy asoslangan rejalar tuzishda hisob-kitob ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga egadir.

Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlariga rahbarlik qilish va nazorat qilish maqsadida ushbu jarayonlarni miqdor va sifat jihatidan tavsiflash xalq xo'jaligi hisobi asosida amalga oshiriladi. Bizning mamlakatimizda xalq xo'jaligi hisobining yagona tizimi mavjud. Ushbu tizim mamlakatimizning hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida bir maromda ma'lum yo'nalishda rivojlanishini ta'minlaydi.

Xalq xo'jaligi hisobining ob'ekti-bu alohida tarmoqlar va korxonalar hisob-kitob ishlarini o'tkazish asosidagi yagona xalq xo'jaligi hisobi hisoblanadi. Alohida olingan korxona, muassasa va tashkilotlardagi hisob-kitob xalq xo'jalik hisobi yagona tizimining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi va unga operativ - texnik, buxgalteriya va statistik hisoblar kiradi.

Xalq xo'jaligi hisobi tizimida yer kadastr ham muhim o'rin tutadi.

Operativ-texnik hisob- bu alohida xo'jalik yumushlarini bajarish jarayonida ularga joriy rahbarlik va nazoratni amalga oshirish vositasidir. U bajarilgan ishlarining turi va hajmlari to'g'risida, xom-ashyolardan foydalanilganlik,

inshootlar quvvati, mehnat xarajatlari, bajarilgan ishlarning muddatlari va sifati, olingan materiallar miqdori, sifati va boshqalar to'g'risida ma'lumot beradi.

Masalan, qishloq xo'jalik korxonalarida operativ-texnik hisob tuproqqa ishlov berish, ekinlarni ekish, ularni parvarishlash, shuningdek yangi yerlarni o'zlashtirish, melioratsiya va kimyoviy ishlov berish yo'li bilan yer turlarini yaxshilash, tuproq eroziyasiga qarshi kurash signallari bilan bog'lik ishlarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi nazoratini ta'minlaydi. Operativ-texnik, hisob-kitoblarda asosan natural birliklardan foydalaniladi, shuningdek statistika yordamida jamlanadi.

Buxgalteriya hisobi-bu ma'lum vaqt ichida xalq xo'jaligi rejalari bajarilishini alohida uchastkalarda har bir korxona faoliyatini kuzatish va nazorat qilish usulidir. Barcha ishlab chiqarish vositalari, yalpi va tovar maxsulotlari, xom-ashyolar va materiallar buxgalteriya hisobi ostida bo'ladi. Buxgalteriya hisobida natural o'lchovlar bilan birgalikda qiymat o'lchovlaridan ham foydalaniladi. Buxgalteriya hisobi aniq bir korxona faoliyatini tizimli tarzda nazorat qilish va rahbarlik qilishning muhim vositasidir.

Turli xil ijtimoiy voqelikni o'rganish va nazorat qilish statistik hisob-kitobda amalga oshiriladi. Ijtimoiy turmushning turli qirralarini, jumladan, ishlab-chiqarish, madaniy-maishiy va boshqa sohalarni tavsiflaydigan sonli ko'rsatkichlar majmuasi statistika deyiladi. Statistika turli-tuman ijtimoiy voqeliklarni sifat qirralari bilan chambarchas bog'lik holda miqdoriy tomonlarni o'rganadi.

O'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yer kadastri xalq xo'jaligi hisobining umumiy tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

U ham bo'lsa yer kadastrining ob'ekti hisoblangan yerning xususiyatlari bilan bog'lik. Yer mehnatning umumiy vositasidir, mehnat jarayonini amalga oshirishning zaruriy shartidir.

U ishlab chiqarish vositasi sifatida qishloq xo'jaligida, sanoatda, transportda hamda insoniyat moddiy faoliyatining boshqa barcha tarmoqlarida gavydalanadi.

Ammo yer boshqa ishlab chiqarish vositalaridan anchagina farq qiladi.

Asosiylari quyidagilardir:

- 1.Yerdan tashqari barcha ishlab chiqarish vositalari inson mehnatining mahsulidir, yer esa tabiatning maysuli. U tabiat in'omi sifatida mehnatdan oldin paydo bo'lgan hamda ushbu mehnatning tabiiy sharoitidir.
2. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan ishlab chiqarish vositalari miqdor jihatdan ko'payadi va sifat jihatdan o'zgarib boradi. Yerga kelganda, uning yuzasi (maydoni) yer sharining quruqlik qismi bilan chegaralangandir. Yerni biron-bir ishlab chiqarish vositasi bilan almashtirish imkoniyati mavjud emas.
- 3.Yerdan foydalanish doimiy joy bilan bog'liq. Uni ishlab chiqarish vositasi sifatida bir joydan boshqasiga ko'chirish mumkin emas. Boshqa ko'pgina ishlab chiqarish vositalari doimiy o'rni bilan bog'lanmagan.
- 4.Barcha ishlab chiqarish vositalari foydalanish jarayonida eskiradi, o'zlarining foydalanish xususiyatlarini yo'qotadi va nihoyat, ishlab chiqarish jarayonidan umuman chiqib ketadi. Yer esa vaqtning yemiruvchi ta'siri izmida bo'lmagan doimiy ishlab chiqarish vositasidir. Buning ustiga yerdan to'g'ri foydalanish natijasida uning unumdorligi ortib boradi.

Yuqoridagilardan yana bir karra xulosa qilish mumkinki, yer o'ziga xos bo'lgan ishlab chiqarish vositasidir.

Yer uchastkalari turli o'lchamlarda, shakllarda relyefda, tuproqlarda, tabiiy o'tlarda va gidrografik sharoitda uchraydi. Yer maydonlarining kenglik sharoiti qishloq xo'jaligida katta ahamiyatga ega. Negaki, ular ishlab chiqarish jarayonlariga emas, balki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga ta'sir ko'rsatadilar. Uchastkalarning o'lchamlari, shakllari, joyning relyefi va yerning boshqa xususiyatlari ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarishni tashkil etish xarakterini belgilaydi. Mehnat unumdorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi yerlarning kenglik sharoitini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi hamda yer kadastrini plan-xaritalar yordamida yuritish imkoni beradi. Yer ayniqsa qishloq xo'jaligida eng asosiy ishlab chiqarish vositasidir. Qaysiki, u siz qishloq xo'jaligi

ishlab chiqarishi mumkin emas. Bundan shu hol ko'rinadiki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni to'g'ridan-to'g'ri yer bilan bog'langan. Turli xil parvarish qilish kabi inson faoliyati natijasida yer mehnat predmeti sifatida gavdalanadi. Shu bilan birga madaniy ekinlarni yetishtirish jarayonida odamlar tuproqning mexanik birdaniga mehnat quroliga ham aylantiradilar. Shunday qilib, mehnat predmeti va mehnat quroli funksiyalarini baravariga bajargani holda yer qishloq xo'jaligining eng asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida gavdalanadi.

Qishloq xo'jaligida ko'pincha yerning ustki gumuz qatlami, ya'ni unumdorlik xususiyatlariga ega bo'lgan qismi tuproqdan foydalaniladi. Yerning unumdor qatlami unchalik qalin emas, 20-50 sm ancha yaxshi sharoitlarda u 1,5 metrdan oshmaydi. Tuproq bu ko'p ming yillar davomida tabiatda kechayotgan uzoq muddatli va o'ta murakkab jarayonlar mahsulidir. Tuproqshunoslik olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda 1 sm qalinlikdagi tuproqni vujudga keltirish uchun 150-200 yil zarur.

Qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatidagi yer tushunchasi tuproqdan ancha kengdir. U o'ziga iqlim, alohida uchastkalar relyefi va shakllarini, o'lchamlari va mavjud joylashtirilganligi, ya'ni o'simliklar o'sishi va rivojlanishini belgilaydigan ishlab chiqarishning tabiiy sharoitlarini, atrof-muhit omillarini jami majmuasini jamlaydi. Ular ham o'z navbatida inson xo'jalik faoliyatining yakuniy natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Yuqori unumdor yerlarga mehnat samarali sarflanadi. Yer maydonlarining ushbu xususiyatlarini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlanishida, xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatini natijalarini baholashda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlashda hisobga olish zarur.

Yuqoridagilardan barcha unumdorlikdan xilma-xilligidan uni aniqlash omillarini hamda yer kadastri tizimida tuproq unumdorligini baholashni zaruriyligidan joyni tabiiy sharoitini hisobga olgan holda turli yerlar unumdorligini oshirish hamda ulardan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqishga individual yondoshish zarurligidan dalolat beradi. Shunday qilib, qishloq

xo'jaligida maydonlarning joylashgan o'rni to'g'risidagi ma'lumotlardan tashqari yerning sifat tavsifi hamda ularni bahosi zarur.

Ma'lumki, ishlab chiqarish vositasi sifatidagi yerdan to'g'ri va oqilona foydalanishni tashkil etishdan alohida yer egalari va umuman butun jamiyat manfaatdordir. Yerlardan oqilona foydalanish muammosi o'z navbatida ularni huquqiy, tabiiy va xo'jalik jihatidan o'rganish zarurligini anglatadi. Bu esa o'z navbatida yer kadastrining olib borishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 15-moddasiga binoan "Davlat yer kadastri yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni tashkil etish yer munosabatlarini, yer tuzishni tartibga solish, yer uchun to'lanadigan haq miqdorini asoslash, xo'jalik faoliyatiga baho berish maqsadida xalq deputatlari kengashlarini manfaatdor korxonalar muassasalar tashkilotlar va fukarolarni yer to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangandir. Davlat yer kadastri yerlarning huquqiy tartibi, ularni egalik qiluvchilariga, foydalanuvchilariga, yer toifalariga qarab taqsimlash to'g'risidagi yerlarning sifat darajasi va xalq xo'jaligi qiymati to'g'risidagi zarur ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat".

Davlat yer kodeksini yuritish topografiya-geodeziya, kartografiya, tuproq, geobotanika va boshqa tekshiruvlari hamda izlanishlari, yerga egalik qilish va yerdan foydalanuvchilarni ro'yhatga olish, yerlarni hisobga olish va ularga baho berish bilan ta'minlanadi.

Yer kadastri quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- ◆ yer-mulklarni, yer egaligi va yerdan foydalanuvchilarni ro'yhat qilish;
- ◆ yer maydonlarini miqdor hamda sifat jihatidan hisobga olish;
- ◆ tuproq bonitravkasi va yerlarni iqtisodiy jihatdan baholash.

Yer mulklarini yer egaligi va yerdan foydalanishni ro'yhat qilish yer kadastrining birinchi tarkibiy qismi bo'lib, u yer maydonlarini huquqiy jihatdan xo'jalik holatini ta'minlaydi. Bu tadbir yer mulklari, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning chegaralari bo'yicha yerlarni ma'lum sub'ektlarga qonuniy biriktirib qo'yish va qonuniy rasmiylashtirish, yer mulkdorlariga yer egalari va

yerdan foydalanuvchilarga yerga mulkchilik, egalik qilish va foydalanish huquqini beruvchi Davlat hujjatlarini topshirish, yuqoridagi sub'ektlarni tuman (shahar), davlat yer kadastrı kitobiga qayd qilishni o'z ichiga oladi.

Yer maydonlarining hisobi yer maydonlarining miqdori va sifati haqidagi to'la ma'lumotlarni olish qayta ishlash, ma'lum bir tizimga (tartibga) keltirish hamda saqlash bo'yicha majmualı tadbir hisoblanadi. Yer maydonlarini miqdor jihatdan hisob-kitob qilish ularning ma'lum ma'muriy-hududiy birliklarga, yer toifalariga, yer mulklari, yer egalari, yerdan foydalanuvchilarga va yer turlari bo'yicha taqsimlashi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Yerlarni sifat jihatidan hisob qilishni vazifasi tuproq qatlami hamda yer mulki, yer egaligi va yerdan foydalanishlar nuqtai nazardan turlarni tabiiy meliorativ va xo'jalik holatiga har tomonlama tavsif berishdan iboratdir.

Tuproq bonitirovkasining asosiy maqsadi yerlarni tabiiy barqaror xususiyatlari hamda xo'jalik sharoitida, foydalanish jarayonida olgan fazilatları bo'yicha baholashdan iborat. Tuproq bonitravkasining natijalari yer maydonlarini iqtisodiy jihatdan baholashda xolisona asos bo'lib xizmat qiladi.

Yerlarni iqtisodiy baholash-bu maxsus iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida yer maydonlarini iqtisodiy jihatdan samaradorlik xususiyatini, ularni iqtisodiy unumdorligini qiymat jihatdan o'lchashdir. Yer maydonlarini iqtisodiy jihatdan baholashda yerdan foydalanishning tabiiy (tuproq boniteti ballari orqali), iqlimiy (samarali harorat yig'indisi, yog'ingarchilik miqdori va boshqalar), xo'jalik (ishlab chiqarishning jadallashganlik darajasi) va texnologik (konturlilik, maydonlar shakli, ishchi qiyaliklar va boshqalar), sharoitları butun bir majmua tarzida hisobga olinadi.

Yer resurslaridan oqılona va samarali foydalanish xalq xo'jaligi ahamiyatiga molik bo'lgan muammodir bu o'z navbatida xalq xo'jaligi tarmoqlararo yerlarni optimal tarzda tarqatishni mumkin qadar kamroq harajatlar sarflangan holda har gektar yer maydoni hisobiga ko'proq miqdorda qishloq xo'jalik mahsulotları yetishtirishni tuproq unumdorligini saqlash va muntazam oshirib borishni bildiradi.

Bu maummoni hal qilish yer kadastrini to'la hajmlarda o'tkazish zaruriyatini tug'diradi. Bu haqda 1998 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul kilingan "Davlat yer kadastrini to'g'risida"gi qonunda yoritilgan.

Davlat yerning yagona egasi sifatida yer fondini boshqarishni amalga oshiradi. Bu esa yer kadastriga davlat ahamiyatini beradi. Uning ma'lumotlari, birinchi navbatda yerlarni ro'yhat qilish, ma'lumotlar jamiki yer resurslarini davlat tomonidan boshqarishni yanada takomillashtirish maqsadlarida foydalanibgina qolmasdan, balki yerlarga davlat egalik huquqini muhofaza qilish maqsadlarida shuningdek boshqa mulkdorlar, yer egalari va yerdan foydalanuvchilar huquqlarini ham muhofaza qilishda foydalanadi.

Shuning uchun ham yer kadastrini ma'lumotlari fakatgina iqtisodiy ahamiyatga molik bo'libgina qolmasdan, huquqiy ahamiyatga ham egadir.

Kadastr ma'lumotlari davlat yoki boshqa jamoat maqsadlari uchun yer ajratishni asoslashda katta ahamiyatga egadir. Xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazardan yuqorida ko'rsatilgan maqsadlar uchun birinchi navbatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga yaroqsiz bo'lgan yoki kam yaroqli bo'lgan, shuningdek haligacha hech bir sub'ektga ajratib berilmagan yerlarni ajratish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli bunday masalalarni hal qilishda yer fondining haqiqiy holati, tarqatilishi va mavjud foydalanishi to'g'risida, shuningdek qishloq xo'jalik yerlarining mahsuldorligi to'g'risidagi ma'lumotlarga zaruriyat tug'iladi. Bu ma'lumotlar yer ajratishning anchagina maqbul variantini asoslash uchun zarurdir.

Ishlab chiqarishning yil sayin rivojlana borishi bilan ko'proq tabiiy resurslar tortila boradi. Bunda o'z navbatida iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va biologik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi kuchayadi. Shuning uchun ishlab chiqarishning maqbul holda amalga oshishi ham jamiyat hamda tabiat qonunlari to'g'risida chuqur va har tomonlama bilimlarga asoslanadi. U fakatgina moddiy boyliklar yaratibgina qolmasdan, shu bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilishi, tabiatdagi ekologik barkarorlikni ushlab turishi zarur. Shu sababli ham tabiiy resurslarni,

jumladan yer resurslarini muhofaza qilish xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan muammodir va shuning uchun ham unga davlat tomonidan katta ahamiyat beriladi. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida ham atrof-muhitni, jumladan yer resurslarini muhofaza qilish, yer resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bunday tadbirlar sirasiga hududni oqilona tashkil etish, tuproq unumdorligini oshirish, yerlarni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, suv bosishdan, zaxlanishdan, qayta sho'rlanishdan, qaqrab qolishdan, ishlab chiqarish chiqindilari, kimyoviy radioaktiv moddalar bilan ifloslanishdan himoya qilish, buzilgan yerlarni qayta ekinzorlarga aylantirish kabilar kiradi. Bu masalalarni hal qilish mamlakat yer resurslarini sifat holati to'g'risida to'liq va har tomonlama ma'lumotlarga asoslanishi zarur.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada jadallashtirish va rivojlantirish bo'yicha hukumatimiz olib borayotgan agrar siyosatni amalga oshirishda ham yer kadastr katta ahamiyat kasb qiladi.

Jumladan, "Yer solig'i to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi "(kooperativ) Shirkat xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlarni amaliyotga tadbiq qilish, qishloq xo'jaligida agrar islohotlarni amalga oshirish birinchi galda yer kadastr ma'lumotlariga tayanadi.

Yer kadastr ma'lumotlari birinchi galda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish uchun zarurdir.

Ma'lumki, respublikamiz viloyatlari, tumanlari o'zlarining joylashuvi bo'yicha turli mintaqalarga, iqlim, relyef va tuproq sharoitlariga egadir. Bunday holda ushbu viloyatlar, tumanlar bo'yicha qishloq xo'jaligi tarmoqlarini to'g'ri, ilmiy asoslangan holda belgilash, asosiy ekinlar hosildorliklarini istiqbolga rejalashtirish hamda shu asosda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish so'zsiz yer kadastr ma'lumotlariga asoslanadi.

Yer kadastr materiallari yerdan foydalanganlik uchun haq undirishda birlamchi asos bo'lib xizmat qilishi zarur. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida

yerdan foydalanganlik uchun haq to'lanadi. Yer uchun haq har yili to'lanadigan yer solig'i shaklida olinadi, uning miqdori yer uchastkalarining sifatiga, joylashishiga va suv bilan ta'minlash darajasiga qarab belgilanadi. Yer uchastkalari ijaraga berilganda yer uchun haq ijara haqi shaklida olinadi, uning miqdori taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanadi, lekin u yer solig'i stavkasining bir baravaridan kam va uch baravaridan ko'p bo'lmasligi kerak, yerdan qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda yer solig'i stavkasining bir baravari miqdorida bo'ladi.

Yer kadastri ma'lumotlari yerlar holatini va yerlardan foydalanishni yaxshilash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish uchun ham nihoyatda zarur. Davlat yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdor ishga o'z yerlaridan foydalanishlarida yerdan belgilangan maqsadga muvofiq oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning tabiatning muhofaza qiluvchi texnologiyalarini qo'llash, o'z xo'jalik faoliyati natijasida hududda ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik, tuproqni suv va shamol eroziyasidan, qayta sho'rlanish va botqoqlanishdan asrash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish kabi majburiyatlar yuklagan. Bularni amalga oshirish uchun albatta yer maydonlarini sifat jihatidan hisob-kitobi ma'lumotlari zarur.

Ma'lumki, melioratsiya, jumladan qishloq xo'jaligi yerlarini irrigatsiya va suvdan foydalanish tizimiga asoslangan sun'iy sug'orish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi va yerlardan samarali foydalanish hamda ularning unumdorligini oshirish shartidir. Qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerlarni sug'orishni ta'minlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan doimiy yoki muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlar sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi. Kadastr baholashiga ko'ra o'rtacha tuman bonitet balidan 20 foizdan ko'p bo'lgan sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi. Bunday sug'oriladigan yerlar maxsus muhofaza qilinishi lozim va ularning sug'orilmaydigan yerlar jumlasiga

o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Yuqoridan ko'rinib turibdiki, bunday hollarda ham yer kadastrı materiallari, jumladan yer hisobi va yerlarni baholash ma'lumotlari katta rol o'ynaydi.

Yer kadastrı ma'lumotlari hozirgi sharoitda ayniqsa yer tuzish ishlarini, jumladan xo'jaliklararo va ichki xo'jalik yer tuzish loyihalarini iqtisodiy asoslashda o'ta zarurdir. Ma'lumki, keyingi yillarda respublikamiz xalq xo'jaligida yer egaligi, yerdan foydalanish va yer uchastkalariga mulkdorlarning turli shakllari vujudga kelmoqda. Bu esa yuqorida qayd qilingan sub'ektlarga yer ajratish yoki ichki maydonlarini takshil etish, yangi tipdagi almashlab ekishlarni tashkilsh etishni takozo qiladi. Bu hol esa o'z navbatida yer kadastrı materiallariga asoslanadi.

Yer kadastrı qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarish faoliyatini, eng avvalo, yerlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish uchun katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan qishloq xo'jalik yerlarining o'lchamlari va holatini hisob-kitob qilibgina qolmasdan, balki ular mahsuldorligini qiyosiy baholash, birinchi navbatda alohida qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish samaradorligi nuqtai nazaridan baholash zaruriyati tug'iladi.

Shunday qilib, yer kadastrining vazifasi hozirgi sharoitda ko'p qirrali. Ular xalq xo'jaligi talablaridan, yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish zaruriyatlaridan kelib chiqqan. Bularning barchasi yer kadastrining xalq xo'jaligi ahamiyatiga molik ekanligini ko'rsatadi.

5.3. YER KADASTRINING TURLARI VA ASOSIY TAMOIYILLARI

Yer kadastrining turlari. O'tkazilish mazmuni va tartibiga qarab yer kadastrı asosan 2 turga bo'linadi: asosiy yoki birlamchi va joriy yoki kundalik.

Asosiy (Birlamchi) yer kadastrining vazifasi yerlarning tabiiy, xo'jalik hamda huquqiy holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni birlamchi sifatida olish va yer kadastrı hujjatlarida yuritishdan iborat. Asosiy yer kadastrı davriy ravishda qayta tasvirga olishdan, yerlarni kuzatuvdan, yer-baholash ishlarini bajargandan so'ng,

yangi yer egalari yoki yerdan foydalanuvchilar tashkil etilganda, shuningdek, qaytadan tasdiqlangan yer kadastr hujjatlarini navbatdagi to'ldirish chog'ida o'tkaziladi.

Asosiy yer kadastrida yer egaliklari (yerdan foydalanuvchilar)ning umumiy maydonlari, yer turlarining tarkibi, yerlarning sifat holati, tuproqlarning bonitirovkasi va yerlarning iqtisodiy baholari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan materiallar va hujjatlar to'planadi, tahlil qilinadi. To'plangan materiallar chunki tahlil qilinadi, ularning to'laligi, aniqligi va ob'ektivligi tekshiriladi. Zarur hollarda mavjud materiallar taxrir qilinadi yoki mavjud bo'lmagan materiallarni olish uchun qo'shimcha ishlar bajariladi. Shunday ekan, asosiy yer kadastr yeri fondining holati to'g'risida aniq ma'lumotlar beradi. Yer maydonlari to'g'risida bunday aniq ma'lumotlarning mavjud bo'lishi kelgusida undan oqilona va samarali foydalanish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ma'lumki, yer kadastr ma'lumotlari, jumladan, yer turlari va tarkibi maydonlari bo'yicha, doimo o'zgarib turadi. Ushbu yer kadastr ma'lumotlarini shu kun talab darajasida bo'lishini ta'minlash uchun bu o'zgarishlarni o'z vaqtida yer kadastrida yoritib borish zarur. Bu esa joriy yoki kundalik yer kadastrini yoritib borish zaruriyatini tug'diradi.

Joriy yer kadastr - bu asosiy yer kadastr o'tkazilgandan so'ng yerlardan foydalanishda ro'y beradigan o'zgarishlarni aniqlash va yer kadastr hujjatlariga tushirishdir. Bundan tashqari, boshlang'ich yozuvlardagi xatolarni tuzatish va zamon talablariga mos qo'shimcha ma'lumotlarni ham kiritish joriy yer kadastrining vazifasiga kiradi. Boshqacha qilib aytganda, joriy kadastr yer kadastr ma'lumotlarining bugungi kun darajasida bo'lishini ta'minlaydi.

Asosiy va joriy kadastr o'zaro bog'lik bo'lgan yer kadastrining bosqichlaridir. Asosiy kadastr joriy kadastr yuritish uchun asos yaratadi. Joriy kadastr, asosiy kadastr ma'lumotlarini yangilagani va to'ldirgani holda yer to'g'risidagi ma'lumotlarni sistemali tarzda hozirgi zamon talabi darajasida ushlab turadi.

Shu sababli ham joriy kadastr asosiy kadastr ishlari tugagandan so'ng birdaniga tashkil etilishi zarur.

Yer kadastr ma'lumotlarining aniqligi yer tuzish, o'rmon tuzish, tasvirga olish va kuzatuv materiallarining sifatiga bog'lik. Joriy yer kadastrida asosiy yer kadastr materiallaridan foydalaniladi.

Yer kadastr hujjatlarining turlari. Asosiy va joriy yer kadastr ularga mos yer kadastr hujjatlarida yoritiladi. Yer kadastr hujjatlari tekst va plan-xarita turlariga bo'linadi.

Tekst hujjatlari kitob, vedomost, ocherk, tushuntirish xatlari ko'rinishida bo'lib, yer kadastr ma'lumotlari natural ko'rsatkichlarda yoritiladi. Plan-xarita hujjatlari-bu hisobga olinayotgan hududni ma'lum masshtabda qogozda aks ettirishdir, ular plan, xarita, chizmalar, kartogrammalar va boshqa hujjatlar ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

Tekst va plan - xarita hujjatlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Tekst hujjatlari plan - xarita ma'lumotlari asosida to'ldiriladi.

Yer kadastr hujjatlari o'zlarining mazmuni va mohiyati bo'yicha asosiy, yordamchi, birlamchi va yer kadastrini yuritish uchun asos bo'ladigan hujjatlarga bo'linadi. Asosiy yer kadastr hujjatlari o'z navbatida hisob-kitob va hisobot turlariga bo'linadi. Tuman (shahar) bo'yicha yer kadastrining asosiy hisob-kitob hujjati- bu tuman (shahar) davlat yer kadastr kitobidir. Ushbu kitobda tuman (shahar) bo'yicha barcha yer egaliklari (yerdan foydalanuvchilar) ro'yhati, yerlarning miqdor va sifat hisobi, tuproq bonitirovkasi va yerlarni iqtisodiy baholash ma'lumotlari qayd qilinadi. O'z mohiyati bo'yicha ikkinchi muhim hujjat bu tumanning navbatchi xaritasidir, qaysiki u tumandagi barcha yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning hududiy joylashuviga tasavvur beradi. Yer kadastrining asosiy hisobot hujjati bu tuman yer balansidir.

Yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning asosiy yer kadastr hujjatlari bu barcha yerdan foydalanishni hisobga olib boradigan hamda ularda bo'ladigan o'zgarishlarni sistemali tarzda yoritadigan hujjatlardir. Bunga asosan yerlarga

doimiy egalik qilish yoki doimiy foydalanish huquqlarini beruvchi davlat dalolatnomalari, korxona, muassasa va tashkilotlarning yer kadastri kitobi, yer egaliklari, yerdan foydalanuvchilarning planlari kiradi. Yordamchi yer kadastri hujjatlariga asosan daftarlar, yer egaliklari (yerdan foydalanuvchilar) ro'yhati, hisoblarga ilovalar, tushuntirish xatlari, ocherklar, kartogrammalar, diagrammalar kiradi. Ular asosiy yer kadastri hujjatlarida keltiriladigan ma'lumotlarni to'ldiradi. Asosiy yer kadastri hujjatlarida yer kadastrini yuritish uchun birlamchi hujjatlar ma'lumotlaridan foydalaniladi. Boshlangich ravishda yer kadastrini yuritish hamda joriy o'zgarishlarini kiritishda birlamchi hujjatlar asos bo'ladi. Bunday hujjatlarga asosan yer tuzish, o'rmon tuzish, tasvirga olish, yerlarni yo'qlama qilish, tuproq, agrokimyo, meliorativ va geobotanik qidiruv matriallari tuproq bonitirovkasi va yerlarni iqtisodiy baholash shkalalari, maydonlarni hisoblash vedomostlari kiradi. Asosiy yer kadastri hujjatlarida yer kadastrini yuritishda yuqoridagilar bilan birgalikda yer kadastri ma'lumotlarini qonuniy tasdiqlovchi yer kadastrini yuritishga huquqiy asos bo'ladigan hujjatlar ham zarur. Bularga asosan "Yer kodeksi", Vazirlar Mahkamasining, viloyat va tuman xokimiyatlarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi qarorlari kiradi.

Yer kadastrining asosiy prinsiplari. Yer kadastrini o'tkazishda bir qator prinsiplarga amal qilish zarur. *Yer kadastrining bunday asosiy prinsiplari quyidagilar:* birlik, qonuniylik, tanaffussizlik, ob'ektivlik, ko'rgazmalilik, markazlashgan rahbarlik va boshqalar. Birlik prinsipiga muvofiq davlat yer kadastri respublikamiz yagona yer fondini yagona uslubiyat asosida qamrab olishi zarur. Ammo yer kadastrining birligi – bu barcha yer toifalari va yer egaliklari (yerdan foydalanuvchilar)ning bir xilda yoritilishi degani emas albatta. Qoidaga muvofiq qishloq va o'rmon xo'jaligi yerlari bo'yicha ma'lumotlar ancha keng holda to'planib o'rganiladi. Yer kadastrini yuritishda qonuniylik prinsipiga alohida e'tibor beriladi. Bu prinsiplarning bajarilishi asosan davlatimizning qonun hujjatlari bilan ta'minlanadi. Bularga "Yer kodeksi", yerlardan foydalanishda davlat nazorati to'g'risidagi qoida, davlat yer kadastrini yuritish bo'yicha

yo'riqnomalar va ko'rsatmalar hamda yerlardan foydalanish, yer tuzish va yerlarni muhofaza qilish bo'yicha boshqa hujjatlar kiradi. Yer kadastrini yuritish uzluksiz amalga oshirilishi zarur, ya'ni yer kadastrini yerlardan foydalanishda ro'y beradigan o'zgarishlarni doimiy ravishda hisobga olib yer fondi holatining tavsifini berish zarur. Bundan ko'rinadiki, yer kadastrini ma'lumotlari yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy holatlarida bo'ladigan joriy o'zgarishlarni sistemali tarzda aniqlanib turilishi kerak. Yer kadastrini ob'ektiv bo'lishi zarur, ya'ni uning barcha ko'rsatkichlari qat'iy aniq bo'lishi, haqiqatga to'la mos kelishi zarur. Yerlardan foydalanishning huquqiy, tabiiy va xo'jalik holatlariga mos bo'ladigan faqatgina ob'ektiv ma'lumotlar mamlakat yer fondidan to'g'ri foydalanish va boshqarish bo'yicha davlat vazifalarini bajarish uchun muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun ham yer kadastrini hujjatlarini birlamchi yoki joriy o'zgarishlarini kiritishda ushbu o'zgarishlarni tasdiqlovchi hujjatlarga asoslanadi.

Ob'ektivlik nuqtai nazaridan yer egaliklarining o'zlari ham yer kadastrini to'g'ri yuritishlari katta ahamiyatga egadir.

Shuning uchun ham yer egaligi (yerdan foydalanuvchi) zaruriy hujjatlarda yer kadastrini yuritishi, yer tarkibida ro'y bergan o'zgarishlarni hisobga olgan holda yer egaligi (yerdan foydalanish)ning holati to'g'risida hisobot taqdim etishi zarur.

Xo'jaliklarning kundalik ishlab chiqarish faoliyatida yer kadastrini ma'lumotlaridan keng foydalanish uchun ular mumkin qadar ko'rgazmali bo'lishi zarur. Ya'ni, yer kadastrini oddiy bo'lishi hamda turli plan-xarita materiallarida ham aks ettirilgan bo'lishi kerak.

Yer kadastrini yuritishning to'g'riligi hamda ulardan keng miqyosda foydalanish markazlashgan rahbarlik asosida davlat hokimiyati organlari tomonidan nazorat qilish bilan ta'minlanadi.

Yer kadastrining birligini ta'minlash maqsadida yer kadastriga rahbarlik, shuningdek yerlardan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish respublika Qishloq xo'jaligi va Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Yer kadastrini bilan Qishloq xo'jaligi va Suv xo'jaligi vazirligidagi yer tuzish organlari

shug'ullanadilar. Tuman yer kadastri bilan hokimiyat qoshidagi yer tuzish inspeksiyasi shug'ullanadi.

5.4. DAVLAT KADASTRLARINING YAGONA TIZIMIDA YER KADASTRINING O'RNI, VAZIFASI VA AHAMIYATI.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi davlat kadastrlari Yagona tizimini tashkil etish hamda uni yuritish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida» gi 255-sonli qaroriga binoan bugungi kunda Respublikada qator rivojlangan xorijiy davlatlardagi singari davlat kadastrining yagona tizimi yaratilmoqda. Davlat kadastrining yagona tizimi (DKYT) bu barcha turdagi davlat va tarmoq kadastrlarini yagona tamoyil asosida birlashtiruvchi ko'p qirrali informatsion tizim hisoblanadi. DKYT yer yuzasining har bir hisob-kadastr uchastkasi bo'yicha ularning geografik holatini, huquqiy hamda xo'jalik statusini yoritgan holda yer, suv, o'rmon, qazilma boyliklar, xo'jalik resurslari to'g'risidagi hujjatlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bunday takomillashgan tizim asosan O'zbekiston Respublikasining tabiiy iqtisodiy salohiyatini umumdavlat nuqtai nazaridan majmuali tarzda hisob kitob qilish va baholashni ta'minlash maqsadida yaratiladi hamda yuritiladi. Yer uchastkalari va ob'ektlarning huquqiy holatlari to'g'risidagi ma'lumotlar, belgilangan tartibga mos holda aniqlangan tarmoq kadastrlarining ma'lumotlari DKYT ning asosini tashkil etadi.

DKYT asosan davlat boshqaruv tizimini, yuridik hamda jismoniy shaxslarni ularning faoliyatlari uchun zaruriy ma'lumotlar hamda hududlar va ko'chmas mulk to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tezkorlikda ta'minlashga mo'ljallangan. Uning ma'lumotlari davlat boshqaruvining barcha tizimlari, yuridik hamda jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el fuqarolari uchun zaruriy kuchga egadir. Kadastr hujjatlari mulkchilik hamda xo'jalik yuritishning barcha shakllarining ob'ektlari to'g'risidagi birlamchi huquqiy iqtisodiy va texnik ma'lumotlar sifatida qabul qilinishi zarur.

DKYT ning ob'ektlari quyidagilardir:

- ◆ tabiiy resurslar (yer, suv, o'rmon, yer osti qazilma boyliklari va boshq.);
- ◆ binolar va inshootlar, transport va muhandislik kommunikatsiyalari;
- ◆ geodezik tarmoqlar punktlari;
- ◆ DKYT vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ob'ektlar;

DKYTning ob'ektlari to'g'risidagi ma'lumotlar respublika bo'yicha quyidagicha yagona texnologik asosida qaraladi:

- ◆ davlat yer kadastri bo'yicha – joylardagi davlat hokimiyati tizimi, qishloq xo'jaligi vazirligi va suv xo'jaligi vazirligi tizimi tomonidan;
- ◆ davlat suv kadastri bo'yicha gidromelioratsiya bo'yicha Bosh boshqarma (tabiiy suv manbaalari), geologiya va mineral resurslar Davlat qo'mitasi (yer osti suvlari), qishloq xo'jaligi vazirligi va suv xo'jaligi vazirligi (suv resurslaridan foydalanish va yerlarning meliorativ holati);
- ◆ davlat o'rmon kadastri bo'yicha qishloq xo'jaligi vazirligi va suv xo'jaligi vazirligi (o'rmonchilik Bosh boshqarmasi);
- ◆ davlat yer osti qazilma boyliklari kadastri bo'yicha geologiya va mineral resurslar Davlat qo'mitasi;
- ◆ alohida muhofaza qilinadigan hududlar bo'yicha tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va Fanlar Akademiyasi;
- ◆ hayvonot dunyosi, o'simliklar dunyosi bo'yicha Fanlar Akademiyasi;
- ◆ ko'chmas mulk kadastri bo'yicha joylardagi davlat hokimiyati organlari hamda Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Davlat qo'mitasi;
- ◆ davlat qurilish kadastri bo'yicha joylardagi davlat hokimiyati organlari hamda arxitektura va qurilish Davlat qo'mitasi;

DKYT ning ma'lumotlari asosan quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

- ◆ iqtisodiy islohatlarni, jumladan yer islohatini amalga oshirish;
- ◆ hududni majmuali tarzda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishga dasturlar va bashoratlar tuzish;

- ◆ tabiiy resurslar va ko'chmas mulkni majmualar tarzda hisob qilish, baholash hamda davriy monitoringini o'tkazish;
- ◆ xo'jalik yuritish sub'ektlari tomonidan tabiiy ob'ektlar va hududlarga yetkazilgan zararni baholash;
- ◆ hududlar to'g'risida ma'lumotlar talab qilinadigan boshqa faoliyatlarni amalga oshirish.

DKYTni vujudga keltirish hamda ushbu tizim faoliyatini takomillashtirib borish O'zbekiston Respublikasi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Davlat qo'mitasi hamda uning viloyatlar va tumanlar (shahar) hokimiyatlaridagi ko'chmas mulk kadastri xizmatlariga yuklatilgan. Ular o'z faoliyatlarini Vazirlar Mahkamasi, viloyat va tuman (shahar) hokimiyatlari tomonidan tasdiqlangan qoidalariga muvofiq holda olib boradilar.

DKYT quyidagi tamoyillarga binoan yuritiladi:

- ◆ respublikaning barcha hududlarini to'la qamrab olish;
- ◆ markazlashgan rahbarlik;
- ◆ kadastr ma'lumotlarini qayta ishlash va taqdim etishning birligi;
- ◆ barcha turdagi kadastrlar tizimining yer kadastri asosida shakllanishi;
- ◆ avtomatlashtirilgan informatsion texnologiyalarni qo'llash;
- ◆ ma'lumotlarning ob'ektivligi, to'raligi, aniqligi hamda haqqoniyligi;
- ◆ ma'lumotlarni to'ldirilishi va yangilanishining uzluksizligi;
- ◆ ma'lum chegaralangan foydalanuvchilardagi mavjud ma'lumotlarning maxfiyligi.

Shunday qilib, respublikada shunday yagona informatsion kadastr tizimi vujudga kelmoqdaki, u so'zsiz iqtisodiyotimiz tarmoqlari uchun hozirgi bozor munosabatlari sharoitida so'zsiz muhim amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Tizim tarkibiga kiruvchi yer kadastri qolgan barcha kadastrlar ob'ektlari aynan ushbu maydonlarning ustki yoki ostki qismlarida shakllangan va joylashgan. Ushbu ob'ektlar bo'yicha tarmoq kadastrlarini yuritishda birinchi galda yer

to'g'risidagi ma'lumotlarga tayaniladi. Bu hol so'zsiz albatta davlat yer kadastrini to'g'ri va har tomonlama asoslangan holda yuritishni taqozo qiladi.

Yer resurslaridan to'g'ri, oqilona hamda samarali foydalanish iqtisodiyot ahamiyatiga molik bo'lgan muammodir. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotdagi mavjud yerlarni imkoni boricha tarmoqlararo optimal tarzda taqsimlashni, mumkin qadar kamroq xarajatlar sarflagan holda har gektar yer maydoni hisobiga ko'proq miqdorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni, tuproq unumdorligini saqlash va muntazam ravishda, ilg'or agrotexnik tadbirlar asosida, oshirib borishni bildiradi. Bu muammoni hal qilish yer kadastrini to'liq hajmlarda o'tkazish zarurligini tug'diradi.

Davlat yerning yagona to'laqonli egasi sifatida yer fondini boshqarishni amalga oshiradi. Bu esa o'z navbatida yer kadastriga davlat ahamiyatini beradi. Uning ma'lumotlari, birinchi navbatda, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxat qilish, yer resurslarini davlat tomonidan boshqarishni yanada takomillashtirish maqsadlarida foydalanibgina qolmasdan, balki yerlarga davlat egaligi huquqini muhofaza qilish maqsadlarida, shuningdek, boshqa mulkdorlar va foydalanuvchilar huquqlarini ham muhofaza qilishda foydalaniladi. Shu nuqtai nazardan ham yer kadastri ma'lumotlari faqatgina iqtisodiy ahamiyatga molik bo'libgina qolmasdan, huquqiy ahamiyatga ham egadir.

Yer kadastri ma'lumotlari davlat yoki boshqa jamoat maqsadlari uchun yer ajratishni asoslashda ham katta ahamiyatga egadir. Xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazardan yuqorida qayd qilingan maqsadlar uchun birinchi navbatda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida yaroqsiz bo'lgan yoki kam yaroqli bo'lgan, shuningdek, hech bir sub'ektga ajratib berilmagan yerlarni ajratish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli bunday masalalarni hal qilishda yer fondining haqiqiy holati, taqsimoti va amaldagi foydalanishi to'g'risida, shuningdek qishloq xo'jalik yerlarining mahsuldorligi to'g'risidagi ma'lumotlarga zaruriyat tug'iladi. Bu ma'lumotlar yer ajratishning maqbul yechimlarini asoslash uchun ham zarurdir.

Ishlab chiqarishning yil sayin rivojlana borishi bilan unga ko‘proq tabiiy resurslar miqdori jalb etib boriladi. Bunda o‘z navbatida iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va biologik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi kuchayadi. Shuning uchun ishlab chiqarishning maqbul holda amalga oshirilishi ham jamiyat hamda tabiat qonunlari to‘g‘risida chuqur va har tomonlama bilimlarga asoslandi. U faqatgina moddiy boyliklar yaratibgina qolmasdan shu bilan bir vaqtda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatdagi mavjud ekologik barqarorlikni ushlab turishi zarur. Shu nuqtai nazardan ham tabiiy resurslarni, jumladan yer resurslarini muhofaza qilish iqtisodiyot ahamiyatiga molik bo‘lgan muammo hisoblanadi. Shuning uchun unga davlat tomonidan katta ahamiyat beriladi. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksida ham atrof-muhitni, jumladan yer resurslarini muhofaza qilish, yerlardan oqilona foydalanish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Bunday tadbirlarga hududni oqilona tashkil etish, tuproq unumdorligini oshirish, yerlarni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, suv bosishdan, zaxlanishdan, qayta sho‘rlanishdan, qaqrab qolishdan, ishlab chiqarish chiqindilari, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishdan himoya qilish, buzilgan yerlarni tiklash va ularni qayta ekinzorlarga aylantirish kabilar kiradi. Bunday dolzarb muammolarni hal qilish mamlakat yer resurslarining sifat holati to‘g‘risida to‘liq, ishonchli va sifatli ma’lumotlarga asoslanishi zarur.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini yanada jadallashtirish va rivojlantirish bo‘yicha hukumatimiz olib borayotgan agrar siyosatni amalga oshirish bo‘yicha ham yer kadastri bo‘yicha katta vazifalar yuklatilgan. Jumladan, “Yer kodeksi”, “Soliq kodeksi”, “Shirkat (kooperativ) xo‘jaligi to‘g‘risida”, "Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida", "Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida"gi qonunlarni amaliyotga tatbiq qilish, qishloq xo‘jaligida agrar islohatlarni amalga oshirish birinchi galda yer kadastri ma’lumotlariga asoslanadi.

Ma’lumki, respublikamiz viloyatlari, tuman (shahar)lari o‘zlarining joylashuvi bo‘yicha turli mintaqalarga, iqlim, relyef va tuproq sharoitlariga egadir. Bunday holda ushbu viloyatlar, tumanlar bo‘yicha qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini

to'g'ri, ilmiy asoslangan holda belgilash, asosiy ekinlar hosildorliklarini kelgusiga to'g'ri rejalashtirish hamda shu asosda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish yer kadastrini ma'lumotlari asosida olib boriladi.

Yer kadastrini materiallari yerdan foydalanganlik uchun haq undirishda birlamchi asos bo'lib xizmat qilishi zarur. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanganlik uchun haq to'lanadi. Yer uchun haq har yil to'lanadigan yer solig'i shaklida olinadi, uning miqdori yer uchastkalarining sifatiga, joylashgan o'rniga va suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab belgilanadi. Yer uchastkalari ijaraga berilgan taqdirda yer uchun to'lov ijara haqi shaklida olinadi, uning miqdori tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi, lekin u yer solig'i stavkasining bir baravaridan kam va uch baravaridan ortiq bo'lmasligi kerak. Yerdan qishloq xo'jaligi ehtiyojlarida foydalanilgan taqdirda ijara haqi yer solig'i stavkasining bir baravari miqdorida bo'ladi.

Yer kadastrini ma'lumotlari yerlar holatini va ulardan foydalanishni yaxshilash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish uchun ham nihoyatda zarur. Davlat tomonidan yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdorlariga yerdan belgilangan maqsadga muvofiq oqilona va samarali foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishda tabiatni muhofaza qiluvchi texnologiyalarni qo'llash, o'zining xo'jalik faoliyati natijasida hududda ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik, tuproqni suv va shamol eroziyasidan, qayta sho'rlanish, botqoqlanish va ifloslanishdan asrash bo'yicha qator tadbirlar ishlab chiqish kabi majburiyatlar yuklagan. Bularni amalga oshirish uchun albatta yer maydonlarining sifat jihatidan olib boriladigan hisob-kitob ma'lumotlari zarur bo'ladi.


Ma'lumki, melioratsiya, jumladan qishloq xo'jaligi yerlarini irrigatsiyalash va suvdan foydalanish tizimiga asoslangan sun'iy sug'orish respublikamiz qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishning birlamchi asosi va yerlardan samarali foydalanish hamda ularning unumdorligini oshirish shartidir. Yer kadastrini ma'lumotlarini hozirgi sharoitda ayniqsa yer tuzish ishlarini, jumladan xo'jaliklararo va ichki xo'jalik yer tuzish loyihalarini iqtisodiy jihatdan asoslashda

o'ta zarurdir. Qayd qilish zarurki, keyingi yillarda respublikamizdagi yerdan foydalanuvchilar va yer uchastkalari mulkdorlarining turli shakllari vujudga kelmoqda. Bu esa yuqorida qayd qilingan sub'ektlarga yer ajratish ularning maydonlarini tashkil etish, yanga shakldagi almashlab ekishlarni joriy qilishni taqazo qiladi. Bu hol esa o'z navbatida yer kadastr materiallariga asoslanadi.

Yer kadastr qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini, eng avvalo, yerlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish uchun ham katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan qishloq xo'jalik ishlarining o'lchamlari va holatini hisob-kitob qilibgina qolmasdan, balki ular mahsuldorligini siyosiy baholash, birinchi navbatta, alohida qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish samaradorligi nuqtai nazardan baholash zaruriyati tug'iladi.

Shunday qilib, yer kadastrining vazifasi bugungi kunda ko'p qirralikdir. Ular xalq xo'jaligi talablaridan jumladan, yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish zaruriyatlari hamda talablaridan kelib chiqqan. Bularning barchasi davlat yer kadastrining xalq xo'jaligi ahamiyatiga molik ekanligi yana bir karra namoyon qiladi.

Davlat yer kadastr yeri munosabatlarini tartibga solish mahsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni yer to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash, yerdan oqilona foydalanishni, qayta tiklash va muhofaza qilishni, yer tuzishni tashkil etish, yer uchun haq to'lash miqdorlarini asoslash, xo'jalik faoliyatini baholash uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat kadastrlari yagona tizimiga quyidagi tematik qatlamlar asosida ma'lumotlar taqdim etiladi. Bular quyidagilar:



- «Ma'muriy-hududiy birliklar» tematik qatlamlari;
- «Hududni kadastr bo'yicha bo'lish» tematik qatlamlari;
- «Yer uchastkalari» tematik qatlami;
- «Yerlarning sifat tarkibi (bonitirovka)» tematik qatlami

5.5. YER MONITORINGINING MAZMUNI, VAZIFALARI VA YO'NALISHLARI

“Monitoring” so’zi lotincha bo’lib (monitor-ogohlantiruvchi, kuzatuvchi, nazoratchi kabi ma’nolarni anglatadi). Yelkanli kemada nazoratchi matrosni shunday deb atashadi, u boshqa bilan to’qnashib qolmaslikni ogohlantiruvchi bo’lgan. Ingliz tilidan “monitoring” so’zini tarjimai “nazoratni olib borish, tekshirish va hatto maslaxat bermoq, nasihat qilmoq” kabilarni anglatadi.

Inson atrofini o’rab olgan tabiiy muhit global monitoring g’oyasi va Monitoring termining o’zi, 1971 yili BMT atrof muhit bo’yicha Stokgolm Konferensiyasini tayyorlash va o’tkazish munosabati bilan paydo bo’lgan.

Monitoring bo’yicha (Nayrobi, 1979y.) birinchi hukumatlararo kengashda monitoringni oldindan tayyorlab qo’yilgan dastur bilan muvofiqlikda makonda va vaqt bo’yicha ma’lum maqsadlar bilan tabiiy muhit atrofini bir yoki ko’proq unsurlarini taroriy uzatish tizimi deb atash qabul kilingan.

Monitoring maqsadi-tabiatni muhofaza qilish faoliyati va ekologik xavf-xatarsizlikni boshqarishning axborot bilan ta’minlashdir.

O’zbekiston Respublikasida hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yerlardan foydalanish darajasini oshirish va yerdan olinadigan mahsulot miqdorini ko’paytirish maqsadida yer monitoringini tashkil etish muhim hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasida joriy etilayotgan yer monitoringi barcha yer fondining mavjud holati to’g’risida, uni baholash, o’z vaqtida sifat va miqdor o’zgarishlarini aniqlash, yerdan foydalanishda ro’y berishi mumkin bo’lgan salbiy oqibatlarini bartaraf qilish bo’yicha kuzatuvlar tizimini o’z ichiga oladi.

Yer monitoringi yer tarkibidagi o’zgarishlarni o’z vaqtida aniklash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini va sifatini kuzatib turish tizimidan iborat. Yer monitoringi - tabiiy muhit holati monitoringining asosiy qismlaridan biri bo’lib va shu bilan birga boshqa tabiiy-muhit monitoringining asosi bo’lib hisoblanadi. Davlat yer kadastrini yuritishni, yerdan foydalanishni, yer tuzish, yer fondidan belgilangan

maqsadda va oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, yerlarni muhofaza qilish organlarini axborot bilan ta'minlash yer monitoringi asosida amalga oshiriladi.

Yer monitoringi - yerlarda nazorat o'tkazish, yerlarni himoya qilish va yerlardan samarali foydalanish uchun umumiy kuzatuv ishlarini amalga oshiruvchi tadbir hisoblanadi. Yer monitoringini o'tkazish, yerlarni rekultivatsiya qilish tartibi va nazorat o'tkazish turlari va usullarini yagoni tizim asosida, davlat tomonidan tasdiqlangandan keyin amalga oshiriladi.

Yer monitoringining mazmuni yer fondi holatini maxsus tashkil etilgan muntazam kuzatishlar (suratga olish, tekshirish va qidiruv)dan quyidagilar o'zgarishlarini aniqlash, baholash va prognozlashdan iboratdir:

- ❖ yerga egalik qilish, yerdan foydalanish, ekinzorlar, dalalar, uchastkalar, manzara ekologiya komplekslarining holati;
- ❖ yerlar unumdorligining o'zgarishiga, ularning tanazzuli va destruksiyasiga ta'sir qiluvchi jarayonlar (omillar);
- ❖ tabiiy ozuqabop o'tlar qoplami holatining o'zgarishi (o'simliklar tarkibi, tuzilishi, hosildorligi, sifati va to'yimlilikligining o'zgarishi) bilan bog'liq jarayonlar;
- ❖ daryolar qirg'oqlarining, Orol dengizi, ko'llar, suv omborlari, irrigatsiya va gidrotexnika ishnootlarining holati;
- ❖ jarliklar va o'pqnalar, o'pirilishlar, sel oqimlari, zilzilalar, suv toshqinlari "degishlar", karst, yer cho'kishi, boshqa ekzogen va endogen jarayonlar va antropotexnogen hodisalar tufayli paydo bo'lgan jarayonlar;
- ❖ aholi yashash joylari, neft va gaz qazib olish, tozalash inshootlari, go'ngxonalar, axlatxonalar yonilg'i-moylash materiallari, o'g'itlar, zaxarli ximikatlar omborlari, shuningdek boshqa sanoat ob'ektlari yerlarining holati.

Yer monitoringi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bosh

boshqarmasi va O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitekturasini va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi gidrometeorologiya Bosh boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat biologiya va mineral resurslar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatdor vazirliklari va idoralari ishtirokida amalga oshiriladi. Vazirliklar va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish, Yer monitoringi ma'lumotlarini umumlashtirish O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Vazirliklar va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish, yer monitoringi ma'lumotlarini umumlashtirish O'zbekiston Respublikasining Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Yer monitoringining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ❖ yer fondi holati o'zgarishlarini o'z vaqtida aniqlash ustidan kuzatishlar tizimini tashkil etish va amalga oshirish, ularni baholash, salbiy jarayonlarni prognozlash hamda ularning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- ❖ davlat yer kadastri yuritilishini, yerdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan maqsadli va oqilona foydalanish, yer tuzishni, yer fondidan maqsadli va oqilona foydalanish, yerlarni muhofaza qilish va yer resurslarini davlat tomonidan boshqarishga doir boshqa funksiyalar ustidan davlat nazoratini axborot bilan ta'minlash.

Yer monitoringi uzluksiz olib boriladigan davlat tadbirlari tizimiga kirishini hisobga olgan holda birinchi bosqichda tashkiliy boshqaruv ishlarini amalga oshirishni maqsadga muvopik deb hisoblaymiz. *Bunda quyidagi vazifalarni*

amalga oshirish ko'zda tutiladi:

- ❖ yer monitoringini ilmiy-uslubiy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish:
- ❖ huquqiy va me'yoriy asosiy ko'rsatkichlar tizimini yaratish:
- ❖ yer monitoringi talablariga mos bo'lgan mintaqaviy hududlarni aniqlash (iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik sharoitlarni hisobga olgan holda):
- ❖ yer monitoringi bo'yicha axborotlar tizimini tashkiliy boshqaruv jihatdan aniqlash:
- ❖ yer monitoringini o'tkazishning zamonaviy texnologiyasini ishlab chiqish.

2. Davlat yer monitoringini o'tkazish asoslari va tuzilmasi O'zbekiston Respublikasining barcha yerlari, ularning huquqiy rejimi, foydalanish maqsadi va xarakteridan qat'iy nazar yer monitoringining ob'ekti hisoblanadi.

Monitoring yerlardan foydalanish maqsadini hisobga olgan holda olib boriladi va yer fondi toifalarga muvofiq bo'lgan quyidagi kichik tizimlarga bo'linadi:

- ❖ qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlar monitoringi
- ❖ aholi punktlari yerlari monitoringi
- ❖ sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlardagi yerlar monitoringi
- ❖ tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsion maqsadlardagi yerlar monitoringi
- ❖ tarixiy-madaniy maqsadlardagi yerlar monitoringi:
- ❖ o'rmon fondi yerlari monitoringi:
- ❖ suv fondi yerlari monitoringi:
- ❖ zaxira yerlar monitoringi.

Hududiy qamrab olinishga ko'ra yerlarning respublika, mintaqaviy va mahalliy monitoringi amalga oshiriladi.

Respublika monitoringi O'zbekiston Respublikasining butun hududini qamrab oladi. Mahalliy monitoring alohida yer uchastkalari va manzara - ekologiya komplekslarni qamrab oladi.

Yerlarning holati o'zgarishlarning yo'nalishi va jadalligiga oid bir qancha

izchil kuzatishlarni (davriy, mavsumiy, sutkalik) tahlil qilish, olingan ko'rsatkichlarni yerlarning sifat holati normativlari bilan taqqoslash orqali baholanadi. Yer holatini baholash ko'rsatkichlari muayyan davr yoki sana uchun ham absalyut, ham nisbiy ko'rsatkichlarda (o'lchov birligida) ifodalanadi. Yerlar holatini baholash natijalariga ko'ra tezkor ma'lumotlar, axborotlar, prognozlar va tavsiyanomalar tuziladi, ularga o'zgarishlar, ayniqsa salbiy o'zgarishlarning dinamikasini, ularning yo'nalishini va jadalligini tavsiflovchi mavzuli xaritalar, kartogrammalar, jadvallar va diagrammalar ilova qilinadi.

Yer monitoringi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi tomonidan manfaatdor Vazirliklar, Davlat qo'mitalari va idoralar ishtirokida ishlab chiqarilgan va tasdiqlanadigan yagona uslub olib boriladi, bu uslub yerlarning holatini tezkor va muntazam kuzatishlarni amalga oshiriluvchi, tadqiqotlar, tekshirishlar o'tkazuvchi yoki xaritalovchi barcha korxonalar va tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi.

Idoraviy mansubligidan va mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar yerlarni mavzuli xaritalovchi va ularning holatini kuzatuvchi korxonalar muassasalar va tashkilotlar yer resurslari bo'yicha tegishli xizmatlarga ularning vakolatlari doirasida yerlarning miqdor va sifatlovchi holati to'g'risidagi ma'lumotlarning yer monitoringi va davlat yer kadastri bo'yicha axborotlar kiritish uchun ko'rsatilgan ishlar bo'yicha materiallarning nusxalari tekin beriladi.

O'z navbatida yer resurslarini bo'yicha xizmatlarni ham Yerlarni mavzuli xaritalovchi va ularning holatini kuzatuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ularning so'roviga binoan zarur materiallarni tekin beradilar.

Yer monitoringi yagona klassifikatorlar, kodlar, metrik birlik tizimi, ma'lumotlarning standart formatlari va me'yoriy - texnik baza, koordinatorlar va balandliklar davlat tizimiga asoslangan turli xil ma'lumotlarning bir - birlariga mosligi prinsipiga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Yer monitoringi o'tkazishda zarur axborotlarni olish uchun quyidagilar qo'llaniladi.

- ❖ masofadan turib zondlash (aerokosmik suratga olish va kuzatishlar);
- ❖ yerda suratga olish va kuzatish;
- ❖ fond materiallari.

Muddatlari va davriyligiga ko'ra yerlarning holatini 3 ta guruh kuzatishlar amalga oshiriladi:

- ❖ bazaviy (yer monitoringini yuritishning dastlabki bosqichida kuzatish ob'ektlarining haqiqiy holatini qayd etuvchi boshlang'ich) kuzatishlar;
- ❖ davriy (yillik va bir yillik ustidagi davrlar bo'yicha)
- ❖ tezkor (joriy o'zgarishlarni qayd qiluvchi), bir yildan kam oraliq davrda muntazam yoki bir yo'la bajariladigan kuzatishlar.

Ekin maydonlari dalalar, uchastkalar, manzara ekologiya komplekslar holatini bevosita kuzatishda olingan bazaviy ma'lumotlar tumanlar, shaharlar qo'rg'onlar, viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va umuman O'zbekiston Respublikasi bo'yicha shuningdek alohida tabiiy komplekslar bo'yicha umumlashtiriladi.

Yerlarning bazaviy va davriy monitoringi:

- ❖ Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlarida – Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar yer resurslari boshqarmalari;
- ❖ Toshkent shahrida – Davyergeodezkadastr bosh boshqarmasining ko'chmas mulk davlat boshqarmasi tomonidan yuritiladi.

Yerlarning monitoringi bazaviy va davriy monitoringi ma'lumotlardan foydalanilgan holda:

- ❖ shaharlar va qo'rg'onlarda - " Davyergeodezkadastr" bosh boshqarmasining tuman va shahar ko'chmas mulk davlat kadastri xizmat qiladi;
- ❖ Respublikaning qolgan hududlarida Yer resurslari davlat qo'mitasining tuman xizmatlari tomonidan yuritiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar yer resurslari boshqarmalari Toshkent shahar ko'chmas mulk davlat yer kadastri boshqarmasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining hududiy organlari bilan birgalikda har yili 1 fevraldan kechiktirmay davlat hokimiyati mahalliy organlariga, O'zbekiston

Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasiga mintaqadagi yerlarning holati to'g'risida axborotlar (hisobotlar) taqdim etadilar, o'ta xavfli va yo'l qo'yilishi cheklangan jarayonlar aniqlangan taqdirda tezkor ma'lumotlar yuboradilar.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va jismoniy shaxslar yer monitoringi ma'lumotlaridan belgilangan tartibda haq to'lagan holda foydalanadilar.

Yer monitoringini yuritish bo'yicha ishlar davlat budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Yer monitoringi bo'yicha davlatlararo va xalqaro dasturlarni mablag' bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan tuzadigan bitimlari va shartnomalarida belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

YER MONITORINGINI YURITISH PRINSIPLARI

Yer monitoringining maqsadi va vazifasi uni yuritishning quyidagi prinsiplariga amal qiladi:

1. Har xil ma'lumotlarni taqqoslash prinsipi. U yagona klassifikatorlar, formatlar, normativli-texnikaviy bazaning ma'lumotlari, koordinat va balandlikning Yagona davlat tizimi qo'llanishiga asoslanadi;
2. Monitoring yuritishning uyg'unligini, texnologiyalar va uslublar birligini nazarda tutadigan birlik prinsipi;
3. Yer fondidan foydalanishi va holati yer monitoringining ma'lumotlariga haqiqatdan ham muvofiq kelishi darajasini tavsiflaydigan aniklik va ishonchlilik prinsipi;
4. Ma'lumotlarning to'laligi prinsipi - aniq vazifalarni yechish uchun axborotlar to'la va yetarlicha bo'lishi zarur;
5. Yer monitoringini yuritishning uzluksiz prinsipi. Yer munosabatlarini qayta tuzish jarayonida, mamlakat yer fondining miqdor va sifat tavsifining o'zgarishida uning ayrim toifalari o'zgarishi yer resurslariga antropogenli og'irlikning

kuchayishi yer fondini taqsimlash va tarkibida turli xil o'zgarishlar ro'y beradi. Shuning uchun axborotlarni vaqti- vaqti bilan yoki muntazam yangilab turish yo'li bilan yer monitoringini yuritishning uzluksizligini ta'minlash zarur.

Qolgan prinsiplardan yana quyidagilarni ta'kidlash kerak:

- ❖ ko'rgazmali prinsipi (xarita, atlaslar, sxemalardan foydalanish);
- ❖ foydalanish huquqi prinsipi (davlat yoki tijorat sirini tashkil etadigan ma'lumotlardan tashqari);
- ❖ tejamkorlik va samaradorlik prinsipi (yer monitoringi ma'lumotlarini saqlash va tizimlashtirishni olishni ta'minlaydigan usullar, texnologiyalar, uslublarni qo'llash);
- ❖ markazlashtirilgan rahbarlik prinsipi (O'zbekiston Respublikasi miqyosida yagona uslub bo'yicha yagona markazlashgan monitoringini utkazish).
- ❖ Yer monitoringini yuritish uchun turli xil tasvirlar, qidirishlar, taftish qilish (topografo-geodezik, tuproqning, geobotanikli, agrokimyoviy, meliorativli, shahar qurilishi va boshqalar);
- ❖ maxsus kuzatishlar (tog'lardan ko'chib yig'ilgan qor uyumi, sel toshqini va boshqalar);
- ❖ kosmik tasvir va kuzatish, balandda uchadigan samalyotlar bilan tasvirga tushirish, kuzatish va kichik aviatsiya vositasi yordami bilan yer ustidan tasvirga olish va kuzatish;
- ❖ shuningdek fondli dalillardan foydalanish.

Balandda uchadigan samalyotlar bilan kosmik tasvirga tushirish va kuzatishlarning asosiy vazifasi - global va mintaqa darajasida yer holatini bilib olishdir. Kichik aviatsiya yordami bilan mahalliy yer monitoringi va aerokosmikli axborotni aniqlash uchun olib boriladi.

Yer fondini masofali zond bilan tekshirish 2ta asosiy asbob-uskunalar guruhlaridan foydalanish bilan amalga oshiriladi:

- ❖ Video va rasmaxborot (aerofotoapparat, ko'p zonali skaner uskunalari, radiolokatorlar, televideniya kanallar va boshqalar);

- ❖ Trassali guruhlar asboblari (spektrometr, SVCh va IK - radiometlar va boshqalar).

Yer ustida kuzatish poligonlarda, etalonli uchastkalarda, agrokosmik axborotlarni ishlab tayyorlash uchun tayanch axborotlarni to'plashning avtomatlashtirilgan statsionar punktlarida utaziladi va bu ma'lumotlarni zond bilan masofali tekshirish uslubi bilan olish mumkin bo'lmaganda yer fondining holati to'g'risida ma'lumotlarni olish.

Yer ustida kuzatishlarni ta'minlaydigan texnika vositalari majmuasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ❖ Yer ustida harakatlanuvchi stansiyalar;
- ❖ Avtomobillar shosseda yuqori darajada o'tishi mumkin bo'lgan va tuproq namligini o'zgarishini kimyoviy tahlili uchun jihozlangan priborlar, shuningdek EXM va telemetriyani uzatish;
- ❖ Qabul qilish moslamasini ta'minlovchi texnikaviy vositalar majmuasi.

Arxivlarda (fondlarda) yer monitoringining materiallari to'planishi va AIS bazalarida (O'zbekiston yerlari) taqsimlanishi quyidagi sxema buyicha amalga oshiriladi.

Ma'muriy tumanlar, shaharlarda yer - suv mulkining tashqi ko'rinishi uchastkalar, ayrim dalalar, yerdan foydalanish va yerga egalik qilish, barcha yer fondining holatini tavsiflaydigan mahalliy monitoringining dastlabki ma'lumotlari to'planadi.

O'zbekiston Respublikasining tarkibidagi muxtor respublika va viloyatlarda, ularning tarkibiga kiradigan tumanlar, shaharlar shuningdek, ayrim ekologik mintakaviy tavsifga ega bo'lgan ob'ektlar bo'yicha hamma ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar shakllanadi. O'zbekiston Respublikasi darajasida, respublikaning tarkibida muxtor respublika, landshaft-ekologiya bo'yicha hamma ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar shakllanadi.

Yer monitoringining shakllangan bazasi va banki foydalanishlari mumkin:

- ❖ Davlat va mahalliy boshqarish organlari;

- ❖ O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi va uning joylardagi bo'limlari;
- ❖ Yerdan foydalanuvchi korxonalar, tashkilotlar va boshqa muassasalar;
- ❖ Ayrim fuqarolar;
- ❖ Yerdan va tabiatdan oqilona foydalanishni tashkil etish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi tashkilotlar va chet el hamda xalqaro tashkilotlar:

O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar davlat boshqaruv organlariga zaruriyatga qarab tezlashtirilgan ma'lumotlar, bashoratlar, mavzuli xaritalar tuzib chiqadilar va taqdim etadilar, hamda har yili birinchi yanvargacha "Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi" ga mintaqaning yer fondi holati to'g'risida yillik hisobot tayyorlanadi. O'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi yer monitoringi axborotlarni umumlashtirib zaruriyatga qarab tezkor ma'lumotlar, ilmiy bashoratlar mavzuli xaritalar va atlaslar tuzib chiqadilar va manfaatdor vazirliklar hamda idoralarga taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasiga keyingi hisobot yili uchun har yili 1 aprelda kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasining yer fondining holati to'g'risida hisobot yuboradi.

5.6. YER MONITORINGI TIZIMINI YURITISH

Hozirgi davrda tabiat va jamiyatning munosabati shunday shiddatli darajaga yetdiki chunonchi ular sayyorada insoniyatning va barcha tirik mavjudotning yashashi uchun xavf tug'diradi. Tabiat resurslaridan oqilona foydalanmaslik oqibati, atrof muhitning ifloslanishi asta-sekin to'planib borayotir va favqulotda vaziyat tug'dirmoqda, ya'ni ishlab chiqarish kuchlarining yanada rivojlanish imkoniyatini xavf ostiga qo'yadi. Bu alohida mintaqaga, shuningdek butun mamlakatga va oxir-oqibatda butun insoniyatga tegishlidir.

Millionlab odamlar zaharlangan havodan nafas olishga, ifloslangan suvdan ichishga, xavfli oziq-ovqatlarni iste'mol qilishga majburlirlar. Uzoq umr ko'rish va

aholining salomatligi kabi ko'rsatkichlarni azon qatlamining qiskarishi, yerlarni, tuproqning, gidrosferaning ifloslanishi. Chiqindilarning hajmining ko'payib borishi, o'simlik va hayvonlar turlarining yo'qolishi bilan taqqoslash bu jarayonlar o'rtasida aniq aloqa borligini ko'rsatadi.

Bizda urtacha umr kurish 67-yoshni tashkil etsa, ayni paytda rivojlangan mamlakatlarda odamlar o'rtacha 76 yil yashaydilar. O'rtacha umr ko'rish bo'yicha O'zbekistonliklar 47-48 o'rinni egallaydilar.

O'zbekiston Respublikasining hududida eng o'tkir ekologik vaziyatli tumanlarning yer maydoni 6,7 mln gektarni egallaydi (mamlakat hududining, 15%). Ularning bir qismi ekologik holat bo'lib hisoblanadi, ular atrof muhitning kuchli ifloslanishi bilan tavsiflanadi. Aholi salomatligiga tahdid qiladi va tabiatni yomonlashtiradi.

Ba'zida bir baholash bo'yicha inson salomatligining 20-40% atrof muhitning holatiga bog'liq. Tabiat resurslaridan nooqilona foydalanish oqibatida tabiatning ifloslanishidan jami ko'riladigan zarar.

Atrof muhitning ifloslanishi aholining sog'lig'i uchun real tahdidni namoyon etadi. 70 milliondan ortik kishi yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan me'yordan 5 va undan ko'p darajadagi zararlangan havodan nafas oladilar.

XX asrning 60-yillaridan boshlab ilmiy adabiyotlarda, ekologik qashshoqlik, "ekologik keskinlik", "ekologik fojia", "ekologik axloq", "ekologik xavfsizlik", "ekologik ma'lumot" terminlari paydo bo'la boshladi.

Ekologik xavfsizlik muammosi dunyo miqyosidagi tavsifga ega. Atrof muhitning ifloslanishi davlat chegarasini bilmaydi, shuning uchun turli xil davlatlar bu falokat bilan zo'r berib kurashishda birlashishga majburdirlar. Insonning yerda omon qolishi strategiyasi allaqachon ishlab chiqilgan. Bu barqaror rivojlanish strategiyasi deb nom olgan unda tabiatdan oqilona foydalanishga inson salomatligi genefondning saqlab qolishga yondashuv dolzarb bo'lib hisoblanadi.

Yer resursi insoniyatning muhim boyliklaridan biridir. Ulardan qay darajada foydalanish ko'pincha hozirgi va kelajak avlodning eson- omonligiga bog'liq bo'ladi.

Yer munosabatlarining bozor sharoitiga o'tishda O'zbekiston yer fondining holatida salbiy tendensiya keskinlashdi. Yer islohotining boshlang'ich davrida, yerni qarovsiz qoldirish, ifloslantirish, ulardan vaxshiyona foydalanish, tuproqqa ishlov berish texnologiyasining burilishi va boshqa turli xil iste'mollar munosabati yerning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Atrof muhitning barcha tarkibiy qismlarining yuqori darajada ifloslanishi va biosferaning holati to'g'risida batafsil axborotning zarurligi atrof muhitda u yoki bu moddaning ifloslanishdan saqlash doimiy kuzatish olib borishga majbur qiladi. Ya'ni monitoring, xususan yer monitoringi. Yer faoliyati realizatsiyasi bilan bog'langan qabul qilingan qarorlar. Yerning holati to'g'risida muntazam yangilanadigan ma'lumotlar va albatta oldingi ko'pgina ishonchli tahlil bo'lishi kerak. Boshqacha so'z bilan aytganda atrof muhit holati ustidan muntazam majmualar kuzatish o'tkazish zarur va birinchi galda, uning bosh ob'ekti-yer hisoblanadi. Bu kuzatish tizimi monitoring deb ataladi.

5.7. YER MONITORINGINI O'TKAZISHNING USLUBIY VA AMALIY MASALALARI

O'zbekiston Respublikasida joriy etilayotgan yer monitoringi 1998 yilda Oliy Kengash sessiyalarida qabul qilingan "Yer kodeksi" va "Yer kadastri" to'g'risidagi qonunlarga asosan o'tkaziladi. Yer monitoringini olib borish maqsadi mohiyati va vazifalariga ko'ra quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib borishni maqsadga muvofiq deb bilamiz: ilmiy-uslubiy, uslubiy-amaliy, amaliy-huquqiy, texnik va axborotlar tizimi.

Ilmiy-uslubiy yo'nalishda yer fondi tarkibida miqdor va sifat o'zgarishlarni qonuniyatlarini asoslash, umum-uslubiy yondashuvlar sosida maqbul yechimlarga intilish usullarini yaratish zarur. Bunda amalga oshiriladigan ilmiy-uslubiy yondashuvlar aniq yer uchastkalarida, tajriba maydonlarida, etalon ob'ektlarda olib boriladigan dala tadqiqot ishlari natijasiga asoslanish zarur.

Yer monitoringi Respublika miqyosida kuzatuv va nazorat bo'yicha yagona tizimda o'tkaziladi va quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- ❖ yer fondi tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash;
- ❖ yer turlari holatini va bahosidagi tafovutlarni aniqlash;
- ❖ yer turlari bo'yicha sodir bo'layotgan salbiy oqibatlarini oldini olish, ogoxlantirish bo'yicha tavsiyalar va bashoratlash ishlarini bajarish;
- ❖ davlat yer kadastri va yer tuzish muassasalari, yerdan foydalanishini nazorat va muhofaza qilish organlarini zarur axborotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash.

Texnik-axborot yo'nalishning asosiy maqsadi avtomatlashgan yagona monitoring bazasini yaratish, dasturlar paketini ishlab chiqish, Respublika yer resurslari to'g'risida ma'lumotlarni qabul qilish, tahlil qilish va saqlash tizimini barpo etish hisoblanadi.

Yer monitoringi yer egaligi va yerdan foydalanuvchi hududida hamda ularning tarkibiga kiruvchi dala va yer uchastkalarida yer toifalari hamda turlarining o'zgarishi va ularni holatini baholash bo'yicha uzluksiz kuzatuvlar va nazorat ishlarini o'z ichiga oladi. Yer egaligi yoki yerdan foydalanuvchilar chegaralaridagi yer resurslarini holatlari alohida o'rganiladi va zarur tadbirlar belgilanadi. Bu jarayon yer toifalari idora, qo'mita yoki vazirliklar tasarrufidagi yer uchastkalari chegaralarida ham o'tkazilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ma'lumki, "Yer kodeksi" ga muvofik Respublikamiz yagona yer fondi 8ta toifadan iborat bo'lib, bu toifalarga oid yer turlari har bir tuman, mintaqa va viloyatda o'zaro chambarchas bog'liq holda hududiy joylashganiga guvoh bo'lamiz.

Demak, bitta ma'muriy –hududiy tuman zahirida bir nechta yer toifalari joylashgan. O'z navbatida yer fondi toifalaridan foydalanishni boshqarishda tuman hokimligidan tashqari bir nechta idora, qo'mita va vazirliklar ishtirok etishi ma'lum.

Shuning uchun tumanda yer monitoringini joriy etishda amaliy va tashkiliy masalalarni hal etishda qiyinchiliklar kuzatilishi ravshan.

Demak, davlat yer monitoringi xizmat tizimi ham umumiylikdan xususiylikka va aksi bo'lgan xususiylikdan umumiylikka bo'lgan tamoyilga asoslangani maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, bu o'rinda davlat yer kadastri va davlat yer monitoringi xizmatini ma'lum ma'noda uyg'unlashtirgan holda tashkil etish samara beradi. Bunda yer kadastri va yer monitoringi natijalarini bevosita birlamchi manbalarini uyg'unligi, nazariy va amaliy masalalardagi umumiylik ham har ikki yo'nalishni o'zaro aloqadorligidan dalolat beradi.

Yer monitoringi davlat axborot xizmati, davlat muassasalari yoki fuqarolar tasarrufidagi yer resurslari to'g'risidagi tezkor ma'lumotlar olish va aniqlangan salbiy oqibatlarni o'z vaqtida bartaraf etishga yordam beradi. O'z navbatida yer monitoringi natijalari asosida yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish chora tadbirlarini ishlab chikishda yer kadastri va yer tuzish xizmati idoralari zarur manbalarga ega bo'lish imkoniyati yaratiladi.

Yer monitoringi yirik va murakkab bo'lgan davlat miqyosidagi tadbirlar pogonali va ko'p bosqichli aniq tizimga asoslangan holda o'tkazish zarur. Bunda quyidagi tartib tizimi qo'llanilganda kutiladigan natijalar samarali bo'ladi:

- ❖ davlat yer monitoringi (yuqori pog'ona);
- ❖ xalqaro giper yer monitoringi (xalqaro miqyosida 1-pogona);
- ❖ yer toifalari bo'yicha (2-pogona);
- ❖ yer egaliklari bo'yicha (3-pogona)
- ❖ yerdan foydalanuvchilar bo'yicha (3-pogona);
- ❖ yer uchastkalari (lokal) bo'yicha (4-pogona);

Ilmiy-uslubiy yunalishda yer fondi tarkibida miqdor va sifat o'zgarishlarni qonuniyatlarni asoslash, umumuslubiy yondashuvlar asosida maqbul yechimlarga intilish usullarini yaratish. Bunda amalga oshiriladigan ilmiy-uslubiy yondashuvlar aniq yer uchastkalarida, tajriba maydonlarida etalon ob'ektlarida olib boriladigan dala tadqiqot ishlari natijasiga suyanish zarur.

Uslubiy-amaliy va amaliy yo'nalishlar birlamchi manbaalar yerlarni iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik baholash natijalarini aniqlash bo'yicha uslublarni

takomillashtirish, yerlarni yangidan xaritalash, mavjudlariga zarur tuzatmalar kiritish, yerlarni kompleks baholash uchun manbalar yig'ish kabi ishlarni bajarish kuzda tutiladi.

- ❖ huquqiy, texnik va axborot yo'nalishlarda;
- ❖ yerlardan foydalanishning huquqiy asoslarga mosligi, yer egaligi yoki yerdan foydalanuvchi, tuman va viloyat xaritalariga zarur o'zgarilar kiritish va ularni muntazam nazorat qilish (yerlarni mavjud holati, ekalogik, etalon, prognoz, tabiatni muhofaza qilish, tuproq yemirilishi, tuproqlarni meliorativ holati ularni ifloslanganlik darajasi, ball boniteti va boshqa turdagi xaritalarni tuzish);
- ❖ yerdan samarali foydalanishni boshqarish maqsadida nazorat natijalari bo'yicha tegishli davlat organlariga axborot tizimini yaratish va zarur ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazish, nazorat natijalariga ko'ra mahalliy hukumat organlariga, tegishli qo'mita va vazirliklarga yer resurslari holatini yaxshilash bo'yicha taklif, mulohazalar va tavsiya hamda tadbirlar ishlab chiqish va taqdim etish.

Texnik axborot yo'nalishining asosiy maqsadi avtomatlashgan yagona monitoring bazasini yaratish, dasturlar paketini ishlab chiqish, Respublika yer resurslari to'g'risida ma'lumotlarni qabul qilish, tahlil qilish va saqlash tizimini barpo etish hisoblanadi.

Yer monitoringi yer egaligi va yerdan foydalanuvchi hududida hamda ularni tarkibiga kiruvchi dala va yer uchastkalarida yer toifalari hamda turlarning o'zgarishi va ularni holatini baholash bo'yicha uzluksiz kuzatuvlar va nazorat ishlarini o'z ichiga oladi. Yer resurslarining holatini takroriy xotiralash, o'lchov va baholash hamda laboratoriya ishlari uzluksiz kuzatuvlar natijasida aniqlanadi. Yer egaligi yoki yerdan foydalanuvchilar chegaralaridagi yer resurslarining holatlari alohida o'rganiladi va zarur tadbir belgilanadi. Bu jarayon yer toifalari idora, qo'mita yoki vazirliklar tasarrufidagi yer uchastkalari chegaralarida ham o'tkazilishi maqsadga suvofiq hisoblanadi.

Yerdan foydalanuvchi sub'ektlarning atrof muhitga va hududga bo'lgan

salbiy ta'siri lokal, mintaqaviy va global miqyoslarda ko'rib chiqiladi.

Yer monitoringini tashkil qilish maqsadiga ko'ra quyidagi ishlab chiqish maqsadga muvofik deb bilamiz:

- ❖ yerlarni kompleks ro'yxatga olish;
- ❖ qishloq xo'jaligi turlari bo'yicha tuproq monitoringini o'tkazish;
- ❖ davlat zaxira yerlarini ro'yxatga olish va baholash ishlari;
- ❖ yer monitoringini texnik axborotlar tizimini yaratish undan foydalanish tartibini ishlab chiqish;
- ❖ yer monitoringi natijalarni ko'rib chiqish, tasdiqlash va rasmiylashtirish;
- ❖ yerdan foydalanish bo'yicha huquqiy chora tadbirlar ishlab chiqish va ularning ijrosini nazorat qilish.

Yuqorida yoritilgan yer monitoringini tashkil qilish va amalda joriy etish masalalari barcha yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar uchun tartib-qoida va yer monitoringini yurituvchi davlat muassasalarini ish ko'lamini umumiy tarzda belgilab beradi. Lekin muammoga chuqurroq yondashganimizda yer monitoringini hayotga tadbiq etishda nazariy, uslubiy va amaliy masalalarda "uzilishlar" mavjudligi aniqlangan.

Ma'lumki, "Yer kodeksiga" muvofik Respublikamiz yagona yer fondi 8 tatoifadan iborat bo'lib, bu toifalarga oid yer turlar har bir tuman, mintaq va viloyatda o'zaro chambarchas bog'liq holda hududiy joylashganini guvohi bo'lamiz.

Demak, bitta ma'muriy-hududiy tuman zaminida bir nechta yer toifalari joylashgan. O'z navbatida yer fondi toifalaridan foydalanishni boshqarishda tuman hokimligidan tashqari bir nechta idora qo'mita va vazirliklar ishtirok etishlari ma'lum.

Shuning uchun tumanda yer monitoringini joriy etishda tashkiliy masalalarni hal etishda qiyinchiliklar kuzatilishi ravshan.

Yer monitoringini joriy etishda xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha va tarmoq ichidagi yerga egalik qiluvchi va yerdan foydalanuvchi sub'ektlar tizimini hisobga

olish bu yo'nalishdagi tadbirlarni o'tkazishning yaxlitlik tamoyiliga rioya etishga asos yaratadi. Chunki xalq xo'jalik tarmoqlarini boshqaruv tamoyillari yagona davlat mulki bo'lgan yer resurslaridan foydalanishini boshqarish tamoyillariga to'liq mos keladi.

5.8. YER MONITORINGINING MINTAQAVIY TIZIMI

Yer resurslari va ularning muhim hududiy va mintaqaviy farqlari yer monitoringining mintaq tizimini yaratish to'g'risida gapirib o'tish zarur. U ma'muriy chegarada va tabiiy ekologik mintaqada yerlar holatini nazorat qilishi kerak.

Yer monitoringi mintaqaviy tizimining maqsadi yerlar holatini nafaqat tabiiy ekologik baholash, balki mintaq hududini uzluksiz kuzatish va nazorat qilish, shaharlar va tumanlar ma'muriy chegaralarida ham olib boriladi.

Yer monitoringining mintaq tizimi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ❖ mintaqalar bo'yicha ma'lumotlar axboroti bazasini yaratish va ishlab chiqish;
- ❖ kuzatish ishlarini olib boruvchi majmualarning turli xil mintaqaviy kuzatish punktlarini yaratish;
- ❖ mintaqaning yer resurslari holatini masofali nazorat qilishni ham, ham mintaq tizimlarini asbob – uskunalar bilan qurollantirish;
- ❖ yerlardan foydalanilganda yoki ular ifloslangan holatda degradatsiya darajasini aniqlashning mezonlari va har xil me'yoriy ko'rsatkichlar ishlab chiqish;
- ❖ yerlar iste'moldan chiqarilishining ruhsat beriladigan hajmini aniqlash;
- ❖ yerlar holatiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy negativ jarayonlar turlari va darajasi bo'yicha ajratish bilan mintaq hududini lanshaft – ekologik rayonlashtirishni ishlab chiqish;

Yer monitoringining axborot mintaq tizimining manbaalariga quyidagilar xizmat qiladi:

1) Bazali axborot – yer resurslaridan foydalanishning tarkib topgan tizimi va ular sifatiga ta'sir ko'rsatadigan salbiy omillarni turli xil mavzuli xaritalar (tuproqqa

oid, geomorfologik, geobotaniq, agrokimyoviy, gidrologik va h.k.) foydalanish bilan yer resurslari potensialini aks ettiradi.

2) Tezkor axborot – yer resurslari o‘zgarishining miqdor va sifatini aks ettiradi. Bunday holatda tuman va viloyat yer resurslari boshqarmalarining statistik hisobotlaridan foydalaniladi.

3) Ma’lumotli axborot – yerlar holatiga u yoki bu salbiy ta’sir ko‘rsatishning favqulotda vaziyatini aks ettiradi. Bunday axborotning manbai – zond bilan masofali kuzatish uslubi va yer ustida taftish o‘tkazishdir.

Yer monitoringining mintaqaviy tizimini muhim vazifalaridan biri landshaft – ekologik rayonlashtirishni ishlab chiqishdir.

O‘zbekistonning hozirgi zamin landshafti turli - tuman tabiiy, tabiiy - antropogen va antropogen tashkil topishini ifodalaydi, ularning tuzilishi va holati quyidagilar natijasidir:

- ❖ Birinchidan, tabiat hodisalarining ro‘y berishi;
- ❖ Ikkinchidan, inson va tabiatning birgalikdagi ko‘p yillik faoliyatlaridir.

Yerdan foydalanishning tuzilishi hududning tabiiy, tarixiy va etnik xususiyatlari bilan muvofiqlikda shakllanishi. Bu o‘z navbatida yerdan foydalanishda salbiy jarayonlarning oldini olish bo‘yicha chora – tadbirlar va xo‘jaliklarning ixtisosligini belgilab beradi.

Mustaqil o‘rganish uchun savollar

1. Monitoring tushunchasi nimani anglatadi?
2. Davlat yer monitoringini o‘tkazish asoslari nimalardan iborat?
3. Davlat yer monitoringini o‘tkazish tuzilmasi qanday?
4. Yer monitoringining manbasi nimalar?
5. Monitoring o‘tkazishning tabiatga ta’siri qanday hollarda namoyon bo‘ladi?
6. Atrof muhitning ifloslanishiga qanday tadbirlar sabab bo‘ladi?
7. Ekologik xavfsizlik muammosi nima?
8. Qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari ajratilgan yerlar qaysi yerlardan tashkil topgan?

- 9.Yer fondining toifalari va yer turlari bo'yicha taqsimlanishi qanday?
- 10.Fermer xo'jaliklarining ixtisoslashuvi nimaga qarab belgilanadi?
- 11.Qishloq xo'jalik yerlarida yer monitoringi qanday amalga oshiriladi?
- 12.Dala tadqiqotlari davri qancha muddat davom etadi?
- 13.Kameral ishlar davri nechaga bo'linadi?
- 14.Aholi punktlari yerlariga namoyon bo'ladigan antropogen omillar qaysilar?
- 15.Shahar yer fondi holatining o'zgarishlari nimalarga bog'liq?
- 16.Yer resurslaridan foydalanish, uni muhofaza qilish deganda nima tushiniladi?
- 17.Tumanda qishloq xo'jalik yerlarini yo'qlama (inventarizatsiya)dan o'tkazish qanday amalga oshiriladi?
- 18.Yer fondining holatini kuzatish qaysi o'zgarishlar asosida amalga oshiriladi?
- 19.Yer monitoringi axboroti nimalardan iborat?
- 20.Masofali monitoringning mohiyati qanday?
- 21.Yerlarning kartografik holati qanday faktorlar asosida aniqlanadi?

6-BOB. YER TUZISH, MAZMUNI, MOHIYATI VA YERDAN OQILONA FOYDALANISHNI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI

6.1.YER TUZISH TUG‘ILISHINING OB‘EKTIV SABABLARI VA SHAROITLARI, UNING IJTIMOIIY TABIATI

Ijtimoiy tashkilotlarning har bir turiga, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasiga, yerga va boshqa ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan asosiy mulkchilik shaklidan kelib chiqadigan, o‘z navbatida yer tuzishning o‘ziga xos mazmuni va shaklini keltirib chiqaradigan, ma’lum yer munosabatlari mos keladi. Yer tuzish tarixini o‘rganish uning tabiatini, rivojlanish qonuniyatlarini yaxshi tushunish va shunga asosan uni hozirgi sharoitda takomillashtirishning samarali yo‘llarini topish imkonini beradi.

Yer tabiiy asos, ishlab chiqarish jarayonining birinchi moddiy zarurati va sharti hisoblanadi. Shuning uchun insoniyat jamiyati evolyusiyasining barcha tarixiy bosqichlarida yerning (hududning) va har xil ishlab chiqarish vositalarining bir-birlariga mosligini va birlashtirilishini u yoki bu darajada ta’minlash kerak bo‘ldi.

Ibtidoiy jamoada bu birlashish va moslashish nisbatan tasodifiy xarakterga ega bo‘lib, yerdan har xil maqsadlar uchun foydalanish doiralarini chegaralashdan iborat bo‘ldi. Odamlar kichik guruhlariga bo‘linib, asosan oziq-ovqatlarni yig‘ish va jamoa bilan oddiy qurollar yordamida ov qilish hisobiga yashar edilar. Qator vaziyatlarda ayrim guruhlar orasida to‘qnashuvlar sodir bo‘lib turardi, sababi, ko‘p sonli odamlar cheklangan hududlarda o‘zlarini oziq-ovqat bilan ta’minlay olmas edi; bu yangi yerlarni o‘zlashtirishni rag‘batlantirdi. Ishlab chiqarish vositalariga ishlab chiqarish kuchlarining primitiv xarakteriga mos, jamoa mulkchiligi hukmron edi. Ish qurollari shunchalik kam rivojlangan ediki, yakka holda yirtqich hayvonlar va tabiat kuchlari bilan kurashish imkoniyati yo‘q edi; bundan jamoa mehnatiga, yerga va boshqa ishlab chiqarish vositalariga hamda mehnat mahsulotlariga umumiy mulkchilik zarurati kelib chiqdi.

Ayrim oilalar, jamoalar va sulolalar mulkchiligining paydo bo'lishi, mehnatning podachilik va dehqonchilik urug'lari orasida taqsimlanishining rivojlanishi bilan yerlarni chegaralash, ya'ni foydalaniladigan hududlar chegaralarini belgilash zarurati kelib chiqdi. Buning uchun avvalo tabiiy chegaralardan (daryolar, ko'llar, yer turlari chegaralari, jarliklar va boshqa relefnig elementlari), keyinchalik - chegaralarda o'rnatiladigan maxsus ishlangan belgilardan (toshlar, ustunlar va boshq.) foydalanildi. Masalan, sharqiy slavyanlar asosan daryolar va ko'llar qirg'oqlaridagi tarqoq, mustahkamlangan shaharlarda kichik guruhlar bo'lib yashardilar. Aholi yashash joylari atrofidagi yerlar umumiy hisoblanib, ayrim shaxslar va oilalar orasida qur'a tashlash yordamida taqsimlanar edi. Bizning eramizning birinchi asrlaridayoq ularda dalalar va o'tloqlar chegaralariga qo'yiladigan yer mulkchiligi belgilari bor edi.

Xususiy mulkchilik instituti paydo bo'la boshlashi, davlat tashkiloti rivojlanishi, dehqonchilikning intensivlashishi, yerning, boshqa ishlab chiqarish vositalarining va tirik mehnatning birlashtirilishi va bir-birlariga moslashtirilishi odamlarning yerdan foydalanishni maqsadli tashkil etish bo'yicha ongli faoliyatining bir turiga aylanadi. Bu faoliyat, boshlanishida yer o'lchash ishlari yoki chegaralash deb ataldi, vaqt o'tishi bilan u hozir yer tuzish deb ataladigan jarayonga aylandi.

Yer o'lchash ishlari zarurati juda qadimdan paydo bo'ldi. Hindiston, Misr, Gretsiya, Yaqin sharq xalqlari bizning eramizdan ko'p asrlar oldin ham yer massivlarini qismlarga bo'lishgan, yerning qat'iy hisobini olib borishgan, kanallarni qurish, inshootlarni tiklash maqsadida har xil o'lchashlarni amalga oshirganlar, yerlarni chegaralash va o'lchash ishlarini bajarganlar, haqqoniyroq soliqqa tortish maqsadida uning sifatini hisobga olganlar.

Masalan, Gerodot o'z fuqarolari orasida yerni teng kvadrat uchastkalarga bo'lib taqsimlagan va ularga har yili yer solig'ini to'lash majburiyatini belgilagan Misr shohi Sesostriisni (bizning eramizgacha XIX asr) ta'riflagan. Agar yerlarni Nil daryosi suvlari yuvib ketsa, u yillik soliq miqdorini kamaytirish maqsadida zarar

miqdorini aniqlash uchun odamlarni jo'natardi. Gerodot fikricha o'sha vaqtda yer o'lchash mahorati yaratilgan edi, keyinchalik u Elladaga olib o'tildi.

Qadimgi Rimda yerga bo'lgan mulkchilik huquqini mustahkamlash maqsadida yerlarni yozma ta'riflash o'tkazildi, bu ishlarning boshlanishini shoh Serviy Tulliga bog'lashadi (bizning eramizgacha VI asr). Buning uchun maxsus reestrlar yuritilar edi; ularga yer uchastkalarining maydonlari, ularga ishlov berish usuli, ularning sifati va daromadlilik to'g'risida ma'lumotlar yozilardi.

Yerdan foydalanish uchun dehqonlar - ishlab berish, mahsulot va pul rentalarini to'lashar edi. Davlat feodallarning yerga bo'lgan mutloq mulkchilik huquqlarini himoya qilar va uning mustahkamlanishiga norozilik chiqishlarini ayovsiz bostirib, har tomonlama yordam qilar edi. Tarixdan Fransiyadagi Jakeriya (XIV asr.), Angliyada Uot Tayler qo'zg'oloni (XIV asr oxiri), Germaniyada Tomas Myunsern boshchiligidagi (XVI asr.), Rossiyada Stepan Razin (XVII asr.) va Yemelyan Pugachev (XVIII asr.) boshchiligidagi dehqonlar urushlari yaxshi ma'lum. Juda katta miqyosdagi dehqonlar qo'zg'aloni Xitoyda butun o'rta asrlarda bo'lib turdi.

O'rta asrlardayoq yer tuzish davlat maqomiga ega edi va birinchi navbatda yerlarning hisobi (kadastr) bilan ularni yer egalari orasida bo'lish va chegaralarni belgilash (yer mulki chegaralarini belgilash va mustahkamlash) bilan bog'liq bo'ldi. G'arbiy Yevropadagi o'rta asrlar kadastriga, xususan, franklar qiroli Buyuk Karl (742 - 814 yillar) yer hisobini, Vilgelm Zabt etuvchi (1066 - 1087 yillar) zamonlaridagi yerlarning maydoni va sifati to'g'risida to'la ma'lumotlarga ega ingliz «Dahshatli sud kitobi», imperator Fridrixning II (1194 - 1250 yillar) sotsiiali kadastr, Kolabriya kadastr (1327 y.), Brandenburg Kurfyurshestvasining yer bo'yicha kitobi (1375 y) va boshq. kiradi.

Kapitalizm rivojlanishi bilan yer tuzish ishlari doimiy xarakterga ega bo'la boshladi va nafaqat yer mulkchiligi huquqlarini mustahkamlashga, balki dehqonchilikning (ilg'or) tizimlarini, yangi yuqori unumli mashinalar va mexanizmlarni qo'llash maqsadida yirik tovar xo'jaliklarida yerdan foydalanishni tashkil etishga qaratilgan edi.

Har xil ijtimoiy - iqtisodiy formatsiyalarda va davlatlarda yer tuzishning tugʻilishi va rivojlanishining obʻektiv sabablarini, sharoitlarini taxlil etib quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

Yerdan foydalanish jarayonida odamlar yerlarga egalik qilish va ulardan foydalanish bilan bogʻliq maʼlum munosabatlarga kiradilar; ularning asosini yerga boʻlgan mulkchilik tashkil etadi. Maʼlum yer munosabatlari va ularni tartibga solishni mos tashkil etish bilan tavsiflanuvchi jamiyat va davlat qurilishi tizimi jamiyatning yer tuzumini belgilaydi. Davlat yer tuzumiga u yoki bu darajada taʼsir etib, har xil huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy choralar yordamida amalga oshiriladigan yer siyosatini olib boradi.

Huquqiy choralar hamma vaqt ham majburiyat va majburlash elementlaridan iborat boʻladi. Ular yer munosabatlarini yer qonunchiligi, sud va maʼmuriy huquqlar asosida tartibga solishadi.

Iqtisodiy choralar yer munosabatlarining soliqqa tortish, kreditlash, maqsadli moliyalash, subsidiyalash, yerdan foydalanishni rejalash va sh.oʻ. asosida rivojlanishiga yordam beradi.

Tashkiliy choralar yer munosabatlarining rivojlanishini har xil shirkatlarni, oʻrtoqliklarni tuzish, malakali kadrlarni tayyorlash, moddiy - texnik taʼminotga, transportga yordam koʻrsatish, yangi yerlar oʻzlashtirilayotgan tumanlarga aholini koʻchirishga koʻmaklashish va sh.oʻ. bilan taʼminlaydi.

Davlatning yer siyosati qonun chiqaruvchi va ijrochi hokimiyatlar organlari, sud, moliya, bank organlari, har xil qoʻmitalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Biroq ularning iqtisodiy va ijtimoiy hayot sohasidagi koʻplab boshqa tashqi va ichki siyosatni amalga oshirish bilan bogʻliq vazifalari boʻlganligi sababli, birinchi navbatda yer siyosati masalalari bilan shugʻullanadigan maxsus yer tuzish organlarini tashkil etishning obʻektiv zarurati tugʻiladi.

- ❖ Ular faoliyatining maqsadi - yerdan foydalanishda maʼlum tartibni taʼminlash, yerga boʻlgan mulkchilik huquqini mustahkamlash va himoya qilish,

mulkchilik huquqining bir shaxsdan (muassasa, tashkilot) boshqasiga o'tishini yengillashtirish;

- ❖ zarurat tug'ilganda yerlarni soliqqa tortish va rentasini olish tartibini belgilash;
- ❖ yerdan xo'jalik nuqtai nazaridan maqsadga mos foydalanishni tashkil etishdir.

Shuning uchun yer tuzish organlariga, odatda, yer kadastrini yuritish, yerlarni berish va qaytarib olish, yer tortishuvlarini yechish, xo'jaliklar hududini ichki tashkil etish, yerdan foydalanish va yer qonunlarining amalga oshirilishi ustidan nazorat va ularni rejalashtirish vazifalari yuklanadi.

Davlat va huquq nuqtai nazaridan yer tuzish yer munosabatlarini texnik va huquqiy rasmiylashtirish, yerdan foydalanish (yerga egalik qilish) huquqini belgilash, ta'minlash va himoya qilish, yerdan foydalanishni maqsadli tartibga solish bo'yicha davlat organlarining faoliyatidan iborat bo'ladi.

Boshqacha aytganda, yer tuzish - bu qonun bilan belgilangan, davlatning yer siyosatini amalga oshirishga qaratilgan jarayondir. Shuning uchun u ma'lum ma'noda uning yordamida davlat yer munosabatlarini o'z manfaatlari yo'lida tartibga soladigan qurol (o'lchash tizimlari) sifatida xizmat qiladi.

Yer tuzishning davlat maqomi huquqiy, texnik va iqtisodiy tomonlarga ega, mos yer tuzish jarayoni va yer tuzish ishlarini yuritishni belgilaydi.

- ❖ Bu jarayonning huquqiy tomoni yer tuzish ishini qo'zg'ash, bajarish, tasdiqlash va uning harakati tartibini belgilaydi;
- ❖ texnik tomoni - hujjatlarni tuzish tartibini, rasmiylashtirish, berish va ularning mazmunini;
- ❖ iqtisodiy - loyihaaning mazmuni va asoslanishini, yer tuzish ishlarini tashkil etish va texnologiyasini, ularni moliyalashni, qiymatini va sh.o'. belgilaydi.

Davlatning yer siyosati yer tuzish organlari davlat boshqaruv organlari tarkibida bo'lsa va birgalikda harakat qilsa yoki davlat nomidan mos vakolatlarga ega bo'lsagina samarali amalga oshiriladi. Shu bilan, ayrim vaziyatlarda yer tuzish organlari tomonidan amalga oshiriladigan standart huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy choralar yetarlik bo'lmasligi va davlat agrar o'zgarishlarni, yer islohotlarini,

natsionalizatsiyani amalga oshirib, o'z qo'liga bevosita yer fondini tasarruf etishni olishi hollari izohlanadi.

Feodalizmdan kapitalizmga o'tishda ayrim mamlakatlarda yer tuzish yordamida mayda ishlab chiqaruvchilarni yerdan ajratish siyosati olib borildi. Masalan, Angliyada yerlarni o'rash (chegaralash) jarayonida (XV - XVII asr.) ulardan dehqonlar haydab chiqarildi, yerlar kapitalistik qishloq xo'jaligini yuritish uchun yirik yer egaliklariga bo'lindi. Germaniyada XVI - XVIII asrlarda yer tuzish yordamida pomeschchik yer egaliklari mustahkamlandi; dehqonlarga faqat mayda uchastkalar qoldirildi. Rossiya hukumati ham 1861 va 1906 yillardagi islohotlar vaqtida ko'p jihatdan shunga o'xshash harakatlar qildi.

Shunday qilib, har qanday ijtimoiy - iqtisodiy formatsiyalarda yer nafaqat tabiiy resurs va ishlab chiqarishning moddiy-texnik omili, balki ijtimoiy - iqtisodiy aloqalar ob'ekti sifatida taqsimlanadi va tashkil etiladi, bu albatta ushbu jarayonga ma'lum siyosiy mazmun beradi.

Shu bilan bir qatorda yer tuzishni faqat davlat faoliyati bilan bog'lash kerak emas; bu qator sabablar bilan izohlanadi.

Birinchidan, yer fondini boshqarish va yer siyosatini amalga oshirish sohasidagi davlatning faollik darajasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, yer egaliklari va yerdan foydalanishlar hamma vaqt ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari evolyusiyasi bilan bog'liq rivojlanishning ichki manfaatdorliklariga ega bo'lishadi; ular nafaqat davlat organlari ko'rsatmalariga amal qilishadi, balki o'zlari tashkil etiladi.

Ikkinchidan, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarda bozor kon'yukturasini hisobga olish va xo'jalik samaradorligini oshirish maqsadida yerlarini yirik, ixcham qulay shakldagi massivlarga aylantirish, transformatsiya, melioratsiya va yerlarni yaxshilash bilan bog'liq shaxsiy iqtisodiy manfaatlari bo'ladi. Masalan Angliyada non qonunlarini qabul qilish davrida (XVIII asr oxiri - XIX asr boshi) dehqonlar doimo yer turlari tarkibini o'zgartirib turishga majbur bo'ldilar. Donning past va go'shtning yuqori bahosi ko'plab haydalma yerlarning yaylovlarga

aylanishiga olib keldi, Angliyada sanoatning rivojlanishi va aholining o'sishi sababli don narxining ko'tarilishi natijasida yangidan yaratilgan yaylovlar yana don ekish uchun haydaldi.

Uchinchidan, yer tuzish hududni ma'lum darajada tashkil etish va qabul qilingan dehqonchilik tizimlari bilan bog'liq; ularning o'zgarishi yer tizimi va unga mos davlat siyosati o'zgarmasa ham yer tuzish faoliyati tavsifini o'zgartiradi.

Demak, dehqonchilikning partov (bo'z yer) tizimidan go'ng - bo'sh shudgor tizimiga o'tishi yerlar tarkibining o'zgarishiga, haydalma yerlar nisbati o'sishiga, ularning aholi yashash joylariga yaqinlashtirilishiga olib keldi.

Har xil dehqonchilik tizimlaridan foydalanish hududni albatta qayta tuzishni - ko'p dalali almashlab ekishlarni joriy etishni, yangi dalalarni, sug'orish (ishchi) uchastkalarini joylashtirishni, yerlarni transformatsiyalashni talab etadi. Tuproq eroziyasi keng tarqalgan mintaqalarda dehqonchilikning tuproqni himoya qilishga qaratilgan tizimini o'zlashtirish hududni konturli - meliorativ yoki konturli - polosali tashkil etish yordamida ta'minlandi. Boshqacha aytganda, xo'jalikning har bir tizimiga ob'ektiv holda ishlab chiqarishni ma'lum hududiy tashkil etish mos keladi.

Tom ma'noda yer tuzish, yerlarni taqsimlashda va undan foydalanishda belgili tartib o'rnatishdan iboratdir; bu tartib hududni va yer bilan ajralmas bog'liq ishlab chiqarish vositalarini mos ravishda tashkil etishda namayon bo'ladi.

6.2.YER TUZISHNING TA'RIFI VA MAZMUNI

Yer tuzish - murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa; unga kiradigan tadbirlar tarkibi tarixiy rivojlanish jarayonida o'zgarib boradi. Prof. P.N.Pershin o'tgan asrning 20-chi yillaridayoq, yer tuzish - o'tkaziladigan vaqti va joyi sharoitlariga bog'liq holda judayam o'zgaruvchan qadimiy hodisa degan edi. Shu sababli, yer tuzishning zamonaviy ta'rifini berish uchun unga tarixiy nuqtai nazardan yana bir marta qarash, bu tushunchaga qanday ma'no berilganligini aniqlash kerak, u yana har xil atamalar («chegaralash», «yer o'lchash», «yer tuzish») bilan ham ataldi.

«Yer tuzish» atamasining o'zi prof. F.G.Nekrasov fikri bo'yicha 1906 y. paydo bo'ldi va oldin ishlatilib kelingan «chegaralash» atamasini o'zining tarkibiy qismi sifatida almashtirdi.

Yuqorida ko'rsatilganidek, revolyusiyadan oldingi yer tuzish asosan chegaralashdan - yer egaliklarining chegaralarini joylarda belgilash va huquqiy rasmiylashtirishdan iborat bo'ldi. Masalan, 1766 y. yo'riqnoma bo'yicha Bosh chegaralashning asosiy vazifasi quyidagidek «yer egaliklarining to'g'ri va e'tirozsiz chegaralarini belgilash yordamida egalarining tinchligini tasdiqlash» edi. Unga 1914 y. S.P.Kavelin quyidagi ta'rifni berdi: «Davlat chegaralashi yer mulkchiligi chegaralarini moddiy va hujjatli mustahkamlashga va ular ichidagi yerlar sonini (maydonini) aniqlashga qaratilgan texnik va huquqiy harakatlar yig'indisini o'zida mujassamlashtiradi». Boshqacha aytganda, chegaralash bu, asosan, hududlar va yer egaliklari chegaralarini egalari huquqlarining hududiy chegaralari sifatida belgilashdan iborat yer tuzishning elementar shaklidir.

Bunda yer uchastkalari va ularning chegaralari, asosan, statik (o'zgarmas) nuqtai nazardan, ularni o'zgartirish va yaxshilash maqsadisiz qaraldi.

Yer tuzish yuqori rivojlanish shakliga XX asrning boshida Stolipin agrar islohotlarini o'tkazishda erishdi. Endi nafaqat yerlarni chegaralash, balki yer uchastkalarini (yer egaliklarini) maqsadga muvofiq joylashtirish va ularga xo'jalik yuritish uchun qulay shakl berish masalalari ham qo'yildi.

Shunday qilib, nafaqat texnik va huquqiy, balki iqtisodiy muommalarni ham yechish zarur bo'ldi. Nihoyat Stolipin islohoti ma'lum siyosiy (nafaqat iqtisodiy) maqsadlarga erishishga qaratilgan edi. Shu bilan revolyusiyagacha yer tuzishning mazmuni asosan tugadi.

O'tgan asrning 20-chi yillarida yer tuzish texnik tomondan oldingi vazifalarini asosan saqlab qoldi, biroq u ko'proq darajada ijtimoiy va iqtisodiy ishga aylandi. RSFSRning 1922 y. Yer kodeksida «Yer tuzish xo'jalik-texnik maqsadga muvofiqligi talablariga va yerga bo'lgan huquqlariga mos ravishda yangi yerdan foydalanishlarni tashkil etish va mavjudlarini tartibga solish

vazifalariga ega» deb ko'rsatilgan. O'sha vaqtlarda u yerning xususiyatlarini o'zgartirishi, hosildorlikni oshirishi, dehqonchilikda mehnat unumdorligini o'stirishi va ularga ta'sir etishi mumkin emas deb hisoblanar edi. Bular agronomiya va texnika ishlari edi. Yer tuzish yerdan foydalanishlarni ularni oqilona joylashtirish, ularga optimal o'lchamlar berish, ularning kamchiliklarini tugatish yo'li bilan to'g'ri tashkil etish natijasida iqtisodiy samara yaratishi kerak. O'sha yillarda prof. P.N.Pershin yer tuzishni «hududni, yerning ustki yuzasini undan ishlab chiqarishda foydalanish uchun o'lchamlariga, yer turlari tarkibiga va joylashish shakllariga nisbatan moslashtiruvchi harakat» sifatida aniqlab, «bunday moslashtirish yana bitta, xarakterli belgiga ega, bunda yerning tabiiy xususiyatlari (tuproq, relef, o'simlik dunyosi, suv rejimi va boshq.) o'zgarmaydi» deb hisobladi. U vaqtdagi yer tuzish faqat xo'jaliklararo (qishloqlar orasida va qishloqlar ichida) edi.

Biroq keyinchalik, uning harakat doirasiga yangi prinsipial masalalar qo'shiladi. Masalan, 1928 y. dekabrda qabul qilingan «Yerdan foydalanish va yer tuzishning umumiy boshlanishi to'g'risida»gi hujjatda «yer tuzish ko'p polosalikka, uzoq yerlarga va boshqa yerdan foydalanishdagi kamchiliklarga qarshi kurashishga, yaxshilangan almashlab ekishlarga o'tishga, yerlarni tubdan yaxshilashga, yerlarni xo'jalik uchun o'zlashtirishga yordam berishi kerak» deb aytilgan edi. Bu vazifalarini bajarish uchun bitta xo'jaliklararo yer tuzish va uning usullari endi yetarlik emas edi. Chegaralari belgilangan va turg'un bo'lgan yerdan foydalanishlar ichida yerdan foydalanishni yaxshilash va tashkil etish bo'yicha harakatlar zarur edi. Shunday qilib, qishloq xo'jalik korxonalarida (kolxozlar va sovxozlar) xo'jaliklarda ichki yer tuzish paydo bo'ldi. Uning mazmuni, asosan, 30-chi yillardayoq aniqlandi. Urushdan keyingi yillarda esa yanada rivojlantirildi. Uning usullarini ishlashga ham asosan olimlar va amaliyotchilar e'tibori qaratildi.

Yer tuzuvchilarga ayniqsa qishloq xo'jaligida, ma'lum korxonalar hududida yerdan foydalanishni tashkil etishga bog'liq yanayam kengroq doiradagi

masalalarni yechishga to'g'ri keldi. Har bir yer uchastkasining mo'ljallangan maqsadi, o'lchamlari, shakli, oqilona joylashishi aniqlandi.

Yerlarning unumdorligini, yer turlarining mahsuldorligini oshirish, ishlab chiqarishning tashkil etilishini, texnikadan foydalanishni yaxshilash uchun hududiy sharoitlar yaratildi. To'g'ri almashlab ekishlarning dehqonchilik ma'daniyatini ko'tarishning ahamiyatli vositasi sifatida joriy etilishiga va o'zlashtirilishiga katta e'tibor berildi. Xo'jaliklarda ichki yer tuzishning bu masalalari hozirgi vaqtda ham rivojlanishni davom ettirmoqda.

Keyingi ahamiyatli qadam deb hududni eroziyaga qarshi tashkil etishni, yer tuzish tarkibida va yechimlari asosida tuproq eroziyasiga qarshi kurash bo'yicha tadbirlar majmuasini ishlashni hisoblash mumkin. Shunday qilib, yer tuzish yerning tabiiy xususiyatlarini o'zgartirish va yaxshilash masalalarini to'la hajmda yecha boshladi va iqtisodiy, huquqiy, texnik xarakterdagi ishlar chegarasidan ancha uzoqqa chiqdi.

O'tgan asrning 70-80-chi yillari yana bitta o'zgarish jarayoni - yer tuzish ob'ektlarining hududiy kengayishi, ayrim yerdan foydalanishlar va ularning uncha katta bo'lmagan guruhlaridan ma'muriy tuman, tuman agrosanoat majmuasi, katta suv yig'iladigan havza va sh.o'. kabi keng hududiy tizimlarga o'tish kuzatildi. Bu prinsipial yangi ishlar - viloyat va tumanlar yer tuzish chizmalarini ishlashni talab etdi.

Eng oxirgi vaqtda maxsus foydalanish tartibiga ega hududlarni joylashtirish va ularning chegaralarini belgilash bo'yicha ishlar boshlandi, ularni landshaftli loyihalashga kiritish mumkin. Bunday ishlarning zarurligi qonunlarda ko'rsatildi.

Yer tuzish rivojlanish jarayonida o'z vazifalari doirasini kengaytirib, oldin o'zlashtirilgan usullarni tashlab yubormadi, balki, ulardan foydalanishni yuqoriroq darajada davom ettirdi. Masalan, 1930-chi yillardagi qishloq xo'jalik artellariga yerdan muddatsiz foydalanish uchun davlat aktlarini berish bo'yicha ishlar ko'p jihatdan oldingi chegaralashni, lekin bir vaqtda yerdan foydalanishdagi kamchiliklarni tugatish bilan birga, esga soladi. Texnik jihatdan bu 1920-chi

yillarda amalga oshirilganlariga o'xshash, lekin ular endi mayda emas balki yirik yerdan foydalanishlarga tegishli ishlar edi.

Yer tuzishning zamonaviy ta'rifini berishdan oldin yerdan foydalanishni tashkil etish tushunchasini ko'rib chiqish zarur, u ham asosiylardan biri hisoblanadi. Uning asosiy belgilarini ko'rib chiqamiz.

Yerdan foydalanishni tashkil etish o'zida avvalo, undan bevosita foydalanishdan oldingi, uning xarakterini oldindan aniqlovchi va shakllantiruvchi, buning uchun zarur sharoitlarni yaratuvchi (bunday ishlarga, xususan, rejalashtirish va loyihalash kiradi) barcha ishlarni mujassamlashtiradi. Bundan tashqari yerdan foydalanishni tashkil etish deganda uni amalga oshirishning harakatdagi tizimi ham tushiniladi. *Umuman bunday tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi:*

- ❖ yerda aniq ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik maqsadlarga maksimal darajada mos keladigan tartib o'rnatish;
- ❖ yerni tabiiy resurs va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar ob'ekti sifatida tuzish;
- ❖ yerni boshqa u bilan bog'langan ishlab chiqarish vositalari bilan birgalikda tuzish;
- ❖ yerdan foydalanish jarayonida xalq xo'jaligi umumiy manfaatlarining saqlanishiga hamda mintaqaviy va lokal (mahalliy) dasturlarda ko'zda tutilgan qoidalariga rioya qilish.

Yer tuzish o'z ichiga o'zining asosiy vazifasi sifatida yerdan foydalanishni tashkil etishni oladi. Yer tuzishning uni yechish bilan bog'liq asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ❖ yerdan foydalanish va yerga egalik qilishning barcha shakllarini takomillashtirish, tashkil etish, tartibga solish;
- ❖ hududni xo'jaliklararo va xo'jaliklar ichida tashkil etish;
- ❖ yer fondlarini tashkil etish;
- ❖ agrosanoat majmuasini hududiy tashkil etish, tabiiy landshaftlarni yaxshilash va boshq.

Bizning mamlakatimizda yer tuzish o'zida, avvalo, barcha davlat tadbirlari tizimini ifodalaydi.

- ❖ Bu tizimga davlat yer tuzish organlari tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy, huquqiy, texnik va ekologik ishlar;
- ❖ bashoratlash, rejalash va hududni tashkil etishni loyihalash;
- ❖ hozirgi vaqtda, yaqin va uzoq kelajakda butun mamlakat va ayrim mintaqalar bo'yicha yerlar toifalari va yerdan foydalanishlar, yer turlari va ayrim uchastkalar yer resurslaridan foydalanishni va uni muhofaza qilishni tashkil etish.

Bu tizimga yer kadastri materiallaridan foydalanib har xil chizmalar, loyihalarni tuzish ham kiradi.

Yer tuzish o'z mohiyati bo'yicha iqtisodiy tadbir bo'lib, huquqiy, texnik va boshqa ishlar bilan bir tizimda o'tkaziladi. Bunda yerdan foydalanishni tashkil etishga bog'liq har xil iqtisodiy, ekologik, huquqiy va texnik masalalar ishlanadi, ular «yer tuzish» tushunchasini ilmiy ta'riflashda o'z aksini topishi kerak.

Adabiyotlarda yer tuzish rivojlanishining har xil bosqichlariga xos ko'plab ta'riflarni uchratish mumkin. Ularda har xil to'lalik darajasida uning texnik, huquqiy yoki iqtisodiy tomonlariga urg'u berildi. Bular hammasi tabiiy hol edi, sababi, tarixiy rivojlanish jarayonida yer tuzishning o'zi, uning mazmuni va vazifalari o'zgardi va ta'riflar har xil darajadagi aniqlikda sodir bo'layotgan o'zgarishlar mohiyatini aks ettirishga harakat qilishdi.

Ayrim mualliflar yer tuzish yer munosabatlarini tartibga soladi va o'zgartiradi deb hisoblashadi, bunday yondashuv bilan kelishish mumkin emas, sababi, yer tuzish o'zi ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'siri ostida rivojlanadi va amalga oshiriladi. Shu vaqtning o'zida yer tuzish, yerdan foydalanish va unga egalik qilish bilan bog'liq munosabatlarni o'zgartirishda so'zsiz qatnashadi; biroq aniqroq qilib aytsak, yer munosabatlarini emas, balki yerdan foydalanishlarni va yer egaliklarini tartibga soladi.

Boshqa ta'riflarda yer tuzish - bu yerni ma'lum xo'jalik maqsadlariga moslash deb aytiladi. Bizning davrimizda bunday yondashuv bir tomonlama hisoblanadi. Insonning o'ziga doimo yerga moslashishga, mavjud yer resurslari va ekologik cheklashlarga qarab eng yuqori ishlab chiqarish va ijtimoiy samara olish uchun o'z maqsadlarini o'zgartirishga to'g'ri keladi.

Yer tuzish fani va amaliyoti ma'lumotlariga asoslanib, hamda yuqorida ko'rib chiqilgan yerdan foydalanishni tashkil etish tushunchasini e'tiborga olib, zamonaviy yer tuzishga quyidagi qisqa ta'rifni berish mumkin.

Yer tuzish - bu ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishni tashkil etish, yer egaliklari, yerdan foydalanishlar va maxsus yer fondlarini tashkil etish va tartibga solish, qishloq xo'jalik korxonalari hududlarini tuzish, maqbul ekologik muhit yaratish va tabiiy landshaftlarni yaxshilash bo'yicha tadbirlar tizimidir.

Yer tuzish - bu mamlakat xo'jalik mexanizmining tarkibiy qismidir.

Uning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- ❖ yer egaliklari va yerdan foydalanishlarning oqilona tizimini yaratish va takomillashtirish;
- ❖ barcha shakldagi yer egaliklari, yerdan foydalanishlar va yerda xo'jalik yuritishlarning rivojlanishlari uchun teng hududiy sharoit yaratish;
- ❖ mulk qilib, egalik qilishga va foydalanishga berilgan yerlardan foydalanish tartibini va sharoitlarni belgilash bo'yicha tavsiyalar ishlash;
- ❖ yer solig'i va yer uchun ijara haqini belgilash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish ziyonlarini va yer egaliklari hamda yerdan foydalanishlarning yerlarni olishdagi zararlarini belgilash uchun ma'lumotlar tayyorlash;
- ❖ yer tuzishda belgilangan chegaralarning joylarda belgilanishi aniqligini va so'zsiz tan olinishini ta'minlash;
- ❖ melioratsiyalashning yo'nalishini asoslash va kelajagini belgilash;
- ❖ qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini oqilona tashkil etish uchun hududiy sharoit yaratish;

- ❖ tabiiy landshaftlarni saqlash va yaxshilash, tuproqlar unumdorligini tiklash va oshirish, yerlarni rekultivatsiyalash, ularni eroziyadan himoya qilish va boshqa buzilish jarayonlarini hamda buzilgan yerlarni konservatsiyalash bo'yicha tadbirlarni ishlash.

Zamonaviy yer tuzishning mazmuni asosan harakatdagi yer qonunchiligi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga asosan yer tuzish ishlari tarkibiga quyidagilar kiritilgan:

- ❖ respublika va uning mintaqalarining yer-suv resurslaridan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish chizmalarini ishlab chiqish;
- ❖ tumanlar va viloyatlarning yer tuzilishi chizmalarini ishlab chiqish;
- ❖ tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog'liq istiqbol rejalarini, respublika miqyosidagi va hududiy dasturlarni ishlab chiqish;
- ❖ alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning joylashishi va chegaralari belgilanishini asoslash;
- ❖ joyning o'zida ovullar, qishloqlar, posyolkalar, tumanlar, shaharlar, viloyatlarning chegaralarini belgilash;
- ❖ yerlarning joylashishidagi noqulayliklarni bartaraf etgan holda yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilarning va mulkdorlarning yangi yer uchastkalarini tashkil etish hamda mavjud yer uchastkalarini tartibga solish loyihalarini tuzish;
- ❖ yangi tashkil etilayotgan, qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jalik korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlariga yer ajratib berish loyihalarini tuzish;
- ❖ korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib quyiladigan yerlarni ajratib berish loyihalarini tuzish;
- ❖ yer uchastkalarini naturada (joyning o'zida) ajratib berish, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish, yer uchastkasini ijaraga olish hamda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlarni tayyorlash;

- ❖ yangi yerlarni o'zlashtirish, qishloq xo'jalik yerlarini yaxshilash, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, tuproqni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, ko'chkilardan, suv bosishdan, zaxlashdan, qaqrab qolishdan, zaranglashishdan, ishlab chiqarish chiqindilari, radioaktiv va kimyoviy moddalar bilan ifloslanishdan himoya qilish bo'yicha ishchi loyihalarini ishlab chiqish;
- ❖ barcha yerlarni ro'yxatga olish hamda foydalanilmayotgan, samarasiz foydalanilayotgan yoki belgilangan maqsadda foydalanilmayotgan yerlarni doimiy aniqlab borish;
- ❖ yerlarni resurs jihatidan baholash, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan yer tuzish hujjatlarini ishlab chiqish;
- ❖ yerlarni baholash tadbirlarini o'tkazish.

Yuqorida barcha keltirilgan ishlar yerdan oqilona va samarali, ilmiy asoslangan tarzda foydalanishga, xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun eng yaxshi tashkiliy-hududiy asos yaratishga qaratilgan.

Xoxlagan mazmundagi yer tuzishni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun yer to'g'risida yetarlik darajada to'la va aniq axborot zarur; uni birinchi navbatda davlat yer kadastri beradi. U o'zida yerlarning soni va sifati, huquqiy maqomi, ularning yer mulkdorlari, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar, yer toifalari bo'yicha taqsimlanishi va xalq xo'jaligidagi ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar va hujjatlarni mujassamlashtiradi.

Kadastr ma'lumotlaridan majburiy tarzda xalq xo'jaligining har xil maqsadlari uchun - yerdan foydalanishni rejalash va uni muhofaza qilishda, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini joylashtirish va ixtisoslashtirishda, yerlarni melioratsiyalashda, yer uchun to'lovlarni asoslash va belgilashda, xo'jalik faoliyatini baholash va boshqa tadbirlarni amalga oshirishda foydalaniladi. Ular ayniqsa yer tuzishda zarur; bu yerda ular yer tuzish chizmalari va loyihalarini tuzish, yerlardan oqilona foydalanishni va uni muhofaza qilishni tashkil etish,

hududni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlash uchun boshlang'ich axborot bazasi sifatida xizmat qiladi.

Yer fondining ahvoli to'g'risidagi joriy axborotni yer monitoringi - uning holatini, yuz beradigan o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni baholash, har xil salbiy jarayonlarning oldini olish va ularni tugatish maqsadidagi kuzatishlar tizimi beradi. Yer tuzish ishlab chiqarishning tashkiliy-hududiy asosi sifatida melioratsiya, madaniy - texnik tadbirlar, yo'l qurilishi, agroo'rmon melioratsiyasi, qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va boshqa, amalga oshirilishi yerdan foydalanishni tashkil etishga ta'sir etadigan tadbirlar bilan ham bog'liq.

6.3. YER TUZISHNING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

Yer tuzishning tarixiy rivojlanishi jarayonining barcha bosqichlarida hamma vaqt asosiy o'rinni davlat o'ynadi. U yer munosabatlarini tartibga soladigan qonunlarni va boshqa bajarilishi majburiy me'yorlarni chiqaradi, yer tuzishning asosiy mazmunini va o'tkazilish tartibini belgilaydi. Davlat o'zining yer siyosatini harakatdagi qonunchilikka mos ravishda amalga oshiruvchi maxsus organlarni yaratadi. Yer tuzish shuning uchun hamma vaqt u yoki bu darajadagi davlat tadbiri hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda huquqiy me'yorlar oxir-oqibatda jamiyat hayotining moddiy sharoitlarini o'zida namayon etadi; ular mavjud ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi. Demak, yer tuzishga ham faqat majburiy akt, belgili maqsadni amalga oshirishga qaratilib tashkil qilinadigan harakat sifatida qarash mumkin emas; u ijtimoiy ishlab chiqarish talablaridan tug'ilgan ob'ektiv ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir.

Bunday ta'rifni ham berish mumkin: yer tuzish - bu tabiiy resurs sifatida yerdan foydalanishni tashkil etish va ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda jamiyatning ijtimoiy talablarini qondirish maqsadlari uchun hududni tuzishning ob'ektiv rivojlanadigan jarayonidir.

Ijtimoiy ishlab chiqarish doimo o'zgarib turadi. Mos ravishda yer tuzishning ham, ishlab chiqarish usullariga (feodal, kapitalistik va sh.o'.) hamda uning rivojlanishining aniq bosqichlariga bog'liq holda shakllari va usullari o'zgaradi. Boshqacha aytganda, ishlab chiqarishning ijtimoiy usuli hal qiluvchi darajada yer egaliklari, yerdan foydalanishlar va yer tuzishning shakllarini aniqlaydi.

Tarixiy rivojlanishning ayrim bosqichlarida mavjud yer tuzumini tubdan buzish, katta yer massivlarini qayta taqsimlashning kechiktirib bo'lmaydigan zarurati tug'ilganda, yer tuzish boshqarib bo'lmaydigan, favquloddagi xarakterga ega bo'lishi mumkin (masalan, 1930 yillar boshidagi kollektivlashtirish davrida qishloq xo'jalik artellarining tuzilishi).

Ammo, bunday davrlar hamma vaqt ham qisqa muddatli bo'ladi; asosan, yer egaliklaridagi, yerdan foydalanishlardagi va hududni tashkil etishdagi (ayniqsa qishloq xo'jaligida, bu yerda yer - ishlab chiqarishning asosiy vositasi) o'zgarishlar maqsadga qarab va tashkillashtirilgan holda, yer tuzuvchi mutaxassislar ishtirokida va davlat nazorati ostida amalga oshiriladi.

Bunda har qanday o'zgartirishlar ma'lum nazariy va uslubiy asosda, boshqacha aytganda - ilmiy asosda amalga oshiriladi.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, yer tuzishning quyidagi asosiy qonuniyatlarini ko'rsatish mumkin:

- ❖ yer tuzish ishlab chiqarish ijtimoiy usulining tarkibiy qismi hisoblanadi;
- ❖ yer tuzish davlat maqomiga ega bo'ladi;
- ❖ yer tuzish iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'zgaruvchi talablariga mos ravishda o'zgaradi va rivojlanadi;
- ❖ yer tuzishning mazmuni va usullari ilmiy asosda takomillashib boradi.

6.4. YER TUZISH TAMOYILLARI

Yerdan tabiiy resurs sifatida oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish vazifasi, mamlakatimiz yer tuzumi va yer qonunchiligi, yer tuzishning xarakterini, mazmunini, o'tkazish usullarini va nimaga yo'naltirilganligini aniqlaydi. Bunda

katta xalq xo‘jaligi ahamiyatiga ega, ishlab chiqarishni tashkil etish va joylashtirish, jamiyatning ijtimoiy talablari bilan bog‘liq murakkab va har xil muommolarni yechishga to‘g‘ri keladi. Taklif qilinayotgan yechim samarali bo‘lishi uchun yer tuzish ma’lum tamoyillarga rioya qilishi kerak.

Yer tuzish tamoyillari - bu uning yo‘naltirilishini, mazmunini, usullarini aniqlovchi, uni o‘tkazishning boshlang‘ich qoidalari, asosiy tartiblaridir. Ular xayoliy, ajralgan xarakterga ega emas, balki, tabiiy sharoitlar va jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy talablari bilan bog‘langan holda amaliy faoliyat jarayonidan kelib chiqadi. *Hozirgi vaqtda yer tuzish fanida quyidagi tamoyillar umumiy tan olingan hisoblanadi:*

- ❖ yer qonunchiligi talablariga rioya qilish, yer egaliklari va yerdan foydalanishlar doimiyligini va turg‘unligini mustahkamlash;
- ❖ ishlab chikarish va ijtimoiy maqsadlar uchun, ekologik talablar ustivorligini saqlagan holda, yerdan oqilona foydalanish;
- ❖ butun jamiyatning, ayrim tarmoqlarning, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning manfaatlarini qishloq xo‘jaligi ustivorligini saqlagan holda uyg‘unlashtirish;
- ❖ barcha tashkiliy - hududiy yechimlarni xo‘jalikning kelajakdagi rivojlanishi, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog‘lash;
- ❖ ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun tashkiliy-hududiy sharoit yaratish;
- ❖ tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish.

Sanab o‘tilgan tamoyillarni to‘laroq ko‘rib chiqamiz.

Yer qonunchiligi talablariga to‘la rioya qilish - har qanday yer tuzish ishlarini bajarishning zaruriy shartidir, sababi, yer tuzish davlatning yer tuzumiga noaniqliklar kiritishga emas, balki, mustahkamlashga qaratilgan.

Ma’lumki, mahalliy hokimiyat organlarining barcha darajalari o‘z vakolatlari doirasida davlat nomidan yerni tasarruf etadi va uni mulk qilib, foydalanishga va ijaraga yer tuzish yordamida beradi. Bunda xo‘jaliklar va xo‘jalik uchastkalarining

belgilanadigan chegaralari, yerdan foydalanishda zarur tartibni ta'minlash uchun, joylarda aniq bo'lishi kerak.

Yer egaliklari va yerdan foydalanishlarning turg'unligi o'zgaras chegaralardagi yer uchastkalariga uzoq vaqtlar egalik qilish yoki ulardan foydalanish bilan ta'siflanadi. Unga tuzilayotgan yer egaliklari va yerdan foydalanishlar barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha ratsional bo'lganda, o'zgartirish kiritishni talab qiladigan noqulayliklar va kamchiliklar bo'lmaganda erishiladi. Shu bilan bir qatorda, vaqt o'tishi bilan har xil sabablarga ko'ra yerdan foydalanishlarda ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiruvchi noqulayliklar va kamchiliklar kelib chiqishi mumkin, ular tugatilishi kerak.

Bundan tashqari, xo'jalik yuritish sharoitlari o'zgarishi mumkin, korxonalarda yangi rejalar va vazifalar paydo bo'ladi. Bunday vaziyatlarda yer uchastkasi (massivi) xo'jaliklararo yer tuzish loyihasi asosida uning maydoniga, joylashishiga, ichki tarkibiga o'zgartirish kiritish yo'li bilan takomillashtirilishi kerak.

Ekologik talablar ustivorligiga rioya qilish zarur, sababi, yer undagi har qanday faoliyatni amalga oshirishda tabiat elementi, tabiiy resurs sifatida ishtirok etadi. Qishloq xo'jaligi yoki boshqa ishlab chiqarishga jalb etilib, u butun tabiiy majmuadan ajratilishi mumkin emas va mazkur joyning boshqa tabiiy omillari (iqlim, suv, o'simliklar) bilan doimiy o'zaro ta'sirda bo'ladi. Shu sababli, yerdan har qanday foydalanish shunday amalga oshirilishi kerakki, bunda foydalanish jarayonidagi uning ahvoli yomonlashmasligi uzoq vaqtlar faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lsin.

Yer tuzishda yerning, hamma yer turlarining barcha foydali xususiyatlarini (kengligi, reliefi, tuprog'i, o'simliklari va boshq.) muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish uchun tashkiliy-hududiy sharoit yaratish kerak. Qishloq xo'jaligi uchun tuproq unumdorligini oshirish va uni himoya qilish juda katta ahamiyatga ega. Har bir xo'jalikda tuproqdagi gumusning ijobiy balansini ta'minlash kerak,

bunga xususan, to'g'ri almashlab ekishlarni boshqa tadbirlar bilan birga kompleks loyihalashda erishiladi.

Yer tuzishning eng ahamiyatli vazifalaridan biri shamol va suv eroziyalari jarayonlarini to'xtatish va ularning oldini olish hisoblanadi. Ilmiy asoslangan yer tuzish loyihalarida hamma vaqt hududni moslab tashkil etish va boshqa eroziyaga qarshi tadbirlar ko'zda tutiladi. Haydalma yerlardan, pichanzorlardan, yaylovlardan, bog'lar va uzumzorlardan, tabiiy o'simliklar, suv havzalari tagidagi yerlardan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish ham rejalashtiriladi.

Agar yer uchastkasi yangi ob'ekt uchun ajratilsa, uni unumdor yerlarning asossiz sarflanishiga, ortiqcha ajratilishiga yo'l qo'ymasdan, hisob-kitoblar bilan asoslash kerak. Bundan tashqari, noqishloq xo'jalik yerdan foydalanishlarini tashkil etishda, ularni hududda joylashtirishda nafaqat ishlab chiqarishning tashkiliy-hududiy tomonlarini, balki mazkur uchastkada faoliyat ko'rsatadigan u yoki bu ob'ektning (masalan, sanoat korxonasining) xususiyatlarini hisobga olish kerak. Xususan, atrof muhitni (yer, suv, atmosfera) ifloslanish va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilishni ta'minlash kerak.

Yer qonunchiligiga asosan yer unda yashayotgan xalqlar hayoti va faoliyati asosi hisoblanadi. Shuning uchun butun jamiyat manfaatining ayrim yer egalari va yerdan foydalanuvchilar manfaatlari bilan qishloq xo'jaligi ustivorligiga rioya qilgan holda uyg'unlashishini ta'minlash katta ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli yerlar juda qimmat baho tabiiy resurs hisoblanadi va ulardan boshqa maqsadlarda foydalanish faqat alohida hollarda ruxsat etiladi.

Xalq xo'jaligi rivojlangan sari har xil tarmoqlarga va faoliyat sohalariga taalluqli ko'plab yangi yerdan foydalanuvchilarga yer ajratish zarurati paydo bo'ladi. Transport, tog'-kon sanoati, energiya korxonalari va boshqa ob'ektlarni joylashtirishda ularga ajratiladigan joy - qurilish uchun yer uchastkasi - yer tuzish jarayonida, u berilganidan keyin belgilanadi.

Yangi noqishloq xo'jalik yerdan foydalanishlarini tashkil etish odatda ularni zaxira, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan, o'rmon fondi yerlarida joylashtirish yo'li

bilan amalga oshiriladi. Bunda, ko'pchilik hollarda yerlarni asossiz sarflash, unumdor yerlarni yo'qotish deb ataladigan holatlar sodir bo'ladi.

Xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlari orasida yerdan foydalanish bo'yicha kelishmovchilikliklar kelib chiqishi mumkin, ular butun jamiyat manfaatlarini o'zida ko'proq aks ettirgan tarmoq foydasiga hal etiladi.

Bunday kelishmovchiliklar ko'proq sanoat yoki boshqa noqishloq xo'jalik korxonasi yoki muassasasini qishloq xo'jalik yerlarida joylashtirishga to'g'ri kelganda kelib chiqadi. Qonun bo'yicha bunga faqat alohida hollarda yo'l qo'yiladi. Bunda, yuqorida aytilganidek, yer qonunchiligida ko'rsatilgan qishloq xo'jaligi yer egaligi va yerdan foydalanishi ustivorligi tamoyiliga rioya qilish kerak. Uning mohiyati shundan iboratki, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan qimmatbaho unumdor yerlarni qaytarib olishga yo'l qo'yilmaydi, qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlar avvalo qishloq xo'jalik yer egalari va yerdan foydalanuvchilariga beriladi. Bu tamoyil yerlarni tarmoqlar va yerdan foydalanuvchilar orasida taqsimlashni rejalash va loyihalashning barcha vaziyatlarida harakatda bo'ladi va barcha yer tuzish ishlarida qo'llaniladi.

Masalan, qishloq xo'jalik yerlarini olish bilan bog'liq noqishloq xo'jalik yerdan foydalanishini tashkil etishda, birinchidan, yeri olinadigan xo'jalik roziligi talab etiladi; ikkinchidan, birinchi navbatda qishloq xo'jaligiga umuman yaroqsiz yoki sifati past yerlar ajratiladi; uchinchidan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi zararini olinayotgan yerga teng maydondagi uchastkani haydalma yer yoki ozuqa yetishtiriladigan yerga o'zlashtirish xarajatiga teng mablag' bilan qoplash ko'zda tutiladi. Bundan tashqari, yangidan tashkil etilayotgan korxonalar olinayotgan yer uchastkalarining unumdor tuproq qatlamini qirqib olishi va buzilgan yerlarda rekultivatsiya ishlarini bajarishi, ya'ni ularni keyinchalik foydalanish uchun yaroqli holga keltirishi, ularning unumdorligini va xo'jalikdagi qadrini tiklashi kerak.

Butun xalq xo'jaligi manfaatlari uchun yerdan foydalanish tamoyili va undan kelib chiqadigan oqibat yer tuzish chizmalari va loyihalarida o'z aksini topishi va unga rioya qilinishi kerak.

Yer tuzish yechimlarini qabul qilishdagi xalq xo'jaligi nuqtai nazaridan yondashuv, xususan, quyidagilarni nazarda tutadi:

- ❖ joylashtirilayotgan ob'ekt va uning yerdan foydalanishining hududga va atrof muhitga kelajakdagi ta'siri bilan birgalikda taklif etilayotgan yerdan foydalanish usulining ijobiy va salbiy natijalarini to'la hisobga olish;
- ❖ sanoat va boshqa qurilish ob'ektlari tagiga ishlab chiqarish kuchlarining hozirgi rivojlanish darajasi chegarasida minimal hudud ajratish.

Yer tuzish chizmalari va loyihalarida ishlanadigan umumiy va xususiy yechimlar xo'jaliklar va mintaqalarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi kelajagi, yer resurslaridan foydalanish va uni muhofaza qilish rejalari bilan kelishilgan bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, xo'jaliklararo va xo'jalikda ichki yer tuzishda yerda joylashtiriladigan va yerdan foydalanadigan qishloq xo'jalik va boshqa korxonalarining, hamda ular hududida joylashtiriladigan mintaqalarning kelajakdagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash uchun tashkiliy-hududiy asos yaratilishi kerak. Shuning uchun korxonalarining (mintaqalarning) kelajakdagi rivojlanish ko'rsatkichlari barcha yer tuzish loyihalarini (chizmalarini) ishlashda asos sifatida olinadi.

Masalan, xo'jaliklararo yer tuzishda ob'ektlarning kelajakdagi rivojlanish ko'rsatkichlariga mos tarzda yer egaliklari va yerdan foydalanishlarning o'lchamlari, tarkibi va joylashishi aniqlanadi. Qishloq xo'jalik korxonalarida xo'jalikda ichki yer tuzishda ularning rivojlanish rejalarini hisobga olib tarmoqlar, fermerlar, yer turlari maydonlari, o'lchamlari aniqlanadi, almashlab ekishlar loyihalanadi.

Yer tuzishning asosiy vazifalaridan biri - ishlab chiqarishni tashkil etish va muvaffaqiyatli rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish, maksimal ijtimoiy ahamiyatga ega yakuniy natija olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdir. Bu avvalo, qishloq xo'jalik korxonalariga, belgili darajada - boshqa tarmoqlar korxonalariga ham taalluqli. Bunday masala hududni maqsadi va sharoiti o'zgarib turuvchi ishlab chiqarishga moslash va optimal tashkil etish hisobiga yechiladi.

Yer tuzish yordamida ilgʻor texnologiyalarni, xoʻjalik yuritishning ilgʻor shakllari va usullarini joriy etish asosida tarmoqni samarali rivojlantirish uchun hududiy asos yaratiladi. Boshqacha aytganda, xoʻjaliklararo va xoʻjalikda ichki yer tuzish loyihalarida ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi ilgʻor texnologiyalari va usullari hisobga olinishi kerak. Xususan, ASMda har xil mulkchilik shakllaridagi yangi korxonalarni yaratishni (avvalo fermer xoʻjaliklarini), samarali agrotexnik usullarni va qishloq xoʻjalik shirkatlarida xoʻjalikda ichki ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllarini tarqatishni koʻzda tutish kerak. Noqishloq xoʻjalik yerdan foydalanishlarini oqilona joylashtirish yordamida yer tuzish transport va xalq xoʻjaligining boshqa tarmoqlari samarali ishlashiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi.

Tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish tamoyili bizning mamlakatimizda katta ahamiyatga ega, bu yerda katta va murakkab hududiy majmualar, yerdan foydalaniladigan har xil tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar bilan hisoblashishga toʻgʻri keladi.

- ❖ Har bir yer tuzish loyihasi bu sharoitlarning oʻziga xos va takrorlanmas tarkibiga ega hudud uchun ishlanadi;
- ❖ ikkita toʻla bir-biriga oʻxshash qishloq xoʻjaligi yer egaligi yoki yerdan foydalanishi yoʻq.

Tabiiy omillardan yer tuzishda, avvalo, iqlim, tuproqlar, relef, oʻsimliklar, suv manbaalari, eroziya jarayonlarining xarakteri va rivojlanishi hisobga olinadi. Eng asosiy iqtisodiy sharoitlar - yerlar tarkibi va sifati, xoʻjaliklarning kelajakdagi rivojlanishi, ularning ixtisoslashishi, ishlab chiqarish fondlari va mehnat resurslari bilan taʼminlanishi, yoʻl tarmogʻi ahvolidir.

Yer tuzish loyihalarini asoslashda ijtimoiy omillar - aholi tizimi tavsifi (aholi soni, aholi yashash joylari oʻlchamlari va joylashishi), ijtimoiy infratizimning rivojlanish darajasi (madaniy, sogʻliqni saqlash, taʼlim, savdo, maishiy xizmat, jamoa transporti, aloqa muassasalarining mavjudligi), yordamchi xoʻjaliklarni yuritish imkoniyati va sh.oʻ. ham hisobga olinadi.

Ushbu masalalarning barchasi bo'yicha axborot olish uchun izlanish ishlari, tasvirga olish (tuproq, geobotanik, suv xo'jaligi va boshq.), ayrim xo'jaliklar va butun mintaqalar hududlarida yer tuzish izlanishlari o'tkaziladi.

6.5. YER TUZISH TIZIMI VA UNING TARKIBIY QISMLARI

Yer resurslaridan foydalanish hamma vaqt tarkib topgan va rivojlanayotgan yer munosabatlari, hududning tuzilish shakllari, yerlarni muhofaza qilish va ularning mahsuldorligini oshirish usullari asosida amalga oshiriladi. Natijada mamlakatda, viloyatlarda, ma'muriy tumanlarda, xo'jaliklarda har bir davrning o'ziga xos yerdan foydalanish tizimi shakllanadi. Xalq xo'jaligi rivojlangan sari hududni tashkil etish murakkablashib boradi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish esa yanayam og'ir oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun yer tuzish ilmiy asosda nafaqat joriy, kechiktirib bo'lmaydigan, balki, kelajak masalalarini ham ularning mazmunini mos tarzda ishlab chiqib, yechishga qaratilgan.

Yerdan samarali foydalanishni va uni muhofaza qilishni umummilliy boylik sifatida tashkil etish, yer islohotini amalga oshirishda butun yer fondini yaqin va uzoq kelajak uchun, ko'rsatkichlarni ishlab chiqish bilan, yuqoridan pastgacha qamrab oladigan yer tuzishning butun bir davlat tizimi zarur. Bunday tizim mamlakatimizda asosan yaratilgan; u yer tuzish yechimlarining ilmiy asoslanganligini xalq xo'jaligi, ayrim tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar, shaxsiy yer egalari va yerdan foydalanuvchilar darajasida ta'minlashga qodir.

Harakatdagi yer tuzish tizimi yer resurslarini taqsimlash, ulardan foydalanish, ularni qayta tiklash va muhofaza qilishni bashoratlash, rejalashtirish va loyihalashni o'z ichiga oladi; yaqin yillarda yerlardan foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha texnik harakatlarni hamda ularning strategik maqsadlari va ularga erishish yo'llarini aniqlaydi.

Uning ob'ektlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- ❖ butun mamlakat, respublika, viloyatlar va mintaqalar;
- ❖ mamlakatimiz yer fondining yer toifalari, yer turlari;

- ❖ qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga nisbatan - shirkat, fermer va boshqa xo‘jaliklar yer egaliklari va yerdan foydalanishlari.

Qabul qilinadigan yechimlar qator o‘zaro chambarchas bog‘langan loyihaviy va loyiha oldi hujjatlari ko‘rinishida rasmiylashtiriladi:

- ❖ mamlakat yer resurslaridan foydalanish va uni muhofaza qilish Bosh chizmasi;
- ❖ yirik mintaqalar yer resurslaridan foydalanish va uni muhofaza qilish Bosh chizmalari;
- ❖ respublika va viloyatlar yer tuzish chizmalari;
- ❖ ma‘muriy tumanlar yer tuzish chizmalari;
- ❖ xo‘jaliklararo va xo‘jalikda ichki yer tuzish loyihalari;
- ❖ yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq aniq tadbirlar uchun ishchi loyihalar.

Yer tuzish hujjatlari yer tuzish tizimini joriy etishning ma‘lum bosqichlarini o‘zida aks ettiradi. Ular mustaqil ishlanishiga qaramasdan, undagi yechimlar ko‘rilayotgan ob‘ekt, amalga oshirilish muddatlari, aniqlik darajasi bilan o‘zaro bog‘lanadi.

Yer tuzish hujjatlarini ishlashda bashoratlash, rejalash va loyihalash usullarini asoslash nisbatlari har xil bo‘lishi mumkin. Bashoratlash va uzoq muddatli rejalashtirish yer resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bosh chizmalarini tuzishda ko‘proq ishlatiladi. Yer tuzish chizmalari rejalashtirish va yer tuzishni loyihalash usullaridan keng foydalanishga asoslanadi. Yer tuzish loyihalarida xo‘jalik rivojlanishi ko‘rsatkichlarini hududiy asoslash va tabaqalashtirish amalga oshiriladi; tabiiyki, bu bosqichda loyihalash usullari ko‘proq ishlatiladi.

Sanab o‘tilgan chizmalardan tashqari, umumdavlat va mintaqaviy darajalarda yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bashoratlari va dasturlari ham ishlanadi.

Bashoratlar har xil turdagi dasturlarni ishlash uchun ilmiy asos hisoblanadi va yerlar ahvolini, salbiy jarayonlar rivojlanishini, (eroziya, sahrolashish, sho‘rlanish,

batqoqlashish, tuproqlar unumdorligining pasayishi va sh.o‘.) ularning oldini olish bo‘yicha mumkin bo‘lgan yechimlarni ilmiy tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Yer resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish davlat va mintaqaviy dasturlari resurslar, bajaruvchilar va bajarilish muddatlari bo‘yicha bog‘langan ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish, tashkiliy-xo‘jalik va boshqa yerlar unumdorligini oshirish, yangi hududlarni o‘zlashtirish, ekologik vaziyatni yaxshilash, tuproqlarni eroziyadan himoyalash, buzilgan yerlarni konservatsiyalash va boshqa muammolar bo‘yicha tadbirlar majmualarini o‘zida ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan yer tuzish hujjatlari tizimini ishlash va ulardan foydalanish hududlarining tabiiy va iqtisodiy salohiyatlarini hisobga olish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishda ilmiy-texnik jarayonning ustivor yo‘nalishlarini tanlashni ta‘minlaydi, agrar va industrial ishlab chiqarishni yaxshi hududiy tashkil etishga yordam qiladi. Bu tizimning ahamiyati tabiatdan foydalanishning ma‘muriy usullaridan iqtisodiy usullariga o‘tilgani sari to‘xtovsiz o‘sib boradi.

Yer tuzish chizmalari ilmiy-texnik jarayon dasturlari bilan bog‘lanadi, ularda yer resurslaridan kelajakda foydalanish va yerlarni mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olib, muhofaza qilish bo‘yicha bo‘limlar bo‘ladi.

Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish bosh chizmasi va yer resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish Bosh chizmasi qatorasiga ishlanadi, bu yer egaliklari va yerdan foydalanishlarni o‘zgartirishning reja oldi va loyiha oldi hujjatlarida bir xil ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish imkonini beradi. Yer masalalarini yechishni muvofiqlashtirish boshqa tabiiy resurslardan (suv, o‘rmon, biologik) oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chizmalarida, hamda xalq xo‘jaligining yerni ko‘p talab etadigan tarmoqlarini rivojlantirish va joylashtirish rejalarida ham amalga oshiriladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish kelajagi viloyatlar va ma‘muriy tumanlar yer tuzish chizmalarini ishlashda boshlang‘ich material bo‘lib xizmat qiladi. Bunda qishloq xo‘jalik korxonalarining tabiiy va iqtisodiy salohiyatlari va rivojlanish

rejalari to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jaliklararo va xo'jalikda ichki yer tuzishlarni loyihalashga topshiriq tayyorlash uchun axborot bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Rejalashtirish va yer tuzish tizimlarining o'zaro kuchli ta'siri ikki yoqlama foydani ta'minlaydi. Bir tomondan, u iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejalariga hududiy aniqlik kiritadi, boshqa tomondan esa - yer tuzish chizmalari va loyihalariga haqqoniylik, aniq xo'jalik va ekologik yo'nalish beradi.

Yer resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etishni ularni muhofaza qilishdan ajratib bo'lmaydi. Qishloq xo'jalik yerlari (avvalo tuproqlar unumdorligining) mahsuldorligining doimiy omillarini kengaytirilgan qayta tiklash, hozir yer tuzishda yechiladigan asosiy masalalarning biriga aylandi. Yerlarni suv va shamol eroziyalaridan himoya qilish, buzilgan hududlarni rekultivatsiyalash bo'yicha chizmalar va loyihalar eng ko'p tarqalgan hisoblanadi. Yerlar buzilishining bu yo'nalishlari yetarlik darajada to'la o'rganilgan, ular yer-hisobi hujjatlarida ko'rsatiladi. Amaliyotda sinalgan, shularga mos tadbirlar majmuasi yer tuzish loyihalariga kiritiladi.

Oxirgi yillarda yerdan foydalanishning intensivlashishi bilan bog'liq holda, tuproqlar unumdorligi va mahsuldorligiga salbiy antropogen ta'sir kuchaymoqda. Ifloslanish, sho'rlanish, qurib ketish, yer osti suvlarining ko'tarilishi kabi jarayonlar faollashmoqda. Yer tuzish tizimida bu jarayonlarning hamda sellar, ko'chkilar va sh.o'. oldini olish bo'yicha loyihalar va chizmalarni ishlash boshlandi.

Yer tuzish tadbirlari ularni amalga oshirishning har bir bosqichida ishonchli va aniq tabiiy-xo'jalik asoslashga ehtiyoj sezadi. Bunday asoslash yer kadastri materiallariga va ASM tarmoqlarini yuritishning mintaqaviy tizimlariga (ayniqsa tuproqni himoya qilishga qaratilgan mintaqaviy dehqonchilik tizimlariga) asoslanadi. Shu bilan birga faqat yer tuzishda ilg'or iqtisodiy, texnologik va texnik yangiliklarni joriy etish imkonini beradigan hududni tashkil etishning ilmiy asoslangan tarkibini yaratish mumkin.

Mustaqil o'rganish uchun savollar

1. Har qanday jamiyatda yer tuzish maqsadlarining umumiyligi nimalarda namayon bo'ladi?
2. Bizning mamlakatimizda yer tuzishning mazmuni vaqt o'tishi bilan qanday rivojlandi?
3. Yerdan foydalanishni tashkil etish tushunchasiga nima kiradi?
4. Yer tuzish davlat tadbirlari tizimi sifatida o'z ichiga nimalarni oladi?
5. Bizning davrimizda «yer tuzish» tushunchasiga qanday ta'rif berish mumkin?
6. Yer tuzish rivojlanishining qanday asosiy qonuniyatlarini uning tarixiy tajribasi taxlilidan kelib chiqib aniqlash mumkin?
7. Yer tuzishning iqtisodiy mohiyati nimalardan iborat?
8. Yer tuzish tamoyillari nima va ularning ahamiyati qanday?
9. Yer tuzishning asosiy tamoyillari qanday?
10. Yer islohotini amalga oshirish davrida yer tuzishning vazifalari nimalardan iborat?

7-BOB. QISHLOQ XO'JALIK YERLARIDAN FOYDALANISH

7.1. QISHLOQ XO'JALIGIDA YER VA SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami yerlar 44 892,4 ming gektarni tashkil etib, yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko'ra 8 ta toifaga bo'linadi, jumladan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar; aholi punktlarining yerlari; sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar; tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar; tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar; o'rmon fondi yerlari; suv fondi yerlari; zaxira yerlar.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar unumdor yerlarga taalluqli bo'lib, umummilliy boylik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning umumiy maydoni 20236,3 ming gektarni, shundan haydaladigan yerlar 3988,5 ming gektarni, ko'p yillik daraxtzorlar 383,1 ming gektarni, bo'z yerlar 76 ming gektarni, pichanzor va yaylovlar 11028,3 ming gektarni, boshqa yerlar 4760,4 ming gektarni tashkil qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarini maqbullashtirish va ularni ajratishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash, yer-suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy bozor mexanizmlari, innovatsion va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, past hosilli paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobiga yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlar yetishtirish bo'yicha tizimli choralar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, respublika aholisi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi, qishloq xo'jaligi yerlarining boshqa toifaga o'tkazilishi va global iqlim o'zgarishi ta'sirining keskinlashuvi oqibatida oxirgi 15 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydonlari o'lchami 24 foizga (0,23 gektardan

0,16 gektargacha), o'rtacha yillik suv ta'minoti darajasi esa 3 048 metr kubdan 158,9 metr kubgacha qisqardi.

Uzoq yillar davomida qishloq xo'jaligi yerlaridan nooqilona foydalanish natijasida tuproqning tabiiy unumdorligi va ekinlar hosildorligi pasayib, yetishtirilgan mahsulot sifati yomonlashmoqda, atrof muhit ifloslanishi ortib bormoqda.

Jumladan, sug'oriladigan ekin yerlaridagi tuproqlarning 93 foizida harakatchan fosfor miqdori, 68,3 foizida almashuvchan kaliy miqdori, 79,3 foizida gumus (chirindi) miqdori o'rtachadan past darajaga tushib qolgan.

Milliy daromadi O'zbekiston bilan deyarli bir xil bo'lgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun davlat byudjetining 4-5 foizi yo'naltiriladi yoki YaIMga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlarda 1 foizdan ortiqroqni, daromadi yuqori bo'lgan davlatlarda esa 1 foizdan kamroqni tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligida o'rtacha yillik suv sarfi 45696 mln metr kub yoki iqtisodiyot tarmoqlarida iste'mol qilingan suv resurslarining 90 foizini tashkil etib, yuqoriligicha qolmoqda.

Yer va suv resurslari tobora tanqis bo'lib borayotgan sharoitda qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirishda ekinlarni iqtisodiy samaradorligi va bozor kon'yunkturasi inobatga olinmasdan hamda intensiv qishloq xo'jaligi joriy etilmaganligi sababli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi pastligicha qolmoqda.

Jumladan, rivojlangan davlatlarda 1 metr kub suv bilan 4-6 AQSh dollarlik mahsulot yetishtirilayotgan bo'lsa, respublikamizda bu ko'rsatkich 0,15 AQSh dollarini tashkil etmoqda.

Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish yirik kapital qo'yilmalar talab etishi, ushbu maqsadlar uchun yo'naltiriladigan byudjet mablag'lari hajmining cheklanganligi, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida jalb qilish masalasiga e'tibor qaratilmayotganligi oqibatida qishloq xo'jaligi yerlarining foydalanishdan chiqib ketishi, hududlarning resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan nooqilona

foydalanish kabi holatlar yuzaga kelmoqda, bu esa o'z navbatida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va tarmoq eksport salohiyatini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi qishloq xo'jaligi yerlaridan hamda suv va gidroinshootlardan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi yerlarining maksimal mahsuldorlik salohiyatiga erishish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini ko'paytirish, tuproq unumdorligini tiklash, davlat-xususiy sheriklik doirasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratish, ilg'or dehqonchilik tizimlarini va qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishning yuqori va intensiv agrotexnologiyalarini joriy qilish bo'yicha agrotexnik, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, zamonaviy irrigatsiya va melioratsiya texnologiyalari hamda yerlarni sug'orish usullarini keng joriy etish, ekinlar seleksiyasi va urug'chiligini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va sotish, logistika va marketing tizimlarini rivojlantirish, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini jadallashtirish zarur.

7.2. QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN YERLARNING TARKIBI

Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligini yuritish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari, kommunikatsiyalar, o'rmonlar, yopiq suv havzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallagan yerlarga ajraladi.

Haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, tashlandiq yerlar, ko'p yillik dov-daraxtlar (bog'lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt ko'chatzorlari, mevazorlar va boshqalar) egallagan yerlar qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi. Qishloq xo'jaligi yerlari maxsus muhofaza qilinishi lozim.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni qishloq xo'jaligidan o'zga ehtiyojlar uchun boshqa toifadagi yerlarga o'tkazishga alohida hollarda ushbu Kodeks va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq yo'l qo'yiladi.

Qishloq xo'jaligi yerlarini irrigatsiya va suvdan foydalanish tizimiga asoslangan sun'iy sug'orish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi va yerlardan samarali foydalanish hamda ularning unumdorligini oshirish shartidir.

O'zbekiston Respublikasi Yer fondi tarkibida qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar mustaqil toifani tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ular alohida ahamiyatga ega bo'lib, asosiy vosita sifatida harakat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 43-moddasiga ko'ra, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar deb "Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar tushuniladi". Yerlarni maqsadli belgilash, ya'ni ularni yaroqliligi darajasidan kelib chiqib foydalanish xo'jaliklararo hamda ichki xo'jalik yer tuzish loyihalari natijalariga ko'ra belgilanadi. Shunday qilib, bu loyihalar xo'jaliklarga ma'lum qism yerlardan qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanish imkoniyatini beradi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar O'zbekiston Respublikasi hududining 45,13 % ini egallagan bo'lib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida asosiy vosita hisoblanadi va mamlakat xalq xo'jaligida alohida ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning umumiy xususiyati shundan iboratki, bu yerlar qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 1-moddasida yer umummilliy boylik, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi deb ta'kidlangandir. Qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanish ko'zda tutilgan barcha yerlar, xalq xo'jaligini qishloq xo'jaligi mahsulotlariga tobora o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida yer

islohoti va qishloq xo‘jaligi islohoti talablariga muvofiq qishloq xo‘jaligi yuritish faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar tomonidan foydalaniladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar avvalo, qishloq xo‘jaligi korxonalariga beriladi. O‘zbekiston Respublikasi Yer Kodeksida belgilanishicha, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar qishloq xo‘jaligini yuritish uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo‘jalik yo‘llari, kommunikatsiyalar, o‘rmonlar, yopiq suv havzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallangan yerlarga ajraladi. Shuningdek haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, tashlandiq yerlar, ko‘p yillik dov-daraxtlar (bog‘lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt kuchatzorlari, mevazorlar va boshqalar) egallagan yerlar ham qishloq xo‘jaligi yerlari jumlasiga kiradi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar ichida sug‘oriladigan yerlar muhim o‘rinni egallaydi. Sug‘orish uchun yaroqli bo‘lgan, suv resurslari shu yerlarni sug‘orishni ta‘minlay oladigan sug‘orish manbai bilan bog‘langan doimiy yoki muvaqqat sug‘orish tarmog‘iga ega bo‘lgan yerlar sug‘oriladigan yerlar jumlasiga kiradi.

Yer uchastkalaridan foydalanish maqsadiga qarab qishloq xo‘jalik korxonalari yerlari tovar qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirishga mo‘ljallangan hamda kishlok xujaligiga muljallanmagan yerlarga (uy-joylar, binolar, inshootlar, yo‘llar va x.k.) bo‘linadi. Suv bilan ta‘minlanganlik darajasiga qarab qishloq xo‘jaligi korxonalari yerlari sug‘oriladigan yerlar hamda lalmi yerlari toifalariga bo‘linadi. Yuqoridagilardan tashqari, qishloq xo‘jalik korxonalarning yerlari xo‘jalik yuritish shakliga qarab jamoa fondi yerlari va dehqon xo‘jaligi yuritish uchun ajratilgan yerlar toifalariga bo‘linadi.

Ma‘lumki barcha qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar kimning foydalanishida bo‘lishidan qat‘iy nazar, foydalanish maqsadlari hamda qonunda belgilangan huquqiy holatlariga ko‘ra ma‘lum umumiy o‘xshashlikka ega.

Bunday yerlardan, ya'ni qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlardan foydalanish huquqining sub'ektlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslar bo'lishlari mumkin.

Amaldagi yer qonunchiligiga binoan yerdan foydalanuvchilar ularga berilgan yerdan faqat qonunda ko'rsatilgan maqsaddagina foydalanishlari mumkin. Masalan, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) o'ziga berilgan yerdan asosan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadidagina foydalanishlikka haqli.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, qishloq xo'jaligi korxonalari o'zlariga berib qo'yilgan yerlardan avvalo qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni amalga oshirsalar, ikkinchi tomondan ular yerdan ishlab chiqarish binolari qurish, yordamchi xo'jaliklar barpo etish, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, turar-joy va ma'muriy binolar, madaniy-maishiy binolar qurish uchun ham foydalanadilar.

Qishloq xo'jalik korxona va tashkilotlarini yer bilan ta'minlash amalda xo'jaliklararo yer tuzish usuli bilan o'tkaziladi. Bunday yer tuzish ishlari bajarayotgan paytda yer uchastkasi chegaralanadi va uning chegaralari marzalar bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 32-moddasida, yer uchastkasi ajratib berilganda bu uchastka chegarasi natura holida (yerning o'zida) aniqlanib, o'zga uchastkalardan marza va boshqa xil chegara belgilari bilan ajratib qo'yiladi deyilgan. Tegishli yer tuzish organlari berilgan yer uchastkasi chegarasini natura holida belgilaganlaridan so'ng, yerdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat beradilar. Bu hujjat tegishli hokimiyat organlari tomonidan beriladi va yerdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi yagona yuridik hujjat bo'lib hisoblanadi.

7.3. QISHLOQ XO'JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.

Foydalanishdan chiqib ketgan sug'oriladigan va foydalanishga kiritiladigan hamda o'rmon fondi yerlarining meliorativ holati, unumdorligi va suv ta'minotini

yaxshilash texnologiyasini joriy qilganlik uchun qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga imtiyozlar berish tizimini yaratish.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan lalmi, yaylov va boshqa yerlarni foydalanishga kiritish maqsadida investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida foydalanishga kiritgan, yaroqsiz suv quduqlari, sug'orish nasoslari, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini ta'mirlagan yoki ularni yangidan barpo etgan tadbirkorlik sub'ektlariga davlat tomonidan kafolatlar berish.

Qishloq xo'jaligi yer uchastkalarini ajratishning shaffof va tezkor tizimini yaratgan holda yanada takomillashtirish.

Qishloq xo'jaligi yerlarining aniq hisobi yuritilishini va yangilab borilishini ta'minlash, har bir dala konturi kesimida ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida barcha hududlarni aerofotos'yomkadan o'tkazish.

Davlat yer kadastri ma'lumotlarining haqqoniy va to'liq shakllantirilishini ta'minlash.

Xalqaro moliya institutlarining grant mablag'larini jalb qilish hamda investitsiya loyihalari orqali davlat yer kadastrini yuritishda ko'p maqsadli yer ma'lumotlarining avtomatlashtirilgan yagona tizimi - yergeoportal.uzni ishga tushirish.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish agrotexnikasi, yer va suv resurslaridan foydalanish holatini geoaxborot tizimi orqali monitoring qilish, yerni masofadan zondlash tizimlaridan keng foydalanish.

Foydalanilmayotgan yerlar haqidagi ma'lumotlarni viloyat, tuman (shahar) hokimliklari, davlat xizmatlari agentligi, mutasaddi vazirlik, idora va tashkilotlarning rasmiy veb-saytlarida joylashtirish amaliyotini joriy etish.

Qishloq xo'jaligi yerlarining tuproq unumdorligi, konturi, ularga ekinlarni joylashtirish, hosildorlikni belgilash to'g'risidagi ma'lumotlarni viloyat, tuman (shahar) hokimliklari va manfaatdor tashkilotlarning rasmiy veb-saytlarida joylashtirish amaliyotini joriy etish.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan lalmi, yaylov va boshqa foydalanishga kiritilgan yerlarda barpo etiladigan infratuzilma ob'ektlarini (dala shiypon, mahsulotlar saqlanadigan omborxonalar, sug'orish inshootlari va boshqalar) qurish uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini belgilash.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ikkilamchi ijaraga berish, shuningdek, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalarida meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini saqlab qolgan holda yer uchastkasini vaqtincha foydalanish uchun berish shaklini amaliyotga joriy qilish.

Rentabelligi past bo'lgan paxta, g'alla va boshqa ekinlar yer maydonlarini to'liq xatlovdan o'tkazib, unumdorligi va foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini, shuningdek, ushbu maydonlarda yuqori daromadli ekinlarni joylashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish tizimini tubdan takomillashtirish. Bunda hududlarning tuproq, iqlim sharoitlari va suv bilan ta'minlanganlik darajasi, ichki va tashqi bozorda mahsulotga bo'lgan talab, daromadliligi asosiy mezon bo'lishini ta'minlash.

Suv tanqis hududlarda kam suv talab qiladigan, suvsizlikka chidamli va suv to'plash xususiyatiga ega bo'lgan ekinlarni joylashtirish.

Tarmoqlarni intensiv rivojlantirish talabidan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish sxemalarini takomillashtirish, maydon birligi hisobiga ko'chat sonini maqbul darajagacha oshirish.

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlardan bir mavsumda kamida ikkita hosil olish choralari ko'rish, ushbu maqsadga erishish uchun tezpishar ekinlar urug'i, ko'chatlar, mineral o'g'it, yonilg'i-moylash materiallari va boshqa turdagi resurslar bilan barqaror ta'minlash tizimini yaratish.

Sug'oriladigan ekin yerlaridan yanada samarali foydalanish, tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish maqsadida ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimini joriy qilish.

Xalqaro tajribalarga muvofiq qishloq xo‘jaligining yangi yo‘nalishlarini joriy qilish va rivojlantirish.

Qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyasining oldini olish va uni keskin kamaytirish hisobiga tuproq unumdorligini oshirish.

Yaylovlardan samarali foydalanish tartibini belgilash, yaylov va lalmi yerlardan foydalanishning ilmiy asoslangan samarali texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish.

Fermer xo‘jaligi yoki boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi sub’ektlar tugatilayotganda yoki maqbullashtirilayotganda unga ajratilgan yer maydonida sarflangan xarajatlar (ko‘p yillik daraxtzorlar, tomchilatib sug‘orish tarmoqlari va boshqalar) qiymatini hisoblash va qoplash tartibini belgilash.

Bog‘lar, tokzorlar, baliq hovuzlarini va issiqxonalar tashkil qilishga yer ajratish tartibini belgilash, foydalanishdan chiqib ketgan yerlarda gidroponika, vertikal fermalar usulida issiqxonalar qurishni qo‘llab-quvvatlash.

Suv tanqis, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish va foydalanishga kiritish imkoniyati qiyin bo‘lgan yerlarda tayyor zamonaviy issiqxonalarni xorijiy investorlar hamda xorijiy moliya institutlarini jalb qilgan holda qurib, tayyor holda lizingga berish tizimini yaratish.

Qishloq xo‘jaligida tuproqdan unumli foydalanish texnologiyalarini joriy etish. Bunda yerga ishlov berish va ekinlarni parvarishlashning ilg‘or innovatsiya texnologiyalarini amaliyotga izchillik bilan tatbiq etish hisobiga agrotexnik tadbirlar sonini minimallashtirishga alohida e‘tibor qaratish.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati, unumdorligi va suv ta‘minotini yaxshilash texnologiyalarini joriy qilish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplab berish tartibini ishlab chiqish.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning unumdorligi va hosildorligi oshirilishini ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini belgilash.

Yer uchastkalari egalarining tuproq unumdorligini saqlash va oshirishni ragʻbatlantiruvchi mexanizmlarni nazarda tutgan holda tabaqalashtirilgan soliq imtiyozlarini joriy qilish.

Qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallangan yerlardan samarasiz foydalanganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish.

Yer va suv resurslaridan samarasiz foydalanishning oldini olishni, yerlarning unumdorligini oshirish va suvni tejovchi agrotexnik tadbirlarning amalga oshirilishini huquqiy jihatdan tartibga solish.

Iqtisodiy jihatdan samarasiz, kam hosilli bogʻ va uzumzorlarni yaroqsiz deb topish va ekin yerlar toifasiga oʻtkazish tartibini belgilash.

Har 5 yilda bir marotaba davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan qishloq xoʻjaligi ekin maydonlarida tuproqning agrokimyoviy tahlillari asosida agrokimyoviy xaritalarni ishlab chiqish.

Shahar va shahar atrofidan chiqayotgan oziq-ovqat, xoʻjalik, chorva hamda boshqa organik chiqindilarni toʻplash hamda zamonaviy texnologiyalarni qoʻllagan holda organik oʻgʻitlar ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish va qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga yetkazib berish.

Oʻrmon fondi yerlaridan foydalanishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini yoʻlga qoʻyish.

Har bir hududning qishloq xoʻjaligi imkoniyatlaridan kelib chiqib, mahalliy va xorijiy kompaniyalarga taqdimot qilish maqsadida «qishloq xoʻjaligi boʻyicha investitsiya»larini yaratish.

Rentabelligi past boʻlgan paxta va gʻalla maydonlari 50 foizdan yuqori boʻlgan tumanlardagi barcha ekin maydonlarini irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish shartlari bilan paxta va gʻallani toʻliq qayta ishlashni tashkil etuvchi klasterlarga berish.

Foydalanilmayotgan oʻrmon fondi yerlarida yangi oʻrmonzorlar va dorivor oʻsimliklar plantatsiyalarini barpo etish maqsadida foydalanish uchun Oʻzbekiston Respublikasining fuqarolariga davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida oʻrmon

xo'jaligi organlari tomonidan 50 yilgacha muddatga ijaraga berishni nazarda tutuvchi qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

Tuproq eroziyasi va degradatsiyasi, shamol va garmseldan muhofaza qilish maqsadida biomeliorativ tadbirlar qo'llashni kengaytirish, ixotazorlar barpo etish va qayta tiklash hamda o'rmon fondi yerlarida cho'l-ozuqabop o'simliklar plantatsiyalari va ularni tashqi ekologik omillardan muhofaza qiluvchi yaylovlarni yaratish.

Qayta tiklanadigan va foydalanishga kiritiladigan yer maydonlarining manzilli ro'yxatini shakllantirish zarur.

7.4. SUG'ORILADIGAN YERLAR

Qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerlarni sug'orishni ta'minlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan doimiy yoki muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlar sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi.

Qishloq va suv xo'jaligi organlari sug'oriladigan yeri bo'lgan yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni sug'orish ishlari uchun manbalarning sersuvligini hisobga olgan holda joriy etilgan limitlar bo'yicha suv to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan tartibda suv bilan ta'minlashlari shart.

Sug'oriladigan yerlar maxsus muhofaza qilinishi lozim. Bunday yerlarni sug'orilmaydigan yerlar sirasiga o'tkazish alohida hollarda, tuproq-meliorativ va iqtisodiy sharoitlarni hamda yerlarning suv bilan ta'minlanganligini, ulardagi mavjud suv resurslarini va bu suvlarga belgilangan limitlarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda viloyat hokimi qaroriga binoan amalga oshiriladi.

1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida birinchi bor sug'oriladigan yerlar tushunchasi va uning xususiyatlari ko'rsatib berildi. Shu maqsadda "Yer kodeksi"ning 44 moddasi talablarini sharhlash katta ahamiyatga egadir.

44- moddaning 1 qismiga asosan, “Qishloq xo‘jaligida foydalanish va sug‘orish uchun yaroqli bo‘lgan; suv resurslari shu yerlarni sug‘orishni ta’minlay oladigan sug‘orish mangbai bilan bog‘langan doimiy va muvaqqat sug‘orish tarmog‘iga ega bo‘lgan yerlar sug‘oriladigan yerlar jumlasiga kiradi” deb ko‘rsatilgan.

Demak, sug‘oriladigan yerlarga qishloq xo‘jaligida foydalanishga va sug‘orishga yaroqli bo‘lgan va hududida sug‘orish manbasi bilan aloqador doimiy sug‘orish shaxobchalariga (kanallar, quvurlar, lotoklar, quduqlar, ariqlar va h.k.) ega yerlar kiradi.

Sug‘orish shaxobchasi bo‘lgan yerlarga barcha sug‘oriladigan yerlarga barcha sug‘oriladigan yerlar, shuningdek, sug‘orish manbasi bilan aloqador soz yoki remont qilinishi talab etiladigan doimiy sug‘orish shaxobchasi bulgan yerlar kiradi.

Sug‘oriladigan yerlarning chegarasi yerlarning sifat ma’lumotlari va sug‘orish maqomi bo‘yicha, shuningdek xo‘jalik yuritishning tarkib topgan shakllari va boshqa sharoitlari asosida tabiiy ko‘rinishda belgilanadi.

Doimiy sug‘oriladigan yerlarga qishloq xo‘jalik ekinlari yilning ma’lum davrlarida yetarli darajada doimiy sug‘orilib turiladigan yerlar kiradi.

Qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish belgilangan noromalarda suv bilan ta’minlanmaydigan, lekin alohida davrlarda yetarli darajada sug‘oriladigan yerlar shartli ravishda sug‘oriladigan yerlarni tashkil etadi.

Shuningdek, sug‘oriladigan yerlar tarkibiga hovuz, to‘g‘on, ko‘l (ko‘lmaklar), kichik suv inshootlari kabi suv manbalaridan sug‘oriladigan, shuningdek, sanoat, transport, qo‘riqxonalar va boshqa korxonalarning suv bilan ta’min etilgan yerlari ham kiradi.

2. O‘zbekiston Respublikasining umumiy yer maydoni 44,9 mln. gektar bo‘lib, qishloq xo‘jalik tarmog‘iga ajratilgan yerlar fondining 45.08% ni tashkil etadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonning yer maydoni katta bo‘lib, undan oqilona foydalanish va muhofaza etilishi lozimdir.

Bozor sharoitlarida sugʻoriladigan yerga juda katta eʼtibor berilishi lozim, chunki qishloq xoʻjalik mahsulotlarining 95% ana shu toifasiga kiradigan yerlardan olinadi. Sugʻoriladigan yerlar esa, bu cheklangan boylik boʻlib, Respublikamizning oltin fondidir.

3. Yuqorida koʻrsatilgan talablar, Oʻzbekiston Respublikasining “Yer kodeksi”ni 8 moddasida mustahkamlanib, uning 1 bandiga asosan: qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar – qishloq xoʻjaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga moʻljallangan yerlar qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar – qishloq xoʻjaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki shu maqsadga moʻljallangan yerlar. Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar sugʻoriladigan va sugʻorilmaydigan yerlar (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, koʻp yillik mevali dov-daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga boʻlinadi-deb koʻrsatilgan.

Demak, sugʻoriladigan yerlar yuqorida koʻrsatilgan yer toifalaridagi yerlarga nisbatan alohida tartibga ega boʻlib, undan foydalanish va muhofaza qilish jarayonida ham oʻz hususiyatiga ega boʻladi.

4. Respublikamizda yer resurslarining, jumladan sugʻoriladigan yerlarning huquqiy holatiga alohida eʼtibor berilib, qabul qilingan bir qator qonun va huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Bular jumlasiga, “Tabiatni muhofaza qilish”, “Suv va suvdan foydalanish” “Qishloq xoʻjaligi kooperativi(shirkat xoʻjaligi)”, “Fermer xoʻjaligi”, “Dehqon xoʻjaligi”, “Davlat yer kadastri toʻgʻrisida”gi qonunlari va 1998 y. 30 aprelda qabul qilingan “Yer kodeksi” hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 26 noyabr 1994 yilgi “Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish toʻgʻrisida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 iyuldagi 300-sonli “Fermer xoʻjaligini yuritish uchun yer uchastkalarini fuqarolarga uzoq muddatli ijaraga berish tartib” toʻgʻrisidagi yoʻriqnomasi bilan, Prezidentining 24 iyul 1998 yilgi “Yer resurslari davlat qoʻmitasini tashkil etish toʻgʻrisida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekiston Respublikasining suv kadastrini yuritish tartibi

to'g'risida"gi 7 noyabr 1998 yil № 11 Nizomi va boshqa bir qator ekologik hamda agrar qonun, qaror va me'yoriy hujjatlarni ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, keyingi yillarda bozor iqtisodiyoti sharoiti talabi asosida yer resurslariga, jumladan sug'orma yerlarga nisbatan alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan qabul qilingan jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamamining 5 noyabr 2003 y. №486 sonli "Qishloq xo'jaligida ijara munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari (yangi tahrirdagi) 26 avgust 2004 yilgi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18 oktabr 2005 yilgi "Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi huzuridagi davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi to'g'risidagi, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati to'g'risidagi, davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 15 oktabr "O'zbekiston Respublikasi Yer resurslar, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasini tashkil qilish to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 24 iyuldagi "Yuridik shaxslar va fuqarolarning binolari hamda inshootlari bilan band bo'lgan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi farmonlari ham sug'orma yerlardan foylanish va muhofaza qilish borasida yangi talablarni qo'yadi.

Demak, barcha yerdan foydalanuvchi va yer egalari, ijarachilar sug'orma yerlardan foydalanish va muhofaza qilish jarayonida yuqoridagi qonun va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilishlari lozim.

"Davyergeodezkadastr" davlat qo'miatsidan olingan ma'lumotlarga qaraganda, Respublikamiz qishloq xo'jaligi ekinlari maydoni 20261,6 ming gektar yerni yoki umumiy yer fondining 45,13 %ni tashkil etadi.

5. 44-moddaning 2 qismiga asosan, qishloq va suv xo'jaligi organlari sug'oriladigan yeri bo'lgan yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni sug'orish ishlari uchun manbalarning sersuvligini hisobga olgan holda shart etilgan limitlar

bo'yicha suv to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan tartibda suv bilan ta'minlashlari shart- deb ko'rsatilgan.

Sug'oriladigan yerlardan foydalanishning xususiyatli tomoni ham shundaki, sug'orma yerlarda yer egalari va yerdan foydalanuvchilar ham yerdan foydalanuvchi, ham suvdan foydalanuvchilar bo'lib hisoblanadilar. Chunki, sug'orma yer, suvdan foydalanish evazida sug'oriladigan yerlar toifasini tashkil etadi. Demak, yer va suvdan foydalanuvchilar sug'oriladigan yerlardan foydalanish jarayonida yer va suv qonunchiligi talablariga ham rioya qilishlari lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunining 35-moddasiga muvofiq (O'zbR Oliy Kengashining Axborotnomasi 1993 y. 5-son, 221-m.) sug'oriladigan yerlarda suvdan foydalanuvchilar suvdan foydalanishning belgilangan limitga rioya qilishlari zarur. Bu holatda limitlar deganda suv ob'ektlaridan sug'orma yerlarni sug'orish uchun suv olish rejalarini tushunish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 avgustdagi 385-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida suvdan cheklangan miqdorda foydalanish bo'yicha vaqtinchalik tartib"ga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslar faqat ro'yxatdan o'tkazilgan suv olish inshootlari va suvdan maxsus foydalanishag ruxsatnomalari bo'lgan taqdirda suv olish huquqiga ega bo'ladilar.

Mazkur qarorga asosan, suv olishning cheklangan miqdorlari suv xo'jaligi organlari tomonidan suv manbalarining taxmin etilgan va haqiqiy sersuvligini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligidagi suvdan foydalanuvchilar uchun yiliga 2 marta va sug'orish bilan bog'liq bo'lmagan suvdan foydalanuvchilar uchun 1 marta belgilanadi.

6 "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 112-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 7 yanvardagi 11 sonli "O'zbekiston Respublikasining Davlat suv kadastrini ishlab chiqish va yuritish tartibi to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash haqida"gi qaroriga muvofiq, suvlarning davlat

hisobi, Davlat kadastrini yuritish Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya Bosh boshqarmasi, Qishloq va suv xo‘jaligi Vazirligi, (suvdan foydalanish bo‘yicha) va Geologiya va mineral resurslar Davlat qo‘mitasi (yer osti suvlarini taqsimlash bo‘yicha) tomonidan amalga oshiriladi.

Demak, sug‘oriladigan yerlarda sug‘orish ishlarini olib borishda yuqorida ko‘rsatilgan huquqiy manbalar asosida, yer egalari va yerdan foydalanuvchilar suvdan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

7. Sharhlanayotgan moddaning 3-qismiga ko‘ra “Sug‘oriladigan yerlar maxsus muhofaza qilinishi lozim. Bunday yerlarni sug‘orilmaydigan yerlar sirasiga o‘tkazish alohida hollarda, tuproq-melirativ va iqtisodiy sharoitlarni hamda yerlarning suv bilan ta‘minlanganligini, ulardagi mavjud suv resurslarini va bu suvlarga belgilangan limitlarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda viloyat hokimi qaroriga binoan amalga oshiriladi”-deb ko‘rsatilgan.

Mazkur moddaning 3-qismida ko‘rsatilgan talabga asosan, sug‘oriladigan yerlarni maxsus muhofaza qilishdan maqsad, birinchidan, u boshqa toifadagi yerlarga nisbatan sug‘orish maqsadida foydalanilishi hamda ushbu maqsadda suv bilan ta‘minlanishi, ikkinchidan, boshqa toifadagi yerlarga nisbatan u ko‘proq qishloq xo‘jalik tizimida foydalanilishi ; uchinchidan, ushbu kategoriya yerlari boshqa kategoriya yerlaridan farq qilib, bir necha barobar ko‘p hosil olinishi; to‘rtinchidan boshqa toifadagi yerlarga nisbatan bir necha barobar suvdan foydalanilishi hamda hosildorlik qatlamiga boy bo‘lishi; beshinchidan, sug‘orma yerlarni berish chog‘ida, ya’ni boshqa k ategoriyaga o‘tkazishda alohida nazarat etilishi va boshqa bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi.

8. Sug‘oriladigan yerlarni sug‘orilmaydigan yerlar sirasiga o‘tkazish alohida iqtisodiy ahamiyat kasb etib, ayrim hollarda amalga oshirilishi mumkin. Bunda sug‘oriladigan yerlarning tuproq-meliarativ holati, ya’ni uni hosildorlik sifatini, ikkinchidan, ularni suv bilan ta‘minlash xolati va iqtisodiy sharoitini inobatga olish; uchinchidan, ushbu kategoriya yerlardagi mavjud suv resurslari hamda

belgilangan limit asosida foydalanish imkoniga qarab viloyat hokimi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda hal etishi mumkin bo‘ladi.

Zero “Yer kodeksi”ning 4-5 va 6-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyati hamda tuman hokimiyatlari yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlarga ega bo‘ladilar.

9. Sug‘oriladigan yerlarda suvdan foydalanganlik uchun soliq to‘lash ham katta ahamiyat kasb etib, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasining 1997 yil 28 noyabrdagi 38/97-100 sonli “Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasining 1998 yil 4 yanvardagi “1998 yilda korxonalar va tashkilotlarga soliq solish tartibdagi o‘zgartirishlar to‘g‘risida”gi 04-02-05/2/98-02 sonli xati hamda “Soliq kodeksi” asosida va boshqa huquqiy me‘yoriy hujjatlarga binoan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi, huquqiy hujjatlarga asosan sug‘oriladigan yerlarda suvdan foydalanganlik uchun soliq amalda olingan suvning hajmidan kelib chiqib, har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar to‘lanadi.

Yilning choragi davomida suv resurslaridan foydalanganlik uchun to‘laydigan soliqning umumiy summasi eng kam ish haqining 50 baravaridan kam bo‘lgan korxonalar soliqni yilning har choragida bir marta, yil choraklari bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddatlarda to‘laydilar.

Qishloq xo‘jalik korxonalari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni bir yilda bir marta joriy yilning 15 dekabriga qadar to‘laydilar.

10. Sug‘oriladigan yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 90-moddasiga binoan turli javobgarliklar qo‘llanilishi mumkin.

Jumladan “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksining 65-66-67-68-72-74-75-76 moddalariga asosan sug‘oriladigan yerlar va undagi suv resurslaridan

noto'g'ri foydalanganlik hamda tegishli talab va qoidalarni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik qo'llaniladi.

“Ma'muriy javobgarlik to'g'risida”gi kodeksining 65-moddasi. Yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga tushirish.

Yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish, ob'ektlar qurish paytida unumdor qatlamni olmaslik, yer maydonlaridan boshqa maqsadlarda foydalanish, yerlarni foydalanishdan chiqarishga, hosildorlik pasayishiga, tuproqning buzilishi yoki yo'q bo'lib ketishiga olib keladigan boshqa harakatlarni sodir etish, shuningdek tanazzulga yuz tutgan qishloq xo'jaligi yerlarini konservatsiyalashning belgilangan tartibini buzish - fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Yerga egalik qiluvchilar, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan bir gektargacha maydonga ega yer uchastkasida sug'oriladigan yerlarni yaxshilash hamda muhofaza qilish, shu jumladan yerlardan maqsadli, oqilona foydalanilishini, tuproqning qayta tiklanishini va hosildorligi oshirilishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi, fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Yerga egalik qiluvchilar, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan bir gektardan ortiq maydonga ega yer uchastkasida sug'oriladigan yerlarni yaxshilash hamda muhofaza qilish, shu jumladan yerlardan maqsadli, oqilona foydalanilishini, tuproqning qayta tiklanishini va hosildorligi oshirilishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi, fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan yetti baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi va boshqa yerlarni yaroqsiz holga tushirish, ularni ishlab chiqarish chiqitlari va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radioaktiv moddalar hamda oqova suvlar bilan ifloslantirish fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan

besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Ma'muriy javobgarlik to'g'risida”gi kodeksining 70-moddasi Yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish talablarini buzish.

Foydali qazilmalar joylashgan maydonlarga o'zboshimchalik bilan imoratlar qurish, foydali qazilma konlarini ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda kon nazorati organlari bilan kelishmay turib ishga solish, yer osti boyliklaridan foydalanish talablari va tartibini buzish, yer osti boyliklarini muhofaza qilish qoidalarini va tabiiy muhitni, binolar va inshootlarni yer osti boyliklaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlarning zararli ta'siridan muhofaza qilish talablarini bajarmaslik, yer osti suvlari rejimini kuzatish uchun qazilgan quduqlarni, marksheyderlik va geologik belgilarni yo'q qilish yoki shikastlantirish, xuddi shuningdek yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilar tomonidan umumtarqalgan foydali qazilmalardan foydalanish qoidalarining buzilishifuqarolarga eng kam ish haqining o'n baravaridan yigirma baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Konlarning boy uchastkalarini tanlab ishlatish, mineral xomashyoni qazib olayotganda va qayta ishlashda foydali qazilmalarni normativdan ortiq nobud qilish, foydali qazilma konlarini yaroqsiz holga keltirish va foydali qazilma zaxiralaridan oqilona foydalanish talablarini boshqacha tarzda buzish mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining o'n baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Marksheyderlik hujjatlarini yo'qotish, tugatilayotgan yoki konservatsiya qilinayotgan konlarni va burg'ilangan quduqlarni aholining xavfsizligini ta'minlovchi holatga keltirib qo'yish talablarini, shuningdek konservatsiya vaqtida konlarni, qazilayotgan joylarni va burg'ilangan quduqlarni muhofaza etish talablarini bajarmaslik mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining o'n baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi, ikkinchi yoki uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, fuqarolarga eng kam ish haqining yigirma baravaridan ellik baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 194-195-196-197-201-203 moddalariga asosan, sug'oriladigan yerlardan foydalanish, uni ekologik muhofaza qilish va boshqa talablarni amalga oshirmaganlik yoki tegishli talab qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik ham ko'rsatilgan.

7.5. ALOHIDA QIMMATGA EGA BO'LGAN UNUMDOR

SUG'ORILADIGAN YERLAR

Kadastr baholanishiga ko'ra o'rtacha tuman bonitet ballidan 20 foizdan ko'p bo'lgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi.

Alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar maxsus muhofaza qilinishi lozim va ularning sug'orilmaydigan yerlar jumlasiga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlarini korxonalar, binolar va inshootlar qurilishi uchun berishga alohida hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan yo'l qo'yiladi.

Kadastr baholanishiga ko'ra o'rtaga tuman banitet ballidan 20 %dan ko'p bo'lgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi.

Demak, mazkur masalani kengroq sharhlash uchun "kadastr" va "kadastr baholash" so'zlarining ma'nosini kengroq tushunish lozim.

Demak «Yer kadastri to'g'risida»gi qonunni mohiyatini bilishimiz uchun uning tarixiy va huquq ma'nolariga e'tibor berishimiz lozim.

«Kadastr» lotincha «copitastrum» soʻzidan olingan boʻlib-reestr degan manoni anglatgan. Davlat kadastr yer soligʻi manbaiga doir kitob (reestr) sifatida tushunilgan, keyinchalik esa u davlatning hisobga olish-baholash tadbirlari tizilishini ifodalaydigan buldi.

Yana bir maʼnosi fransuzcha - Cadastre- yerdan foydalanganlik uchun soliq toʻlash" yoki yer toʻgʻrisidagi zarur maʼlumotlarning hujjatlarda ifodalangan majmuasi, umumiy tom maʼnoda esa "Soliquqa tortilayotgan ashyolar roʻyxati" maʼnosini anglatgan.

Har bir mamlakatda kadastr rivoji oʻz sharoitlari va anʼanalariga asoslanadi. Shuning uchun jahonda aynan bir xil kadastr tizimini topish mumkin emas. Shunisi qiziqki, mamlakatimiz hududida oʻtgan asrda shariatda qabul kilingan «Temir daftar» bayoni kadastr tushunchasiga toʻgʻri keladi.

Xozirgi kunda yer kadastr yerning tabiiy ahvoli, xoʻjalik va huquqiy holati toʻgʻrisidagi muttasil yangilanib turuvchi ishonchli maʼlumomap tizimi hisoblanadi. Yer kadastrining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: yer uchastkalariga oid huquqlari roʻyxatga olish, yerning miqdori va sifatini hisobga olish, yerni baholashdir.

2. Oʻzbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda kabul kilingan «Yer kodeksi»ning 15-moddasida «Davlat kadastr masalasiga eʼtibor berilgan boʻlsa, qabul qilingan ushbu qonunning 3-moddasida «Davlat yer kadastr» masalasi aniq va batafsil yoritildi.

Davlat yer kadastr Davlat kadastrlari yagona tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, u yerning tabiiy, xoʻjalik, huquqiy rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qimmati, yer uchastkalarining oʻrni va oʻlchamlari, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar oʻrtasidagi taqsimoti toʻgʻrisidagi maʼlumotlar hamda hujjatlar tizimidan iboratdir.

Davlat yer kadastr yer uchastkalariga boʻlgan huquqlarning davlat roʻyxatidan oʻtkazilishini, yerning miqdori va sifatining hisobga olinishini,

tuproq bonitirovkasini, yerlarning qiymat baxosini, shuningdek yer kadastriga doir axborotlar bir tizimga solinishi, saqlanishi va yangilab turilishini o'z ichiga oladi.

Shuning uchun ham qabul qilingan Mazkur Qonunlarning maqsadi davlat yer kadastri yuritishning, iqtisodiyotni rivojlantirish, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning kafolatlarini ta'minlash, yerlardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash va muhofaza qilish uchun kadastr ma'lumotlaridan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilashdan iborat.

Yer kadastri yuritish natijalariga rasmiy yondoshish shunga olib keldiki, tuproq hosildorligi pasayishiga, yerlarning meliorativ holati yomonlashuviga va o'z navbatida tuproq xosildorligini oshirish masalasiga (avvalo to'g'ri agrotexnika sharoitida) zarur e'tibor berilmay qoldi, oqibatda butun respublika bo'yicha tuproq xosildorligi 2-2,5 barobar pasaydi. Sug'oriladigan yerlarning 60 foizidan ortig'i turli darajada sho'r bosdi, asosiy texnik ekin bo'lmish paxtaning, shuningdek, boshqa qishlo xo'jalik ekinlarining xosildorligi ancha-pasaydi, bu qishloq xo'jalik korxonalari va butun tarmoq iqtisodida o'z aksini topdi. Yerlarni baxolashga darajalangan yondoshishning yo'qligi qishloq xo'jaligi korxonalarida sifat jihatdan turli tuproqlarda sarflangan mehnatga bir xil haq to'lashni joriy etdi, bu esa ma'lum darajada yerga insbatan xo'jasizlik munosabatini keltirib chiqardi.

3. «Yer kadastri to'g'risida»gi qonunning 18-moddasida tuproq bonitirovkasi masalasiga alohida e'tibor berilgan.

Tuproq bonitirovkasi-qishloq xujaligi ekinlari agrotexnikasi urtacha darajada bo'lganidagi tuproq sifati hamda tabiiy unumdorlik quvvatiga beriladigan iqtisodiy baho.

Tuproq bonitirovkasi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning keyingi qiymat bahosini chiqarish, mulkiy paylarning miqdorini aniqlash, yer tuzishni amalga oshirish va yerlardan oqilona, samarali foydalanishni rag'batlantirish uchun asosdir.

Tuproq bonitirovkasi tegishli qishloq xo‘jaligi maydonlari uchun yuz balli shkala bo‘yicha o‘tkaziladi. Yaxshi xossalarga ega bo‘lgan, g‘oyat unumdor tuproq yuqori ball bilan baholanadi.

Tuproq bonitirovkasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

Tuproq bonitirovkasiga doir ma‘lumotlar yer bahosiga oid axborotni tashkil etadi.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki keyingi yillarda, Respublikamiz viloyatlarida tuproqni hosildorlik quvvati (balli) baniteti 100 dan 70 ballgacha hatto 54 ballgacha tushdi. Natijada olinadigan hosildorlik "gektar hisobiga kamaydi

“Davyergeodezkadastr” davlat qo‘mitasidan olingan ma‘lumotlarga qaraganda sug‘oriladigan maydonlar eng qimmatbaho yer turlaridan biri bo‘lib, qishloq xo‘jaligi, shu bilan birga, respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Yurtimizda bunday hududlar 3306,6 ming gektarga, shuningdek lalmi yerlar 746 ming gektarga to‘g‘ri keladi.

Ta‘kidlash o‘rinliki sug‘oriladigan yerlar tuproq sharoiti, sho‘rlanish darajasi, gipsning mavjudligi, toshloqliligi, eroziyagi moyilligi va boshqa xususiyatlari bilan farqlanadi.

Mamlakatimizda o‘rtacha Respublika ballidan yuqori yerlar Toshkent (59) va Namangan (59) viloyatlarida aniqlangan. O‘rtacha ballga teng va shunga yaqin yerlar esa Andijon (57), Samarqand (57), Surxondaryo (56), Farg‘ona (56) va Xorazm (54) viloyatlarida mavjud. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda qolgan viloyatlarda bu ko‘rsatkich Respublikaning shrtacha ballidan (55) past hisoblanadi.

Demak, yuqoridagi holatlar shuni kshrsatmoqdaki, o‘ziga xos tuman bonitet bollidan 20 % ko‘p bo‘lgan sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yerlari alohida qimmatga ega bo‘lgan unumdor sug‘oriladigan yerlar jumlasiga kiradi va ular alog‘ida mug‘ofaza qilinib, foydalaniladi.

4. Alohida qimmatga ega bo‘lgan unumdor sug‘oriladigan yerlarning huquqiy asosi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish”, “Muhofaza

etiladigan tabiiy hududlar”, “Yer kadastri to‘g‘risida”gi qonunlari va “Yer kodeksi” hisoblanadi.

5. Alohida qimmatga ega bo‘lgan unumdor sug‘oriladigan yerlar maxsus muhofaza qilinishi lozim va ularning sug‘orilmaydigan yerlar jumlasiga o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mazkur moddani 2-qismi quyidagi xususiyatlari bilan boshqa kategoriya yerlardan farq qiladi :

A) chunki, ushbu kategoriya yerlari boshqa yerlarga nisbatan, alohida qimmatga ega bo‘lganligi ;

B) boshqa yerlarga nisbatan hosildorlikka erishish yuqori bo‘lganligi;

V) mazkur yerlardan foydalanish, muhofaza qilish va boshqa kategoriyaga o‘tkazishdagi talab etiladigan tomonlari bilan ham farqlanadi.

6. Alohida qimmatga ega bo‘lgan unumdor sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yerlarini korxonalar, binolar va inshootlar qurilishi uchun berishga alohida hollarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan yo‘l qo‘yilishi e‘tirof etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24 iyul 2006 yilgi “Yuridik shaxslar a fuqarolarning binolari hamda inshootlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi sug‘oriladigan yerlarni xususiylashtirishda ularni boniteti va kadastr xususiyatlari inobatga olinadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 15 oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni e‘lon qilindi. Ushbu farmonga ko‘ra ushbu davlat qo‘mitasi zimmasiga O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi” va “Yer kadastri to‘g‘risida”gi qonunlar talablarini amalga oshirish, yer va yer kadastri bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, yer resurslarini boshqarish tizimini hamda kadastr sohasini takomillashtirish, yer resurslardan oqilana foydalanishni ta‘minlash lozimligi ham aniq ko‘rsatib berilgan.

Zero, sugʻoriladigan va alohida qimmatga ega boʻlgan unumdor sugʻoriladigan yerlardan foydalanish, ularni bino va inshootlar qurish uchun berishning umumiy maqsadi va vazifalari ham mazkur hujjatda oʻz aksini topgan. Unga asosan, ushbu kategoriya yerlarni korxona, bino va inshootlar qurilishi uchun berishda “Yer resurslari davlat qoʻmitasini tegishli hokimliklarning roziligi inobatga olingan holda “Yer kodeksi” talablariga asosan Vazirlar Mahkamasining qaroriga koʻra berilishi koʻrsatilgan.

Alohida qimmatga ega boʻlgan unumdor sugʻoriladigan yerlarni berish va boshqa kategoriyaga oʻtkazish tartibi “Yer kodeksi”ning 4-moddasida koʻrsatilgan “Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari” doirasida amalga oshiriladi.

Ushbu kategoriya yerlari oʻz xususiyati inobatga olinib, Vazirlar Mahkamasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastrini yuritish tartibi toʻgʻrisida”gi 1 aprel 2005 yil № 95 sonli Nizomi ham katta ahamiyatga egadir.

7.6. QISHLOQ XOʻJALIGIGA MOʻLJALLANGAN YERLARNI BERISH

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar quyidagilarga beriladi:

- 1) qishloq xoʻjaligi kooperativlariga (shirkat xoʻjaliklariga), boshqa qishloq xoʻjaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga - tovar qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini yuritish uchun;
- 2) tajriba-ishlab chiqarish, oʻquv, oʻquv-tajriba va oʻquv-ishlab chiqarish xoʻjaliklari, ilmiy-tadqiqot va boshqa qishloq xoʻjalik muassasalari va tashkilotlariga - ilmiy-tadqiqot va taʼlim maqsadlari, tovar qishloq xoʻjaligini yuritish va ilgʻor tajribani targʻib qilish uchun;
- 3) Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolariga - fermer xoʻjaliklarini yuritish uchun;
- 4) Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolariga - dehqon xoʻjaliklarini, yakka tartibda bogʻdorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish uchun;

5) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga - jamoa bog'dorchiligi, polizchiligi va uzumchiligi uchun;

6) qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga - yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yuridik va jismoniy shaxslarga qishloq xo'jaligini yuritish, shuningdek o'zga maqsadlar uchun berilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi yerlari o'zga maqsadlarda, qoida tariqasida, keyinchalik qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun yaroqli holga keltirish sharti bilan vaqtincha foydalanishga beriladi.

Yer kodeksining 8-moddasiga muvofiq, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar - qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo'ljallangan yerlar bo'lib, ular sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko'p yillik mevali dov-daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo'linadi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qonunda ko'zda tutilgan hollarda quyidagi fuqarolik huquqiy sub'ektlarga berilishi mumkin:

1. Qishloq xo'jaligi kooperativlariga (shirkat xo'jaliklariga), boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga - tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yuritish uchun beriladi. Qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish bo'yicha o'z faoliyatlarini tashkil etishlari uchun bunday mahsulotlarni yetishtirishning imkonini beruvchi yer fondi toifasining bir qismiga egalik qilishi zarur bo'ladi. Shu sababdan ham ularning ushbu faoliyati mamlakat ichki bozorini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan to'ldirishning asosiy manbai ekanligini inobatga olib qonunchilikda ularga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar berilishi nazarda tutilgan.

2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar tajriba-ishlab chiqarish, o'quv, o'quv-tajriba va o'quv-ishlab chiqarish xo'jaliklari, ilmiy-tadqiqot va boshqa qishloq xo'jalik muassasalari va tashkilotlariga - ilmiy-tadqiqot va ta'lim maqsadlari, tovar

qishloq xo‘jaligini yuritish va ilg‘or tajribani targ‘ib qilish uchun ham berilishi mumkin. Ilmiy-tadqiqot, ta‘lim maqsadlari, tovar qishloq xo‘jaligini yuritish va ilg‘or tajribani targ‘ib qilish maqsadlari deyilganda, ilm-fan taraqqiyotining so‘nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar hosildorligi, unumdorligini oshirish yoki uning sifatini yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni sinovdan o‘tkazishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Ma‘lumki so‘nggi yillarda fan-texnika taraqqiyoti yuksak darajada ko‘tarilib, ulardan mazkur sohada foydalanish muhim ahamiyatga ega, binobarin bunday faoliyat mazkur toifa yerlarning saqlab qolinishida hamda sifati yaxshilanishini kafolatlovchi mezon bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

3. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga - fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun ham taqdim etiladi. O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 30-aprelda qabul qilingan “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasiga muvofiq, fermer xo‘jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi sub‘ektdir.

Chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo‘lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo‘jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlaridagi sug‘oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektarni, boshqa viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi sug‘oriladigan yerlarda kamida 0,45 gektarni, sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami paxtachilik va g‘allachilik uchun kamida 10 gektarni, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida 1 gektarni tashkil etadi.

4. O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga – dehqon xo'jaliklarini, yakka tartibda bog'dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish uchun ham qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar berilishi mumkin. Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo'jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas. Yer uchastkasi berish to'g'risidagi ariza so'ralayotgan yer uchastkasining joylashgan yeri, maydoni, dehqon xo'jaligining tarkibi hamda yer uchastkasidan belgilangan maqsadda foydalanish ko'rsatilgan holda qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) boshqaruviga yoxud boshqa qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi korxonasi, muassasasi va tashkilotining ish beruvchisiga (ma'muriyatiga) beriladi. Qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) boshqaruvi, boshqa qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi korxonasi, muassasasi, tashkilotining ish beruvchisi (ma'muriyati) dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish imkoniyati to'g'risidagi xulosani fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan kelishilgan holda tayyorlaydi. Mazkur xulosa asosida qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) umumiy majlisi, boshqa qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi korxonasi, muassasasi, tashkilotining vakolatli organi dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risida iltimosnoma bilan tuman hokimiga murojaat qilish haqida qaror qabul qiladi.

5. Qishloq xo'jaligi yerlari, shuningdek, fuqarolarga jamoa bog'dorchiligi, polizchiligi va uzumchiligi bilan shug'ullanish uchun ham taqdim etilishi mumkin bo'lib, bunday maqsadda qishloq xo'jaligi yerlarining berilishi umumiy asoslarga ko'ra hal etiladi. Jamoa bog'dorchiligi, polizchiligi va uzumchiligi fuqarolarning mazkur mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qanoatlantirishga yo'naltirilgan bo'lib,

bunday faoliyatni rag‘batlantirishga so‘nggi vaqtlarda davlatimizda alohida e‘tiborga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, Prezidentimiz tomonidan 2006 yil 11 yanvarida qabul qilingan “Meva va sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-255-sonli qarori ham fuqarolarning jamoa bog‘dorchiligi, polizchiligi va uzumchiligi yuritish bilan bog‘liq faoliyati yanada rivojlantirishga turtki bo‘ldi.

6. Qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga yordamchi qishloq xo‘jaligini yuritish uchun ham qishloq xo‘jaligi yerlari taqdim etiladi. Yordamchi qishloq xo‘jaligi yerlari asosan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tashabbusi bilan ularda faoliyat yuritayotgan xodimlarni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlash, ularni moddiy va ijtimoiy ta‘minotini yanada kuchaytirish maqsadlarida beriladi.

Qishloq xo‘jaligi yerlari o‘zga maqsadlarda, berilganda uning ustuvor mavqe kasb etishi inobatga olingan holda, keyinchalik qishloq xo‘jalik maqsadlarida foydalanish uchun yaroqli holga keltirish sharti bilan vaqtincha foydalanishga beriladi.

7.7. QISHLOQ XO‘JALIGIGA MO‘LJALLANGAN YERLARDAN FOYDALANISH SOHASIDA YER EGALARI, YERDAN FOYDALANUVCHILAR VA IJARACHILARNING MAJBURIYATLARI

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanuvchi yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar:

- 1) biznes-rejalarda tuproq unumdorligini oshirish va yerlardan oqilona foydalanish yuzasidan aniq tadbirlarni nazarda tutishlari;
- 2) zona sharoiti va xo‘jalikning ixtisoslashuviga muvofiq ilmiy asoslangan almashlab ekishni, dehqonchilikning eng samarali va iqtisodiy jihatdan oqilona tizimlarini joriy etishlari;
- 3) haydaladigan yerlar asralishi va kengaytirilishini ta‘minlashlari;

- 4) meliorativ jihatdan nobop sugʻoriladigan yerlarni kompleks rekonstruksiya qilishlari, pichanzor va yaylovlarga suv chiqarishlari hamda ularning holatini yaxshilashlari;
- 5) xoʻjalikning butun ichki sugʻorish va kollektor-drenaj tarmogʻini hamda undagi inshootlarni texnikaviy jihatdan soz holatda saqlashlari;
- 6) qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini sugʻoriladigan yerlarning shoʻr bosishi va zaxlanishiga, yerlarning va suv manbalarining ifloslanishi va zararlanishiga yoʻl qoʻymaydigan usullar bilan amalga oshirishlari;
- 7) qishloq xoʻjalik ekinlari va dov-daraxtlarni parvarish qilishning suv tejaladigan texnologiyalarini, sugʻorishning ilgʻor usullarini joriy etishlari;
- 8) Yer kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga binoan yerlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini koʻrishlari shart.

1. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizning mavjud yerlaridan, jumladan qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish davlatimizni ekologik va agrar siyosati boʻlib, u siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamda geografik ahamiyatga ega.

Bu esa oʻz navbatida qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlardan foydalanish sohasida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar qonunda koʻrsatilgan majburiyatlarni kami-koʻst bajarishlarini taqozo etadi.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50–moddasida koʻrsatilganidek: “Fuqarolar atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda boʻlishga majburlarlar” Bundan koʻrinib turibdiki, qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlardan foydalanish sohasida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar oʻzlari amalga oshirishlari lozim boʻlgan majburiyatlarni oʻz vaqtida bajarishlari shartdir. Albatta, bu sohada yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarni bir xil amalga oshirishiga rioya qilishlari lozim. Demak, “huquq burchsiz, burch esa huquqsiz” boʻlmasligi talabiga koʻra maxsus kategoriya yerlardan foydalanishda yer egalari, yerdan

foydalanuvchilar va ijarachilar O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"da ko'rsatilgan majburiyatlarni aniq bajarishlari shart.

Majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish, Respublikamizda qabul qilingan bir qator qonun talablariga ham rioya qilishni taqozo etadi. Mazkur ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarish: "Yer kodeksi", "Soliq kodeksi", "Tabiatni muhofaza qilish", "Suv va suvdan foydalanish", "Yer osti boyliklari", "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish", "O'rmon va Yer kadastri", "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi ekologik qonunlarning qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan talablarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish sohasida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar o'z navbatida bir qator agrar (qishloq xo'jalik) qonun talablariga ham rioya qilishlari lozim.

Bular jumlasiga "Ijara to'g'risida"gi, "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda nizom, namunaviy ustavlar va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarni ko'rsatish mumkin.

3. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar kimlarga va nima maqsadlarda berilishi mumkin? Avvalombor shuni aytish lozimki, mazkur kategoriya yerlari katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, "Yer kodeksi"ning 46-moddasi talablari asosida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va boshqa sub'ektlarga berilishi mumkin.

Jumladan, mazkur moddaga ko'ra :

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar quyidagilarga beriladi:

1)qishloq xo'jaligi kooperativiga (shirkat xo'jaliklariga), boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni yuritish uchun;

2)tajriba-ishlab chiqarish, o'quv, o'quv-tajriba va ishlab chiqarish xo'jaliklari, ilmiy-tadqiqot va boshqa xo'jalik muassasalari va tashkilotlariga ilmiy-tadqiqot va

ta'lim maqsadlari, tovar qishloq xo'jaligini yuritish va ilg'or tajribani targ'ib qilish uchun;

3) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga fermer xo'jaliklari yuritish uchun;

4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga dehqon xo'jaliklarini, yakka tartibda bog'dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish uchun;

5) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga jamoa bog'dorchiligi, polizchiligi va uzumchiligi uchun;

6) Qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun;

7) Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yuridik va jismoniy shaxslarga qishloq xo'jaligini yuritish, shuningdek o'zga maqsadlar uchun berilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi yerlari o'zga maqsadlarda, qoida tariqasida, kyinchalik qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun yaroqli holga keltirish sharti bilan vaqtincha foydalanishga beriladi.

4. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi"da umuman yer egasi, yerdan foydalanuvchilarning, ijarachi va yer uchastkasi mulkdorining majburiyatlarini ko'rsatilishi, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish sohasida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning majburiyatlarini ham mustahkamlaydi.

Zero yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarilishi talabi Yer kodeksining 40-moddasiga ko'ra :

Yer egasi yerdan foydalanuvchi, ijarachi yer uchastkasi mulkdori kuyidagilarni bajarishi shart :

1) yerlar belgilangan maqsadga muvofiq oqilona foydalznish, tuproq unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning tabitni muxofaza qiluvchi texnologiyalarini qo'llash o'z xo'jalik faoliyati tatijasida hududda ekologik vazkitning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik ;

- 2) ishlab turgan irrigatsiya va melioratsiya tarmoklari muhandislik kommunikatsiyalarini soz holatda saqlab turish;
- 3) yerlarni muhofaza qilishga oid ushbu Kodeksning 79-moddasida nazarda tutilgan turkum tadbirlarni amalga oshirish;
- 4) yer solig'ini yoki yer uchun ijara haqini o'z vaqtida to'lash
- 5) boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlarining huquqlarini buzmaslik,
- 6) foydali qazilma konlarini ishltish, qurilish va boshqa ishlarni amalga oshirish uchun berilgan qishloq xo'jalik yerlari va o'rmonzorlarni ularga ehtiyoj qolmaganidan keyin o'z hisobidan qishloq xo'jaligi, o'romn xo'jaligi yoki baliq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli holatga, mazkur ishlar boshqa yerlarda amalga oshirilgan hollarda esa, belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish ;
- 7) foydali qazilma konlarini ishlatish chog'ida, shuningdek boshqa ishlarni amalga oshirish paytida o'zlariga egalik qilishga va foydalanishga hamda mulk etib berilgan (realizatsiya qilingan) yer uchastkalari hududidan tashqaridagi qishloq xo'jalik ekinzorlari, o'rmonzorlar va boshqa yerlarga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olish yoki uni mumkin qadar cheklash chora-tadbirlarini amalga oshirish ;
- 8) mahalliy davlat hokimiyati organlariga yerdan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish;
- 9) boshqa yer egalariga, yerdan foydalanuvchilarga, yer uchastkalarining ijarachilariga va mulkdorlariga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplash.

Qonun hujjatlariga muvofiq yer egalari, yerdan foydalanuvchilarga, yer uchastkalarining ijarachilari va mulkdorlari boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

5. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ushbu qo'yilgan talab, barcha yerdan foydalanuvchilar uchun amalga oshirilishi lozim bo'ladi.

Ko'rsatilgan barcha majburiyatlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish sohasidan yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar aynan shu maqsadga mo'ljallangan yerlarga nisbatan majburiyatlari aniq ko'rsatilgan.

Demak, ko'rsatilgan moddaga binoan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishda yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar quyidagi majburiyatlarni bajarilishi lozim bo'ladi :

1) yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar o'zlariga qonuniy berilgan yerlardan oqilona foydalanish maqsadida tuproq unumdorligini oshirish uchun o'z biznes-rejalarida bir qator tadbirlarni belgilash zarur bo'ladi;

a) doimiy ravishda yerdan oqilona foydalanish uchun tuproq unumdorligini oshirishga, hosildorlikni oshirishga e'tibor berishlari ;

b) yerdan oqilona foydalanish maqsadida tuproq banitetini ko'tarish, bir necha marta ko'zda tutilgan hosil olishga erishishi, yerlardan bekamu ko'st foydalanish zarur bo'ladi.

2) Ushbu moddaning 2-bandiga ko'ra zona sharoiti va xo'jalikning ixtisoslashuviga muvofiq ilmiy asoslangan almashlab ekishni dehqonchilikning eng samarali va iqtisodiy jihatdan oqilona tizimlarini joriy etishlari;

a) ma'lumki O'zbekiston Respublikasida iqlim sharoiti hisobida turli zonalariga: cho'l, sug'orma, lalmi, tog'lik va boshqa zonalarga bo'linishi mumkin bo'ladi. Ana shunday yerlarda albatta yerdan oqilona foydalanish uchun, mavjud xo'jaliklarini tashkil etish lozim.

b) mazkur xo'jaliklar yerlarni turli xususiyatlarini inobatga olinib tashkil etilishi va ushbu yerlardan ilmiy asoslangan holda foydalanish lozim bo'ladi. Chunki, xo'jaliklarni tashkil etilishi ularni yerdan foydalanish xususiyatlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Masalan, lalmi yerlarga paxta va boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtirish yoki ekishga nisbatan, uzumzor yoki bog'dorchilikni rivojlantirish balkim maqsadga muvofiq bo'lar.

v) bunday yerlarda almashlab ekish tadbirlarini rivojlantirish ham ijobiy ta'sir ko'rsatib agarda xo'jalik faoliyati yoki yerni tuzilish holati, iqtisodiy manfaatdorlik holatlari yerdan foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim.

3) Haydaladigan yerlar asralishi va kengaytirilishini ta'minlashlari lozi deb ko'rsatilgan:

a) yer egalari, yerdan foydalanuvchi va ijarachilar har qanday holatda mo'l xosil olish hamda yerdan oqilona foydalanish maqsadida haydaladigan yerlarni asralishi lozim bo'ladi. Bunda og'ir traktorlarni yurishiga yo'l qo'ymaslik haydaladigan yerlarni tarkibini tuzishga yo'l qo'yadigan turli chiqindi va ximiyaviy dorilarni ishlatishdan, mollarni yurishi, sizoba suvlar oqizish oqibatida yerlarni eroziyaga uchrashi va boshqa holatlarni oldini olishlari shart.

b) yer egalari va foydalanuvchilar o'z yerlarini qisqarishiga so'l qo'ymasliklari zarur bo'lib, agarda bunday holatlar yuz berganda. Qonun asosida atrofdagi yerlarni o'zlashtirish va o'z balansidagi yerni "Yer kodeksi" talabi doirasida doirasida kengaytirishlari ham mumkin bo'ladi. Zero, ushbu yerlarni kengaytirilishi boshqa yerdan foydalanuvchilarning manfaatlari ziyon yetkazmasligi shart.

4. a) qishloq xo'jaligida meliorativ jihatidan nobop sug'oriladigan yerlar ham mavjud bo'lib, ular kompleks rekonstruksiya qilinishi kerak bo'ladi. Bunda yerdan foydalanuvchilar yerni meliorativ holatini saqlashga, drenaj ishlarini yo'lga qo'yishga, mazkur yerlarni xosildorligi va unumdorligini ko'tarishga erishishlari lozim bo'ladi.

b) yerdan foydalanuvchi sub'ektlar o'zlarini har tomonlama ehtiyojlarini qondirish maqsadida pichanzor va yaylovzorlarga ham suv chiqarib, ularni iqtisodiy va ekologik holatlarini yaxshilashlari zarurdir. Chunki, bunday tadbirlar yer egalari va ijarachilar o'z yerlaridan oqilona foydalanishga va ularni muhofaza qilishga undaydi.

5 a) yerdan foydalanuvchi, yer egalari va ijarachilar o'z xo'jaliklarining ichki sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari hamda undagi inshootlarni texnikaviy jihatdan soz xolatda saqlanishni talab etadi.

b) demak, bu xo‘jalikdagi va uni yer-atrofidagi kanal, hovuz, beton ariqlar hamda suv trubaprovodlari, kranlarni soz va foydalanish holatida saqlashni talab etadi.

v) shu bilan birga, yerdan foydalanuvchilar yerdan oqilona foydalanishlari uchun sug‘orish manbalari bilan birga suv nasoslari hamda ularni soz ishlashlari bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa manbalardan to‘g‘ri foydalanishni ta‘minlashni ham o‘z vaqtida saqlashni taqozo etadi.

6. a) Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishda bir qator talablarga rioya qilish talab etiladi. Shulardan biri sug‘oriladigan yerlarni sho‘r bosishdan saqlash, bunda yer egalari va yerdan foydalanuvchilar sug‘orish talablariga melioratsiya va agrotexnika qoidalariga rioya etishlari lozim.

b) yerdan foydalanuvchilar yerlardan noto‘g‘ri foydalani, uni sug‘orish jarayonlariga amal qilmasalar yerlardazaxlanish va sho‘rlanish kuchayishi mumkinligini bilishlari lozim bo‘ladi.

v) demak, yuqoridagi talablar bilan birga yer egalari, yerdan foydalanuvchi va ijarachilar yerlarni va suv manbalarining ifloslanishi va zararlanishiga yo‘l qo‘ymasliklari qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni yanada rivojlantiradi.

7. Yer egalari yerdan foydalanuvchilar, ijarachilardan qishloq xo‘jalik ekinlari va dov-daraxtlarni parvarish qilishning suv tejaladigan texnologiyalarini, sug‘orishning ilg‘or usullarini joriy etish majburiyatlarini bajarishni talab etadi. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunning 35-moddasi talablarini, O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ekinlarni payhon qilishga qarshi kurashni faollashtirish to‘g‘risida”gi 1998 yil 27 noyabrdagi qarori talablarini bajarishni ham taqozo etadi.

a) bu esa ulardan yangi texnologiya va tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi., ya‘ni sun‘iy sug‘orish, trubalar orqali sug‘orish, kechki sug‘orish, sezonli sug‘orish va suvdan foydalanishni boshqa tejimli ilg‘or usullaridan foydalanish majburiyatini yuklaydi.

8. a) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish sohasida yer egalari, yerdan foydalanish sohasida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar boshqa qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan, yerlarni muhofaza qilish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni ko‘rishga majburlar.

b) O‘zbekiston Respublikasining bir qator qonunlarida ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarish mazkur modda talabiga ham bevosita taaluqli bo‘ladi. Masalan : “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunning 12-moddasi, “Suv va suvdan foydalanishto‘g‘risida”gi qonunning 35-moddasi, “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunning 33-moddasi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunning 24-moddasining, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuning 16- moddasi, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunning 10- moddasi, “Yer kodeksin”ning 40-moddasi “O‘rmon to‘g‘risida”gi qonunning 21-22 moddalarida ko‘rsatilgan majburiyatlarni ham bajarishlari va unga qat’iy amal qilishlari amaldagi qonun talablarini mustaxkamlaydi.

Shu bilan birga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish sohasida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi)”, “Ferma xo‘jaligi” 2004 yil, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi 1998 yilgi qonun talablarini bajarishlari, mazkur sharhlanayotgan modda talablarini mustahkamlashga yordam beradi.

Shuningdek, yuqoridagi talablarni mustahkamlashda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 4 sentabr 2003 yil № 383 sonli “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 5 noyabr 2003 yil Vazirlar Mahkamasining №486 – sonli “Qishloq xo‘jaligida ijara munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari ham muhim ahamiyatga ega.

Xususan, 1999-2006 yillar mobaynida Hukumatimiz qarorlariga asosan, past rentabelli va istiqbolsiz 1773ta shirkat xo‘jaligi tugatilib, ular negizida ko‘plab fermer xo‘jaliklari tuzildi. Agar 1998 yilda mamlakatimizda jami 23 ming fermer xo‘jaligi faoliyat yuritgan bo‘lsa, ayni vaqtda ularni soni 187 mingdan oshib ketgan.

Prezidentimizning 2006 yil 21 noyabrdagi “2007 yilda qishloq xo‘jalik korxonalarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 514-sonli Qaroriga muvofiq joriy yilda yana 329ta shirkat xo‘jaligini fermer xo‘jaliklariga aylantirish ko‘zda tutilgan.

Xullas, xozirgi kundagi barcha qishloq xo‘jaligi sohasidagi yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar yuqorida ko‘rsatilgan qonun hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilishlari lozim bo‘ladi.

Bu esa o‘z navbatida sharhlanayotgan modda talablarini to‘la amalga oshishiga ijobiy yordam beradi.

7.8. QISHLOQ XO‘JALIGI KOOPERATIVLARIGA (SHIRKAT XO‘JALIKLARIGA), BOSHQA QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARI, MUASSASALARI VA TASHKILOTLARIGA YER UCHASTKALARI BERISH

Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi)-tovar qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish maqsadida pay usuliga asoslangan qishloq xo‘jaligi korxonasining tashkiliy-huquqiy shakli.

Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) kooperativning (shirkatning) ishlab chiqarish faoliyatida, asosan oila (jamo) pudrati asosida shaxsan ishtirok etuvchi mulkiy pay egalari bo‘lgan a‘zolarini birlashtiradi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarda (aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar hamda xo‘jalik shirkatlari shaklida) ham tuzilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi kooperativlariga (shirkat xo‘jaliklariga) va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlariga qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yuritish maqsadida yer uchastkalari ijaraga yoki doimiy egalik qilish uchun beriladi, mazkur yer uchastkalaridan oqilona va samarali foydalanilgan taqdirda esa ular ijaraga yoki vaqtincha foydalanishga qo‘shimcha yer uchastkalari olishlari mumkin.

Qishloq xo‘jaligi kooperativlariga (shirkat xo‘jaliklariga) va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlariga berilgan yerlar jamoat egaligidagi yerlardan va fuqarolarga dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan yerlardan iborat bo‘ladi hamda ulardan faqat belgilangan maqsadda foydalaniladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tuman yoki viloyat hokimining qarori bilan qishloq xo‘jaligi kooperativlariga (shirkat xo‘jaliklariga) ijaraga, boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga esa doimiy egalik qilish uchun yoki ijaraga beriladi. Yer uchastkasining ijara shartnomasi qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) raisi, boshqa qishloq xo‘jaligi korxonasi, muassasasi, tashkiloti rahbari bilan tuman hokimi o‘rtasida tuziladi. Yer uchastkalarini doimiy egalik qilish uchun olgan qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari, tashkilotlariga Yer uchastkasiga doimiy egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati beriladi.

Qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari) va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlarining yer uchastkalariga bo‘lgan huquqi ular uyushmalar va boshqa agrosanoat birlashmalari tarkibiga kirganida saqlanib qoladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar jarayonida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan yirik tovar xo‘jaligi sifatida qishloq xo‘jalik kooperativlari, ya’ni shirkat xo‘jaliklari shug‘ullanishlari lozimligi belgilandi. Shirkat xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi korxonasi bo‘lganligi uchun uning faoliyatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida asosiy vosita sifatidagi yer resurslaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi, yoxud shirkat xo‘jaligining ishlab

chiqarish faoliyatini yerdan foydalanishsiz tasavvur etish mumkin emas. Shirkat xo'jaligining yerdan foydalanish huquqini qonuniy asoslari bugungi kunda respublikamizda yaratilgan. Ularning yerdan foydalanish huquqi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Yer Kodeksi, Fuqarolik Kodeksi, Soliq Kodeksi, "Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi qonun, "Ijara to'g'risida"gi qonunlari bilan tartibga solinadi.

Shirkat xo'jaligining yerdan foydalanish huquqi bir emas bir necha huquq sohalarining qoidalari bilan tartibga solinadi. Shirkat xo'jaligining yerdan foydalanish huquqini tartibga soluvchi huquqiy qoidalarni xo'jalik, qishloq xo'jalik, yer qonunchiligida ko'rishimiz mumkin. Demak, shirkat xo'jaligining yerdan foydalanish huquqi kompleks huquq sohalarining qoidalari bilan tartibga solinib, shu huquq sohalarining institutini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi va "Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, shirkat xo'jaligiga yer uchastkalari belgilangan maqsadda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni yuritish uchun doimiy egalik qilish huquqi asosida beriladi. Shuningdek shirkat xo'jaligiga yer uchastkalari zaruriyatga qarab qo'shimcha ravishda ijaraga yoki vaqtincha foydalanish uchun berilishi mumkin.

Shirkat xo'jaliklariga berilgan yerlar ikki toifaga bo'linadi. Bular, birinchidan, jamoat yerlaridan, ikkinchidan, dehqon xo'jaligi yuritish uchun ajratilgan yerlardan iborat bo'ladi. Har ikkala toifa yerlarni miqdorini belgilash shirkat xo'jaligi umumiy majlisining mutloq vakolatiga kirib, ularning chegaralarini belgilash uning qaroriga asosan amalga oshiriladi. Shirkat xo'jaligi jamoat yerlari va dehqon xo'jaligi yuritish uchun ajratilgan yerlarining miqdori o'zgarmas bo'lmasdan, ularning chegaralari umumiy majlisning qaroriga binoan o'zgartirilishi mumkin, ya'ni dehqon xo'jaligi yuritish uchun mo'ljallangan yerlar miqdori jamoa yerlari hisobiga ko'paytirib borilishi mumkin.

Shirkat xo'jaligida jamoa yerlaridan foydalanish asosan oila pudrati asosida amalga oshiriladi. Jamoa yerlari shartnoma asosida oilalarga bo'lib beriladi.

O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksida ko'rsatilishicha, oila pudrati - qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) tomonidan oilaga vaqtincha foydalanishga (oilal pudrati shartnomasi shartlari asosida berilgan yer uchastkalarida) qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirishda oila a'zolarining bevosita ishtirok etishiga asoslangan ishlab chiqarish va mehnatni xo'jalik ichida tashkil etish shaklidir. Yerdan oila pudrati asosida foydalanish shartnomasi har yili shirkat xo'jaligi boshqaruvi bilan oila boshlig'i o'rtasida tuziladi. Shuni aytish lozimki, oila pudrati shartlari asosida beriladigan yer uchastkalari qat'iy belgilangan maqsadda foydalaniladi. Bunda asosan shirkat xo'jaligining yerdan foydalanish maqsadlari e'tiborga olinadi.

Shirkat xo'jaligi yerdan foydalanish huquqining yana bir muhim jihati shundan iboratki, ularga berilgan yer uchastkalarining qiymati ularning pay jamg'armasining tarkibiy qismini tashkil etadi. Yer uchastkasining qiymatini belgilash va uni pay jamg'armasiga kiritishdan asosiy maqsad yer uchastkalarini unumdorligini saqlash, undan oqilona va samarali foydalanish, yer xosildorligini oshirishdan shirkat a'zolarining manfaatdorligini ta'minlashdan iboratdir. Pay jamg'armasiga qo'shiladigan yer uchastkalarining qiymat bahosi Davlat yer kadastri asosida va belgilanadigan tabaqalashtirilgan qiymatni baholash koeffitsientlari asosida chiqariladi. Pay jamg'armasiga qo'shiladigan yer uchastkalari qiymatidan shirkat xo'jaligi a'zosi dividendlar olish huquqiga ega bo'ladi.

Shirkat xo'jaligining yerdan foydalanish huquqining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: birinchidan, shirkat xo'jaligi o'ziga berilgan yer maydonlaridan asosan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish uchun foydalanadilar; ikkinchidan, yer shirkat xo'jaligiga asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lganligi uchun undan oqilona foydalanishlari, uni xosildorligini doimo ishirib borishlari lozim; uchinchidan, shirkat xo'jaligi foydalanishida bo'lgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar xususiylashtirilishi, oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash ob'ekti bo'lishi mumkin emas.

Yuqorida aytilganlardan shirkat xo‘jaligining yerdan foydalanish huquqi deganda, ularga foydalanish uchun berib qo‘yilgan yer uchastkalariga egalik qilish, undan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga bag‘ishlangan huquqiy qoidalar yig‘indisi tushuniladi. Bu huquqiy qoidalar shirkat xo‘jaligining yerdan foydalanish huquqini vujudga kelish tartibi va asoslari, ularning yerdan foydalanish bo‘yicha huquq va majburiyatlari, yerlarni muhofaza qilish, yer qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik kabi munosabatlarni tartibga soladi.

Yer qonunchiligiga ko‘ra, shirkat xo‘jaligi yerdan foydalanishda bir qator huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi. Shulardan eng asosiylari bo‘lib yer uchastkasida mustaqil xo‘jalik yuritish; qishloq xo‘jalik ekinzorlari, yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsuloti va ularni ayirboshlashdan olingan daromadga bo‘lgan mulk huquqi; suv ob‘ektlaridan foydalanish; uy-joy binolari, ishlab chiqarish, madaniy-maishiy hamda boshqa imoratlar va inshootlarni barpo etish; yer uchastkasi olib qo‘yilganda unga yetkazilgan zararining, shu jumladan boy berilgan foydaning qoplanishini talab qilish va boshqa huquqlarga ega. Shu bilan birga shirkat xo‘jaligi zimmasiga yerdan foydalanishda bir qator majburiyatlar ham yuklatiladi. Bular, yerdan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, yer solig‘ini o‘z vaqtida to‘lash, boshqa yer egalari huquqlarini buzmaslik, yerlarni muhofaza etish choralari ko‘rish, begona o‘tlarga qarshi qurashish, yerni eroziyaga uchratmaslik, yerga nisbatan davlat mulkchiligini buzuvchi bitimlar tuzmaslik va h.k.

Shirkat xo‘jaliklarining yerdan foydalanish huquqi qonun bilan kafolatlangan va himoya qilingan. Yer Kodeksi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan samarali foydalanayotgan shirkat xo‘jaliklarining yerdan foydalanishga oid huquqlarini muhofaza etadi. Shirkat xo‘jaligining yerdan foydalanish huquqini himoya qilish deganda ularga qonunda belgilangan tartibda yerdan foydalanish sohasidagi huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga, ularni yer bilan ta‘minlash, yer uchastkalarini g‘ayriqonuniy ravishda olib qo‘ymaslik, o‘zboshimchalik bilan

egallab olmaslik, yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi.

Yer qonunchiligi avvalo shirkat xo'jaliklarining yerlarini noqishloq xo'jalik ehtiyojlariga o'tkazishdan himoya etadi. Ayniqsa sug'oriladigan yerlarni boshqa toifa yerlariga o'tkazishga alohida hollardagina yo'l qo'yiladi. Bunda qishloq va suv xo'jaligi idoralari, shuningdek tabiatni muhofaza qilish idoralari bilan kelishib amalga oshiriladi.

7.9. FERMER XO'JALIGINI YURITISH UCHUN YER UCHASTKALARI BERISH

Fermer xo'jaligi o'ziga ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir.

Fermer xo'jaligini yuritish uchun:

- ❖ zaxiradagi yerlardan yer uchastkalari;
- ❖ yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan yer uchastkalari;
- ❖ qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalari;
- ❖ qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalari beriladi.

Ilmiy-tadqiqot muassasalariga, oliy o'quv yurtlariga, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlariga va umumta'lim maktablariga o'quv, tajriba, nav sinash maqsadlari uchun berilgan yerlar hamda suv fondi yerlari fermer xo'jaliklariga berilmaydi.

Fermer xo'jaliklariga yer uchastkalari ellik yilgacha bo'lgan, lekin o'ttiz yildan kam bo'lmagan muddatga ijaraga tanlov asosida beriladi.

Fermer xo‘jaligi yuritish uchun yer uchastkasining o‘lchami yer uchastkasini beradigan organ tomonidan har bir muayyan holatda mahalliy sharoitlarni, shuningdek fermer xo‘jaligida ishlovchilar sonini hisobga olgan holda belgilanadi.

Fermer xo‘jaligi ishlab chiqarish maqsadlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda yer uchastkalarini qo‘shimcha ijaraga olishi mumkin.

Fermer xo‘jaligi ixtiyoriy ravishda, fermer xo‘jaligi boshlig‘ining qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) boshqaruviga, tuman hokimiga yozma murojaati asosida tashkil etiladi va fermer xo‘jaligi hamda yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi davlat ro‘yxatiga olingan paytdan boshlab tashkil etilgan deb hisoblanadi. Fermer xo‘jaligi tuman hokimligida ro‘yxatga olinganidan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi.

Fermer xo‘jaligi yuritish uchun fuqarolarga yer uchastkalari berish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Fermer xo‘jaligiga berilgan yer uchastkalari xususiylashtirilishi va oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash ob‘ekti bo‘lishi mumkin emas.

Kreditlar olish uchun fermer xo‘jaligi o‘z mol-mulkini, shuningdek yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqini garovga qo‘yishga haqli. Fermer xo‘jaligi yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqlarini ijaraga beruvchining roziligisiz faqat qonunda yoki ijara shartnomasida nazarda tutilgan hollarda garovga qo‘yishga haqli.

1. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini tashkil etish va yuritishning asosiy shakli sifatida fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 8 noyabrdagi “2006 yilda qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlari)ni fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 215-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida 447 ta shirkat xo‘jaligining 718062 gektar yer maydonlari fermer xo‘jaliklariga tarqatildi. Ushbu qaror bo‘yicha tugatilayotgan shirkat xo‘jaliklari bilan yer uchastkasini uzoq

muddatli ijaraga olish shartnomalari rasmiylashtirildi va belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olinishi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 11 yanvaridagi "Meva va sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 255-sonli qaroriga asosan 219 ta meva-uzum va sabzavotchilik yo'nalishidagi shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish bo'yicha, jami loyihalashtirilgan 318737 gektar yer maydoni fermer xo'jaliklariga to'liq taqatib berildi. Ushbu qarorga asosan tugatilgan shirkat xo'jaliklari negizida yangi tashkil etilgan 39455 ta fermer xo'jaliklari bilan yer uchastkastini uzoq muddali ijaraga olish shartnomalir rasmiylashtirildi va belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olinishi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 21 noyabrdagi "2007 yilda qishloq xo'jalik korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 514-sonli qaroriga asosan tugatilishi rejalashtirilgan 329 ta shirkat xo'jaliklarining umumiy 1318089 gektar yer maydonlari xatlovdan o'tkazildi. Xatlov natijalariga ko'ra, qaror bo'yicha tugatilayotgan 329 ta shirkat xo'jaliklarining 632099 gektar shundan, 313303 gektar ekin yerlar, 31732 gektar ko'p yillik daraxtzorlar, 3332 gektar bo'z yerlar, 216025 gektar yaylov va pichanzorlar hamda 67706 gektar qishloq xo'jaligida foydalanilgan yer maydonlarida fermer xo'jaliklariga tarqatish bo'yicha loyihalash ishlari amalga oshirildi.

Respublikamizda 2007 yiil 1 yanvar holatiga ko'ra jami fermer xo'jaliklarining soni 190237 tani tashkil qilib, ularning yer maydoni 5331,1 ming gektarni tashkil qiladi.

2. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonuning yangi tahririda (2004 yil 26 avgust) ham fermer xo'jaligi yuritish uchun yer berish tartibi o'z aksini topgan. Shuni inobatga olish lozimki, O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi, katta va kichik daryolar, suv havzalari bo'ylab joylashgan yer uchastkalari fermer xo'jaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida

belgilangan tartibda beriladi. O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi bo'ylab besh yuz metrli mintaqada faoliyati hayvonlarni (chorva mollar, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar, asalarilarni, hayvonot bog'lari hamda vivariylarning hayvonlarini va boshqa jonivorlarni) ko'paytirish, o'tlatish va boqish bilan bog'liq bo'lgan chorvachilik, parrandachilik hamda boshqa yo'nalishdagi fermer xo'jaliklariga yer uchastkalari berish taqiqlanadi, shuningdek, fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasini olishda fermer xo'jaligi tashkil etilayotgan joyda yashovchi shaxslar ustun huquqdan foydalanadilar.

Fermer xo'jaliklariga yer berish tartibi "Yer uchastkalarini fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi to'g'risida"gi Nizomda (Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktabrdagi 476-son qaroriga 7-ilova) batafsil tartibga solingan. Unga ko'ra, zaxira yerlardan yoki yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan yer uchastkalari yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiquvchi tuman komissiyasi o'tkazgan tanlov yakunlariga ko'ra tuman hokimining qaroriga asosan beriladi. Yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlardan va (yoki) zaxiradagi yerlardan, shuningdek qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi va tashkilotining vakolatli organi umumiy majlisi tomonidan ijaraga oluvchini aniqlamasdan ajratilgan yerlarning ikki loyihasi bo'yicha o'tkazilgan tanlovda g'olib chiqqan fuqarolarning, shu jumladan, faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari boshliqlarining ko'rsatilgan yer uchastkalari bo'yicha boshqa loyihalar yuzasidan o'tkaziladigan tanlovlardagi ishtiroki to'xtatiladi.

Qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalari maxsus tashkil etilgan komissiya o'tkazgan tanlov yakunlariga ko'ra tuman hokimining qaroriga asosan beriladi.

Qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalari mazkur kooperativning (shirkat xo'jaligining) yoki korxona, muassasa, tashkilotning a'zolariga (xodimlariga) fermer xo'jaligi yuritish uchun qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) umumiy yig'ilishi tomonidan, boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi, muassasasi va tashkilotining vakolatli organi tomonidan o'tkazilgan tanlov yakunlariga ko'ra tuman hokimining qaroriga asosan berilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari yerlari fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga:

1) qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarining vakolatli organlari tomonidan tanlov o'tkazilishi yo'li bilan;

2) qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, tashkilotlari va muassasalari fermer xo'jaliklariga berish uchun yer uchastkasini aniqlashi yo'li bilan berilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) umumiy yig'ilishi hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi, muassasasi va tashkilotining vakolatli organi fermer xo'jaliklariga berilishi lozim bo'lgan yer uchastkalarini ijarachini aniqlamagan holda belgilashi mumkin. Bunday holda fermer xo'jaligiga yer uchastkasi "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni 11-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan tartibda beriladi. Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) umumiy yig'ilishining, boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi, muassasasi va tashkiloti vakolatli organining hamda tuman hokimining yer uchastkasi berishni rad etish to'g'risidagi qarorlari ustidan, shuningdek yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiquvchi viloyat komissiyasining tuman hokimining qarorini tasdiqlashni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga yoki

bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdor shaxsga shikoyat qilish mumkin.

3. Ilmiy-tadqiqot muassasalariga, oliy o'quv yurtlariga, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlariga va umumta'lim maktablariga o'quv, tajriba, nav sinash maqsadlari uchun berilgan yerlar hamda suv fondi yerlari fermer xo'jaliklariga berilmasligi ko'zda tutilgan. Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni 10-moddasi uchinchi qismida ham o'z ifodasini topgan. Yer kodeksining 77-moddasiga muvofiq, suv fondi yerlarida suv ob'ektlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xo'jalik faoliyati yuritish va qurilish ishlari olib borish taqiqlanadi. Shunday ekan, suv fondi yerlarining fermer xo'jaliklariga berilishi ushbu qoida mazmuniga zid kelar edi. Binobarin, fermer xo'jaligi ham tadbikorlik sub'ekti sifatida foyda olish maqsadida o'z faoliyatini yuritish ekan, suv havzalariga zarar yetkazishi tabiiy. Mazkur holatning oldini olish hamda suv havzalari muhofazasini ta'minlash maqsadida Yer kodeksiga mazkur norma kiritilgan.

4. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni 11-moddasi 1-qismida belgilanganidek, fermer xo'jaliklariga yer uchastkalari ellik yilgacha bo'lgan, lekin o'ttiz yildan kam bo'lmagan muddatga ijaraga tanlov asosida beriladi.

Fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkalarini berish bo'yicha tanlov o'tkazishda tanlov o'tkazishga tayyorgarlik qilish va uni e'lon qilish, tanlovda ishtirok etish shartlari, tanlovni o'tkazish tartibi hamda yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasini va tanlov g'olibining mulkka bo'lgan huquqini rasmiylashtirish masalalari tegishli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvardagi 8-sonli, 2003 yil 30 oktabrdagi 476-sonli qarorlari hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirining 2005 yil 18 noyabrdagi buyrug'i bilan tasdiqlangan "Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini berishda tanlov g'olibini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida o'tkaziladi. "Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini berishda tanlov

g'olibini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomda belgilanishicha, yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlardan va (yoki) zaxiradagi yerlardan, shuningdek qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi va tashkilotining vakolatli organi umumiy majlisi tomonidan ijaraga oluvchini aniqlamasdan ajratilgan yerlardan yer uchastkalari ajratish to'g'risida, shuningdek ushbu yerlarni fermer xo'jaliklariga berish bo'yicha tanlov o'tkazish to'g'risida tuman hokimi qaror qabul qiladi.

Tuman hokimining tanlov o'tkazish to'g'risidagi qarori mahalliy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari boshqaruvi (ma'muriyati) binolarida osib qo'yilishi kerak. Tanlov uni o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilingan va e'lon qilingan kundan boshlab bir oy mobaynida o'tkazilishi kerak. Tanlovda ishtirok etish huquqiga O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shu jumladan, faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining boshliqlari ega. Yetarli texnika va pul mablag'lariga ega bo'lgan shaxslar bir necha loyihalarga talabgor sifatida ariza berishlari mumkin. Yer uchastkalari berish to'g'risidagi ariza tashkil etilayotgan xo'jalikning biznes-rejasi yoki faoliyat dasturi ilova qilingan holda tuman hokimiga beriladi. Tuman hokimi ariza kelib tushgan kuniyoq arizani yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga yuboradi. Yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiya fermer xo'jaligiga yer uchastkalari berish bo'yicha tanlov o'tkazadi. Komissiyaning qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va tuman hokimiga beriladi. Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasining amal qilish muddati tugaganidan keyin fermer xo'jaligi ijaraga olish shartnomasini yangi muddatga uzaytirish huquqiga ega. Fermer xo'jaligining boshlig'i vafot etgan taqdirda, ijaraga olish shartnomasini yangi muddatga uzaytirish huquqiga uning merosxo'ri ega bo'ladi.

5. Fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasining o'lchami yer uchastkasini beradigan organ tomonidan har bir muayyan holatda mahalliy

sharoitlarni, shuningdek fermer xo‘jaligida ishlovchilar sonini hisobga olgan holda belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo‘lgan taqdirda tashkil etiladi. “Yer uchastkalarini fermer xo‘jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, har bir bosh mol hisobiga shartli ravishda quyidagi koeffitsientlardan foydalaniladi: qoramollar (sigirlar, nasl olinadigan novvoslar, bo‘rdoqiga boqiladigan novvoslar) va otlar uchun - 1.0, yosh qoramollar uchun - 0.6, qo‘y va echkilar uchun - 0.1, cho‘chqalar uchun - 0.3 hamda parrandalar uchun - 0.025.

Fermer xo‘jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlaridagi sug‘oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektarni, boshqa viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi sug‘oriladigan yerlarda kamida 0,45 gektarni, sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi. Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami paxtachilik va g‘allachilik uchun kamida 10 gektarni, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida 1 gektarni tashkil etadi. Yer uchastkasi fermer xo‘jaligiga imkoni boricha yagona mavze bo‘yicha, konturlar yaxlitligi saqlab qolingan holda beriladi, uchastka chegaralari sug‘orish tarmoqlari, kollektorlar, yo‘llar va boshqa topografik elementlar bo‘yicha belgilanadi. Fermer xo‘jaligiga berilayotgan yer uchastkasi boshqa yerdan foydalanuvchilarning yerlardan foydalanishi uchun noqulayliklar vujudga keltirmasligi kerak.

Fermer xo‘jaliklari tomonidan yer uchastkalari ijaraga olinishida mazkur qishloq xo‘jaligi kooperativi, korxona va tashkilot hududida yashovchi shaxslar boshqa teng sharoitlarda ustuvor huquqdan foydalanadilar.

6. Fermer xo‘jaligi ishlab chiqarish maqsadlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda yer uchastkalarini qo‘shimcha ijaraga olishi mumkinligi belgilangan. Fermer xo‘jaligi ustavida belgilangan maqsadlarga erishishi uchun yer uchastkalarini qo‘shimcha ijaraga olishi lozim bo‘lgan taqdirda, mazkur fermer xo‘jaligi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibga rioya etgan holda yer uchastkalarini qo‘shimcha ijaraga olishga haqli.

7. Fermer xo‘jaligi tuman hokimligida ro‘yxatga olinganidan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi. Tuman hokimi tomonidan fermer xo‘jaligiga ijaraga yer uchastkasi berish to‘g‘risida qaror qabul qilingandan keyin tuman yer resurslari va davlat kadastri bo‘limi tomonidan besh kun muddatda namunaviy shaklga muvofiq yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasi tayyorlanadi. Fermer xo‘jaligi shu xo‘jalik boshlig‘i tomonidan tashkil etiladi, u fermer xo‘jaligiga tegishlicha alohida mol-mulk ajratib beradi va ustavini tasdiqlaydi. Fermer xo‘jaligi tashkil etish uchun uning boshlig‘i belgilangan tartibda yer uchastkasi olishi kerak. Fermer xo‘jaligi belgilangan tartibda davlat ro‘yxatiga olingan paytdan e‘tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi. Fermer xo‘jaligi vakolatli organ tomonidan davlat ro‘yxatiga olinganidan keyin yuridik shaxs maqomini oladi, bank muassasasida hisob-kitob varag‘i va boshqa xil hisobvaraqlar ochishga, o‘z nomi yozilgan muhrga ega bo‘lishga haqli. Fermer xo‘jaligi tashkil etishning O‘zbekiston Respublikasining “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan tartibi buzilgan yoki xo‘jalikning ustavi qonunga muvofiq bo‘lmagan taqdirda fermer xo‘jaligini davlat ro‘yxatiga olish rad etilishi mumkin. Davlat ro‘yxatiga olish rad etilganligi, shuningdek ro‘yxatga olish muddatlarining buzilganligi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

8. Fermer xo‘jaligi yuritish uchun fuqarolarga yer uchastkalari berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Bunday qonun hujjatlari sifatida O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksini, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunini (yangi tahriri 2004 yil 26 avgustda qabul qilingan),

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 8 noyabrdagi "2006 yilda qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari)ni fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2003 yil 24 martdagi 3226-sonli "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi, "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi, 2003 yil 27 oktabrdagi 3342-sonli hamda 2006 yil 11 yanvaridagi "Meva va sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2006 yil 21 noyabrdagi "2007 yilda qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvardagi 8-sonli, 2003 yil 30 oktabrdagi 476-sonli "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Qishloq va suv xo'jaligi vazirining 2005 yil 18 noyabrdagi buyrug'i bilan tasdiqlangan "Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini berishda tanlov g'olibini aniqlash tartibi to'g'risida"gi hamda "Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari)ning bog' va uzumzorlarini sotish tartibi to'g'risida"gi hamda "Yer uchastkalarini fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi to'g'risida"gi Nizom va boshqa qonun hamda qonunosti nomrativ-huquqiy hujjatlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

9. Fermer xo'jaligining yer uchastkasiga egalik qilish hamda undan foydalanish borasidagi huquq va majburiyatlari qonun hujjatlarida belgilanadi. Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkalaridan qat'iy belgilangan maqsadda foydalaniladi. Ular xususiylashtirilishi, shuningdek oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash ob'ekti bo'lishi va ikkilamchi ijaraga berilishi mumkin emas. Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi kreditlar olishda fermer xo'jaligi tomonidan garovga qo'yilishi mumkin.

10. Kreditlar olish uchun fermer xo'jaligi o'z mol-mulkini, shuningdek yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini garovga qo'yishga haqli. Ushbu holat fermer xo'jaligi huquqlaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi

to'g'risida"gi qonunining 16-moddasida ham o'z aksini topgan. Fermer xo'jaligi yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqlarini ijaraga beruvchining rozilgisiz garovga qo'yishga haqli emas, qonunda yoki ijara shartnomasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

7.10. DEHQON XO'JALIGI YURITISH UCHUN FUQAROLARGA YER UCHASTKALARI BERISH (REALIZATSIYA QILISH)

Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) har bir a'zosining, boshqa qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlari har bir xodimining oilasiga, shuningdek qishloq joylarda yashovchi o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarning oilalariga dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa yer uchastkasi imorat va hovli egallagan maydonni ham qo'shganda sug'oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 0,5 gektargacha o'lchamda, cho'l va sahro mintaqasida esa-sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 1 gektargacha o'lchamda beriladi.

Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) a'zolarining, boshqa qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlari xodimlarining, shuningdek uzluksiz besh yildan ortiq qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlarida ishlagan va hamon ishlab kelayotgan o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarning oilalariga, ular yashayotgan aholi punktlari shahar tarkibiga o'tkazilgan taqdirda, ularning ish joylaridan, dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga, imorat va hovli egallagan maydonni ham qo'shganda ana shu

kooperativlar (shirkatlar), korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda belgilangan o'lchamda yer uchastkasi berilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligi yuritish uchun beriladigan yer uchastkalarining o'lchamlari yer resurslarining mavjudligiga qarab belgilanadi. Dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkalari berish to'g'risidagi qaror qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuman hokimi tomonidan qabul qilinadi.

Fuqarolarga dehqon xo'jaligi yuritish uchun 0,06 gektar doirasida tomorqa yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kimoshdi savdosi asosida realizatsiya qilinishi mumkin.

Dehqon xo'jaligi yuritish uchun tomorqa yer uchastkalariga ega bo'lmagan yoki ushbu qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonasi, muassasasi hamda tashkilotida belgilanganidan kam o'lchamdagi tomorqa yer uchastkasiga ega bo'lgan fuqarolarga ana shu korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning egaligidagi yoki foydalanishidagi yerlardan belgilangan normalar doirasida yakka tartibdagi polizchilik uchun foydalanishga qo'shimcha yer uchastkalari beriladi.

Qishloq joylarda yashovchi va o'z mulkida chorva mollari bo'lgan fuqarolarga pichan o'rish va chorva mollarini o'tlatish uchun vaqtincha foydalanishga yer uchastkalari berilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligi yurituvchi oilalar o'zlari yetishtirgan mahsulotni tasarruf etishda mutlaq huquqqa, shu jumladan uni iste'molchilarga o'z xohishiga ko'ra realizatsiya qilish huquqiga ega.

Transport, aloqa, suv xo'jaligi, baliq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, shuningdek xalq xo'jaligi boshqa tarmoqlarining korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlari o'z egaligidagi yoki foydalanishidagi yerlardan ayrim toifadagi o'z xodimlariga xizmat chek yerlari beradi.

Dehqon xo'jaligi yuritish uchun fuqarolarga yer berish (realizatsiya qilish) tartibi, shuningdek xizmat chek yerlarini berish tartibi ushbu Kodeks va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Dehqon xo‘jaligi yuritish uchun fuqarolarga yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) tartibi O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunida batafsil yoritilgan.

Dehqon xo‘jaligi oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Tomorqa yer uchastkasi - qishloq xo‘jalik mahsulotini erkin savdo hamda oila ehtiyojlari uchun yetishtirish, shuningdek yakka tartibdagi uy-joy qurilishi hamda uy-joyni obodonlashtirish maqsadida oila a‘zolaridan biriga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va o‘lchamlarda ajratib beriladigan yer uchastkasidir. Tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi Yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati bilan guvohlantiriladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

Dehqon xo‘jaligi a‘zolari jumlasiga birgalikda yashayotgan va dehqon xo‘jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshlig‘i, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olgan bolalari, ota-onalari, mehnatga qobiliyatli yoshga yetgan boshqa qarindoshlari kiradi.

Yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarda dehqon xo‘jaligi nomidan shu xo‘jalik boshlig‘i ish ko‘radi. Dehqon xo‘jaligi boshlig‘i qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi berilgan oila boshlig‘i yoki oilaning muomalaga layoqatli a‘zolaridan biridir. Dehqon xo‘jaligining boshlig‘i vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotgan taqdirda yoki uzoq vaqt bo‘lmaganda u o‘z majburiyatlarini

bajarish vakolatini shu xo'jalik a'zolaridan biriga, dehqon xo'jaligining a'zosi bir kishidan iborat bo'lganda esa, shartnoma asosida - ushbu moddaning ikkinchi qismi talablariga javob beradigan har qanday shaxsga berishga haqlidir.

Dehqon xo'jaligi ixtiyoriylik asosida tuziladi hamda u davlat ro'yxatiga olinganidan va unga belgilangan tartibda yer uchastkasi berilganidan keyin tashkil etilgan hisoblanadi. Yer uchastkasi berish to'g'risidagi ariza so'ralayotgan yer uchastkasining joylashgan yeri, maydoni, dehqon xo'jaligining tarkibi hamda yer uchastkasidan belgilangan maqsadda foydalanish ko'rsatilgan holda qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) boshqaruviga yoxud boshqa qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi korxonasi, muassasasi va tashkilotining ish beruvchisiga (ma'muriyatiga) beriladi. Qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) boshqaruvi, boshqa qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi korxonasi, muassasasi, tashkilotining ish beruvchisi (ma'muriyati) dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish imkoniyati to'g'risidagi xulosani fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan kelishilgan holda tayyorlaydi. Mazkur xulosa asosida qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) umumiy majlisi, boshqa qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi korxonasi, muassasasi, tashkilotining vakolatli organi dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risida iltimosnoma bilan tuman hokimiga murojaat qilish haqida qaror qabul qiladi.

Tuman hokimi yuqorida nazarda tutilgan iltimosnoma asosida va yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqish bo'yicha tuman komissiyasining xulosasi asosida dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish hamda mazkur xo'jalikni davlat ro'yxatiga olish haqida qaror qabul qiladi.

Maxsus komissiya tumanlar va shaharlar hokimlarining qarori bilan Davlat mulki qo'mitasi, moliya, soliq, tabiatni muhofaza qilish organlari, yer tuzish, suv xo'jaligi xizmatlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari vakillaridan va

boshqa mutaxassislardan iborat tarkibda tuziladi. Komissiya a'zolari orasidan rais, raisning o'rinbosari, komissiya kotibi tayinlanadi.

Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) a'zolarining, boshqa qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari xodimlarining oilalariga, shuningdek qishloq joylarda yashovchi o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarning oilalariga dehqon xo'jaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa yer uchastkasi imorat va hovli egallagan maydonni ham qo'shganda sug'oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 0,5 gektargacha o'lchamda, cho'l va sahro mintaqasida esa sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 1 gektargacha o'lchamda beriladi.

Tuman hokimining yer uchastkasi berishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Dehqon xo'jaligiga tomorqa yer uchastkasi berish to'g'risidagi qaror dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qaror bilan bir vaqtda qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) umumiy majlisining, boshqa qishloq xo'jalik korxonasi, muassasasi va tashkiloti yuqori boshqaruv organining, ish beruvchisining (ma'muriyatining) qarori asosida tuman hokimi tomonidan qabul qilinadi.

Yangi tashkil etilayotgan dehqon xo'jaligi uchun tomorqa yer uchastkasi olish huquqidan mazkur joyda kamida uch yil mobaynida doimiy yashab kelayotgan shaxslar foydalanadilar (yangi o'zlashtirilayotgan yer maydonlari bundan mustasno).

Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) boshqaruvining, boshqa qishloq xo'jalik korxonasi, muassasasi va tashkiloti boshqaruv organining, ish beruvchisining (ma'muriyatining) hamda tuman hokimining dehqon xo'jaligi tashkil etish uchun tomorqa yer uchastkasi berishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Dehqon xo‘jaligiga ajratilgan yerning chegaralari naturada (joyning o‘zida) yer tuzish xizmati organlari tomonidan mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan rasmiylashtiriladi. Tomorqa yer uchastkasidan oqilona va samarali foydalanayotgan dehqon xo‘jaligiga qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) boshqaruvi tomonidan umumiy majlisning qarori asosida, boshqa qishloq xo‘jalik korxonasi, muassasasi va tashkiloti yuqori boshqaruv organi, ish beruvchisi (ma‘muriyati) tomonidan qishloq xo‘jalik mahsuloti yetishtirish va realizatsiya qilish, yem ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek yaylov yaratish uchun qisqa muddatli ijaraga qo‘shimcha ravishda yer uchastkalari berilishi mumkin.

Dehqon xo‘jaligini davlat ro‘yxatiga olish dehqon xo‘jaligini doimiy yashash joyidagi tuman hokimligi tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan zarur hujjatlar bilan birgalikda ariza berilgan paytdan e‘tiboran uch kun ichida amalga oshiriladi. Dehqon xo‘jaligiga Yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi.

Dehqon xo‘jaliklari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik yig‘imini to‘lashdan ozod qilinadi.

Agar davlat ro‘yxatiga olish belgilangan muddatda amalga oshirilmagan yoki dehqon xo‘jaligi boshlig‘i asossiz deb hisoblaydigan sabablarga ko‘ra rad etilgan bo‘lsa, xo‘jalik boshlig‘i sudga murojaat qilishi mumkin.

Fuqarolarga dehqon xo‘jaligi yuritish uchun 0,06 gektar doirasida tomorqa yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kim oshdi savdosi asosida realizatsiya qilinishi mumkin.

Ushbu tartib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil noyabrdagi “Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Farmoni asosida amalga oshiriladi.

Foydalanilmayotgan yerlarni sotish mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tuzilgan va tasdiqlangan registrlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Foydalanilmayotgan yerlar hamda past rentabelli va zarar ko‘rib ishlovchi qishloq xo‘jaligi

korxonalarining yerlari fuqarolarga sotish huquqisiz meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish huquqi berilgan holda sotiladi. Ko'rsatib o'tilgan yerlardan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash, yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani shakllantirish, shuningdek, belgilangan tartibda boshqa ishlab chiqarish maqsadlari foydalaniladi.

Yerlarni sotish Davlat mulki qo'mitasi organlari tomonidan kim oshdi savdosida yoki tanlov asosida amalga oshiriladi. Yer maydonlari kim oshdi savdosi yoki tanlov g'oliblariga beriladi, ularga meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik huquqini beruvchi dalolatnoma beriladi. Foydalanilmayotgan yerlar quyidagi tartibda sotiladi:

a) bu yerlar joylashgan tuman yoki shahar axolisi ularni sotib olishda ustunlik huquqiga ega bo'ladilar;

b) ikkinchi navbatda sotib olish huquqi Qoraqalpog'iston Respublikasining qolgan boshqa aholisiga beriladi;

v) "a" va "b"- kichik bandlarda ko'rsatilgan xaridorlar bo'lmagan taqdirda tanlov - kim oshdi savdosida sotib olishga O'zbekiston Respublikasining qolgan boshqa hududida yashovchi aholi, shuningdek xorijiy jismoniy shaxslar qo'yiladi.

Meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilishga sotiladigan yer maydonining hajmi mahalliy sharoitlarni olgan holda belgilanadi. Bunda yer maydoni hajmi sug'oriladigan yerlarda 5 gektardan va sug'orilmaydigan yerlarda 15 gektardan oshmasligi kerak. Yer maydonlarini kim oshdi savdosi va tanlov asosida sotish bilan bog'liq yerga egalik qilishda yuz beradigan barcha o'zgarishlar shaharchalar, qishloqlar va ovullarning o'zini o'zi boshqarish organlarining yer-kadastr daftarlariga, shuningdek, boshqa yer-kadastr hujjatlariga kiritiladi.

Sotilgan yerlarda aniqlangan foydali qazilma boyliklar davlatga tegishli bo'ladi. Meros qilib qoldirish sharti bilan egalik qilish uchun berilgan yer maydonlarida qidiruv ishlari olib borish yoki foydali qazilma boyliklarni qazish zarur bo'lgan taqdirda davlat ularning egalariga sifati bir xil yer maydonlari beradi,

yerni sotib olish va o'zlashtirish bilan bog'liq xarajatni inflyatsiyani hisobga olgan holda kompensatsiya qiladi.

Meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish va doimiy foydalanish uchun sotib olingan yer uchastkalari musodara qilinishi va olib qo'yilishi mumkin emas, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan istisnodir.

Past rentabelli va zarar ko'rib ishlovchi qishloq xo'jaligi korxonalari tarqatib yuborilganda ular foydalangan yerlar jismoniy shaxslarga meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik uchun sotiladi.

Kim oshdi savdosi ochiq va yopiq shaklda bo'lib o'tadi. Shunda ochiq shakldagi kim oshdi savdolariga xarid qilish uchun qo'yilgan ob'ektni xarid qilmoqchi bo'lgan barcha shaxslar tashrif buyurishiga ruxsat etiladi. Yopiq shakldagi kim oshdi savdolariga esa faqat maxsus sotuvchi bilan kelishilgan holda taklif qilingan shaxslarga tashrif buyurishga ruxsat etiladi. Davlat mulki ochik turdagi kimoshdi savdolarida sotiladi. *Kim oshdi savdolari quyidagi turlarda o'tkazilishi mumkin:*

- ❖ savdo ob'ektining boshlang'ich eng minimal narxi e'lon qilinib, sotilishi mumkin bo'lgan narxga bosqichma-bosqich narxini ko'tarib borish yo'li bilan;
 - ❖ savdo ob'ektining boshlang'ich eng maksimal narxi e'lon qilinib, sotilishi mumkin bo'lgan narxga bosqichma-bosqich narxini tushirib borish yo'li bilan.
- Bunda eng minimal tushadigan narxi e'lon kilinadi;

Kim oshdi savdosining turi, shakli va o'tkazilish joyi sotuvchi tomonidan tanlanadi. Savdo ob'ektini auksion savdosiga qo'yish hakida qabul qilingan qaror uchun javobgarlikni sotuvchi o'z bo'yniga oladi.

Bitta ishtirokchi ishtirok etgan auksion bo'lib o'tmagan deb hisoblanadi.

Shaxsiy mulk sifatida tasarruf etilmaydigan va kimoshdi savdolariga ham qo'yilmaydigan, ya'ni dehqon xo'jaligi o'z balansiga olib foydalana olmaydigan yer maydonlari mavjud bo'lib, bular O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 11 aprel kunidagi 126-son Qaroriga 3-ilova qilingan

“Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi ob‘ektlarini ular joylashgan yer maydonlari bilan birgalikda hamda yer maydonlarini meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish uchun xususiy mulk sifatida sotish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (ushbu qarorga O‘zbekiston Respublikasi VM 1999 yil 30 aprel kunidagi 202-son qaroriga asosan o‘zgartirishlar kiritilgan) ko‘ra quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ❖ Shahar va shaharchalardagi umumiy foydalanishdagi yerlar (maydonlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, sohil bo‘ylari, istirohat bog‘lari, skverlar, xiyobonlar, suvni muhofaza qilish zonalari, cho‘milish joylari va boshqalar).
- ❖ Tabiat yodgorliklari, botanika bog‘lari yerlari.
- ❖ Sog‘lomlashtirish va tarixiy-madaniy maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar.
- ❖ Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni qo‘riqlash uchun berilgan yerlar.
- ❖ Xavfli moddalar bilan zararlangan va biogen zaharlanishga uchragan yerlar.
- ❖ Shaharlarni rivojlantirish bosh rejalarida, mukammal rejalashtirish loyihalarida va ob‘ektlarni (savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi ob‘ektlaridan tashqari) joylashtirish sxemalarida nazarda tutilgan yerlar.
- ❖ Bosh yo‘llarga tutash yerlar.
- ❖ Elektr quvvati uzatish liniyalari, kabel liniyalari va podstantsiyalar, issiqlik, suv va kanalizatsiya trassalari hamda gaz quvurlari, umumdavlat aloqa liniyalari uchun ajratilgan yerlar va ulardagi inshootlar, suv xo‘jaligi inshootlari.

Dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyati yo‘nalishlarini, ishlab chiqarish tuzilishi va hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Dehqon xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining qonunlarda taqiqlanmagan har qanday turi, shuningdek qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan ham shug‘ullanishga haqli. Dehqon xo‘jaligi o‘zi yetishtirayotgan va realizatsiya qilayotgan mahsulot sifatiga oid amaldagi normativ va standartlarga, ekologiyaga, sanitariyaga oid hamda qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan boshqa talab va qoidalarga rioya etishi shart. Dehqon xo‘jaliklarining xo‘jalik faoliyatiga shu jumladan ular tomonidan agrotexnika usullarini, yetishtiriladigan mahsulot turlarini tanlashda, uning narxini va uni realizatsiya qilish yo‘nalishlarini aniqlashda davlat organlari

va tashkilotlarining hamda boshqa organlar va tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Davlat organlari va tashkilotlarining hamda boshqa organlar va tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining va fuqarolarning gayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) natijasida, shuningdek bunday organlar, tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining dehqon xo‘jaligiga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmasliklari oqibatida dehqon xo‘jaligiga yetkazilgan zararlar, shu jumladan boy berilgan foyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi kerak. Yuridik shaxs tariqasida ro‘yxatga olingan dehqon xo‘jaligi tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqa shakllarda xo‘jalik yurituvchi korxonalar bilan teng shartlarda amalga oshiradi.

Dehqon xo‘jaligi o‘zi yetishtirayotgan mahsulotni realizatsiya qilish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan ixtiyoriylik asosida xo‘jalik shartnomalari tuzish huquqiga ega. Taraflar shartnoma majburiyatlari buzilgan taqdirda, qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar. Dehqon xo‘jaligi o‘zi yetishtirayotgan mahsulotga bozordagi talab va taklif nisbatidan kelib chiqib mustaqil ravishda baho belgilaydi.

7.11. JAMOA BOG‘DORCHILIGI, UZUMCHILIGI VA POLIZCHILIGI YURITISH UCHUN FUQAROLARGA YER UCHASTKALARI BERISH

Shaharlar va posyolkalarda, shuningdek qishloq aholi punktlarida yashovchi, dehqon xo‘jaligi yuritish uchun tomorqa yer uchastkalariga ega bo‘lmagan fuqarolarga korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning iltimosnomasiga binoan jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga yoki jamoa polizchiligi uchun vaqtincha foydalanishga yer uchastkasi tuman hokimi tomonidan beriladi.

Jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini tashkil etish uchun fuqarolar bog‘dorchilik-uzumchilik yoki polizchilik shirkatlariga birlashadilar.

Bog'dorchilik va uzumchilik uchun yer uchastkalari shaharlarning ko'kalamzor zonasidan yoki boshqa aholi punktlari chegarasidan tashqarida aholi punktlari hududining kengayish istiqbollarini e'tiborga olib, suv resurslari hamda ularga limitlar ajratish imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda zaxira yerlardan va o'rmon fondining daraxtzorga aylantirish mo'ljallanmagan yerlaridan ajratib beriladi. Jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligi uchun yaroqli zaxira yerlar hamda o'rmon fondi yerlari bo'lmagan taqdirda, qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlarining qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning yordamchi qishloq xo'jaligi yerlari istisno tariqasida berilishi mumkin.

Jamoa polizchiligi uchun vaqtincha foydalanishga yer uchastkalari suv resurslari hamda ularga limit ajratish imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda aholi punktlarining yerlaridan, yaqin yillar ichida boshqa maqsadlarda foydalanishga mo'ljallanmagan zaxira yerlardan va o'rmon fondi yerlaridan beriladi. Jamoa polizchiligi uchun noqishloq xo'jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining vaqtincha foydalanilmayotgan yerlari, bunday yerlar bo'lmagan taqdirda esa - qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlarining unumdorligi past yerlari berilishi mumkin.

Jamoa polizchiligi uchun berilgan yer uchastkalaridan sabzavot, kartoshka va poliz ekinlari yetishtirishda foydalaniladi. Ulardan uy-joy binolari va boshqa kapital inshootlar qurish uchun foydalanish taqiqlanadi. Bunday uchastkalarda umumiy foydalanishdagi muvaqqat imoratlar va inshootlarni qurishga yer uchastkalarini bergan tuman hokimi ruxsat berishi mumkin.

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi uchun beriladigan yer uchastkalari ko'chalar ochish, jamoat imoratlari va inshootlari qurish zarurligi hisobga olingan holda bog'dorchilik-uzumchilik shirkatining har bir a'zosiga 0,06 gektargacha va polizchilik shirkatining har bir a'zosiga 0,08 gektargacha o'lchamda belgilanadi.

Jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi uchun yer berish hamda undan foydalanish tartibi va shartlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

«Jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi yuritish uchun fuqarolarga yer uchastkalari berish» nomi bilan alohida ajratib qo‘yilgani ham bejiz emas. Chunki jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi yuritish uchun fuqarolarga yer uchastkalarini ajratish o‘zining mustaqil tartibga solish mexanizmiga va alohida o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlariga egadir.

Shu o‘rinda fuqarolarga jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi yuritish uchun yer uchastkalarining ajratilishi qonun darajasida belgilanishi uning kam ahamiyatga ega emasligidan dalolat beradi.

Sharhlanayotgan moddada ko‘rsatilgan, ya’ni fuqarolarga jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun ajratiladigan yer uchastkalari Yer kodeksining 8-moddasiga binoan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar toifasiga kiradi. Yer uchastkalarining fuqarolarga jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilishi hamda qonun bilan mustahkamlab qo‘yilishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda ushbu toifa yerlarning alohida ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Shaharlar va posyolkalarda, shuningdek qishloq aholi punktlarida yashovchi, dehqon xo‘jaligi yuritish uchun tomorqa yer uchastkalariga ega bo‘lmagan fuqarolarga korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning iltimosnomasiga binoan jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga yoki jamoa polizchiligi uchun vaqtincha foydalanishga yer uchastkasi tuman hokimi tomonidan beriladi.

Yer kodeksining 19-moddasida fuqaroning yer uchastkasidan meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asoslari belgilangan bo‘lib, ulardan biri jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi yuritish uchun yer uchastkasiga egalik qilishdir. 20-moddada esa yer uchastkasidan muddatli (vaqtincha foydalanish) huquqi asoslari ko‘rsatilgan bo‘lib, unga ko‘ra yer uchastkalari qishloq xo‘jaligi yuritish uchun vaqtincha foydalanishga berilishi mumkin.

Jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi yuritish uchun fuqarolarga yer berish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Yer berish jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi yuritishni keltirib chiqaruvchi asosiy vosita bo‘lib, bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

- ❖ Dastlabki bosqich yer berilishini so‘rab ariza berishdir;
- ❖ Ikkinchisi, ushbu arizani vakolatli davlat organida ko‘rib chiqish;
- ❖ Uchinchisi, yer berish to‘g‘risida qaror chiqarish;
- ❖ To‘rtinchisi, natura tartibida yer uchastkasini joyida yer tuzilishiga asosan ajratib berishdan iborat.

Jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi yuritish uchun yerdan foydalanish o‘z-o‘zidan kelib chiqmasdan, balki belgilangan tartibda, yer berish jarayoni orqali amalga oshiriladi. Yer uchastkasidan natura holda ajratib berilgandan so‘nggina foydalanish mumkin. Aks holda yerdan g‘ayriqonuniy ravishda foydalanilgan hisoblanadi.

Ajratib berilayotgan yer uchastkasi joylashgan tuman hokimigina jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun yer uchastkalarini ajratib berish to‘g‘risida qaror chiqarishga huquqlidir. Qayd etish kerakki, jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga yer uchastkalarini berish yer tuzuvchi tashkilotlar tomonidan berilgan yer uchastkalarining chegaralarini shu joyning o‘zida borib o‘lchab berganlaridan keyin yerga egalik va undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan davlat hujjati berilgandan so‘nggina to‘la qonuniy hisoblanadi.

Jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi tashkil etish uchun fuqarolar bog‘dorchilik uzumchilik yoki polizchilik shirkatlariga birlashadilar. Ularning faoliyat turlari, tashkil etilish tartibi, huquq va majburiyatlari, faoliyat asoslari, mahsulotni realizatsiya qilish tartibi kabilarni belgilovchi qoidalar O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan «Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida»gi qonun bilan tartibga solinadi. Xususan, qonunning 7-moddasiga binoan, yoshi 16 ga

to'lgan, kooperativ (shirkat) ustavini tan oluvchi va uning talablariga rioya etuvchi kooperativ (shirkat) faoliyatida va uning jamg'armalarini shakllantirishda ishtirok etuvchi jismoniy shaxslar qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) a'zosi bo'lishlari mumkin. Shuningdek, jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi yuritish uchun shirkat xo'jaliklariga birlashgan fuqarolar ushbu qonunning 23-moddasiga asosan, yetishtirilayotgan mahsulotni realizatsiya qilish uchun, shu jumladan davlat xaridorlari tartibida realizatsiya qilish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan ixtiyoriylik asosida xo'jalik shartnomalarini tuzish hamda eksportga chiqarish huquqiga ega.

Demak, bog'dorchilik va uzumchilik uchun ajratib beriladigan yer uchastkalarining quyidagi xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

1)shaharlarning ko'kalamzor zonasidan yoki boshqa aholi punktlari chegarasidan tashqaridagi yerlardan ajratib beriladi, bunda albatta, aholi punktlari hududining kengayish istiqbollari e'tiborga olinadi.

2)bundan tashqari, suv resurslari hamda ularga limitlar ajratish imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda zahira yerlardan, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslar egaligiga hamda foydalanishiga, ijaraga berilmagan, mulk etib realizatsiya qilinmagan yerlardan va o'rmon fondining daraxtzorga aylantirish mo'ljallamagan yerlaridan ajratib beriladi;

3)jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligi uchun yaroqli zahira yerlar hamda o'rmon fondi yerlari bo'lmagan taqdirda, qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlarining qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlari, ya'ni qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilmagan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilanmagan yerlardan ajratib beriladi;

4)korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning yordamchi qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanilmagan yoxud lozim darajada foydalanilmagan taqdirda, mazkur yer uchastkalari jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligini yuritish uchun berilishi mumkin.

Jamoa polizchiligi uchun ajratiladigan yer uchastkalari quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'dorchilik va uzumchilik uchun ajratiladigan yer uchastkalaridan farq qiladi:

- 1) mazkur yer uchastkalari vaqtincha foydalanish uchun beriladi;
- 2) suv resurslari hamda ularga limit ajratish imkoniyati mavjud bo'lishi lozim;
- 3) yaqin yillar ichida boshqa maqsadlarda foydalanishga mo'ljallangan zahira yerlardan va o'rmon fondi yerlaridan, ya'ni o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlardan ajratiladi;
- 4) mazkur yer uchastkalari noqishloq xo'jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining vaqtincha foydalanilmayotgan yerlaridan, bunday yerlar mavjud bo'lmagan taqdirda esa – qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlarining unumdorligi past yerlaridan, ammo polizchilik uchun qulay bo'lgan yerlardan ajratib beriladi.

Polizchilik shirkatlariga birlashgan fuqarolar berilgan yer uchastkalaridan sabzavot, kartoshka va boshqa poliz ekinlarini yetishtirishda foydalanishadi. Bunda shirkat xo'jaliklari o'zlari yetishtirgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini kontraktatsiya shartnomalarini tuzish orqali realizatsiya qilish (sotish)lari mumkin.

Polizchilik shirkatlari qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirib berish va xarid qilish bo'yicha munosabatlarni tartibga soluvchi normalar amaldagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 465-moddasida «Kontraktatsiya shartnomasi», 466-moddasida «Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtiruvchining majburiyatlari», 467-moddasida «Tayyorlovchining majburiyatlari» orqali belgilangan. Bevosita jamoa polizchiligi bilan shug'ullanuvchi shirkatlar tomonidan tayyorlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini harid qilish yuzasidan shartnomalar tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 avgustdagi 438-qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo'jalik mahsulotlari kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va bajarish tartibi to'g'risida Nizom»ga asosan belgilanadi.

Bu yerda, kontraktatsiya shartnomasida qatnashayotgan taraflar bo'lib, shirkat xo'jaligi va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi xo'jaliklar hamda tashkilotlar, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchilar, iste'molchilar, qayta ishlovchi korxonalar hisoblanadi.

Shu o'rinda, alohida ta'kidlash joizki, jamoa polizchiligi uchun berilgan yer uchastkalarida uy-joy binolari va boshqa kapital inshootlar, ya'ni korxonalar qurish taqiqlanadi. Faqatgina, jamoa polizchiligi uchun yer uchastkasini bergan tegishli tuman hokimi vaqtinchalik imoratlar va inshootlarni qurishga ruxsat berishi mumkin.

Tegishli tuman hokimining ruxsati bilan bog'dorchilik-uzumchilik shirkatining har bir a'zosiga 0,06 gektargacha va polizchilik shirkatining har bir a'zosiga 0,08 gektargacha o'lchamda yer uchastkasi quyidagi xususiyatlarni hisobga olgan holda berilishi mumkin:

- a) mazkur yer uchastkalarida ko'chalar ochish;
- b) ushbu yer uchastkalarida jamoat imoratlari va inshootlar qurish zarurligi natijasida belgilanishi mumkin.

Jamoa bog'dorchiligi uchun yerlardan foydalanish yordamchi ahamiyatga ega. Chunki jamoa bog'dorchiligi a'zolari bu faoliyatdan tashqari boshqa asosiy faoliyat bilan ham shug'ullanadilar. Bunda ularning o'zlarining turli ehtiyojlarini jamoa bog'dorchiligi yuritish orqali qondirishlari mumkin. Bir so'z bilan aytganda, jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi bu ehtiyojlarni qondirishning qo'shimcha usulidir.

7.12. YORDAMCHI QISHLOQ XO'JALIGINI YURITISH UCHUN YER BERISH

Yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun sanoat, transport hamda boshqa noqishloq xo'jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga ana shu korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning xodimlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash, shuningdek oshxonalar, bolalar muassasalari, maktablar,

kasalxonalar, keksalar va nogironlar uylarini, sanatoriylar, dam olish uylari va shu kabilarni ta'minlash maqsadida viloyat hokimi foydalanilmayotgan yoki samarasiz foydalanilayotgan yerlarni, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan boshqa yerlarni ham doimiy egalik qilishga berishi mumkin.

Mamlakatimizda sanoat, transport hamda boshqa noqishloq xo'jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish maqsadida yer uchastkalari ajratib berish tartibini belgilaydi.

Ta'kidlash joizki, mulkiy iqtisodiy munosabatlarda davlatning monopol huquqi o'rnatilgan sobiq Ittifoq davrida qishloq xo'jalik sohasida ham fuqarolarga emas, balki aynan davlat korxonalariga yer ajratib berish yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Bunda fuqarolarning qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini to'la qondirish, shuningdek turli yo'nalishlarda faoliyat yuritayotgan korxona, muassasa, tashkilotlarni qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan yaxshiroq ta'minlashga ko'maklashish maqsadida vakolatli davlat organlari tomonidan fuqarolar mehnat qiladigan korxonalarga yer uchastkalari ajratib berish hollari tez-tez uchrar edi. Mustaqillik yillarida jamiyat hayotining turli sohalarida bo'lgani kabi qishloq xo'jalik sohasida ham chuqur islohotlar amalga oshirilib, ushbu sohada bozor talablariga javob beradigan qonun-qoidalar qaror topdi. Ya'ni, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan fermer, dehqon xo'jaliklariga yer uchastkalari ajratib berish tartibi yo'lga qo'yildi, 90-yillarning boshlaridanoq butun respublika bo'yicha fuqarolarga tomorqa yerlari ajratib berila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yildagi «Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida»gi farmoni qabul qilinishi munosabati bilan fuqarolarga uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish maqsadida yer uchastkalariga bo'lgan ashyoviy huquq kimoshdi savdolarida sotila boshlandi. Bunda uy-joyni obodonlashtirish deganda, fuqarolarning uy-joylari atrofida qo'shimcha yer uchastkalari – tomorqa yerlariga ega bo'lishlari, unda yordamchi xo'jalik yuritib fuqarolarning qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishlari nazarda tutilgan edi.

Mustaqillik yillarida qabul qilingan va hozirda amalda bo'lgan Yer kodeksida mavjud ekanligiga qaramay, yuqorida nazarda tutilgan sabablarga ko'ra bugungi kunda o'z dolzarbligi yo'qotib bormoqda deyish mumkin. Shunga qaramay, nazarimizda sharhlanayotgan moddani amaliyotga tatbiq etishning ijobiy jihatlarini qayd etish joiz:

Birinchidan, sanoat, transport hamda boshqa noqishloq xo'jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining xodimlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilashga xizmat qiladi;

Ikkinchidan, ushbu moddani amalda tatbiq etish o'z faoliyatini asosan davlat budjeti hisobidan yurituvchi korxona, muassasa va tashkilotlar ish faoliyatida qo'l keladi;

Uchinchidan, sharhlanayotgan moddada ko'rsatilgan tartibga amal qilish hududdagi foydalanilmayotgan yoki samarasiz foydalanilayotgan yerlarni o'zlashtirishga asos bo'ladi.

7.13. QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'ljALLANGAN YERLARNI QISHLOQ XO'JALIGI VA BOSHQA YO'NALISHDAGI KORXONALAR, MUASSASALAR HAMDA TASHKILOTLARGA BERISH TARTIBI VA SHARTLARI

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligi hamda boshqa yo'nalishdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga yerlari olib qo'yilayotgan yer egalarining roziligiga ko'ra va yerdan foydalanuvchilar bilan kelishuvga muvofiq yer uchastkalarini ajratish loyihalariga asosan tuman yoki viloyat hokimining qarori bilan beriladi.

Yangi tashkil etilayotgan, qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotgan qishloq xo'jaligi hamda boshqa yo'nalishdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlari ular tuman yoki viloyat hokimining qarori asosida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etilgan, qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi yoki tugatiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni berish xo'jalik faoliyati uchun qulay chegaralarda amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari foydalanishidagi yer uchastkalarining tarqoq, o'zga yerlarga suqulib kirgan bo'lishiga va boshqa kamchiliklarga ega bo'lishiga, qoida tariqasida, yo'l qo'yilmaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari foydalanishidagi yerlarning tarqoq, o'zga yerlarga suqulib kirgan bo'lishini va boshqa kamchiliklarni bartaraf etish xo'jaliklararo yer tuzish tartibida amalga oshiriladi.

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar – qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo'ljallangan yerlar bo'lib, O'zbekiston Respublikasi yer qonunchiligida ularni muhofaza qilishning hamda foydalanish uchun taqdim etishning alohida tartibi belgilangan. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni berish ushbu yer uchastkalariga nisbatan huquqni vujudga keltiruvchi asosiy vosita bo'lib, ushbu jarayon ma'lum bosqichlardan tashkil topgan: ya'ni birinchi bosqich yer berilishini so'rab ariza berishidir; ikkinchi bosqich mazkur arizani vakolatli davlat organida ko'rib chiqish; uchinchi yer ajratish to'grisida qaror chiqarish; to'rtinchisi natura tartibida yer uchastkasini joyida yer tuzilishida asosan ajratib berishdan iborat. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni qishloq xo'jaligi va boshqa yo'nalishdagi korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlarga berish tartibi va shartlari qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni berish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi Yer kodeksining 46-moddasiga asoslanadi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar asosan qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi korxona, muassasa va tashkilotlarga beriladi. Yer kodeksining 46-moddasiga asosan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligi kooperativlariga (shirkat xo'jaliklariga), boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga-tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yuritish uchun; tajriba-ishlab chiqarish, o'quv, o'quv-tajriba va o'quv-ishlab chiqarish xo'jaliklari, ilmiy-tadqiqot va boshqa qishloq

xo'jalik muassasalari va tashkilotlariga-ilmiy-tadqiqot va ta'lim maqsadlari, tovar qishloq xo'jaligini yuritish va ilg'or tajribani targ'ib qilish uchun; O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga-fermer xo'jaliklarini, dehqon xo'jaliklarini, yakka tartibda bog'dorchilik, polizchilik va chorvachilikni yuritish uchun; jamoa bog'dorchiligi, polizchiligi va uzumchiligi uchun; qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga-yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun berilishi mumkin. Qishloq xo'jaligi yerlari o'zga maqsadlarda, qoida tariqasida, keyinchalik qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun yaroqli holga keltirish sharti bilan vaqtincha foydalanishga taqdim etiladi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligi hamda boshqa yo'nalishdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga yer uchastkalarini ajratish loyihalariga asosan tuman yoki viloyat hokimining qarori bilan beriladi.

Qishloq xo'jaligi hamda boshqa yo'nalishdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining boshqa moddalari hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari, jumladan, "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda nizom, namunaviy ustavlar va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda ham belgilanishi mumkin.

2. Qishloq xo'jaligi hamda boshqa yo'nalishdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlari tuman yoki viloyat hokimining qarori asosida vujudga keladi yoki tugatiladi. Qishloq xo'jaligi hamda boshqa yo'nalishdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yangi tashkil etilayotgan, qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotgan taqdirda uning yer uchastkasiga bo'lgan huquqlari ular tashkil etilayotgan, qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotgan vaqtdan boshlab vujudga keladi yoki tugallanadi.

3. Qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarini to'laqonli ro'yobga chiqara olishlarini ta'minlash

maqsadida sharhlanayotgan moddaning 3-qismida ularga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni berish xo‘jalik faoliyati uchun qulay chegaralarda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, ushbu moddada qoida tariqasida, qishloq xo‘jaligi korxona, muassasa va tashkilotlar foydalanishidagi yer uchastkalarining tarqoq, o‘zga yerlarga suqulib kirgan bo‘lishiga va boshqa kamchiliklarga ega bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmasligi ham belgilangan. Ushbu normaning belgilanishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanishga doir huquqlarini ta‘minlaydi, shuningdek, ularning ushbu yer uchastkalarini muhofaza qilishga doir chora-tadbirlarni samarali tashkil etishini kafolatlaydi. Sharhlanayotgan moddaning keyingi to‘rtinchi qismida qishloq xo‘jaligi korxona, muassasa va tashkilotlar foydalanishidagi yer uchastkalarining tarqoq, o‘zga yerlarga suqulib kirgan bo‘lishiga va boshqa kamchiliklarga ega bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmasligini ta‘minlash hamda bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida xo‘jaliklararo yer tuzish amalga oshirilishi mumkinligi ko‘zda tutilgan.

4. Yer kodeksining 12-moddasiga muvofiq, yangi tashkil etilayotgan, qayta tashkil etilayotgan qishloq xo‘jalik korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlariga yer ajratib berish loyihalarini tuzish xo‘jaliklararo yer tuzish hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari foydalanishidagi yerlarning tarqoq, o‘zga yerlarga suqulib kirgan bo‘lishini va boshqa kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida xo‘jaliklararo yer tuzish amalga oshirilishi mumkin. Xo‘jaliklararo yer tuzish yer tuzishning amaliyotda eng ko‘p uchraydigan turi hisoblanadi. Xo‘jaliklararo yer tuzish ishlari natijasida yangi ob‘ektlar hosil bo‘ladi yoki mavjudlari tartibga solinadi, ularning chegaralari joyida belgilanadi. Xo‘jaliklararo yer tuzish yer uchastkalarini joylashtirishning qulay va oqilona tartibini tanlash, ularni yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va mulkdorlarga ajratib berishda maqsadga muvofiqlikni ta‘minlash hamda yer uchastkalariga bo‘lgan ma‘muriy-hududiy va egalik, foydalanish, mulk huquqini yaxlitlash kabi masalalarni hal

qilish uchun amalga oshiriladi. Ushbu tartibda yer tuzish loyihalari viloyat hokimi tomonidan tasdiqlanadi.

7.14. YAYLOVLARDAN FOYDALANISH

Yaylovlar tarkibiga tabiiy o'simliklar qoplami bo'lgan, qishloq xo'jaligida chorva mollarini mavsumiy boqish uchun foydalaniladigan, pichan o'rish uchun yaroqli bo'lgan tabiiy va sun'iy holatda o'suvchi ko'p yillik o'tlar va butalar bilan qoplangan hamda tabiiy erkin holda yashovchi yovvoyi hayvonlar uchun yashash muhiti bo'lgan yerlar kiradi.

Yaylovlar qishloq xo'jaligi yerlarining bir turi bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslarga yerlarni berish tariqasida foydalanishga beriladi.

Davlat zahira yer fondidagi, shuningdek qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yerlarida joylashgan yaylovlar yuridik va jismoniy shaxslarga uzoq muddatli ijaraga, o'rmon xo'jaliklarining yerlarida joylashgan yaylovlar ushbu xo'jaliklar tomonidan qisqa muddatli ijaraga pichan o'rish va mol boqish uchun berilishi mumkin.

Chorva mollarini yaylov maydonlarida oziqlantirish me'yorlari va muddatlari geobotanik tadqiqotlar asosida belgilanadi.

Tabiiy yaylov maydonlarida yem-xashak o'rish va chorva mollarini o'tlatish me'yor va muddatlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tegishli qishloq xo'jaligi, shuningdek o'rmon xo'jaligi davlat organlarining taqdimnomalari asosida belgilanadi.

Yaylovlarda geobotanik tadqiqotlarni amalga oshirish

Yaylovlarda geobotanik tadqiqotlar o'simliklar qoplamining holatini baholash maqsadlarida amalga oshirilib, bunda quyidagi holatlar aniqlanadi:

- ❖ tabiiy sharoitlar, o'sish joyi, yaylovlarning maydoni va joylashish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o't qoplamining tarkibi va tuzilishi;
- ❖ turli xildagi chorva mollarini oziqlantirish uchun yaylovlardan foydalanish va mavsumiy foydalanish imkoniyatlari;

- ❖ hosildorligi va ozuqa sifati, yaylovlarning o'simlik zahirasi;
- ❖ yaylovlarning tabiiy holati (daraxt-buta o'simliklar, toshloqligi, chorva uchun zaharli va ozuqaga yaroqsiz o'tlar mavjudligi, o'tlarning o'sish zichligi);
- ❖ suv, quduqlar, buloqlar, boshqa tabiiy va sun'iy suv manbalarining, chorva mollarini olib o'tish yo'llarining mavjudligi;
- ❖ tuproq unumdorligini oshirish, o'simlik qoplamini takror ko'paytirish va tiklash, yaylovlarning tanazzulga uchrashining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tavsiya etilgan yaylov hududlari.

Geobotanika tadqiqotlari materiallari quyidagi maqsadlarda:

- ❖ yer tuzish loyihalarini ishlab chiqishda;
- ❖ ajratilgan yaylov maydonlarida o'suvchi ozuqa o'tlarining xususiyatlari va yerning kadastr qiymatini baholashda;
- ❖ yaylovlardan foydalanish samaradorligini va ularning unumdorligini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishni o'z ichiga olgan yaylovlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish rejalarini ishlab chiqishda;
- ❖ yaylovlarning geobotanik xaritalarini tuzishda;
- ❖ yerlarni rekultivatsiya qilish va konservatsiyalashda, yerdan foydalanishni cheklash, yaylovlarning unumdorligini tiklash, himoya qilish va oshirish hamda yaylov maydonlaridan samarali foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqishga oid qarorlarni qabul qilishda qo'llaniladi.

Yaylovlarni muhofaza qilish

Yaylovlarning muhofazasi yaylovlardan barqaror va oqilona foydalanish, yaylov maydonlarining unumdorligini saqlash, yaylov hosildorligini takror ko'paytirish va tiklashga yo'naltirilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Yaylovlarni muhofaza qilish quyidagilar orqali ta'minlanadi:

- ❖ yaylovlardan foydalanish, ularni muhofaza qilish, takror ko'paytirish va tiklash bo'yicha qoida va me'yorlarni belgilash;

- ❖ yaylovlardan foydalanish bo'yicha cheklov va taqiqlarni belgilash;
- ❖ yaylovlardan o'zboshimchalik bilan foydalanish, uning o'simlik qoplamini payhon qilish, yaylov rejimi buzilishining oldini olish va to'xtatish;
- ❖ yaylovlarning monitoringini o'tkazish, yaylovlardan foydalanish, ularni muhofaza qilish, takror ko'paytirish va tiklash ustidan davlat nazoratini o'rnatish;
- ❖ yaylovlar to'g'risidagi qonun hujjatlarni buzganligi uchun yuridik va jismoniy shaxslarni javobgarlikka tortish;
- ❖ qonun hujjatlarga muvofiq yaylovlarni muhofaza qilish bo'yicha boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Mustaqil o'rganish uchun savollar

1. Qishloq xo'jaligi yerlarida qanday korxona, muassasa va tashkilotlar faoliyat ko'rsatadi?
2. Qishloq xo'jaliker turlariga qanday yerlar kiradi?
3. Sug'oriladigan yerlar deb qanday yer uchastkalari tushuniladi?
4. Alohida qimmatga ega bo'lgan sug'oriladigan yerlarni boshqa yer uchastkalaridan qanday farqlari mavjud?
5. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar kimlarga beriladi?
6. Tovar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi sub'ektlarga kimlar kiradi?
7. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish bo'yicha yer egaliklari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarga qanday majburiyatlar yuklatilgan?
8. Qishloq xo'jalik korxonalari nima va unga yer uchastkasi qanday huquq asosida beriladi?

3-BO'LIM. YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY OMILLARI. YER SOLIG'I VA IJARA HAQI

8-BOB. YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY OMILLARI. YER SOLIG'I VA IJARA HAQI

8.1. YER UCHASTKASI IJARASI

Yer uchastkasi shartnoma asosida ma'lum muddatga haq evaziga yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga berilishi mumkin.

Davlat mulkidagi yer uchastkalarini ijaraga shartnoma asosida quyidagi davlat hokimiyati organlari beradilar:

- ❖ O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman va shahar hokimlari belgilangan vakolatlari doirasida;
- ❖ chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari;
- ❖ xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Ijaraga berilgan yer uchastkasi yoki uning bir qismini ikkilamchi ijaraga berish taqiqlanadi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

YER UCHASTKALARINI IJARAGA BERISH MUDDATLARI

Davlat mulkidagi yer uchastkalari ijaraga quyidagi muddatlarga beriladi:

1) qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun mo'ljallangan yer uchastkalari uzoq muddatli ijaraga, ellik yilgacha, lekin o'ttiz yildan kam bo'lmagan muddatga:

- ❖ qishloq xo'jalik tashkilotlariga tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni yuritish uchun;
- ❖ tajriba-ishlab chiqarish, o'quv, o'quv-tajriba va o'quv-ishlab chiqarish xo'jaliklariga, ilmiy-tadqiqot va boshqa qishloq xo'jalik tashkilotlariga ilmiy-tadqiqot va o'quv maqsadlari, tovar qishloq xo'jaligini yuritish va ilg'or tajribani targ'ib qilish uchun;
- ❖ noqishloq xo'jalik tashkilotlariga yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun;

❖ O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga fermer xo'jaligini yuritish uchun;

2) *qisqa muddatli ijaraga, o'n yilgacha, lekin besh yildan kam bo'lmagan muddatga:*

❖ yuridik va jismoniy shaxslarga shahar va shaharchalarning umumiy foydalanishdagi yerlaridan yengil tipdagi bino va inshootlar joylashtirish uchun;

❖ qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ham berilishi mumkin.

Ijaraga berilgan davlat mulkidagi yer uchastkalari oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash ob'ekti bo'lishi mumkin emas. Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi kreditlar olish uchun garovga qo'yilishi mumkin.

Fermer xo'jaliklari kreditlar olish uchun yer uchastkasiga bo'lgan uzoq muddatli ijaraga olish huquqini ijaraga beruvchining rozilgisiz garovga qo'yishlari mumkin.

Yer uchastkalari ijarasining shartlari va muddatlari taraflarning kelishuviga binoan ijara shartnomasida belgilanadi.

Ijara shartnomasi taraflar tomonidan imzolangan va yer uchastkasi joyida dalolatnoma bo'yicha topshirilgandan keyin tuzilgan hisoblanadi.

IJARAGA OLINGAN YER UCHASTKALARIDAN FOYDALANISH

XUSUSIYATLARI

Ijarachi yer uchastkalari ijara shartnomasining amal qilish muddati tugaganidan keyin shartnomani yangilashda boshqa teng sharoitlarda ustun huquqqa ega.

Ijaraga oluvchi ijaraga olingan yer uchastkasida o'z mablaglari hisobidan va ijaraga beruvchining roziligi bilan sug'orilmaydigan yerlarda sug'orish shahobchalari, zovurlar qurib ularni o'zlashtirsa, tuproq unumdorligini oshirsa va yer uchastkasining holatini yaxshilash bo'yicha boshqa chora-tadbirlar amalga oshirsa, ijaraga oluvchi, shartnoma bekor bo'lganidan keyin, bu yaxshilashlar qiymatini to'lashni talab qilish huquqiga ega.

Bino, inshoot yoki boshqa ko'chmas mol-mulkka nisbatan mulk huquqi, xo'jalik yuritish huquqi yoki ularni operativ boshqarish huquqi boshqa shaxsga o'tgan taqdirda, ana shu ob'ektlar bilan birgalikda mazkur ob'ektlar joylashgan hamda ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan yer uchastkasiga ijara huquqi ham o'tadi. Yer uchastkasiga ijara huquqining o'tishi tuman (shahar) hokimi tomonidan yangi yerdan foydalanuvchi bilan ijara shartnomasini tuzish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

Ijaraga olingan yer uchastkasining maydoni yoki shartnoma shartlari o'zgargan hollarda, ijaraga beruvchi va ijarachi o'rtasida ijara shartnomasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida bitim tuziladi.

Yer uchastkalarini ijaraga olish shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish va uning shartlarini o'zgartirish taraflarning kelishuvi bilan, bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda esa, sudning hal qiluv qarori bilan amalga oshiriladi.

Davlat mulkidagi yer uchastkalarini ijaraga berish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

8.2. YER RENTASI VA UNING TURLARI.

Yer rentasi yer egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirish (realizatsiya qilish)ning shaklidir. Yer rentasining bir qancha tarixiy ko'rinishlari mavjud. *Masalan uch shakldagi:* barshchina (ishlab berish), obrok (natural soliq) va pul solig'i shakllaridagi feodal rentalari shular jumlasidandir. Hozirgi paytda turli mamlakatlarda mavjud renta vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlariga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

Absolyut yer rentasi, differentsial (tabaqalashgan) renta I va II, monopol renta, qazilma boyliklar, qurilishlar joylashgan yerlardan olinadigan renta.

Rentaning mohiyatini tushunishdagi asosiy qiyinchilik tadbirkorlar o'rtasida qayta taqsimlanmaydigan qo'shimcha sof daromadning vujudga kelishi shart-sharoit va sabablarini ochib berilishi hisoblanadi. Bunday holat vujudga kelishining sabablaridan biri samarali xo'jalik yuritish uchun yaroqli bo'lgan

yerlarning cheklanganligi va qayta tiklab bo'lmazligida o'z ifodasini topadi. Ikkinchi sababi - yerga yoki boshqa tabiiy resursga mulkchilik ob'ekti yoki xo'jalik yuritish ob'ekti sifatidagi monopoliyaning mavjuddigi hisoblanadi. Uchinchi sababi esa, ko'p mamlakatlarda qishloq xo'jaligidagi kapital uzviy (organik) tuzilishi, ya'ni doimiy va o'zgaruvchi kapital o'rtasidagi nisbatning pastligi hisoblanadi.

Farmonda shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklarining teng huquqligini saqlab qolgan fermer xo'jaliklarini ustuvor rivojlantirishga alohida urg'u berildi.

Yer rentasi (nem. Rente - ortga qaytarilgan) - yer egasining o'z yerini tabiiy resurs tarzida ijaraga taqsim etganligi uchun oladigan daromadi; bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan yaratilgan qo'shimcha mahsulotning yer egalari tomonidan mulk egaligi huquqiga ko'ra o'zlashtiriladigan qismi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari tabiatan cheklanganligi sababli inson yer resurslarini ko'paytirishga qodir emas, barcha yerlar mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan egallab olinadi va yerga xo'jalik ob'ekti sifatida monopoliya vujudga keladi. Natijada yer bilan bog'liq renta munosabatlari paydo bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida yer egasi foydalanuvchilardan yerdan foydalanganlik uchun to'lov oladi, ya'ni yer egasi (davlat, shirkat, xususiy shaxs) faqat yer egasi bo'lganligi uchun yaratilgan qo'shimcha mahsulotning bir qismini ijara haqi ko'rinishida o'zlashtirib oladi. Davlat oladigan yer solig'i, xususiy yer egalari yerdan foydalanganlik uchun undiradiganto'lovlar yer rentasi hisoblanadi.

Hozirgi davrda Yer rentasining asosan, differensial renta va absolyut renta ko'rinishlari mavjud. Yer uchastkalarining tabiiy va iqtisodiy unumdorligi hamda joylashgan o'rnidagi farqlar natijasida olinadigan qo'shimcha sof daromad - differensial renta deyiladi (Differensial renta). Ko'pgina mamlakatlarda sifatidan qat'i nazar ekin ekiladigan yerning xususiy mulk bo'lishi uni ijarachilarga foydalanish uchun berishdan muqarrar suratda daromad keltiradi.

Yer egalari yerni ishlovchi ijarachilarga foydalanish uchun ijaraga berishi va ulardan yerdan foydalanganlik uchun to'lovlar olishi natijasida absolyut yer rentasi vujudga keladi. Shuningdek, rentaning yana bir turi monopol renta ham mavjud.

Boshqa yerda uchramaydigan tabiiy sharoit, ba'zan noyob qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun imkoniyat yaratadi. Bunday mahsulotlar monopol narxlarda sotiladi. Bu narxlarning yuqori bo'lishi ko'pincha to'lovga qodir talab darajasi bilan belgilanadi. Natijada monopol narxlar shunday mahsulotlarning individual qiymatidan ancha yuqori bo'lishi mumkin. Bu esa yer egalariga monopol renta olish imkoniyatini beradi (yana. q. Renta).

Shunday qilib, renta o'z turlaridan qat'iy nazar, u to'lovchilar uchun xarajat, yer egalari uchun esa daromad hisoblanadi. U bir tomondan, doimiy xarajatlarni shakllantirsa, ikkinchi jihatdan, qat'iy belgilangan daromadni tashkil etadi.

Mulkdan haq to'lash sharti bilan ma'lum muddat foydalanish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar ijara munosabatlari deb ataladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yer faqat ijaraga berilmay sotiladi va sotib olinadi.

Yerga xaridor uni yer keltiradigan daromad uchun sotib oladi. Ya'ni noaniq uzoq vaqt davomida doimo barqaror ravishda daromad olishga bo'lgan huquq sotib olinadi.

Sotiladigan yer uchastkalarining bahosi bevosita u keltiradigan ijara haqi bilan bog'liq. Ssuda protsentiga ham bog'liq.

Agrosanoat birlashmalari va kombinatlari agrobiznesning yana bir turlaridir.

Agrosanoat birlashmalari bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog'liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir necha xo'jalik hamda korxonalarni birlashtiradi. Masalan, bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar, ular mahsulotni qayta ishlovchi sex va zavodlar, yetkazib beruvchi savdo-sotiq korxonalari bir texnologik jarayonga birlashib agrosanoat birlashmalarini tashkil qiladi. Birlashma ishtirokchilari ishlab chiqarish,

xo'jalik va moliyaviy mustaqilliklarini saqlab qolishi bilan birga, ularning umumiy mulki ham tarkib topib boradi.

Agrosanoat kombinatlari qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va iste'molchiga yetkazib berishgacha barcha texnologik jarayonga xizmat qiluvchi xo'jalik va korxonalarning ma'lum bir hududida birlashuvidir. Agrobiznes turiga ko'ngilli vapaychilik mablag'lari asosida tashkil qilingan turli xil uyushma va ittifoqlarni ham kiritish mumkin.

Qishloq xo'jaligida davlat korxonalari, jamoa xo'jaliklari va shirkatlari, turli xil mulkchilik asosida tashkil qilingan ko'shma korxonalar ham agrobiznes turlari sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Differensial renta - yer uchastkalarining unumdorligidagi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad.

Differentsial renta I yerning tabiiy unumdorligi bilan bog'liq bo'lgan, sanoat markazlariga, bozorlarga va aloqa yo'llariga yaqin joylashgan serunum yer uchastkalarida vujudga keladi.

Misolimizdagi uch xil yer uchastkalaridan olingan mahsulotning ijtimoiy qiymati bir xil, ya'ni 10000 so'mni tashkil qiladi. Yalli hosildorlik A uchastkasida 20 tonna, B va V uchastkalarda 25 va 30 tonnani tashkil qiladi. Har bir uchastkadan turlicha hosil olinganligi tufayli ularda yetkazilgan mahsulotlarning individual qiymati ham turlicha bo'lib chiqadi. ya'ni, A uchastkasida har bir mahsulot birligining qiymati 500 so'm bo'lsa, B uchastkasida 400 so'm, V uchastkasida esa 333 so'mni tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati yomon uchastkada yetishtirilgan mahsulot narxida sotiladi (misolimizda 500 so'm). Natijada yomon yer uchastkasi (A) o'zining yakka ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash va foyda R. olish imkoniga ega bo'ladi. O'rtacha (B) va yaxshi (V) yer uchastkalarida esa yomon yer uchastkasi (A)ga nisbatan 2500 va 5000 so'm miqdorda qo'shimcha daromad olinadi.

Bu olingan qo'shimcha daromad yerning tabiiy unumdorligi bilan bog'liq bo'lgan differentsial renta I ni tashkil qiladi. Differentsial renta II xo'jaliklarni

intensiv rivojlantirish, yerning hosildorligini oshirish uchun qo'shimcha xarajatlar sarf qilish bilan, ya'ni qishloq xo'jaligida kimyoviy o'g'itlarni qo'llash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish darajasi bilan bog'liq holda vujudga keladi.

Differentsial renta II ning hosil bo'lishi Misolimizda yerga qo'shimcha 5 ming so'm xarajat sarf qilish natijasida qo'shimcha 20 tonna mahsulot olinsa, u holda birinchi yilga nisbatan qo'shimcha olingan 10 ming so'm daromad differentsial renta II ni tashkil etadi.

Bunday intensiv rivojlanish qishloq xo'jaligida bosh yo'l hisoblanadi. Chunki qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirmay turib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni va jamiyat a'zolarining o'sib borayotgan talabini qondirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish uchun alohida e'tibor beriladi. Buning uchun qishloq xo'jaligini agrar sanoatlashgan asosga qo'yish, intensivlashtirishni tezkorlik bilan amalga oshirish choralari ishlab chiqilishi lozim. Keyingi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligini zamonaviy texnika bilan ta'minlash uzluksiz o'smoqda. Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish uchun ajratilgan kapital mablag'lar ham ortmoqda.

Agar hamma joyda bir xil xarajat qilinib, hosildorlik bir xil oshirilsa edi, unda hech qanday differentsial renta II bo'lmas edi. Gap shundaki, yer birligiga sarflangan bu xarajatlar turli hududlarda, viloyatlarda, xo'jaliklarda turlicha darajada amalga oshiriladi va natijada hosildorlik ham turlicha oshadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotining ijtimoiy qiymati bilan yakka tartibdagi qiymati o'rtasidagi tafovut xo'jaliklarning ustama qo'shimcha mahsulotini tashkil qiladi. ya'ni, differentsial rentaning har ikkala ko'rinishini (renta I va II ni) o'z ichiga oladi.

Differentsial renta I va II mahsulotning muayyan ijtimoiy qiymati bilan zona bo'yicha yoki alohida olingan xo'jalikning individual qiymati o'rtasidagi tafovutdan iboratdir.

Shu hosil qilingan daromadlar davlat bilan xo'jalik o'rtasida taqsimlanadi. Uning davlatga to'langan qismi yer rentasi ko'rinishini oladi (chunki bizda yer davlat mulkidir).

Differentsial renta I yuqorida qarab chiqilganidek, xo'jaliklar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiiy sharoitda vujudga keladi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi korxonalarida hosil qilingan bu xildagi renta yer davlat mulki bo'lganligi sababli uning manfaatlari yo'lida sarf qilish maksadida markazlashtirilgan davlat fondida (byudjetida) to'planishi lozim. Bu hol o'rta va yaxshi unumli yerda joylashgan xo'jaliklarning iqtisodiy manfaatdorligiga putur yetkazmaydi, balki boshqa xo'jaliklar bilan ozmi-ko'pmi iqtisodiy sharoitlarni tenglashtirish imkonini beradi. Markazlashtirilgan davlat fondiga o'ttan bu mablag'larni (differentsial renta I), mamlakat oldida turgan vazifalarni amalga oshirish, xususan yangi yerlarni o'zlashtirish va yer unumdorligini oshirish bilan bog'liq bo'ltan tadbirlarni amalga oshirish uchun yo'naltirilishi mumkin bo'ladi.

Differentsial renta II yerdan intensiv foydalanish, ya'ni uning iqtisodiy qismi xo'jaliklarning o'zlarida qoldirilishi mantiqan to'g'ri bo'ladi. Uning faqat bir qismi davlat fondiga jalb qilinishi mumkin, chunki davlat ma'lum darajada bu rentaning hosil qilishda o'z hissasini qo'shadi, ya'ni transport yo'llari qurilishiga, irrigatsiya-melioratsiya ishlarini amalga oshirish uchun kapital mablag'lar sarflaydi, texnikalar, kadrlar, mineral o'g'itlar yetkazib beradi. Shunday qilib, differentsial renta I va differentsial renta II yer egasi bo'lgan davlat bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida taqsimlanadi.

Absolyut renta. Ko'pgina mamlakatlarda qishloq xo'jaligida yerga xususiy mulkchilik monopoliyasi sharoitida ishlab chiqarishni olib borishga to'g'ri keladi.

Hozirgi davrda yerga xususiy mulkchilik bilan bir qatorda boshqa mulkchilik shakllari ham mavjud. Masalan, davlat mulki, vaqf (machit, cherkov) mulklari va boshqalar.

Yerga bo'lgan bu mulkchilik (shaklidan qat'iy nazar) monopoliyasi ijaraga beriladigan barcha yer uchastkalarining sifatidan qat'iy nazar, yer egalariga

absolyut renta, deb atalgan rentani olishga imkon beradi. Absolyut yer rentasining vujudga kelish mexanizmi shundan iboratki, yer egalari yerni ishlovchi ijarachilarga foydalanish uchun ijaraga beradilar va ulardan yerdan foydalanganlik uchun to'lovlar oladilar. Mana shu to'lov absolyut yer rentasi deb nom olgan. Agar yer ijaraga berilganda shu yerda turli xil inshootlar, binolar qurilgan bo'lsa, ularning ijara haqi alohida hisoblanadi.

Tarixan shunday bo'lib qolganki, ko'pgina mamlakatlarda, jumladan, bizning mamlakatimizda ham qishloq xo'jaligidagi kapitalning uzviy tuzilishi sanoatdagidan pastdir. Shuning uchun qishloq xo'jaligida yaratilgan tovarlarning bozor qiymati ishlab chiqarishning ijtimoiy qiymatidagi qo'shimcha qiymat miqdori jamiyatda shakllangan o'rtacha foydadan ortiq bo'ladi. Qishloq xo'jalik tovarlarining bozor narxi bilan ijtimoiy ishlab chiqarish narxi o'rtasidagi bu tafovut absolyut renta manbai bo'lib xizmat qiladi.

Renta nazariyasiga ko'ra qishloq xo'jaligida rentaning yana bir turi monopol renta ham mavjud bo'ladi. Boshqa yerda uchramaydigan tabiiy sharoit, ba'zan noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari (uzumning alohida navlarini, tsitrus ekinlari, choy va hokazolarning alohida turlarini) yetishtirish uchun imkoniyat yaratadi. Bunday tovarlar monopol narxlar bilan sotiladi. Bu narxlarning yuqori bo'lishi ko'pincha to'lovga qodir talab darajasi bilan belgilanadi. Natijada monopol narxlar shunday mahsulotlarning individual qiymatidan ancha yuqori bo'lishi mumkin. Bu esa yer egalari monopol renta olish imkonini beradi.

Monopol renta - alohida tabiiy iqlim sharoitiga ega bo'lgan, noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladigan yerlardan olinadigan renta. Bunday renta noyob mahsulotlar (choy, kofe, sitrus o'simliklar mevasi, maxsus qizil yog'och va boshq.) yetishtirilishidan paydo bo'ladi. Noyob mahsulotlarning taklifi oz bo'lsada, talabi katta.


Ushbu mahsulotlarning taklifi o'zgaruvchan bo'lmaydi, chunki ular narxining o'zgarishi, ularni oz yoki ko'p ishlab chiqarishni ta'minlay olmaydi. Shu sababli kamyob mahsulotlar monopol narxda sotiladiki, bu narx ishlab chiqarishga ketgan

xarajatlardan ancha yuqori turadi, natijada yer egalari monopol renta olishga muvaffiq bo'ladilar. Bunday renta sharoiti noyob yerlar uchun, boshqalariga qaraganda, yuqori ijara haqi belgilanishida ifoda etiladi.

Undirma sanoatda renta - foydali qazilma konlarining joylashishi va ularning boyligidagi farqlar natijasida vujudga keladi.

Yer osti qatlamida foydali qazilma boyliklarning joylashganligi jihatidan ham, konning boyligi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Xuddi qishloq xo'jaligiga o'xshab, o'rta, yaxshi va o'ta yaxshi konlarda ish yurituvchi korxonalar mavjud.

Qazilma boyliklarni yerdan ajratib bo'lmaydi, uning ustidagi boylik yer bilan birgalikda mulk hisoblanadi. Mulk egasi undan o'zigina foydalansa qo'shimcha foyda oladi. Konni ijaraga olgan sub'ekt mulk egasiga undan foydalanganligi uchun renta to'laydi. Undirma sanoatdagi renta tuproq hosildorligiga emas, balki yer qatridagi qazilma boyliklarning oz ko'pligi, sifati, qazib olish xarajatlariga bog'liq bo'ladi.



Agrosanoat majmuasi (ASM) - bu qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilanshug'ullanuvchi iqtisodiyot tarmoqlaridir. *ASM to'rtta sohani o'z ichiga oladi.*

- ❖ birinchi soha qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga texnika xizmati ko'rsatish bilan band bo'lgan tarmoqlar;
- ❖ ikkinchi soha - qishloq xo'jaligining o'zi;
- ❖ uchinchi soha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga yetkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish);

❖ to'rtinchi soha odamlar hayoti va faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan infratuzilma (yo'l-transport xo'jaligi, aloqa, moddiy-texnika xizmati, mahsulotni saqlash tizimi, ombor va transport xo'jaligi)dan iborat.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarishga xizmat qiladigan tarmoqlarni, ijtimoiy infratuzilma odamlar turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalarni (uy-joy, madaniy-maishiy xizmat, savdo, umumiy ovqatlanish va hokazo) o'z ichiga oladi.

8.3. YER SOLIG'I

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara to'lovi tarzda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara to'lovi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yer solig'i to'laydi.

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar (bundan buyon ushbu bobda soliq to'lovchilar deb yuritiladi) deb e'tirof etiladi.

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi. Bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijaraga (lizing) berilgan (olingan) ko'chmas mulk ob'ektlari bo'yicha ijaraga oluvchi (lizing oluvchi) soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun soliq to'lovchi deb e'tirof etiladi.

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining (bundan buyon ushbu bobda soliq deb yuritiladi) soliq solish ob'ektidir.

Quyidagi yer uchastkalari soliq solish ob'ekti sifatida hisoblanmaydi:

- 1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyati doirasida foydalaniladigan yerlar;
- 2) aholi punktlarining, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, shaxobcha yo'llar, sug'orish tarmoqlari, kollektorlar, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi umumiy foydalanishdagi yerlar);
- 3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;
- 4) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, istirohat bog'lari, sayilgohlar, xiyobonlar, dam olish uylari, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari, aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun belgilangan joylar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);
- 5) davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarining (bundan ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalar mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlarining, milliy bog'larning yerlari;
- 6) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar - tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika hamda davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

- 7) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar - aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yer uchastkalari;
- 8) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar - tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan moddiy madaniy meros ob'ektlari, xotira bog'lari egallagan yer uchastkalari;
- 9) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;
- 10) yuridik shaxs balansida bo'lgan va fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan ob'ektlar egallagan yerlar;
- 11) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yig'ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari);
- 12) ko'p kvartirali uylar egallagan yerlar, bundan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari egallagan yer uchastkalari mustasno;
- 13) suv fondi;
- 14) zaxiralar.

Agar ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan yer uchastkalari xo'jalik faoliyatini yuritish uchun foydalanilsa, ular ushbu bobda belgilangan tartibda soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

Quyidagilar soliq bazasidir:

- ❖ qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha - ushbu Kodeksning 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasining umumiy maydoni;
- ❖ qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha - ushbu Kodeksning 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq aniqlangan normativ qiymati, meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi

korxonalari uchun meva-sabzavotchilik mahsulotlari egallagan yerlar uchun esa - yer uchastkasining umumiy maydoni.

Yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, soliq bazasi yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq bazasi yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda soliq imtiyoziga bo'lgan huquq vujudga kelgan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Soliq imtiyoziga bo'lgan huquq bekor qilingan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq tugatilganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi (ko'paytiriladi).

Soliq to'lovchi soliq to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirganda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan yer uchastkasi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmaganda, soliq bazasi soliqni to'lash nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy sof tushum hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanadigan energiya manbalari (*nominal quvvati 0,1 MVt va ko'proq*) uskunalari egallagan yer uchastkalari bo'yicha ular ishga tushirilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga soliqdan ozod etiladi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

- ❖ madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish ob'ektlari egallagan yerlar;
- ❖ sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

- ❖ shahar elektr transporti yo‘llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;
- ❖ aholi punktlarining suv ta‘minoti va kanalizatsiya inshootlari (*magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o‘xshash inshootlar egallagan yerlar*);
- ❖ magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (*ko‘paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj*) stansiyalari, issiq suv ta‘minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o‘xshash inshootlar egallagan yerlar;
- ❖ ixota o‘rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ixota o‘rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: *o‘rmonlarning daryolar, ko‘llar, suv omborlari va boshqa suv ob‘ektlari sohillari bo‘ylab o‘tgan taqiqlangan mintaqalari; o‘rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sohadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; eroziyadan saqlaydigan o‘rmonlar; o‘rmonlarning temir yo‘llar va avtomobil yo‘llari yoqalab o‘tgan ixota mintaqalari; cho‘l va chala cho‘l zonalaridagi o‘rmonlar; shahar o‘rmonlari va o‘rmon-bog‘lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko‘kalamzorlashtirilgan zonalar atrofidagi o‘rmonlar; suv ta‘minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o‘rmonlar; kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o‘rmonlar; alohida qimmatga ega bo‘lgan o‘rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘rmonlar*;
- ❖ tomchilatib sug‘orish qo‘llaniladigan yerlar - tomchilatib sug‘orish tizimi joriy etilgan oyning boshidan e‘tiboran besh yil muddatga;

- ❖ qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun yangi o‘zlashtirilayotgan yerlar - vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ularni o‘zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o‘zlashtirilgan vaqtdan e’tiboran besh yil mobaynida;
- ❖ melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug‘oriladigan yerlar - vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ishlar boshlanganidan e’tiboran besh yil muddatga;
- ❖ yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat’i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o‘tqazilgan yangi ko‘chatlar uchun beriladigan soliq imtiyozi muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e’tiboran boshlanadi, bahorda o‘tqazilgan ko‘chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1 yanvaridan e’tiboran boshlanadi;
- ❖ ilmiy tashkilotlarning, qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o‘quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o‘quv-tajriba xo‘jaliklarining bevosita ilmiy hamda o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan qishloq xo‘jaligi ahamiyatiga molik bo‘lgan yerlar va o‘rmon fondining yerlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o‘tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to‘lashdan ozod qilinadi.

Ushbu moddada belgilangan soliq imtiyozlari belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha soliq stavkalari 1 gektar uchun mutlaq miqdorda belgilanadi. Soliq stavkalarining aniq miqdori O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan belgilanadi.

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha soliq stavkalari qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda, meva-

sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalari uchun meva-sabzavotchilik mahsulotlari egallagan yerlar uchun esa - 1 gektar uchun mutlaq miqdorda belgilanadi.

Quyidagilar egallagan yer uchastkalari uchun soliq stavkasiga 0,1 koeffitsient qo'llaniladi:

- ❖ yagona ishtirokchilari nogironlarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etadigan hamda nogironlarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar egallagan yerlar;
- ❖ elektr uzatish liniyalari, ularning podstantsiyalari va inshootlari egallagan yerlar;
- ❖ umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;
- ❖ umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'l stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ixota daraxtzorlari egallagan yerlar;
- ❖ magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stansiyalari, yong'inga qarshi va avariya qarshi stansiyalar, quvurlarni katodli himoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, quvurlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar band etgan yerlar;

- ❖ samolyotlarning uchish-qo‘nish maydonlari, yerda boshqarish yo‘lkalari va to‘xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr yoritish uskunalari egallagan yerlar;
- ❖ O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirish Davlat dasturlariga kiritilgan ob’ektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar - qurilishning normativ muddati davrida;
- ❖ konservatsiyaga qo‘yilishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan ob’ektlar egallagan yerlar - ularning konservatsiyasi davrida.

Ushbu moddaning uchinchi qismi yuridik shaxslarga belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkalariga tatbiq etiladi.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasining, yerdan foydalanuvchining yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet bali pasaygan) taqdirda, soliq yuridik shaxslar tomonidan yerning sifati yomonlashguniga qadar mavjud bo‘lgan bonitet balidan kelib chiqqan holda to‘lanadi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yaxshilangan taqdirda (bonitet bali oshganda), soliq yuridik shaxslar tomonidan tuproq bonitirovkasi o‘tkazilgan yildan keyingi yilning boshidan yangi bonitet balidan kelib chiqqan holda, qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymati bo‘yicha, agrotexnik tadbirlar tugagan davrlarda qayta hisob-kitob qilinmasdan to‘lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma‘muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun soliq qishloq xo‘jaligi yerlari uchun belgilangan soliq stavkalarining ikki baravari miqdorida to‘lanadi.

Qurilishi tugallanmagan ob’ektlar egallagan yer uchastkalari uchun, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq ikki baravar soliq stavkalari bo‘yicha to‘lanadi.

Bo‘sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek qurilishi tugallanmagan

ob'ektlarga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin hamda ushbu Kodeksning 428-moddasida ko'rsatilgan soliq imtiyozlari ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Tugallanmagan qurilish ob'ektlari jumlasiga ushbu qurilish ob'ektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan ob'ektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu ob'ektlarning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan ob'ektlar kiradi.

Yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining to'rt baravari miqdorida belgilanadi.

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- ❖ aylanmadan soliq to'lovchilar uchun - yillik soliq summasining to'rt dan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-kunigacha;
- ❖ aylanmadan soliq to'lovchi bo'lmagan soliq to'lovchilar uchun - yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-kunigacha.

Soliq davri davomida soliq to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun soliqni to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- ❖ hisobot yilining 1 sentabriga qadar - yillik soliq summasining 30 foizi;
- ❖ hisobot yilining 1 dekabriga qadar - soliqning qolgan summasi.

8.4. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmagan holdagi dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan

yer solig'ini soliq to'lovchilari (bundan buyon ushbu bobda soliq to'lovchi deb yuritiladi) deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara to'lovi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga nisbatan jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imoratlar va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi o'tgan yer uchastkalari uchun yer solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlarini inobatga olgan holda merosxo'rlardan undiriladi.

Quyidagi yer uchastkalari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining (bundan buyon ushbu bobda soliq deb yuritiladi) soliq solish ob'ektidir:

- 1) dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- 2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- 3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;
- 4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;
- 5) meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;
- 6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib sotib olingan yer uchastkalari;
- 7) tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob'ekti bo'lmaydi, bundan ushbu modda birinchi qismining 7-bandida ko'rsatilganlar va ko'p kvartirali uylarda joylashgan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari mustasno.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari bo'yicha yer uchastkalarining maydoni soliq bazasidir.

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari bo'yicha soliq bazasi ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yer maydonlari bo'yicha soliq bazasi o'z xodimlariga yer uchastkalarini bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

- 1) "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;
- 2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

- 3) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;
- 4) yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan birga alohida uyda yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi, shuningdek fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi;
- 5) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;
- 6) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan) fuqarolar. Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironligi bo'lgan shaxsning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;
- 7) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar - qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga. Mazkur imtiyoz energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida energiya ta'minoti tashkilotlari tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida beriladi.

Soliq kodeksining 436-moddaning birinchi qismida belgilangan soliq imtiyozlari, bundan 5-bandda ko'rsatilgani mustasno, yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organda ro'yxatdan o'tkazgan jismoniy shaxslarga beriladi. Bunda mazkur soliq imtiyozlari soliq to'lovchining tanlovi bo'yicha faqat bitta yer uchastkasiga berilishi mumkin, bundan ushbu modda birinchi qismining 7-bandida ko'rsatilgan shaxslar mustasno.

Ushbu moddada ko'rsatilgan soliq imtiyozlariga ega bo'lgan shaxslar soliq imtiyozlarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarini yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

Soliq stavkalari 1 kv.m uchun mutlaq miqdorlarda belgilanadi. Soliq stavkalarining aniq miqdori O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi Qonuni bilan belgilanadi.

Hududlarning va faoliyat amalga oshiriladigan joyning xususiyatlarini hisobga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar belgilash huquqiga ega.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari egallagan yer uchastkalari uchun soliq jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilangan soliq stavkalari bo'yicha undiriladi hamda ushbu Kodeksning 436-moddasida ko'rsatilgan imtiyozlar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek normativ muddatida qurilishi tugallanmagan ob'ektlar joylashgan yer uchastkalariga nisbatan qonun

hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkasi bo'yicha to'lanadi.

Yakka tartibda uy-joy qurish va turar joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismiga qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish yoki uni obodonlashtirish amalga oshirilmagan taqdirda soliq uch baravar miqdorda to'lanadi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda, soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining uch baravari miqdorida belgilanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari har yili 1 martdan kechiktirmay soliq summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasini jismoniy shaxslarga imzo qo'ydirib yoki to'lov xabarnomasi olinganligi faktini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda topshiradi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgarganda va imtiyozlarga bo'lgan huquq yuzaga kelganda (tugatilganda) soliq organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida soliqni qayta hisob-kitob qilishi hamda soliq to'lovchiga soliq summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishi kerak.

Yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan e'tiboran jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliqni to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran tugatiladi (kamaytiriladi).

Soliq bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyozga bo'lgan huquq yuzaga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi. Soliq bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, bu soliq mazkur huquq tugatilgan oydan keyingi oydan e'tiboran to'lana boshlaydi.

Soliq davri uchun soliqni to'lash jismoniy shaxslar tomonidan 15 aprel va 15 oktabrga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

8.5.JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I STAVKALARI

SHAHARLAR VA POSYOLKALARDA YER UCHASTKALARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN YER SOLIG'I STAVKALARI			
T/r	Shahar, viloyat	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, 1 ga uchun, so'mda	Yakka tartibda uy-joy qurishga beriladigan yerlar uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig'ining bazaviy stavkalari, 1 kv.m uchun, so'mda
1.	Angren	23 977 101	219,3
2.	Andijon	28 741 121	258,8
3.	Asaka	17 223 806	153,6
4.	Bekobod	17 192 365	153,6
5.	Beruniy	18 291 499	166,8
6.	Buxoro	23 244 127	213,0
7.	Guliston	18 113 745	166,8
8.	Denov	18 176 438	166,8
9.	Jizzax	23 244 127	213,0
10.	Zarafshon	16 459 361	146,4
11.	Kattaqo'rg'on	17 223 806	153,6
12.	Kogon	16 459 361	146,4
13.	Kosonsoy	17 223 806	153,6
14.	Marg'ilon	16 459 361	146,4
15.	Navoiy	23 244 127	213,0
16.	Namangan	28 741 121	258,8

17.	Nukus	22 783 377	213,0
18.	Nurafshon	14 326 971	128,0
19.	Oqtosh	17 223 806	153,6
20.	Olmaliq	23 977 101	219,3
21.	Ohangaron	17 192 365	153,6
22.	Pitnak	16 459 361	146,4
23.	Samarqand	28 741 121	258,8
24.	Sirdaryo	15 820 533	146,4
25.	Taxiatosh	18 291 499	172,6
26.	Termiz	20 459 076	192,7
27.	Toshkent:		
	1 hudud	181 022 147	1 037,9
	2 hudud	144 817 718	881,0
	3 hudud	108 613 288	724,0
	4 hudud	72 408 859	567,2
	5 hudud	36 204 430	410,3
28.	To‘rtko‘l	15 820 533	144,7
29.	Urganch	23 244 127	213,0
30.	Urgut	17 223 806	153,6
31.	Uchquduq	16 459 361	146,4
32.	Uchqo‘rg‘on	17 223 806	153,6
33.	Farg‘ona	23 244 127	213,0
34.	Xiva	16 459 361	146,4
35.	Xonobod	17 223 806	153,6
36.	Xo‘jayli	19 212 855	166,8
37.	Chimboy	16 459 361	153,6
38.	Chirchiq	23 977 101	219,3
39.	Chortoq	17 223 806	153,6
40.	Chust	17 223 806	153,6
41.	Shahrisabz	16 459 361	153,3
42.	Shahrixon	17 223 806	153,6
43.	Shirin	15 820 533	146,4
44.	Yangier	15 820 533	146,4
45.	Yangiyo‘l	17 192 365	153,6
46.	Yangiobod	17 192 365	153,6
47.	G‘ijduvon	16 459 361	146,4
48.	Qarshi	23 244 127	213,0
49.	Qorasuv	17 223 806	153,6
50.	Quva	16 459 361	146,4
51.	Quvasoy	16 459 361	146,4

52.	Qo‘qon	23 244 127	213,0
53.	Qo‘ng‘irot	16 459 361	153,6
54.	Haqqulobod	17 223 806	153,6
BOSHQA KICHIK SHAHARLAR			
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi:		
	shimoliy hudud	12 962 337	119,9
	markaziy hudud	14 396 369	138,5
	janubiy hudud	15 998 633	140,1
2.	Andijon viloyati	17 223 806	153,6
3.	Buxoro viloyati	16 459 361	146,4
4.	Jizzax viloyati	16 459 361	146,4
5.	Qashqadaryo viloyati	16 459 361	153,3
6.	Navoiy viloyati	16 459 361	146,4
7.	Namangan viloyati	17 223 806	153,6
8.	Samarqand viloyati	17 223 806	153,6
9.	Surxondaryo viloyati	18 176 438	166,8
10.	Sirdaryo viloyati	15 820 533	146,4
11.	Toshkent viloyati	17 192 365	153,6
12.	Farg‘ona viloyati	16 459 361	146,4
13.	Xorazm viloyati	16 459 361	146,4
TUMAN MARKAZLARI HISOBLANGAN POSYOLKALAR VA QISHLOQ AHOLI PUNKTLARI			
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi:		
	shimoliy hudud	10 915 296	99,2
	markaziy hudud	12 124 537	116,4
	janubiy hudud	13 475 331	119,1
2.	Andijon viloyati	14 700 314	133,4
3.	Buxoro viloyati	13 936 047	125,7
4.	Jizzax viloyati	13 936 047	125,7
5.	Qashqadaryo viloyati	13 936 047	125,7
6.	Navoiy viloyati	13 936 047	125,7
7.	Namangan viloyati	14 700 314	133,4
8.	Samarqand viloyati	14 700 314	133,4
9.	Surxondaryo viloyati	15 653 149	143,6
10.	Sirdaryo viloyati	13 297 308	122,2
11.	Toshkent viloyati	14 668 965	133,4
12.	Farg‘ona viloyati	13 936 047	125,7
13.	Xorazm viloyati	13 936 047	125,7

QISHLOQ JOYLARIDA JOYLASHGAN YER UCHASTKALARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN YER SOLIG'I STAVKALARI

T/r	Respublika, viloyat	1 ga uchun yer solig'i stavkalari, so'mda:				
		yuridik shaxslarga ajratilgan yerlar uchun, zonalar bo'yicha			konlar va karerlar band qilgan yerlar uchun, zonalar bo'yicha	
		sug'oriladigan		Lalmikor yaylov	sug'oriladigan	Lalmikor yaylov
		aholi punktlarida	aholi punktlaridan tashqarida			
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi:					
	shimoliy hudud	8 176 434	7 591 397	370 655	2 144 278	72 759
	markaziy hudud	9 082 271	8 440 061	458 695	2 385 234	114 553
	janubiy hudud	10 091 373	9 380 246	504 663	2 637 127	137 599
2.	Andijon viloyati	10 320 788	9 598 416	516 207	2 947 294	149 254
3.	Buxoro viloyati	9 976 618	9 369 072	504 642	2 637 418	137 649
4.	Jizzax viloyati	9 288 551	8 783 966	470 306	1 926 539	91 748
5.	Qashqadaryo viloyati	9 288 551	8 783 966	470 306	1 857 649	91 748
6.	Navoiy viloyati	9 632 677	9 116 490	481 548	2 293 504	114 566
7.	Namangan viloyati	9 472 022	9 059 204	458 695	2 798 141	137 649
8.	Samarqand viloyati	10 894 006	9 999 657	550 456	3 486 134	171 906
9.	Surxondaryo viloyati	11 926 180	10 779 485	596 372	4 518 106	229 388
10.	Sirdaryo viloyati	9 288 551	8 852 932	470 306	1 949 369	103 326
11.	Toshkent viloyati	10 894 006	9 976 618	550 456	3 451 876	171 906
12.	Farg'ona viloyati	9 976 618	9 334 447	504 642	2 591 547	125 979
13.	Xorazm viloyati	10 091 373	9 380 309	504 642	2 648 887	137 649

**QISHLOQ JOYLARIDA JOYLASHGAN YER UCHASTKALARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN AHOLIDAN
UNDIRILADIGAN YER SOLIG'I STAVKALARI**

T/r	Respublika, viloyat	0,01 ga yer uchun yer solig'i stavkasi, so'mda:			
		dehqon xo'jaligini yuritish uchun ajratilgan yerlar		lalmi yerlar	jamoa bog'dorchiligi va polizchiligi bilan shug'ullanish uchun ajratilgan yerlar
		sug'oriladigan			
		aholi punktlarida	aholi punktlaridan tashqarida		
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi				
	shimoliy hudud	4 792,1	2 402,4	479,3	2 534,3
	markaziy hudud	7 674,1	3 839,2	777,2	-
	janubiy hudud	8 525,2	4 261,6	855,6	3 135,2
2.	Andijon viloyati	9 009,9	4 501,4	893,6	3 492,1
3.	Buxoro viloyati	8 513,5	4 254,4	789,5	3 119,7
4.	Jizzax viloyati	7 979,2	3 990,8	573,4	2 242,0
5.	Qashqadaryo viloyati	7 979,2	3 990,8	565,9	2 196,5
6.	Navoiy viloyati	8 282,3	4 139,3	683,8	2 717,2
7.	Namangan viloyati	8 625,9	4 314,1	855,6	3 309,8
8.	Samarqand viloyati	9 098,3	4 550,0	1 054,6	4 114,9
9.	Surxondaryo viloyati	9 809,5	4 906,6	1 378,5	5 358,0
10.	Sirdaryo viloyati	8 045,2	4 023,6	595,2	2 300,7
11.	Toshkent viloyati	9 076,5	4 538,9	1 047,4	4 088,3
12.	Farg'ona viloyati	8 487,7	4 244,3	782,0	3 064,3
13.	Xorazm viloyati	8 525,2	4 261,6	806,6	3 135,2

1). 2 va 3-jadvallarda keltirilgan stavkalarga yer uchastkasining joylashgan joyidan kelib chiqib koeffitsientlar qo‘llanadi:

- ❖ Toshkent shahridan 20 km radius masofada - 1,30,
- ❖ Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti va viloyat markazlaridan 15 km radius masofada - 1,20,
- ❖ tumanlar markazidan 10 km radius masofada - 1,15
- ❖ boshqa shaharlardan 5 km radius masofada - 1,10.

Yer uchastkalarigacha bo‘lgan masofa shahar va tuman markazlarining ma‘muriy chegarasidan boshlab avtomobil yo‘llari bo‘ylab aniqlanadi. Yer uchastkasi ikki shaharga yaqin joylashgan hollarda, shaharning yuqoriroq funksional maqsadiga mos keluvchi koeffitsient qabul qilinadi.

2). Dehqon xo‘jaliklaridan undiriladigan yer solig‘i hisoblanganda 3-jadvalda keltirilgan stavkalarga yerning hosildorligi bilan bog‘liq ravishda koeffitsientlar qo‘llaniladi:

- ❖ tuproq boniteti 40 ballgacha bo‘lganda - 0,75,
- ❖ 41 dan 70 ballgacha - 1,0
- ❖ 70 balldan yuqori bo‘lganda - 1,25.

1 va 2-bandlarda ko‘rsatilgan koeffitsientlar tegishli soliq organlari tomonidan taqdim etiladigan yer uchastkalaridan foydalanish huquqini ro‘yxatga oluvchi davlat organlarining ma‘lumotlariga asosan qo‘llaniladi.

3). Shaharlar va posyolkalarning ma‘muriy chegaralarida joylashgan konlar va karyerlar bilan band yerlar uchun soliq 1-jadvalda keltirilgan mos hududlar uchun stavkalarga 0,1 koeffitsient qo‘llagan holda to‘lanadi.

4). Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun taqdim etilgan yer uchastkalari uchun soliq yuridik shaxslar uchun tasdiqlangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi.

5). Jamoa va yakka garajlar bilan band yer uchastkalari uchun jismoniy shaxslardan yer solig‘i yakka uy-joylar qurilishi uchun ajratilgan yer uchun tasdiqlangan stavkalar bo‘yicha undiriladi.

6). Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblashda 1-jadvalda ko‘rsatilgan bazaviy stavkalar belgilangan normalar doirasidagi yerlarga,

belgilangan normalardan ortiq bo'lgan yer uchastkalari uchun esa bazaviy stavkalarga - 1,5 oshirish koeffitsienti qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash uchun yer uchastkalarining quyidagi normativlar qo'llaniladi:

Toshkent shahri, Nukus shahri, va viloyatga bo'ysunadigan shaharlar - 0,06 gektar; boshqa aholi punktlari (dehqon xo'jaliklari bundan mustasno) - 0,1 gektar.

7). Ko'p qavatli turar-joy binolaridagi turar-joy bo'lmagan xonalar uchun yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i turar-joy bo'lmagan binolarning maydoni qavatlar soniga qarab hisoblanadi.

8). Qurilishi tugallanmagan ob'ektlar joylashgan yer uchastkalari uchun, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i ikki barobari miqdorida to'lanadi.

MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI (SABZAVOTLAR, POLIZ EKINLARI, MEVALAR, TOKZORLAR) BILAN BAND QILINGAN YERLAR UCHUN MEVA-SABZAVOTCHILIK QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDAN UNDIRILADIGAN YER SOLIG'INING BAZAVIY STAVKALARI			
T/r	Respublika, viloyat	1-toifali 1 ga yer uchun soliqning bazaviy stavkalari, so'mda	
		sug'oriladigan yerlarda	sug'orilmaydigan yerlarda
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	40 251,8	8 625,0
2.	Andijon viloyati	61 089,8	8 953,4
3.	Buxoro viloyati	52 953,4	8 688,5
4.	Jizzax viloyati	44 612,6	8 688,5
5.	Qashqadaryo viloyati	45 600,7	9 124,6
6.	Navoiy viloyati	42 918,0	8 688,5
7.	Namangan viloyati	62 947,3	9 124,6
8.	Samarqand viloyati	64 360,4	9 745,6
9.	Surxondaryo viloyati	68 652,2	8 625,0
10.	Sirdaryo viloyati	38 355,7	9 292,9
11.	Toshkent viloyati	64 484,6	11 371,2
12.	Farg'ona viloyati	56 767,7	8 953,4
13.	Xorazm viloyati	48 915,5	8 625,0

MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI (SABZAVOTLAR, POLIZ EKINLARI, MEVALAR, TOKZORLAR) BILAN BAND QILINGAN YERLAR UCHUN MEVA-SABZAVOTCHILIK QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDAN UNDIRILADIGAN YER SOLIG‘INING BAZAVIY STAVKALARIGA TUZATISH KOEFFITSIENTLARI

Yerning toifalari	Ball-bonitet	Koeffitsientlar
I	0 — 10	(bazaviy stavka)
II	11 — 20	1,50
III	21 — 30	2,25
IV	31 — 40	3,29
V	41 — 50	4,67
VI	51 — 60	6,78
VII	61 — 70	9,00
VIII	71 — 80	11,68
IX	81 — 90	14,36
X	91 — 100	17,50
	Baholanmagan yerlar	4,67

Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari uchun undiriladigan yer solig‘i stavkasi sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan qishloq xo‘jaligi yerlari uchun yer solig‘ining bazaviy stavkasi va yer uchastkasining sifat xarakteristikasi (ball-boniteti)ni hisobga oladigan tuzatish koeffitsientlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

**8.6. YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN YER SOLIG‘I
BO‘YICHA BELGILANGAN IMTIYOZLAR**

Soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi:

- 1) shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, sohil bo‘ylari, madaniy-maishiy ehtiyojlarni qondirish va aholining dam olishi uchun foydalanadigan yerlar; ariq tarmoqlari, qabristonlar va boshqalar);
- 2) jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligining, jamoa garajlarining umumiy foydalanishdagi yerlari; Ularga borish yo‘llari, ariqlar, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar kiradi;

- 3) tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga molik yerlar (davlat qo'riqxonalari, milliy va dendrologiya bog'lari, botanika bog'lari, zakazniklar, ov qilishga mo'ljallanganlari bundan mustasno, tabiat yodgorliklari), ixota daraxtzorlari egallagan yerlar;
- 4) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, xotira bog'lari, sag'analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar);
- 5) suv fondi yerlari (daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar, dengizlar, muzliklar, botqoqliklar, gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek suv havzalari sohilidagi suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan yerlar);
- 6) elektr uzatish liniyalari, podstantsiyalar, umumdavlat aloqa liniyalari va ularning inshootlari egallagan yerlar;

Yangi elektr uzatish havo va kabel liniyalarini qurish uchun yerlar vaqtincha foydalanish uchun qurilish davriga ajratiladi, elektr uzatish liniyalaridan doimiy ishlatish uchun foydalanishga esa faqat kuchlanishi 1000 V dan yuqori elektr uzatish liniyalarining tayanchlari, elektr uzatish kabel liniyalarining yer ustidagi inshootlari, kuchlanishni pasaytiruvchi podstantsiyalar, taqsimlash va seksiyalashtirish punktlari egallagan yer uchastkasigina ajratiladi. Elektr uzatish uchun tayanchlar va ulardagi inshootlarga yer maydoni yer ajratish materiallari bo'yicha qabul qilinadi. Shu munosabat bilan yer solig'ini to'lashdan qurilish davrida butun ajratilgan yer uchastkasi, foydalanish davrida esa - faqat kuchlanishi 1000 V dan yuqori elektr uzatish liniyalari tayanchlari, ulardagi inshootlar va podstantsiyalar egallagan yerlarga ozod etiladi.

Umumdavlat aloqa liniyalari va ulardagi inshootlarga havo aloqa liniyalari, ularga ilib qo'yilgan simlar va aloqa kabellari, ustunli aloqa va radiofikatsiya liniyalari, ularni belgilaydigan signal va o'lchov ustunlari (qoziqlari), radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyasi, yer usti va yer ostidagi xizmat

qilinmaydigan kuchaytirish (regeneratsiya qilish) punktlari, taqsimlovchi shkaflar, qutilar, yerga ulangan sim konturlari va boshqa aloqa inshootlari kiradi.

7) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, temir yo'llarning umumiy tarmog'i, umumiy foydalanishdagi shahar elektr transporti (shu jumladan metropoliten) va ularning inshootlari egallagan yerlar.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llariga O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan tartibda ularning indekslari va tartib raqamlarini ko'rsatgan holda tegishli ro'yxatlarga kiritilgan avtomobil yo'llari taalluqlidir.

Avtomobil yo'llarining inshootlariga ko'priklar, yo'l chetidagi ariqlar, yon tomondagi zaxira yerlar, ko'tarma ortidagi ariqlar va ko'tarmalar, tog'dagi suv ajratish kanallari, ariq ortidagi bermalar va qiyaliklarning mustahkamligini ta'minlash bermalari, avtobus bekatlari, tushishlar, traktor yo'llari, piyodalar va velosiped yo'lkalari, o'pirilish, sel, ko'chkiga qarshi va avtomobil yo'llari uchun ajratilgan yerlarda joylashtirilgan boshqa himoya inshootlari kiradi. Soliq to'lashdan ozod etiladigan yer uchastkalariga temir yo'l stansiyalari hududida bosh, stansiya va saralash temir yo'l liniyalari egallagan yerlar ham kiradi.

Sanoat va boshqa korxonalarga o'tkazilgan temir yo'llar egallagan yerlar uchun soliq belgilangan tartibda to'lanadi. Temir yo'llarning inshootlari tarkibiga zaxiralar, tuproqtepalar, yo'ldagi suv ajratish, mustahkamlash va tutib turish inshootlari, yo'llar bo'ylab qordan himoyalash va qumni mustahkamlash polosalari, tortish podstansiyalari, tonnellar va shu singari sun'iy inshootlar va yo'l qurilmalari kiradi.

Soliq imtiyozlari tramvay yo'llari va trolleybus liniyalari, metropoliten liniyalari, tramvay va trolleybus bekatlari, shu jumladan dispetcherlik punktlari, metropoliten bekatlari va shahar elektr transporti yo'llaridagi boshqa inshootlar egallagan yerlarga tatbiq etiladi. Ma'muriy va boshqa yordamchi binolar, depolar (depo hududida joylashgan elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari egallagan yerlardan tashqari), qurilish va ta'mirlash ob'ektlari egallagan yerlar uchun soliq belgilangan tartibda to'lanadi;

8) sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suzish havzalari, sportning texnik turlari ob'ektlari va boshqa jismoniy tarbiya-sogʻlomlashtirish komplekslari, onalar va bolalarning dam olish va sogʻlomlashtirish joylari, sanatoriy-kurort muassasalari va dam olish uylari, oʻquv-mashq bazalari egallagan yerlar;

9) magistral suv quvurlari, neft va gaz quvurlari, issiqlik trassalari, magistral kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, suv olish va tozalash inshootlari, shuningdek suv taʼminoti va kanalizatsiyaga tegishli boshqa ob'ektlar egallagan yerlar;

Suv taʼminoti va kanalizatsiyaga tegishli boshqa ob'ektlar tarkibiga aholi punktlarida suv quvuri va kanalizatsiya tarmogʻidagi nasos stansiyalari, kuzatish quduqlari va dyukerlar, suv minoralari va shu singari inshootlar kiradi.

Magistral gaz va neft quvurlari va ularning inshootlari egallagan yerlar. Inshootlar tarkibiga yongʻin va avariyalardan saqlash inshootlari, quvurlarni katodli himoyalash stansiyalari, ulanish tugunlari bilan birga nasos va kompressor stansiyalari, quvurlarni tozalash qurilmalari va hokazolar kiradi. Magistral issiqlik trassalari va ularning inshootlari egallagan yerlar. Issiqlik trassalarining inshootlariga nasos stansiyalari (kuchaytiruvchi, pasaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj), issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlar, issiq suv taʼminotining sirkulyasiya nasoslari kiradi;

10) samolyotlarning uchish-qoʻnish maydonlari, shu jumladan ularni yerda boshqarish yoʻllalari va toʻxtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalari joylashgan yerlar;

11) Oʻzbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan ob'ektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar - qurilishning normativ muddati davriga, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan qurilish ishlari toʻxtatib qoʻyilgan ob'ektlar egallagan yerlar;

Investitsiya dasturiga kiritilgan ob'ektlar qurilishining me'yoriy muddati tugagach, shuningdek toʻxtatib qoʻyilgan ob'ektlarni qurish davom etilgan yoki ular faoliyat koʻrsata boshlagan hollarda yer soligʻi qurilishning me'yoriy muddati

tugashidan yoki ob'ekt qurilishi yoxud undan foydalanish boshlanganidan keyingi oydan boshlab to'langan boshlaydi. Investitsiya dasturiga kiritilgan ob'ektlar qurilishiga ajratilgan yer uchastkalariga soliq solinmaydi. Agar Investitsiya dasturiga ko'ra korxona, uning alohida sexlarini ta'mirlash yoki qayta jihozlash nazarda tutilgan bo'lsa, bunday hollarda soliq imtiyoz qo'llanmaydi;

12) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

13) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari;

Ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlar seleksiyasini amalga oshirish hamda Bob doirasi tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar va ko'chatlar egallagan yer uchastkalari soliq to'lashdan ozod etiladi;

14) yangi o'zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holatini yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug'oriladigan yerlar - loyihada nazarda tutilgan muddatga, lekin ishlar boshlanganidan e'tiboran ko'pi bilan besh yilga;

yer solig'ini to'lashdan yangi o'zlashtirilayotgan va sug'oriladigan yerlar, shuningdek kapital tekislash, sug'orish tarmog'ini ta'mirlash va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash yoxud sug'orilayotgan yerlarni kompleks ta'mirlash bo'yicha meliorativ ishlar amalga oshiriladigan sug'orilayotgan qishloq xo'jalik yerlari ozod qilinadi. Agar loyihada yerlarni o'zlashtirish va meliorativ ishlarni amalga oshirish muddatlari ko'rsatilmagan bo'lsa yoki yer uchastkasi boshqa muddatlarda ishga tushirilgan bo'lsa, bunday holda meliorativ ishlar va yangi yerlarni o'zlashtirish ishlari bajarilgan yillar uchun, lekin 5 yildan ko'p bo'lmagan muddatda, yer uchastkasiga soliq to'lanmaydi;

15) zaxiradagi yerlar;

16) rekreatsion ahamiyatga molik yerlar (aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalarga berilgan yerlar: o'rmon bog'lari, bog'lar, xiyobonlar, plyajlar va boshqalar). Bunda muassasa deganda mulkdor tomonidan boshqarish, ijtimoiy-madaniy yoki notijorat tusidagi boshqa funksiyalarni bajarish uchun tashkil etilgan holda u tomonidan to'liq yoki qisman moliyalanadigan tashkilot tan olinadi;

17) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (kasalliklarning oldini olish va odamlarni davolash ishini tashkil etish uchun qulay tabiiy omillarga ega bo'lgan yerlar);

18) yakka tartibda uy-joy qurish va shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida berilgan yerlar - yer uchastkalari berilgan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga;

19) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan fuqarolik himoyasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'ektlar egallagan yerlar. Fuqarolik himoyasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'ektlar egallagan yerlar maydoni haqiqatda egallagan maydondan kelib chiqib qabul qilinadi.

Yerlardan o'z o'rnida foydalanilmagan taqdirda ushbu belgilangan imtiyozlar qo'llanilmaydi.

Quyidagi yuridik shaxslar yer solig'idan ozod qilinadilar:

a) tijorat bilan shug'ullanmaydigan yuridik shaxslar, yer uchastkalaridan tadbirkorlik faoliyati yo'lida foydalanayotganlaridan tashqari;

Agar yer uchastkalaridan notijorat tashkilotlar bevosita tadbirkorlik faoliyati yo'lida foydalansalar (ijaraga berilsa, qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirilsa va hokazo), bunday yer uchastkalari uchun soliq belgilangan tartibda to'lanadi.

Soliq solish maqsadida notijorat tashkilotlar deganda quyidagi yuridik shaxslar tushuniladi: faqat davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalanadigan, xarajatlarni qoplashga byudjetdan tasdiqlangan smetalar doirasida dotatsiya oladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar; xayriya birlashmalari,

uyushmalari va jamg'armalari, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar:

- ❖ Ijtimoiy-xayriya yoki ta'sis hujjatlarida qayd etilganidek, tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishni nazarda tutmaydigan boshqa maqsadlar uchun barpo etilgan yuridik shaxslar;
- ❖ Moliyaviy va boshqa mablag'larni mazkur tashkilot xodimlari, muassislari yoki a'zolarining shaxsiy manfaatlari yo'lida taqsimlamaydigan va investitsiyalamaydigan yuridik shaxslar (qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat uchun haqlardan tashqari);

b) madaniyat, maorif, sog'liqni saqlash va mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari, bo'ysunuvidan qat'i nazar, o'z zimmlariga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun ularga ajratilgan yer uchastkalari uchun;

Ularga quyidagilar kiradi:

- ❖ madaniyat va san'at muassasalari (kutubxonalar, filmoteka va fonotekalar, muzeylar, ko'rgazmalar, klub muassasalari, maktabgacha tarbiya muassasalari, xalq universitetlari, madaniyat va istirohat bog'lari, botanika bog'lari va hayvonot bog'lari, televidenie va radioeshittirish tahririyatlari, kitob palatalari, teatrlar, kinoteatrlar, konsert tashkilotlari va jamoalari, sirkalar, tasviriy san'at studiyalari va badiiy bezatish tashkilotlari, kinostudiyalar va ovoz yozish studiyalari, aholining buyurtmasiga ko'ra ish va xizmatlarsiz kinofilmlar tayyorlash, ovoz yozish, havaskorlik kinofilmlarini tayyorlash, ovoz yozish xizmatlari, kinofilmlar ijarasi, madaniyat va san'at xo'jaligini boshqarish);
- ❖ maorif muassasalari (oliy va o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar tayyorlash, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash, o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar tayyorlash, ishchilar va boshqa xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish, umumiy ta'lim bolalar maktablari, ishchi yoshlar uchun umumiy ta'lim maktablari, maktabgacha tarbiya, ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarni tarbiyalash muassasalari);

- ❖ sogʻliqni saqlash muassasalari (kasalxona muassasalari, moxovxonalar, dispanserlar, ambulatoriya-poliklinika muassasalari, tez va shoshilinch tibbiy yordam hamda qon quyish muassasalari, onalik va bolalikni muhofaza qilish muassasalari, sanatoriy-kurort muassasalari, sanitariya-profilaktika muassasalari, sanitariya-epidemiologiya muassasalari, sanitariya maorifi muassasalari, sud-tibbiy ekspertiza muassasalari);
- ❖ mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari (vrachlik-mehnat ekspertiza komissiyalari, qariyalar va nogironlar uchun internat uylar).

yer uchastkalari (xonalar)dan ularning asosiy faoliyati bilan bogʻliq boʻlmagan maqsadlar uchun (ijaraga berish, qishloq xoʻjaligi mahsulotini yetishtirish va hokazo) foydalanadigan madaniyat, maorif, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari yer soligʻining tegishli hissasini toʻlaydilar;

v) dehqon (fermer) xoʻjaliklari - davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan paytdan eʼtiboran ikki yil muddatga;

Yuridik shaxslar belgilangan imtiyozli davrdan keyin bir yil oʻtguniga qadar tugatilgan taqdirda, soliq summasi ularning butun faoliyat davri uchun toʻliq miqdorda undiriladi.

g) nogironlarning jamoat birlashmalari, “Nuroni” jamgʻarmasi va “Oʻzbekiston Chernobilchilari” assotsiatsiyasi mulkida boʻlgan, ishlovchilari umumiy sonining ellik foizini nogironlar tashkil qilgan yuridik shaxslar (savdo, vositachilik, taʼminot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shugʻullanuvchi yuridik shaxslar bundan mustasno)

Xodimlarning umumiy soniga korxona shtatida boʻlgan, shu jumladan oʻrindoshlik boʻyicha ishlovchilar, shuningdek korxona shtatida boʻlmagan (pudrat shartnomasi va fuqarolik-huquqiy tisdagi boshqa shartnomalar boʻyicha ishlarni bajaradigan) xodimlar kiritiladi;

Mustaqil o'rganish uchun savollar

1. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'ini to'lovchilar kimlar hisoblanadi?
2. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti nima hisoblanadi?
3. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha qanday soliq stavkalari mavjud?
4. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha qanday soliq imtiyozlari belgilangan?
5. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'ini hisoblash tartibi qanday?
6. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i qaysi byudjetga o'tkaziladi?
7. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i qanday muddatlarda to'lanadi?
8. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ini to'lovchilar kimlar hisoblanadi?
9. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti nima hisoblanadi?
10. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha qanday soliq stavkalari mavjud?
11. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha qanday soliq imtiyozlari belgilangan?
12. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ini hisoblash tartibi qanday?
13. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i qaysi byudjetga o'tkaziladi?
14. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i qanday muddatlarda to'lanadi?

9-BOB. YERLARNI MUHOFAZA QILISH

9.1. YERDAN OQILONA VA SAMARALI FOYDALANISH

Yerdan oqilona va samarali foydalanish zaruriyati, eng avvalo, uni tabiiy resurs sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan asoslanadi: foydalanishning ko'pmaqsadlilik, o'lchamlarni chegaralanganligi, boshqa resurslar bilan almashtirish bo'lmashligi, uni bir joydan boshqaga ko'chirib bo'lmashligi, tuproq uumdorligi, o'z xususiyatlarini yemirmaslik, aksincha ularni yaxshilash xususiyati. Yerlarni qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalanish boshqa tabiiy resurslar bilan birgalikda, ularni ma'lum bir maqbul nisbatlaridagina mumkindir. Bundan tashqari, jamiyatning moddiy hamda boshqa turlaridagi boyliklarga doimo o'sib borayotgan talabi yer resurslaridan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishga extiyotkorlik munosabatda bo'lishi talab qilinadi.

Yerdan oqilona va samarali foydalanish aynan ushbu turdagi resursdan foydalanish darajasini oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishidan qat'iy nazar, ularning mohiyati va metodologiyasi turlichadir. Shu bilan bir qatorda, maxsus adabiyotlarda bu kunga qadar ushbu tushunchalar to'g'risida yetarli darajadagi qoidalar mavjud emas. Ko'pgina bu terminlar ostida turlicha tushunchalar beriladi, natijada bu yerlardan foydalanishning amaliy masalalarini hal qilishda hamda nazariy tadqiqotlarda ma'lum tushunmovchiliklarga olib keladi. Ushbu tushunchalar mazmunini anchagina kengroq ko'rib chiqamiz.

“Oqilona yerdan foydalanish”ning mazmuni anchagina murakkab va majmualiy tushinchadir. Yerlardan oqilona foydalanish deganida, odatda ma'lum bir maqsadni ko'zlagan xolda insonni yerga nisbatan ma'lum maqsadli, oqilona harakati tushiniladi. Bunda qo'yilgan maqsadga erishish uchun tanlanadigan usullar hamda vositalar turlicha bo'lishi mumkin, ya'ni ushbu tushunchani hayotga tadbiq qilishda turlicha usullardan foydalanish mumkin. Demak, u xayoliy jarayon bo'lmashdan, balki oldindan o'rganilgan, rejalashtirilgan va tashkil etilgan jarayondir. Shuning uchun, davlat miqiyosida yerlardan oqilona foydalanishning mazmuni to'g'risida so'z yuritilganda, ushbu tushunchani tadbiq qilish vositalari va

uslublari jamiyatini rivojlantirishning iqtisodiy qonunlariga asoslangan, ushbu jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar hamda munosabatlar ob'ekti sifatidagi yerlarni mavjud bo'lish qonuniyatlarini hisobga olish albatta o'z ichiga oladi. Bunda yerlardan foydalanish, qoidaga binoan qabul qilingan mezonlar, shartlar nuqtai nazaridan belgilanadigan "oqilonalik" jarayoni u yoki bu cheklashlar bilan aniqlanadi (saqlanadi). Masalan, yerlardan foydalanish iqtisodiy samaradorlik uchun ma'lum bir zarar bilan oldindan aniqlangan, zaruriy ijtimoiy samaradorlik bilan oldindan aniqlangan bo'lishi mumkin.

Yerlardan oqilona foydalanish iqtisodining barcha tarmoqlarida va noishlab chiqarish sohalarida yer resurslaridan ilmiy asoslangan, ma'lum bir maqsadli foydalanishni ko'zda tutadi. U mamlakat yer fondini maqsadli mohiyati bo'yicha taqsimlanishini (tarkibini belgilashni) hamda ulardan imkon boricha yuqori samaradorlik bilan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunda noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun iqtisodiy yer ajratishiga, tuproq unumdorligini oshirishi bilan bir vaqtda yerning unumdorlik xususiyatini iqtisodli sarflanishiga rioya qilinishiga hamda yerlardan oqilona foydalanishni ekologik ta'mirlanishiga erishish zarur. Jumladan, prof. V.S.Shamanayevning e'tirof etishicha, "Noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun yerni iqtisodli ajratilishi tuproq unumdorligini doimiy ravishda oshirish bilan jamiyatning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarini yerga bo'lgan ilmiy asoslangan talablarining to'plami yer resurslaridan oqilona foydalanish mezonini deyiladi". Prof.S.A.Tkachukning ishida e'tirof etiladiki, "Yerlardan oqilona foydalanish deganda tabiiy va jamiyat o'zaro ta'sirining ob'ektiv mavjud tamonlari bilan mos keluvchi aniq bir vaqt va makonning aniq sharoitidagi usulda ancha samarali tashkil etilgan, jamiyat talablarini qondirish nuqtai nazardan ancha samarali foydalanish tushuniladi".

Yerlardan oqilona foydalanish muammosining bosh mazmuni prof. M.A.Gedelman va P.S.Shevchenkolar yer resursini halq xo'jalik ishlab chiqarishga mumkin qadar ko'proq jalb qilishi hamda ulardan yaxshiroq foydalanish, resursni qayta tiklash hamda muhofaza qilish, deb tushuntiradilar. Ushbu mualliflar

fikricha, “Yerlardan oqilona foydalanish - bu, eng avvalo, davlat tomonidan belgilangan maqsadga muvofiq ijtimoiy chiqarishda undan foydalanish samaradorligini ta’minlashdir”. Bunda yerlardan oqilona foydalanish vazifasi ular tomonidan shunday aniqlanadi: “Har qanday faoliyatning o’ziga xos sharti hamda qishloq xo’jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatidagi yerdan foydalanish jarayonida yerni boshqa tabiiy omillar bilan o’zaro ta’sirining foydaligini hisobga olgan holda va yerlarni muhofaza qilishda mumkin qadar yuqori samaraga erishishdir”. Prof.V.S.Shamanayev, yerdan foydalanish darajasining ko’rsatkichlari noinki iqtisodiy natijalarni, balki shu bilan bir qatorda, undan foydalanishning oqilonaligini ham yoritish zarur, deb hisoblaydi. Oqilonalik tushunchasi har doim maqsadga muvofiqlik bilan bo’lganligi sababli yerdan foydalanishning oqilonaligi yerdan ishlab chiqarishda va noishlab chiqarishda foydalanishning maqsadga muvofiqligini bildiradi. Bunda yerlardan oqilona foydalanish u tomonidan quyidagicha aniqlanadi: “Yerlardan oqilona foydalanish mezoni-bu noqishloq xo’jalik maqsadlari uchun yerlardan iqtisodli ajratish hamda tuproq unumdorligini, doimo oshirib borish asosida jamiyatni yerga bo’lgan ilmiy asoslangan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish talablarining majmuasidir”.

“Oqilona” tushunchasi amalda yerlardan foydalanish jarayoni amalga oshiriladi shu bilan bir vaqtda, “samaradorlik”-bu ushbu jarayon natijasi, ya’ni olingan samara (natija) nuqtai nazardan uning oqibatidir. Vaqt belgisi bo’yicha, “oqilona” tushunchasining boshlang’ich bo’g’inini tashkil etadi, ya’ni birlamchi hisoblanadi, degan xulosa kelib chiqadi. Ammo yerdan “oqilona” foydalanish oqilona foydalanish faqatgina jamiyatning ko’p qiralli manfaatlariga javob beruvchi ushbu jarayonni amalga oshirishning to’la samaradorligini berilgan parametrlari nuqtai nazardan mumkin bo’ladi. Demak, yerdan foydalanish “samaradorligi” jamiyatning ko’p miqdorli manfaatlarini amalga oshirish zaruriyatlaridan kelib chiqadigan boshlang’ich daqiqasidir, unga erishish esa shuncha mos sharoitlar, mezonlarni belgilash yo’li bilan ushbu jarayonni

“oqilonalashtirish” hisobiga erishiladi (maqsadli mohiyati bo'yicha yerlardan foydalanish tarkibini maqbullashtirish).

Qarab chiqilayotgan tushuncha bitta muammoning o'zaro bog'liq ikki tomonini tashkil etadi, ular alohida-alohida tarzda mavjud bo'lishi va bittasi, ikkinchisiz qarab chiqilishi mumkin emas, yerdan foydalanish nuqtai nazaridan ular uzviy o'zaro bog'liqlikdirlar. Yerlardan ko'p maqsadli foydalanish nuqtai nazardan “oqilonalik”siz yerlardan foydalanishning to'plangan “samaradorligi” mavjud emas, oldindan asoslangan to'liq samaradorligisiz yerlardan oqilona foydalanish mavjud emas. Shu bilan bir vaqtda jamiyat yerlar foydalanish natijalariga, ya'ni uning samaradorligiga befarq emas, albatta. Birinchi omilsiz to'liq samaradorlikka erishish uchun manbaa mavjud emas, ikkinchi omilsiz esa yerdan foydalanish o'z mazmunini yo'qotadi. Ushbu ikkita tushuncha birbirlaridan farq qiluvchi alohida mazmunlarga egadir. Birinchi tushuncha qanday shartlar asosida, o'lchamlar, chegaralanishlar hamda qanday talablar bilan yerlardan foydalanish amalga oshirilishini aniqlaydi. Ikkinchisi esa bunday shartda qanday to'liq samara olinishini aniqlaydi. Boshqacha qilib aytganda, yerdan foydalanish “samaradorligi” ushbu jarayoni amalga oshirish uchun aniq shartlarni oldindan belgilash asosida erishiladi, “oqilonalik” esa yerdan foydalanishda amalga oshiriladi hamda samaradorlik ko'rinishida namayon bo'ladi. Shunday xulosa S.A.Tkachukning ishida ham qilingan. U yerda qayd qilinadiki, yerlardan oqilona foydalanish mohiyatini aniqlash asosida “samaradorlik” singari umumiy toifa yetadi. Demak, birinchi navbatda aynan ushbu toifaga har tomonlama tavsif berish, uning mazkur qirralarini ajratishi talab qilinadi. Aynan ushbu qirralari yerlardan oqilona foydalanish tushunchasi (mohiyati)ni aniqlashda tadbiq qilinishi zarur”.

Yerlardan samarali foydalanish iqtisodiy toifa hisoblanadi, ammo bu tushuncha, qoidaga binoan, faqatgina qishloq xo'jalik yerlariga dahldor bo'lgan iqtisodiy yoki xo'jalik mazmuni bilan chegaralanmaydi. U ijtimoiy, rekreatsion hamda tabiatni muhofazalash samaradorlik tushunchalarini ham o'z ichiga oladi.

Yerdan foydalanishning har bir qirrasiga shuncha mos tarzdagi, belgilangan tilpardagi: ijtimoiy, iqtisodiy, eklogik va boshqa samaradorliklar mos keladi. Agarda yerdan foydalanishni faqatgina qandaydir bitta qirrasi bo'yicha qarasak, amalda ham ushbu qaralayotgan qirrasiga mos keluvchi samaradorlikni aniq turi bo'yicha eng yuqori natijaga erishish mumkin bo'ladi. Bunda aniq bir tur bo'yicha eng yuqori samaradorlikka boshqa turlar bo'yicha samaradorlikning pasayishi evaziga erishiladi, negaki yerdan foydalanishning boshqa (qolgan) qirralarining talablari birlamchi, boshlang'ich shartlar sifatida qabul qilinmagan. Boshqacha so'z bilan aytganda, qanday bir aniq turni eng yuqori samaradorligi, qachonki yerdan foydalanish shuncha mos keluvchi bitta qirrasi talablarining shartlari asosida amalga oshirilsa, xususiy hodisa hisoblanadi.

Ammo yerdan foydalanishning bunday bir necha omillarning talablariga rioya qilingan sharoitda amalga oshiriladi. Bunday majmualiy sharoitni tadbiq qilish yerdan foydalanish samaradorligining barcha (bir necha) bir vaqtdagi turlarining eng yuqori darajalarini ta'sir etishlari bilan emas, balki yalpi samaradorligi bilan bog'liqdir. Bunday yalpi maqbul samaradorlik hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, maqbullashtirilgan samaradorlik yerlardan oqilona foydalanishga (barcha qirrallari shartlarini bir vaqtda bajarilishi nuqtai nazardan) mos keladi. Demak yerlardan foydalanishning "oqilonaligi" samaradorlikni qabul qilingan mezonlari nuqtai nazaridan eng maqul yakuniy natijasini ko'zda tutadi, ya'ni bir vaqtning o'zida bu, qoidaga binoan, iqtisodiy, rekreatsion, sog'lomlashtirish hamda ekologik yoki qandaydir bir boshqa birikmalarda, ammo yerdan foydalanishning qabul qilingan shartlarida kutilishi mumkin bo'ladigan eng yuqori, albatta yangi samaradorlikdir. Bunday yerlardan oqilona va samarali foydalanish bir vaqtning o'zida tizimli yerdan foydalanishning ham shartli, ham natijasidir, ya'ni uning ikkitalik yagona vazifasidir.

Yerlardan oqilona va samarali foydalanish tushunchasiga maxsus adabiyotlardan yuqorida keltirilgan qoidalarning asosiy kamchiliklari shundan iboratki, ular qoidaga binoan juda tor ma'noda qaralgan, asosan yerlardan

texnologik foydalanish nuqtai nazaridan, ya'ni yer resurslarini qayta tiklash siklining ikkinchi bosqichidan qaralgan. Ammo ushbu tushuncha anchagina keng ma'noda, aynan yer resurslarini nomi qayta tiklash sikli bo'yicha qarash zarur, ya'ni faqat bittasi bo'yicha emas, balki barcha uchta bosqichini qarash zarur. Yerlardan foydalanishning "oqilonaligi" va "samaradorligi" noinki undan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish bosqichida, shu bilan birga, eng avvalo, uni taqsimlash va qayta tiklash bosqichlarida ham mavjud bo'ladi (shakllanadi, "vujudga keladi"). Taqsimlash bosqichida qanday shartlarda, cheklanishlarda o'lchamlarda mamlakat yer resurslarining har bir tarmog'ida, har bir korxona foydalanish ko'zda tutishi bo'yicha qarorlar qilinadi. Aynan shu shartlar mamlakat, tarmoqlar, korxonalarning shakllantirilgan manfaatlari nuqtai nazaridan ko'zda tutilayotgan yerdan foydalanishning "oqilonaligini" zaruriy darajasini aniqladi. Negaki "oqilona" tushunchasi yerdan ko'p maqsadli foydalanish uchun xarakterli ekan, demak, bunday holda yerdan foydalanishning qandaydir bitta qirrasi eng yuqori emas, balki berilgan shartlar yoki cheklanishlardan eng maqbul bo'lgan yerdan foydalanishning yangi samaradorligi vujudga keladi.

Yerlarni qayta tiklash bosqich ham ulardan oqilona va samarali foydalanishga ma'lum tasir ko'rsatadi. Qayta tiklash bosqich yerlarni yangidan taqsimlash (qayta taqsimlash) hamda yer resurslaridan keyingi foydalanishlar uchun manbaa yaratadi. Qanday qayta tiklash – kengaytirilgan yoki oddiy qayta tiklash qabul qilinganiga qarab, shunga mos ravishda keyingi qayta tiklash siklida yerlardan foydalanish samaradorligi vujudga keladi.

Qishloq xo'jaligida tuproqlar unumdorligini qayta tiklash xarakteriga qarab yer turlari va ekinlarining bo'lg'usi tarkiblari, ekinlarining almashinuvi, mahsulotlarni yetishtirish turlari va xajmlari belgilanadi, ya'ni yerlardan foydalanishning oqilonaligi belgilanadi. Iqtisodiyotning noqishloq xo'jalik tarmoqlarida yer resurslaridan oqilona foydalanish u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish talablariga qarab, faoliyatning ijtimoiy sohalarida esa-zaruriy ijtimoiy xizmatlar talablariga qarab aniqlanadi. O'z navbatida shularga mos ushbu yerlarni

qayta tiklashning shartlari va harakatlari aniqlanadi (kam qavatli uy-joy binolari va ijtimoiy o'ektlarni buzish hamda ular o'rniga zamonaviylarini qurish, o'zini foydalanish muddatlarini o'tab bo'lgan eski ishlab chiqarish binolarini buzib tashlash va ancha quvvatlarini qurish, avtomobil va temiryo'llarini rekonstruksiya qilish va boshq.). Demak, yer resurslaridan oqilona samarali foydalanish iqtisodiy toifa sifatida uni to'la qayta tiklash siklining barcha bosqichlarida tadbiiq qilinadi, shuning uchun ham ushbu tushunchalarni belgilashda ularni qayta tiklash siklining qandaydir bittagina bosqich bilan emas, balki bir vaqtning o'zida barcha bosqichlari bilan bog'liqligidan kelib chiqish zarur.

Qator maxsus adabiyotlarda, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida "yerlardan oqilona va samarali foydalanish" tushunchasi yerdan foydalanish yoki yer tuzilishining tamoyillaridan bittasi sifatida qoraladi. Masalani bunday qo'yilishini to'g'ri deb hisoblamaymiz. O'zining mohiyati, roli va ahamiyati bo'yicha ushbu tushuncha yerdan foydalanishning qandaydir bir asosiy tomonlarini tavsiflaydigan har bir alohida tamoyillardan yuqori va keng tushunchadir. Bunda yerdan foydalanish barcha tamoyillarini amalga oshirilishi yerdan yerdan foydalanishning asosiy vazifasi-jamiyatni moddiy va boshqa turdagi boyliklariga doimiy o'sib borayotgan talablarini qondirish maqsadida yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashni amalga oshirishga bo'ysundirilgan.

Yerlardan oqilona foydalanish darajasini oshirishning muhim masalasi-bu yerdan foydalanishning ijtimoiy, iqtisodiy, rekreatsion hamda ekologik samaradorligini baholash metodikasini hamda zaruriy ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdir. Ijtimoiy sohada, sanoat va transportda, xalq xo'jaligining qator boshqa tarmoqlarida yerlardan foydalanish samaradorligini baholash masalalari kam o'rnatilgan. Bunday ko'rinadiki, ushbu sohalardan foydalanish samaradorligini baholash metodikasi yerlardan foydalanishning jadallashganlik darajasini oshirishni ko'zda tutadigan hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy talablari uchun yer ajratishning ilmiy asoslangan me'yorlarini ishlab chiqishni o'z ichiga olgan

bozor va me'yoriy uslublarga asoslanishi zarur. Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishni iqtisodiy va ekalgik samaradorligini baholash masalalari anchagina katta miqiyoslarda o'rganilgan, baholash ko'rsatkchlar tizimi ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, noqishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi masalalari kam o'rganilgan masala bo'lib qolmoqda, boshqa turlardagi samaradorliklar esa amaliy jihatidan tadqiq qilinmagan. Jamiyatning o'sib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy talablarini ta'minlash yerlardan jadal foydalanish asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yer resurslaridan foydalanish samaradorligini doimiy ravishda oshirib borishni talab qiladi.

Yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish butun bir majmuali muammo bo'lib, uni hal qilish uning barcha qirralarini, jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy, rekreatsion, ekologik, huquqiy, axborotli, texnologik, resursli, tashkiliy-hududiy va tadbirkorlik qirralarini tadbiq qilish asosida erishiladi. Bunda birinchi to'rtta qirrasi yerdan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishni tavsiflaydi, qolganlari esa undan foydalanishning oqilonaligini va samaradorligini ta'minlaydi. Ularning hech bittasi alohida tarzda, boshqalaridan ajralgan holda yerlardan oqilona foydalanishni ta'minlay olmaydi.

Shunday qilib, oqilona yerdan foydalanish tushunchasini yerlardan foydalanishning butun bir majmuadagi qirralari bilan aniqlangan yagona maqsadlilik nuqtai nazaridan qarash zarur, ya'ni-bu ulardan foydalanishda oldinga qo'yilgan shartlar va chegaralanishlarda jamiyatning umumiy talablarini bir vaqtda ta'minlovchi yer resurslaridan foydalanishning ko'p maqsadli, birlashtirilgan variantidir. Bunda shu bilan birga maqbul majmuali samaradorlik ta'minlanadi. Shu munosabat bilan yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish modelini ishlab chiqish usullarini, har bir qirrasi bo'yicha tadqiqot predmetini o'z ichiga olish zarur. O'zining to'la qayta tiklanish sikliga asoslangan (taqsimlash, yer resurslaridan foydalanish va qayta tiklash) va yerdan foydalanishning barcha qirralarini majmuali amalga oshiradigan tizimli yerdan foydalanishgina oqilona va samarali bo'ladi.

9.2. YERLARNI MUHOFAZA QILISH, UNING MAZMUNI VA MOHIYATI. YERLARNI MUHOFAZA QILISH BO'YICHA TADBIRLAR.

Ma'lumki, inson o'zining xo'jalik faoliyati davrida yerning ustki, unumdor qatlami hisoblangan tuproqqa salbiy ta'sir etib uning unumdorligini pasaytiradi va natijada hosildor yerlar maydonining qisqarib ketishiga sababchi bo'ladi. Shuningdek, yerdan noto'g'ri foydalanib, ilg'or agrotexnika qoidalariga rioya qilinmasligi tufayli tuproq eroziyasi kuchayadi, sug'orish qoidasi va me'yoriga rioya qilmaslik oqibatida tuproq qayta sho'rlanadi, botqoqlashadi; mineral o'g'itlardan noto'g'ri foydalanish va zaharli kimyoviy moddalarni ishlatish qoidasiga rioya qilmaslik natijasida tuproq kimyoviy moddalar bilan zaharlanadi; almashlab ekishga e'tibor bermaslik tufayli tuproqda ozuqa moddalar miqdori kamayadi, shamol eroziyasiga qarshi ixota o'rmonlar tashkil etilmasligi tuproqning ustki hosildor qismi uchirilib ketiladi; yonbag'irlari tik bo'lgan yerlarni noto'g'ri haydash oqibatida suv eroziyasi kuchayadi. Bularning oqibatida yer maydoni tezda ishdan chiqib, fizik-kimyoviy va biologik holati yomonlashib, hosil bermaydigan yerga aylanib qoladi. Chunki tarkibi buzilgan va eroziyaga uchragan tuproqda namlikni, tuproqning ustki hosildor qismidagi zarrachalarni ushlab turuvchi gumus-chirindisi tugab qoladi. Insonning yerga yuqorida qayd qilib o'tilgan salbiy ta'sirlari natijasida, P.Baratovning bergan ma'lumotlariga qaraganda, hozir dunyoda yiliga 6,0 – 7,0 mln. ga yer maydoni qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketmoqda.

Yer yuzasining qurg'oqchil rayonlaridagi yerlardan inson xo'jalik faoliyatida noto'g'ri foydalanishi natijasida uning tabiiy xususiyati yomonlashib cho'llanish (cho'lga aylanish) jarayoni boshlanadi.

Cho'llanish – noqulay tabiiy sharoitdagi qurg'oqchil yerlardan nooqilona foydalanish natijasida vujudga keladi. Bunda insonlarning xo'jalik faoliyati ta'sirida qurg'oqchil yerlarning xususiyati o'zgarib tuproq va o'simlik qoplaminig holati yomonlashadi, tuproqda suv rejimi o'zgaradi, ko'chma qumlar maydoni

kengayadi, yerlar qayta shoʻrlanadi va oqibatda hududning biologik hosildorligi juda pasayib hosilsiz choʻlga aylanib qoladi.

Soʻnggi yillarda dunyoda sanoatning, shahar va shahar tipidagi posyolkalarning, yoʻllar, suv omborlari va togʻ-kon sanoatining rivojlanishi natijasida hosildor qishloq xoʻjalik yerlarining maydonlari qisqarmoqda. G.Tolipovning bergan maʼlumotlariga qaraganda, Oʻzbekis-tonda oʻtgan XX asrning oxirlariga kelib yuqoridagi maqsadlar uchun har yili 2,5 ming ga haydalma yerlar ajratilgan. Tuproq sifatini buzili-shida injenerlik inshoatla-rining ham taʼsiri kattadir. Chunki har-xil quvurlarni – gaz quvuri, issiqlik quvuri, suv quvuri, kanalizatsiya quvuri, neft quvuri va boshqa quvurlar atrofdagi tuproqqa salbiy taʼsir koʻrsatib tuproqning biologik, issiqlik rejimlarining boʻzilishiga sabab boʻladi. Turli harakatlarning vujudga kelishi oqibatida ham katta maydonlar qishloq xoʻjalik oborotidan chiqib ketmoqda.

Yuqoridagilar asosida shuni alohida eʼtirof etish zarurki, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish, ekinlar hosildorligini oshirish birinchi navbatda yer maydonlarini zaruriy tartibda muhofaza qilinishi asosida mumkin boʻladi.

Yerlarni muhofaza qilish ulardan belgilangan maqsadda, oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini, oʻrmon fondi yerlarining samarador-ligini tiklash va oshirish, qishloq xoʻjalik oborotidan va alohida muhofaza etiladigan hududlarning yerlari tarkibidan yerlarning asossiz ravishda olib qoʻyilishini oldini olish, ularni zararli antropogen taʼsirdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa tadbirlar tizimini qamrab oladi.

Yerlarni muhofaza qilishning asosini – yerlarga murakkab tabiiy hosilalar (ekotizimlar) tariqasida, ularning qishloq xoʻjaligining tabiiy moslashuvi jixatidan rayonlashtirilishi va mintaqaviy xususi-yatlarini hisobga olgan holda atroflicha yondoshishni amalga oshirish tashkil qiladi.

Yerlarni muhofaza qilishning huquqiy tadbirlari oʻz ichiga – yerlarni muhofaza qilishga doir huquqiy normalarni ishlab chiqish, qabul qilish va amaliyotda tadbiriq qilish choralarini oladi. Oʻzbekiston mustaqillikga erishgandan

buyon o'tgan davrda qabul qilingan 40 dan ziyod qonunlar va 500 ga yaqin me'yoriy hujjatlarda yer resurslaridan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish me'yorlari belgilab berilgan.

Yerlarni muhofaza qilishning tashkiliy tadbirlari – yer maydonla-rini muhofaza qilishga doir ma'lum bir tashkiliy choralarni asoslab berishni va uni amaliyotga tatbiq qilishni o'z ichiga oladi.

Yerlarni muhofaza qilishning iqtisodiy tadbirlari – yerlarni muhofaza qilishga yo'naltirilgan chora va tadbirlarni amalga oshirishdan manfaatdorlikni ta'minlashni tashkil etishni o'z ichiga oladi. Jumladan, Yer kodeksining 82-moddasiga muvofiq, yerlardan oqilona foydalanishni va ularni muhofaza qilishni iqtisodiy raqobatlantirish yer egalari, yerdan foydalanuvchilarning tuproq unumdorligi saqlanishi va tiklanishidan, yerni ishlab chiqarishning salbiy oqibatlaridan himoya etilishidan manfaatdorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ❖ -yangi o'zlashtirilayotgan va meliorativ holatini yaxshilash jarayonida turgan mavjud sug'oriladigan yerlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yer solig'i bo'yicha imtiyozlar berish;
- ❖ -yerlarni muhofaza qilish va qayta tiklash bo'yicha faoliyatni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga kam chiqit va resurslarni tejoychi texnologiyalarni joriy etishda soliqqa, kreditga oid va boshqa imtiyozlar berish;
- ❖ -yerlarning sifatini yaxshilashni, ilmiy asoslangan almashlab ekishni joriy etishni, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning unumdorligini oshirishni, ekologik sof mahsulot yetishtirishni rag'batlantirish;
- ❖ -yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning aybi bo'lmagan holda bo'zilgan yerni qayta tiklash uchun, zaruriyat bo'lgan taqdirda, respublika budjetidan yoki mahalliy budjetdan mablag'lar ajratish, agrotexnika, o'rmon melioratsiyasi tadbirlari va tuproqni himoya qilish yuzasidan boshqa tadbirlar o'tkazish;

- ❖ -yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning aybi bo‘lmagan holda bo‘zilgan yer uchastkalarini vaqtincha konservatsiya qilish natijasida ulardan keladigan daromadning kamayishini davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qisman qoplash;

Yerlarni muhofaza qilishning texnologik tadbirlari yerlarni muhofaza qilish jarayonida yuqori unumdorlikka erishish imkoniyatini beradigan texnologik jarayonlarni ta’minlovchi usul va uslublarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq qilish choralarini o‘z ichiga oladi. Bundaylarga jumladan, tuproq eroziyasiga qarshi tadbirlar, yerlarni rekultivatsiya qilish, yerlarni sho‘rlanishiga qarshi tadbirlar kiradi.

Tuproqlar eroziyasiga qarshi quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi zarur: tashkiliy-xo‘jalik tadbirlari, agroteknik tadbirlar, o‘rmon meliorativ tadbirlar va gidroteknik tadbirlar. Bunday tadbirlarni belgilangan reja asosida amalga oshirish natijasida suv hamda shamol eroziyasiga uchragan yerlarni muhofaza qilish mumkin bo‘ladi.

Qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini oshirishda yerlarni melioratsiya qilish muhim omillardan biridir. Bunga asosan o‘simliklar uchun kerakli nam zahirasini yaratish uchun sug‘orish kanallari, suv omborlari qurish, yomg‘ir va qor suvlarini ushlab qolish; yaylovlarni suv bilan ta’minlash; tuproqni qayta sho‘rlanishini oldini olish uchun zovur-drenajlar qurish; almashlab ekishni to‘g‘ri tashkil etish; tuproq sho‘rini yuvish; yerlarni begona o‘tlardan va toshlardan tozalash; qumlarni maxkamlash; past-baland yerlarni tekislash va boshqalar kiradi.

Kareralar, keraksiz jinslar, sanoat chiqindilari tashlangan yerlarni zudlik bilan rekultivatsiya qilish, ya’ni qayta o‘zlashtirish zarur. Rekultivatsiya texnik va biologik bosqichdan iborat. Texnik rekultivatsiyada bo‘zilgan yerlar tekislanib, hosilsiz grunt ustiga tuproq to‘qiladi, yo‘llar quriladi va natijada biologik rekultivatsiyaga tayyorlanadi. Biologik rekultivatsiyada texnik rekultivatsiya qilingan, lekin unumdorligi pasaygan tuproqlarga o‘g‘itlar solinib, daraxtlar va qishloq xo‘jalikekinlari eqilib, hosildorligi yuqori tuproqqa aylantiriladi.

Yerlardan oqilona foydalanish tizimi tabiatni muhofaza qilish va resurslarni tejash tarzida bo'lishi hamda tuproqning saqlanishini, o'simlik va xayvonot dunyosiga, geologiya jinslariga va atrof muhitning boshqa tarki-biy qismlariga ta'sir o'tkazishni cheklashni nazarda tutishi kerak:

Buning uchun yerdan foydalanuvchilar quyidagilarni bajarishlari zarur:

- ❖ hududni oqilona tashkil etishlari;
- ❖ tuproq unumdorligini, shuningdek yerning boshqa xossalarini tiklashlari va oshirishlari;
- ❖ yerlarni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, suv bosishdan, zaxlashdan, qayta sho'rlanishdan, qaqrab qolishdan, zaranglashishdan, ishlab chiqarish chiqindi-lari, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishdan, harob qiladigan boshqa jarayonlardan himoya qilishlari;
- ❖ qishloq xo'jaliklarini buta va mayda dov-daraxtlar, yovvoyi o'tlar bosib ketishidan va yerlarning madaniy-texnikaviy holatini yomonlashtiruvchi boshqa jarayonlardan himoya qilishlari;
- ❖ hosildan qolgan qishloq xo'jaliklaridagi tuproq unumdorligini boshqa usullar bilan qayta tiklashning iloji bo'lmasa, bunday yerlarni konservatsiya qilishlari;
- ❖ bo'zilgan yerlarni qaytadan ekinzorlarga aylantirishlari, ularning unumdorligi va boshqa foydali xossalarini oshirishlari;
- ❖ yerlarni strukturasini bo'zish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni amalga oshirish chog'ida bu yerlarning unumdor qatlamini qirqib olishlari va uni saqlab qolishlari.

Yerlarni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan tadbir o'z ichiga qishloq xo'jaligi va qishloq xo'jalikishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan ob'ektlar, imoratlar va inshootlarni joylashtirish, loyihalash, qurish va ulardan foydalanishga oid ekologik talablarni ham oladi.

Yerlarning holatiga ishga tushirilayotgan ob'ekt yoki joriy etilayotgan texnologiyaning salbiy ta'sirini hamda yerlardan foydalanish va ularni muhofaza

qilish yuzasidan nazarda tutilgan tadbirlarning samaradorligini baholash ekologiya ekspertizasi asosida o'tkaziladi.

Yerlarni hosildan qolishdan yoki bo'zishdan himoya qilish choralari bilan ta'minlanmagan hamda ekologiya ekspertizasining ijobiy xulosasi bo'lmagan ob'ektlarni foydalanishga topshirish va bunday texnologiya-larni qo'llash qonunda taqiqlanadi.

Kimyoviy yoki radiaktiv moddalar bilan ifloslanish natijasida ekologiya va sanitariya-gigienaga oid belgilangan talablarga javob beradigan mahsulot olishni ta'minlamayotgan yer uchastkalarini qishloq xo'jalikishlab chiqarilishida foydalanishdan chiqarish va konservatsiya qilish uchun ularni zahira yerlar jumlasiga o'tkazish mumkin. Bunday yerlarda Qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish va realizatsiya qilish taqiqlanadi.

Yerlarni muhofaza qilish ustidan nazoratni mahalliy davlat hokimiyati organlari va mahsus vakolatga ega bo'lgan davlat organlari amalga oshiradilar. Bu nazorat vakolatli organlarning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va yer uchastkasi mulkdorlarining yerlar-ning huquqiy rejimiga rioya qilishlarini tekshirish bo'yicha harakatlar-dan iborat. Yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati umumiy va doimiydir. Umumiylik uning barcha yer fondi toifalarini qamrab olishi va barcha amaldagi yer egalari va yerdan foydalanuvchilarga tarqalishlari bilan tavsiflanadi. Doimiylik esa uning hech qanday muddatlarsiz belgilangan tartibda amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi.

Nazoratning diqqat markazida quyidagi masalalar yotadi: yerlarni muhofaza qilish bo'yicha o'rnatilgan qoidalarga rioya qilish, yerlardan foydalanishni boshqaruvchi davlat va tarmoq organlarining muhofaza qilish bo'yicha majburiyatlarini bajarish.

Yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruv-chi davlat organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- ❖ yerlarni muhofaza qilish masalalari yuzasidan tekshiruvlar o'tkazish;

- ❖ yer to'g'risidagi qonun hujjatlari bo'zilishining sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan, barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalar (yozma buyruqlar) berish;
- ❖ aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolarni ma'muriy javobgarlikka tortish, yer to'g'risidagi qonun hujjatlari bo'zilishi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bo'yicha da'volar taqdim etish, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun tegishli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga hamda huquqni muhofaza qilish organlariga taqdimnomalar berish;
- ❖ yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini bo'zganlik uchun yer uchastkalarini olib qo'yish, shu jumladan yerlarni ijaraga berish shartnomalarini muddatidan oldin bekor qilish haqidagi, shuningdek yerlardan foydalanishni cheklash va to'xtatib qo'yishga doir materiallarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga hamda posyolka, qishloq va ovul fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga taqdim etish;
- ❖ yerlarni muhofaza qilish masalalari bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslardan zarur axborotlar olish, mazkur masalalar yuzasidan davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlari va axborotlarini eshitish;
- ❖ yerlarni muhofaza qilish ustidan nazoratni olib borish ishlarida qatnashish uchun mutaxasislarni belgilangan tartibda jalb qilish.

Yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar quyidagilarni bajarishlari zarur:

- ❖ yer uchastkalaridan belgilangan maqsadda foydalanilishini, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan yerlarni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini belgilangan tartibda tekshirishlari;
- ❖ yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish hamda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan o'z vaqtida chora ko'rishlari;

- ❖ yerlarni muhofaza qilish bilan bog'liq tadbirlar yuzasidan o'z vakolatlari doirasida ko'rsatmalar berish.

Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning o'zlariga birik-tirilgan yerlarni muhofaza qilish borasidagi faoliyati nazorat organlari tomonidan tekshirilishi qonunda (Yer kodeksi, 85-modda) bir yilda bir marta ekanligi belgilab qo'yilgan. Agar nazoratchi organ yerlarni muhofaza qilish majburiyatlarini bajarmaslik sabablarini bartaraf qilish bo'yicha ko'rsatmalar bergan bo'lsa, u belgilangan muddatda mazkur tadbirlarni bajarilishini tekshirishga haqlidir.

Keyingi yillarda respublikada yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, ta'sirchan nazoratni ta'minlash hamda yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri sohalaridagi munosabatlarni kompleks tartibga solishga yo'naltirilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Respublikamiz uchun o'ta dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan sug'oriladigan yerlar 4,3 million gektarni, yoki mamlakat umumiy maydonining 9,6 foizini tashkil etib, ularda barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 95 foizdan ortig'i yetishtiriladi.

Dasturiy chora-tadbirlar doirasida tizimli ravishda yer resurslarini hisobga olish va yerlardan foydalanishni nazorat qilish, ko'chmas mulk ob'ektlari, kartografik fondni takomillashtirish yuzasi-dan yer munosabatlarini tartibga solish sohasida yer qonunchiligiga rioya etish bo'yicha doimiy monitoring qilish tizimi ishlab chiqilib joriy etildi, ko'chmas mulk ob'ektlarini yalpi xatlovdan o'tkazish, 21 ta davlat kadastrlarini integratsiyalashuviga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Milliy geoaxborot tizimini tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlillar quyidagilarni ko'rsatmoqda:

- ❖ joylarda yerdan nooqilona foydalanishning o'z vaqtida oldini olish bo'yicha o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda yetarli darajada tizimli ishlar amalga oshirilmayapti;

- ❖ qishloq aholi punktlarida va mahallalarda, ayniqsa, olis hududlarda yerlardan foydalanish holatini muntazam monitoring qilish ishlari yetarli darajada olib borilmayapti;
- ❖ mavjud xodimlar soni yer resurslaridan foydalanishni nazorat qilish va ularning hisobini yuritishni to'liq amalga oshirish imkonini bermayapti.

Yuqoridagi kamchiliklar yerlardan oqilona va maqsadli foydalanish, shuningdek, tarmoqda qonun hujjatlariga rioya etish ustidan to'laonli ta'sirchan nazoratni ta'minlash imkonini bermayapti.

Respublikamiz yer resurslaridan foydalanish samaradorligini, qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini oshirish, shuningdek, soha faoliyatini takomillashtirish va uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari davlat qo'mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Qabul qilingan hujjatlarda O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari davlat qo'mitasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- ❖ yerdan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, kartografiya va geodeziya faoliyati bo'yicha yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash;
- ❖ yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan tizimli davlat nazoratini hamda qonun hujjatlariga so'zsiz rioya etilishi bo'yicha davlat geodeziya nazoratini amalga oshirish;
- ❖ tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

- ❖ yer tuzish, yerdan foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish sohalarida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar tayyorlash, yer resurslaridan foydalanish hamda yerdan foydalanish istiqbolini va sxemalarini prognozlashtirish va rejalashtirishda qatnashish;
- ❖ uchuvchisiz apparatlardan foydalangan holda qishloq xo‘jalik yerlarini, qishloq xo‘jalik ekinlari va ularni parvarishlashni monitoring qilish, geodezik ma‘lumotlar va kartografik materiallardan foydalangan holda sun‘iy yo‘ldosh navigatsiya tizimi ishlashini ta‘minlash va boshqalar.

Qabul qilingan hujjatda Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot institutini O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi tarkibidan O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi tasarrufiga o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Bu o‘z navbatida qo‘mitaga yuklangan vazifa va topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish imkoniyatini yaratadi, institut bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish orqali, birinchi navbatda tuproqning tarkibi va maxsus ilmiy laboratoriyalarda tuproqdagi barcha jarayonlarni o‘rganish orqali sug‘oriladigan yerlarning unumdorligi va ularning ball-boniteti aniqlanadi.

Davlat kadastrlarini yuritishni tashkil etish darajasini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi raisining o‘rinbosari lavozimi joriy etildi. U davlat kadastrlari sohasini muvofiqlashtirish, tizimga ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish va xalqaro munosabatlarni rivojlantirish ishlariga mas‘ul etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasiga, uning hududiy bo‘linmalariga mavjud shtatlarga qo‘shimcha ravishda 937 ta muhandis-yer tuzuvchilar shtat birligi, shundan 92 foizi qo‘mitaning tuman bo‘limlariga berilmoqda.

Qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida qo‘mita tizimining tashkiliy tuzilmasi, qo‘mita markaziy apparatining tuzilmasi,

shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastri boshqarmalari, tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastri bo‘limlarining namunaviy tuzilmasi va xodimlarining cheklangan umumiy soni tasdiqlandi.

Shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil qilish, sohaga ilg‘or fan-texnika yutuqlarini joriy etish, moddiy-texnika bazasini yangilash, tarmoqqa xalqaro grantlarni jalb qilish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlangan.

Qo‘mita va uning hududiy bo‘linmalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastri bo‘limlarini xizmat avtomashinalari, joylardagi mutaxassislarni zamonaviy o‘lchov asboblari, xizmat xonalari bilan ta‘minlash belgilangan.

Yer resurslaridan oqilona foydalanish va qonun hujjatlariga rioya etilishi nazoratini ta‘minlash kabi asosiy vazifalarni bajarish uchun qo‘mita va uning hududiy organlari o‘zlarining vakolatlari doirasida sudlarga beriladigan da‘vo arizalari bo‘yicha davlat boji to‘lashdan ozod etilmoqda.

Mazkur farmon va qarorning amalga oshirilishi:

- ❖ birinchidan, respublikamiz yer resurslaridan foydalanish samaradorligini va qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirish;
- ❖ ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi yerlaridan, ayniqsa, sug‘oriladigan yerlardan boshqa maqsadlarda foydalanishning oldini olish yuzasidan qattiq nazorat o‘rnatish, shuningdek, respublika yer fondi hisobini yuritishni tizimlashtirish;
- ❖ uchinchidan, zamonaviy yuqori texnologiyali texnik vositalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- ❖ to‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha mutaxassislariга yuklangan vazifalarni

o'z vaqtida va sifatli bajarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi.

9.3. YERLARNI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY CHORA-TADBIRLARI.

Yer resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza etish munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar yerlarni muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbirlarini belgilaydi. Bu chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik, Jinoyat, Ma'muriy javobgarlik, Mehnat, Yer Kodekslari, shuningdek boshqa me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan.

Yerlarni muhofaza qilish huquqiy chora-tadbirlari deganda qonun normalarida o'rnatilgan yerdan foydalanish va muhofaza qilishga oid buzilgan huquqlarni tiklash hamda huquqbuzarliklarni jazolashga taalluqli bo'lgan qoidalar yig'indisi tushuniladi.

Yerlarni muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbirlari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik, Jinoyat, Fuqarolik, Mehnat, Yer Kodekslari normalarida o'z ifodasini topgan. Bu normalarda yerlardan foydalanish qoidalarini buzganlik, yerlarni muhofaza qilish bo'yicha qonun talablarini bajarmaganlik uchun tegilshicha jazo choralari belgilangan bo'ladi.

Chunonchi, yerlarni muhofaza qilishning jinoiy-huquqiy choralari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining to'rtinchi bo'limida (193-204 - moddalar) o'rnatilgan. Masalan, JKning 196-moddasida ko'rsatilishicha, yerlarni ifloslantirish yoki buzish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Yoki shu kodeksning 197-moddasida yerdan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, eng

kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima, yoki uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yerni huquqiy muhofaza qilishda ma'muriy qonunlarning roli alohida ahamiyatga ega O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksida yer muhofazasiga qarshi qaratilgan bir qator hatti-harakatlar uchun javobgarlikni belgilovchi normalar o'z ifodasini topgan. Chunonchi, ushbu kodeksning 60-moddasida yerdan o'zboshimchalik bilan foydalanish yoki erga egalik huquqini bevosita yoki yashirin shaklda buzuvchi bitimlar tuzish, yerdan foydalanish huquqini boshqalarga berish, yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olganlik uchun fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoq jazosi belgilangan.

Yoki ushbu kodeksning 65-moddasida yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish, ularni yaroqsiz holga tushurish, 66-moddasida yer berish tartibini buzish, 67-moddasida vaqtincha egallab turilgan yerlarni o'z vaqtida qaytarib bermaslik, 68-moddasida xo'jalik ichidagi yer tuzish loyihalaridan o'zboshimchalik bilan chetga chiqish, davlat yer kadastrini yuritish qoidalarini buzish, 69-moddada esa chegara va cheklov belgilarini yo'q qilish yoki shikastlantirish hatti-harakatlarini sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik ko'rsatilgan.

Yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish deganda yer ustida qurilish ob'ektlari qurish paytida tuproqning unumdor qatlamini olmaslik, yer maydonlaridan belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanish, yerlarni ishdan chiqarish, hosildorligini pasaytirish kabi holatlar tushuniladi. Yer maydonlarini shunday holatga tushirib qo'ygan fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solinadi (O'zR MJTK 65-modda).

Yer berish tartibini buzish deganda yerlarni qonunda belgilangan shartlarni buzgan holda, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarga yer berishga to'sqinlik

qilish tushuniladi. Bu ma'muriy huquqbuzarlik uchun mansabdor shaxslarga eng kam oylik ish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solinadi (66-modda).

Tasdiqlangan yer tuzilishi loyiha hujjatlaridan tegishli ruxsat bo'lmay turib chetga chiqish, tegishli davlat organlari bilan kelishmay turib ob'ektlarni joylashtirish, ichidan yer tuzish loyihalaridan o'zboshimchalik bilan chetga chiqish deb tushuniladi. Shunday harakatlar uchun fuqarolar va mansabdor shaxslarga O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 68-moddasi sanksiyasida fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qisminidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solish mumkinligi ko'rsatilgan.

Yerlarni huquqiy muhofaza qilishda yer qonunchiligida o'rnatilgan qoidalar alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 41-moddasida ko'rsatilishicha, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlarining buzilgan huquqlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tiklanishi kerak. Ular huquqlarining buzilishi natijasida yetkazilgan zarar (shu jumladan boy berilgan foyda) to'la hajmda qoplanishi kerak.

Yer qonunchiligi avvalo qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan, ayniqsa sug'oriladigan yerlarni muhofaza qilishga alohida e'tibor beradi. Chunonchi, Yer Kodeksining 43-moddasida o'rnatilishicha, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni qishloq xo'jaligidan o'zga ehtiyojlar uchun boshqa toifadagi yerlarga o'tkazishga alohida hollarda yo'l qo'yiladi. Alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar maxsus muhofaza qilinishi lozim va ularning sug'orilmaydigan yerlar jumlasiga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi (45-modda). Yer qonunchiligi yerlarni holatiga, ekologiyasiga salbiy ta'sir etadigan ob'ektlar, imorat va inshootlarni joylashtirishning alohida tartibini belgilaydi.

Yer qonunchiligida yerlarni muhofaza qilish, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar huquqlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari belgilangan. Yer Kodeksining 90-91-moddalarida ko'rsatilishicha, yerga nisbatan tuzilgan g'ayri

qonuniy bitimlar haqiqiy emas deb hisoblanadi; o`zboshimchalik bilan egallab olingan yerlar qaytarib olinadi; yer uchastkalari olib qo`yiladi. Demak, yerga nisbatan g`ayri-qonuniy bitimlar tuzilsa, yer qonunchiligi talablari buzilsa yuqorida sanab ko`rsatilgan choralar qo`llaniladi. Biz bu choralarni yer-huquqiy javobgarlik jazo choralari deb aytishimiz mumkin.

Yerlarni oqilona muhofaza qilganlik uchun Yer Kodeksida (82-modda) iqtisodiy rag`batlantirish choralari o`rnatilgan. Iqtisodiy rag`batlantirish yer solig`i to`lash bo`yicha imtiyozlar berish, kredit berish bo`yicha imtiyozlar berish, budjetdan mablag`lar ajratish kabi tadbirlardan iborat bo`lib, bu tadbirlar tuproq unumdorligini saqlash va tiklash, yerlarni salbiy holatlardan muhofaza qilish, meliorativ holatini yaxshilash, yangi texnologiyani joriy qilish bo`yicha ishlarni amalga oshirganlarga nisbatan qo`llaniladi.

9.4. «YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA ULARNI MUHOFAZA QILISHNING EKOLOGIK-HUQUQIY TARTIBI» TUSHUNCHASI

Tabiat boyliklari orasida yer, yer resurslari alohida xususiyatga ega bo`lib, qanday davlat bo`lmasin uning iqtisodiy qudrati yer resurslari bilan bog`liqdir. Jumladan, mustaqil O`zbekistonimiz xalqi hayoti, turmush tarzi, faoliyati va farovonligining tub asosi yer resurslaridan oqilona foydalanishga tayanadi. Shu sababli uni muhofaza qilish o`ta muhim ahamiyat kasb etadi.

O`zbekiston Respublikasida yer bilan bog`liq munosabatlar O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Yer Kodeksi») va ana shu qonunlarga asoslanib chiqarilgan boshqa qonun va qonunosti hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bunday hujjatlar jumlasiga O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi, Qishloq va suv xo`jaligi vazirligining tegishli qarorlari hamda ayrim buyruqlari kiradi.

Shuningdek, yer bilan bog`liq munosabatlarni tartibga solishda O`zbekiston Respublikasining «Qishloq xo`jaligi kooperativi (shirkat xo`jaligi)» «Dehqon

xo'jaligi», «Fermer xo'jaligi», to'g'risidagi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Soliq kodeksi va boshqa qonunlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog'liq suv, o'rmon, tog'-konga taalluqli munosabatlar, shuningdek o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosidan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog'liq boshqa maxsus qonunlari bilan ham tartibga solinadi.

Shuni alohida aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasidagi yer maydonini huquqiy-ekologik muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni ta'minlovchi asosiy manba «Yer kodeksi» hisoblanadi. Shunday ekan, mazkur Kodeksining ayrim xususiyatlarini sanab o'tish o'rinlidir.

Birinchidan, Yer kodeksi O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida yerdan oqilona foydalanish va uni huquqiy muhofaza qilishning asosini tashkil etadi.

Ikkinchidan, u yangi ijtimoiy tuzum - bozor munosabatlarini mustahkamlash uchun yangi huquqiy zamin tayyorlab, qishloq xo'jaligida agrar islohotlarni amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etdi.

Uchinchidan, Yer kodeksi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlarni hamda qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishda asosiy huquqiy manba hisoblanadi.

To'rtinchidan, 1990-yil 20-iyundagi O'zbekiston Respublikasining «Yer to'g'risida»gi qonunidan batamom farq qilib, hozirgi sharoitda yerdan foydalanish va uni huquqiy muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha muammolarni to'laroq aks ettiradi.

Beshinchidan, Yer kodeksi yangi talab va bozor iqtisodiyoti sharoiti- da qabul qilingan «Fermer xo'jaligi», «Dehqon xo'jaligi» va «Qishloq xo'jaligi shirkati» to'g'risidagi qonun talablarini hamda «Yer kadastri to'g'risida»gi yangi qonunni qo'llash, amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etib, muhim manba hisoblanadi.

Oltinchidan, Yer kodeksining eng muhim jihati, barqarordir. Mazkur qonunning barqarorligi uning normalari, prinsiplari va ahamiyati uzoq muddatli davrni hisobga olib qabul qilinganligidadir.

Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdorligini tiklash va oshirishni, tabiiy muhitni asrash va yaxshilashni, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqiylilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan, shuningdek, bu sohada qonuniylilikni mustahkamlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida yer resurslaridan oqilona foydalanish va uni huquqiy-ekologik muhofaza qilish konstitutsiyaviy talabi va asosiy prinsiplari «Yer kodeksi»da o'z asosini topgan.

Jumladan, 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Yer kodeksi»ning 2-moddasiga binoan yer to'g'risidagi qonun hujjatlari quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- ❖ eng muhim tabiiy resurs, fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi bo'lmish yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirish;
- ❖ yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash;
- ❖ qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarni, eng avvalo, sug'oriladigan yerlarni alohida muhofaza etishni, sug'oriladigan yerlarni kengaytirib borishni hamda ulardan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash;
- ❖ qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yerlarni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishni davlat yo'li bilan va boshqa tarzda qo'llab-quvvatlash;
- ❖ yerga va butun atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishining oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

- ❖ yerga egalik qilish va undan foydalanish shakllarining xilma-xilligi, yer munosabatlari ishtirokchilarining teng huquqliligini ta'minlash hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish;
- ❖ yerdan foydalanganlik uchun haq to'lash;
- ❖ yerlarning holati haqidagi axborotning to'liq bo'lishini hamda undan erkin foydalanishga yo'l qo'yilishini ta'minlashga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasining yer resurslari boy va o'ziga xos xususiyatga ega. Ekologiya huquqida mamlakatimizning yer fondi toifalarini o'rganish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Yagona davlat yer fondi toifalarga bo'linishining huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi»da ko'rsatilgan. Zero, yer fondining huquqiy asosi mazkur qonunning II bob 8-10-moddalarida aniq o'z aksini topgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning asosiy maqsadiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi:

- 1) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar - qishloq xo'jaligi ehtiyoj- lari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo'ljallangan yerlar. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko'p yillik mevali dov-daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo'linadi;
- 2) aholi punktlarining (shahar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari - shaharlar va posyolkalar, shuningdek, qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;
- 3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar - ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;
- 4) tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsad- lariga mo'ljallangan yerlar - alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan yerlar, shuningdek, ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlar;

- 5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar - tarixiy madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar;
- 6) o'rmon fondi yerlari - o'rmon bilan qoplangan, shuningdek, o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar;
- 7) suv fondi yerlari - suv ob'ektlari, suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv ob'ektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;
- 8) zaxira yerlar (8-modd).

Hayot rivojlanishi va amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ba'zi hollarda qonunda belgilangan yer toifalari boshqasiga o'tkazilishi ham mumkin.

Mazkur holat amaldagi «Yer kodeksi»ning 9-moddasi talablari asosida hamda talab darajasida belgilab qo'yilgan huquqiy normalarga to'la mos kelishi va javob berishi lozim. Yerlardan asosiy foydalanish maqsadi - yerlardan yer kadastr hujjatlarida aks ettiriladigan aniq maqsadlarni ko'zlab foydalanishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibi va shartlaridir.

Yerlarni yer fondining bir toifasidan boshqasiga o'tkazish yerlardan asosiy foydalanish maqsadi o'zgargan taqdirda amalga oshiriladi.

Yerlarni yer fondi toifalariga bo'lish, bir toifadan boshqasiga o'tkazish yerga egalik qilishga va uni foydalanishga berish huquqiga ega bo'lgan organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Yer fondining toifasi yerni egalik qilishga va foydalanishga berish huquqiga ega bo'lgan organlar tomonidan qabul qilinadigan yer uchastkalarini berish to'g'risidagi qarorlarda, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi guvohnomalarda, shartnomalarda, boshqa hujjatlarda, davlat yer kadastri hujjatlarida, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish hujjatlarida ko'rsatiladi.

Yerlarni bir toifadan boshqasiga o'tkazishning belgilangan tartibini buzish bunday o'tkazish faktlarini g'ayriqonuniy deb va ular asosida tuzilgan yer uchastkalariga doir bitimlarni haqiqiy emas deb topishga, shuningdek, yer

uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olishni rad etishga asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi «Yer kodeksi»ga asosan, yer uchastkasi - yer fondining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimga hamda yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning davlat yer kadastrida va davlat ro'yxatiga olish hujjatlarida aks ettiriladigan boshqa xususiyatlariga ega bo'lgan qismidir.

Yer uchastkasining chegarasi rejalarda (chizmalarda) qayd etiladi va naturada (joyning o'zida) belgilanadi. Yer uchastkasining maydoni naturada (joyning o'zida) chegara belgilanganidan keyin aniqlanadi.

Yer uchastkasi bo'linadigan va bo'linmaydigan bo'lishi mumkin.

O'zining asosiy foydalanish maqsadini o'zgartirmagan va yong'inga qarshi, sanitariya, ekologiyaga oid, shaharsozlik hamda boshqa majburiy normalar va qoidalarni buzmaganda holda qismlarga bo'lish mumkin bo'lgan va bu ish amalga oshirilganidan keyin hosil bo'lgan qismlarning har biri mustaqil yer uchastkasi hisoblanadi.

Foydalanish maqsadiga ko'ra mustaqil yer uchastkalariga bo'linishi mumkin bo'lmagan yer uchastkasi bo'linmaydigan yer uchastkasi hisoblanadi.

Yuqoridagi yer fondi toifalarining o'z nomi va foydalanish xususiyatidan ko'rinib turibdiki, har bir kategoriya yer fondi toifasining hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ahamiyati qattadir.

Xullas, har bir yer fondi toifalaridan qonunda belgilangan tartibda, o'z maqsadi yo'lida oqilona foydalanilishi va huquqiy-ekologik muhofaza qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yerga nisbatan mulkchilik eng muhim: ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham huquqiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, iqtisodiy taraqqiyotning amalga oshishi ko'p jihatdan yerga nisbatan mulkchilik shakliga ko'proq bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda, yerga nisbatan davlat mulkchiligi yoxud xususiy mulkchilik belgilanishi mumkin. Hozirgi sharoitda ko'pchilik davlatlarning yerga oid qonunchiliklarida yerga nisbatan davlat mulkchiligi bilan birga xususiy mulkchilik ham belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida mazkur masalaga juda to'g'ri e'tibor berilgan. Jumladan, respublika Konstitutsiyasining 55-moddasida: «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir», deb ko'rsatilgan.

Mamlakatimizda, 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 5-moddasida ham tabiiy resurslarga, jumladan yerga nisbatan mulkchilik belgilandi.

Tabiiy resurslarni berish, ulardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishning shartlari va tartibi O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan belgilanadi.

Mazkur muammo amaldagi «Yer kodeksi»ning 16-moddasida esa quyidagicha o'z ifodasini topgan.

Yer davlat mulki - umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Yuridik shaxslar Yer kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq yerga doimiy egalik qilish, undan doimiy muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin.

Jismoniy shaxslar Yer kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi»da yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqlari quyidagicha belgilangan.

Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga xususiylashtirilganda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vujudga keladi.

Diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xalqaro tashkilotlarning yer uchastkalariga mulk huquqi ularga o'zlari vakolatxona binosi sifatida foydalanayotgan imorat yoki imoratning qismlari, shu jumladan vakolatxona boshlig'ining qarorgohi ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga, shuningdek mazkur vakolatxonalarning imoratlarini qurish uchun yer uchastkalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda realizatsiya qilinganda vujudga keladi.

Chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning - diplomatiya korpusi xodimlarining, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan matbuot vakillarining, firmalar, kompaniyalar va xalqaro tashkilotlar doimiy vakolatxonalari xodimlarining, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarda doimiy asosda ishlovchi shaxslarning, shuningdek respublikada doimiy istiqomat qiluvchi va yashash uchun guvohnomasi bo'lgan shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi ularga uy- joy binolari shu binolar joylashgan yer uchastkalari bilan birga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda realizatsiya qilinganda vujudga keladi (18-modda).

Yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ham berilishi mumkin.

Fuqarolarning yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati bilan tasdiqlanadi.

Yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjatining shakli, uni ro'yxatga olish va bunday hujjatni berish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

9.5. YERDAN FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISH SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVI, NAZORAT ETISH TARTIBI HAMDA YER QONUNCHILIGI TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

Amaldagi «Yer kodeksi»ning 4-moddasiga asosan yer munosabatlarini tartibga solish sohasida Vazirlar Mahkamasining vakolatlari ko'rsatilgan.

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlariga kiradi:

- ❖ yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ❖ yer kodeksiga, boshqa qonun hujjatlariga muvofiq yer munosabatlarini tartibga solish to'g'risida normativ hujjatlar qabul qilish;
- ❖ tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan davlat dasturlarini tasdiqlash;
- ❖ qishloq xo'jaligining tabiiy moslashuvi jihatidan yerlarni rayonlashtirish, yer tuzishni, yer monitoringi o'tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish;
- ❖ davlat mulkidagi yerlarni tasarruf etish;
- ❖ yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishda vazirliklar hamda idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- ❖ yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini belgilangan tartibda yer kodeksining 36-moddasiga muvofiq bekor qilish;
- ❖ yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini tashkil etish;
- ❖ yer munosabatlarini tartibga solish sohasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

Shuningdek, amaldagi yer qonunchiligida (Yer kodeksi, 5-modda) yer munosabatlarini tartibga solish sohasida viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining vakolatlari ham aniq o'z ifodasini topgan.

Yer kodeksiga asosan ularning vakolatlari quyidagilardan iborat:

- ❖ tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish bo'yicha hududiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ❖ yer resurslaridan belgilangan maqsadda, oqilona va samarali foydalanish, yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- ❖ yer tuzishni, yer monitoringi o'tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish;
- ❖ yuridik shaxslarga qishloq xo'jalik ehtiyojlari hamda boshqa davlat va jamoat ehtiyojlari uchun egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish;
- ❖ o'lchamidan qat'i nazar barcha yerlarni olib qo'yish, alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar, muhofaza etiladigan hududlar egallagan yerlar, shahar atrofi yerlari va shaharlarning yashil zonalari yerlari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlarining tajriba maydonlari, o'rmon o'simliklari bilan qoplangan yerlar bundan mustasno;
- ❖ diplomatiya vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xalqaro tashkilotlarga mazkur vakolatxonalarning binolarini, shu jumladan vakolatxona boshlig'i qarorgohini qurish uchun yer uchastkalarini mulk etib realizatsiya qilish;
- ❖ yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek, yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini belgilangan tartibda yer kodeksining 36-moddasiga muvofiq bekor qilish;
- ❖ yer munosabatlarini tartibga solish sohasida viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

Qonunchilikda (Yer kodeksi, 6-modda) yer munosabatlarini tartibga solish sohasida tumanlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlari ko'rsatilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. *Jumladan:*

- ❖ yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar tumanlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradi:

- ❖ tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona va samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- ❖ yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- ❖ fuqarolarga, yuridik shaxslarga egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish, shuningdek, tubdan yaxshilash ishlari amalga oshirilgan sug'oriladigan yerlar, pichanzorlar va yaylovlardan tashqari yerlarni, o'rmon o'simliklari bilan qoplangan yerlardan tashqari o'rmon fondi yerlarini, san'at, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan yerlarni, suv fondi yerlarini olib qo'yish - har bir yer egasiga va yerdan foydalanuvchiga o'n gektargacha o'lchamda;
- ❖ fuqarolarga fermer xo'jaligi yuritish uchun yerlarni ijaraga berish;
- ❖ fuqarolarga, yuridik shaxslarga zaxira yerlardan yer uchastkasining o'lchamidan qat'i nazar, egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish;
- ❖ yer uchastkalarini savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari bilan birgalikda yuridik va jismoniy shaxslarga mulk etib realizatsiya qilish;
- ❖ yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini kim oshdi savdosi asosida fuqarolarga realizatsiya qilish;
- ❖ yer tuzishni, yer monitoringi o'tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish;
- ❖ yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni, yer ijaraga berish shartnomalarini, shuningdek, servitutlar to'g'risidagi kelishuvlarni davlat ro'yxatiga olish;
- ❖ yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek, yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini belgilangan tartibda Yer kodeksining 36-moddasiga muvofiq bekor qilish;
- ❖ qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari tashkil etilgan, qayta tashkil etilgan va tugatilgan hollarda, ularning yerga egalik qilish va yerdan foydalanishi masalalarini hal etish;

- ❖ yer munosabatlarini tartibga solish sohasida shaharlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

Shuningdek, Yer kodeksida shaharlar davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari ham yetarli asosda ko'rsatilgan. Zero, Yer kodeksining 7-moddasiga asosan yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar shaharlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradi:

- ❖ yerlardan oqilona va samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- ❖ yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- ❖ yer uchastkasining o'lchamidan qat'i nazar, shahar chegarasi doirasida egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish, shuningdek, yerni olib qo'yish. Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarning yerlari bundan mustasno;
- ❖ yer uchastkalarini savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari bilan birgalikda yuridik va jismoniy shaxslarga mulk etib realizatsiya qilish;
- ❖ yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini kim oshdi savdosi asosida fuqarolarga realizatsiya qilish;
- ❖ yer tuzishni, yer monitoringi o'tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish;
- ❖ yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni, yerni ijaraga berish shartnomalarini, shuningdek, servitutlar to'g'risidagi kelishuvlarni davlat ro'yxatiga olish;
- ❖ yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek, yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini belgilangan mulk huquqini belgilangan tartibda ushbu Kodeksning 36-moddasiga muvofiq bekor qilish;
- ❖ yer munosabatlarini tartibga solish sohasida shaharlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

Yer resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishda O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi alohida o'rin tutadi.

Ma'lumki, yer fondi tarkibiga o'rmon fondi yerlari ham kiritilgan bo'lib, bu yerlarni boshqarish Yer resurslari davlat qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 24-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi farmoni e'lon qilindi. Farmonga ko'ra, Yer resurslari davlat qo'mitasi zimmasiga O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi qoidalarini ro'yobga chiqarish, yerga oid munosabatlar sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, yer resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish va yer fondlaridan oqilona foydalanishni ta'minlash vazifalari yuklatilgan.

Shu bilan birga, Yer qonunchiligiga rioya etishni nazorat qilish, yerdan foydalanishni yaxshilash Yer resurslari davlat qo'mitasining asosiy vazifalari etib belgilangan. Tuproq unumdorligini saqlash, oshirish, yer tuzishni tashkil etish, yer resurslariga beriladigan bahoni hisobga olishni takomillashtirish, yer fondining holatini kuzatib borish, tuproqdagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerlarni baholash, yerga salbiy ta'sir o'tkazish jarayonlari oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish maqsadida yerlar monitoringini amalga oshirish, davlat yer kadastrini tashkil etish va yuritish, yerga bo'lgan huquqni ruyxatga olish, davlat hokimiyati organlari, yuridik va jismoniy shaxslarni yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy holati, ularning toifalari, sifat xususiyatlari, yer uchastkalarining qayerda joylashganligini va hajmini, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar bo'yicha taqsimlanishi to'g'risida ma'lumotlar va hujjatlar bilan ta'minlash, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish, yer qonunlari buzilishini bartaraf etish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rish kabilar ham shunday vazifalar qilib belgilandi.

Yer resurslari geodeziya kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi yerga oid munosabatlarni tartibga solish, yer tuzish, yer monitoringini amalga oshirish, davlat yer kadastrini yuritish hamda yerlardan foydalanishni nazorat qilish va ularni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organ hisoblanib, Vazirlar Mahkamasi oldida hisobot beradi. Yer resurslari geodeziya kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitalari bo'linmalari viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi yer resurslari davlat qo'mitasiga bo'ysunadilar hamda Qoraqalpog'iston Respublika Vazirlar Kengashiga va viloyat hokimlariga hisobot beradilar.

Yerdan foydalanish hamda uni ekologik muhofaza qilish ustidan nazorat olib borish yer resurslaridan oqilona foydalanishni, yer to'g'risidagi qonunlarga rioya qilishni va yer sohasidagi ayrim huquqbuzarliklarning oldini olishga yordam beradi. Yerdan foydalanish hamda uni ekologik muhofaza qilish masalasi Yer kodeksining 84- moddasida batafsil ko'rsatilgan bo'lib, quyidagicha ifodalangan.

Yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini mahalliy davlat hokimiyati organi, shuningdek maxsus vakolatga ega bo'lgan davlat organlari amalga oshiradilar.

Yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni posyolka, qishloq va ovul fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradilar.

Tabiatni muhofaza qilish jamiyatlari, ilmiy jamiyatlar va boshqa jamoat birlashmalari, shuningdek fuqarolar yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshirishda davlat organlariga va posyolka, qishloq, ovul fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga ko'maklashadilar.

Yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning asosiy vazifalari yuridik va jismoniy shaxslar, davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qonun hujjatlari talablariga rioya etishlarini ta'minlashdan iboratdir.

Shuningdek, yerdan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega bo'ladilar:

- ❖ yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish masalalari yuzasidan tekshiruvlar o'tkazish, mazkur masalalar bo'yicha barcha zarur hujjatlarni va materiallarni olish, tuproqning kadastr ma'lumotlariga mosligini aniqlash maqsadida tuproqni tekshirish;
- ❖ yer to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishining sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan, barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalar (yozma buyruqlar) berish;
- ❖ aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolarni ma'muriy javobgarlikka tortish, yer to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bo'yicha da'volar taqdim etish, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun tegishli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga hamda huquqni muhofaza qilish organlariga taqdimnomalar yuborish;
- ❖ yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun yer uchastkalarini olib qo'yish, shu jumladan yerlarni ijaraga berish shartnomalarini muddatidan oldin bekor qilish haqidagi, shuningdek yerlardan foydalanishni cheklash va to'xtatib qo'yishga doir materiallarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga hamda posyolka, qishloq va ovul fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga taqdim etish;
- ❖ yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish masalalari bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslardan zarur axborotlar olish, mazkur masalalar yuzasidan davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlari va axborotlarini eshitish;
- ❖ yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini olib borish ishlarida qatnashish uchun mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb qilish.

Yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar:

- ❖ yer uchastkalaridan belgilangan maqsadda foydalanilishini, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan yerlarni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini belgilangan tartibda tekshirishlari;
- ❖ yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish hamda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishlari;
- ❖ yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish bilan bog'liq tadbirlar yuzasidan o'z vakolatlari doirasida ko'rsatmalar berishlari shart.

Yuridik va jismoniy shaxslarning yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish borasidagi faoliyati bir yilda ko'pi bilan bir marta tekshirilishi mumkin. Agar organ yerlardan oqilona foydalanmaslik va ularni muhofaza qilmaslik sabablarini bartaraf etish yuzasidan ko'rsatmalar bergan bo'lsa, u belgilangan muddatda mazkur tadbirlarni tekshirishga haqlidir.

Yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organlar va mansabdor shaxslar o'z faoliyatlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar (Yer kodeksining 85-moddasi).

Yer uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli (vaqtincha) egalik qilishga hamda ulardan doimiy va muddatli (vaqtincha) foydalanishga berilishi mumkin.

Yer uchastkalari korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qishloq va o'rmon xo'jaligi yuritish uchun, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa boshqa maqsadlar uchun ham doimiy egalik qilishga beriladi.

Doimiy yoki muddatli (vaqtincha) foydalanish uchun yer uchastkalari:

- ❖ O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga;
- ❖ sanoat, transport hamda boshqi noqishloq xo'jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga;

- ❖ chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga;
- ❖ chet ellik ?yuridik va jismoniy shaxslarga beriladi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yer uchastkalari foydalanish uchun boshqa tashkilotlar va shaxslarga ham beriladi.

Yer chastkasiga doimiy egalik qilish huquqi yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini beruvchi davlat hujjati bilan tasdiqlanadi. Davlat hujjatlarining shakllari, ularni ro'yxatga olish va bunday hujjatlarni berish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yer uchastkalaridan muddatli foydalanish qisqa muddatli - uch yilgacha va uzoq muddatli - uch yildan o'n yilgacha bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish zaruriyati taqozo etganda bu muddatlar tegishlicha qisqa muddatli yoki uzoq muddatli vaqtincha foydalanish muddatlaridan ortiq bo'lmagan davrga uzaytirilishi mumkin. Yer uchastkalaridan vaqtincha foydalanish muddatlarini uzaytirish shu uchastkalarni bergan organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Yaylov chorvachiligi uchun yer uchastkalari qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga yigirma besh yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Mazkur holatlar O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 20- moddasida o'z ifodasini topgan. Ta'kidlash joizki, yer uchastkalariga egalik qilish va foydalanish uchun berish (realizatsiya qilish) ham katta ahamiyatga egadir, uning huquqiy holati amaldagi yer qonunchiligiga asosan quyidagicha ko'rsatilgan.

Yer uchastkalarini egalik qilish va foydalanish uchun berish (realizatsiya qilish) yer ajratish tariqasida amalga oshiriladi.

Yer uchastkalarini ajratib berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlar hokimlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Egalikdagi yoki foydalanishdagi yer uchastkasini boshqa shaxslarga berish (realizatsiya qilish) faqat shu uchastka belgilangan tartibda olib qo'yilganidan keyin amalga oshiriladi.

Sanoat korxonalari, temir yo'llar va avtomobil yo'llari, aloqa va elektr uzatish liniyalari, magistral truboprovodlar qurish uchun, shuningdek qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ehtiyojlar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar yoki qishloq xo'jaligining sifati yomon yerlari beriladi (realizatsiya qilinadi). O'rmon fondiga qarashli yerlardan mazkur maqsadlar uchun yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) asosan o'rmon bilan qoplanmagan maydonlar yoki buta va arzonbaho dov- daraxtlar bilan qoplangan maydonlar hisobidan amalga oshiriladi.

Yer tuzish xizmati organlari berilgan (realizatsiya qilingan) yer uchastkasining chegaralarini naturada (joyning o'zida) belgilagunlariga va yerga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar berilguniga qadar ana shu uchastkaga egalik qilish va undan foydalanishga kirishish taqiqlanadi.

Yer uchastkalarini egalik qilish va foydalanish uchun berish (realizatsiya qilish) tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi (Yer kodeksi, 23-modda).

O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning 36-moddasiga binoan, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning bekor qilinish hollari ham aniq o'z ifodasini topgan.

Unga asosan: butun yer uchastkasiga yoki uning bir qismiga egalik qilish huquqi yoxud undan doimiy yoki muddatli foydalanish huquqi, shuningdek yer uchastkasini ijara olish huquqi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- ❖ yer uchastkasidan ixtiyoriy voz kechilganda;
- ❖ yer uchastkasi berilgan muddat tugaganda;
- ❖ yuridik shaxs tugatilganda;
- ❖ ijro hujjatlari bo'yicha undiruv yer uchastkasiga qaratilganda;
- ❖ xizmatda foydalanish uchun chek yer berib qo'yishga asos bo'lgan mehnatga oid munosabatlar bekor bo'lganda, agar qonun hujjatlarida boshqacha hol nazarda tutilgan bo'lmasa;
- ❖ yer uchastkasidan belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanilganida;

- ❖ yer uchastkasidan oqilona foydalanilmaganda, bu qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun hosildorlik darajasi uch yil mobaynida normativdan (kadastr bahosiga ko'ra) past bo'lishida ifodalanganda;
- ❖ yer uchastkasidan tuproq unumdorligi pasayishiga, uning kimyo- viy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishiga, ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keladigan usullar bilan foydalanilgan taqdirda;
- ❖ qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yer solig'i, shuningdek ijaraga olish shartnomasida belgilangan muddatlarda ijara haqi muntazam to'lanmay kelinganda;
- ❖ qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yer uchastkasidan bir yil mobaynida va qishloq xo'jaligi sohasiga taalluqli bo'lmagan ehtiyojlar uchun berib qo'yilgan yer uchastkasidan ikki yil mobaynida foydalanilmaganida;
- ❖ meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruv- chi order kim oshdi savdosi asosida sotib olinganidan keyin yer uchastkasidan ikki yil mobaynida foydalanilmaganida, yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi garovda bo'lgan taqdirda esa, - garov shartnomasi muddati mobaynida foydalanilma- ganida. Foydalanilmayotgan yer uchastkalari avvalgi egalaridan ular to'lagan haq qiymati qoplangan holda olib qo'yiladi;
- ❖ yer uchastkasi yer kodeksida nazarda tutilgan tartibda olib qo'yilganida.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir yer egasi, ijarachi va yerdan foydalanuvchilar yerdan oqilona foydalanishlari, uni muhofaza qilishlari hamda yerdan foydalanish bilan bog'liq barcha ekologik talablarga rioya qilishlari lozim.

Ushbu masala O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi V bob, 39- 42- moddalarida o'z aksini topgan. Mazkur qonunning 39-moddasiga asosan, yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdori quyidagi huquqlarga ega:

- ❖ yer uchastkasida undan foydalanish maqsadiga muvofiq xo'jalik yuritish;

- ❖ qishloq xo'jalik ekinzorlari va ko'chatzorlari hamda dov-daraxtlarga, yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsuloti va uni realizatsiya qilishdan olingan daromadga bo'lgan mulk huquqi;
- ❖ yer uchastkasidagi mavjud keng tarqalgan foydali qazilmalar, o'rmonzorlar, suv ob'ektlaridan xo'jalik ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda foydalanish, shuningdek yerning boshqa foydali xossalarini ishga solish;
- ❖ yerlarni sug'orish va ularning zaxini qochirish, agrotexnika va boshqa melioratsiya ishlari o'tkazish;
- ❖ qishloq xo'jalik ekinlarini, dov-daraxtlarni sug'orish hamda boshqa maqsadlar uchun sug'orish manbalaridan limitlarga muvofiq suv olish;
- ❖ belgilangan tartibda uy-joy binolari, ishlab chiqarish, madaniy- maishiy hamda boshqa imoratlar va inshootlarni barpo etish, yer uchastkalaridan foydalanish maqsadi va loyiha hujjatlariga muvofiq ularni qayta qurish va buzib tashlash. Yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar bu ishlarni yer egalari bilan kelishib amalga oshirishga haqli;
- ❖ yer uchastkasi olib qo'yilgan taqdirda unga yetkazilgan zararining (shu jumladan boy berilgan foydaning) qoplanishini yoki yer uchastkasidan ixtiyoriy ravishda voz kechilganida sarflangan xarajatlarning to'lanishini talab qilish;
- ❖ yer uchastkasini yoki uning bir qismini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vaqtincha foydalanishga va ichki xo'jalik ijarasiga berish.

Yer egasi bo'lgan fuqaro yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan kim oshdi savdosi asosida olingan shunday huquqni dehqon xo'jaligi yuritish, yakka tartibda uy-joy qurish maqsadida kreditlar olish uchun garovga qo'yishi mumkin.

Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdori qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Bu esa har bir yerdan foydalanuvchi huquq va majburiyatlarga og'ishmay amal qilishini talab etadi. E. Delakrua aytganidek, kichkina bo'lsa ham har kuni

nimadir burchni ado etish - ajoyib ish demakdir. Bu burch o'z vaqtida yerdan foydalanuvchilar barcha boyliklar qatori, yer resurslariga oqilona munosabatda bo'lishida ham namoyon bo'ladi.

Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdori quyidagilarni bajarishi shart:

- ❖ yerdan belgilangan maqsadga muvofiq oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning tabiatni muhofaza qiluvchi texnologiyalarini qo'llash, o'z xo'jalik faoliyati natijasida hududda ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik;
- ❖ ishlab turgan irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari, muhandislik kommunikatsiyalarini soz holatda saqlab turish;
- ❖ yerlarni muhofaza qilishga oid, Yer kodeksining 79-moddasida nazarda tutilgan turkum tadbirlarni amalga oshirish;
- ❖ yer solig'ini yoki yer uchun ijara haqini o'z vaqtida to'lash;
- ❖ boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlarining huquqlarini buzmaslik;
- ❖ foydali qazilma konlarini ishlatish, qurilish va boshqa ishlarni amalga oshirish uchun berilgan qishloq xo'jalik yerlari va o'rmonzorlarni ularga ehtiyoj qolmaganidan keyin o'z hisobidan qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi yoki baliq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli holatga, mazkur ishlar boshqa yerlarda amalga oshirilgan hollarda esa, belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish;
- ❖ foydali qazilma konlarini ishlatish chog'ida, shuningdek boshqa ishlarni amalga oshirish paytida o'zlariga egalik qilishga va foydalanishga hamda mulk etib berilgan (realizatsiya qilingan) yer uchastkalari hududidan tashqaridagi qishloq xo'jalik ekinzorlari, o'rmondan tashqaridagi qishloq xo'jalik ekinzorlari, o'rmonzorlar va boshqa yerlarga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olish yoki uni mumkin qadar cheklash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- ❖ mahalliy davlat hokimiyati organlariga yerdan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish;
- ❖ boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilarga, yer uchastkalarining ijarachilariga va mulkdorlariga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplash qonun hujjatlariga muvofiq yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalarining ijarachilari va mulkdorlari boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishlari mumkin (Yer kodeksi, 40-modda).

Amaldagi qonunlar yerga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni, undan oqilona foydalanishni, uni har qanday nojo'ya xatti-harakat va ekologik buzilishlardan himoya qilishni talab etadi. Agar ana shu tadbirlarni amalga oshirmasak, kelajak avlod yerni yaroqsiz holga keltirganimiz uchun kechirmaydi, chunki undan nafaqat biz, balki ular ham foydalanadilar.

Shuning uchun, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 90- moddasida yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun quyidagi javobgarliklar ko'rsatilgan.

Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan amalga oshirilgan yer uchastkalari oldi-sotdisi, ularni hadya qilish, garovga qo'yish (yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan kim oshdi savdosi asosida olingan shunday huquqini, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yish bundan mustasno), yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan ayrboshlash haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Bunday bitimlarni amlaga oshirishda aybdor shaxslar qonunga binoan javobgar bo'ladilar.

Quyidagi holatlarda ham aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar:

- ❖ yerlardan belgilangan maqsadda foydalanmaganlikda;
- ❖ yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olganlikda;

- ❖ qishloq xo'jaligi yerlarini va boshqa yerlarni yaroqsiz holga keltirganlikda, ularni kimyoviy va radioaktiv moddalar, ishlab chiqarish chiqindilari va oqova suvlar bilan ifloslantirganlikda;
- ❖ yerlarning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ob'ektlarni joylashtirganlikda, qurganlikda, loyihalashtirganlikda, foydalanishga topshirganlikda;
- ❖ yerlardan foydalanishning tabiatni muhofaza qilishga oid talablarini bajarmaganlikda;
- ❖ vaqtincha egallab turilgan yerlarni qaytarish muddatini buzganlikda yoki yerlarni belgilanga maqsadda foydalanishga yaroqli holatga keltirishga oid majburiyatlarni bajarmaganlikda;
- ❖ yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilarga va mulkdorlarga qarashli yer uchastkalarining marza belgilarini yo'q qilganlikda;
- ❖ davlat yer kadastri ma'lumotlarini buzib ko'rsatganlikda;
- ❖ o'zboshimchalik bilan pichan o'rganlikda va chorva mollar boqqanlikda;
- ❖ yovvoyi o'tlar va zararkunandalarga qarshi kurash choralarini ko'rmaganlikda;
- ❖ yerlardan xo'jasizlarcha foydalanganlikda, yerlarning holatini yaxshilash hamda tuproqni suv va shamol eroziyasidan va tuproq holatining yomonlashuviga olib keladigan boshqa jarayonlardan saqlash majburiyatlarini bajarmaganlikda;
- ❖ yer uchastkalari berish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqishning belgilangan muddatlari va tartibini buzganlikda.

O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari egasiga qaytarib beriladi, qonunga xilof ravishda egalik qilingan va foydalanilgan vaqtda qilingan chiqimlarning o'zni qoplanmaydi.

O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari ularga g'ayriqonuniy ravishda egalik qilingan va foydalanilgan vaqtda qilingan sarf-harajatlar qoplanmagan tarzda tegishliligiga ko'ra qaytariladi.

Yer uchastkalarini foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish, shu jumladan undagi imoratlarni buzish yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olgan shaxslar hisobidan amalga oshiriladi.

O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasini yer egasiga, yerdan foydalanuvchiga, yer uchastkasi ijarachisiga yoki mulkdoriga qaytarish tegishli tuman, shahar, viloyat hokimining qaroriga binoan yoki sudning hal qiluv qaroriga ko'ra amalga oshiriladi (90-modda).

Yer to'g'risidagi qonunning ushbu talablarini buzganlik uchun ya'ni, yerga xo'jasizlarcha munosabatda bo'lganlik va ekologik talablarni buzganlik uchun qonun qattiq jazo choralarini belgilaydi.

Amaldagi qonunlarga muvofiq yer to'g'risidagi qonun va ekologik talablarni buzganlik uchun intizomiy, ma'muriy fuqarolik va jinoiy javobgarliklar qo'llaniladi.

Intizomiy-huquqiy javobgarlik - bu yer to'g'risidagi qonunlarni va ekologik talablarni buzganlik uchun qo'llanilib, asosan yerdan foydalanuvchilarning bajarishi va amalga oshirish lozim bo'lgan majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaslikdan kelib chiqadi. Intizomiy- huquqiy javobgarlik korxona rahbari tomonidan qo'llaniladi. Bu javobgarlik asosan mehnat qonunlari asosida amalga oshirilib, ko'proq yer boyliklaridan oqilona foydalanish va uni ekologik holatlarini saqlash paytidagi mehnat intizomining buzilishi oqibatida vujudga keladi.

Ma'muriy-huquqiy javobgarlik - bu intizomiy javobgarlikka nisbatan og'irroq bo'lib, yer bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklar O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiMa ko'rsatilgan.

Jumladan, ushbu qonunga asosan quyidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish, ob'ektlar qurish paytida unumdor qatlamni olmaslik, yer maydonlaridan boshqa maqsadlarda foydalanish, yerlarni foydalanishdan chiqarishga, hosildorlik pasayishiga, tuproqning buzilishi yoki yo'q bo'lib ketishiga olib keladigan boshqa harakatlarni sodir etish, shuningdek

tanazzulga yuz tutgan qishloq xo'jaligi yerlarini konservatsiyalashning belgilangan tartibini buzish, fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - uch baravaridan besh baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi va boshqa yerlarni yaroqsiz holga tushirish, ularni ishlab chiqarish chiqitlari va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radioaktiv moddalar hamda oqova suvlar bilan isloflantirish, fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - uch baravaridan besh baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (MJTK 65-m).

Yer berish tartibini buzish, xuddi shuningdek fermer va dehqon xo'jaligi yuritish uchun yakka tartibda uy-joy qurish va turar-joy binosiga xizmat ko'rsatish, jamoa bog'dorchiligi va polizchiligi uchun fuqarolarga yer berilishiga to'sqinlik qilish, -mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (MJTK 66-m).

Vaqtincha egallab turilgan yerlarni o'z vaqtida qaytarib bermaslik yoki ularni o'z o'rnida foydalanish uchun yaroqli holga keltirish yuzasidan majburiyatlarni bajarmaslik, - eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (MJTK 67-m).

Tasdiqlangan yer tuzilishi loyiha hujjatlaridan tegishli ruxsat bo'lmay turib chetga chiqish, xuddi shuningdek tegishli organlar bilan kelishmay turib ob'ektlarni joylashtirish, loyihalashtirish, qurish va ularni foydalanishga topshirish, davlat yer kadastri yuritish qoidalarini buzish, yerlardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarni buzib ko'rsatish, axborotlarni berishdan bo'yin tovlash yoki noto'g'ri axborot berish, - fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - bir baravaridan uch baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, - fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - uch

baravaridan yetti baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (MJTK 68-m).

Egalikdagi va foydalanishdagi yerlarning chegara belgilarini, o'rmonlardagi cheklov belgilarini yo'q qilish yoki shikastlantirish, - fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (MJTK 69-m).

Shuningdek, o'rmon fondi yerlaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun ham ma'muriy javobgarlik belgilangan. MJTKning 77- moddasiga ko'ra, tegishli ruxsat olmay turib imorat solish, yog'ochni qayta ishlash, omborlar va boshqa inshootlar qurish maqsadida o'rmon fondi yerlaridagi daraxtni kundakov qilish, o'rmon fondi yerlarida pichanzorlar va yaylovlarni shikastlantirish, o'zboshimchalik bilan pichan o'rish va mol boqish, drenaj tizimlarini va yo'llarni yo'q qilish yoki shikastlantirish, - fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, - fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Fuqarolik huquqiy javobgarlik - bu asosan yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning ko'rgan va yetkazgan zararlarini qoplash bilan bog'liq.

Bu masala O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksini 86-moddasida quyidagicha ko'rsatilgan. Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilariga va mulkdorlariga yetkazilgan zararining o'rni (shu jumladan boy berilgan foyda) quyidagi hollarda to'la hajmda qoplanishi kerak :

- ❖ yerlar olib qo'yilgan, qayta sotib olingan yoki vaqtincha egallab turilganda;
- ❖ davlat qo'riqxonalari, zakazniklar, milliy tabiat bog'lari, tabiat yodgorliklari, madaniy-tarixiy yodgorliklar, suv havzalari. Suv ta'minoti manbalari, kurortlar

tevaragida, daryolar, kanallar, suv tashlamalari, yo'llar, truboprovodlar, aloqa liniyalari va elektr uzatish liniyalari bo'ylab muhofaza, sanitariya va ixota zonalari belgilanishi munosabati bilan ularning huquqlari cheklanganda;

- ❖ suv havzalari, kanallar, kollektorlar, shuningdek qishloq xo'jaligi ekinlari va dov-daraxtlar uchun zararli moddalar chiqaradigan boshqa ob'ektlar qurish va ulardan foydalanishning ta'siri hamda yuridik va jismoniy shaxslarning hosil kamayishiga va qishloq xo'jaligi mahsulotining sifati yomonlashuviga olib boradigan boshqa xatti-harakatlari oqibatida yerlarning sifati yomonlashgan taqdirda.

Zararning o'рни olib qo'yilayotgan yer uchastkalari ajratib beriladigan korxonalar, muassasalar va tashilotlar tomonidan, shuningdek faoliyati yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilar va mulkdorlarining huquqlari cheklanishiga yoki yaqin atrofdagi yerlarning sifati yomonlashuviga olib borgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

Jinoiy-huquqiy javobgarlik - boshqa huquqiy javobgarliklarga nisbatan ancha xavfli va og'irroq.

Ushbu jinoiy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga asosan qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 197-moddasiga asosan, yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, - eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Xullas, ushbu qonunlarda ko'rsatilgan jazo va ko'rsatib o'tilgan qonun talablarining asosiy maqsadi yer bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish, unga qarshi kurashish va fuqarolarni tarbiyalashdan iboratdir.

Mustaqil o'rganish uchun savollar

1. Yerlarni muhofaza qilishning umumiy mazmuni nimalardan iborat?
2. Yerlarni muhofaza qilish qanday tadbirlarni o'z ichiga oladi?
3. Yerlarni muhofaza qilishning huquqiy tadbirlariga nimalar kiradi?
4. Yerlarni muhofaza qilishning iqtisodiy tadbirlariga nimalar kiradi?
5. Yerlarni muhofaza qilishning texnologik tadbirlariga qanday ishlar kiradi?
6. Yerlarni muhofaza qilishni ta'minlash maqsadida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarga qanday majburiyatlar yuklatiladi?
7. Yerlarni muhofaza qilish ustidan qanday tashkilotlar nazoratni amalga oshiradilar?
8. Yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlari va mansabdor shaxslarga qanday majburiyatlar yuklatiladi?

10-BOB. YER MAYDONLARIDAN FOYDALANISHDA DAVLAT NAZORATI

10.1. YER RESURLARIDAN FOYDALANISH, UNING MUHOFAZA QILINISHIDA DAVLAT NAZORATINI AMALGA OSHIRISH

O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi” talablari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 mayida “Yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni nazoratini kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlarini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5065-sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi Qaroriga hamda bir qancha yer munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risida Hukumatning qabul qilgan qarorlariga asosan Yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishni nazorat qilish borasida o‘tkaziladigan tekshirishlarni belgilangan tartibda amalga oshirish, yerga oid munosabatlarni tartibga solish tizimini takomillashtirish, qonun hujjatlari talabining buzilish sabablari va oqibatlarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan yuridik va jismoniy shaxslarga bajarilishi majburiy bo‘lgan yozma ko‘rsatmalar berish, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishni nazorat qilishning asosiy vazifalari etib belgilangan bo‘lib, bu borada:

- ❖ yerga oid qonun hujjatlari buzilishlarni bartaraf etishga va yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish;
- ❖ -aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolarni belgilangan tartibda ma‘muriy javobgarlikka tortish, yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxslarni javobgarlikka tortish uchun tegishli korxona, muassasa va tashkilot rahbarlariga taqdimnomalar kiritish;
- ❖ -yerga oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni to‘xtatish to‘g‘risida mahalliy davlat hokimiyati organlariga

takliflar kiritish kabi mas'uliyatli vazifalarni bajarish va nazorat qilish qo'mitaning asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Davyergeodezkadastr qo'mitasi va uning joylardagi quyi tizimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi", "Fermar xo'jaligi to'g'risida"gi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yer munosabatlarini tartibga solish to'g'risidagi qarorlari talablariga hamda Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika Kengashining tegishli qarori bilan tasdiqlangan tekshirishlar reja-jadvali asosida soha mutaxassislari tomonidan 2017 yilda 297 ta (o'tgan yilning shu davrida 369 ta) xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning 1,2 mln gektar (o'tgan yilning shu davrida 730,7 ming gektar) yer maydonida yerdan foydalanish holati yuzasidan rejali va rejadan tashqari tekshiruvlar o'tkazildi.


O'tkazilgan tekshirishlar natijasida 285 ta (o'tgan yilning shu davrida 342 ta) xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbarlari tomonidan 4,7 ming gektar (o'tgan yilning shu davrida 66 ming gektar) yer maydonida yer qonun buzilish holatlarini sodir etganliklari aniqlandi.

Natijada yer qonun buzilish holatlarini sodir etgan 237 nafar (o'tgan yilning shu davrida 289 nafar) sub'ekt rahbarlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi" ning tegishli moddalariga asosan ma'muriy choralar ko'rildi va O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 85-moddasiga ko'ra yer qonun buzilish holatlarini keltirib chiqargan sub'ekt rahbarlariga bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berildi.

Yuqorida aniqlangan qonun buzilish holatlari tahlil qilinganda, 35 ta yerdan foydalanuvchilar tomonidan ma'lumotlarni hisobotdan yashirganlik yoki noto'g'ri ko'rsatganlik holatlari 12 foizni, 158 ta yerdan foydalanuvchilar tomonidan xo'jalik ichki yer tuzish loyihalaridan chekinishlik holatlari 55 foizni, 58 ta yerdan foydalanuvchilar tomonidan yerdan xo'jasizlarcha yoki samarasiz foydalanganlik


holatlari 20 foizni, 34 ta yerdan foydalanuvchilar tomonidan boshqa qonun buzilish holatlari 13 foizni tashkil etdi.

Qo'mita va uning hududiy tizimlari tomonidan yerdan foydalanishni nazorat qilish yuzasidan o'tkazilgan tekshiruvlar natijasi bo'yicha yer qonun buzilish holatlari tahlili 10.1-;10.2-; 10.3-; 10.4 - rasmlarda o'z aksini topgan.



10.1-rasm. O'tkazilgan teshirishlar natijasida aniqlangan yer qonun buzilish holatlarining tahlili (yer qonun buzilish turlari, maydoni va soni).

Yer qonun buzilish holatlarini sodir etgan 285 ta sub'ektdan 237 tasiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ning tegishli moddalariga asosan ma'muriy javobgarlikka doir ish qo'zg'atilib ma'muriy jarimaga tortildi, 7 ta holatda chora ko'rish uchun huquqni muhofaza qilish idoralariga, 41 ta holatda esa aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan tegishli tartibda choralar ko'rish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ning 34-moddasiga asosan "Bir necha huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun ma'muriy jazo qo'llash" uchun Hududiy kengashlarga hujjatlar rasmiylashtirilib yuborildi.



10.2-rasm. Aniqlangan yer qonun buzilish holatlari va ko‘rilgan choralar.

2017 yil davomida qo‘mita va uning quyi tizimlari tomonidan “Yer kodeksi” va boshqa yer munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risidagi qonun va qarorlarning ijrosi yuzasidan o‘tkazilgan monitoringlar natijasiga asosan aniqlangan yer qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish maqsadida 5010 ta boshqaruv organlariga, jumladan 51 marotaba Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi raisi, viloyatlar hokimlariga, 3006 marotaba tuman (shahar) hokimlariga, 1722ta shirkat, fermer xo‘jaligi rahbarlariga hamda 231 ta tashkilot va korxona rahbarlariga soha mutaxassislari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 85-moddasi talablaridan kelib chiqib taqdimnomalar kiritildi, bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berildi. Natijada respublika bo‘yicha yer qonun buzilish holatlarining kamayishiga va sodir etilgan qonun buzilish holatlari bartaraf etilishiga erishildi. 10.3-rasmda ko‘rsatilgan.



10.3-rasm. O'tkazilgan monitoring va tekshirishlar natijasida aniqlangan yer qonun buzilish holatlarini bartaraf etish va tegishli chora tadbirlar belgilash bo'yicha boshqaruv organlariga kiritilgan taqdimnomalar, ko'rsatmalar.

Shuningdek, Davyergeodezkadastr qo'mitasi quyi tizimidagi yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat inspektorlari tomonidan yerlardan samarali va oqilona foydalanishni tartibga solish, yer qonun buzilish holatlarining oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2017 yil 6 mayda ro'yxatdan o'tgan 2878-sonli Nizomning 3-ilovasida yuklatilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Davyergeodezkadastr qo'mitasining quyi tizimlari tomonidan 2017 yil davomida Kengash (viloyat komissiyalari) bilan qo'shimcha kelishuvsiz jami 1495 ta (o'tgan yilda 2245 ta) tadbirkorlik sub'ektlarining yerdan foydalanishi yuzasidan nazorat tadbirlari o'tkazildi.

Natijada su'ektlar tomonidan 5243 gektar (o'tgan yilda 9080 gektar) maydonda, shundan 500 tasi rejadagi chigitni ekishda, 347 tasi kuzgi boshoqli donni ekishda, 194 tasi sabzavot, qartoshka, poliz va boshqa ekinlarini ekishda va 454 tasi yerlardan belgilangandan boshqa maqsadlarda foydalanib kelayotganliklari aniqlandi.

Aniqlangan yer qonun buzilish holatlarini bartaraf etish maqsadida:

- ❖ jami 429,4 mln soʻm miqdorida maʼmuriy jarima qoʻllanildi;
- ❖ 1839 gektar maydonda sodir etilgan qonun buzilish holatlarini keltirib chiqargan subʼekt rahbarlariga nisbatan chora koʻrish uchun prokuratura organlariga hujjatlar rasmiylashtirilib taqdim etildi, 738 gektar maydondagi qonun buzilish holatlari joyning oʻzida bartaraf etilib, joylarda qonun buzilish holatlari bartaraf etilishiga erishildi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlarda 2017 yil davomida Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2017 yil 6 mayda roʻyxatdan oʻtgan 2878-sonli Nizom talablari asosida Kengash (viloyat komissiyalari) bilan qoʻshimcha kelishuvsiz amalga oshirilgan nazorat tadbirlari toʻgʻrisida

M A ʼ L U M O T

10.4-jadval


T/r	Hududlar nomi	Jami tekshirishlar					
		2016 yilda		2017 yilda		Farqi +,-	
		Soni	Maydoni	Soni	Maydoni	Soni	Maydoni
1	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	29	69	10	43	-19	-26
2	Andijon	140	304	329	1031	189	727
3	Buxoro	13	111	82	25	69	-86
4	Jizzax	244	851	1	19	-243	-833
5	Qashqadaryo	157	255	114	70	-43	-185
6	Navoiy	48	41	16	37	-32	-5
7	Namangan	277	526			-277	-526
8	Samarqan	217	258	275	627	58	369
9	Surxondaryo	213	191			-213	-191
10	Sirdaryo	223	1773	195	825	-28	-948
11	Toshkent	492	3362	77	467	-415	-2900
12	Fargʻona	306	837	339	1821	33	984
13	Xorazm	83	504	57	285	-26	-219
Jami		2442	9080	1495	5243	-947	-3839

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi “Yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni nazoratini kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlarini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5065-sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi Qaroriga asosan yerlardan samarali va oqilona foydalanishni nazorat qilish maqsadida tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastr bo‘limlariga 1000 taga yaqin yer nazoratchilari shtati joriy qilindi.

Natijada, Davyergeodezkadastr qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan “Qo‘mita tizimidagi yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish bo‘yicha davlat inspektorlari tomonidan yer qonun buzilishlarni oldini olish, bartaraf etish va profilaktika samaradorligini oshirish bo‘yicha “TARTIB”ga asosan joylarda olib borilgan monitoringlar natijasida Respublika bo‘yicha 2017 yil davomida esa 7173 ta holatda 7,2 ming gektar maydonda turli yer qonun buzilish holatlari aniqlandi.

Jumladan, 5557 ta holatda 1067 gektar yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallab olish, 675 ta holatda 3111 gektar yerlardan boshqa maqsadlarda foydalanish, 28 ta holatda amaldagi qonun va qonun osti hujjatlari talablariga zid ravishda qabul qilingan noqonuniy qarorlar asosida 288 gektar yer mydoni ajratib berish, 27 ta holatda 28 gektar tuproq unumdorligini pasaytirish, 85 ta holatda 172 gektar maydonga tegishli organlarning ruxsatisiz ko‘p yillik daraxtlar ekib olish, 601 ta holatda 2556 gektarda boshqa yer qonun buzilish holatlari aniqlandi.

Aniqlangan holatlarni bartaraf etish maqsadida huquqni muhofaza qilish organlariga hujjatlar rasmiylashtirilib taqdim etildi, mahalliy davlat hokimiyati idoralariga taqdimnomalar, yerdan foydalanuvchilarga bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berilib, tegishli chora tadbirlar belgilandi, yer qonun buzilish holatlari bartaraf etildi. 10.5-rasmda aks ettirilgan.



10.5-rasm. Qo‘mita tizimidagi davlat yer nazoratchilari tomonidan aniqlangan yer qonun buzilish holatlar

10.2. YER RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH, YER MUNOSABATLARINING TARTIBGA SOLINISHINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONIDA YAGONA DAVLAT SIYOSATINING AMALGA OSHIRILISHINI TA’MINLASHNING ASOSIY VAZIFALARI VA MUAMMOLARI

Bugungi kunda, qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi”, “Fermar xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Davlat yer kadastri to‘g‘risida”gi Qonunlariga zamon talablaridan kelib chiqib, ularga ayrim o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosini tashkil etib, yer resurslaridan yanada oqilona va samarali foydalanishning huquqiy poydevori yaratilmoqda.

Respublika istiqbolida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligini ta’minlovchi xalq xo‘jaligining barcha sohalari kabi qishloq xo‘jalik sohasini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, agrar sohaning dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Yerga oid munosabatlarni tartibga solish tizimini takomillashtirish, yer tuzish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, hisobga olish hamda baholashni takomillashtirish, davlat boshqaruv organlarining yuridik hamda jismoniy shaxslarning yerlardan foydalanish, uni muhofaza qilish tuproq unumdorligining oshirilishini ta'minlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan hamda 2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirishni ta'minlashda quyidagi muhim yo'nalishlarni rivojlantirish lozim:

- ❖ sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish;
- ❖ qishloq aholi yashash punktlaridagi yer uchastkalarini, ular to'g'risida yer kadastri axborotlarini shakllantirish uchun ro'yxatdan o'tkazishni muntazam ravishda tashkil etib borish;
- ❖ barcha yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni yerdan foydalanish huquqini beruvchi yuridik hujjatlar bilan o'rnatilgan tartibda ta'minlash;
- ❖ yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, iqtisodiy rag'batlantirish tizimini yaratishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta'minlash;
- ❖ yer sohasida amalga oshirilgan ishlar natijalarining muhimligini inobatga olgan holda, yerdan oqilona va samarali foydalanish mavzusida sohadagi mutaxassislarning bilimlarini hamda malakalarini oshirish maqsadida, ular ishtirokida doimiy o'quv-amaliy seminarlarni tashkil etish;
- ❖ zamonaviy talablar darajasida yer monitoringini olib borish, ma'lumotlarning haqqoniyligi va sifatini ta'minlash maqsadida yer tuzish organlaridagi mutaxassislarni zamonaviy texnologiyalar, dasturlar hamda geodezik o'lchov asboblari bilan ta'minlash;
- ❖ avtomatlashtirilgan yer ma'lumotlari tizimini yaratish, yuritish va takomillashtirish;

- ❖ yangi texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar, uslubiy qo'llanmalarni o'rganish maqsadida mutaxassislarning xorijiy davlatlar bilan o'zaro aloqalarini mustahkamlash;
- ❖ majmuaviy ravishda yer tuzish, yerdan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash, tiklash (qayta tiklash) va oshirish, yer holatini nazorat qilish (yer monitoringi) strategik dolzarb masalalarni hal etish;
- ❖ viloyat, tuman, shahar, qishloqlarni tashkil qiluvchi ma'muriy-hududiy chegaralarni joyning o'zida aniqlash (aniqlik kiritish), belgilash va o'rnatish ishlarini belgilangan tartibda (chegara belgilari va hujjatlari asosida) rasmiylashtirish;
- ❖ yer tuzish ishlarini zamonaviy texnologiyalar asosida majmuaviy olib borishni takomillashtirish;
- ❖ sug'oriladigan yerlarning elektron xaritalarini yaratish va yangilab borish hamda tuproq bonitirovkasi ishlarini belgilangan tartibda bajarish;
- ❖ sug'oriladigan yerlarning cho'llanish, eroziya, sho'rlanish, tuproq unumdor qatlamining o'ta nochor holga kelishi, gumus va oziqa moddalari miqdorini kamayishi, xaydalma va haydov osti qatlamlarining zichlanishi hamda texnologik ifloslanish jarayonlarining oldini olishga yo'naltirilgan majmuaviy masalalarni muntazam ravishda hal etib borish;
- ❖ qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining qishloq xo'jalik yerlari normativ qiymat bahosini belgilangan tartibda sifatli aniqlanishini ta'minlash;
- ❖ davlat kadastrlari axborot almashuvini tashkil qilishda, yagona davlat siyosatini amalga oshirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish;
- ❖ davlat yer kadastrini yuritish sohasida tizimli ravishda kadrlar tanlash, ta'minlash, malakasini oshirish;
- ❖ davlat yer kadastrini yuritish bilan bog'liq bo'lgan manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan bo'lgan faoliyatni muvofiqlashtirish;

- ❖ davlat kadastrlari yagona tizimini yuritishda qo‘mita bo‘linmalarining axborotlarini muntazam ravishda yig‘ish, tahlil qilish, saqlash va yangilash ishlarini amalga oshirish hamda nazorat qilish;
- ❖ ko‘chmas mulk ob‘ektlarining shakllantirishga doir dasturlarini ishlab chiqilishini ta‘minlash;
- ❖ iqtisodiyotga tarkibiy va institutsional qayta qurish talablariga javob beradigan yer bozorini tiklash hamda rivojlantirish;
- ❖ davlat yer kadastri yuritishning hozirgi zamon qonunchiligi va normativ texnologiyalarning talablariga javob bera oladigan tizimini shakllantirishni takomillashtirish;

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturining izchil amalga oshirilishi, iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashtirilishi va rivojlantirilishida respublika yer resurslaridan samarali va maqsadli foydalanishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatining amalga oshirilishi masalalarining muommalarini yechilishiga imkoniyatlar yaratib, alohida e‘tibor qaratilishini ta‘minlash maqsadga muvofiqdir.

10.3. YER MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVINI AMALGA OSHIRUVCHI DAVLAT ORGANLARI VA ULARNING VAKOLATLARI

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini quyidagi davlat organlari amalga oshiradi:

- ❖ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- ❖ Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi;
- ❖ viloyatlar davlat hokimiyati ;
- ❖ Toshkent shahri davlat hokimiyati;
- ❖ tumanlar davlat hokimiyati;
- ❖ viloyatga (Qoraqalpog‘iston Respublikasida - respublikaga) bo‘ysunuvchi shaharlar davlat hokimiyati;

- ❖ O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi;
- ❖ O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi.

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yer munosabatlarini
tartibga solish sohasidagi vakolatlari**

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- ❖ yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ❖ yer Kodeksiga, boshqa qonun hujjatlariga muvofiq yer munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish;
- ❖ tuproq unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan davlat dasturlarini tasdiqlash;
- ❖ qishloq xo‘jaligining tabiiy moslashuvi jihatidan yerlarni rayonlashtirish, yer tuzishni, yer monitoringi o‘tkazishni va davlat yer kadastrini yuritilishini tashkil etish;
- ❖ davlat mulkidagi yerlarni tasarruf etish, chunonchi yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy foydalanishga yoki ijaraga maqsadi va miqdoridan qat’iy nazar yer uchastkasini berish va belgilangan tartibda qabul qilingan qaror asosida olib qo‘yish;
- ❖ shu jumladan; qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, ommaviy dam olish maqsadlariga mo‘ljallangan va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlarni, shahar atrofi yerlarini va shaharlarning yashil zonalari yerlarini, o‘rmon o‘simliklari bilan qoplangan yerlarni, tajriba-ishlab chiqarish, o‘quv, o‘quv-tajriba va o‘quv-ishlab chiqarish xo‘jaliklari, ilmiy-tadqiqot va boshqa qishloq xo‘jalik muassasalari va tashkilotlarining ilmiy-tadqiqot va ta’lim maqsadlari uchun berilgan yerlarni qabul qilingan qaror asosida olib qo‘yish;

- ❖ xorijiy davlatlarning diplomatiya vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan halqaro tashkilotlarga mazkur vakolatxonalarning binolarini, shu jumladan vakolatxona boshlig'i qarorgohini qurish uchun yer uchastkalarini mulk etib sotish;
- ❖ alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, ommaviy dam olish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, shahar atrofi yerlari va shaharlarning yashil zonalarini yerlari, o'rmon o'simliklari bilan qoplangan yerlarni qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan ehtiyojlar uchun yuridik hamda jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda qarori bilan berish;
- ❖ yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha vazirliklar hamda idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- ❖ yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini tashkil etish;
- ❖ yer uchastkalarini xususiylashtirish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish;
- ❖ yer uchastkalarini xususiylashtirish shartlari va tartibini belgilash;
- ❖ xususiylashtirilayotgan yer uchastkalarining bozor qiymatini aniqlash tartibini belgilash;
- ❖ yer munosabatlarini tartibga solish sohasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- ❖ tuproq unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish, yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish bo'yicha hududiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ❖ yer tuzishni, yer monitoringi o'tkazishni va davlat yer kadastri yuritishni shuningdek yerlardan foydalanish va yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni tashkil etish;
- ❖ yuridik shaxslarga qishloq xo'jalik ehtiyojlari hamda boshqa davlat va jamoat ehtiyojlari uchun foydalanishga va ijaraga yer berish va ularni olib qo'yish;
- ❖ alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, ommaviy dam olish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, shahar atrofi yerlari va shaharlarning yashil zonalari yerlari, o'rmon o'simliklari bilan qoplangan yerlar, tajriba-ishlab chiqarish, o'quv, o'quv-tajriba va o'quv-ishlab chiqarish xo'jaliklari, ilmiy-tadqiqot va boshqa qishloq xo'jalik muassasalari va tashkilotlarining ilmiy-tadqiqot va ta'lim maqsadlari uchun berilgan yerlardan tashqari barcha yerlarni o'lchamidan qat'i nazar qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan ehtiyojlar uchun yuridik hamda jismoniy shaxslarga, jumladan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga, halqaro birlashmalar va tashkilotlarga, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanishga yoki ijaraga berish va ularni olib qo'yish,
- ❖ erkin iqtisodiy zonalarda yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan chet el yuridik va jismoniy shaxslarga erkin iqtisodiy zonaning bosh planiga muvofiq yer uchastkalarini muddatli (vaqtincha) foydalanishga berish;
- ❖ yer uchastkalarini Toshkent shahrida yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer turidan qat'i nazar belgilangan tartibda fuqarolarga berish;
- ❖ majmuaviy uy-joylar va ijtimoiy binolar va muxandislik inshootlarini qurish uchun maxsus tashkil etilgan yuridik shaxslarga yer massivlarini vaqtinchalik foydalanishga berish;

- ❖ yer uchastkasidan foydalanish, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish, unga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini belgilangan tartibda qaror asosida bekor qilish;
- ❖ qishloq xo'jaligiga muljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida qaror qabul qilish va ularning hisobini yuritishni tashkil etish;
- ❖ yer munosabatlarini tartibga solish sohasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

Tumanlar davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar tumanlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradi:

- ❖ tuproq unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish, yerlardan oqilona va samarali foydalanish hamda ularni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ❖ yer tuzishni, yer monitoringi, davlat yer kadastri yuritilishini, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini tashkil etish;
- ❖ qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan ehtiyojlar uchun yuridik hamda jismoniy shaxslarga foydalanishga, ijaraga yoki xususiy mulk qilib barcha yer fondi toifalarining qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlaridan – har bir yerdan foydalanuvchi va mulkdoriga o'n gektargacha o'lchamda berish yoki sotish;
- ❖ ixtiyoriy ravishda qaytarilayotgan barcha yer uchastkalarini olib qo'yish;

- ❖ fuqarolarga fermer xo‘jaligini, shuningdek yuridik shaxslarga tovar qishloq xo‘jaligini yuritish uchun yerlarni ochiq tanlov asosida ijaraga berish;
- ❖ fuqarolarga dehqon xo‘jaligini yuritish uchun mazkur belgilangan o‘lchamlarda berish;
- ❖ fuqarolarga yer uchastkalarini yakka tartibda uy-joy qurish uchun belgilangan o‘lchamda meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi bilan berish yoki xususiy mulk huquqi asosida kim oshdi savdosi orqali sotish;
- ❖ qishloq xo‘jaligiga muljallanmagan yer uchastkalarini, shuningdek foydalanilmayotgan yoki samarasiz foydalanilayotgan bino – inshootlar xatlovini tashkil etish va bush turgan yer uchastkalarini xususiylashtirish maqsadida ro‘yxatini tasdiqlash;
- ❖ yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarini belgilangan tartibda qaror asosida muvofiq bekor qilish;
- ❖ qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari tashkil etilgan, qayta tashkil etilgan va tugatilgan hollarda, ularning yerdan foydalanish masalalarini hal etish;
- ❖ yer munosabatlarini tartibga solish sohasida tumanlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

Shaharlar davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradi:

- ❖ yerlardan oqilona va samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

- ❖ yer tuzishni, yer monitoringi va davlat yer kadastri yuritilishini, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini tashkil etish;
- ❖ yer uchastkasining o'lchamidan qat'i nazar, shahar chegarasi doirasida yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanishga, ijaraga va meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berish va shuningdek xususiy mulk qilib yer uchastkalarini sotish, shuningdek yerlarni olib qo'yish, bundan qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligida foydalaniladigan yerlar mustasno;
- ❖ fuqarolarga yer uchastkalarini yakka tartibda uy-joy qurish uchun belgilangan o'lchamda meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi bilan berish yoki xususiy mulk huquqi asosida kim oshdi savdosi orqali sotish
- ❖ qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarining, shuningdek foydalanilmayotgan yoki samarasiz foydalanilayotgan bino – inshootlar xatlovini tashkil etish va bo'sh turgan yer uchastkalarini xususiylashtirish maqsadida ro'yxatini tasdiqlash;
- ❖ yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarini bekor qilish;
- ❖ yer munosabatlarini tartibga solish sohasida shaharlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining vakolatlariga kiradi:

- ❖ yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash;

- ❖ mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda tuproq unumdorligini saqlash, tiklash va oshirish bo'yicha, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan davlat dasturlarini ishlab chiqish;
- ❖ yerlardan foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- ❖ yerga oid qonun hujjatlari buzilishini bartaraf etishga va yerdan oqilona foydalanish, uni muxofaza qilish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;
- ❖ aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolarni belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish, yerga oid qonun hujjatlari buzilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplash haqida sudlarga davlat boji to'lovizsiz davolar kiritish, yerga oid qonun hujjatlari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan taqdimnomalar kiritish va materiallarni huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etish;
- ❖ yer tuzish, yer monitoringini o'tkazish va davlat yer kadastrini yuritish hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- ❖ Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning ma'muriy chegaralarini belgilash (kengaytirish) bo'yicha materiallarni tayyorlash;
- ❖ yer resurslarini xatlovdan o'tkazish, xatlov yakunlarini qo'mita qoshida tuzilgan ekspert guruhi ishtirokida ko'rib chiqish va yer hisobotiga qabul qilish;
- ❖ yaylovlarda geobotanik tadqiqotlar olib borish;
- ❖ yer uchastkalarini olib qo'yish va yuridik va jismoniy shaxslarga berish bo'yicha yer tuzish ishlarini bajarish;
- ❖ xususiylashtirish maqsadida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xatlovdan o'tkazish, yer uchastkalarini xaritalarini tuzish, bo'sh turgan yer uchastkalarni ro'yxatini shakllantirish;

- ❖ qishloq xo'jaligiga muljallanmagan yer uchastkalarining xususiylashtirilishi bo'yicha hisobotlar tuzish va ularning hisobini yuritish;
- ❖ yer munosabatlarini tartibga solish bo'yicha qonun hujjatlarini ishlab chiqish;
- ❖ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal qilish.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining vakolatlariga kiradi:

- ❖ qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan ehtiyojlar uchun yuridik hamda jismoniy shaxslargaer uchastkalarini berish bo'yicha materiallarni ekologiya ekspertizasidan o'tkazish;
- ❖ yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- ❖ qishloq xo'jaligi va boshqa yerlarni yaroqsiz holatga keltirish, yerlarning kimyoviy va radioaktiv moddalar, ishlab chiqarish chiqindilari bilan ifloslanishi bo'yicha monitoringini amalga oshirish;
- ❖ yerdan foydalanuvchilar tomonidan tuproqni muhofaza qilish tadbirlarining bajarilishi hamda muddatli (vaqtincha) foydalanishga berilib, qurilish, foydali qazilmalar qazib olish va boshqa ta'sirlar natijasida buzilgan yerlarni ular tomonidan foydalanish uchun yaroqli holga keltirilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- ❖ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Yer uchastkalari berish masalalarini ko'rib chiquvchi komissiyalar

Yuridik va jismoniy shaxslarga yer uchastkalarini foydalanishga, ijaraga, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga va xususiy mulk qilib berish masalalarini ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahri, viloyatlar

hamda tuman(shahar) xokimlari boshchiligida yer uchastkalarini berish masalalarini ko'rib chiquvchi komissiyalar tuziladi.

Komissiyalar tarkibiga Daverageodezkadastr qo'mitasining "O'zdaverloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti xududiy bo'linmalari (komissiya kotibi), qishloq hujaligi, suv xo'jaligi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, qurilish, favqulotda vaziyatlar, geologiya va mineral resurslar, moddiy madaniy meros ob'ektlarini saqlash, davlat mulkini boshqarish, sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillari va boshqa shaxslar kiritiladi. Yuqorida qayd etilgan organlarning tuman miqyosida bo'limlari bo'lmasa, tuman komissiyasiga tarkibiga viloyat organlarining vakillari ham kiritilishi mumkin.

Yer uchastkalari berish masalalarini ko'rib chiquvchi komissiyalar yer uchastkalarini yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanishga, ijaraga, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga, xususiy mulk qilib berishga oid hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni bekor qilishga oid materiallarni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) hokimlari tomonidan tasdiqlanadigan yer munosabatlarini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan boshqa materiallarni ko'rib chiqadi va ular bo'yicha o'z xulosalarini taqdim etadi.

Yer uchastkalari berish masalalarini ko'rib chiquvchi komissiyalar o'z faoliyatini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

10.4. YER XUSUSIDAGI NIZOLAR, ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI VA TARTIBI.

Yer xususidagi nizolar kelib chiqish sabablari yerlarni egalik qilish, foydalanish uchun berish, chegaralarni belgilash, qaytarib olish, yerlardan foydalanish va muhofaza qilish qoidalarini buzish natijasida vujudga keladi.

Yer xususidagi nizolar yer to'g'risidagi qonun hujjatlariga asosan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida yer xususidagi nizolar sud va davlat hokimiyati

organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi. Bunda har bir organning nizoni hal qilish bo'yicha vakolati o'z hududi chegarasida aniq belgilangan bo'lib bu katta amaliy ahamiyatga ega.

- ❖ Birinchidan – bu nizo yuzasidan shikoyat yoki ariza berishda anglashilmovchiliklar kelib chiqishini oldini oladi.
- ❖ Ikkinchidan – yuridik shaxslar va hokimiyat organlarining ma'suliyatini oshiradi.
- ❖ Uchinchidan – nizolarni hal qilish muddatlari qisqaradi.

Yer xususidagi nizolarni hal qiluvchi davlat hokimiyat organlari tizimi quyidagicha: o'zini-o'zi boshqaruv idoralari (M.F.Y) ular hududidagi yerlardan foydalanish masalalari yuzasidan fuqarolar o'rtasida chiqqan nizolarni hal qiladilar.

Shahar hududida yerga egalik qilish va yerdan foydalanish masalalarida davlat, kooperativ va jamoat korxonalari bilan fuqarolar o'rtasida yuzaga kelgan nizolar shahar hokimiyati idoralari tomonidan hal qilinadi.

Tuman hokimiyat idoralari shu tuman hududidagi yerga egalik qilish va yerdan foydalanish masalalarida shirkat xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari birlashmalari va ular bilan fuqarolar o'rtasida chiqqan nizolarni hal qiladi.

Turli viloyatlarga qarashli korxonalar o'rtasida chiqqan nizolar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan hal qilinadi.

Yer xususidagi nizolarni hal etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- ❖ nizoni qo'zg'atish
- ❖ nizoni ko'rib chiqish
- ❖ nizo bo'yicha qaror qabul qilish
- ❖ qarorni bajarish

Zararni undirish bo'yicha yuzaga kelgan nizolar yer munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan mulkiy nizolar hisoblanadi.

Mulkiy nizolarga quyidagilar kiradi:

- ❖ davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yishda zararlarni undirish bilan bog'liq bo'lgan nizolar.
- ❖ qurilish va boshqa ishlar natijasida buzilgan yerlarni qayta tiklash uchun xarajatlar qiymati bo'yicha nizolar.
- ❖ shirkat xo'jaligi yerlarini o'zboshimchalik bilan egallab olish natijasida ko'rilgan zararni to'lash bo'yicha nizolar.
- ❖ yer uchastkalari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilganda uy-joylar buzilgani uchun yer maydoni berish bilan bog'liq nizolar.

Yerning huquqiy muhofazasi bu ularni huquqiy vositalar yordamida muhofazalash, ya'ni davlat organlari yerlariga nisbatan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarning huquq va majburiyatlarini o'rnatishini ko'zda tutadi. Muhofaza yerlardan oqilona foydalangan yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni iqtisodiy rag'batlantirish va qonun-buzarlarni jazolash yo'li bilan olib boriladi.

Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish, davlatning yerga egalik huquqini, hamda yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning huquqlarini buzish jamiyat uchun xavfli bo'lgan qonunbuzarliklardan biri hisoblanadi.

Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan amalga oshirilgan yer uchastkalari oldi-sotdisi, ularni hadya qilish, garovga qo'yish (qonunda ko'zda tutilgan umrbod egalik qilish huquqi, kim oshdi savdosi asosida olingan huquq, yer uchastkasini ijaraga olish huquqi bundan mustasno), yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan ayirboshlash qonunga binoan haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Yer uchastkasi oldi-sotdisi deganda qonunga xilof ravishda haq to'lash evaziga o'z foydalanish huquqini boshqa sub'ektga o'tkazish tushuniladi.

Yerlarni hadya qilish - o'zboshimchalik bilan yer uchastkasini bepul (haqsiz) biror shaxsga yoki tashkilotga foydalanish uchun berish.

Yerlarni garovga qo'yish deganda o'zboshimchilik bilan o'z foydalanish huquqini kredit beruvchiga, biror bir majburiyatni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lum vaqtga berish ko'zda tutiladi.

Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun huquqiy sanksiyalar qo'llanmaydi. Ular o'z navbatida mazmuniga ko'ra ko'rinishlarda bo'ladi:

- ❖ yerga huquqiy
- ❖ jinoiy
- ❖ mulkiy
- ❖ ma'muriy

Jinoiy javobgarlik - qonun hujjatlarini buzgan shaxslarga nisbatan sud tomonidan tegishli jazoni qo'llash.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga asosan (229-modda) yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish yoki ayriboshlash, oldi-sotdini amalga oshirish yoki boshqa qonunni buzuvchi harakatlar uchun ma'lum muddatga (1-3 yil) axloq to'zatish ishlari yoki jarima to'lash (eng kam ish haqining 50-100 baravari miqdorida), 6 oygacha kamoq yoki 8 oygacha ozodlikdan maxrum qilish bilan jazolanadilar, yuridik shaxslar esa o'z vazifalaridan chetlashtiriladilar (215-modda).

Yerdan foydalanish va yerni muhofazalash borasida sodir etilgan huquqbuzarlik uchun javobgarlik uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining (MJTK) quyidagi moddalariga to'g'ri keladi:

- ❖ yerdan xo'jasizlarcha foydalanish;
- ❖ ob'ektlar qurilishi paytida tuproqning unumdor qatlamini olmaslik;
- ❖ yer maydonlaridan boshqa maqsadlarda foydalanish;
- ❖ yerlarni foydalanishdan chiqishiga, hosildorlik pasayishiga, tuproqning unumdor qatlami bo'zilishi yoki yo'q bo'lib ketishiga olib keladigan boshqa harakatlarni sodir etish;
- ❖ tanazzulga yuz tutgan qishloq xo'jaligi yerlarini konservatsiyalashning boshlangan tartibini bo'zish;
- ❖ qishloq xo'jaligi va boshqa yerlarni yaroqsiz holga tushirish;

❖ yerlarni ishlab chiqarish chiqitlari va boshqa chiqindilar, kimyoviyva radiaktiv moddalar hamda oqova suvlar bilan ifloslanish.

Shunday qonunbuzarlikni sodir etish 65-modda bo'yicha fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan – uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xo'jalik ichidagi yer tuzish loyihalaridan chetlanish, Davlat yer kadastrini yuritish qoidalarini buzish (68-modda):

- ❖ tasdiqlangan yer tuzish loyiha hujjatlaridan tegishli ruxsat bo'lmay turib chetga chiqish;
- ❖ tegili davlat hokimiyati organlari bilan kelishmay turib ob'ektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish va ularni foydalanishga topshirish;
- ❖ davlat yer kadastrini yuritish qoidalarini bo'zish;
- ❖ yerdan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarni bo'zib ko'rsatish;
- ❖ yerdan foydalanish to'g'risida axborotlar berishdan bo'yin tovlash yoki noto'g'ri axborot berish.

Shu kabi qonun buzarliklarni sodir etish 68-modda bo'yicha fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qismidan, bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa-bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday qonunbuzarliklar agarda tegishli ma'muriy jazo chorasini qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilsa u holda fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solinadi.

MJTK ning 266(1) moddasiga binoan Yer resurslari Davlat qo'mitasi, organlari nomidan ma'muriy huquqbo'zarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida quyidagi huquqqa egadir:

- ❖ O'zbekiston Respublikasi yerdan foydalanish va uni muhofazalash ustidan nazorat qilish bo'yicha Davlat bosh inspektori va uning o'rinbosarlari – fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yetti baravarigacha;

- ❖ Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlarning yerdan foydalanish va uni muhofazalash ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat inspektorlari fuqarolarga eng kam ish haqining ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravarigacha miqdorda jarima solishga haqlidir.

Yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlari yuridik shaxslar yoki korxona, tashkilot va muassasalarning xodimlari tomonidan bo‘zilsa va shu bilan bir vaqtda mehnat intizomi ham bo‘zilgan deb hisoblansa ularga nisbatan tartibga chaqiruvchi javobgarlik sanksiyalari qo‘llaniladi.

Yerga oid nizoni qo‘zg‘atish tartibi

Yerga oid nizolar tomonlardan birining davlat boshqaruvining tegishli organlariga bergan arizasi bo‘yicha qo‘zg‘atiladi, bu organ arizani ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lishi kerak.

Sudlarda yerga oid nizolarni qo‘zg‘atish, qarab chiqish va shikoyat qilish tartibi - O‘zbekiston Respublikasining grajdanlik-protsessual qonunchiligi bilan, hakamlik sudlarida esa - xo‘jalik nizolarini ko‘rib chiqish qoidalari bilan belgilanadi.

Arizada quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

- ❖ ariza yuborilayotgan organning nomi, ariza jo‘natilgan sana;
- ❖ nizoning kelib chiqish sabablari va arizachi tomonidan yerga oid nizoni bartaraf etishga erishish uchun ko‘rilgan choralar haqidagi ma’lumot;
- ❖ yerga oid nizoning mohiyati, da’vo qilinayotgan talabning holatlari va dalillar.

Muayyan vaziyatlardan kelib chiqib arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

- ❖ yerga egalik qilish yoki foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;
- ❖ reja-kartografiya materiallari;
- ❖ yerga oid nizoni oldindan ko‘rib chiqish bayonlari, xatlar, aktlar, xulosalar va boshqa hujjatlar;
- ❖ mazkur yerga oid nizoga aloqador boshqa ma’lumotlar, ma’lumotnomalar, dalillar.

Hujjatlarning asl nusxasi, shuningdek, ularning nusxalari yoki ko‘chirmalari O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligi bilan belgilangan tartibda tasdiqlangan holda taqdim etilishi mumkin.

Agar ariza ushbu Nizom bilan va amaldagi qonunlar bilan belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan bo‘lsa, u qarab chiqilmay qaytarilishi mumkin.

Yerga oid nizolarni ko‘rib chiqish tartibi

Davlat boshqaruvining tegishli organi arizani 5 kun muddat ichida qarab chiqadi hamda yerga egalik qilish va yerdan foydalanish masalalariga oid nizolarni hal etish bo‘yicha materiallarni o‘rganish va tayyorlash uchun komissiya tuzadi.

Nohiya va viloyat komissiyalari tarkibiga quyidagi shaxslar kiradi:

- ❖ nohiya yoki viloyat hokimining o‘rinbosari - komissiya raisi;
- ❖ komissiya a‘zolari:
- ❖ xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining deputatlari;
- ❖ yer tuzish xizmatining xodimlari;
- ❖ tabiatni muhofaza qilish organlarining vakillari.

Zarurat bo‘lganda komissiya ishiga boshqa mutaxassislar ham jalb etiladilar.

Aholi yashaydigan qishloq joylarda va shahar posyolkalarida yerga oid nizolarni hal etish bo‘yicha materiallar tegishli xalq deputatlari Kengashining deputatlar komissiyasi tomonidan tayyorlanadi.

Yerga oid nizolarni ko‘rib chiqishda tomonlarga aloqador yuqori turuvchi organlar qatnashishi mumkin, bunda ular bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladilar.

Ayrim hollarda hududning zarur topografik, tuproq va boshqa xususiyatlarini tadqiq etish uchun yer tuzish ekspertizasi tayinlanishi mumkin.

Ekspertiza o‘tkazishni mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan davlat yer tuzish tashkilotlariga topshirish lozim.

Zarurat bo‘lganda ekspertiza tomonlarning vakillari ishtirokida o‘tkaziladi va bu hujjatlar bilan tasdiqlanadi

Yerga oid nizolarda qatnashuvchi tomonlar yerga oid nizoni hal etishga taalluqli bo'lgan materiallar bilan tanishib chiqish, ulardan ko'chirmalar olish, yerga oid nizolar ko'rib chiqilayotganda qatnashish, hujjatlar va boshqa dalillarni taqdim etish, iltimosnomalar berish, og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, boshqa tomonning iltimosnomasiga, vajlariga va mulohazalariga e'tiroz bildirish, yerga oid nizo bo'yicha qarorlarning nusxasini olish va norozi bo'lgan hollarda ushbu qaror ustidan shikoyat qilish huquqiga egadirlar. Yerga oid nizolarni qarab chiqayotgan organ yoki komissiya chaqirtirganida tomonlar kelishga, masalaning mohiyati yuzasidan mavjud materiallar, ma'lumotlar va tushuntirishlar berishga majburlanadirlar.

Yerga oid nizolar komissiya tomonidan manfaatdor tomonlar ishtirokida ko'rib chiqiladi, tomonlarga nizo ko'rib chiqiladigan vaqt va joy 3 kun avval ma'lum qilinishi kerak. Tomonlardan biri kelmay qolsa, agar undan bu ish uning ishtirokisiz ko'rib chiqish xususida ariza tushma-gan bo'lsa, ishni ko'rib chiqish kechiktiriladi.

Ikkinchi marta chaqirtirilganda tomonlarning uzrli sabab bo'lma-gani holda kelmasligi yerga oid nizoning ko'rib chiqilishini to'xtatmaydi.

Yerga oid nizolarni ko'rib chiqish natijalari komissiya tomonidan hujjatlashtirilib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- ❖ yerga oid nizo qarab chiqilgan sana va joy;
- ❖ nizoni ko'rib chiqishda ishtirok etgan rais, komissiya a'zolari, tomon-larning vakillari va boshqa shaxslarning familiyasi va lavozimi;
- ❖ yerga oid nizoning mohiyati, komissiya xatti-harakatlarining tafsiloti, qaror qabul qilish chog'ida komissiya amal qilgan ekspertiza xulosalari, dalillar;
- ❖ komissiyaning xulosalari;
- ❖ ilova etilayotgan materiallar va hujjatlarning ro'yxati;
- ❖ rais va komissiya a'zolarining imzolari.

Yuridik adabiyotlarda uzoq vaqtlar yer nizolarini tasniflashning yuridik omili sifatida ularni hal etishning tartibi qo'llanilib kelingan. Bu omilga ko'ra nizolar

ma'muriy va sud tartibida hal bo'ladigan turlarga bo'lingan. Hozirda esa bu tartib dolzarb bo'lmay qoldi, chunki Yer kodeksi yer nizolarini hal etishning sud tartibini belgilagan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 3 fevraldagi 3-sonli yer kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risidagi qarorida belgilanishicha, Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi fuqarolarni huquqlarini buzuvchi xatti-xarakatlari va qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar va yerga oid huquqiy munosabatlar yuzasidan kelib chiqqan nizolar sudlarga taalluqlidir.

Yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan quyidagi nizolar:

- ❖ yer uchastkasini olib qo'yish to'g'risidagi qakolatli organlarning qarorini bekor qilish va u bilan bog'liq yetkazilgan zararni o'rnini qoplash; yer uchastkasini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish va qayta sotib olish natijasida yetkazilgan zarar o'rnini qoplash;
- ❖ yer uchastkasidan belgilanganidan boshqa maqsadlarda yoki yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan holda foydalanganida yer uchastkasini olib qo'yish;
- ❖ servitutni belgilash yoki bekor qilish;
- ❖ yer uchastkasiga egalik qilish va foydalanish huquqi bilan bog'liq bo'lmagan huquq buzilishlarini bartaraf etish; birgalikda egalik qilinadigan yoki foydalaniladigan yer uchastkasidan foydalanish tartibini belgilash va uni bo'lish;
- ❖ yer uchastkasini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish;
- ❖ yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni tugatish;
- ❖ yer kodeksining 86, 87-moddalarida nazarda tutilgan hollarda yer egalari, yerdan foydalanuvchilar,
- ❖ yer uchastkalari ijarachilariga va mulkdorlariga yetkazilgan zarar o'rnini qoplash;
- ❖ yer uchastkalarining ijara shartnomasi bilan bog'liq va boshqa nizolar da'vo ish yuritish tartibida ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksining 23-moddasiga muvofiq, yuridik shaxslar, yuridik shaxs tuzmagan xolda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibda tadbirkor maqomiga ega bo'lgan fuqarolar o'rtasida kelib chiqqan xo'jalik sudlariga taalluqli nizolardan tashqari qolgan barcha ishlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 31-moddasining 1-bandiga asosan umumyurisdiksiya sudlariga taalluqli bo'ladi.

Nizolarning sub'ektlari ham yer nizolarini tasniflash belgisi bo'lishi mumkin. Ushbu belgi bo'yicha tasniflashning mohiyati shundaki, nizoning sub'ektiga bog'liq ravishda nizoning kimning qaramog'ida ekanligini farqlash amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, tomonlaridan biri yoki har ikki tomoni fuqarolar bo'lgan nizolarni hamda yuridik shaxslar o'rtasida vujudga keladigan nizolarni farqlaymiz.

Tomonlaridan biri yerga egalik qilish yoki yerdan foydalanish huquqini amalga oshirayotgan fuqaro bo'lgan yer nizolarining o'ziga xos belgisi shundaki, bunday hollarda nizo fuqaroviy-protsessual huquqining umumiy normalarini qo'llagan holda fuqarolik sudda ko'rib chiqiladi.

Yuridik shaxslar o'rtasida vujudga keladigan nizolarning o'ziga xosligi shundaki, bunday nizolar faqatgina xo'jalik sudi muhokamasining protsessual normalarini qo'llagan holda xo'jalik sudida qo'rib chiqiladi. Ammo bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, nizolarni hal etishning moddiyhuquqiy asosi har ikki holda ham bir xil bo'ladi. Yerdan foydalanuvchilar va yerga egalik qiluvchilar o'rtasida vujudga keladigan nizolarni esa yerdan foydalanish va yerga egalik qilish bitta yoki boshqa-boshqa turlarga taalluqli ekanligiga bog'liq ravishda bir-biridan farqlash mumkin. Bu belgi bo'yicha shirkatlar o'rtasidagi, fuqarolar o'rtasidagi, shirkatlar va dehqon xo'jaliklari o'rtasidagi nizolarni ajratib ko'rsatish mumkin. Noqishloq xo'jalik yo'nalishidagi yerlardan foydalanish doirasida bitta idoraga qarashli bo'lgan korxonalar va muassasalar o'rtasidagi nizolarni va turli idoralar o'rtasidagi nizolarni ko'rsatish mumkin.

Yerdan foydalanuvchilar va yerga egalik qiluvchilar o'rtasida paydo bo'ladigan nizolarning o'ziga xosligi shundaki, bular yerdan foydalanish huquqining amalga oshirilishi jarayonida vujudga keladi hamda turli toifadagi yerdan foydalanuvchilar va yerga egalik qiluvchilarning qonuniy huquqlari va manfaatlarining g'ayrihuquqiy xatti-harakatlari natija-sida buzilishiga bog'liq bo'ladi.

Shahar yerlarida, shuningdek, dala hovli va kurort posyolkalarida va qishloq aholi punktlariga ajratib berilgan yerlarda joylashgan binolarning mulkdorlari o'rtasida paydo bo'ladigan nizolar yer nizola-rining turli toifalariga xos bo'lishi mumkin.

Bozor munosabatlarining taraqqiyoti, xo'jalik yuritish shakllarining va mulkchilik sub'ektlarining o'zgarishi yer-huquqiy nizolari xarakterining o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Agar ilgari yer nizolari qishloq xo'jaligi sohasida yerdan foydalanish huquqi sub'ektlari o'rtasida yer uchastkalarini taqsimlash va qayta taqsimlash yuzasidan vujudga kelgan bo'lsa, hozirga kelib yer nizolarining nafaqat sub'ektiv tarkibi, balki shu bilan birga xarakteri ham o'zgarib bormoqda.

Respublikamizda yer munosabatlari taraqqiyotining birinchi bosqichlarida yer nizolarining asosiy qismi yerga nisbatan bo'lgan huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq ravishda yerdan foydalanuvchilarning mavjud huquqlari yuzasidan vujudga kelgan bo'lsa, yerga egalik qilish institutining kiritilishi bilan bog'liq ravishda hozirgi kunda yerdan foydalanuvchilar va yerga egalik qiluvchilar, shuningdek yerdan foydalanuvchilar va yerga egalik qiluvchilar hamda yerlarni tasarruf qilish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari o'rtasida bo'lg'usi huquqlar yuzasidan vujudga kelmoqda. Buning sababi shundaki, yerlar hozirgi kunda asosan yerdan foydalanuvchilar va yerga egalik qiluvchilar o'rtasida taqsimlangan. Bozor munosabatlarining rivojlanishi, yangi ishlab chiqarish binolarining qurilishi, transport yo'llari va shaharlarning barpo etilishi xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan yerdan foydalanuvchilar o'rtasida yerlarni

qayta taqsimlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa tez-tez alohida yerdan foydalanuvchilar o'rtasida yer nizolarining kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Nodavlat iqtisod sektorining taraqqiy etishi, shuningdek sanoat, transport va xalq xo'jaligining boshqa sohalarining rivojlanishi sanoat, qurilish va boshqa noqishloqxo'jalik sohalari yo'lida shirkatlar va qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan boshqa yerdan foydalanuvchilardan olib qo'yilayotgan qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi yerlardan foydalanishga olib keldi. Shu sababdan, yer nizolarining asosiy qismi ba'zi shaxslarda yerdan foydalanish va yerga egallik qilish huquqining paydo bo'lishi hamda boshqalarda bu huquqning cheklanishi yoxud batamom tugatilishi bilan bog'liq ekanligiga hozirgi paytda ajablanmasa ham bo'ladi. Noqishloq-xo'jalik maqsadlariga yer ajratib berish va yerlarni olib qo'yish bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan yer nizolarini tasniflashda qo'yidagilarga e'tibor qaratish lozim. Amaldagi qonunchilikka binoan yer uchastkalarini ajratib berish to'g'risida iltimosnomani qondirish bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda ob'ektning joylashgan joyini kelishib olish xususida tegishli davlat organlariga iltimosnoma beriladi. Unda yer uchastkasining taxminiy maydoni hamda ushbu ob'ektning rejalashtirilayotgan joyi ko'rsatiladi. Tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari yer uchastkasini tanlash uchun komissiya tashkil qiladilar. Komissiya tarkibida mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlari bilan bir qatorda yer tuzish xizmati xodimlari, korxonalar, muassasalar, yer uchastkasining berilishidan manfaatdor tashkilotlar vakillari va foydalanishi yoki egaligidan yeri olib qo'yilayotgan tashkilotlar vakillari bo'ladi. Aynan mana shu bosqichda yerning olib qo'yilishi bilan bog'liq turli kelishmovchiliklar va nizolar yuzaga keladi. Bu kelishmovchiliklar yuqorida tilga olingan komissiya tomonidan qimmatbaho mahsuldor yerlarni asrab qolish zaruriyatini hisobga olgan holda hal etiladi. Komissiya faoliyati natijalari yer uchastkasi ajratib berilganligi to'g'risidagi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Komissiyaning yerni olib qo'yish to'g'risidagi qaroridan norozi bo'lgan tomon qarorni bekor qilishni so'rab xo'jalik sudiga murojaat qilishi mumkin. Yer

uchastkalarini berish tartibining ikkinchi bosqichi bevosita yer uchaskasini berish to'g'risidagi iltimosnomani taqdim etish va ko'rib chiqishdir. Qoida bo'yicha bu bosqichda yer nizolari yuzaga kelmaydi, chunki olib qo'yilayotgan yer uchastkasining maydoni va joylashgan joyi allaqachon hal etilgan va ob'ekt joylashgan joy to'g'risida dastlabki kelishib olinganlik materiallari yer uchastkasini berish uchun yer tuzish ishlarining ajralmas qismi bo'ladi. Yerdan foydalanuvchilar va yerga egalik qiluvchilardan yer olib qo'yilayotganda yerni olib qo'yish natijasida yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi mulkiy nizolar ham yuzaga kelishi mumkin. Hozirgi paytlarda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini yuritish bilan bog'liq bo'lmagan holdagi maqsadlar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni asossiz ravishda olib qo'yish hollari keng tarqalganligi sababli qishloq xo'jaligi sohasida yerdan foydalanuvchilarga ularning yerlarini olib qo'yish bilan bog'liq ravishda yetkazilgan zararni qoplash xususidagi nizolar soni ko'payib bormoqda. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni olib qo'yish bilan bog'liq ravishda yetkazilgan zararni qoplash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan normativ hujjat bilan tartibga solinadi. Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 15 iyundagi 282-sonli «O'zbekiston Respublikasida yerlarning qishloq va o'rmon xo'jaligini yuritish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyojlar uchun olinishi munosabati bilan qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarilishi nobudgarchiligi xajmlarini aniqlash to'g'risida»gi qaroriga binoan zararni qoplashning amaldagi yer qonunchiligiga qo'proq mos keladigan yangi tartibi belgilandi. Ob'ektning joylashgan joyini dastlabki kelishib olish bosqichida yerlarni olib qo'yish va ularni noqishloqxo'jalik ehtiyojlari uchun berishda yerga egalik qiluvchilar, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar ko'rgan zararlar va yo'qotishlarning miqdori ushbu normativ hujjat bilan tartibga solinadi va yer uchastkalarini olib qo'yish hamda berish bosqichida aniqlanadi. Bunday hollarda yer uchastkalarini jamoat va davlat ehtiyojlari uchun olib qo'yish yoki vaqtinchalik egallash oqibatida yetkazilgan zarar, shuningdek yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar huquqlarining cheklab qo'yilishi (tabiatni muhofaza qilishi va sog'lom-

lashtirish ahamiyatidagi yerlar atrofida sanitariya muhofazasi zonalarining tashkil etilishi hollari bundan mustasno) yoki korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning faoliyati natijasida yerlarning sifati yomonlashganligi oqibatida yetkazilgan zarar ko'rgan yerga egalik qiluvchilarga, yerdan foydalanuvchilarga va ijarachilarga to'liq hajmda to'lanishi kerak. Qishloq xo'jaligi yerlarini qishloq xo'jaligini yuritish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda olib qo'yilishi oqibatida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida yuzaga kelgan hamda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan maydonlarning kamayib yoxud butunlay yo'q bo'lib ketishida yoki korxonalar, muassasalar, tashkilotlar faoliyati ta'sirida ularning sifatining buzilishi, hosildorligining kamayishida ifodalanadigan yo'qotishlar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi darajasini saqlab qolish maqsadida qishloq xo'jalik yerlari maydonlarini tiklash, ularning sifatini yaxshilash yo'li bilan qoplanadi. Yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilardan yerlar olib qo'yilganda yuzaga keladigan yer nizolarining asosiy turlari mana shulardir. Bular yerdan foydalanish va yerga egalik qilish huquqining tugatilishi bilan bog'liq nizolar deb ham ataladi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bunday turdagi nizolar vakolatli davlat organlarining qonuniy xatti-harakatlari sababli yuzaga keladi, natijada yerga egalik qiluvchilar, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning yerdan foydalanish huquqi tugatiladi.

Yer xususidagi nizolar yerlarni egalik qilish va foydalanish uchun berish, qaytarib olish, chegaralarni belgilash, yerlardan foydalanish va muhofaza qilish qoidalarini buzishdan kelib chiqadi. Yerlarga egalik qilish va foydalanish jarayonida har xil holatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunda yer munosabatlari sub'ektlari (jumladan davlat organlari)ning xarakatlari yoki ularning zarur bo'lgan xarakatlarni asossiz bajarmasliklari yer egalari, yerdan foydalanuvchilar hamda davlatning huquqlarini buzilishiga olib keladi.

Masalan, bir sub'ektga berilgan yer uchastkasini ikkinchi sub'ektning o'zboshimchalik bilan egallab olishi va foydalanishi; belgilangan muddatda yer uchastkasini qaytarib bermaslik va hokazo. Shu holatlar oqibatida yuzaga kelgan

munozaralar yer xususidagi nizolar deb ataladi. Yer xususidagi nizolar yerdan foydalanuvchilar o'rtasida, ular bilan davlat boshqaruv organi o'rtasida yuzaga kelishi mumkin. Shuni hisobga olish kerakki nizolar haqiqiy (qachonki haqiqatdan ham huquqlar buzilgan) va xayoliy (qachon shaxs o'z yanglishishi oqibatida huquqlar buzilgan deb hisobaydi) bo'lishi mumkin. Ikkala holatda ham nizolarni hal qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: dastlab nizo qiluvchi-larning nizosi mazmuni va ularning huquqlari chegarasi aniqlanadi, so'ngra ularning bir-biriga nisbatan majburiy hisobangan xarakatlari o'rnatiladi. Agar haqiqatdan ham tomonlardan birining huquqi buzilgan bo'lsa nizo uni tiklash orqali yechiladi, agar u xayoliy bo'lsa nizo tomonlarga ularning huquqlarini tushuntirish orqali yechiladi.

Yer kodeksining 90-moddasiga muvofiq quyidagi holatlarda ham aybdor shaxslar javobgar hisobanadilar:

- ❖ yerlardan belgilangan maqsadda foydalanmaganlikda;
- ❖ yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olganlikda;
- ❖ qishloq xo'jaligi yerlarini va boshqa yerlarni yaroqsiz xolga keltirganlikda, ularni kimyoviy va radioaktiv moddalar, ishlab chiqarish chikindilari va okava suvlar bilan ifloslantirganlikda;
- ❖ yerlarning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ob'ektlarni joylashtirganlikda, qurganlikda, loyihalashtirganlikda, foydalanishga topshirganlikda;
- ❖ yerlardan foydalanishning tabiatni muhofaza qilishga oid talablarini bajarmaganlikda;
- ❖ yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilarga va mulkdorlarga qarashli yer uchastkalarining marza belgilarini yo'q qilinganlikda;
- ❖ davlat yer kadastri ma'lumotlarini buzib ko'rsatganlikda;
- ❖ o'zboshimchalik bilan pichan o'rganlikda va chorva mollar boqqanlikda;
- ❖ yovvoyi o'tlar va zarakunandalarga qarshi kurash choralarini ko'rmaganlikda;
- ❖ yerdan xo'jasizlarcha foydalanganlikda, yerlarning holatini yaxshilash hamda tuproqni suv va xavo eroziyasidan va tuproq holatining yomonlashuviga olib keladigan boshqa jarayonlardan saqlash majburiyatlarini bajarmaganlikda;

❖ yer uchastkalari berish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqishning belgilangan muddatlari va tartibini buzganlikda.

Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun huquqiy sanksiyalar qo'llaniladi. Ular o'z navbatida mazmuniga ko'ra: yerga huquqiy, jinoiy, ma'muriy, tartibga chaqiruvchi va mulkiy ko'rinishga bo'linadi. Yerga huquqiy sanksiyalar yer uchastkasining huquqiy taqdiri bilan bog'liq bo'ladi. Agar yer uchastkasi oldi-sotdisi fuqarolar tomonidan ochiq ko'rinishda amalga oshirilsa, yer uchastkasi qaytarib olinadi. Qaytarib olish to'g'risidagi tegishli davlat hokimiyat organi qarorida yer uchastkasi sotuvini amalga oshirgan shaxsdan (sotuvchi) qaytarib olinishi kerakligi ko'rsatiladi, amalda esa u sotib olgan shaxsdan (xaridordan) tortib olinadi. Agar oldi-sotdi tashkilotlar o'rtasida amalga oshirilgan bo'lsa, yer uchastkasi sotuvchiga qaytariladi. Agar tashkilot yer uchastkasini fuqarodan sotib olgan bo'lsa, u xaridorda qoldiriladi yoki u tortib olinib boshqa foydalanuvchiga beriladi. Qonunga asosan garovga qo'yilgan, xadya qilingan yer uchastkalari ham agar tomonlardan biri tashkilot bo'lmasa davlat hisobiga tortib olinadi. Yer uchastkalari o'zboshimchalik bilan egallab olinganda uni kim egallab olishidan qat'iy nazar qaytarib olinadi.

Xuddi shunday qonunbuzarliklar agarda tegishli ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilsa u holda fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solinadi.

Chegara va marza belgilarini yo'q qilish yoki shikastlantirish (69- modda):
- egalikdagi yoki foydalanishdagi yerlarning chegara belgilarini yo'q qilish yoki shikastlantirish.

Ushbu qonunbuzarlikni sodir etish 69-modda bo'yicha fuqarolarga eng kam ish xaqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Davlat qo‘mitasi, organlari nomidan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va jarima solish tariqasida quyidagi huquqqa egadir:

- ❖ O‘zbekiston Respublikasi yerdan foydalanish va uni muhofazalash ustidan nazorat qilish bo‘yicha Davlat bosh inspektori va uning o‘rinbosarlari – fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yetti baravarigacha;
- ❖ Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlarning yerdan foydalanish va uni muhofazalash ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat inspektorlari fuqarolarga eng kam ish haqining ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravarigacha miqdorda jarima solishga haqlidir.

Yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlari yuridik shaxslar yoki korxona, tashkilot va muassasalarning xodimlari tomonidan buzilsa va shu bilan bir vaqtda mehnat intizomi ham buzilgan deb hisoblansa ularga nisbatan tartibga chaqiruvchi javobgarlik sanksiyalari qo‘llaniladi. Qonunda mulkiy javobgarlikning ikki xil ko‘rinishi ko‘zda tutilgan: chegaralangan va to‘liq. Chegaralangan mulkiy javobgarlikda keltirilgan zararni qoplash uchun oddiy ishchilar yoki xodimlardan ish haqining ma‘lum bir foizi ushlab qolinadi, yuridik shaxslardan esa jarima oylik ish haqining bir necha baravariga teng bo‘ladi.

Misol uchun MJK ning 60-moddasiga asosan mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solinadi. To‘liq mulkiy javobgarlik, asosan korxona bilan individual shartnoma tuzgan xodimlarga nisbatan qo‘llaniladi. Agar keltirilgan zarar qonunbuzarning oylik ish haqining uchdan bir qismidan oshmasa ma‘muriyat qaroriga ko‘ra oylik ish haqidan ushlab qolish orqali qoplanadi. Agar keltirilgan zarar amalda ko‘p bo‘lsa ma‘muriyat talabi bo‘yicha ish sudda ko‘rib chiqiladi.

11-BOB. YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

11.1. YER RESURSLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Boshqaruv munosabatlarining turlari har qanday yer munosabatlarini boshqarish singari, muayyan tizim doirasida shakllanadi. U hodisalar, predmetlar, unsurlarning bir-biri bilan qonuniy bog‘langan, ob‘ektiv birligini ifodalaydi. Ta’kidlagandek, boshqarish tizimi – bu bir-biri bilan bog‘lagan birlikni va o‘zaro munosabatlarda bo‘luvchi unsurlar yig‘indisidir. Harakat o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lmay, balki boshqa tizim va unsurlar ta’sirida yuzaga keladi. U mavjud tizimga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi muhitni tashkil etadi.

Yer munosabatlarini boshqarish ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Yer munosabatlarini boshqarish mexanizmi stixiyali va ongli xarakterda bo‘lishi mumkin. Stixiyali mexanizm avtomatik tarzda shakllanadi va bu jarayonda davlatning aralashuvi talab qilinmaydi.

Boshqarishning ongli mexanizmida esa davlat ijtimoiy institutlari boshqarish sub‘ektlarining rivojlanish jarayonini va ilmiy asoslangan qonuniyatlarni hisobga olish orqali yer munosabatlarini boshqaradi.

Yer resurslarini boshqarish – bu yer resurslariga jamiyat va davlatning yer resurslarini foydalanishda ularning samaradorligini oshirish uchun muntazam, ongli va aniq maqsadga qaratilgan ta’sir ko‘rsatishidir.

Yer munosabatlarining ob‘ekti yer resurslaridir. Yer resurslarini boshqarish esa ulardan foydalanishni rejalashtirish, tashkillashtirish, tartibga solish va nazorat qilishdan iborat bo‘lishi kerak.

O‘zbekistonda yer resurslarini boshqarish, davlat yer fondidan oqilona foydalanishni ta’minlash va tashkillashtirish maxsus vakolatga ega bo‘lgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yerdan foydalanishni boshqarish sohasi huquqiy jihatdan yer fondini boshqarish bo‘yicha umumiy boshqarish vakolatiga ega va ijro etuvchi davlat organlariga ajraladi. Umumiy boshqarish organlari birinchi navbatda davlat

hukumatining oliy organlaridir. Ijro etuvchi organlar O'zbekiston hududi chegarasida va ma'muriy-hududiy birliklarda tegishli yerdan foydalanuvchi idoralar bo'lib, ular yerlardan qanday maqsadlarda foydalanishidan qat'iy nazar yer resurslarini yer boshqarish bo'yicha maxsus huquqlariga egadir.

Yer resurslarini boshqarishda quyidagi yo'nalishlar mavjud:

- ❖ Siyosiy-yer resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha davlatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ekologik vazifalarini bajarilishini ta'minlashidir. Ma'muriy boshqarish esa yer resurslarini boshqarish omilkorligini aniqlash, o'zaro muvofiqlashtirilgan vazifalarni va ularni bajarishni tashkil etish, davlat boshqaruvi va mahalliy organlar tizimini shakllantirish;
- ❖ Huquqiy - qonuniy hujjatlarda belgilangan huquqiy me'yorlar asosida yerni saqlash va oqilona foydalanish;
- ❖ Ilmiylik - fan-texnika taraqqiyoti erishgan yutuqlarni hisobga olib yer resurslarini boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;
- ❖ Iqtisodiy - yer resurslaridan samarali foydalanish shartlarini belgilash;
- ❖ Tashkiliy-texnologik - iqtisodiy, ijtimoiy rag'batlar va yer resurslarini asrash hamda ulardan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.

Yer resurslarini boshqarish ob'ektiv va sub'ektiv omillarni muayyan birga qo'shib olib borish demakdir. Bir vaqtning o'zida tabiatning jinsi sifatida yer o'zining qonuni bo'yicha rivojlanadi va boshqarishning uslublari va shakllariga muayyan ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun boshqarish vazifalarini bajarish vaqtida hududning rivojlanishi, iqtisodiy sharoitlari kompleksida yerning asosiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bundan tashqari, yer resurslarini boshqarish majmuasi xarakterga ega, chunki yer munosabatlari sub'ektlarning ko'pgina manfaatlariga borib taqaladi. Bu boshqarish organlaridan yer resurslarini asrash va foydalanish jarayonining shakllanishiga tashkiliy-texnologik qarorlar, ekologo-iqtisodiy oqibatlar imkoniyati bilan tizimli yondashuvini talab qiladi.

Shunday qilib, yer resurslarini boshqarish asosida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar va tabiat qonunlariga tegishli bo'lgan umumiy iqtisodiy

qonunlar yotadi. Ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik aspektlar realizatsiyasi yer resurslari mazmunining tashqi tomoni, ya'ni boshqarish bo'yicha davlatning tashkiliy-xo'jalik va huquqiy, reja-iqtisodiy sifatidagi tadbirlarini ifodalaydi.

Yer resurslarini boshqarish tizimida ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqa sohalarida bo'lgani singari ishlab chiqarish kuchlarini xarakteri yerdan foydalanish va egalik qilish shakllari bilan bog'langan ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasida doimo ziddiyat tug'ilib turadi. Agar ular o'z vaqtida yechilmasa, jiddiy holat yuzaga keladi. Shuning uchun yer resurslarini boshqarishning uslublari va shakllari ijtimoiy rivojlanishning har bir bosqichida ijtimoiy ishlab chiqarishning ijtimoiy shartlari, siyosiy, iqtisodiy va boshqa shakllari bilan muvofiq kelishi shart. Yer resurslarini boshqarish vaqtida yerlarga egalik qilish va foydalanish uchun egalik qilishda yuridik shaxslar va fuqarolar, shuningdek, hokimiyat organlari davlat manfaatlarini muhofaza qilishga rioya etishlari kerak. Yer resurslarini boshqarishni uyushtirish har doim davlatga tegishli bo'lishi lozim.

Yer resurslarining boshqarish tizimining asosini boshqarishning funksiyasi va vazifalari, maqsadi, predmeti, sub'ekti va ob'ekti tashkil etadi. Boshqarishning sub'ekti va ob'ekti ko'p yillik natijalarning zahirida paydo bo'ladi.

Respublikamiz Mustaqillikka erishganidan buyon barcha jabhalarda keng ko'lamda islohotlar o'tkazilmokda. Xususan, yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yer xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari tizimida va qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois, u aholi hayoti, faoliyati va farovonligida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan yerlarni muhofaza qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki mamlakatimizda umumxalq mulki bo'lgan yerni muhofazalash va undan foydalanish konstitutsion ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simliklar va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar

umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, chunki ular davlat muhofazasidadir», - deb belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaviy me'yorlar yer munosabatlarini tartibga solib turuvchi, qonun hujjatlarining barchasiga tatbiq etiluvchi va oliy yuridik kuchga ega bo'lgan huquqiy me'yorlardir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, mamlakatimiz fuqarolari qonunlarda belgilangan tarzda mulk huquqiga egadirlar va o'zlarining mulklaridan o'z xohishlaricha foydalanishlari mumkin, ular tabiiy resurslarga to'g'ri munosabatda bo'lishga majburdirlar. Yuqorida qayd eganimizdek, yer boshqa tabiiy boyliklar singari umummilliy boylikdir, ularni tasarruf qilish esa vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yer munosabatlarini tartibga solish va boshqarishning huquqiy manbalari:

- ❖ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- ❖ «Yer kodeksi»
- ❖ Tabiatni muxofaza qilish to'g'risida qonun.
- ❖ Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida qonun
- ❖ Ekologik ekspertiza to'g'risida qonun
- ❖ Davlat yer kadastr to'g'risida qonun
- ❖ Davlat kadastrlari to'g'risidagi qonun
- ❖ Jinoyat kodeksi
- ❖ Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks
- ❖ Fuqarolik kodeksi
- ❖ Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari.

Yer munosabatlarini tartibga solishda yagona davlat siyosatini yuritishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 15 oktyabrdagi PF-3503-sonli "O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasini tashkil qilish to'g'risida" gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 19 oktyabrdagi 483-sonli qarori bilan Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi

tashkil etildi. Ushbu qo‘mitaga yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer munosabatlarini tartibga solish, yer kadastrini yuritish, yer tuzishni va yer monitoringini tashkil qilish, tuproq unumdorligini saqlash, oshirish va qayta tiklash borasida yagona davlat siyosatini yuritish, yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish kabi vazifalar yuklatildi.

11.2. YER RESURLARINI BOSHQARISHNING TAMOYILLARI VA HUQUQIY ASOSLARI

Hozirgi davrda tabiat va jamiyatning munosabati shunday shiddatli darajaga yetdiki chunonchi ular sayyorada insoniyatning va barcha tirik mavjudotning yashashi uchun xavf tug‘diradi. Tabiat resurslaridan oqilona foydalanmaslik oqibati, atrof muxitning ifloslanishi asta-sekin to‘planib borayotir va favqulotda vaziyat tug‘dirmoqda, ya’ni ishlab chiqarish kuchlarining yanada rivojlanish imkoniyatini xavf ostiga qo‘yadi. Bu alohida mintaqaga, shuningdek butun mamlakatga va oxir-oqibatda butun insoniyatga tegishlidir.

Tabiatga keltirilgan zarar mutloqo shubxasiz bo‘lib qoldi: o‘rmonlar kesilayotir, dengiz, daryo, ko‘llar va suv omborlari ifloslantirilayotir, haydaladigan yerlar kamaymoqda. Millionlab odamlar zaharlangan havodan nafas olishga, ifloslangan suvdan ichishga, xavfli oziq-ovqatlarni iste’mol qilishga majburdirlar. Uzoq umr ko‘rish va aholining salomatligi kabi ko‘rsatkichlarni azon qatlamining qisqarishi, yerlarni, tuproqning, gidrosferaning ifloslanishi. Chiqindilar hajmining ko‘payib borishi, o‘simlik va hayvonlar turlarining yo‘qolishi bilan taqqoslash bu jarayonlar o‘rtasida aniq aloqa borligini ko‘rsatadi.

Yer resurslarini boshqarish tizimining asosini ob’ekt, sub’ekt, predmet, maqsad, vazifa va boshqarish funksiyasi tashkil etadi. Boshqarishning ob’ekti va predmetini tarixiy ijtimoiy jaryonlar natijasi deb bilish zarur. Boshqarishning predmet va ob’ekt turlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Masalan, ko‘p qavatli binolarning yer uchastkalarini boshqarish, bir qavatli binolar joylashgan uchastkalarni boshqarishdan ancha farqlanadi.

Yer resurslarini boshqarishning maqsadi, mohiyati va vazifasini mustaqil O'zbekiston jamiyatining bugungi kundagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy harakati belgilab beradi.

Boshqarish ob'ekti O'zbekiston Respublikasining yer fondidir, uning sub'ektlari ma'muriy-hududiy birliklar, tumanlar, shaharlar, yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarining yer uchastkalaridir.

Boshqarishning tarkibiga yerdan foydalanishni tashkillashtirish jarayoni ham kirib, u ma'lum hududiy chegara doirasidagi aholining xilma-xil ehtiyojlarini ta'minlaydi. Ehtiyojlar yerdan foydalanishning boshqarishga tegishli bo'lgan turli-tuman usullarini qo'llashni taqozo etadi.

Bunday usullarga quyidagilar kiradi:

- ❖ yerdan foydalanuvchi chegarasi qamrovida hududiy tashkillashtirishni amalga oshirish;
- ❖ yerdan foydalanish jarayonining muxandislik ta'minoti (muhandislik kommunikatsiyalari);
- ❖ yer uchastkasining huquqiy maqomini o'rnatish (mulkchilik, foydalanish maqsadi, ijara, chegaralash, saqlash vazifasi va boshqalar);
- ❖ yerdan foydalanishning turlari (foydalanishga ruxsat berilganligi) va yo'nalishlarini o'rnatish;
- ❖ yerdan foydalanishda samarali iqtisodiy va ekologik texnologiyalarini tatbiq etish;
- ❖ yerning tabiiy va iqtisodiy holatining tahlili;
- ❖ yerning miqdor va sifat holatiga va maqomiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa tadbirlar.

Boshqarish tizimining ishlab chiqarish va yaratish jarayoniga ob'ekti va predmetidan tashqari boshqaruvining maqsadi va vazifalari ham ta'sir ko'rsatadi. Maqsad va vazifalar esa jamiyat tomonidan qisqa muddatda shakllantiriladi. Chunonchi, maqsad va vazifa boshqarishning predmeti va ob'ekti holatini hisobga

olish bilan shakllanadi. Shakllanib bo'lingan maqsad va vazifa esa ularni realizatsiya qilish paytida boshqarishning predmeti va ob'ektini shakllantiradi.

Yer resurslarini boshqarishning maqsadi jamiyatning mujassamlashgan ehtiyojini ifodalashdir. Maqsad yer resurslari xususiyatlaridan foydalanish asosida qondirilish holatining kelajagi va ulardan foydalanish jarayonini aks ettiradi. Yerdan foydalanishning o'zi bu yer resurslariga ayrim sub'ektlar yoki jamiyatning bevosita ta'sir ko'rsatishidir. Shu bilan birga har qanday ta'sir ko'rsatuvchi yerning aniq xususiyatini iste'mol qilish tushuniladi. Jamiyat alohida sub'ektlar maqsadini ularning ommaviyligi va xilma-xilligi sababli to'la nazorat qilishga qodir emas. Bu jarayonlar boshqarishda yerdan foydalanishning umumiy qoida va chegaralarining o'rnatilishini talab qiladi. Bunday chegaralar foydalanish qoidalarini huquqiy rasmiylashtirish yer munosabatlarini chegaralash va foydalanish tizimini o'rnatish asosida yaratiladi.

Bunday holat yerdan foydalanishning har qanday holati uchun xosdir va yer resurslarining barcha tizimlari uchun umumiy bo'lib hisoblanadi.

Yer resurslarini boshqarishning maqsadi, umumiy ko'rinishda yerdan foydalanish bilan bog'langan jamiyat ehtiyojini yanada yuksak darajada qondirishga imkon beradigan yerdan foydalanishning va yer munosabatlari tizimining shakllanishini ta'minlash va yaratishdan iboratdir.

Vaqtning aniq paytida maqsad alohida e'tiborni ifodalashga ega bo'lish mumkin: ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik yoki ularning o'zaro birligida. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar qishloqlar va shaharlar hududida ijtimoiy aspekt ustunlikka ega edi. O'sha paytda aholining barcha ehtiyojlarining maksimal qondirilishi mumkinligiga urg'u berilgan. Hozirgi paytda yer bozori rivojlangan sharoitda iqtisodiy aspektni hisobga olishning qayta mo'ljallanishi ro'y berdi, ya'ni maksimal iqtisodiy samaradorlikka erishish mo'ljallanmoqda. Bu esa ko'pincha xarajatlarni qoplash va byudjetga pul tushumining ko'rinishini ifodalaydi. Biroq boshqarishning maqsadini aniqlashda ijtimoiy yo'nalishni inobatga olinmasa, vaziyat keskinlashuvi yuzaga kelishi mumkin.

Shuning uchun yer resurslarini boshqarishning maqsadi turmush sharoitlarini ijtimoiy va ekologiya jihatdan yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradigan yerdan foydalanish va yer munosabatlari tizimining amal qilishini ta'minlash va yaratishdan iboratdir.

Boshqarishning sub'ektlari quyidagilarga bo'linadi: davlat, mahalliy va xo'jalik boshqaruvini amalga oshiradigan sub'ektlar. O'z navbatida davlat boshqaruvi umumiy va idora (tarmoq) boshqaruviga bo'linadi. Davlat boshqaruvini umumiy va maxsus huquq doirasiga ega bo'lgan organlar amalga oshiradilar. Davlat boshqaruvida O'zbekiston Respublikasining belgilangan chegarasi doirasidagi yer toifalari va yer uchastkasidan foydalanuvchi sub'ektlar bo'yicha yer resurslari taqsimoti amalga oshiriladi.

Mahalliy boshqaruvni mahalliy o'z-o'zini boshqaruv organlari amalga oshiradilar. Bunda boshqaruv maxsus huquqiy maqomga ega bo'lishi mumkin. Yerdan foydalanishda xo'jalik boshqaruvini yer uchastkasidan foydalanuvchilar va mulkka egalik qiluvchilarning o'zlari amalga oshiradilar. Yer resurslarini boshqarish majmuali tavsifga ega, chunki yer munosabatlari sub'ektlarning manfaatlariga tegishli bo'lib, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish jarayonini boshqarishga tizimli yondashuvni qo'llab-quvvatlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Tashkiliy, texnologik yechimlarni ekologik-iqtisodiy oqibatlar imkoniyatlari bilan bog'lashni talab qiladi.

Yer resurslarini boshqarish bo'yicha ijroiya – farmoyish berish organlari faoliyatining mazmuni yer resurslaridan foydalanishni rejalashtirish va bashoratlashtirishdan iborat, ya'ni yerlarni qayta taqsimlash va taqsimlash, yerdan foydalanish, yerga egalik qilishning tartibi va me'yorini belgilash: yerlarni muhofaza qilish va yerdan foydalanganligi uchun faoliyatini nazorat qilishni tekshirish va tezkor – farmoyish berish. Yer resurslarini boshqarish tizimida kechadigan jarayonlar asosini uzluksiz axborot almashuvi tashkil etadi. Bu almashuvni ta'minlaydigan vosita yer kadastr va yer monitoringi hisoblanadi.

Axborotlarni to'plash, ishlov berish va ularning tahlili yaxlit boshqarish tizimining mohiyatini belgilaydi. Shuning uchun axborotlar boshqarish komponentlarini aniqlash va ularning ma'muriy hudud darajalarida o'zaro aloqadorligi ham muhimdir.

Axborotlarning manbai yer kadastr xizmati va boshqa idoralar, shuningdek, hokimiyatning ijroiya organlarining materiallari bo'lishi mumkin: kartografik material, reestlar, hisobotlar, kitoblar va qaydnomalar, kataloglar, referatlar, ekspertlar ma'lumotlari, qomuslar, boshqa tekshiruv hamda tahlil materiallari.

Viloyat va tuman (shahar) organlari tomonidan quyidagi holatdan kelib chiqqan holda yer resurslarini boshqarishni amalga oshirish kerak:

- ❖ yer uchastkalari aniq hududlarda istiqomat qiluvchi aholiga va davlatga tegishli. Shuning uchun ulardan, foydalanish bo'yicha farmoyish berish hamda yer resurslaridan foydalanganlik uchun mas'uliyat masalalari bo'yicha tuman (shahar), viloyat va davlat organlari o'rtasida muvofiqlik zarur;
- ❖ yer resurslaridan foydalanish natijasidan mintaqaning barcha aholisi manfaatdor bo'lishi kerak;
- ❖ O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga binoan, ijara shartnomasi asosida yerdan foydalanish pullik bo'lishi kerak. Yerdan foydalangani uchun to'lov hajmi yerlar tasarrufiga kiritilgan hokimiyat organlariga viloyat hokimiyati qarorlariga muvofiqlikda, davlat yer kadastr baholash natijalari asosida belgilangan bo'lishi kerak;
- ❖ yer oboroti, (ya'ni, yer uchastkalari bilan bog'liq barcha turdagi kelishuvlar) viloyat hokimiyati o'rnatgan qoida bo'yicha amalga oshirilgan bo'lishi kerak. Bunda, yer resurslarini taqsimlash va ulardan foydalanish bo'yicha farmoyish berish foydalanish sohasida vakolatlarni chegaralash to'g'risida shartnomada nazarda tutilgan, mintaq sharoitlari xususiyatlarini hisobga olishning majburligi inobatga olinishi kerak;

- ❖ agarda bu foydalanish jarayonida atrof muhitga yoki aholining turmush sharoitiga zarar yetadigan bo'lsa, viloyat hokimiyati har qanday mulkdorning yerdan foydalanishining chegaralanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yer resurslarini boshqarish sohasida mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari bilan viloyat organlari manfaatlari, asosan, mos keladi. Biroq, manfaatdorlik mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarini mahalliy byudjetni shakllanishida yer resurslarini boshqarish muammosi, asosan faqat moliyaviy nuqtai-nazar bilan hisobga olinadi.

Tuman (shahar) hududlaridagi yerlarni boshqarish o'z-o'zini boshqarish organlari qabul qilgan me'yoriy huquqiy hujjatlar asosida olib boriladi. Har bir hujjat mavjud maqsad va tartibni amalga oshirishga ta'sir ko'rsatadi. Amaldagi qonun bilan muvofiqlikda ayrim masalalar bo'yicha mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari yer munosabatlarini qaror topishi va rivojlanishiga viloyat hokimiyati darajasida yer masalasini yechishni kutmasdan faol ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tuman (shahar) hokimiyati tomonidan yerlarni boshqarishni ta'minlovchi asosiy xarakatlar quyidagilardan iborat:

- ❖ yerlardan foydalanishning muntazam tartibga solish va rejalashtirish;
- ❖ yerlarni foydalanish iste'molidan chiqarib olish va taqdim etish;
- ❖ yer monitoringi yuritish va yer tuzish ishlarini amalga oshirish;
- ❖ yerlarni muhofaza qilish va foydalanish bo'yicha nazoratni ta'minlash.

Yerlarni boshqarish harakati huquqiy nuqtai nazardan turli xil tavsifga ega. Masalan: yer uchastkasini taqdim etish va iste'moldan chiqarib olish bo'yicha harakatlar huquqiy maqom tavsifiga ega: yer kadastrini yuritish bo'yicha va huquqiy maqom, yerlar muhofazasi bo'yicha huquqiy maqomlar kabi.

Yerdan foydalanish bo'yicha farmoyish berish (mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari huquq doirasida) maqsadli vazifalarni belgilash bilan, yer uchastkalaridan umumiy foydalanishlarni yoki boshqa yerlarni iste'moldan chiqarib olish bilan yer uchastkalarini mulkchilikka, ijaraga, doimiy foydalanishga

taqdim etish bo'yicha huquqiy hujjatlarni nashr ettirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tuman (shahar) hokimiyati yer resurslarini boshqarish sohasida yangi yo'nalish, ya'ni davlat yer kadastrining ma'lumotlari asosida yerlardan foydalanishning istiqbol rejasini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq. Bunda yer uchastkalaridan foydalanish bo'yicha boshqaruvchilik qarorlarini asoslashda omillarni hisobga olish, samaradorlik ko'rsatkaichlarini hisoblash ishlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari qabul qiladigan qarorlariga ta'sir ko'rsatishi asoslangan bo'lishi kerak.

Bunday omillarga quyidagilar kiradi:

- ❖ yer uchastkasining mo'ljallangan foydalanish maqsadiga muvofiqligi (o'rnatilgan joyi, ekologik vaziyat, foydalanishdagi cheklash);
- ❖ iqtisodiy ko'rsatkichlar (yer uchastkasining qiymati yoki ijara haqining hajmi, uchastkani o'zlashtirish sarf-xarajatlari, qo'yilgan maqsadga erishish uchun kapital qo'yilma);
- ❖ salbiy jarayonlar qo'yilgan maqsadga erishilgandan keyin paydo bo'lishi ham mumkin (ekologik vaziyatning yomonlashuvi, belgilangan me'yorlarning buzilishi, ijtimoiy taranglik va mojaroli vaziyatning vujudga kelishi, uchastkadan foydalanish bo'yicha cheklashlar);
- ❖ qo'yilgan maqsadga erishilgandan keyin rejalashtirilgan foyda.

Bu jarayonda yer resurslaridan foydalanishning miqdoriy holati aniqlanishi kerak. Turli xil yechimlar samaradorligining qiyosiy tahlili o'tkaziladi. Shulardan kelib chiqib, taklif qilinadigan variant huquqiy ruxsat etilgan, jismonan mumkin, moliyaviy jihatdan o'zini oqlagan, keyin hokimiyatning davlat yoki Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan qarorlar qabul qilish uchun takliflar ishlab chiqadilar.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining va tuman hokimiyatining o'zaro munosabatlari natijasi sifatida birinchisi uchun aholining ehtiyojini qondirish kerak, ikkinchisi uchun soliq va boshqa moliyaviy tushumlar olishi kerak.

Shuningdek, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari to'plagan moliyaviy mablag'lar hududning barcha aholisini turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Tuman (shahar) hokimiyati boshqaruvining asosiy vazifalardan yana biri o'zini barqaror faoliyatini ta'minlashdan iboratdir. U o'z mohiyati bilan dinamik muvozanat holatida bo'lishi kerak. *Shunga o'xshash ob'ektlar uchun ikkita asosiy xususiyat tavsiflidir:*

- ❖ ob'ektning tarkibiy qismlari ularning joylashish maqomi va foydalanish ko'lami;
- ❖ vaqt bo'yicha o'lchamlarning o'zgarib turishi.

Shuning uchun tuman (shahar) hokimiyati boshqarish tarkibini tuzish paytida boshqaruvchilik faoliyatining barcha yo'nalishlari tarkibi ta'minlanishi kerak.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining tashkiliy tuzilishi bir-biridan jiddiy farqlanishi lozim. Bu tafovut ham ob'ektiv, ham sub'ektiv sabablarga bog'liq. Ob'ektiv sabablarga hokimiyat hududida mavjud shaharlarni bunyod etuvchi korxonalar uy-joylarga ega va ularni saqlab turadi, suv va issiqlik bilan ta'minlaydi. Ular umumshahar vazifalarini bajaradilar va boshqalarni ham uy-joy bilan ta'minlashi mumkin. Sub'ektiv sabablarga mahalliy o'z-o'zini boshqarishning rahbari o'zining tajribasi, bilimi va maqsadlarini hisobga olish bilan yer resurslarini boshqarish jarayonida shakllanadi. Umumiy holda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari: ish yuritish maqsadi, qaror qabul qilish uslubi, vazifalarni bajarish turi kabilarga bo'linadi.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining maqsadli ish yuritishi bo'yicha ular nafaqat mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni yechadilar, balki hokimiyatning davlat organlari zimmasiga yuklatilgan ayrim davlat vakolatlarini ham bajaradilar. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari mustaqilligining kengayishi bu masalada umumjahon tendensiyasining jarayonlarga moslashuvi ro'y berayotganini ko'rsatadi. Biroq, bu jarayonga mahalliy o'z-o'zini boshqarish

organlari, huquq sohasidagi ilmiy xodimlar va aholi tomonidan munosabatlar bir xil emas.

Qarorlar qabul qilish uslubi vaziyatga qarab ishga solinadi. Ular jamoa yoki yakka tartibda qabul qilinishi mumkin.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining tashkiliy tuzilish sifatidagi rolini qarab chiqamiz. Ular mahalliy o'z-o'zini boshqarish shakli, hududiy tuzilishi (mahalliy uyushmalar) aholisining nomidan ish yuritadilar. *Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: ular, ya'ni organlar muayyan ob'ektga ob'ektiv tarzda xos bo'lgan ikki turdagi vazifalarni amalga oshirishlari kerak:*

- ❖ uning manfaatini ifodalashi;
- ❖ bu manfaatlarni amalga oshirish.

Bu ikki turdagi vazifalarga ikki turdagi organlar muvofiq keladi:

- ❖ vakolatli va ijroiya organlari.
- ❖ Ijroiya.

Shahar hokimiyatida yer resurslarini boshqarish xususiyatini ko'rib chiqamiz:

- ❖ shahar hokimligi – shahar o'z-o'zini boshqarishning vakolatli organi;
- ❖ shahar ma'muriyati – ijroiya organ, u orqali o'z-o'zini boshqarishning shahar hokimi hudud bo'yicha o'zining vakolatini amalga oshiradi;
- ❖ qishloq fuqarolar yig'ini ma'muriyati-ijroiya organdir, ular orqali mahalliy o'z-o'zini boshqarishning shahar hokimi o'zining vakolatini amalga oshiradi.
- ❖ oqsoqollar – posyolkalar, qishloqlar, ovullarning saylangan mansabdor shaxsi:

1) Tuman (shahar) hokimiyatining yer resurslarini boshqarish bo'yicha tamoyillari (maqsadli mo'ljal tamoyili):

Har qanday hokimiyat tuzilishining maqsadi birgalikdagi faoliyatning muayyan maqsadlariga tayanadi. Rivojlanish maqsadlarini xatosiz aniqlash va o'rnatishni bilish boshqarishning eng muhim va ahamiyatli jihatidir. Hokimiyat faoliyatining maqsadi va vazifalarining dastlabki aniqlanishi o'zining huquq doirasini shakllanishi paytida ro'y beradi.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining huquq doirasida bo'lishining ikkita usuli bor:

- ❖ qonun orqali davlat tomonidan muayyan vazifalarning yuklatilishi: Bu huquq O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida Mahalliy o'z-o'zini boshqarish to'g'risida»gi qonunining 6-moddasida ko'rsatib o'tilgan.
- ❖ nizomi orqali aholi tomonidan muayyan majburiyatlarni yuklatilishi.

Shunday qilib, davlat va aholi oldida mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining majburiyatlari chegarasi shakllanishi amalga oshiriladi. Bu chegaralar doirasida mahalliy hokimiyat birlamchi yo'nalishining rivojlanishi shakllanadi. Shunga muvofiq ravishda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining ijroiya tuzilishi shakllanishi zarur.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari yechadigan vazifalar ularning vakolatlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'langan. Shuning uchun hududda turmush va xo'jalik yuritish sharoitlarida ro'y berayotgan o'zgarishlarni kuzatib borish juda muhim.

2) Vazifalarni gorizantal bo'linish tamoyillari.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari bajaradigan vazifalar xilma-xildir. Shuning uchun mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tuzilishlari «O'zbekiston Respublikasida mahalliy o'z-o'zini boshqarish» qonunida ko'zda tutilgan.

Hududiy vazifalarni taqsimlanishi deganda bir xil darajadagi mansabdor shaxslar va organlar o'rtasidagi vazifalarning chegaralanishi anglashiladi. *Mahalliy o'z-o'zini boshqarishning ijroiya organi quyidagilarni amalga oshirishi kerak:*

- ❖ ijroiya farmoyishini berish vazifasi;
- ❖ mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari yuritishlariga kiritilgan mahalliy byudjet, hududning ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishi majmuasi va boshqa masalalar bo'yicha takliflar tayyorlash.

Ijroiya organining tuzilishini rejalashtirishga kirishishdan oldin, boshqaruvchilik qarorini qabul qilishning har bir bosqichida uning roli va o'rnini

kuzatilishi zarur. *O'tkazilgan tahlil natijasida Mahalliy o'z-o'zini boshqarishning ijroiya organi yechadigan barcha masalalar majmuasini qamrab oladigan faoliyat tuzilishi bo'linmalarini bir nechta guruhlariga ajratish mumkin:*

- ❖ moliyaviy va iqtisodiy rejalashtirish, analitik, ma'muriy bo'linmalar nazorati vazifalarini bajaradigan umumiy huquq doiralari bo'yicha bo'linmalari tuzilishi;
- ❖ shahar xo'jaligi va boshqarishning aniq tarmog'i bilan shug'ullanuvchi bo'linmalarning tarmoq tuzilishi;
- ❖ ikkita birinchi guruhga kiritilgan servis xizmat ko'rsatish tuzilmalari vazifasini bajaruvchi bo'linmalar.

Ijroiya organining tuzilishini rejalashtirish paytida o'sha yoki boshqa vazifaga tegishli tuzilmaviy bo'linmalarning qaysi turdaligini belgilash muhimdir. Chunki bunday bo'linmalar tuzilishining salohiyati xodimlarning joy-joyiga qo'yilishiga bog'liq.

3) Vazifalarni vertikal taqsimlash tamoyili.

Tuman (shahar) hokimiyati hududida qator viloyat, respublika va mintaqa tuzilmalari mavjud. Ularsiz hokimiyatni boshqarish mumkin emas. *Ularga quyidagilar tegishli:*

- ❖ viloyat va mintaqaga bo'ysunadigan har qanday mulkchilikning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari;
- ❖ mintaqalar yoki viloyatdagi boshqarish organlari mavjud bo'lgan fuqarolar birlashmasi, jamoat tashkilotlari va boshqalar;
- ❖ viloyat ma'muriyatlarining hududiy bo'linmalari.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining yuqorida sanab o'tilgan guruhlari, bir qancha vazifalarni ijro etish mumkin. Masalan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar me'yoriy organ sifatida, muayyan turdagi ishlarga buyurtmachi sifatida, xo'jalik faoliyatini bajarish uchun sharoit yaratib beruvchi tashkilot sifatida ish yuritishi mumkin muomala o'tkazishni rag'batlantirish zarur.

11.3. YER RESURSLARINI BOSHQARISH BOSQICHLARI VA MEXANIZAMLARI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat miqyosida o'tkazilayotgan umumiy iqtisodiy, yer va agrar islohotlarni amalga oshirishning murakkab jarayonlari davrida yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishni takomillashtirish ehtiyojini kuchaytiradi. Aynan shu ma'noda yer kadastr va yer tuzish bo'yicha yangi nazariy va amaliy jihatdan yondashuvlari yer resurslarini boshqarishning amaliy masalalarini yechimlarida o'z isbotini topganligi qo'yilgan muammoning amaliy ahamiyatini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni tubdan o'zgartirish jarayonida yer munosabatlari va yer resurslarini boshqarishning samarali ko'rinishlari namoyon bo'lmoqda. Yer o'zining asosiy xususiyatlaridan tashqari ushbu resurs ishlab chiqarish vositasi, hududiy biznes, tabiiy boylik, huquqiy munosabatlar va ko'chmas mulk ob'ekti bo'lib qoldi.

Bozor munosabatlari qaror topishi sharoitida yerlarni davlat boshqaruvining majmualiy uslubini eng qulay qo'llash va byudjet daromadlarini ko'paytirishni ta'minlovchi, yerdan foydalanishning eng samarali va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq shakli sifatida yerni ijaraga berishning rivojlanishi ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bilan birga yer munosabatlarining davlat boshqaruvidagi yagona tartibini o'rnatish, ijara haqi miqdorini usullarini ishlab chiqish, yer bozorining holatini aniq aks ettiradigan mintaqa iqtisodiyotining holati va undagi jarayonlarni boshqarish tizimida, yer ijara siyosatida tadbirlar majmuasini shakllantirishning birlamchiligini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Yer munosabatlarini tartibga solishning uslubiy nazariyasini ishlab chiqish, yerning oldi-sotdi shakllari va uslubini faollashtirish, yer uchastkalarini xususiyashtirish jarayonlarini, investitsion, baholash, sug'urta faoliyati, ipoteka, kreditlashtirish, yerga oid qimmatbaho qog'ozlar bilan muomala o'tkazishni rag'batlantirish zarur.

Yer resurslarini boshkarish mexanizmi kurib chiqilayotganda yerni boshqarish - bu oddiy tadbirlar majmuasi emasligi, balki uzviy, yaxlit tizim ekanligidan kelib chiqish muhimdir.

Tizimli yondoshuv nazariyasi bilan uzviy yaxlit tizim belgilari muvofiklikda uning unsurlari o'rtasidagi va unda alohida unsurlarga tegishli bo'lmagan yangi integrativ xususiyatlarining paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Uzviy yaxlit sifatidagi tizimning rivojlanishi va xususiyati, uning unsurlari xususiyatining o'zgaishidagi oddiy xususiyatlar natijasi emas.

Yaxlit tizim sifatida yerdan foydalanishni boshkarishning umumiy tavsifida eng asosiysi - unda uning unsurlarini xususiyatlar natijasisiga olib kelmaydigan integrativ sifatlarning mavjudligidir.

Bu, yangi integrativ tizimni boshqarishning tizimning barcha unsurlari uzluksiz aloqalarining ob'ektiv mavjudligidan kelib chiqadigan majmualari funksiyalari deb atash mumkin va o'zining quyidagi tomonlarining birligida namoyon bo'ladi.

1) Yer resurslarini boshqarish yaxlit tizimning vazifalarini amalga oshirilgan ishlar samaradorligi natijasida, ayrim vazifalarni amalga oshirishdan xususi samaradorlik yuqoridir, jumladan ularning muxtoriyatligi saklangan sharoitda, bir-biri bilan ajratilmagan, balki kelishilgan holda shu bilan birga har bir ayrim vazifalarining amalga oshirish samaradorligi agar u (boshkarish vazifasi) o'z-o'zicha amalga oshirilmasdan, balki boshqalari bilan o'zaro mustahkam aloqada bo'lganda amalga oshadi. Masalan, yerdan oqilona foydalanishni loyihalashtirishning samaradorligi, yer kadastrining materiallariga va yerdan foydalanish ustidan nazorat bilan mustahkam bog'langan holda amalga oshirilsa o'z natijasini beradi. Shunday qilib, boshqarish tizimining oliy maqsadiga to'la erishish, faqat uning barcha unsurlari (vazifalarning bir-biriga ta'sir qilishdagina mumkin bo'ladi).


2) Amaliyotda boshqarishni amalga oshirish paytida, har bir ayrim vazifa o'zida u yoki bu darajada boshqa vazifalarni yuklaydi.

Masalan yer tuzish va boshqa yerdan foydalanish loyihalarini tuzib chiqish va amalga oshirish o'zining to'g'ridan to'g'ri tayinlanishidan tashqari yerdan samarali foydalanishni rag'batlantirish vazifasini ham bajaradi. Bu vazifani yerdan foydalanishni nazorat qilish ham bajaradi. Garchi nazorat mustaqil vazifa o'z maqsadiga ega bo'lsa ham, yer kadastrini yurgizish, o'zining xususiy vazifasiga ega bo'lsa ham, yerni muhofaza qilish va foydalanishning ma'lum darajada vazifasini bajaradi. Nazorat qilish vazifasini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tish jarayonida yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishning ob'ektiv asosi bozor iqtisodiyoti qonunlari mexanizmi hisoblanadi.

Yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishning ikkita bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan boshqaruv vazifasi bo'lib, bular birinchidan, tashkiliy va ikkinchidan, bevosita xo'jalikdagi foydalanish shakllaridir. Boshqaruvni bu ikki shakli alohida yo'nalish sifatida yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishning tashkiliy tomonini aks ettiradi.

Yer resurslarini boshqarishda tashkiliy va huquqiy boshqaruv mexanizmlari quyidagi tizimda o'z aksini topgan.



Yer kadastrini yuritish – O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 15-moddasiga hamda “Davlat yer kadastrini to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq tashkil etilgan tizim bo‘lib, u yerlarning huquqiy va xo‘jalik holati, miqdori va sifati, unumdorlik darajasi, qiymat bahosi, ushbu yer fondining yer toifalari, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va mulkdorlar o‘rtasidagi taqsimoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar va hujjatlar tizimidan iboratdir. Yer kadastrini o‘z mohiyati, maqsadi va vazifalariga ko‘ra to‘rt tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, ular yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatga olish, yerlarni miqdor va sifat hisobi, tuproq bonitirovkasi va yerlarni iqtisodiy baholashdan iborat.

Yer monitoringini yuritish – davlat miqyosida xalq xo‘jalik tarmoqlari bo‘yicha yerlardan foydalanishda ro‘y bergan jarayonlarning o‘zgarishini, yer resurslarining miqdori va sifati holatini uzluksiz kuzatish tizimini tashkil etish hamda ma’lumotlar bilan yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish jarayonini ta’minlashga qaratilgan.

Yer tuzish ishlarini tashkil etish – Yerlardan oqilona va samarali foydalanishga qaratilgan asosiy tadbirlardan biri bo‘lib, u yer fondini xalq xo‘jaligi tarmoqlari orasida taqsimlash va ularni hududiy tashkil etish masalalarini yechishga qaratilgan. Boshqaruv vazifalaridan kelib chiqqan holda yer tuzish - yer egaliklari va yerdan foydalanishlarni hududiy tashkil etish bo‘yicha ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan asoslash, xalq xo‘jaligi tarmoqlari ehtiyojiga mos keladigan yer tanlash va yer ajratish loyihalarini amalga oshirish, sug‘orish va yo‘l tarmoqlarini loyihalash va boshqa loyihaviy ishlanmalarni yaratish hamda amalga tadbiq etish masalalarini hal etishdan iborat.

Yer resurslaridan foydalanishni prognozlash – yer resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, ularni muhofaza qilishga asoslangan holda prognozlash masalalarini o‘z ichiga oladi. Bu mexanizm o‘z mohiyatiga ko‘ra yer resurslaridan foydalanishni bosh chizmasini (sxemasini) va yer tuzish ishlarini rejalashtirishdan iborat bo‘ladi. Prognozlashning asosiy vazifasi xalq xo‘jaligi tarmoqlari taraqqiyotiga mos holda yillik va uzoq muddatga mo‘ljallangan yer resurslariga

bo'lgan talabning ta'minoti bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni belgilab berish hisoblanadi.

Yer munosabatlarini tartibga solish – boshqaruvning huquqiy asoslariga suyangan holda ishlab chiqarish munosabatlari tarkibida yer munosabatlarini tartibga solishga xizmat qiladi. Bu mexanizmning asosiy vazifasi yerlardan foydalanishda qonuniylilikni ta'minlashdan iborat.

Yerlardan foydalanishni nazorat qilish – davlat organlari tomonidan yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarishga oid faoliyatini huquqiy jihatdan nazorat qilishga qaratilgan.

Yerlarni muhofaza qilish – yerlardan xalq xo'jaligi tarmoqlarida har xil maqsadlarda foydalanish jarayonida yerlarni muhofaza qilish, zarar yetkazilishining oldini olish, ayniqsa alohida ahamiyatga ega bo'lgan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni himoya qilishdan iborat.

Yerdan foydalanganlik uchun haq to'lash – bu iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlaridan biri har xil maqsadlarda yerdan foydalanganlik uchun haq to'lashni tashkil etishdan iborat. Jumladan, yer uchun to'lanadigan haq ikki xil: ijara va yer solig'i shaklida undiriladi.

Bozor munosabatlari qaror topishi sharoitida yerlarni davlat boshqaruvining majmualari uslubini eng qulay qo'llash va byudjet daromadlarini ko'paytirishni ta'minlovchi, yerdan foydalanishning eng samarali va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq shakli sifatida yerni ijaraga berishning rivojlanishi ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bilan birga yer munosabatlarining davlat boshqaruvidagi yagona tartibini o'rnatish, ijara haqi miqdorini usullarini ishlab chiqish, yer bozorining holatini aniq aks ettiradigan mintaqaviy iqtisodiyotining holati va undagi jarayonlarni boshqarish tizimida, yer ijara siyosatida tadbirlar majmuasini shakllantirishning birlamchiligini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Yer munosabatlarini tartibga solishning uslubiy nazariyasini ishlab chiqish, yerning oldi-sotdi shakllari va uslubini faollashtirish, yer uchastkalarini xususiyashtirish jarayonlarini, investitsion, baholash, sug'urta

faoliyati, ipoteka, kreditlashtirish, yerga oid qimmatbaho qogʻozlar bilan muomala oʻtkazishni ragʻbatlantirish zarur.

Ishlab chiqarish munosabatlarining obʻektiv majmui odamlarning ongi va irodasiga bogʻliq emas, shu bilan birga ishlab chiqarish munosabati bu odamlar oʻrtasida taʼsir koʻrsatadigan ongli va irodaviy munosabatdir. Shuning uchun ishlab chiqarish munosabati odamlarning buyumlarga va bir-biriga irodaviy munosabat koʻrinishida namoyon boʻladi. Xodisalarning tashqi koʻrinishida odamlarning nisbatan mustaqil taʼsir koʻrsatishini tugʻdiradi. Bu holat ishlab chiqarish munosabatining obʻektiv mazmunini ifodalaydi. Ishlab chiqarish munosabatlarining obʻektiv mazmunini ayrim odamlarning irodaviy harakati, kimningdir irodasi bilan belgilab emas, balki ishlab chiqaruvchilarining rivojlanishi ijtimoiy ishlab chiqarishning sharoiti, moddiy-texnikaning erishilgan darajasi bilan belgilanadi. Pirovardida aynan ana shu obʻektiv omillar odamlarning ongi va irodasini ularning iatisodiy faoliyati jarayoniga yoʻnaltiradi.

Odamlarning irodaviy munosabati ishlab chiqarish munosabatlarining naqakat tashqi koʻrinishining namoyon boʻlishi deb, balki ular holatining ichki zaruriyati sifatida boʻlib chiqadi.

Yer munosabatlarining irodaviy namoyon boʻlishi ularning obʻektiv iqtisodiy mazmunining aks ettirilishidir. Yer munosabatlarining obʻektivligini, ularning rivojlanish yoʻnalishini ishlab chiqarishning barcha ijtimoiy moddiy sharoit majmuasini ishlab chiqarish kuchlari belgilaydi.

Buyumlashgan ishlab chiqarish munosabatlari har doim ham kelib chiqavermaydi. Balki buyum faqatgina maʼlum ijtimoiy munosabatlar obʻektiv boʻlgan taqdirdagina roʻy beradi.

Ishlab chiqarish munosabatlarining buyumlashgan dalilida muhimi shuki, bu yerda munosabatlarni tashuvchi naqakat oddiy buyum boʻladi, balki odamlarning moddiy faoliyati, ishlab chiqarishning mahsuli sifatidagi buyum shaklida yuzaga keladi.

Yer bilan ish boshqacha. Yer abadiy, uni bizga tabiat in'om etgan va buyumlashgan mehnatning mahsuli ham emas. Binobarin yer munosabatlarining buyumlashgan, predmetli shakllari boshlang'ich punkt sifatida berilgan.

Yer munosabatlarini tartibga solish mexanizmini unga ob'ektiv jihatdan xos bo'lgan uchta bir-biriga bog'liq nuqtai nazardan qarash kerak: iqtisodiy, siyosiy va huquqiy (yuridik);

Bunday yondoshuv yer munosabatlariga iqtisodiy, siyosiy va huquqiy ta'sirini nazariy aniq chegaralanishini nazarda tutishga imkon beradi. Biroq bu omillarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, xato bo'lar edi. Yer munosabatlarining rivojlanishiga ularning o'z ta'sirini ko'rsatish bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatish mustahkam, ajralmagan birlikda bo'ladi. Yer munosabatlarini tartibga solish mexanizmida birlamchilik iqtisodiy qonunlarga tegishlidir.

Ba'zan yer munosabatlarini tartibga solishni yer qonunchiligining ayrim huquqlari tashkil etadi degan ta'kidlarni uchratish mumkin. Yer munosabatlarini tartibga solish uchun huquqning mutloq ahamiyati haqida fikrning paydo bo'lishiga sabab huquqiy adabiyotlarda "ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish", "iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish", "yer munosabatlarini tartibga solish" kabi ifodalanishlar eng ko'p uchraydi. Ehtimol uning sababini ana shu holatlar bilan tushuntirish mumkin. Ammo huquq umuman yer munosabatlarini tartibga solmaydi, balki ularning maqsadli shakllarining namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi, u yer munosabati ishtirokchilarining fe'l-atvorini, munosabatlar sub'ektlarining huquq va burchlarini belgilab, ular o'rtasida muvofiq ravishda huquq munosabatlarini o'rnatish yordamida tartibga soladi. Aynan shu fikrni yer munosabatlarini huquqiy tartibga solish tushunchasiga kiritish kerak). Yer munosabatlarining ichki iqtisodiy mazmuni rivojlanishini iqtisodiy qonunlar tartibga soladi.

Iqtisodiy qonunlar harakat qilishning ob'ektiv harakterlarini e'tirof etish kerak. Odamlar ishtirokisiz harakat qiladigan tabiat qonunlaridan farqli o'laroq

iqtisodiy qonunlar odamlar orasida tarkib topadigan ishlab chiqarish munosabatlari sohasida harakat qiladi. Ammo, bu iqtisodiy qonunlar eng avvaldan odamlarga ravshan ekan deganligini bildirmaydi. Iqtisodiy qonunlar ob'ektivdir. Ularning harakati va mazmuni odamlar irodasi va ongiga bog'liq emas.

Iqtisodiy qonunlar, xususan yer munosabatlari rivojlanishi qonuni yerni muhofaza qilish va ratsional foydalanishni tashkil qilish uchun foydalanish yer resurslarini boshqarishning asosi, bosh mazmunidir.

Yer resurslarini boshqarishning mohiyati, yer munosabatlari tizimining jami yig'indisini ularga maqsadga qaratilgan ta'sir yordamida harakatda bo'lgan iqtisodiy qonunlardan ogli foydalanish asosida yer munosabatlarini ishlab chiqarish kuchlariga muvofiklashtirish maqsadida tartibga solishdan iboratdir. Shu bilan ta'sir ko'rsatish ob'ekti naqakat yer munosabatlari namoyon bo'lishi shakllari bo'lib chiqadi (tashqi, irodaviy) balki bevosita moddiy asosi ham. Bu boshqarishning chukur ijtimoiy-iqtisodiy aspektidir.

Yer resurslarini boshqarishning tashqi ko'rinish tomoni yer zaxirasini eng ratsional foydalanishini ta'milash bo'yicha davlatning rejali iqtisodiy, tashkiliy – xo'jalik-texnikaviy, texnikaviy va huquqiy tadbirlarining yig'indisi sifatida gavdalanadi. Yerdan foydalanishni boshqarishning mohiyatli momentining quyidagi tavsifiga e'tibor qaratilishi kerak. Ko'rsatib o'tilganidek, u, yer munosabatlarini tartibga keltirishga qaratilgan. Shu bilan bir vaqtda yerdan foydalanishni boshqarish o'z-o'ziga ob'ektiv va nisbatan mustaqil hodisadir. Binobarin bu yer munosabatlari namoyon bo'lishining aniq shaklidir. Aniqrog'i esa, yer munosabatlarini takomillashtirishning maqsadga qaratilgan ongli shaklidir.

Har qanday boshqaruv, shu jumladan yerni boshqarish ham, aniq maqsadni nazarda tutadi. Boshqarishning maqsadi davlatning iqtisodiyoti maqsadi bilan ob'ektiv qaratilgan va unga bo'ysundirilgan, keyingisi asosiy iqtisodiy qonunda ifodalanadi. Shu nuqtai nazardan yuqorida yerdan samarali foydalanishning mohiyati to'g'risidagi ta'rifni hisobga olish bilan yer resurlarini boshqarishning boshlang'ich uzoq muddatli maqsadini davlatning yagona yer zaxirasini barcha

xalq xo'jaligi manfaati, uning tarmoqlari va ayrim yerdan foydalanuvchilar manfaati uchun maksimal samarali foydalanishni ta'minlashni aniqlash mumkin.

Davlat yer kadastri hozirgi bosqichda O'zbekiston mintaqalari rivojlanishining va yer munosabatlarining tartibga solishning muhim mexanizmlaridan biridir. Axborotlar tizimi bilan umumdavlat va mintaqaviy vazifalarni yechimini ta'minlashda yer kadastri quyidagi sohalarda qator muhim harakatlarni amalga oshirilishiga imkon beradi:

1. Huquqiy munosabatlar sohasida – yerga egalik huquqini va ular bilan bitimlar tuzishning davlat ro'yxatga olinishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi sub'ektlari va hududiy tashkil topishi, jismoniy va huquqiy shakllari huquqlarini davlat tomonidan himoyalaniishi, yer uchastkalariga o'z huquqiga, foydalanuvchilar, egalik qiluvchilar, mulkdorlar ishonchini shakllantirish, davlat organlari va yerdan foydalanuvchi sub'ektlar o'rtasidagi mulkchilik huquqini chegaralash.
2. Iqtisodiyot sohasida – Davlat byudjetiga yer to'lovlarini ta'minlash va soliq solinadigan bazalarini kengaytirish, yerlarga kadastrli (iqtisodiy) baholashni o'tkazish, yerlarni bozor iqtisodiyoti sharoitida axborotlar bilan ta'minlash, yerlarga va boshqa ko'chmas mulklarga soliq solish, foydalaniladigan yer uchastkalaridan va ko'chmas mulklar ob'ektlari mexanizmini takomillashtirish, yer munosabatlaridan noqonuniy yoki asoslanmagan imtiyozlardan foydalanuvchi sub'ektlar sonini kamaytirish, korxonalar asosiy fondlari qiymatini ko'paytirish va ularni inqirozlardan himoyalash.
3. Ko'chmas mulklar bozorlarini shakllantirish sohasida - ko'chmas mulk bozorining ishlab turishning zaruriy sharoitlarini yaratish; davlat mulkchiligida turgan ko'chmas mol-mulkni boshqarish, yer uchastkalaridan foydalanuvchilarning huquqlarini mustahkamlash, foydalanish jarayonini takomillashtirish, davlatda yer narxining qimmatbaho qog'ozlari (yer veksellari, obligatsiyalar, garov majburiyatlari va h.k.) fond bozorida muomalasi va kirishni ta'minlash.

4. Bank va sug'urtasining rivojlanish sohasida - Yer uchastkalari binolar, uylar, turar joylar va boshqa ko'chmas mulklarga ipoteka va boshqa turdagi kreditlar berish bilan ipotekani kreditlashtirishning rivojlanishini ta'minlash, ko'chmas mulkka mulkchilik xuquqini sug'urtalash, davlat yer kadastridan axborotlar xuquqiy ahamiyatligini taqdim etish asosida boshqa ishtirokchilari, sug'urtalanuvchilar, narx belgilovchilar, banklarning bir-biriga ta'sir qilish mexanizmlari o'z-o'zini tartibga solish.

5. Investitsiya siyosati sohasida – investitsion loyihalarni moliyalashtirishning manbalaridan biri sifatida ipoteka kreditlashtirishdan foydalanish shuningdek, chetdan kapital kiritib, to'g'ri investitsiyalar jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish.

6. Uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilish va uy-joy siyosati sohasida - Turar joy mulkdorlar shirkatlari ishlab turishini va tuzilishini qo'llab-quvvatlash, joylashgan joyi, uning sifatidan bog'lig'likda turar-joy haqining miqdori differensiyasini asoslash, shuningdek uy-joy fondining boshqarma ob'ektiga va mulkchilik huquqini berish.

7. Yer resurslarini boshqarish va yerdan foydalanish sohasida- Sonlarini miqdor va sifat ma'lumotlarining hududiy bazasiga yer resurslarini boshqarish va rejalashtirish uchun to'la va aniq axborotlar taqdim etish, ko'chmas mulk ob'ektlarini shakllantirish vaqtida boshqarmalararo bir-biriga ta'sir qilishni ta'minlash, yerdan foydalanish holati uchun davlat nazorati va monitoringining o'tkazish, mintaqalarni hududiy taqsimlash va hududiy iqtisodiy rejalashtirishni ta'minlash, bosh rejalarning rivojlanishini aniqlash, davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yerlarni iste'moldan chiqarib olish (haq to'lash) mexanizmini yaratish.

8. Axborot xizmatlari sohasida - ob'ektlarni hisobga olish to'g'risida xabarlar ishonchliligini davlat e'tirof etgan yer kadastrli axborotlar ishonchliligini har qanday huquqiy va jismoniy shaxslarga, banklar, sudyalari, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchilarga taqdim etish, geodezik, loyiha qidiruv va boshqa ishlarni

ahborotlar bilan ta'minlash, shuningdek kadastrlar va boshqa boshqarma reestrlarni axborotlar bilan qo'llab-quvvatlash.

9. Yerdan foydalanishning barqarorligini ta'minlash sohasida -Ushbu uchastkalarda yer munosabatlari ob'ektiga huquqlar barqarorligini, uning xo'jaliklarga foydalanish barqarorligi, hududiy (makon), iqtisodiy va ekologik barqarorligini ta'minlash.

10. Ijtimoiy siyosat sohasida - Yangi ishchi o'rinlarini yaratish, ijtimoiy va madaniy-maishiy infrastrukturalarining rivojlanishi, ishlab chiqarish ob'ektlarini shaharlar markazidan chiqarish, yangi ijtimoiy tabaqalarini shakllantirish.

11.4. RESPUBLIKADA YER RESURLARINI BOSHQARISH

USLUBLARI


O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqlikda, davlat chegarasi doirasida, shu jumladan, barcha mintaqalar, viloyatlar va tumanlar ma'muriy hududlarida qonunlar asosida yer resurslaridan foydalanish ishlari boshqariladi. Respublikada yer resurslarini boshqarish bir necha bosqichlardan iborat bo'lib bular: davlat boshqaruvi, maxalliy boshqaruv va xo'jalik boshqaruvidan tashkil topgan.

Davlat boshqaruvi - davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda umumdavlat boshqaruv va idoraviy boshqaruvlarga bo'linadi. Umumdavlat boshqaruvi umumiy vakolatga ega bo'lgan yuqori davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular asosan O'zbekistonning yer resurslarini boshqarish sohasida strategik yo'nalishlarni belgilovchi, ularning davlat miq'yosida amalga oshirilishini ta'minlaydi. Idoraviy boshqaruv maxsus vakolatga ega bo'lgan, yer resurslarini boshqarish sohasiga faoliyati qaratilgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mahalliy boshqaruv – mahalliy davlat organlari tomonidan, jumladan, viloyat va tuman davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Mahalliy


boshqaruv organlari asosan davlat tomonidan belgilangan vaziflar va tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlovchi asosiy bo'g'in hosiblanadi.

Xo'jalik boshqaruvi – ma'lum bir maqsadda yerdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan amalga oshiriladi.



Yer resurslarini boshqarishda davlat boshqaruvi o'zining mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda umumiy va maxsus boshqaruv turlariga bo'linadi. Umumiy boshqaruv umumiy vakolatga ega bo'lgan qonun chiqaruvchi va uni ijro etuvchi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Maxsus boshqaruv yer resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish nazorat qilish buyicha maxsus vakolatga ega bo'lgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi sub'ekti O'zbekiston Respublikasi va uning sub'ektlari o'rtasida vakolatlarini chegaralash to'g'risidagi shartnoma bilan muvofiqlikda davlat yer resurslarini boshqarish bo'yicha vakolat oladi. Davlat boshqarish tizimi viloyat darajasida yakunlanadi, quyi joylashgan darajalar «O'zbekiston Respublikasida mahalliy o'z-o'zini boshqarish to'g'risida»gi qonunning 12-moddasi bilan muvofiqlikda mahalliy o'z-o'zini boshqarishga kiritilgan.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, tegishli vazirliklar va qo'mitalar orqali tumandagi yer resurslari va davlat kadastr bo'limi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ❖ O'zbekiston Respublikasining hukumati – davlat qo'mitasi organlari orqali barcha yerlarni umumiy boshqarishni, yerdan foydalanishni tashkil qilish va nazorati bo'yicha qator vazifalarni amalga oshirishni;
- ❖ Sog'liqni saqlash vazirligi va davlat ko'chmas - mulk qo'mitasi orqali tabiatni muhofaza qilish maqsadida yerdan foydalanganligi uchun davlat nazoratining bir qismini amalga oshirilishini;
- ❖ Adliya vazirligi organlari – yer taqsimoti va undan foydalanish bo'yicha nizolarni yechish hamda yer uchastkalaridan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazishda ishtirok etishini;

- ❖ viloyat va shahar ma'muriyatlari – yer toifalari hamda viloyat ahamiyatidagi yerlarni davlat mulkchiligiga o'tkazish masalalarini yechishdagi ishtirokini;
- ❖ boshqaruvchilik funksiyasining bajaruvchi shahar ma'muriyati shaharning o'z hududida uning sub'ektlari faoliyatini yerdan foydalanish bo'yicha tahlil qilish va tadbirlar ishlab chiqishni.

Jamoat tashkilotida o'rni va ahamiyatidan kelib chiqib, boshqarish sub'ektlari ko'rib chiqilganda har birining yerlarni boshqarishdan maqsadlari har doim ham mos kelavermaydi. Shuning uchun shaharning boshqarishning umumiy tizimini shakllantirish paytida yagona maqsadni ishlab chiqish emas, balki boshqarishning maqsadlar tizimini, ularning pogonalari va aloqadorligini ishlab chiqish zarur. Bu davlatning umumiy muammolarini aks ettiruvchi va davlat yer siyosatini amalga oshiruvchi yagona boshqaruvchilik qarorlarining uzviyligi, bir-birini to'ldirishini ta'minlaydi.

Viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi idoralari ko'proq tor maqsadlarga ega bo'lgan yerdan foydalanishning (huquqiy, iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy) sharoitlarini ta'minlashga intiladilar. Bunda viloyat hududidagi muassasalar, ixtisoslashtirilgan korxonalarning me'yorida ishlab turishlarini ta'minlashga boshqa vazifa deb qaraladi.

Shunday qilib, pirovard maqsadda yerdan foydalanishning tejamli tizimini tashkil qilish va amalga oshirish, ya'ni agrosanoat majmuasida va, umuman, iqtisodiyot tarmoqlarida ularni aniq maqsadga yo'naltirilganligini - yerni tejash va foydalanishda yuqori samaradorlikka erishish mezonini bo'yicha davlat yer zaxirasini, yer toifalari bo'yicha tabaqalashtirilgan mezonni ta'minlashdan iboratdir.

Ravshanki, bu yerda ayrim tadbirlarni chetlab o'tib bo'lmaydi. Binobarin, yerdan foydalanish masalasini yechishga, yangi sharoitda, majmualiy yondashuv talab etiladi. Biroq nafaqat oddiy tadbirlar majmuasi, balki yerdan foydalanish iqtisodiyotini tashkil etish, rejalashtirishning barcha tizimlarini maqsadga

yoʻnaltirilgan holda rivojlantirish, pirovard natijada yer resurslarini boshqarishning yaxlit va samarali tizimini yaratish lozim.

Shuning uchun soliq solish va budjet daromadlarini toʻplashni koʻpaytirishga imkoniyat beradigan yer resurslarini boshqarishning mintaq va mahalliy oʻz-oʻzini boshqarishda investitsiyalar jalb qilishning, yer munosabatlarining subʼektlari uchun kafolatlangan huquq bilan taʼminlashning samarali tizimini yaratishda yangi tamoyillar va uslublar vujudga keladi.

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlariga kiradi:

- ❖ yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ❖ Yer kodeksiga, boshqa qonun hujjatlariga muvofiq yer munosabatlarini tartibga solish toʻgʻrisida normativ hujjatlar qabul qilish;
- ❖ tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan davlat dasturlarini tasdiqlash;
- ❖ qishloq xoʻjaligining tabiiy moslashuvi jihatidan yerlarni rayonlashtirish, yer tuzishni, yer monitoringi oʻtkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish;
- ❖ davlat mulkidagi yerlarni tasarruf etish;
- ❖ yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishda vazirliklar hamda idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- ❖ yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga boʻlgan mulk huquqini belgilangan tartibda yer kodeksning 36-moddasiga muvofiq bekor qilish;
- ❖ yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini tashkil etish;
- ❖ yer munosabatlarini tartibga solish sohasida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

11.5. YER RESURLARINI BOSHQARISHDA NAZORAT VA QONUNLAR IJROSI

1991 yildan buyon mustaqil O‘zbekiston Respublikasida 200 dan ziyod qonunlarda va 1000 dan ortiq me‘yoriy hujjatlarda yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish normalari belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 19-oktabrdagi 483-sonli qaroriga muvofiq yer munosabatlarini tartibga solish uchun maxsus davlat boshqaruv organi – Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Davlat qo‘mitasi tashkil etildi. Tashkil etilgandan buyon o‘tgan yillar davomida u yerlardan samarali foydalanishni boshqarishga doir bir nechta huquqiy me‘yoriy hujjatlar qabul qildi va ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirdi.

Huquqiy tadbirlar kompleksi (yig‘indisi) – yerdan foydalanuvchilar, yer mulkdorlari, ijarachilar va mulkdorlarning yer uchastkalaridan maqsadli foydalanishlarning rag‘batlantirish, yerlardan samarasiz foydalanish sabablari va sharoitlarini bartaraf qilish, yer uchastkalaridan oqilona foydalanmaslikka doir huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf qilishning tezkor huquqiy imkoniyatlarini belgilash kabi o‘zaro bog‘langan va bir-biridan kelib chiqadigan huquqiy normalar majmui.

Yerga oid munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish- iqtisodiy huquqiy choralarni qo‘llash orqali Respublika yer fondini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni tashkil etishda davlat organlarining maqsadli faoliyati.

Yer resurslarini foydalanishning davlat boshqaruvi- hozirgi va kelajak avlod hamda yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar manfaatlarida yer munosabatlarini tartibga solish, yerlardan samarali foydalanish va muhofaza qilishni ta‘minlashga qaratilgan o‘zaro uzviy bog‘langan davlatning huquqiy, iqtisodiy, texnik va tashkiliy – xo‘jalik chora-tadbirlar tizimi.

Davlat organlari tizimi - vakolatlarining mazmuni va ahamiyatiga binoan guruhlashtirilgan va yerga oid munosabatlarni tartibga soladigan davlat organlarining yig‘indisi.

**Yer resurslarini boshqarishda nazorat qiluvchi davlat hokimiyati va
boshqaruv organlarining vakolatlari**

Oliy Majlis
-yer munosabatlarini tartibga solish borasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi -qonunlar qabul qiladi, ularga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritiladi -yerlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish borasida davlat dasturlarini tasdiqlaydi -yer munosabatlarini tartibga solish borasidagi davlat organlarining tashkil etish yoki ularning faoliyatini tugatish to‘g‘risidagi Prezident farmonlarini tasdiqlaydi
Prezident
-yer qonun hujjatlariga rioya etilishining kafilidir -yer munosabatlarini tartibga solish borasidagi qonunlarni imzolaydi -yer munosabatlarini tartibga solish borasida farmon va qarorlar qabul qiladi, farmoyishlar beradi -yer munosabatlarini tartibga solishda huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi
Vazirlar Mahkamasi
-yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishga doir dasturlarni, budjetni va istiqbolini ishlab chiqishni tashkil qiladi va ijrosini ta‘minladi -yer resurslarini davlat va xo‘jalik boshqaruvini takomillashtirish to‘g‘risida takliflar kiritadi va ishlab chiqadi -yerga oid huquqiy munosabat sub’ektlarini huquqiy muhofazalash va kafillashga yordam beradi -O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo‘mitasi faoliyati nazorat qiladi -yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi va me‘yoriy hujjatlar qabul qiladi -yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishda vazirliklar hamda idoralarning

faoliyatini muvofiqlashtiradi -yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini tashkil qiladi -yer munosabatlariga doir qonun kuchidagi me'yoriy hujjatlar qabul qiladi va ijrosini ta'minlaydi -yer resurslarini belgilangan maqsadda, oqilona va samarali foydalanish, yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi -yer tuzishni, yer monitoringini o'tkazilishini va davlat yer kadastri yuritishni tashkil qiladi -yuridik shaxslarga qishloq xo'jalik ehtiyojlari hamda boshqa davlat va jamoat ehtiyojlari uchun foydalanishga va ijaraga yer beradi
Viloyat va Toshkent shahar hokimiyatlari
-yer munosabotlariga doir qonun kuchidagi me'yoriy hujjatlar qabul qiladi va ijrosini ta'minlaydi -yer resurslaridan belgilangan maqsadda, oqilonga va samarali foydalanish, yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi -yer tuzishni, yer monitoringini o'tkazilishini va davlat yer kadastri yuritishni tashkil qiladi -yuridik shaxslarga qishloq xo'jalik ehtiyojlari hamda boshqa davlat va jamoat ehtiyojlari uchun foydalanishga va ijaraga yer beradi -yerdan foydalanish va yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqini beliglangan tartibda «Yer kodeksi» ning 36-moddasiga ko'ra bekor qilinadi -yer munosabatlarini tartibga solish sohasida viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalarni ham hal qiladi
Tuman va shahar hokimiyatlari
-yer munosabotlariga doir qonun kuchidagi me'yoriy hujjatlar qabul qiladi va ijrosini ta'minlaydi

- tuproq unumdorligini oshirish yerlardan oqilona va samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi
- yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi
- yer tuzishni, yer monitoringini o'tkazilishini va davlat yer kadastri yuritishni tashkil etadi
- yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni, yerni ijaraga berish shartnomalarini, shuningdek servitutlar to'g'risidagi kelishuvlarni davlat ro'yhatiga oladi
- yer munosabatlarini tartibga solish sohasida tuman va shahar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalarni ham hal qiladi

Yer nazoratining jazolash shakli-yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha qonun talablarini bajarmaydigan va ularga rioya etmaydigan huquqbuzarlarga nisbatan davlatning majburlovchi choralarini qo'llashga qaratilgan tekshirish turi.

Yerga oid qonunbuzarlik-yer qonun hujjatlari me'yorlari va talablarining yer munosabatlari sub'ektlari tomonidan buzilishi.

Yer qonunbuzarligi turlari-yer to'g'risidagi qonun hujjatlarida hamda milliy va xalqaro yuridik javobgarlik normalarida belgilangan talablarni buzish toifalari.

Yer toifalarining huquqiy holatini belgilash yer qonunchiligi quyidagi tamoyilni inobatga oladi:

- 1.Tuproqlarni, ayniqsa yuqori qimmatga ega bo'lganlarini qishloq xo'jaligida foydalanish.
- 2.Sug'oriladigan yerlarni iloji boricha noqishloq va o'rmon xo'jaligi yer toifalaridan chiqarmaslik.
- 3.Yerlardan qanday maqsadlarda foydalanmasin, ularni muhofaza qilish talablarining majburiyligi.
- 4.Har bir yer toifalarining ekologik vazifasini yo'qotib qo'ymaslik.

Boshqarishning predmetiga yerdan foydalanishni tashkillashtirish jarayoni, u ma'lum hududiy chegara doirasidagi aholining xilma-xil ehtiyojlarini ta'minlaydi. Ehtiyojlar yerdan foydalanishning boshqarishga tegishli bo'lgan turli-tuman usullarini qo'llashni taqozo etadi.

Bunday usullarga quyidagilar kiradi:

- ❖ Yerdan foydalanuvchi chegarasi qamrovida hududiy tashkillashtirishni amalga oshirish;
- ❖ Yerdan foydalanish jarayonining muhandislik ta'minoti (muhandislik kommunikatsiyalari);
- ❖ Yer uchastkasining huquqiy maqomini o'rnatish (mulkchilik, foydalanish maqsadi, ijara, chegaralash, saqlash vazifasi va boshqalar);
- ❖ Yerdan foydalanishning turlari (foydalanishga ruhsat berilganligi) va yo'nalishlarini o'rnatish;
- ❖ Yerdan foydalanishda samarali iqtisodiy va ekologik texnologiyalarini tadbiq etish;
- ❖ Yerning tabiiy va iqtisodiy holatining tahlili;
- ❖ Yerning miqdor va sifat holatiga va maqomiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa tadbirlar.

Yerlarni muhofaza qilish - yerlarning muhofazasiga yo'naltirilgan moddiy va moliyaviy choralarni ta'minlab berishga O'zbekistonning hozirgi bosqichdagi ishlab chiqarish kuchlariga monand ravishdagi ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etish. Yer kodeksining 28-moddasiga binoan yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish yo'lga qo'ygan yer munosabat sub'ektlariga bir qator iqtisodiy rag'batlantirish me'yorlari belgilangan.

Yerlarni muhofaza qilishning texnologik tadbirlari - yerlarni muhofazalashda yuqori unumdorlikka erisha oladigan texnologik jarayonlarni ta'minlab beruvchi uslub va uslublarni ishlab chiqish va tadbiq qilish choralari. Masalan, jarlangan va texnogen buzilgan yerlarni tubdan melioratsiya va rekultivatsiya qilishning ilmiy asoslangan usullarini yaratish.

Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning huquqiy ta'minlash usullari - yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning samarali yo'llari qo'llashni ta'minlaydigan huquqiy choralar yig'indisi. Ushbu usullar yer munosabati sub'ektlari uchun huquqiy imkoniyatlar yaratish va tartibga solishning kompleks huquqiy choralarning yaratishning huquqiy normalar tavsifi va yo'nalishlari orqali amalga oshiriladi.

Yerlarning muhofaza qilishning iqtisodiy rag'batlantirish tadbirlari - tuproq unumdorligini saqlash va uning qayta ishlab chiqarish qobiliyatini tiklash hamda yerlarni salbiy antropogen jarayonlardan saqlashga yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlarning ijobiy faoliyatlarining moddiy-moliyaviy qo'llab quvvatla bo'yicha tadbirlar kompleksi. Ularga: yer solig'i va ijara to'lovi bo'yicha imtiyoz berish, imtiyozli kredit berish, davlat budjeti hisobidan moddiy yordam ko'rsatish, yerlarni muhofaza qilish borasidagi kapital mablag' va qonun hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa tadbirlar kiradi.

Yer nazorati - yer resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan yer qonun hujjatlari normalaridagi talablarni davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda vakolatlangan idoralar va shaxslar yer munosabatlari sub'ektlar tomonidan bajarilishini tekshirish.

Davlat yer nazorati (inspeksiyasi) - davlatning mahalliy hokimiyat va maxsus vakolatli organlarining yer munosabati qatnashchilari (sub'ektlar) ning yer uchastkalaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir faoliyatlarini tekshirish.

Davlat yer nazorati (nadzor) - davlatning maxsus vakolatli organ (prokuratura) tomonidan yer munosabatlari sub'ektlari (jumladan davlat organlari va mansabdor shaxslar) faoliyati yer qonun hujjatlariga mosligini tekshirish (Prokuratura to'g'risidagi qonunning 3-moddasi).

Jamoat yer nazorati - yerlarni muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish borasidagi yer qonunchiligi talablariga rioya etishni nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan tekshirish

(Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunning 7-moddasi va Yangi tahrirdagi fuqarolarini o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunning 10 moddasi).

Yer nazoratini axborotlash shakli - ogohlantiruvchi va jazolovchi choralarni qo'llash maqsadida davlat nazoratining yer munosabati sub'ektlarining yer qonunchiligi talablarini bajarilishlariga doir zaruriy ma'lumotlarni yig'ish va ularni umumlashtirishga qaratilgan tekshiruv turi.

Yerdan foydalanishdagi qonunbuzarlik uchun jinoiy javobgarlik -Jinoyat kodeksi (14-modda), Yer kodeksi (90-modda) va umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalarida ko'rsatilgan jinoyatning hamma belgilarini o'zida aks ettirgan jazoga sazovor qilish.

Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish hollari aniqlangan taqdirda, mahalliy davlat organlariga yer uchastkalarini olib qo'yish, shu jumladan, yer ijarasi shartnomasini muddatdan oldin bekor qilish, shuningdek, yerdan foydalanishni cheklash va to'xtatib qo'yish to'g'risida materiallar taqdim etish huquqi berilgan.

- ❖ Yer qonunchiligini bartaraf etish to'g'risida ogohlantirish xati
- ❖ Yer qonunchiligi ma'muriy huquqbuzarligi to'g'risida bayonnoma
- ❖ Yer qonunchiligi buzilishi haqida ishni ko'rib chiqishga kelishi uchun chaqiriq qog'ozi
- ❖ Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish to'g'risida bayonnoma
- ❖ Yer qonunchiligi buzilganlik uchun ma'muriy javogarlikka tortish to'g'risida qaror

Boshqarish tizimini vujudga keltirish vaqtida axborot oqimlarining kamchiliklari:

1. Turil xil strukturalar to'playdigan bir xildagi axborotlar o'tishining paralleligi
2. Axborotlar shakllanish vaqtida mushtaraklikning yo'qligi har qaysi struktura tizimning rejali va hisobot ko'rsatkich ma'lumotlaridan hujjatlar formasi va

hakoza lardan foydalanadi. Axborotning bir xil massiv ko'rinishlari har xil davriyligi (har kuni, har oyda, har kvartalda) bilan bir necha marta namoyon bo'ladi. Mohiyatiga ko'ra bu bor axborot oqimining izchil takrorlanishidir.

3. Axborotning takrorlanishi. Axborotning bir xil massiv ko'rinishlari har xil davriyligi bilan (har kuni, har oyda, har kvartalda) bir necha marta namoyon bo'ladi. Mohiyatiga ko'ra bu bir axborot oqimining izchil takrorlanishidir;

4. Axborotning kechikishi. Boshqaruvchilik qoroning qabul qilinishi, axborotga ishlov berish, uzatish vaqti bo'lishi kerak, uning davomida boshqariladigan ob'ektga qaytarib bo'lmaydigan jarayon ro'y berishi mumkin;

5. Axborot to'plash shartlari va yagona talabning yo'qligi tufayli tez-tez ro'y berib turishi, axborotning to'laligi va ishonchliligining yetarli emasligi;

6. Axborotlar hajmining ortiqchaligi oqibatida ham xarakteri bo'yicha, ham hajmi bo'yicha ma'lumotlar va xabarlarning tartibsizligi;

7. Ma'lumotlarga ishlov berish va olishning har xil muddatlari va uslublari sababli axborotlarini taqqoslab bo'lmasligi;

Yer resurlarini umumiy davlat boshqarilishini-davlat mablag'i hisobidan butun jamiyat manfaatida davlatning hukumat organlari amalga oshiradilar. Shuning uchun bu organlar qabul qilgan qarorlar yer munosabatlarining barcha sub'ektlari uchun majburiydir. Davlat boshqarilishi davlatning hududiy ustunligi huquqiga asoslangan va mamlakatning barchalariga tarqatiladi. Davlat turli xil toifadagi fondining yerlariga farmoyish berish, foydalanish, egalik qilish bo'yicha o'zining vakolatligini realizatsiya qilinishini ta'minlaydi. Buday holda davlat yer sababi bo'yicha fuqarolik-huquqiy munosabatlarda, bu munosabatlarning boshqa ishtirokchilari kabi, ishtirok etadi.

Yerdan foydalanishni boshqarish uslublari yuqorida bildirilgan fikrlarni inobatga olgan holda takomillashtirish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish samaradorligi yanada ortiradi deb hisoblaymiz.

11.6. YER RESURSLARINI BOSHQARISHDA AXBOROT TA'MINOTI

Hozirgi vaqtda davlat yer kadastrining avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va yuritish, yer resurslari monitoringini yuritishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratishda yerning masofadan zondlash hujjatlari asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Jahon amaliyotida yer kadastrining avtomatlashtirilgan tizimi va qishloq xo'jaligi yerlari monitoringi tizimini tashkil etish o'ta muhim yo'nalishlardan biridir.

Raqamlangan yer kadastr xaritasida geoaxborot texnologiyasi (GAT) asosiy o'rinni egallaydi. Bu xaritani yaratish uslubi qo'llanib kelinayotgan an'anaviy usulga nisbatan tubdan farq qiladi. *Bu uslubda tuzilgan xaritalarning afzalligi shundaki, ular deyarli xatosiz bo'lib, yangi qo'shimcha axborotlarni ko'rsatib berishdan iborat:*

- ❖ qo'llanilayotgan an'anaviy usulga nisbatan tezkorligi;
- ❖ solishtirish imkoniyatining mavjudligi;
- ❖ iqtisodiy jihatdan afzalligi, vaqtda tejamkorligi.

U asosan, baza ma'lumotlarni yig'ishdan boshlanadi. Yig'ilgan birinchi ma'lumotlar deshifrovka qililib, raqamlanadi (har bir qatlam alohida, jumladan suv, yo'l, kanal, ko'p yillik daraxtzorlar, aholi yashash punktlari, elektr tarmoqlari va boshqa ko'rsatkichlarni belgilash mumkin).

Bu raqamlangan xaritalardan ko'pchilik tashkilotlar foydalanib, o'zining tematik xaritasini yaratish imkoniyati tug'iladi:

- ❖ yerlarni ro'yxatdan o'tkazishda;
- ❖ tuproq xaritasini tuzishda;
- ❖ xo'jalik yeridan foydalanuvchilar va kadastr xaritasini tuzish;
- ❖ yangi tuzilgan fermer xo'jalik ma'lumotlarini hududlarga joylashtirishda;
- ❖ kanal, suv omborlari, elektr uskunalari, gaz quvurlarini o'tkazish ishlarini rejalashtirishda;
- ❖ umumdavlat miqyosidagi loyihalarni asoslashda foydalanish mumkin.

«Yerdan foydalanishning yer ma'lumotlar bazasi»ni dasturiy majmuasini yaratishning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ❖ Microsoft Access – 2007 muhitida ma'lumotlar bazasining tarkibi hisoblangan jadvallar, shakllar, so'rovlar, hisobotlar (reestrlar) tarkibini ishlab chiqish;
- ❖ yerdan foydalanuvchilar ob'ektlari va yer uchastkalarining ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish;
- ❖ yo'qlama qilish bo'yicha ishlarni shakllantirish va tuman yer resurslari hamda davlat kadastr xizmatiga berishda kompyuterli hisobotlar shakllarini ishlab chiqish;
- ❖ dasturiy majmuadan foydalanuvchiga qo'llanmani ishlab chiqish.

Ma'lumotlar bankining tarkibi. «YERAVTOBANK» – bu yerdan foydalanish ob'ektlarida yo'qlama qilish ishlarini yuritish hamda ularni yer resurslari va davlat kadastr xizmatlariga berishda natijalarini ro'yxatga olish, saqlash, o'zgarishlarini kiritish hamda tahlil qilishga mo'ljallangan, Microsoft Access – 2007 ma'lumotlari katalog bazasi sifatida yaratilgan dasturiy mahsulotdir.

Ob'ektlar to'g'risida foydalanuvchi uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarning butun bir jamlanmasi asosan bir necha jadvaldan iborat bo'lib, ular o'rganilayotgan hududdagi ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bankini yaratish imkonini beradi. Bu tizim zaruriy jadvallar, shakllar, hisobot blankalari, klassifikatorlar bilan to'ldirilib, ko'pgina makroslarni o'z ichiga oladi.

11.7. RIVOJLANGAN DAVLATLARDA YER RESURSLARINI BOSHQARISHNING ILG'OR USLUBLARI

AQShda yer uchastkasi va ko'chmas mulklarni boshkarish maqsadida yerlarni o'rganish qishloq xo'jalik Vazirligidagi tuproqlarni muhofaza qilish maxsus xizmati tomonidan olib boriladi. Eng mahsuldor yerlarni aniqlash maqsadida yerlarni iqtisodiy jihatdan tasniflash o'tkaziladi. Yerlarni iqtisodiy baholashning Yagona uslubiyati mavjud emas. Alohida shtatlarda foydalaniladigan bir qancha uslubiyatlar mavjud.

AQShda yerlarni o'rganish qishloq xo'jalik Vazirligidagi tuproqlarni muhofaza qilish maxsus xizmati tomonidan olib boriladi. U markaziy organdan,

shtatlardagi filiallardan va tuproqni muhofaza qilish bo'yicha 2400 ga yaqin bo'linmalardan tashkil topgan. Tuproqni muhofaza qilish xizmati tuproq qatlamlarini o'rganishga katta ahamiyat beradi.

G'arbiy Yevropa davlatlarining kadastr tizimi umumiy jihatdan bir xildir, ya'ni uchastkalar registrini yuritish, kadastr xaritalar tuzish va huquqiy yozuvlarni yuritish. Rivojlangan davlatlarda, ya'ni yer egaliklarini hisob qilish texnikasi turlichadir, shunga qaramasdan ko'chmas mulk uchastkalarining reestri har bir mamlakatda mavjud. Bunday reestr odatda yerlarni ro'yxat qilish yer kitobi bo'yicha yoki uning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin. Kadastr uchun tasvirga olishlarning majmuasi sifatidagi va yerlarni ro'yxatga olish, qoidasiga binoan, yagona tashkiliy xizmatni yaratadi.

Markaziy Osiyo davlatlari agrosanoat majmuida yer uchastkasi va ko'chmas mulklarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, yer qonunchiligi va qonun osti me'yoriy hujjatlari asosida olib boriladi.

MDH davlatlarida yer kadastrasi asosan respublikamizda yuritilayotgan davlat yer kadastrining tamoyillariga hamda vazifalariga yaqin uslubda olib boriladi. Ammo shu bilan bir qatorda ba'zi bir xususiyatlarga egadir. Bunday xususiyatlar asosan MDH davlatlarida yer maydonlarining bir qismini xususiylashtirilganligi, to'g'ridan – to'g'ri bozor munosabatlariga tortilganligi bilan bog'liqdir.

Rossiyada yer bozorini shakllanishi, shuningdek qishloq xo'jalik yerlarida, boshlang'ich bosqichda turibdi. Yer uchastkasi bilan turli xil shartlar amalga oshiriladi: oldi-sotdi, ijara, garovga qo'yish (berish), xadya qilish, meros. Hozirgi paytda davlatning yer fondini 4% ini tashkil qiluvchi yer uchastkalar bilan oldi-sotdi ishlari har yili amalga oshiriladi. Shundan oldi-sotdi hisobotiga kiritilgan bir qismi bozorni qamrab olmaydi, bunday shartnomalarga merosdan merosga o'tish, xadya qilish kiradi. Bundan tashqari shartnomalarni katta qismini davlat va yerlari bilan qilingan shartnomalar kiradi.

G'arbiy Yevropa davlatlarida yer uchastkasi va ko'chmas mulklarga oid ma'lumotlarni doimiy ravishda yangilanib turishini ta'minlaydilar.

Umumevropa tushunchasi bo'yicha ingliz yer uchastkasi va ko'chmas mulklar tizimi umumiy qoidalardan farq qiladi. Angliyada kadastr faqatgina kartografik ma'lumotlardan iborat bo'lib, asosan yer uchastkalarining chegaralari xamda ko'chmas mulkning tarkibi to'g'risida ma'lumot beradi.

Fransuz yer uchastkasi va ko'chmas mulklar tizimining bosh maqsadi-yerlarni soliqqa tortishni ta'minlashdan iboratdir.

Germaniyada yer uchastkasi va ko'chmas mulklar yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarni soliqqa tortish bo'yicha keng ko'lamdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Gollandiya yer uchastkasi va ko'chmas mulklar xizmati yerga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan, ammo qonun bo'yicha ko'chmas mulkka kiradigan bir qancha qo'shimcha ma'lumotlarni ro'yxatini yuritib borishga mas'uldir.

Shvetsiyada yer uchastkasi va ko'chmas mulklar asta-sekinlik bilan ko'chmas mulk to'g'risidagi avtomatlashgan milliy ma'lumotlar bankini aholi, iqtisodiy statistika, soliqqa tortish va ro'yxatga olish to'g'risidagi ma'lumotlar banki bilan qo'shib ketishi natijasida yer va ko'chmas mulk to'g'risidagi ko'p maqsadli informatsion tizimga aylantirildi.

Norvegiyada yer uchastkasi va ko'chmas mulklar yer egaliklari va ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan informatsion kadastr tizimiga birlashtirilgan.

Finlandiyada ob'ektni kadastr baholash ishlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyati, qishloq hududlarining registri davlat tomonidan, shaharlar hududining registri esa munitsipal ma'muriyat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Italiyada yuritiladigan yer uchastkasi va ko'chmas mulklar tizimi Markaziy Yevropa tizimiga o'xshashdir. yer uchastkasi va ko'chmas mulklarni (yer uchastkalarining registri) yer egalari to'g'risidagi (yer registri bilan) ma'lumotlar bilan bog'liqligi faqatgina mulk egalari ismlaridan foydalangan holda mumkin bo'ladi.

Yer kadastrı bazasida ko'chmas mulklarni ro'yxatga olishning avtomatlashtirilgan tizimi Shvetsiyada, Avstriya, Daniya, Shvetsariya, Kanada, Germaniya va boshqa davlatlarda ishlab chiqilgan va bugungi kunda mavjuddir. Bu tizim quyidagilarga mo'ljallangan:

- ❖ yerdan foydalanish, boshqarish, rejalashtirishni nazorat qilishga;
- ❖ kadastr yozuvlaridagi huquqiy statusni tezkor ro'yxatga olishga;
- ❖ barcha manfaatdor tashkilotlarning yer kadastrı ma'lumotlariga tezkor yetishishga.

Avtomatlashtirilgan tizimni yaratish uchun axborotli asos bo'lib quyidagilar xizmat qiladi.

- ❖ xaritashunoslik materiallari;
- ❖ izohli reestrlar ko'rinishidagi matnli axborotlari;
- ❖ parametrik ma'lumotlarning sonli qiymatlari.

11.8. YER RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH VA ULARNI MUHOFAZA QILISHDA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLARNING ROLI VA VAZIFALARI

Mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va ekologik qonunlarida ko'rsatilgan talablarni o'z vaqtida bajarish hozirgi kunda juda katta ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy ahamiyatga molik masalaga aylandi. Bu masala o'z vaqtida aql-idrok bilan hal qilinmasa yoki tegishli nazorat organlari o'zlarining bu sohadagi faoliyatini takomillashtirmasa yoxud qabul qilingan qonun va qoidalar to'liq amalga oshirilmasa, aholining sihat-salomatligi, mamlakatimizning milliy xavfsizligi, qolaversa, yer yuzidagi barcha tirik mavjudotlarning hayoti xavf ostida qoladi .

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Ekologiya

hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir".

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ekologik tizimni sog'lomlashtirish, ekologik muvozanatni saqlash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash davlatning eng asosiy vazifalaridan biridir.

Bizga ma'lumki, davlat o'z oldida turgan vazifalarni vakolatli organlari orqali amalga oshiradi. Davlatning ekologik, jumladan yerga oid qonunlar ijrosini ta'minlashdagi organlari safida huquqni muhofaza qiluvchi organlar alohida ahamiyatga molik vazifalarni bajaradi.

Prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi, ma'muriy va jinoiy ishlarni qo'zg'atadi, yer resurslariga yetkazilgan zararni qoplash da'vosini qo'zg'atadi.

O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanish va uni ekologik muhofaza qilishda barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatori ichki ishlar organlarining ham muhim o'rni bor.

Ichki ishlar organlari O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning 8-moddasida ko'rsatilgan barcha toifalaridagi yerlarni, jumladan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, aholi punktlari, sanoat, transport, aloqa, mudofaa, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan, tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan, o'rmon, suv va zaxira yerlaridan oqilona foydalanish va ularni ekologik muhofaza qilish ishida aktiv ishtirok etadilar.

Jumladan, ichki ishlar organlari, ayniqsa «Profilaktika inspektorlari» aholi punktlari, shahar, dam olish, rekratsiyaviy mintaqalar va boshqa jamaot joylarining tozaligini nazorat qilishda o'z vazifasini amalga oshiradi.

Umuman olganda, ichki ishlar organlari yer resurslaridan to'g'ri va oqilona foydalanish maqsadida yer qonunchiligini tushuntirish, barcha toifa yerlardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza etish, profilaktik talablariga javob beradigan holatlarni belgilash, barcha kategoriya yerlarda ximiyaviy moddalar va boshqa

chiqindilar tashlashning oldini olish, yer to'g'risidagi qonunchiliklarning buzilishiga qarshi kurash ishlarini olib boradi.

Mustaqil o'rganish uchun savollar

1. Yer resurslarini boshqarish tushunchasi nima?
2. Boshqaruv tizimining shakllanish qonuniyatlari?
3. Davlat boshqaruvida yer resurslarini boshqarishning o'rni qanday?
4. Yer resurslarini boshqarishning tamoyillari va huquqiy asoslari nimalardan iborat?
5. Yer munosabatlarini tartibga solishda yer resurslarini boshqarishning o'rni?
6. Yer taqsimotining tizimli yondashuvi qanday?
7. Yer resurslarini boshqarishda axborot ta'minoti tushunchasi va mazmuni nimadar iborat?
8. Yer resurslarini boshqarish tizimida yer kadastr ma'lumotlaridan foydalanish?
9. Yer resurslarini boshqarish maqsadida yer kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimini tashkil qilish va yuritish?
10. Jahon yer resurslarini boshqarishning umumiy holati qanday?
11. Yer resurslarini davlatlararo boshqarish?
12. Markaziy Osiyo davlatlarida yer resurslarini boshqarish uslublari?
13. «Yer resurslariga nisbatan egalik qilish» tushunchasi va tartibi deganda nimani tushunasiz?
14. Yer monitoringi nima?
15. Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
16. Yer kadastr deb nimaga aytiladi?
17. «Yer resurslariga nisbatan servitut huquqi» tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari haqida so'z yuritish.
18. Yer resurslaridan foydalanishning turlari va tartibi qanday?
19. Servitut qanday maqsadlar yo'lida belgilanadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2017. "Gazeta uz"
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer xo‘jaliklari yurituvdagi yer uchastkalari miqdorlarini maqbullashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar haqidagi takliflarni ishlab chiqish bo‘yicha Maxsus komissiyani tashkil etish to‘g‘risida”gi 3077-sonli Farmoyishi. 2008 yil 6 oktabr
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 9 oktyabrdagi “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”g i4947-sonli Farmoni. // “Xalq so‘zi”, 2017 yil 8 fevral, 28-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan, Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 27 mayda 736-son bilan davlat ro‘yxatiga olingan “Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatiga olish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma.
6. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi 2003 yil 29 avgustda qabul qilingan Qonun (yangi tahriri)
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to‘g‘risida” 24.11.1994 yilda qabul qilingan PF-1009 sonli farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “1998-2000 yillardagi davrda qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi to‘g‘risida”gi 18.03.1998 yilda qabul qilingan PF-1978 sonli farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risida”gi 10.10.1998 yilda qabul qilingan PF-2086 sonli farmoni
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi 24.03.2003 yilda qabul qilingan PF-3226 sonli farmoni
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 11.03.2004 yilda qabul qilingan PF-3406 sonli
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2006 yilda qishloq xo‘jaligi kooperativlari(shirkatlari)ni fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 08.11.2005 yilda qabul qilingan PF-215 sonli farmoni
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 29.11.1994. yilda qabul qilingan №575 sonli qarori
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo‘jaliklarini mablag‘ bilan ta‘minlash, ularga bojxona imtiyozlari berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 10.09.2001. yilda qabul qilingan №366 sonli qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2004-2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 30.10.2003. yilda qabul qilingan №476 sonli qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligida ijara munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 05.11.2003. yilda qabul qilingan №486 sonli qarori.
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi

- faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 19.10.2004. yilda qabul qilingan №483 sonli qarori.
- 18.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2005-2007 yillarda fermer xo‘jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 24.12.2004. yilda qabul qilingan №607 sonli qarori.
- 19.O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 02.09.1993 yildagi qonun
- 20.O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan qonuni
- 21.Vazirlar Mahkamasining “Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati to‘g‘risida”gi 2005 yil 16 fevraldagi 66-son qaroriga 2-ilova sifatida qabul qilingan Nizom
- 22.O‘zbekiston Respublikasining “Davlat yer kadastr to‘g‘risida”gi 28.08.1998 yil qabul qilingan qonuni
- 23.Birlashgan Millatlar Tashkiloti O‘zbekistonga tegishli birinchi Atrof-muhit holati sharhi (Atrof-muhit holati 14-seriyasi) 2001 yilda chiqargan
- 24.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fermer xo‘jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2013-yil 31-yanvar 22-son qarori
- 25.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dehqon xo‘jaliklari va aholi tomorqalari yer uchastkalaridan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 30 yanvardagi 53-son qarori
- 26.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ayrim davlat kadastrlarini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 2005-yil 30-iyundagi 152-son qarori
- 27.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligida ijara munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2003-yil 5-noyabrdagi 486-son qarori

- 28.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida davlat yer kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi 1998-yil 31-dekabr, 543-son qarori
- 29.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning yer kadastriga doir axborotni vazirliklar va idoralarning hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va ulardan foydalanish tartibini belgilash to‘g‘risida” gi 2019 yil 17 iyul, 599-son qarori
- 30.O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida” qonuni 1992-yil 3-iyul, 654-XII-son
- 31.O‘zbekiston Respublikasining “Ijara to‘g‘risida”gi qonuni 1991-yil 19-noyabr, 427-XII-son
- 32.O‘zbekiston Respublikasining “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida” gi Qonuni 2004-yil 26-avgust, 662-II-son
- 33.O‘zbekiston Respublikasining “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida” gi qonuni 2019 yil 9 dekabrda O‘RQ-589-son
- 34.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni 2019 yil 17 iyun, PF-5742-son
- 35.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida yer monitoringi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi №496 sonli 2000 yil 23 dekabrda Qarori
- 36.O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Qonuni
- 37.O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarining davlat nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni
- 38.O‘zbekiston Respublikasining yangi qonunlari. 19-jild. T.,Adolat,1998. 56 b.
- 39.O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. T., Adolat, 2011
- 40.O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 1998 yil 30 aprel (yangi taxriri)

- 41.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (yangi tahrir)
- 42.O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi "O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'g'risida "Milliy hisobot" 01.01.2018 yil holati
- 43.J.T.Xolmo'minov, J.I.Safarov "Xorijiy mamlakatlarda tabiiy resurslar huquqi qiyosiy tahlil va qonunchilikni takomillashtirish". Monografiya Toshkent: 2012. — 228 b.
- 44.Avezbayev, S.N. Volkov, SH.S. Avezbayev "Yer tuzishning ilmiy asoslari": darslik. T.:, 2006. -176b.
- 45.Hakimov Islom "Yer rentasi va uning turlari. Agrar sohaning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni" "Iqtisodiy nazariyasi" fanidan Kurs ishi Toshkent-2014 yil
- 46.A.Babajanov, S.Ro'ziboev, Y.Usmonov, "Yerdan foydalanish asoslari" O'quv qo'llanma T., TIMI 2016.1756.
- 47.S.A.Avezboev, S.N.Volkov "Yer tuzishning ilmiy asoslari" O'quv qo'llanma. T., Yangi asr Avlodi, 2015 yil
- 48.D.N.Saidova, I.B.Rustamova, SH.A.Tursunov. "Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi". O'quv qo'llanma. T.: "O'ZR fanlar akademiyasi asosiy kutubxonasi" bosmaxonasi nashriyoti, 2016. – 257 b.
- 49.Payoz Musayev, Jahongir Musayev "O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" Toshkent 2019 yil
- 50.A.Haydarov "Fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirish" // "Birja" . 02.06.2016 yil
- 51.K.A.Ko'chkinov "Yerdan foydalanishga oid shartnomalarni huquqiy tartibga solish" Toshkent: 2012. – 17 b
- 52.<http://www.mii.gov.ru>;
- 53.<http://www.guz.ru>;
- 54.<http://www.map.ru>;
- 55.www.gis.com.